



MA'NAVIYAT YULDUZLARI

MA'NAVIYAT YULDUZLARI

**«O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»
Davlat ilmiy nashriyoti
Toshkent**

72(54)


M34

M34 Ma'naviyat yulduzlari / muharrir F. Hasanov. –
T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2011. 368-b.

Sharq mamlakatlari... Sharq falsafasi... Sharq mo'jizasi... Jahon sivilizatsiyasi-ning bugungi taraqqiyotiga tamal toshini qo'ygan buyuk Sharq ko'plab daholarni yetishtirgani hech kimga sir emas. Bu daholarning ko'pchiligi haqida to'liq yoki qisman ma'lumotga egamiz. Lekin yana bir qancha buyuk mutafakkir va donishmandlarimiz borki, ular to'g'risida hatto tasavvurga ham ega emasmiz. Ushbu kitob xuddi shu yo'nalishga xizmat qilib, bugungacha o'quvchilar nigohidan deyarli pinhon yotgan, IX asrdan XX asr boshigacha Markaziy Osiyoda yashab ijod etgan ko'plab ajdodlarimiz – mashhur shoirlar, falakshunoslar, riyoziyotchilar, muhaddislar hayoti haqida qisqacha ma'lumot berib, ularning qiyofasini namoyon etishi bilan madaniyat va ilm-fan olamiga muhim hissa bo'lib qo'shiladi.

Kitob o'quv yurtlari o'quvchi va talabalariga, umuman madaniy merosimizga qiziqqan keng kitobxonlar ommasiga mo'ljallangan.

269781/1



4702620100-261

M 358-2011

BBK 72(54)

ISBN 978-9943-07-153-7

© «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»
Davlat ilmiy nashriyoti, 2011

NASHRIYOTDAN

O'zbekistonning mustaqillikka erishuvi milliy madaniyatimiz tarixini o'rganishga, u haqida xolisona fikr bildirishga katta imkoniyat yaratdi, nomoddiy yodgorliklarimizni asrash, milliy qadriyatlarimizni tiklashga hamda qadimiy boy tariximizni bir yoqlamali yoritishdek, ma'lum jarayon va ilm-fan arboblarning faoliyati va xizmatini inkor etishdek noto'g'ri g'oyalar va usullardan tozalashga, hur fikrlilikka sharoit tug'dirdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» asarida yozganidek, «Bizning qadimiy va go'zal diyorimiz nafaqat Sharq, balki jahon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo'lganini xalqaro jamoatchilik tan olmoqda va e'tirof etmoqda. Bu tabarruk zamindan ne-ne buyuk zotlar, olim-u ulamolar, siyosatchi va sarkardalar yetishib chiqqani, umumbashariy sivilizatsiya va madaniyatning uzviy qismiga aylanib ketgan dunyoviy va diniy ilmlarning, ayniqsa, islom dini bilan bog'liq bilimlarning tarixan eng yuqori bosqichga ko'tarilishida ona yurtimizda tug'ilib kamolga yetgan ulug' allomalarning xizmatlari beqiyos ekani bizga ulkan g'urur va iftixor bag'ishlaydi».¹

Madaniy merosimizni, o'tmish qadriyatimizni keng va har tomonlama o'rganish hozirgi milliy ma'naviyatimizning chuqur tarixiy ildizlarini, shakllanish bosqichlari va xususiyatlarini ochib berish uchun zarurdir. Bu esa, o'z navbatida, milliy ong, milliy g'ururni, tariximiz, o'tmish avlodlar xizmatiga hurmat-e'tiborni, xalq mehnatiga, Vatanga sevgi tuyg'usini shakllantirish, yangi jamiyatimiz to'g'ri rivojini, kelajagini oqilona belgilash, yuksak demokratik davlat qurish uchun xizmat qiladi. O'zbekiston Fanlar akademiyasining akademigi, falsafa fanlari doktori Muzaffar Xayrullayev Markaziy osiyolik mashhur siymolar, allomalar, adiblar haqida tegishli mutaxassis olimlarga maqolalar yozdirib, «Ma'naviyat yulduzlari» nomi bilan atalgan kitobni nashrga tayyorlagan edi. Kitob qo'l-yozmasini akademik, tarix fanlari doktori A.Muhammadjonov, falsafa fanlari doktori O.Fayzullayev, tarix fanlari nomzodi O.Jalilov, filologiya fanlari doktori E.Karimov taqriz qilgan. O'zbekiston FA Abu Rayhon

¹ I s l o m K a r i m o v, Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch, Toshkent, «Ma'naviyat», 2008, 30-bet.



Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining ilmiy kengashi nashrga tavsiya etgan. Kitob Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti tomonidan 1999- va 2001-yillarda M.M.Xayrullayev mas'ul muharrirligi-da kirill alifbosida nashr etilgan.

Ushbu kitob keng o'quvchilar ommasi tomonidan qizg'in kutib olin-di va tezda noyob kitoblar sirasiga aylandi.

Shu o'rinda muhtaram Prezidentimizning yuqorida tilga olingan kito-bida ta'kidlangan quyidagi purma'no so'zlarni ham keltirib o'tish joizdir: «Bizning o'z oldimizga qo'ygan maqsadimiz... ulug' zotlarning hayot yo'li va qoldirgan merosini to'liq tasvirlash emas, balki ularning eng buyuk namoyandalari timsolida ma'rifat, ilm-u fan, madaniyat, din kabi sohalar-ni barchasini o'zida uyg'unlashtirgan xalqimizning ma'naviy ilmi naqa-dar boy va rang-barang ekanini isbotlab berishdan iboratdir. Bunday noyob va bebaho boylikni har tomonlama chuqur o'rganish, uning ma'no-maz-munini farzandlarimizga yetkazish masalasi barchamiz, birinchi galda, ziyolilarimiz, butun jamoatchiligimiz uchun ham qarz, ham farz bo'lishi shart, deb hisoblayman. Nega deganda, o'zimiz – bugun shu yurtda yasha-yotgan vatanparvar insonlar bu vazifani o'z zimmamizga olmasak, chetdan kelib hech kim hech qachon bu ishni qilib bermaydi».¹

Shu fikrdan kelib chiqib, «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Dav-lat ilmiy nashriyoti mustaqillik davrida lotin alifbosida savod chiqargan bugungi avlod – hozirgi o'quvchi va talabalarga mo'ljallab noyob kito-blarni nashr etib hormoqda.

Qo'lingizdagi «Ma'naviyat yulduzlari» majmuasi shu maqsadda nashr etilgan kitoblardan biridir. Oldingisidan farqli ravishda ushbu nashrda hozirgi kun nuqtayi nazaridan ba'zi o'zgarishlar va tuzatishlar qilindi.

Nashriyot «Ma'naviyat yulduzlari» kitobini ikki jildda nashr etishni rejalashtirgan. Birinchi jild, ya'ni qo'lingizdagi kitob IX asrdan XX asr-ni boshigacha bo'lgan davrda Markaziy Osiyoda yashab ijod etgan yirik mutafakkirlar, shoir-yozuvchilar, donishmand-olimlar haqida qis-qacha ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Ikkinchi jild XX asrning boshidan hozirgacha bo'lgan davrda O'zbekistonda mashhur-u ma'lum bo'lgan yozuvchi, ma'rifat arboblari, san'atkorlar, olimlar to'g'risidagi maqolalar-ni o'z ichiga oladi. Bu maqolalar asosan 12 jildli «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»da berilgan maqolalar asosida tayyorlandi.

Kitob yuzasidan kitobxon bildirgan fikr-mulohazalarni mamnuniyat bilan qabul qilamiz va oldindan minnatdorchilik bildiramiz.

¹ I s l o m K a r i m o v, Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch, Toshkent, «Ma'naviyat», 2008, 44-bet.



MARKAZIY OSIYODA IX–XX ASR BOSHIDA MADANIYAT RIVOJI TARIXIDAN

Markaziy Osiyoda IX–XII asrlarda ilk madaniy uygʻonish

Markaziy Osiyo xalqlari uzoq tarixga ega. Miloddan avvalgi I-ming yillikda bu oʻlkada, yunon manbalarida koʻrsatilishicha, skif (sak)lar deb nomlangan xalqlar istiqomat qilgan. Lekin aholi oʻzi yashagan joyning nomiga qarab turlicha atalgani ham adabiyotlarda keltiriladi. Masalan, Amudaryoning quyi oqimi boʻylarida yashaganlar – xorazmiylar, Zarafshon vodiysida yashaganlar – sugʻdlar, Murgʻob daryosi vodiysida yashaganlar – margʻiyonlar, Fargʻona vodiysida yashaganlar – parikanlar kabi nomlar bilan maʼlum boʻlgan.

Markaziy Osiyo janubidagi vodiylarda miloddan avvalgi II ming yillikda ilk shaharsozlik madaniyati markazlari vujudga kelgan. Miloddan avvalgi VI asrda eng yirik dinlardan – Zardushtiylik shakllangan. Miloddan avvalgi VI–IV asrlarga kelib bu oʻlkalar Eron davlati tomonidan, IV asrda esa Aleksandr Makedonskiy (Iskandar Zulqarnayn) tomonidan bosib olingan, bu yerda yunon va yerli xalqlarning madaniyatlari qorishgan davlatlar vujudga keldi. Yerli madaniyatga yunon madaniyati, afsonalari maʼlum darajada taʼsir koʻrsatadi va aksincha, xalqlarimiz hayoti, afsonalari haqidagi maʼlumotlar qadimgi yunon mualliflarining asarlariga kirib boradi. Masalan, Gerodot, Ktezziy, Polien, Ksenofont, Strabon asarlarida qadimgi xalqlarimizdagi turli madaniy-maʼnaviy qadriyatlar, xalq qahramonlari: Sparetra, Zarina, Toʻmaris, Shiroq haqidagi maʼlumotlar keltiriladi.

Bu davrda Markaziy Osiyoda keng tarqala boshlagan Zardushtiylik faqat sof dingina boʻlib qolmasdan, oʻz davri maʼnaviyatining eng muhim yoʻnalishini tashkil qildi, oʻsha davrdagi xalqlarning madaniyati, maʼnaviyati, urf-odati, axloqi kabi masalalarni oʻzida aks ettirdi va ularga taʼsir ham koʻrsatdi.

Zardushtiylikning asosiy qoidalari Xorazmda yaratilgan «Avesto»da oʻz ifodasini topgan. Zardushtiylik dastlab mehnatkash xalqning axloqiy qoidalarini oʻzida ifodalagan boʻlsa, keyinroq ruhoniylar qoʻlida siyosat

Yuzgizilarning asosiy quroliga aylanib qoldi. Bu davrga kelib Xorazmdagi yerli xalqlarning davlatchiligi shakllana boshlagan. Milodning III asri 30-yillarida Moniy (taxminan 216–277) asoslagan moniylik harakati va ta’limoti vujudga keldi. Bu ta’limot hukmron ruhoniy zodagonlar ta’limotidan farqli o’laroq, muhim ma’naviy qadriyatlar – adolat, erkinlik kabilarni targ’ib qildi.

V–VI asrlarga kelib Eronda zardushtiylikka, ijtimoiy tengsizlikka qarshi qaratilgan Mazdak boshlab bergan mazdakiylik ta’limoti shakllandi. Bu ta’limotning asosiy g’oyasi mulkiy tenglikni o’rnatishdan iborat. Mazdakning fikricha, buni zo’rluk yo’li bilan amalga oshirish mumkin. Mazdak 529-yili qatl qilingan. VI–VIII asrlarda sharqda Turk xoqonligi vujudga keldi. U Erondagi sosoniylar bilan ittifoq tuzib, eftaliylarga qarshi kurash olib bordi va Markaziy Osiyo xalqlarini o’ziga qaratdi. Qadimgi turkiy til keng tarqala boshladi.

Qadimgi davr madaniyati, ma’naviyati, jumladan, axloq, ma’rifat, ta’lim-tarbiya haqidagi fikrlar xalq og’zaki adabiyotida, folklorida, turli xalq an’analarida ham o’z aksini topib kelgan. Go’ro’g’li, Alpomish, Rustam haqidagi dostonlarda xalqimizning qadimgi urf-odatlarini, ruhiyati, xulq-odoblarning ifodasini uchratishimiz mumkin. Bunday ma’lumotlar qadimgi sug’d, manixey, xorazm, turkiy yozuvlar namunalarida saqlanib qolgan manbalarda ham uchraydi.

Bu davrda Markaziy Osiyo qadimgi Sug’d, Xorazm, Farg’ona, Shosh, Ushrushona, Chag’oniyon kabi o’lkalardan iborat bo’lib, G’arb bilan Sharq mamlakatlari bog’lovchi Buyuk ipak yo’li markazida joylashgan va madaniy jihatdan ancha rivojlangan mintaqani tashkil etgan.

Islomning vujudga kelishi bilan bog’liq holda yangi shakllangan arab davlati xalifalik nomini oldi. VIII asrda Markaziy Osiyo ham arablar tomonidan (Qutayba ibn Muslim boshchiligida) istilo etilib, xalifalikka bo’ysundirildi. Arablar Amudaryo va Sirdaryo o’rtasidagi boy vodiyni Movarounnahr deb atay boshladilar. Arablar o’zlari bilan yangi din – Islomni olib keldilar, bo’ysundirilgan xalqlar orasida turli yo’llar bilan bu dinni tarqata boshladilar. VIII asrning oxirlarida Atlantika okeanidan Tyan-Shangacha, Kavkazdan Hind okeanigacha bo’lgan ulkan hududda, turli tillarda gaplashuvchi xalqlarni o’z ichiga olgan Arab xalifaligi vujudga keldi. Markaziy Osiyoda Islom orqali arab tili va arab yozuvi ham tarqaldi. Qadimgi yozuvlar: xorazm, sug’d, turk yozuvlari yo’qotilib, ularning himoyalovchilari jazolandi.

Arab bosqinchilariga qarshi Abu Muslim, Muqanna, Hamza al-Xorijiy, Horis ibn Surayj, Rofi ibn Lays boshchiligida xalq qo’zg’olonlari bo’-



lib o'tdi. Bu qo'zg'olonlar ayrim hollarda diniy tus oldi. Ayniqsa, Muqanna boshliq «Oq kiyimlilar» qo'zg'oloni mustaqillik uchun olib borilgan uzoq yillik harakat sifatida xalq ongida chuqur iz qoldirdi.

Islom dini o'rnatilgan Osiyoning juda katta hududi keyinchalik musulmon Sharqi nomini oldi. Xalifalik keyinchalik (IX–XII asrlar) kuchsizlanib, faqat Yaqin Sharq doirasi bilan chegaralanib qolsa-da, islomning boshqa xalqlar orasida tarqalishi davom etdi.

VII asrning 2-yarmidan boshlab islom ichida shialar, xorijiyalar, mu'taziliylar, jabariylar kabi turli oqimlar vujudga keldi. IX–XI asrlarda islom dini doirasida tasavvuf shakllandi va musulmon Sharqiga tarqaldi.

VIII asr oxiri IX asr boshida xalifalikning markazi Bag'dodda ilm-fan rivojlandi, qadimgi yunon olimlari Sokrat (Suqrot), Platon (Aflotun), Aristotel (Arastu), Gippokrat (Buqrot), Galen (Jolinus), Yevklid (Iqlidus) asarlari arab tiliga tarjima etildi. Xristian va islom olimlari o'rtasida hamkorlik ishlari avj oldi. Xalifa Horun ar-Rashid vafot etgach (809-yil), uning o'g'illari Muhammad al-Amin, so'ng al-Ma'mun xalifa bo'lgan. Ma'mun ilm-fan, madaniyatga qiziqqan odam bo'lib, unga qadar xalifalikning Movarounnahr va Xuroson bo'yicha noibi sifatida Marvda (xarobalari hozirgi Mari yaqinida) hokimlik qilar edi. Otasining o'limidan so'ng akasi Amin bilan kurash olib borib, 813-yili xalifalikni qo'lga kiritadi. Lekin 819-yilga qadar Marvda turadi. Shu yillar ichida Marv xalifalik markazi mavqeiga ega bo'ladi. Ma'mun xalifa sifatida Bag'dodga ko'chgach (819-y.), u yerda ilmiy markaz tashkil etib, unga barcha musulmon o'lkalari, jumladan, Movarounnahrda ham olim-u fozillarni to'pladi.

Manbalarda Ma'mun Marvdalik vaqtida turkiy askarlardan tashqari Movarounnahr, Xuroson shaharlaridan yosh iste'dodli olim-fozillarni tanlab o'z saroyiga jalb etganligi, ularni o'zi bilan Bag'dodga olib ketganligi haqida ma'lumotlar uchraydi. Bu olim-fozillar orasida Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oniy, Abu Mansur Marvaziy, Javhariy, Sag'oniy, Marvudiy kabilar bo'lgani va ular Bag'dodda shakllangan ilm Markazida ulkan ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirgani, shu ilmiy markazning shuhratini ko'tarishga, o'z davri madaniyati rivojiga buyuk hissa qo'shganliklari ma'lumdur. Ular, xususan, astronomiya sohasida, astrolabiya, astronomik asboblarni yaratib, shuningdek, matematika va uning algebra, geometriya kabi sohalarida jahonshumul ishlarni amalga oshirib mashhur bo'lganliklari, nom qozonganliklari haqida ham tarix guvohlik beradi. Bu ilmiy markaz tarixda «Bayt ul-hikma» («Donishmandlar uyi») nomi bilan mashhur bo'lib, uning faoliyatida ulkan yutuqlarni qo'lga kiritishda Markaziy osiyolik yirik olimlar oldingi safda turib, izchil ish olib bordilar.



Markaziy Osiyoda arab xalifaligining ta'siri susayib, yerli zodagonlar, xususan Tohiriylar hamda Somoniylarning nufuzi kuchaya bordi. IX asrning oxiriga kelib Markaziy Osiyo mustaqillikka erishdi va bu yerda Somoniylar hukmronligi shakllandi. So'ng bu hududda G'aznaviylar, Saljuqiylar, Qoraxoniylar, Xorazmshohlar davlatlari faoliyat ko'rsatdi. Buxoro, Samarqand, Marv, Ko'hna Urganch, Xiva kabi shaharlar o'z davrining madaniyat markazlari sifatida ma'lum bo'ldi. Bu yerlarda savdo-sotiq, hunarmandchilik, ijtimoiy-siyosiy hayot hamda madaniy aloqalar, bilim o'choqlari rivoj topdi. Bunday iqtisodiy-madaniy markazlar ulkan musulmon Sharqining turli o'lkalarini, G'arb va Sharq, Shimol va Janub mamlakatlarini bog'lab turuvchi qadimgi Buyuk ipak yo'li an'analari davom ettirgan holda, aloqa o'choqlari sifatida mashhur bo'ldi. Movarounnahr davlatlari boshqa musulmon o'lkalar bilan yaqindan aloqa o'rnatdilar, yerli olimlar o'zga mamlakatlarga borib ilm olish, hamkasblari bilan yaqindan muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'ldilar.

Bu davrda Markaziy Osiyodan Xorazmiy va Farg'oniy, Imom Buxoriy va Termiziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy, Ismoil Jurjoni, Marg'inoniy, Zamaxshariy, Mahmud Koshg'ariy kabi ulkan olimlar yetishib chiqdi. Ular ijodlari, asarlari bilan o'z xalqlarini dunyoga mashhur qildilar.

Adabiyot sohasida ham Markaziy Osiyo dunyo madaniyatida o'chmas iz qoldirgan nomlar bilan mashhur bo'ldi. Rudakiy, Daqiqiy, Yusuf Xos Hojib kabilar shular jumlasidandir. Manbalarda fors, turk va arab tillarida ijod qilgan juda ko'p shoirlar haqida ma'lumotlar saqlangan. Bu davrda yashab ijod etgan Abu Mansur as-Saolibiy (961–1038) Buxoro va Xorazmda yashab, arab tilida ijod etgan bir necha shoirlar haqida ma'lumotlar keltiradi. Markaziy Osiyoda ilm-fan, madaniyat rivojida X asr oxiri – XI asr boshida faoliyat ko'rsatgan Xorazmshoh Ma'mun asos solgan ilmiy jamoa – markaz – Ma'mun akademiyasi muhim rol o'ynadi.

Mahalliy davlatlarning o'zaro urushlariga qaramay me'morchilik, qurilish ishlari, hunarmandchilik, obodonchilik, madaniy aloqalar ham tez sur'atlar bilan avj oldi. Madaniyatning turli sohalaridagi bunday yuksalish avvalambor arab mustamlakachiligidan qutulish, yerli mustaqil davlatlarning vujudga kelishi, boy madaniy an'analarning tiklanishi natijasi edi. Shu bilan birga Markaziy Osiyoning juda katta mintaqadagi musulmon Sharqi davlatlari bilan din va til asosida madaniy aloqalarining kuchayishi ham bu madaniy yuksalishda muhim sabab bo'lib xizmat qiladi.

XI asrdan boshlab Markaziy Osiyoda ham tasavvuf keng tarqala boshladi. Xususan, Yusuf Hamadoniy (1048–1140) Buxoroda tasavvuf

ta'limotini o'rgatish va targ'ib etishga kirishdi. Birinchilardan bo'lib uning qo'lida Xoja Ahmad Yassaviy (vafoti 1166-yil) ta'lim oldi, tasavvuf sirlarini o'rgandi va Turkistonga borib, u yerda tasavvufni targ'ib qildi. Uning ta'limoti Yassaviya nomini oldi.

Hamadoniy ta'limoti asosida Abdulxoliq G'ijduvoniyning Xojagon tariqati vujudga keladi. So'ng shu tariqat Bahouddin Naqshband (XIV asr) davrida keng yoyilib, Naqshbandiya yo'nalishini tashkil etadi.

XII asrda Xorazmda ham tasavvuf keng yoyila borib, Najmiddin Kubro (1146–1221) boshchiligida tasavvufning Kubraviya oqimi shakllanib, Markaziy Osiyo va boshqa Sharq mamlakatlarida keng yoyildi.

Tasavvuf ta'limotlari boshqa musulmon mamlakatlarida bo'lganidek, Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati va ma'naviyatining so'nggi rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi.

Qadimgi arab va fors tilidagi manbalarda bu davrda yashab ijod etgan juda ko'p olim-u fuzalolar, qomusiy bilim egalari, badiiy so'z ustalari haqida ma'lumotlar keltirilgan. Masihiy, Habash al-Hosib, Bayhaqiy, Is'hoq al-Buxoriy, Daqiqiy, As-Suxayliy al-Xorazmiy, Abdulla Xorazmiy Abu-l-Fadl, Al-Xorazmiy al-Adoliy, Ahmad al-Axsikatiy, Saolibiy al-Muzaffar al-Naysaburiy, Rashididdin al-Vatvot, Zakariya al-Forobiy kabilar shular jumlasidandir. Bu allomalarning hammasi haqida hikoya etish imkonini yo'q, nimagaki, ularning ko'pchiligining hayoti va ijodi hali o'rganilmagan yoki ular haqida kam ma'lumotga egamiz.

Juda ko'p manbalarda VIII–XIII asrlarda hunarmandchilik, savdo-sotiq, savdo yo'llari, dehqonchilik, qurilish ishlarining avj olinganligi, shuningdek, Samarqand, Buxoro, Shosh, Biskent, Axsikat, Farg'ona, Quba, Marg'inon, O'sh, O'zkand, Havokand, Xo'jand, Jand, Urganch, Xiva, Marv, Termiz kabi rivoj topgan shaharlar, ulardagi me'moriy yodgorliklar, bozorlar, obodonchilik haqida muhim ma'lumotlar keltiriladi. Markaziy Osiyoda arab, fors va turkiy tillar keng tarqalganligi, aholi o'rtasida, ayniqsa, turkiy va forsiy tildan keng foydalanilganligi haqida ham noyob ma'lumotlar serobdir.

Arab tili Markaziy Osiyoni islom dini, arab dunyosi, bu tilda yaratilgan madaniy-ma'naviy boyliklar, qilingan tarjimalar yordamida qadimgi islom ilmiy-madaniy boyliklaridan bahramand bo'lishga olib kelgan bo'lsa, fors tili qadimgi va o'rta asrdagi Eron madaniyatini, she'riyatini chuqur o'rganish, madaniy aloqalarni rivojlantirish imkonini berdi.

Keng tarqalgan turkiy til O'rta Sharq va shimoldagi, Sharqiy Turkistondagi barcha turkiy tilli qabilalar bilan tarixiy aloqada bo'lishga olib

keldi. Ko'p tillilik bu davr rivojlangan madaniyatining muhim xususiyati va muhim sabablaridan biri hamdir.

IX–XII asrlar davomida Movarounnahr butun musulmon olamida ilmiy-madaniy jihatdan eng rivoj topgan o'lka sifatida mashhur bo'lib, u yerda qadimiy an'analar bilan arab, fors, qisman hind hamda qadimgi yunon ilmiy-madaniy an'analari qorishuvi asosida islomiy, falsafiy va tabiiy ilmlar – astronomiya, matematika, tibbiyot, kimyo, dorishunoslik, jug'rofiya kabilar rivoj topdi. Bu yerda mashhur hadisshunoslik va islom fikrshunoslik maktablari shakllanib, tarixshunoslikda ham muhim asarlar vujudga keldi.

Bu davr ma'naviyatining muhim tomonlaridan biri shundaki, olim, donishmand, shoirlarning ko'pchiligi qomusiy bilimlarga ega bo'lib, ilmlar bir-biridan ajralmasdan, uzviy bog'liq holda mavjudligi xarakterli edi. Shuning uchun ham Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Zamaxshariy, Ismoil Jurjoniylar juda ko'p sohalarida ijod etib, o'chmas iz qoldirdilar. Shu bilan birga matematika, astronomiya, tibbiyot, mantiq, tilshunoslik, tarix kabi ilmlar, madaniyat, ma'naviyatning rivojida nihoyatda muhim ahamiyat kasb etganini, islom dinining nazariy masalalari bilan birga axloqiy tomonlari ham keng rivoj topganini ko'ramiz.

IX asrda maxsus islom ilmlari shakllandi. Bu davrda ayrim mualliflar keltirgan ilmlar tasnifida dunyoviy (an'anaviy) ilmlar bilan birga arab (islom) ilmlari ham qayd etiladi. Birinchisiga yunonlardan o'tgan falsafa, matematika, fizika va boshqa ilmlar kiritilgan bo'lsa, islom ilmlari sifatida kalam, hadis, fiqh kabi ilmlar sanab o'tiladi. Movarounnahr bu davrda faqat dunyoviy ilmlarnigina emas, balki islom ilmlarining ham rivojlanish markaziga aylangan edi. Buxoriy, Termiziy, Dorimiy, Najmiddin Kubro, Mahmud ibn Umar Zamaxshariy, Qaffol ash-Shoshiy, Moturidiy, Marg'inoniy, Kosoniy kabi allomalar bu sohada mashhur bo'ldilar. Umuman, bu davrda islom musulmon Sharqida nafaqat din sifatida, balki yaxlit madaniyat, ma'naviyatning shakllanishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. U madaniyatning boshqa sohaları: ilm-fan, san'at, axloq, siyosat kabilarining rivojiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Musulmon Sharqi, shuningdek, Markaziy Osiyo uyg'onish davri madaniyati yuqorida ko'rsatilgan o'ziga xos xususiyatlarni ifodaladiki, bu xususiyatlar bu yerda madaniyat, ma'naviyatning so'nggi rivojini belgilashda ulkan rol o'ynadi.

O'sha davr muarrixlari, sayyohlari Qiftiy, ibn Usayba, ibn Xalliqon, Yoqut Hamaviy, Aruziy Samarqandiy, Saolibiy, Bayhaqiy va boshqalar arab tilida Markaziy Osiyo shaharlaridagi madaniy hayot, olim, shoir, adib, turli madaniy arboblarni tasvirlovchi turli asarlar yozib qoldirganlar.



IX–XII asrlarda Markaziy Osiyoda tarqalgan va rivojlangan tasavvuf ta’limotlari, oqimlari ham jamiyat ma’naviy hayotining rivoji uchun xizmat etib, uning o’ziga xosligini belgilashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Ma’lumki, G’arb adabiyotlarida Ovro’po mamlakatlarida keskin madaniy yuksalishga olib kelgan XV–XVII asrlarni Renessans – Uyg’onish davri nomi bilan yuritadilar. Biroq ko’pchilik mualliflar Sharqda shunday jarayon bo’lganligidan ko’z yumadilar. Holbuki, IX–XII asrlarda Markaziy Osiyoda Ovro’padan bir necha asr ilgari madaniy yuksalish yuz berganligini hech kim inkor eta olmaydi. U Ovro’padagidek yangi siyosiy-iqtisodiy jarayon, ya’ni burjua munosabatlarining vujudga kelishi bilan bog’liq bo’lmagan bo’lsa-da, madaniyat tarixida so’nmas iz qoldirdi va Ovro’po Renessansining vujudga kelishiga katta ta’sir ko’rsatdi.

Shuning uchun biz IX–XII asrlardagi Markaziy Osiyo madaniy yuksalishini Uyg’onish davri, aniqrog’i, ilk Uyg’onish davri deb atashga ham to’la asosimiz bor. Bu ilk Uyg’onish davri madaniyati siyosiy-iqtisodiy jihatdan Ovro’po mamlakatlaridan farqli o’laroq mustaqillikka erishish va bu mintaqada mustaqil davlatlarning vujudga kelish jarayoni bilan uzviy bog’liqdir.

Bu davr madaniy yuksalishi haqida gap borar ekan, ma’naviyatga, Uyg’onish davri madaniyatiga xos quyidagi xarakterli tomonlarni qayd etib o’tish mumkin:

– koinotning vujudga kelishi, bosqichlari, olamning tuzilishi, modda va ruhning xususiyatlari kabi umumiy ilmiy-falsafiy masalalarga qiziqish, ilm-fan, ma’rifat, ma’naviyatga intilish ijtimoiy rivojlanishning muhim mezoniga aylandi;

– insonni koinotni Yaratguchining eng oliy mahsuli deb baholash. Avvalo ilm, inson ahli tafakkurini ulug’lash, unga ishonch bildirish, targ’ib-tashviq etish, ma’rifat tarqatish, jamiyat, jamoani yaxshilikka eltishi insonning muhim vazifasi deb bilish;

– axloq, odob, muomalani inson tarbiyasining asosiy maqsadlaridan deb bilish. Insonning adolat, yuksalish, ma’naviyatga intilishiga yo’l ochish, imkoniyat yaratish. Aqlda, axloqda, ma’naviyatda yetuk bo’lish, komil insonni yaratish, insonparvarlik, vatanga, odamlarga xizmat qilish, insonlar orasidagi do’stlik, o’zaro yordam, ko’maklashuvga chaqirish;

– komil inson rivojlangan davlatchilikda shakllanadi. Bunday davlatchilik esa aql va ilmga, o’zaro kelishuv, birlikka ega bo’lish natijasida amalga oshiriladi. Mustahkam davlatchilik turli ilm-fan tarmoqlarining rivojini ta’minlaydi;

– mustahkam davlatchilik fozil jamoani vujudga keltira oladi.



Bu davlat, jamoaga rahbarlik, hokimlik qilayotgan shaxsning ma'rifati, dini, axloqi bo'lishi, jamoani kelishib boshqara olishiga bog'liq. Ma'rifatli shoh, jamoa yaratish, davlatchilikni mustahkamlash bu davr ijtimoiy ta'limotlarining muhim xislatidir.

XIII asrning boshida Markaziy Osiyo xalqlari Chingizxon boshliq mo'g'ullar bosqiniga uchradi. Bu bosqin katta hududni o'ziga bo'ysundirgan Xorazmshohlar davlatiga qarshi shiddatli janglar bilan boshlandi, deyarli ikki yil davomida Movarounnahr ham bosib olindi, ko'p shaharlar, madaniy yodgorliklar vayron etildi. Olim-u fozillar o'ldirildi, boshqa mamlakatlarga quvg'in bo'ldi, ilm-fan, madaniyat keskin tushkunlikka yuz tundi. Lekin ilk Uyg'onish – IX–XII asrlardagi madaniy yuksalish Markaziy Osiyoning so'nggi ma'naviy rivojida o'chmas iz qoldirdi.

XIII asr boshida Markaziy Osiyo yana o'z mustaqilligini yo'qotdi, u mo'g'ullar tomonidan bosib olindi. Shuning uchun ilk Uyg'onish davri deyishimizga sabab, bunday jarayon – madaniy yuksalish Markaziy Osiyoda XIV–XV asrlarda mo'g'ul mustamlakachiligidan qutulib, Amir Temur va Temuriylarning mustaqil davlati barpo etilishi bilan bog'liq holda va yana bir bor yuz berganini ko'ramiz.

XIV asr oxiri – XV asrlarda Movarounnahr va Xurosonda so'nggi madaniy uyg'onish

(Amir Temur va Temuriylar davri)

Jahon madaniyatini Muhammad Muso Xorazmiy, Imom Buxoriy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Zamaxshariy kabi nomlar bilan bezagan Markaziy Osiyoning IX–XII asrlardagi madaniyati – Uyg'onish davri keskin ro'y bergan tarixiy voqealar tufayli birdan uzilib qoldi.

XIII asrning boshida Xorazmshohlar davlati Chingizxon qo'shinlarining dahshatli va ayovsiz hujumiga uchradi. Bu hujum 1219-yilda Xorazmshohlarning shimoliy chegarasidagi O'tror qal'asini zabt etishdan boshlandi va 1221-yilda Xorazmshohlar markazi Urganch (hozirgi Ko'hna Urganch) dushman qo'liga o'tdi. Xorazmshoh qo'shinlari yaxshi qurollangan bo'lishiga qaramay, ichki nizolar va kelishmovchiliklarning kuchayganligi, qo'shinning shaharlar himoyasi uchun bo'lib yuborilganligi, birlikning yo'qligi saltanatni Chingizxon hujumiga bardosh bera olmay tezda barbod bo'lishiga olib keldi. Shaharlar, madaniy markazlar vayron



etildi, aholi qirg'inga uchradi. O'lka to'lig'icha mo'g'ullar mustamlakasiga aylandi. Markaziy Osiyoni turli tumanlarga bo'lib yuborgan mo'g'ul xonlari o'rtasidagi o'zaro nizolar va kurashlar ham avj oldi – bular hammasi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoriga salbiy ta'sir ko'rsatdi, madaniyat o'choqlari so'ndi. Juda ko'p madaniy boyliklar, ilm maskanlari, madrasa va kutubxonalar yo'q qilindi, san'at va ilm-fan vakillari: olimlar, shoir va yozuvchilar, munajjimlar, me'mor va musavvirilar o'ldirildi, tasodifan omon qolganlari esa Shimoliy Hindiston, G'arbiy Eron va Xurosonning turli viloyatlariga qochib, jon saqlab qoldilar.

Shunday sharoitda mo'g'ullar va mahalliy amaldorlarning o'zbo-shimchaligi va jabr-zulmning kuchayib borishi xalq ommasining ko'tarilishiga olib keldi. Bu xalq qo'zg'olonlarining eng yirigi – 1337-yilda Eronning Sabzavor shahrida boshlanib, qariyb 45 yil davom etgan sarbardorlar chiqishidir.

Xalq ommasining ajnabiy istilochilar hamda mahalliy ezuvchilarga qarshi ayovsiz kurashi Markaziy Osiyoda mo'g'ullar hukmronligini ancha zaiflashtirdi va ularga qarshi keskin kurash kuchayishi uchun qulay zamin yaratib berdi. Shunday sharoitda Amir Temur (1336–1405) maydonga chiqdi va ijtimoiy jarayonda tezda ko'zga tashlandi hamda mamlakat hayotida juda katta rol o'ynadi.

Amir Temur tarqoq va uzoq urushlardan xonavayron bo'lgan Movarounnahr va Xuroson yerlarini mo'g'ullar mustamlakasidan ozod etib, yagona, mustaqil va mustahkam davlatga birlashtirdi. Uning markazi etib Samarqand shahri tanlandi.

Amir Temur davlati o'z davrida Ovro'po va Osiyodagi eng yirik, mustahkam va rivojlangan davlat sifatida tanildi.

Amir Temur vafotidan so'ng ham XVI asr boshiga qadar uning avlodlari mamlakatga hukmronlik qildilar. Temuriylar davrida markaziy davlat ikkiga – Movarounnahr va Xurosonga ajratilib idora etildi. Samarqand va Hirot bu ikki davlatning markazi bo'lib xizmat qildi. Ayniqsa, Temuriylardan uzoq vaqt hukmronlik qilgan Shohrux, Ulug'bek, Husayn Boyqaro davrlarida madaniyat gullab-yashnadi.

Musulmon Sharqi, ayniqsa, Markaziy Osiyoning madaniyati tarixida Amir Temur va Temuriylar hukmronlik davri – XIV asrning 2-yarmidan XVI asrning boshlarigacha bo'lgan davr so'nggi umumiy tarixiy rivojlantirishga juda katta ta'sir ko'rsatgan yorqin, sermazmun, samarali davr hisoblanadi.

Bu davrda o'zbek tili adabiy til sifatida uzil-kesil shakllandi va Markaziy Osiyoning so'nggi madaniy rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi.



Bu yuksalish, birinchi navbatda, Amir Temur nomi va faoliyati bilan uzviy bog'liq bo'lsa, uning o'g'illari, nabira va boshqa avlodlari u boshlab bergan iqtisodiy madaniy hayotdagi yo'nalishlarni davom ettirishga, Temuriylar saltanatining an'alarini saqlab qolishga harakat qildilar.

Markaziy Osiyodagi IX–XII asrlardagi ilm-fan, madaniyatning gurrakib yashnashi Markaziy Osiyo xalqlari tarixida ilk Uyg'onish davrini tashkil etgan bo'lsa, XIV asr oxiri va XV asr mo'g'ullar mustamlakachiligidan qutulib, mustaqil davlatning shakllanishi va rivoji asosida madaniyatda yana ko'tarilish va keskin rivoj ro'y berdi. Bu davrni madaniyatdagi keskin ravishda bo'linib qolgan Uyg'onish davrining yakuni – so'nggi Uyg'onish davri deb atash mumkin. Bu ko'tarilish avvalgi madaniy yutuqlarga, ularni yanada yuksaltirish va zamona ma'naviy talablari asosida yangilash natijasida vujudga keldi. Bu davrda arab tili din va qisman fan tili bo'lib qolsa-da, asosan ilm va badiiy adabiyot, san'at tili sifatida turkiy va fors tillarining mavqeyi kuchayib, asosiy o'ringa chiqdi. Davlat ishlari ham shu tillarda olib borildi.

Amir Temur va Temuriylar davri deyarli bir yarim asr Osiyo, ayniqsa, Markaziy Osiyo tarixida nihoyatda ko'p, serqirra, rang-barang madaniy-ma'naviy boyliklarni yaratgani, turkiy xalqlar madaniyati tarixida tamoman yangi, uzoq asrlarga ozuqa bergan qatlamlar, yangi sahifalar vujudga kelirgani bilan mashhurdir.

Amir Temur mamlakatning iqtisodiy qudratini oshirishga harakat qildi. U ishg'ol qilgan xorijiy mamlakatlardagi ilm ahlini o'z panohiga oldi. Movarounnahr va Xuroson shaharlarining obodonchiligi uchun jon kuyirdi. Rus olimi A.Y.Yakubovskiy Amir Temurning bu sohadagi ishlari haqida shunday yozgan edi: «U yaxshi hisob-kitoblik xo'jayin edi. U Movarounnahrda nafaqat turli-tuman boyliklarni, balki hunarmand, musavvir, me'mor va olimlarni ham olib keldi. To'g'ri, Movarounnahrning o'zi mutaxassis va olimlarga boy edi. Lekin fan va madaniyat arboblari, hunarmandlar qancha ko'p bo'lsa, hunarmandchilik, madaniyat, ilm-fan ham shuncha tez rivojlanadi».

XIV asrning oxiriga kelib Samarqand Sharqning eng go'zal, obod shaharlaridan biri bo'lib qoldi. Bu yerda ulkan binolar, keng xiyobonlar qurishga katta e'tibor berildi. Samarqand bu davrda Amir Temur davlatining markazi sifatida emas, balki Sharq va G'arbdagi madaniy jihatdan eng rivoj topgan olim-u fozillari, madrasalari, bog'-u rog'lari bilan turli o'lka xalqlarini o'ziga jalb etuvchi muhim ma'naviy markazga aylandi. XV asr boshida Movarounnahrda kelgan ispan sayyohi, elchisi Rui Gonzales de Klavixoning ma'lumotiga qaraganda, Samarqandning boyligi faqat oziq-



ovqatning mo'ligi bilan emas, balki, shoyi matolari, atlas, mo'ynadan qilingan kiyimlari, turli mamlakatlardan keltirilgan son-sanoqsiz mollari, bozor va maydonlari, ko'chalarining keng va ko'rkamligi bilan ko'zga tashlanadi.

Ayniqsa, qishloq xo'jaligini rivojlantirish borasida mamlakatda har xil qurilish inshootlari barpo qilinib, irrigatsiya shohobchalari tuzatilib, Ozarbayjondagi Mug'on cho'li o'zlashtirildi. Xurosonda va boshqa joylarda kanallar o'tkazildi, ko'priklar qurildi, yo'llar ta'mirlandi, turli xil hunarmandchilik – ip gazlama, shoyi va jundan to'qilgan matolarni ishlab chiqarish, kiyim-kechak tikish keng yo'lga qo'yildi. Olacha, duxoba, kimxob va boshqa matolarni to'qiydigan, ularga bezak beradigan maxsus ustalar paydo bo'ldi. Bu davrda paxtadan tayyorlangan matolarga, xususan, dag'al matolarga bo'lgan talab kuchli edi. Zargarlik, kulolchilik hunarlari keng rivojlandi.

XIV asrning 2-yarmidan boshlab Movarounnahr va Xurosonda ichki va tashqi savdo ravnaq topa boshladi. Samarqand qadimdan Sharqning savdo markazi bo'lib, bu yerdan boshqa mamlakatlarni bog'lovchi Buyuk ipak yo'li o'tar edi. Ayniqsa, Hindiston, Xitoy, Rossiya, arab mamlakatlari bilan savdo aloqalarining o'rnatilishi Amir Temur davlatining iqtisodiy qudratini mustahkamlashga xizmat qildi. Amir Temur savdoning rivojiga, karvon yo'llarini yaxshilash, ularni turli talon-tarojlardan himoya qilish, chetdan keltiriladigan mollarga solinadigan soliqlarni tartibga solish, savdogarlarga imkoniyatlar tug'dirish ishlariga katta e'tibor bergan edi. Bularning barchasi ishlab chiqarishning rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi va moddiy boyliklarning ko'payib borishiga olib keldi. Bu haqda Amir Temur «Tuzuklar»da shunday degan edi: «...Agar kasbu hunar va ma'rifat ahllaridan bo'lsa, bundaylarga saltanat korxonalaridan yumush berilsin. Bularndan boshqa bilagida kuchi bor faqir-miskinlar esa o'z ahvoli va kasbu koriga qarab ish tutsinlar. ...Sarmoyasi qo'lidan ketib qolgan savdogarlarga o'z sarmoyasini qaytadan tiklab olish uchun xazinadan yetarli miqdorda oltin berilsin. Dehqonlar va raiyatdan qaysi birining dehqonchilik qilishga qurbi yetmay qolgan bo'lsa, unga ekin-tikin uchun zarur urug' va asbob tayyorlab berilsin. Agar fuqarodan birining uy-imorati buzilib, tuzatishga qurbi yetmasa, unga yordam berilsin» («Temur tuzuklari», Toshkent, 1991, 66–67-betlar).

XIV asrning 2-yarmidan boshlab qurilish va obodonchilik ishlari tez taraqqiy eta boshladi. Xususan, Samarqandda Bibixonim, Ko'ksaroy masjidi, Shohizinda maqbarasi, Kesh (Shahrisabz) shahrida Oqsaroy, Samarqand atrofida Bog'i Shamol, Bog'i Dilkusho, Bog'i Nav, Bog'i Chinor



kabi bog'lar, Amudaryo va Sirdaryoga ko'priklar, karvonsaroylar, rabotlar qurildi, ko'plab madrasa va xonaqohlar, hammomlar barpo etildi.

Ulug'bek davrida Samarqand, Buxoro va G'ijduvonda madrasalar barpo qilindi. Bulardan tashqari, Ulug'bek Amir Temur davrida qurila boshlagan Bibixonim masjidi, Go'ri Amir maqbarasini qurib bitkazdi, lekin bu davridagi eng nodir me'morchilik san'ati namunasi Mirzo Ulug'bekning falakiyot rasadxonasidir.

Shohrux va Husayn Boyqaro davrida Hirotda va Xurosonning boshqa shaharlarida ham katta qurilishlar olib borildi. Xususan, Hirotda «Dorushshifo» shifoxonasi, Qurbon Shayx, Feruzshoh, Chaqmoq Shoh, Alika Ko'kaldosh madrasalari, «Bog'i bayt ul-imom», «Bog'i hamsa oroyi» kabi bog'lar bunyod etildi. Tarixchi Xondamirning yozishicha, Husayn Boyqaro davrida Xurosonda 40 ga yaqin inshootlar vujudga kelgan.

Markaziy Osiyoda madaniyatning rivojlanishida qo'shni mamlakatlar bilan madaniy aloqalar muhim rol o'ynadi. Ayniqsa, Markaziy Osiyo Eron bilan qadimdan mustahkam aloqa o'rnatgan bo'lib, XIV–XV asrlarda bu ikki mamlakat o'rtasida iqtisodiy, madaniy aloqalar ham kuchaya boshladi. Bu davrda Xitoy bilan ham aloqa kuchaydi. 1420-yili Shohrux mashhur rassom G'iyosiddin Naqqosh boshchiligida Xitoyga elchilar yubordi. Ular Xitoy xalqining urf-odati, turmush tarzi, madaniy hayoti, davlatni boshqarish uslubi bilan tanishib qaytdilar. Shuningdek, Shohrux davrida Hindiston bilan ham aloqa yaxshilanib, 1442-yilda u tomonga elchilar yuborildi.

Temuriylar davrida madaniyat yangi bosqichga ko'tarilib, Markaziy Osiyoda qadimgi yunon va hind olimlarining falakiyot, riyoziyot, tibbiyot, kimyo va boshqa fan sohalaridagi tadqiqotlari keng tarqaldi. Ilk o'rta asrlarda yunon olimlarining risolalari arab tiliga tarjima qilinib, ularga ko'plab sharhlar bitilgan edi. Shuning uchun yunonlarning arab tiliga tarjima qilingan asarlari, xususan, Arastu, Aflotun, Batlimus va boshqalarning tabiiy-ilmiiy va falsafiy asarlari XIV–XV asrlarda ham Markaziy Osiyo olimlari uchun yangilik emas edi.

XIV–XV asrlardagi ma'naviy-madaniy yuksalish islom diniy qarashlarining mustahkamlanib borishi bilan uzviy bog'liq bo'lib, hukmron mafkura sifatida madrasa-yu masjidlarda keng o'qitilib, o'rganilar, qonun-qoida, odat, an'analar esa shariat asosida olib borilar edi. «Temur tuzuklari»da din arboblari, shayx, sayyid, ulamolar faoliyatiga alohida o'rin ajratilib, ularning davlat ishlaridagi ishtiroki bir necha bor qayd etilib o'tilgan. Lekin bu davrda shu bilan birga xalq orasida, ayniqsa, ziyolilar, aqliy mehnat bilan shug'ullanuvchi ilm-fan, san'at, madaniyat xodimlari o'rtasida o'z davrida islom qoidalarini zamona talablari, ijtimoiy yuksalish



zaruratlari asosida talqin etishga intilish natijasida yuzaga kelgan tasavvuf ta'limoti keng tarqaldi.

Markaziy Osiyoda XI asrdan boshlab yoyila boshlagan tasavvuf ta'limoti bu davrga kelib Movarounnahr va Xurosonda tasavvufning yasaviya, kubraviya, qodiriya va ayniqsa, naqshbandiya tariqati ma'naviy hayotda katta rol o'ynaydi.

Naqshbandiya tariqati Yusuf Hamadoniy, G'ijduvoniy va XIV asrga kelib Bahouddin Naqshband nomi bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu ta'limot XV asrda nazariy va amaliy jihatdan yanada rivoj topib, u saroy ahli, ko'p hollarda temuriyzodalar faoliyatiga ham ta'sir ko'rsatdi.

Amir Temurning o'zi ham mutasavvuf olimlarga katta hurmat bilan munosabatda bo'lib, tasavvufning naqshbandiya suluki targ'ibotchilaridan Sayyid Mir Kulolni (Shamsiddin Foxuriy) o'ziga pir deb bilgan. Shuningdek, turli o'lkalardagi yirik mutasavvuf'larga ham hurmat ko'rsatgan, xususan 1398-yilda Turkistonning Yassi shahrida yirik mutasavvuf Ahmad Yassaviy qabrini ziyorat etganligi, uni ta'mirlatib, ustiga oliy bino qurishni buyurgani tarixiy manbalarda ko'rsatib o'tilgan.

Amir Temur «Tuzuklar»da shunday yozadi: «...mashoyixlar, so'fiylar xudoni tanigan oriflardir. Ularning xizmatlarida bo'lib, suhbatlar qurdim va oxirat foydalarini oldim. Ulardan tangri taoloning so'zlarini eshitib karomatlar ko'rdim».

XIV–XV asrlarda Markaziy Osiyoda keng tarqalayotgan tasavvuf ta'limotining Xoja Ahror, Maxdumi A'zam kabi yirik vakillari naqshbandiya tariqatiga oid risolalar yaratish bilan birga, jamiyatning ma'naviy poklanishi va rivojlanishi yo'lida faol xizmat qildilar, taniqli xonlar, shahzodalar bilan muloqotda bo'lib, ularga ta'sir o'tkazdilar. Bu jihatdan, ayniqsa, Xoja Ahror faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu davrda Samarqand, Hirot va boshqa shaharlarda musavvirlik, naq-qoshlik san'atining mohir ustalari paydo bo'ldi. Xususan, «Sharq Rafaeli» deb tanilgan Kamoliddin Behzod o'z ijodi bilan butun Sharqdagina emas, balki Ovro'poda ham mashhur bo'ldi. Xattotlik va muqovasozlik san'ati ham taraqqiy etib, bu sohada yangi uslublar yuzaga keldi. Masalan, Mir Ali Tabriziy xattotlikning nasta'liq uslubini ixtiro qildi. Bu uslub keyinchalik butun Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlariga keng yoyildi.

«Rafiqiy» taxallusini olgan Mir Ali Majnun ibn Kamoliddin Mahmud, samarqandlik xattot Xoja Abdulqodir Ruyanda, «Xattotlar sultoni» nomini olgan Sulton Ali Mashhadiy va boshqa xattotlar ijodini ham alohida qayd etish lozim. Ustod Shayx Foniq Nayi, Mavlono Qosim Rabboniy, Husayn Udiy, Xoja Yusuf Andijoniy, Shohquli G'ijjakiy, Darvish Ahmad Qonuniy,

Ustod Shodiy kabi musiqashunoslar ham shu davrda yashab ijod etganlar. Ulug'bek, Navoiy, Jomiy, Binoiy kabi buyuk mutafakkirlar ham musiqa sohasida ma'lum ishlarni amalga oshirganlar.

XIV–XV asrlarda fanlarning ko'p sohalari: tibbiyot, riyoziyot, handasa, jug'rofiya, falakiyot, tarix, mantiq, adabiyot, falsafa, axloqshunoslik taraqqiy etdi. Adabiyot va adabiyotshunoslik yuksalib, she'riyat – nazm sohasida ijod qiluvchi mashhur shoirlar yetishib chiqdi. Yirik shoirlar Davlatshoh Samarqandiy, Sakkokiy, Bisotiy Samarqandiy, Javhariy, Xoja Sug'diy Samarqandiy, Mirzabek, Niyoziy, Hofiz Xorazmiy, Yaqiniy, Hiloliy, Gadoiy, Atoiy, Suxayliy, Husayn Ali Tufayliy, Binoiy, Sayfiy Buxoriy, Mullo kabilar Movarounnahr va Xurosonning turli shaharlarida yashab, ijod etib, bir qancha she'riy va nasriy asarlar yaratdilar.

XV asrda o'zbek tili va adabiyoti, she'riyati, buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy timsolida o'zining yuqori cho'qqisiga ko'tarildi. Navoiy o'zbek adabiy tilining fazilatlarini har tomonlama ochib, asoslab berdi. Jomiy va Navoiydan tashqari, til muammolari bilan shug'ullangan Xoja Jaloliddin Fazlulloh Abu-l-Laysiy, Abul-l-Qosim ibn Abu Bakr Laysiy Samarqandiy hamda Isomuddin Ibrohim ibn Muhammad ibn Arabshoh Isfaroiniy kabi yirik olimlarning nomlarini keltirish mumkin.

XIV asrning 2-yarmidan boshlab Markaziy Osiyoda falakiyot va riyoziyot fanlari rivoj topdi. Mirzo Ulug'bek asos solgan falakiyot maktabi bunga yorqin misol bo'lib, bu maktabdan juda ko'p iqtidorli olimlar yetishib chiqdi. Ular Mansur Koshiy, Miram Chalabiy, Abduali Birjandiy, Ali Qushchi, G'iyosiddin Jamshid va boshqalardir.

Bu davrda tibbiyot ilmi ham o'zining yirik namoyandalariga ega edi. Samarqandga kelib ijod qilgan tabobat ilmining yirik vakillaridan Burhoniddin Nafis ibn Evaz hakim al-Kirmoniy, Sul-ton Ali tabib Xurosoniy, tabib Husayn Jarroh shular jumlasidandir.

XIV–XV asrlarda Markaziy Osiyoda mantiq va falsafa fanlari bilan shug'ullangan yirik olimlar paydo bo'ldi. Bu fanlarning rivoji, asosan ikki yirik mutafakkir – Saadiddin bin Umar Taftazoniy va Mir Sayyid Jurjoniy nomlari bilan bog'liqdir. Jurjoniy va Taftazoniy-lardan tashqari, Samarqandda o'sha davrda Mavlono Abdujabbor Xorazmiy, Mavlono Shamsiddin Munshiy, Mavlono Abdulla Lison, Mavlono Badriddin Ahmad, Mavlono Nug'moniddin Xorazmiy, Xoja Afzal, Jalol Hokiy va boshqa olimlar yashab ijod etganlar. O'z davrining ilg'or ijtimoiy va axloqiy fikrlari badiiy adabiyotda, tasavvuf she'riyatida, nazm va nasrda, g'azal va ruboiylarda mufassal bayon qilina boshlandi. Navoiy, Jomiy, Lutfiy, Binoiy, Qosimi Anvar va boshqalarning badiiy asarlari boy falsafiy va axloqiy mazmunga egadir.



Bu davrda axloq va ta'lim-tarbiya muammolariga bag'ishlangan maxsus risolalar paydo bo'ldiki, ularning orasida Husayn Voiz Koshifiy va Jaloliddin Davoniyning merosi alohida o'rin egallaydi.

Amir Temur va Temuriy shahzodalar o'z davri tarixini yozib qoldirish, Movarounnahr va Xurosonning mo'g'ullar zulmidan ozod etilishi tarixini o'rganish va yoritishga katta e'tibor berdilar. Nizomiddin Shomiy, Sharafiddin Ali Yazdiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Hofizi Abru, Natanziy, Fosih Xavofiy, Muyiniddin Isfizoriy, Mirxond, Xondamir kabi tarixchilar Temuriylar davri tarixini yozib qoldirdilarki, bu asarlar hozirda biz uchun o'sha davr hodisalarini, madaniy yuksalishni o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qilib kelmoqda.

Movarounnahr va Xurosonda XIV asrning 2-yarmi va XV asrda ro'y bergan madaniy yuksalish butun musulmon Sharqinigina emas, Ovro'po mamlakatlarini ham hayratga soldi. Bu yuksalish Markaziy Osiyoning so'nggi madaniy-ma'naviy rivojinigina belgilab bermay, qo'shni mamlakatlardagi madaniy taraqqiyotga ham katta turtki berdi. Temuriy shahzoda Zahiriddin Muhammad Bobur Hindistonni 1525–26-yillarda o'ziga qaratib, Boburiylar davlatiga asos soldi va bu davlatda XV asrdagi Markaziy Osiyo madaniyatining an'alarini davom ettirdi va rivojlantirdi.

Amir Temur va Temuriylar davridagi madaniy yuksalishning umumiy omillarini aniqlash shuni ko'rsatdiki, ular o'zaro uzviy bog'langan va yaxlit bir butun holdagina qisqa vaqt ichidagi madaniy-ma'naviy yuksalishni yuzaga keltira olgan.

Bulardan birinchi navbatda siyosiy-ijtimoiy omilni ko'rsatish mumkin. Movarounnahr va Xurosonda tarqoq, o'zaro nizo, urushlar natijasida turli viloyat, amirliklarga bo'linib ketgan va kelgindi hukmronlar – mo'g'ullar tomonidan ayovsiz ezilgan xalqning mustamlakachilikdan qutilishi, mamlakatda yagona birlashgan davlatning barpo etilishi, yagona davlatchilik asosida boshqarish qoidalarining joriy etilishi, zo'rvonliklar, o'zbilarmonchilik kabi illatlarning tugatilishi ijtimoiy yuksalishni ta'minladi.

Ikkinchi – iqtisodiy omil – Movarounnahr va Xurosonda yagona idora tizimining joriy etilishi, iqtisodiy osoyishtalik moddiy rivojlanishga olib keldi. Davlat tomonidan dehqonchilik, hunarmandchilik, savdo-sotiqning rivojiga e'tibor berilishi va bu sohada muayyan tadbirlarning amalga oshirilishi mamlakatning ma'naviy-madaniy taraqqiyoti uchun nihoyatda muhim ahamiyat kasb etdi.

Uchinchi – ma'naviy omil – avvalgi madaniy meros, ma'naviy qadriyatlar, boyliklardan keng foydalanish, ular asosida rivojlanishni amalga oshirishdan iborat bo'ldi. Markaziy Osiyoda avvalgi asrlarda, xususan,



IX–XIII asrlarda yaratilgan ma'naviy-madaniy boyliklardan, Xorazmiy, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Chag'iniylar merosidan; arab, fors va turkiy tillarda yaratilgan Firdavsiy, Nizomiy Ganjaviy, Rumi, Tusiy, Attor kabi allomalar merosidan; musulmon Sharqi ma'naviy merosida katta ahamiyat kasb etgan qadimgi yunon ilmiy-ma'naviy boyliklaridan keng foydalanildi.

Bu davrda Amir Temur davlatining ta'sirida bo'lgan va bo'lmagan boshqa mamlakatlar o'rtasida madaniy aloqalar tez rivojlandiki, bunday aloqalar ma'naviy boyliklarni o'zaro almashinishiga keng yo'l ochib berdi. Eron, arab mamlakatlari, Hindiston, Xitoy kabi mamlakatlar bilan bo'lgan aloqalarda madaniy boyliklar almashinuvi ham muhim ahamiyat kasb etdi.

To'rtinchi – g'oyaviy omil – bu omil ma'naviy omilning uzviy davomi bo'lsa-da, uning muhim ahamiyatga ega bo'lganligi va o'z davri ma'naviy hayotida katta rol o'ynaganligi uchun alohida ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiqdir. Bu XV asrga kelib Movarounnahr va Xurosonda keng tarqalgan tasavvuf – xususan naqshbandiya ta'limotidir. Markaziy Osiyoda Yusuf Hamadoniy, Abdulxoliq G'ijduvoni ta'limotlarini rivojlantirish asosida shakllangan naqshbandiya ta'limoti va uning yirik vakillari XIV–XV asrlardagi siyosiy-ijtimoiy hamda madaniy hayotda nihoyatda muhim rol o'ynadi, ma'naviy o'zgarishlar ma'lum erkinlik uchun g'oyaviy asos bo'lib xizmat qildi. Amir Temur va Temuriy shahzodalar, ko'p olim-fozillar, hunarmandlar naqshbandiya ta'limotidan ozuqa oldilar, o'z faoliyatlari, ijodlari bilan uni har tomonlama boyitdilar.

XV asrda yashab ijod etgan naqshbandiya ta'limotining yirik vakili Xoja Ahror Valiy faqat madaniy hayotdagina emas, siyosiy-iqtisodiy osoyishtalik va rivojlanish ishida ham muhim ijobiy rol o'ynadi.

Bu kabi omillar Amir Temur va Temuriylar davri madaniyati, ma'naviyatining tez hamda yuksak darajada ko'tarilishiga olib keldiki, uning yutuqlari so'nggi o'rta asrlar davomida madaniy rivojlanish uchun ozuqa bo'ldi.

XVI–XIX asr 1-yarmidagi Turkiston madaniyati haqida

XVI asr boshlariga kelib Movarounnahr va Xurosonda ichki nizolarning avj olishi bu yerlarga tashqi hujumlarning kuchayishiga imkon tug'dirdi. Ayniqsa, shimolda Dashti Qipchoq tomondan Movarounnahr shaharlarini bosib olishga bo'lgan harakat borgan sari ortib bordi.



1500-1510-yillar orasida Movarounnahr va Xuroson yerlari Shayboniyxon boshchiligidagi qo'shinlar hujumi tufayli uning tasarrufiga o'tdi. U o'zining so'nggi yurishida keskin qarshilikka duch keldi va 1510-yil Marv uchun bo'lgan urushda qurbon bo'ldi. U Movarounnahr madrasalarida tahsil ko'rgan, temuriylar bilan uchrashgan, olim va adiblar bilan muloqotda bo'lgan, madaniyat tarixidan yaxshi xabardor, temuriylarga o'xshab ijod ahliga rahnamolik qilgan, o'zi ham she'rlar yozgan davlat boshlig'idir.

Uning o'limidan so'ng avlodlari 1601-yilga qadar hukmronlik qildilar. So'nggi yillarda uning avlodlari o'rtasidagi kurashlar natijasida davlat parchalanib, Xuroson Safaviylar qo'liga o'tdi. Shayboniylar esa faqat Movarounnahrda hukmron bo'lib qoldilar. Hokimiyat asta-sekin uning avlodlari o'rtasidagi nizolar tufayli parchalanib ketdi, Buxoro xonligi, so'ng g'arbda Xiva xonligi vujudga keldi. Hukmronlik uchun olib borilgan uzoq kurashlardan so'ng Abdullaxon II (1557-1598) davrida Buxoro xonligining mavqeyi ancha-muncha ortdi.

Abdullaxon II davrida Buxoro xonligida iqtisodiy-madaniy hayot bir muncha jonlandi. Xususan, dehqonchilik tez rivojlandi, suv inshootlari, kanallar barpo etildi, yirik shaharlarda hunarmandchilik ravnaq topdi. Samarqand qozikaloning XVI asrdagi hujjatlaridan ma'lum bo'lishicha, hunarning 60 dan ziyod turi mavjud bo'lgan, turli-tuman temir buyumlar, ip va ipak matolar, yuqori navli qog'ozlar ishlab chiqarilgan. Buxoro shahri kengaytirilib, devor va harbiy istehkomlari qaytadan qurilgan, shaharda ko'p madrasalar, xonaqohlar, karvonsaroy, bozorlar barpo etilgan. Bu davrda ichki va tashqi savdo, xususan, Eron, Turkiya, Hindiston, Rossiya kabi mamlakatlar bilan aloqalar kengaydi.

Uning vafotidan so'ng yana o'zaro nizolar avj oldi. 1601-yildan boshlab Buxoro xonligi yangi Ashtarxoniylar sulolasi hukmronligiga o'tdi.

Ashtarxoniylar sulolasi bir yarim asr (1601-1753) Buxoro taxtida hokimlik qildi, ular davrida xonlikda o'zaro nizolar hamda qoraqalpoqlar, mustaqil bo'lgan Xiva xonligi, Eron kabilar bilan uzluksiz urushlar davom etdi, mamlakatning iqtisodiy-siyosiy hayotida parokandalik avj oldi, xonlik taxti uchun talashuvda aka-uka, ota-o'g'il, qarindoshlar o'rtasida kurashlar kuchaydi. Xonlikdagi zulmning ortishi, soliqlarning oshib borishi natijasida tez-tez xalq qo'zg'olonlari ro'y berib turardi. Buxoro taxtida uzoq xonlik qilgan Imomqulixon (1611-1642) davrida hokimiyatning nisbatan mustahkamlanganligini nazarga olmaganda, boshqa Ashtarxoniylar davrida xonlikka har tomondan hujumlar, turli shaharlar, o'lkalarning xonlikdan ajrab ketishga intilishi kuchaydi. Bu intilish, ayniqsa, Ubaydullaxon dav-



rida avjiga chiqdi. Bundan foydalangan Nodirshoh Buxoro xonligiga qarashli ko'p yerlarni Eronga qo'shib oldi. So'nggi yillarda Ashtarxoniylar sulolasining nufuzi susayib, mang'it qabilasidan bo'lgan Muhammad Hakim otaliqning ta'siri kuchaya bordi va u 1753-yili o'zini amir deb e'lon qildi. Bu davrda Turkistonda Buxoro xonligidan tashqari Amudaryoning quyi oqimida Xiva xonligi mustaqil rivojlanayotgan edi. XVIII asrning oxiriga kelib Farg'ona vodiysida Qo'qon xonligi ham o'zini mustaqil xonlik sifatida ko'rsata boshladi.

Turkistondagi XVII–XVIII asr madaniyati mavjud iqtisodiy-siyosiy, ijtimoiy ahvol ta'sirida turli tebranishlar, yo'qotishlarni boshidan kechirdi.

XVI asrda Hindistonda Boburiylar davlatining vujudga kelishi bilan Temuriylar davrida shakllangan madaniyatning qisman Hindiston tomon oqib o'tganini kuzatamiz. Boburiy podsholar Movarounnahr va Xuroson madaniy qadriyatlaridan foydalanishga intildilar, ularni Hindiston yerida keng targ'ib etdilar. XVI asrda o'zlari yoki Boburiylar taklifi bilan ko'p-gina Markaziy osiyolik donishmand, alloma, san'atkorlar Hindiston shaharlariga ketib qoldilar. Boburiylar saroyida turkiy, ayniqsa, forsiy tildagi adabiyot, san'at, ilm-fan rivoj topdi. Bu Markaziy Osiyo, xususan, Turkiston va Hindistondagi Boburiylar davlati o'rtasidagi madaniy aloqalarning kuchayishiga, ularga o'zaro ta'siri orta borishiga olib keldi. Boburiylar o'zlarini Temuriylar davri madaniyatining merosxo'ri, davomchilaridan deb bildilar. Ayniqsa, Boburiylardan Akbarshoh, Shohjahon, Avrangzeb davrida Hindistonda Markaziy Osiyo ma'naviy qadriyatlariga asoslangan musulmon madaniyati keng rivoj topdi va muhim yutuqlarni qo'lga kiritdi.

Temuriylar davrida rivoj topgan madaniy boyliklar ta'siridagi ma'naviy-madaniy qadriyatlar vujudga keldi, ayniqsa, adabiyot, san'at, qisman ilm-fan, xususan, tarix fanida ma'lum yutuqlar qo'lga kiritildi. Tasavvuf bu davrning dunyoqarashi, tasavvuri va ma'naviyatida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. O'zbek va fors tilida bir nechta tarixiy, adabiy, she'riy asarlar yaratildi. O'z davrining yetuk adibi, davlat arbobi va shayxulislomi Podshoxoja (1480–1547) oilasida tug'ilib, tarbiya topgan Hasanxoja Buxoriy Nisoriyning «Muzakkir al-ahbob» hamda shoir Mutribiyning «Tazkirat ush-shuaro» tazkiralari XVI asrda yashab ijod etgan juda ko'p adib, shoirlar, ularning ijodi haqida muhim ma'lumotlar keltirilgan.

Bu davrda o'zining o'zbek tilidagi she'rlari bilan mashhur bo'lgan shoir, tarixchi, davlat arboblari biri Muhammad Solihdir (1455–1535). U Xorazmda tug'ilib, boshlang'ich ma'lumotni o'sha yerda olgan. So'ng Hirot shahrida o'z ilmini davom ettirgan, shoir-u ulamolar bilan ilmiy-ijodiy bahs etib turgan. Xurosonda, so'ng Samarqand, Buxoroda Temuriy-



lar xizmatida bo'lgan. 1507–1510-yillarda Muhammad Solih Hirotida yashab madaniy hayot ichida bo'lgan, o'z ijodi bilan adabiy muhitga keng tanilgan. Uning ijodiga Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur, Lutfiy, Nisoriy kabi shoirlar yaxshi baho berganlar.

XVI asrning 2-yarmidagi eng yirik shoirlardan Mushfiqiyini ko'rsatib o'tish zarur. U Abdullaxon II davrida saroy shoiri sifatida ma'lum bo'lsa-da, xalq orasida uning hajviy, hurriyatparvar she'rlari keng tarqalgan.

XVI–XVIII asrlarda o'zbek va tojik tillarida she'riy asarlar bitgan Turkistonning turli shaharlaridan chiqqan shoir, adiblarni ko'rsatib o'tish mumkin. Sayido Nasafiy, Turdi Farog'iy, Mashrab, So'fi Olloyor shular jumlasidan bo'lib, ularning ijodi o'z davrining tushkunliklari, ziddiyatlari, qiyinchiliklarini o'zida ifodalashi bilan ko'zga tashlanadi. Bu davrda Hindistonda yashab ijod etgan, o'z asarlarini forsiyda yozgan Mirzo Abdulqodir Bedilning (1644–1720) chuqur ijtimoiy-falsafiy mazmundagi she'rlari Turkiston ziyolilari orasida e'tibor qozondi.

XVII asrda Subhonqulixon davrida tazkira tuzilib, unda o'z zamonasi-ning ikki yuzta shoir, adib, adabiyotshunoslari haqida ma'lumotlar beriladi. Umuman XVI–XVIII asrlar ma'naviy hayotida Turkistonda tasavvuf ta'limotlari, xususan, Naqshbandiya, Yassaviya, Kubraviya ta'limotlarining keng tarqalgani, ularning adabiyot, san'at, ijtimoiy bilimlarga katta ta'sir ko'rsatganini ko'ramiz. San'atkorlar tasavvufdan zamona qiyinchiliklarini yengish, zulm-adolatsizlikka qarshi kurash, haqiqiy insoniy munosabatlarni targ'ib qilish yo'lida foydalanishga intildilar.

XVI–XVIII asrlar davomida adabiyot, she'riyat bilan bir qatorda tarixshunoslik, fiqh, falsafa, xattotlik ilmi kabi sohalarda ham ijobiy yutuqlar qo'lga kiritildi.

Bu davrda ayrim tarixiy asarlar fors tilidan o'zbek tiliga tarjima etildi. Mirzo Haydarning «Tarixi Rashidiy», Abdulla ibn Muhammadning «Zubdat ul-asror» («Asrlar qaymog'i»), Fazlulloh ibn Ruzbehxon Isfaxoniyning «Mehmonnomayi Buxoro» («Buxoro mehmoni haqida kitob»), Hofiz Tanish Buxoriyning Abdullaxon II davrining tarixiga bag'ishlangan ulkan asari «Sharafnomayi shohiy» («Shoh sharafi haqida kitob») yoki «Abdullanoma» kabi tarixiy asarlar shular jumlasidandir. Bu asarlarda o'sha davrning murakkab jarayonlari o'z ifodasini topgan.

Shoir va tarixchi Hofiz Tanish Buxoriyning «Abdullanoma» asari nazm aralash qofiyalashtirilgan nasrda, fors tilida yozilgan bo'lib, asosan Shayboniylarning o'z davlatlarini mustahkamlash uchun olib borgan kurashlari tarixini, siyosiy-ijtimoiy masalalarni o'z ichiga qamrab olgan katta asardir.



Tarixiy asarlar daliliy ashyolarga boy bo'lish bilan birga ayrimlarida tarixiy hodisalarni umumlashtirish, ulardan xulosalar chiqarish ko'zga tashlanadi. Bunday intilishlar so'nggi asrlarda vujudga kelgan «Tarixi Muqimxoniy», Mahmud ibn Valining «Bahr ul-asror», Mirmuhammad Amin al Buxoriyning «Ubaydullanoma», Muhammad Amin ibn Muhammad Zamoni Buxoriyning «Muhit ut-tavorix», Abdurahmon Tolening «Tarixi Abulfayzxon» kabi asarlarida ham uchraydi.

Tarixshunoslik ilmining ma'lum darajada rivoji albatta boshqa ijtimoiy fanlarga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

XVI XVIII asrlar davomida ijtimoiy-falsafiy fikr, fiqhshunoslik sohasida ham yangiliklar vujudga keldi, o'z davrining yetuk mutafakkirlari yetishib chiqdi. O'z yurti Eronni tashlab ketishga majbur bo'lgan va Buxoroda xonning e'tiboriga sazovar bo'lgan Mirzajon Sheroziyning asosiy ilmiy-ma'rifiy faoliyati Movarounnahrda o'tdi. U turli madrasalarda falsafa, mantiq, fiqh ilmlaridan saboq berish bilan birga o'tmish mutafakkirlari Ibn Sino, Faxriddin Roziy, Nasriddin Tusiy, Mir Sayyid Jurjoniy, Davoniy kabilarning turli risolalariga sharh va hoshiyalar yozdi. Mirzajon Jaloliddin Davoniyning bevosita shogirdi bo'lib, o'zining asosiy ilmiy qiziqishlarini falsafiy muammolarni hal etishga qarattidi. Uning hoshiyalar bilan birga «Fi ta'rifil ilm» («Ilmlar ta'rifi»), «Anmuzadjul funun» («San'atlar namunalari»), «Fi aksil mustafa» («Aks ettirish haqida») kabi risolalari ham bizgacha yetib kelgan.

Mirzajonning shogirdi bo'lmish, asli ozarbayjonlik Yusuf Qorabog'iy ham XVII asrda Movarounnahrning eng yirik faylasuf va mantiqshunos olimlaridan bo'lib tanildi va Buxoro xoni Imomqulixon e'tiborida bo'ldi. U Samarqand, Buxoro madrasalarida mudarrislik qildi, falsafa, arab grammatikasi, fiqh, mantiq sohasida asarlar yozib qoldirdi.

XVI XVIII asrlarda tabiiy-ilmiy fanlar o'zining avvalgi an'analarini yo'qota boshladi, ularning rivoji borgan sari susayib bordi. 1593-yilda Amin Ahmad Roziyning «Haft iqlim» nomli geografik-biografik lug'ati, deyarli shu yillarda Mutribiyning «Tazkirat ush-shuaro»siga ilova etilgan dunyo xaritasi vujudga keldi. Ayrim tarixiy ma'lumotlarda aytilishicha, bu davrlarda tibbiyot sohasida qator amaliy ishlar, turli tabiblar, ko'z do'xtirlari, singan suyaklarni tuzatuvchilar faol ish olib borgan (Sulton Ali degan tabib «Tabobat bo'yicha qo'llanma» yozib qoldirgan), yirik shaharlarda kasalxonalar mavjud bo'lgan. Adabiyot, she'riyat bilan bog'liq holda musiqashunoslik, musiqa ilmi rivojiga ham e'tibor berilgan. Buxoroda Mavlaviy Kavkabiy musiqa ilmi, maqomlar bo'yicha risola yozgan.

Kitob yozish, to'plash, bezash sohasidagi an'analar XVI–XVIII asrlarda ham davom etgani, ayrim xonlar maxsus kutubxonalar yaratgani va unda ko'plab qo'lyozmalar to'planganligi haqida ma'lumotlar saqlangan. Masalan, shayboniylardan Abdullaxon II, Abdulazizxonlar, ashtarxoniy-lardan Subhonqulixon o'z saroylarida – Buxoroda katta kutubxonalar tashkil etganlar. Umuman kitob san'ati, husnixat – xattotlik, miniatura sohasida muhim yutuqlar qo'lga kiritildi. Buxoro maktabi faol ravishda o'zini tanitdi.

XIV asrdan boshlab shakllanib kelgan Buxorodagi husnixat va miniatura XVII–XVIII asrlarga qadar Sharqda o'z yetakchi mavqeini saqlab keldi va boshqa musulmon Sharqidagi bu san'at rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. XVI–XVII asrlarda ijod etgan mashhur husnixat va miniatura ijodkorlaridan Sulton Ali Mashhadiy, Mir Ali Hiraviy, Mahmud ibn Is'hoq ash-Shihobiy, Abdulla, Muhammad Murod Samarqandiy, Do'st Muhammad Buxoriy kabilarni ko'rsatib o'tish mumkin. Do'st Muhammad Buxoriy husnixat nazariyasi bo'yicha maxsus risola ham yozgan. Xususan, shu davrlarda «Tarixi Abulxayrxoniy» («Abulxayrxon tarixi»), «Tavorixi guzidai nusratnoma» («G'alaba haqida tanlangan tarixlar»), Alisher Navoiy asarlari ro'yxati kabilarning chiroyli ko'chirmalari va ularga ishlangan miniaturalar o'z davri san'atining oliy namunalari hisoblanadi.

Movarounnahr san'ati, ilm-fan, madaniyati bu asrlarda ham boshqa musulmon Sharqi, Eron, Turkiya, Koshg'ar, Hindiston kabi mamlakatlar bilan yaqin aloqada bo'ldi, o'zaro ta'sirda rivoj topdi. Boshqa o'lkalardan Movarounnahrda turli ziyoli, madaniyat arboblari kelib o'z faoliyatini davom ettirganidek, Buxoro, Samarqand kabi turli shaharlardan chiqqan olim, donishmand, san'at arboblari boshqa mamlakatlardagi madaniy oqimda ishtirok etdilar.

Movarounnahrda so'nggi asrlardagi taxt uchun kurashlar, parokandalik asta-sekin yagona davlat tarkibidagi turli shaharlarning ajrab ketishi, mustaqil Xiva va Qo'qon xonliklarining tashkil topishi, ular o'rtasida ziddiyatning avj olishi ijtimoiy-iqtisodiy sohalarida yomon oqibatlariga olib kelishi bilan birga, madaniy-ma'naviy hayotga ham ta'sir ko'rsatdi, uning rivojiga g'ov, orqaga ketuviga sabab bo'ldi.

XVIII asrning 2-yarmi Turkiston tarixida iqtisodiy-siyosiy jihatdan o'zaro nizolar, urushlar, boshboshdoqlik, parokandalik, aholining nihoyatda qashshoqlashgan, madaniy-ma'naviy jihatdan tushkunlikka uchragan davri edi. O'zaro ichki nizolarning kuchayib ketganligidan foydalangan Eron shohi Nodirshoh 1740-yilda Buxoroni va Xivani bosib olib o'ziga qaram qildi. Buxoro taxtiga o'z odami Muhammad Hakim otaliqni o'tqazib qayt-

di Lekm Nodirshoh vafotidan so'ng (1747) Hakimxonning o'g'li Muhammad Rahim ashtarxoniyalar sulolasini umuman chetlatib, 1756-yili dekabrda o'zini amir deb e'lon qildi. Shunday qilib, Buxoroda mang'it qabilasidan chiqqan sulola hukmronligi boshlandi.

O'zbek xoni Elbarsxon 1512-yili Xiva xonligini barpo etib, unga Xorazmning qator shahar, qishloqlari, turkman yerlari va Xurosonning shimoliy qismini qo'shib olgan edi. Lekin bu xonlikda uzluksiz o'zaro kurashlar, xonlikning turkmanlar, qoraqalpoqlar, Buxoro xonligi, Eron bilan urushlari davom etganligi iqtisodiy-siyosiy ahvol, madaniy hayotning qashshoqlanishiga olib keldi. Abdullaxon II davrida Xorazm Buxoro xonligi tomonidan bosib olindi. Abdullaxon II vafotidan so'ng Xiva xonligi yana mustaqilligini tiklab oldi. Shuningdek, 1688-yili Subxonqulixon yana Xorazmni Buxoro xonligiga qaram qiladi. Uzoq vaqt o'tmay Xiva yana mustaqil xonlikka aylandi. XVII asrda Xiva xonligi madaniyati tarixida eng yirik arbob sifatida ish ko'rgan xon Abulg'ozixonni ko'rsatib o'tish mumkin. U faqat yirik davlat arbobigina bo'lib qolmay, mashhur tarixchi va tabib ham edi. Abulg'ozixon Buxoro, Toshkent, Eron shaharlarida quvg'inda, bir necha bor qamoqda bo'lgan, nihoyat 1643-yili Orol o'zbeklari uni xon qilib ko'taradilar va u 1645-yili Xiva taxtiga chiqadi. U deyarli yigirma yillik (1645–1663) xonlik davrida markazlashgan davlat tuzishga, mamlakat rivojini ta'minlashga intildi, madaniyatga e'tibor berdi. 1663-yili taxtni o'g'li Anushaxonga topshirdi. Abulg'ozixon fan tarixida mashhur olim, Xorazm tarixnavisligining asoschisi sifatida nom qoldirdi. Uning qalamiga mansub «Shajarayi tarokima» («Turkmanlar tarixi») va «Shajarayi turk» («Turklar shajarasi») kabi asarlar Markaziy Osiyo tarixiga oid muhim manba hisoblanadi. Bu asarlar nemis, fransuz, rus tillariga tarjima etilgan va sharqshunos olimlar orasida ma'lumdur. XVIII asrning oxirlariga kelib Farg'ona butunlay Buxorodan mustaqil bo'lib ajrab chiqdi va Qo'qon xonligi vujudga keldi. Bu xonlikning asoschisi Ming qabilasidan chiqqan Shohruxbiy bo'lib, u XVIII asr boshlarida Farg'onada mustaqil davlat barpo etadi. Bu davlat asta-sekin atrofdagi qishloq va shaharlarni bosib olish hisobiga kengaya boradi.

Norbo'tabiy (1769–1800) Qo'qon xonligidagi ziddiyatlarni tinchitib, o'z hokimiyatini mustahkamladi. Bu xonlik XIX asrning 1-yarmida ancha rivoj topdi. U Toshkent va uning atrofidagi shaharlarni, Janubiy Qozog'istonni bosib oldi. Shuningdek, Farg'onadagi viloyatlar ham unga qaram bo'ldi, hatto Koshg'ar chegaralariga borib yetdi, Olimxon, Umarxon, Muhammad Ali, Sheralixon. Xudoyorxonlar davrida Qo'qon xonligida o'zaro keskin kurashlar davom etib turdi. Shu bilan birga Qo'qon xonligi-

ning Koshg'ar, Xitoy, Rossiya, Buxoro bilan savdo-madaniy aloqalari rivojlandi. Shunday qilib, o'zaro urushlar vaqt-vaqti bilan ko'tarilib tursada, XVIII asrning oxiri – XIX asrning boshiga kelib Turkistonda 3 mustaqil davlat: Buxoro amirligi, Xiva va Qo'qon xonliklari vujudga keldi. Mazkur davlatlarda madaniyat, adabiyot, ilm-fan, san'at o'ziga xos ravishda rivojlandi.

Qo'qon xonligida XIX asr boshlarida me'morchilik rivoj topdi, juda ko'p qurilish ishlari olib borildi, xususan, Qo'qon, Marg'ilon, Naman-gan, Andijon kabi yirik shaharlarda turli binolar: madrasa, masjid, xonaqoh, bozor, hammom kabilar barpo etildi, kanallar o'tkazildi, bino-larni bezash ishlaridan keng foydalanildi, hunarmandchilik ravnaq topdi. Masalan, shu davrda madrasai Muhammad Yasovul, madrasai Rizqulbek, madrasai Oftob oyim, madrasai Mingoyim, madrasai Hakimxon to'ra, madrasai Xo'ja dodxoh, madrasai Haqquli mingboshi kabi madrasalar-ning bir nechtasi qurildi. Qog'oz ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Qo'-qon qog'ozi butun Markaziy Osiyo shaharlarida o'zining sifati bilan nom qozondi. Kitob yozish va bezash ishlari, xattotlikka alohida e'tibor berildi, o'tmish mashhur shoirlarning asarlari ko'chirilib, maxsus rang va chizmalar bilan bezatildi. Lutfiy, Navoiy, Umarxonlarning devonlaridan iborat «Muhabbatnoma» degan bir majmua maxsus, chiroyli qog'ozga bezaklar bilan, go'zal xatda ko'chirilib xon tomonidan Turkiyaga sovg'a qilib jo'natilgan.

Qo'qon xonligi siyosiy mavqeyining oshishi, iqtisodiy-ijtimoiy rivoji madaniy hayotda ijobiy o'zgarishlarga olib keldi. Adabiyot, san'at, tarix-shunoslik va boshqa muhim ijtimoiy fanlarda jonlanish yuz berdi. Bu ji-hatdan ayniqsa, Amir Umarxon hokimiyati (1810–1822) davrida ancha ishlar amalga oshirildi. U xonlikni mustahkamlash va kengaytirish, tashqi mamlakatlar bilan iqtisodiy, diplomatik aloqalarni rivojlantirish bilan birga adabiyot, san'at ravnaqiga katta e'tibor berdi, saroyiga shoirlarni, adabiyot-chilarni to'plab mushoiralar, uchrashuvlar o'tkazib turdi. O'zi ham «Ami-riy» taxallusi bilan o'zbek va tojik tillarida she'rlar yozdi, rafiqasi mash-hur shoira Nodirabegim esa ayol shoira-adabiyotchilarga rahnamolik ko'rsatdi. Umarxon topshirig'i bilan Fazliy Namangoniy adabiyotchi shoir-larning «Majmuat ush-shuaro» («Shoirlar to'plami») to'plamini tartib etib, unga o'sha davrda ijod etgan juda ko'p shoiralarning asarlaridan na-munalar kiritdi. Bu davrda Nodira, Uvaysiy, Ado, G'oziy, Mahzuna, Max-mur, Ma'dan, Dilshod, Bahriniso, Muntazir, Turobiy, Nusrat, Gulxaniy kabi adiblar yetishib chiqdilar. Ularning asarlarida xonlar saroyi hayotidan tortib, oddiy xalqning kundalik turmushi, qiyinchiliklari, xalq orasida vu-

judga kelgan noroziliklar, axloq, insonparvarlik, xalqparvarlik masalalari o'z aksini topgan. Bu adiblarning ko'plari Fazliyning «Majmuat ush-shu-aro»sidan joy olgandir. Ular asosan o'zbek tilida, ko'pincha ikki tilda, o'zbek va tojik tillarida ijod etganlar. Fazliyning o'zi ham o'zbek va tojik tillarida yozilgan bir nechta she'riy asarlarning muallifidir. XIX asrning 1-yarmida yashab ijod etgan, o'zining hajviy xalqchil ruhdagi she'rlari bilan nom qozongan talantli shoirlardan biri Maxmurdir. Bu davr adiblaridan Gulxaniy she'rlar bilan birga nasrda «Zarbulmasal» deb nomlanuvchi asar yozgan bo'lib, unda mashhur hind asari «Kalila va Dimna»ning ta'siri yaqqol ko'rinadi. Asarda qushlar hayoti orqali o'z davridagi oliy tabaqaga mansub bo'lganlarning kirdikorlari fosh etilgan. Asar o'zbek adabiyotidagi masal janrini boyitishga muhim hissa qo'shdi.

Bu davrda Qo'qon xonligida tarix ilmi sohasida ham qator asarlar yaratildi. Ular XIX asr Turkiston tarixini o'rganishda muhim ahamiyatga egadir. Xo'ja Muhammad Hakimxonto'raning «Muntaxab at-tavorix» («Tarixlardan saylanma»), Ashur Muhammad Ho'qandiyning «Tarixi Shoh-ruxiy», Junayd Mulla Avaz Muhammadning «Tarixi jahonnomaiy» («Jahonni ko'rsatuvchi tarix»), Eshon xo'ja Qori Toshkandiyning «Xulosat ul-ahvol» («Ahvollar xulosasi»), shuningdek, Muhammad Solih Toshkandiyning «Tarixi jadidayi Toshkand» («Toshkentning yangi tarixi»), Mulla Olim Mahmudning «Tarixi Turkiston» («Turkiston tarixi») kabi kitoblari shular jumlasidandir. Ularda o'sha davrda xonliklar o'rtasidagi kurashlar, Qo'qon xonligini kengaytirish sohasida olib borilgan urushlar, uning yerlarini asta-sekin rus askarlari tomonidan bosib olinishi haqidagi ma'lumotlar bilan birga madaniyat sohasida olib borilgan ishlar haqida ham turli fakt va axborotlar keltirilgan. Ma'lumki, Qo'qon xonligi shimoldan bosib kelgan rus askarlarining birinchi hujumiga uchradi va unga bir necha yil davomida qarshilik ko'rsatib keldi. Bu voqealar ham shu tarixiy asarlarda qisman o'z ifodasini topgandir.

Xo'ja Muhammad Hakimxonto'raning «Muntaxab at-tavorix» asarida Farg'ona va Buxoro tarixi o'z aksini topgan. Hakimxonto'ra xonga yaqin kishilardan bo'lgan. 1822-yili Madalixon taxtga chiqqandan so'ng o'zi bilan birga o'sib ulg'aygan Hakimxonto'rani avval siylab, so'ng Qo'qondan chiqarib yuboradi va u Sibirga yo'l oladi. U Semipalatinsk, Omsk, Orenburg, Astraxon shaharlarida bo'ladi, rus tilini ham o'rganadi, rus amaldorlari, zobitlari bilan bir necha bor uchrashadi. Hakimxonto'ra haqida axborot rus podshosiga borib yetadi va Aleksandr I uni Peterburgga taklif etadi, u bormaydi. Buning sababini tushuntirib: «O'zimning xesh-u aqrabolarimdan bo'lgan podshohlardan nima ko'rdim-u, begona mamlakat



podshohidan nima ko'rardim», deb yozadi Hakimxonto'ra o'z kitobida. Aleksandr I Orenburgga kelganda Hakimxonto'raning shu shahardaligini eshitib, uni o'z huzuriga chaqirib, uzoq suhbat quradi. Hakimxon rus podshosida yaxshi taassurot qoldiradi. Hakimxon Astraxon orqali Kavkazga, undan Turkiya va Misrga boradi. So'ng Qizil dengizda paroxodga o'tirib bir qancha shaharlarda bo'ladi, Makka va Madinani ziyorat qilib, Arabiston sahrolari orqali Misrga qaytadi. Hakimxonto'ra Iroq orqali Eronga o'tib, uning qator shaharlarini ko'radi, ko'p qiyinchiliklardan so'ng Buxoroga keladi. U safarda Turkiya sultoni va Eron shohi huzurida suhbatda bo'ladi. Buxoroga qaytgach, shayxulislom huzuriga taklif etilishiga qaramay, Shahrisabzga qaytib keladi va qolgan umrini o'sha yerda o'tkazadi. U o'zining boshidan kechirganlarini «Muntaxab at-tavorix» degan asarida batafsil bayon etgan. Kitobda o'sha davrdagi Turkiston madaniy hayoti, Qo'qon, Buxoro xonliklaridagi voqealar haqida muhim ma'lumotlar keltirilgan, ularga muallifning munosabati bildirilgan. Bir so'z bilan aytganda, Hakimxonto'ra o'z davrining yetuk davlat arbobi, adibi, tarixchisi, sayyohidir. Uning asari esa xotiranoma adabiyotiga, tarix va jug'rofiya ilmiga qo'shilgan muhim hissadir.

Hakimxonto'ra o'z davrining bilimdoni, madaniyatli ziyolisi, ma'rifatparvar, tillarni yaxshi bilgan har tomonlama ma'lumotli arbob sifatida tarixda nom qoldirdi. «Muntaxab at-tavorix»ning o'zbekcha va tojikcha nusxalari mavjud.

Muhammad Solihxo'ja Toshkandiy o'zining «Tarixi jadidayi Toshkand» asarida Qo'qon xonligining XIX asr o'rtalaridagi shimoliy chegaralari ahvoli, ruslarning hujumlari, ayovsiz urushlari, yerli xalqlarning qahramonona qarshiligi, Toshkent qamali, Samarqand, Andijon, Marg'ilonning bosib olinishi, Qo'qon xonligining Rossiyaga bo'ysundirilishi kabi voqealarni ishtirokchi sifatida bayon etadi.

XIX asrning boshida, ayniqsa, Muhammad Rahimxon davrida Xiva xonligi mustahkamlandi, so'ng uning yerlari kengaydi. Savdo-sotiq, hunarmandchilik, boshqa mamlakatlar bilan iqtisodiy-madaniy aloqalar kuchaydi. Xiva, Hazorasp kabi shaharlarda madrasa, masjidlar qurildi, me'morchilik san'ati, madaniyatning boshqa sohalariga nisbatan taraqqiysi uchun imkon vujudga keldi. Bu davrda me'morlik yuksak darajada rivoj topdi. Hozirgi Xiva shahri, undagi boy va rang-barang binolar, minoralar asosan XVIII–XIX asrning 1-yarmida bunyod etilgan. Bu davrda Xivada ilm-fan, adabiyot, san'at asta-sekin rivoj topa boshladi. Munis Xorazmiy, Komil Xorazmiy, Ogahiy, Avaz O'tar kabi yetuk qalam egalari, shoir va adabiyotchi, tarixchilar yetishib chiqib, milliy adabiyotni rivojlantirishga mu-



nosab hissa qo'shildilar. Bu davrda bir qancha tarixiy asarlar, jumladan, Sharqning mashhur tarixchilari Ma'sudiy va Ibn al-Asirning asarlari arabchadan, Mixond, Xondamirlarning asarlari forschadan o'zbek tiliga tarjima etildi. Abulg'oziy Bahodirxondan boshlangan Xorazm tarixnavislik maktabi XIX asrga kelib yangi bosqichga ko'tarildi. Munis, Ogahiy, Bayoniy «Firdavs ul-iqbol» («Baxt jannati»), «Zubdat ut-tavorix» («Tarixlar qaymog'i»), «Riyo ud-davla» («Davlat bog'lari»), «Shohidi iqbol» («Iqbol shohidi»), «Shajarai Xorazmshohiy» («Xorazmshohlar shajarasi») kabi tarixiy asarlar yozib qoldirdilar va Xorazm, umuman Turkiston tarixiga oid muhim davr voqealarini yoritib berdilar.

Buxoro amirligida (1753–1920) uzoq davom etgan o'zaro kurashlar, parokandalik, mamlakat iqtisodi va madaniyati rivojiga katta zarar yetkazdi. Amir hokimiyatni mustahkamlash, markazlashtirish va kengaytirish sohasida to'xtovsiz kurash olib bordi. Ayniqsa, amir Haydar zamonida beklar o'rtasidagi kurashlar, turli xalq qo'zg'olonlari kuchaydi. Uning vorisi amir Nasrullo (1826–1860) zamonida ziddiyatlar tinchitilib, birmuncha yumshab, u o'z davlatini janubga tomon ancha kengaytirdi.

Buxoro amirligida o'zaro nizolar, boshqa xonlik bilan kurashlar to'xtovsiz davom etib turishiga qaramay qurilish, madaniyat sohasida ayrim ishlar amalga oshirilganini ko'ramiz. Bu davrda fanning ko'p sohalari o'zining oldingi mavqeini yo'qotgan, diniy ilmlarning ta'siri kuchaygan bo'lsa-da, Buxoro Markaziy Osiyoda o'zining ma'rifat markazi mavqeini saqlab qoldi. Bu yerda ko'plab madrasalarda o'z davri talablariga binoan o'qitish ishlari davom etdi. Ko'p bo'lmasa-da, binolar barpo etildi. Buxorodagi avvaldan hukm surib kelgan tarixnavislik sohasida ayrim asarlar vujudga keldi.

XVIII asr oxirlari va XIX asrning 1-yarmida Muhammad Vafoiy Karminagiyning «Tuhfai xoniy» («Xon tuhfasi»), Muhammad Sharifning «Toj ut-tavorix» («Tarixlar toji»), Mir Olim Buxoriyning «Fathnomai sultoniy» («Sultonning g'alaba kitobi») asarlari yaratildi. Ularda o'sha davrdagi Buxoroning ichki va tashqi siyosati, davlat tuzilishi, xalq harakatlari, madaniy hayoti haqida qiziqarli ma'lumotlar bayon etilgan.

Bu davrda o'zbeklar bilan qardosh bo'lgan boshqa qo'shni xalqlar madaniy hayotida xalqlarni birlashuvga chaqiruvchi, do'stlik, birodarlikni targ'ib etuvchi mashhur arboblardan, adib-shoirlardan yetishib chiqdilar. Ular o'zaro urushlarni, nizolarning oldini olishga chaqiruvchi asarlar yozib, xalq manfaatlarini himoya etdilar. Qoraqalpoq Berdaq (1827–1900), turkman Maxtumquli (1730–1780), qozoq Cho'qon Valixonov (1835–1865), Abay (1845–1904)lar shular jumlasidandir.



XIX asrning 2-yarmi – XX asr boshlarida Turkistonda madaniy hayot

(Rus mustamlakasi davri)

XIX asrning 2-yarmida Turkistonning siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy va madaniy-ma'naviy hayotida katta tarixiy o'zgarishlar ro'y berdi. Rossiya ko'pdan beri Turkistonning tabiiy boyliklariga ega bo'lish, mustamlakasini yanada kengaytirishga intilib kelardi.

XIX asrning 60–70-yillariga kelib Rossiya shu qabih niyatini amalga oshirishga kirishdi. U Turkiston xonliklari yerlarini bosib ola boshladi. Qo'qon xonligi qo'shini birinchi bo'lib rus bosqinchilariga Sirdaryo sohil-larida qahramonona qarshilik ko'rsatdi. Rus qo'shinlari qamal, qirg'in, bosqinchilik, aholini haydash, aldash-avrash kabi turli yo'llar bilan XIX asrning 60-yillari davomida Qo'qon xonligi va Buxoro amirligining ko'p yerlarini o'zlariga tobe etdilar. Bosib olingan yerlarda 1867-yili Turkiston general-gubernatorligi o'rnatildi. Buxoro bilan sulh tuzilib, u Rus choriz-mining vassaliga aylantirildi.

Xivaga uch tomondan rus qo'shinlarining bostirib kelishi, vayronalik, talon-taroj, quvg'inlar 1873-yildagi sulh bilan yakunlandi va Xiva xonligi ham Rossiyaning vassaliga aylandi. Rus zobitlari, ular bilan birga kelgan amaldorlar tomonidan talon-tarojlar tufayli qo'lga kiritilgan juda ko'p ma-daniy-ma'naviy boyliklar, bezaklar, matolar, yodgorliklar, noyob qo'lyoz-ma kitoblar, miniaturalar Peterburgga olib ketildi.

Turkistonning qisqa vaqt ichida Rossiya tomonidan bosib olinishi shafqatsiz urushlar, aholini talon-taroj etish, aldash, xullas, bosqinchilikka xos bo'lgan barcha vositalardan foydalanish yordamida amalga oshirildi. O'sha davrda yozilgan tarixiy kitoblarda rus askarlari, generallarining qir-g'inlari, yerli aholining qattiq qarshiligi, o'z shaharlari uchun jon olib, jon berib jang qilganlari haqqoniy ravishda tasvirlangan. Masalan, xorazmlik mashhur tarixchi – bunday urushlarning bevosita guvohi Bayoniyning «Shajarai Xorazmshohiy», yuqorida aytib o'tilgan Muhammad Solih Tosh-kandiyning «Tarixi jadidayi Toshkand» kabi asarlarida Xorazmda rus as-karlari qirg'inlaridan jon saqlab qochgan ayol va bolalarni quvib yetib, qilichdan o'tkazib, nayza bilan sanchib tashlagani yoki rus bosqinchilariga qarshilik ko'rsatgan Toshkent aholisini 42 kun suvsiz qoldirib, qamal qil-gani kabi dahshatli voqealar bayon etilgan.

Rossiya ko'pdan beri Turkistonga ko'z olaytirib kelar edi, uni bosib olishdan asosiy maqsad bu yerning tabiiy, jug'rofiy boyliklarini qo'lga

kiritish – oltin, paxta, pilla kabi dunyo bozorida qimmatli mollarga xo‘jayinlik qilish hamda rivojlanib kelayotgan rus kapitalizmi uchun yangi bozorga ega bo‘lish edi. Bundan tashqari Turkistonni bosib olish Rossiyaning Markaziy Osiyo, umuman, Sharqdagi mavqeyini mustahkamlar edi.

Chor hukumati bosib olgan o‘lkalar, jumladan, Turkiston xalqini ham iqtisodiy, siyosiy qoloqlikda, qaramlik va nodonlikda saqlab o‘tirishdan juda manfaatdor edi. Rossiya bu yerda xalqni to‘liq mustamlakada saqlash, boyliklardan foydalanish siyosatini amalga oshirishga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy tizimni o‘rnatib, barcha idora etish yo‘llari, usul va vositalarini keng amalga oshirdi. Lekin Turkistonning bosib olinishi rivojlanib kelayotgan rus kapitalizmining va u orqali Ovro‘poning turli iqtisodiy, madaniy yutuqlari beixtiyor ravishda bu yerda ham keng tarqala borishini tezlashtirdi, shaharlarda yangi madaniy-ma‘rifiy tashkilotlar, yangi savdo, bank, tibbiyot korxonalari, temir yo‘l, telegraf, elektr, telefon kabilar vujudga keldi, gazetalar, kitob bosish yo‘lga qo‘yildi va h.k.

Turkistonda mavjud tartiblarni o‘zgartirish, madaniy yuksalishga bo‘lgan intilish rus kapitalistik munosabatlarining kirib kelish davriga to‘g‘ri keldi. Turkistondagi ma‘rifatparvarlik harakati oldingi tartiblarga yangi madaniy yutuqlarni qarshi qo‘yish, so‘ng uning ustunligini targ‘ib qilishdan boshlanib, asta-sekin siyosiy tus ola bordi va Turkistonda Rossiyadan farq qiluvchi, yerli xalqning ma‘naviyati xususiyatlarini nazarga oluvchi tartiblar o‘rnatish talab darajasiga ko‘tarila bordi.

Turkistonda ma‘rifatparvarlik harakati ikki bosqichda kechdi. Birinchi davrda mavjud tuzum va tartiblarni tanqid qilish, madaniy yangiliklarni egallash, Ovro‘poning turli tillarini o‘rganishni targ‘ib etish, yangicha ilmfanning ahamiyatini ko‘tarish kabi masalalar olg‘a surildi. Ahmad Donish, Avaz O‘tar, Furqat, Muqimiy, Zavqiy singari ma‘rifatparvarlar yetishib chiqdi.

Ikkinchi bosqichda ma‘rifatchilikdan jadidchilik o‘sib chiqdiki, u endilikda yangicha ta‘lim-tarbiya, yangi usul maktablarini yo‘lga qo‘yish, dunyoviy ilmlarni har tomonlama egallash, maorif-madaniyatda yangi tartiblarni o‘rnatish, yangi ijtimoiy-siyosiy masalalarni qo‘yish darajasiga ko‘tarildi. Jadidchilik harakati turkiy millatlarning ma‘naviy-madaniy ko‘tarilishiga turtki bo‘ldi. Turkistonda yangi usul maktablari ochilib, ma‘rifatparvar, ilg‘or pedagoglar bu maktablar uchun turli darsliklar, o‘qish kitoblari, qo‘llanmalar yarata boshladilar. Behbudiy, Munavvarqori, Fitrat, Abdulla Avloniy, Ibrat, Hamza kabilar bu sohada jonbozlik ko‘rsatdilar va bu ishda faol ishtirok etdilar. Jadidlar boshqa o‘lkalardagi ma‘rifatparvarlik harakatlari bilan ham aloqa o‘rnata boshladilar. Bu davrda Turkistonda



ma'rifatparvarlik va jadidchilikning turli, yangi ta'lim-tarbiya, o'quv-o'qituv masalalarini o'zida ask ettiruvchi juda ko'p jurnallar nashr etildi. «Taraqqiyot», «Oyna», «Tujjor», «Sadoyi Turkiston», «Samarqand» kabi jurnallar shular jumlasidandir.

Ma'rifatchilik harakati ayniqsa o'zining rivoj topgan bosqichida Turkistonda o'zga yurtlardagi ijobiy yutuqlardan foydalangan holda mustaqil ma'naviy taraqqiyot yo'lini qidirish va targ'ib etish masalalarini olg'a surdi. Bu harakat rus podsho hokimiyatining mustamlakachilik siyosatiga zarar keltirishidan cho'chigan chorizm amaldorlari uni chegaralash va bo'g'ib qo'yish chora-tadbirlarini ko'ra boshladilar.

XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda juda murakkab ijtimoiy-siyosiy hodisalar bilan birga uning madaniy hayotida ham tez va shiddatli o'zgarishlar ro'y berdi. Ma'naviyat, adabiyot, ta'lim-tarbiya, din, mafkura sohasida turli oqimlar paydo bo'ldi, ular orasidagi munosabatlar murakkab tus oldi. Yosh buxoroliklar, yosh xivaliklar harakati vujudga keldi.

1917-yili butun Rossiyada yuz bergan fevral va oktabr inqiloblari uning mustamlakasi bo'lmish Turkistonda ham to'ntarishlarga olib keldi.

1918-yilda Turkiston Avtonom Sotsialistik Respublikasi tashkil etildi, lekin uning umri uzoqqa cho'zilmadi. 1920-yillarga kelib Buxoro va Xiva xonliklari ham uzil-kesil tugatildi. 1924-yilda Turkistonda bolsheviklar, RKP(b) va uning O'rta Osiyo byurosi tomonidan ishlab chiqilgan yagona Sovet davlati doirasida milliy-davlat chegaralanishi amalga oshirildi. O'rta Osiyoda vujudga kelgan milliy respublikalar Sovet Ittifoqi tarkibiga kiritilib, zo'rlik bilan umumiy siyosatga bo'ysundirildi.

M.M.Xayrullayev.



IX–XII asrlar

MUHAMMAD XORAZMIY (783–850)

Buyuk matematik, astronom va geograf Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy VIII asrning oxiri va IX asrning 1-yarmida yashab ijod etdi. Bu davrda Markaziy Osiyo arab xalifaligi tarkibiga kirar edi.

Rivojlanib kelayotgan mavjud tuzum taqozo qilgan ijtimoiy-iqtisodiy talablar bu davrdagi taraqqiyot jarayonining asosiy omillaridan biri bo'ldi. Qurilish, savdo-sotiq, hunarmandchilik, dehqonchilik va boshqa sohalarni yanada taraqqiy ettirish uchun astronomiya, geodeziya, geometriya kabi fanlarni rivojlantirish zaruriyati tug'ildi. O'sha davrning ilg'or olimlari bu fanlarning amaliy ahamiyati haqida aniq tasavvurga ega edilar. Muhammad al-Xorazmiy esa shu olimlarning peshqadami va yo'lboshchisi edi.

Xorazmiy dunyo faniga g'oyat katta hissa qo'shdi. U algebra fanining asoschisi bo'ldi. «Algebra» so'zining o'zi esa uning «Al-kitob al-muxtasar fi hisob al-jabr va al-muqobila» nomli risolasidan olingan. Uning arifmetikaga oid asari hind raqamlariga asoslangan bo'lib, hozirgi kunda biz foydalanadigan o'nlik pozitsion hisoblash sistemasi va shu sistemadagi amallarning Ovro'poda tarqalishiga sabab bo'ldi. Olimning «al-Xorazmiy» nomi esa «algoritim» shaklida fanda abadiy o'rnashib qoldi. Uning geografiyaga doir asari esa arab tilida o'nlab geografik asarlarning yaratilishiga zamin yaratdi. Xorazmiyning «Zij»i Ovro'poda ham, sharq mamlakatlarida ham astronomiyaning rivojlanish yo'lini ko'rsatib berdi. Lekin afsuski, fanning bir necha tarmoqlariga asos solgan,

«o‘z davrining eng buyuk matematigi va agar barcha shart-sharoitlar nazarga olinsa, hamma davrlarning ham eng buyuk matematiklaridan biri» (J. Sarton) bo‘lgan bunday siymoning hayoti haqida ma‘lumotlar deyarli saqlanmagan.

Xorazmiy Xorazm o‘lkasida tug‘ilib, o‘sdi. Adabiyotlarda 783-yil uning tug‘ilgan yili deb qabul etilgan. U dastlabki ma‘lumot va turli sohadagi bilimlarni asosan o‘z yurtida, Markaziy Osiyo shaharlarida ko‘pgina ustozlardan olgan.

Manbalarda Xorazmiyning ismiga yana al-Majusiy va al-Qutrubbuliy degan atamalar ham qo‘shib aytiladi. Bularning birinchisi olim Xorazmning asli mahalliy aholisidan, ya‘ni otashparastlar (arabcha «majus» — otashparast degani) oilasidan, balki shu otashparastlik dinining kohinlari oilasidan kelib chiqqanligini, shu bilan birga olimning o‘zi yoki otasi majusiy bo‘lib, ular islomni keyin qabul qilganligini ko‘rsatadi. Xorazmda majusiylar islomdan keyin ham uzoq muddat o‘z diniy urf-odatlarini saqlab kelgan. Bu haqda Beruniy o‘zining «Osor al-boqiya» asarida guvohlik beradi. Keltirilgan ismlarning ikkinchisi, Xorazmiy mo‘ysafidlik yillarini Bag‘dod yaqinida Dajla bo‘yidagi al-Qutrubbul dahasida o‘tkazganligini ko‘rsatadi. Odatda arablar biror kishining xarakterli xususiyatlari, hunarlari, sevimli odatlari yoki yashash joylariga qarab, unga bir necha ism — «nisbatlar» beradilar. Xorazmiyning al-Qutrubbuliy ismi ham shu tariqa paydo bo‘lgan.

Xorazm juda qadimgi madaniyatiga ega bo‘lib, uning qishloq xo‘jaligi sug‘orma dehqonchilikka asoslanar, bu o‘z navbatida, astronomiya va xronologiyaning rivojlangan hisoblash usullarining mavjud bo‘lishini taqozo etar edi. Haqiqatan ham, qadimgi Xorazmda astronomiya juda rivojlangan, xorazmliklar osmon «sirlari»ni arablarga qaraganda ancha yaxshi bilganlar. Arxeologik qazishmalar Xorazmda qadimda islomdan bir necha asr avval ham rasadxonalar bo‘lganligidan va u yerda muttasil astronomik kuzatishlar olib borilganligidan guvohlik beradi. Xorazmiyning bizgacha yetib kelgan asarlarini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, u yunon, hind va eron astronomiyasi va matematikasini yaxshi bilgan.

Ma‘lumki, al-Ma‘mun 809-yildan Marvda dastlab xalifa Horun ar-Rashidning noibi, so‘ng 813-yildan boshlab xalifa bo‘ladi va 819-yili Bag‘dodga ko‘chadi. Al-Ma‘mun Marvda bo‘lganida Xorazmiyni, mo-varounahrlik va xurosonlik boshqa olimlarni o‘z saroyiga jalb qilgan.



Xalifa al-Ma'mun davrida Bag'dodda Markaziy Osiyo va Xurosondan kelgan bir guruh yirik olimlar ijod etgan. Ular orasida Xorazmiy bilan bir qatorda Marvdan Yahyo ibn Abu Mansur, al-Farg'oni, Habash al-Marvaziy, Holid ibn Abdumalik al-Marvarrudiy, Forobdan Abul Abbos al-Javhariy va boshqa olimlar bor edi.

Bag'dodda al-Ma'mun otasi tomonidan asos solingan ilmiy markaz — «Bayt ul-hikma» faoliyatini har tomonlama takomillashtirib, unga yirik davlat muassasasi tusini berib, avvaliga tarjimonlik faoliyatini keng ko'lamda rivojlantirdi. Vizantiya, Hindistondan ko'plab kitoblar keltirilib, «Bayt ul-hikma»ning faoliyat doirasi birmuncha kengaytiriladi, uning qoshida ikkita yirik rasadxona: birinchisi 828-yilda Bag'dodning ash-Shammosiya mahallasida, ikkinchisi Damashq yaqinidagi Kasiyun tog'ida 831-yilda barpo etiladi. Ikkala rasadxonaning ham faoliyatini Markaziy Osiyo va Xurosondan kelgan olimlar boshqaradi. Xorazmiy bu ilmiy markazning mudiri sifatida uning faoliyatini kuzatib turadi.

Xorazmiy davrida «Bayt ul-hikma»da ishlagan yirik tarjimonlar orasida Hajjoj ibn Yusuf ibn Matar, Abu Zakariyo Yuhanno ibn al-Bitriq, Hunayn ibn Is'hoq va Kusto ibn Luqo al-Ba'albakkiylar bor edi. Bag'dodga kelgan Markaziy osiyolik olimlar orasida mashhur astronom Ahmad ibn Kasir al-Farg'oniyning nomini eslatish lozim. Marvlik Yahyo ibn Abu Mansur Bag'dodning ash-Shammosiya mahallasidagi rasadxonaning asoschisi va rahbari bo'ldi. Rasadxonadagi ishlar haqida u «Bayt ul-hikma»ning mudiri Xorazmiyga hisobot berib turardi. Yahyo 831-yili vafot etganidan so'ng Xorazmiy bu rasadxonani ham boshqaradi va u yerdagi kuzatishlarda faol qatnashadi. Yahyoning qalamiga mansub «Zij al-mumtahan» («Sinalgan zij») nomli astronomik asari ma'lum. Damashq yaqinida Kasiyun tog'idagi rasadxonani Xolid ibn Abdumalik al-Marvarrudiy boshqaradi. U ham o'z «Zij»ini tuzadi. Xolid Yer meridianining uzunligini o'lchash ishlariga boshchilik qiladi.

Marvlik mashhur astronom va matematik Habash al-Hosib («Hisobchi habash») laqabi bilan ma'lum bo'lgan Ahmad ibn Abdulloh al-Marvaziy ham Bag'dodda Xorazmiy bilan hamkorlikda ishlagan. U ikkita «zij» tuzgan bo'lib, bular o'rta asr astronomlari tomonidan keng foydalanilgan. Tadqiqotchilarning ko'rsatishicha, u tangens va kotangens, kosekans funksiyalarini kiritib, ularning jadvallarini ham keltirgan.

Xorazmiy bilan Bag'dodda, keyinchalik «Ma'mun akademiyasi» deb tanilgan «Bayt ul-hikma»da ijod etgan olimlarning barchasini ham Markaziy osiyolik yoki xurosonlik deyish xato bo'lardi. U yerda Suriya, Iroq, Eron va xalifalikning boshqa yerlaridan kelgan olimlar xam ishlagan. Biroq ular orasida Markaziy osiyoliklar salmoqli o'rinni egalladi. Xorazmiy ana shunday ilmiy muhitda yashab ijod qildi va 850-yilda Bag'dodda vafot etdi.

Xorazmiy qalamiga mansub 20 dan ortiq asarlarning faqat 10 tasi bizgacha yetib kelgan. Bular «Al-jabr va al-muqobala hisobi haqida qisqacha kitob» algebraik asar, «Hind hisobi haqida kitob» yoki «Qo'shish va ayirish haqida kitob» — arifmetik asar, «Kitob surat-ularz» — geografiyaga oid asar. «Zij», «Asturlab bilan ishlash haqida kitob», «Asturlab yasash haqida kitob», «Asturlab yordamida azimutni aniqlash haqida», «Kitob ar-ruhoma», «Kitob at-ta'rix», «Yahudiylarning taqvimi va bayramlarini aniqlash haqida risola». Bu asarlarning to'rttasi arab tilida, bittasi Farg'oniyning asari tarkibida, ikkitasi lotincha tarjimada saqlangan va qolgan uchtasi hali topilgan emas.

Xorazmiyning arifmetik risolasi qachon yozilgani noma'lum. Biroq unda olim algebraik risolasini eslaydi. Demak, bundan Xorazmiy arifmetik risolani algebraik risoladan keyin yozgani ma'lum bo'ldi. Bu risola XII asrda Ispaniyada lotin tiliga tarjima qilingan. Tarjimaning XIV asrda ko'chirilgan yagona qo'lyozmasi Kembrij universiteti kutubxonasida saqlanadi. Risola «Diksit Algorizmi», ya'ni «Al-Xorazmiy aytdi» iborasi bilan boshlanadi. Bundan keyin Xorazmiy to'qqizta hind raqamining sonlarni ifodalashdagi afzalliklari va ular yordamida har qanday sonni ham qisqa qilib va osonlik bilan yozish mumkinligini aytadi. Asarning lotincha qo'lyozmasida hind raqamlari ko'pincha yozilmay, ularning o'rni bo'sh qoldirilgan yoki ahyon-ahyonda 1, 2, 3, 4, 5 sonlarga mos keladigan hind raqamlari yozilgan. Ko'pincha esa hind raqamlari o'sha davrda Ovro'poda keng tarqalgan rim raqamlari bilan almashtirilgan.

Xorazmiy hind raqamlari asosida o'nlik pozitsiyaon sistemasida sonlarning yozilishini batafsil bayon qiladi. U sonlarning bunday yozilishidagi qulayliklar, ayniqsa, nol ishlatilishining ahamiyatini alohida ta'kidlaydi. Keyin Xorazmiy arifmetik amallarni bayon qilishga o'tadi. Bunda Xorazmiy sonlarning martabalarini, ya'ni razryadlarini e'tiborga olishni hamda nolni yozishni unutmaslikni uqtiradi, aks holda natija xato chiqadi, deydi u.

Risolaning boshlanishida Xorazmiy undagi masalalar o'z davrining amaliy talablariga javob sifatida vujudga kelganligini qayd qiladi.

U shunday deydi: «Men arifmetikaning oddiy va murakkab masalalarini o'z ichiga oluvchi «Al-jabr va al-muqobila hisobi haqida qisqacha kitob»ni ta'lif qildim, chunki meros taqsim qilishda, vasiyatnoma tuzishda, mol taqsimlashda va adliya ishlarida, savdoda va har qanday bitimlarda va shuningdek, yer o'lchash, kanallar o'tkazishda, (amaliy) geometriya va boshqa shunga o'xshash turlicha ishlarda kishilar uchun bu zarurdir».¹

Risolaning Kembrij universiteti kutubxonasida saqlanayotgan lotincha qo'lyozmasining matnini 1857-yili B.Bonkompani nashr etgan. Mazkur qo'lyozmaning fotoreproduksiyasini tarixchi A.P.Yushkevich ham nashr etgan.² Undan tashqari, A.P.Yushkevich o'z risolasida Xorazmiy risolasiga alohida paragraf bag'ishlagan.³ B.Bonkompanining nashri asosida Y.X.Kopelevich va B.A.Rozenfeldlar risolaning ruscha tarjimasini nashr etishgan.⁴ Xorazmiyning 1200 yillik yubileyi munosabati bilan 1983-yili bu asarning qayta nashri va o'zbekcha tarjimai chop etildi.⁵

Xorazmiyning arifmetik risolasi XII asrdayoq Ispaniyada sevilialik Ioann tomonidan qayta ishlangan. Keyinchalik to yangi davrgacha Ovro'polimlari Xorazmiy risolasiga qayta-qayta murojaat qilib, u asosida darsliklar yozganlar. Bu qayta ishlangan nusxalar va darsliklarning nomida «Algorizm kitobi» degan ibora bo'lgan.

Xorazmiyning arifmetik risolasi hind raqamlariga asoslangan o'nlik pozitsion hisoblash sistemasining Ovro'poda, qolaversa, butun dunyoda tarqalishida buyuk ahamiyat kasb etdi. Ovro'poga hind raqamlari arablar orqali o'tganligi uchun ular «arab raqamlari» deb ataladi va hozir ham shunday deb atalib kelinmoqda. Ovro'poliklar uzoq vaqtgacha hind

¹ М у х а м м а д и б н М у с о а л-Х о р а з м и й, Tanlangan asarlar, Toshkent, «Fan», 1983, 78-bet.

² Ю ш к е в и ч Л. П., Арифметический трактат Мухаммеда ибн Муса ал-Хорезми, Труды института истории естествознания и техники, АН СССР, вып. 1, М., 1964.

³ Ю ш к е в и ч А. П., История математики в средние века, М., 1961.

⁴ М у х а м м е д а л-Х о р е з м и, Математические трактаты, Т., 1964.

⁵ М у х а м м а д и б н М у с о а л-Х о р а з м и й, Tanlangan asarlar, Т., «Fan», 1983.



raqamlariga asoslangan hisob tizimini «algorizmi» deb atab keldilar. Faqat XVI asr o'rtalaridagina bu nom «arifmetika» iborasi bilan almashtirildi. Shundan keyin to hozirgi kungacha «algorizm» yoki «algoritm» deganda har qanday muntazam hisoblash jarayoni tushuniladigan bo'ldi. Bu ibora bilan al-Xorazmiyning nomi fanga abadiy kirib qoldi.

Xorazmiyning algebraik risolasining to'liq nomi — «Al-kitob al-mux-tasar fi hisob al-jabr va al-muqobila». Risolaning nomidagi «aljabr» va «al-muqobila» so'zlari «to'ldirish» va «ro'para qo'yish» — o'rta asr algebrasining ikkita asosiy amalini anglatadi. «Al-jabr» so'zi lotincha transkripsiyada «algebra» bo'lib, Xorazmiy asos solgan yangi fanning nomi bo'lib qoldi. Xorazmiyning algebraik risolasi uch qismdan iborat: 1) algebraik qism, buning oxirida kichik bir bo'lim — savdo muomalasidagi bob keltiriladi; 2) geometrik qism, algebraik usuli qo'llanib o'lchash haqida; 3) vasiyatlar haqidagi qism. Xorazmiy uni alohida nom bilan «Vasiyatlar kitobi» deb atagan. Xorazmiy o'z risolasida hech qanday belgi keltirmaydi, mazmunini butunlay so'z bilan bayon etadi va shakllar keltiradi.

Asarning boshida Xorazmiy kompleks masalalarni aks ettirgan. Shu bilan birga Xorazmiy xalifalikda kun tartibida turgan ehtiyojlar, islom va shariat talablariga ko'ra yuzaga keladigan masalalar, me'morchilik va irrigatsiya bilan bog'liq bo'lgan masalalarni hal qilishni ham ko'zda tutganligini bildiradi. Umuman olganda, Xorazmiy algebra — bu sonli kvadrat va chiziqli tenglamalarni yechish haqidagi fandır.

Xorazmiyning aytishicha, algebra uch xil son bilan ish ko'riladi; ildiz (jizr) yoki narsa (shay), kvadrat (mol) va oddiy son yoki dirham (pul birligi). Yana uning aytishicha, ildiz o'zini o'ziga ko'paytiriladigan miqdorlar, kvadrat esa ildizni o'ziga ko'paytirishda hosil bo'lgan kattalikdir. Xorazmiy ish ko'radigan tenglamalar mana shu uch miqdor orasidagi munosabatlardir. U avval risolada ko'riladigan oltita chiziqli va kvadrat tenglamaning tasnifini keltiradi. Bundan keyin aniq misollar bilan boshqa har qanday tenglamalar risola mohiyatidagi asosiy amallar — aljabr va al-muqobila amallari yordamida olti konoik ko'rinishga keltiriladi.

Xorazmiy asos solgan algebra fanini undan keyingi Sharq olimlari muvaffaqiyatli rivojlantirdilar.

Xorazmiyning boshqa asarlaridan farqli o'laroq, uning algebraik risolasining uchta qo'lyozmasi saqlangan. Ular Qobul, Madina va Oksford universitetining Bodleyan kutubxonasida saqlanadi.



Risola 1145-yili Sevilyada (Ispaniya) Robert Chester tomonidan lotin tiliga tarjima qilingan. Asarning arabcha qo'lyozmalari va lotincha tarjimalari XIX va XX asr olimlari tomonidan chuqur o'rganilgan.

Xorazmiyning eng yirik astronomik asari — uning «Zij»idir. Olim bu asarini 830-yil atrofida yozgan.

Xorazmiyning «Zij»i 37 bob, 116 jadvaldan iborat. Asarning avvalgi besh bobi xronologiyaga bag'ishlangan bo'lib, «to'fon», «iskandar», «safari» va xristian eralaridagi sanalarni hijriy eraga ko'chirish qoidalari keltiriladi. 6-bobda aylana — 12 burjga, burj — 30 darajaga, daraja — 60 daqiqaga, daqiqa — 60 soniyaga va hokazo mayda bo'laklarga bo'linish bayon etiladi. 7–22-boblar Quyosh, Oy va besh sayyoraning harakatlari masalasiga bag'ishlangan. Bu boblarda Xorazmiy qadimgi va ilk o'rta asr hind astronomik ma'lumotlaridan, Eron va Yunon ma'lumotlaridan mohirona foydalangan holda Ptolemeyning geomarkaz sistemasiga asoslanib, sayyoralar harakatini bayon etgan. 23-bob trigonometriyaga bag'ishlangan, unda Xorazmiy «tekis» va «akslangan sinus» tushunchalarini kiritadi va bu funksiyalar jadvalarini keltiradi. 25–27-boblar matematik geografiyaga bag'ishlangan. Bu yerda geografik joylarning uzunlik va kengliklarini aniqlash qoidalari keltiriladi va bu koordinatlarning o'zgarishi Quyoshning yillik, kecha-kunduzlik harakatida ekliptik, ekvatorial koordinatlarning o'zgarishi bilan bog'liqligi ko'rsatiladi.

28-bobda Xorazmiy yana trigonometrik masalalarga murojaat qiladi va tangens, kotangens tushunchalarini kiritadi hamda ularga mos jadvalarni keltiradi. 29-bobda sayyoralar harakatining tezligi aniqlanadi. 30-bobda Quyosh va Oy ko'rinmas kuchlarining o'lchami keltiriladi. 31–32 va 36–37-boblar munajjimlik masalalariga bag'ishlangan, 33–35-boblar Quyosh va Oy tutilishi va parallaks (yoritgichning ko'rinish farqi) masalalariga bag'ishlangan.

Xorazmiy «Zij»i xalifalikdagi dastlabki astronomik asarlardan edi. Asar yozilishi bilan olimlarning diqqatini o'ziga jalb etdi. Unga Xorazmiyning zamondoshlaridan Farg'oniy, Al-Hoshimiy va boshqalar yuksak baho berishgan. Abu Rayhon Beruniy bu «Zij»ni sharhlashga uchta asarini bag'ishlagan. Fan tarixida ispaniyalik arab astronomi Maslama al-Majritiy tomonidan 1007-yili ko'chirilgan nusxa diqqatga sazovordir. Bu nusxani 1126-yili Adelard Bat Ispaniyada lotinchaga tarjima qildi. Xorazmiy «Zij»i hozir mana shu lotincha tarjimada mavjud. Shu tarjima-



ning to'rt qo'lyozma nusxasi asosida 1914-yili X. Zuter «Zij»ning lotincha tanqidiy matnini, shu matn asosida A.Neygubauer esa 1962-yili uning inglizcha tarjimasini nashr etgan. Mana shu ikki nashr asosida «Zij»ning to'la ruscha va qisman o'zbekcha tarjimalari nashrga tayyorlandi.

Xorazmiy «Zij»ining Ovro'po faniga ta'siri X. Zuter, K.A.Nallino va I.Y.Krachkovskiylar tomonidan yaxshi o'rganilgan. Tadqiqotchilar yakdillik bilan ta'kidlashicha, Xorazmiyning bu asari uning arifmetik va algebraik risolalari kabi bunday asarlariga ehtiyoj tug'ilgan paytda yuzaga keladi va bu asari bilan olim astronomik asarlar yozilish uslubini standartlashtirdi, bu standart esa to Ulug'bek «Zij»igacha o'z kuchini saqladi.

Xorazmiy o'z «Zij»ida boshlang'ich meridian sifatida, hind an'anasiga ko'ra, Arin (hozirgi Hindistondagi Ujayn) shahridan o'tgan meridianni tanlagan. Ovro'poda XIII asrda Rojer Bekon va Buyuk Albert ham Arin meridiani g'oyasining tarafdorlari bo'lganlar. Arin g'oyasiga ko'ra, Ayyalik Petr (Fransiyadan) 1410-yili o'zining «Yer tasviri» nomli asarini yozdi. Bu asarning 1487-yili chop etilgan bir nusxasidan Xristofor Kolumb foydalangan. Kolumbning o'ziga tegishli nusxa hoshiyasiga yozgan eslatmalariga ko'ra, Arin g'oyasi unda Yerning noxsimon ekanligi va yerning Aringa diametral qarama-qarshi tarafida Aringa o'xshash joy bo'lishi kerakligi haqida tasavvur hosil qilgan.

Shunday qilib, Xorazmiyning «Zij»i geografiya sohasidagi buyuk kashfiyotlarga ham aloqador bo'ldi.

Xorazmiy geografik asarining yozilgan yili aniq ma'lum emas. Akademik V.V.Bartold bu asar 836–847-yillar orasida yozilganligini aniqlagan.¹

Asar 1037-yili ko'chirilgan yagona arabcha nusxasida bizgacha yetib kelgan bo'lib, bu nusxa Strasburg universiteti kutubxonasida saqlanadi.

Kitobda shaharlar, tog'lar, dengizlar, orollar va daryolardagi 2402 ta geografik joyning koordinatalari keltiriladi. Shaharlar, daryolar, tog'lar, orollar va boshqa obyektlar iqlimlar bo'yicha taqsimlangan. Iqlim so'zi aslida yunoncha klima — «og'ish» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, uni fanga Gipparx (miloddan oldingi II asr) kiritgan. Gipparx Yerning odamlar yashaydigan qismini 12 ta iqlimga ajratgan. Undan so'ng Ptole-

¹ Бартольд В. В., Введение к изданию Худуд ал-алам. Сочинения: т. VIII, М., 1973, стр. 504–545.

mey iqlimlarning sonini 8 tagacha kamaytiradi, lekin o'z «Geografiya»sida u iqlimlar nazariyasiga to'la rioya qilmaydi, chunki geografik joylarni mintaqalar va yeparxiyalar bo'yicha taqsimlaydi.

Geografiyani iqlimlar nazariyasiga to'la rioya etgan holda birinchi marta Xorazmiy bayon qiladi. U yerning ma'mur, ya'ni insonlar yashaydigan obod qismini yetti iqlimga ajratadi. Xorazmiy qadimgi yunon olimi Ptolemeydan farqli o'laroq, mintaqalar, mamlakatlar va ulardagi geografik joylarni emas, balki 1-iqlimdan to 2-iqlimgacha joylashgan joylarni tavsif etadi.

Xorazmiyning geografik risolasi o'rta asrlardagi eng birinchi geografik asar edi. Shuning uchun uning iqlimlar nazariyasi keyingi davrlarda geografianing rivojlanishida katta ahamiyat kasb etdi. Xususan, uning iqlimlar nazariyasi Yerning ma'mur qismini iqlim mintaqalari bo'yicha o'rganishni osonlashtiradi.

Xorazmiy ham Ptolemey kabi uzunliklarni Kanar orollaridan boshlab hisoblaydi. Xorazmiy ekvatoridan janubda 8 shahar, 1-iqlimda 64 shahar, 2-iqlimda 54 shahar, 3-iqlimda 59 shahar, 4-iqlimda 146 shahar, 5-iqlimda 79 shahar, 6-iqlimda 63 shahar, 7-iqlimda 25 shahar va 7-iqlimda shimolda 40 shaharning koordinatalarini keltiradi.

Risolaning ikkinchi bobida iqlimlardagi tog'lar tavsiflanadi. Tog'larning boshi va oxirining koordinatalari keltiriladi. Xorazmiy Yaqin va O'rta Sharqdagi hamda Kavkaz va Markaziy Osiyodagi tog'larni ham u yerlardagi shaharlar kabi batafsil bayon qiladi. Shunga qaraganda, olim u yerlarning geografiyasi bilan shaxsan tanish bo'lgan ko'rinadi.

Risolaning uchinchi bobida Xorazmiy dengizlarni, to'rtinchi bobida orollarning qirg'oq chiziqlari va ulardagi punktlarni, beshinchi bobida esa mamlakatlarni, oltinchi bobida esa daryolar va buloqlarni tavsiflaydi.

Xorazmiyning «Kitob surat-ul-arz» asari ko'p olimlar tomonidan o'rganilgan. Lekin asar shu paytgacha to'la ravishda birorta hozirgi zamon tiliga tarjima qilinmagan. 1983-yili olimning 1200-yillik yubileyi munosabati bilan bizda bu asarning o'zbekcha tarjimasini Xorazmiyning «Tanlangan asarlari» tarkibida chop etildi.

Xorazmiyning yuqorida keltirilgan asarlariyoq u fanning qator tarmoqlarining asoschisi bo'lganligini ko'rsatadi. Uning g'oyalari matematika va astronomiyaning oyoqqa turishi, rivojlanishiga sabab bo'ldi. Hozirgi davrda uning xizmatlari jahon afkor ommasi tomonidan e'tirof etilgan.



Xorazmiy asarlari dunyoning turli kutubxonalarida saqlanadi. Turli g'arb va sharq tillariga tarjima etilgan. U o'z asarlari, ixtirolari bilan nafaqat o'z vatanini, balki arab xalifaligining ilmiy yutug'i, o'z davri madaniyatining yuksak natijalarini butun dunyo va barcha asrlarga mashhur etdi.

AHMAD FARG'ONIIY

(Taxminan 797–865-yillar)

O'rta asrlarda yashagan Markaziy osiyolik olimlar orasida buyuk astronom, matematik va geograf Ahmad Farg'oniy salmoqli o'rin egallaydi.

Olimning to'liq ismi Abul Abbas Ahmad ibn Muhammad ibn Kasir al-Farg'oniydir. Manbalarda uning farg'onalik ekanligidan tashqari deyarli boshqa ma'lumotlar saqlanmagan. Lekin shuni e'tiborga olish kerakki, o'rta asrlarda musulmon o'lkalarida bo'lgan an'anaga binoan, mamlakat poytaxti yoki markazini ham mamlakat nomi bilan atashgan. Masalan, 995-yilgacha Xorazmning poytaxti bo'lgan Kotni, keyingi poytaxti Gurganjni ham Xorazm deyishgan. Ba'zi arab mamlakatlarida bu odat hozir ham saqlanib qolgan. Misrning poytaxti Qohirani — Misr, Shom (Suriya)ning poytaxti Damashqni — Shom deyilishi shundan. Ana shu odatga ko'ra, o'rta asrlardagi Farg'ona vodiysining markaziy shahri Axsikatni ham Farg'ona deyishgan. Al-Farg'oniy Farg'ona vodiysining Kubo (Kuva) qishlog'ida tug'ilgan. Shunisi ma'lumki, al-Farg'oniy xalifa Horun ar-Rashidning sharqiy viloyatlaridagi noibi, o'g'li Abdulloh (bo'lajak xalifa al-Ma'mun)ning Marvdagi olimlari doirasiga kirgan. Ehtimol, Abdulloh yoshligidan bilimga chanqoq bo'lgani uchundir, 809-yili Marvga noib bo'lib tayinlanganida, Movarounnahr, Xuroson, Xorazmdan olimlarni va iste'dodli yoshlarni to'play boshlagan. Bu olimlarning asosiy qismi Abdulloh u yerga kelganidan avvalroq to'plangan bo'lishi ham ehtimoldan xoli emas, chunki Marv avvaldan, Sosoniylar davridanoq yirik ilmiy markaz hisoblangan. 651-yili eng so'nggi Sosoniy shahanshoh Yazdigard ibn Shahriyor arablar ta'qibidan qochib bu yerga kelganida poytaxtdagi kutubxona kitoblarini ham olib kelganligi ma'lum. Marv arablar qo'l ostida ham o'z mavqeyini yo'qotmadi, aksincha, to

mo'g'ul istilosigacha o'sabordi. Shunga ko'ra, uning IX asr boshida xalifalikning yirik ilmiy va madaniy markazi bo'lganligi tabiiydir.

Xalifa II orun ar-Rashid 809-yili Tusda to'satdan vafot etadi va uning vasiyatiga ko'ra, Bag'dodda taxtga katta o'g'li — Muhammad al-Amin nomi bilan o'tiradi. Saroydagi xurosonlik a'yonlar esa Abdullohni taxtni qo'lga olishga da'vat etadilar. 811-yildan 813-yilgacha aka-uka Muhammad va Abdulloh o'rtasida taxt uchun olib borilgan kurash Abdullohning g'alabasi bilan tugaydi va Muhammad qatl qilinadi. O'sha yili Abdulloh taxtga al-Ma'mun nomi bilan o'tiradi. Lekin u Bag'dodga bormay 819-yilga qadar Marvda yashaydi. Natijada, Marv 813-yildan to 819-yilgacha xalifalikning vaqtincha poytaxti bo'lib turadi. 819-yili al-Ma'mun butun saroy a'yonlari va ulamolari bilan birga Bag'dodga ko'chadi. Ular orasida al-Farg'oniy ham bor edi. Shunday bo'lsa ham al-Ma'mun qo'l ostida u tuzgan ilmiy markaz «Bayt ul-hikma»da ishlagan olimlar orasida al-Farg'oniyning nomi eslatilmaydi. Buning sababi, bizningcha, shunday bo'lishi mumkin: u davrda xalifalikda ikkita rasadxona faoliyat olib borardi, biri Bag'dodning ash-Shammosiya mahallasida va ikkinchisi Damashq yaqinidagi Kasiyun tepaligida edi. Bu rasadxonalarning har birida «Bayt ul-hikma» olimlarining ikkita doimiy guruhlari ishlar edi. Ana shu olimlarning o'zi rasadxonalari hojatidan kelib chiqib, ilmiy ekspeditsiyalar uyushtirardilar. Umumiy rahbarlik Bag'doddan turib boshqarilardi. Balki al-Farg'oniy Damashqdagi olimlar guruhida bo'lishi, al-Ma'mun uni Bag'dodga kelishi bilanoq u yerga yuborgan bo'lishi mumkin. Abu Rayhon Beruniyning bir xabari shunday taxminga asos bo'ladi. Uning aytishiga ko'ra, Bag'dod rasadxonasining ishida Yahyo ibn Abu Mansur, al-Xorazmiy va boshqa olimlar, Damashq rasadxonasida esa Xolid ibn Abdumalik va al-Farg'oniy bilan birga ikkinchi guruh olimlar ishlaganlar. U shuningdek, al-Farg'oniyning Suriya shimolida, Sinjar sahosida 832—833-yillarda Tadmur va ar-Raqqa oralig'ida Yer meridiani bir darajasining uzunligini o'lchashda ishtirok etganini ham aytgan.

Nihoyat, al-Farg'oniyning hayoti haqidagi eng so'nggi va eng aniq xabar 861-yil bilan bog'lanadi. Mavjud ma'lumotlarga ko'ra, u shu yili Qohira yaqinidagi Ravzo orolida nilometrni, ya'ni Nil daryosi suvi sathini belgilovchi uskunani yasagan yoki ta'mirlagan. Biroq al-Farg'oniy qan-

day qilib va qanday sharoitda Misrga borib qolgani haqida ham aniq ma'lumot yo'q.

Ma'lumki, al-Ma'mun Marvdan Bag'dodga nafaqat olimlarni, balki g'ulomlari bo'lmish turk askarlarini ham olib kelgan edi. Bag'dodga kelishi bilan u ma'lum ma'noda lashkarni turklashtirdi: ana shu turk askarlaridan lashkarboshilar tayinladi. Turk g'ulomlaridan biri buxorolik To'lunni xalifa Suriya, Falastin va Misrdagi lashkarlarning amiri etib tayinladi. Uning o'g'li Ahmad esa Suriya va Misrni mustaqil deb e'lon qilib, To'luniylar sulolasiga asos soldi. Al-Xorazmiy xalifa al-Ma'munning yaqin odami va maslahatchisi bo'lgani kabi al-Farg'oniyning Misrda paydo bo'lganidan ajablanmasa ham bo'ladi.

Al-Farg'oniyni hayotining muddati haqida ham qiyoslar qilish mumkin. Agar uning hayotini al-Xorazmiyning hayoti bilan qiyos qilsak, quyidagi xulosaga kelamiz. Ma'lumki, al-Xorazmiyning nomi yozma manbalarda oxirgi marta 847-yili xalifa al-Vosiqning o'limi munosabati bilan eslatiladi va shundan so'ng uchramaydi. Shunga ko'ra, uning o'lgan yili deb 850-yil qabul qilingan. Al-Farg'oniyning nomi oxirgi marta 861-yili Nilning sathini o'lchagich uskunasi ta'mirlash munosabati bilan eslatiladi. Yana bir ma'lumotga ko'ra, al-Farg'oniyni Misrda nasroniylar orasida yashab, ularning diniga o'tganligi va shuning uchun u qatl qilinganligi qayd etiladi. Lekin qatl qilingan yili eslatilmaydi. Lekin bu «al-Farg'oniyni» o'sha mashhur astronom al-Farg'oniymi yo boshqasimi — bu noma'lum. Har holda al-Farg'oniyni 861-yildan keyin ko'p yashamagan va uning o'lgan (yoki qatl qilingan) yili deb 865-yilni qabul qilish mumkin. Agar u al-Ma'mun bilan 819-yili Marvdan Bag'dodga ketayotganda 20–25 yoshlar chamasida bo'lgan desak, u holda uning tug'ilgan yili deb 797 yoki 798-yilni qabul qilish mumkin. U holda uning hayot muddati 67–68 yoshni tashkil qiladi. Demak, 1998-yili uning tug'ilganiga 1200 yil to'ldi.

Al-Farg'oniyni hayoti haqidagi ma'lumotlar juda kam bo'lganligiga qaramay, o'rta asrlarda Sharqda uning nomi mashhur bo'lgan. Ibn an-Nadim (X asr), Ibn al-Qiftiy (XII–XIII asrlar), Abul Faraj bar Ebrey (XIII asr), Hoji Xalifa (XVII asr) kabi Sharq fihristchilari uni o'z asarlarida eslatadilar.

Al-Farg'oniyni asosiy astronomik asari «Samoviy harakatlar va umumiy ilmi nujum kitobi» («Kitob al-harakat as-samoviya va javomi»



ilm an-nujum») XII asrda Ovro'poda lotin tiliga ikki marta va XIII asrda boshqa Ovro'po tillariga ham tarjima qilinganidan so'ng, uning lotinlashtirilgan nomi «Alfraganus» shaklida G'arbda bir necha asr davomida keng tarqaladi. Uning bu kitobi shu asrlar davomida Ovro'po universitetlarida astronomiyadan asosiy darslik vazifasini o'tadi. Al-Farg'oniy asarining lotincha tarjimasi birinchi marta 1493-yilda nashr etilgan bo'lib, u eng qadimgi nashr qilingan kitoblardan hisoblanadi. 1669-yili mashhur golland matematigi va arabshunosi Yakob Golius al-Farg'oniy asarining arabcha matnini yangi lotincha tarjimasi bilan nashr etganidan so'ng, al-Farg'oniy va uning asarining Ovro'podagi shuhrati yanada ortdi. Ovro'po Uyg'onish davrining buyuk namoyondalaridan biri bo'lgan mashhur olim Regiomontan XV asrda Avstriya va Italiya universitetlarida astronomiyadan ma'ruzalarni al-Farg'oniy kitoblaridan o'qigan. Al-Farg'oniy nomini Dante (XV asr) va Shiller (XVIII asr) ham eslagan.

Ovro'po olimlaridan D'Alamber, K. Brokelman, X. Zuter, I.Y.Krachkovskiy, A.P.Yushkevich va B.A.Rozenfeldlar al-Farg'oniyning ijodini yuqori baholaganlar.

Hozirgi kunda al-Farg'oniyning sakkiz asari ma'lum bo'lib, ularning hammasi astronomiyaga aloqador va birortasi hozirgi zamon tillariga tarjima qilinmagan. Ular quyidagilardir: yuqorida tilga olingan asar, olatda uni «Astronomiya asoslari haqida kitob» nomi bilan ham atashadi, qo'lyozmalari dunyo kutubxonalarining deyarli barchasida bor. «Asturlub yasash haqida kitob» — qo'lyozmalari Berlin, London, Mashhad, Parij va Tehron kutubxonalarida, «Asturlub bilan amal qilish haqida kitob» — birgina qo'lyozmasi Rampurda (Hindiston), «Al-Farg'oniy jadvallari» — qo'lyozmasi Patnada (Hindiston), «Oyning Yer ostida va ustida bo'lish vaqtlarini aniqlash haqida risola» — qo'lyozmalari Gota va Qohirada, «Quyosh soatini yasash haqida kitob» — qo'lyozmalari Halab va Qohirada saqlanadi. «Al-Xorazmiy «Zij»ining nazariy qarashlarini asoslash» asari Beruniy tomonidan eslatiladi, lekin qo'lyozmasi topilmagan.

Al-Farg'oniyning bu ro'yxat boshidagi ikki asaridan boshqalari hali hech kim tomonidan o'rganilmagan. Shubhasiz, ular o'rganilib tahlil qilinishi bilan al-Farg'oniy ijodining yangi qirralari ochiladi va olimning o'rta asrlarda, undan keyin Sharq va G'arbda bu qadar mashhur bo'lishi sabablari ham ayon bo'ladi.



Aytganimizdek, mazkur asarlarning birinchisi 1145-yildan boshlab lotin tiliga bir necha marta tarjima qilingan. Bu tarjimalarning barchasida al-Fargʻoniy ismi lotinchada «Alfraganus» shaklida yozilib, shu shaklda fanga abadiy kirib qoldi.

Al-Fargʻoniyning bu asari astronomiyadan eng sodda darslik boʻlib, unda murakkab geometrik shakllar va matematik formulalar, hisoblashlar keltirilmagan. Bu esa astronomiyadan boshlangʻich maʼlumotlarni oʻzlashtirishni ancha osonlashtirgan. Balki buyuk Regiomontan asarning shu xususiyatini anglab, oʻzining universitetlardagi maʼruzalari uchun qoʻllanma sifatida al-Fargʻoniyning ana shu asarini tanlagandir.

Shunday qilib, buyuk ajdodimizning bu asari Ovroʻpo Uygʻonish davridagi va undan ancha keyingi davrdagi madaniyat rivojida sezilarli rol oʻynadi. Asarning iqlimlar nazariyasiga koʻra bayon qilingan geografik boʻlimi diqqatga sazovordir. Mamlakat va shaharlarning nomlariga qaraganda, al-Fargʻoniy al-Xorazmiyning geografik asari bilan tanish boʻlgan yoki u ham al-Xorazmiy foydalangan manbadan foydalangan, chunki ikkala muallifda ham bu nomlar bir xil.

Geografik boʻlim (9-bob) bunday atalgan: «Yerdagi maʼlum mamlakatlar va shaharlarning nomlari va har bir iqlimdagi narsalar haqida». Bundan soʻng, yetti iqlimning hammasi ulardagi mamlakatlar viloyatlari va shaharlari bilan birga tavsiflanadi. Shuni ham aytish kerakki, oʻrta asrlarda arab tilida yozilgan geografik asarlarning eng birinchisi al-Xorazmiyning «Kitob surat ul-arz» asari edi. Unda al-Xorazmiy yetti iqlimdagi dengizlar, mamlakatlar, togʻlar, daryolar, koʻllar va shaharlarning tavsifini keltirgan edi. Bunda u tavsifini rubʻi maʼmurning eng gʻarbiy chekkasi, yaʼni Afrikaning Atlantika okeani qirgʻogʻidan, Tinch okeandagi Yaponiya orollarigacha davom ettiradi. Tavsif kenglama yoʻnalishida ekvatorial yerlardan to shimoliy qutbiy yerlargacha davom etadi.

Iqlimlarning al-Fargʻoniy keltirgan tavsiflash usuli al-Xorazmiynikidan farq qiladi. Al-Xorazmiy oʻzining tavsiflash usulida Ptolemey anʼanasiga asoslangan boʻlsa, al-Fargʻoniy hindlarning anʼanasiga asoslanib, rubʻi maʼmurning tavsifini eng sharqiy chekkasidan boshlaydi. Uning iqlimlar tavsifida 3-, 4-, 5-, 6- va 7-iqlimlarning tavsifi diqqatga sazovordir. Chunki bularda Markaziy Osiyoning va unga tutash yerlarning shahar va viloyatlari tavsiflanadi. Shuning uchun quyida oʻsha tavsiflarni oʻz ichiga olgan parchani keltiramiz.



«Uchinchi iqlim Sharqdan boshlanib, Xitoy mamlakatining shimolidan, so'ng I lind mamlakatidan va so'ngra Kobul va Kermon viloyatlaridan o'tadi.

To'rtinchi iqlim Sharqdan boshlanadi va Tibetdan, so'ngra Xurosondan o'tadiki, bunda Xo'jand, Ushrushona, Farg'ona, Samarqand, Balx, Buxoro, Hirot, Amuya, Marvarrud, Marv, Seraxs, Tus, Nishopur shaharlari bor. Undan so'ng Jurjon, Qumis, Tabariston, Damovand, Qazvin, Daylam, Ray, Isfahondan o'tadi.

Beshinchi iqlim Sharqda Ya'juj mamlakatidan boshlanadi, so'ng Xurosonning shimolidan o'tadi, unda Taroz shahri — savdogarlar shahri bor, Navokat (Navkat), Xorazm, Isfijob (Sayram), Turarband (O'tror — hozirgi Aris) va Ozarbayjon, Arminiya (Armaniston) viloyati, Barda'a (Barda), Nashava (Nahchivon) shaharlari bor.

Oltinchi iqlim Sharqdan boshlanadi va Ya'juj mamlakatidan o'tadi, so'ng Xazar mamlakatidan (Shimoliy Kavkaz va Quyi Volgabo'yi), Jurjon (Kaspiy) dengizining o'rtasidan kesib o'tadi va Rum (Vizantiya) mamlakatigacha boradi.

Yettinchi iqlim Sharqda Ya'juj mamlakatining shimolidan boshlanadi, so'ng turkiy mamlakatlardan (Markaziy Osiyo), so'ng Jurjon dengizining shimolidan, so'ng Rum dengizini (Qora dengiz) kesib, saqlablar (slavyanlar) mamlakatidan o'tadi va G'arb dengizida (Atlantika) tugaydi».

Keltirilgan parchadan ko'rinadiki, al-Farg'oniy katta kenglikdagi o'lkalarni tavsiflagan bo'lsa ham, o'zining asl vatani Movarounnahrni mufassalroq tavsiflagan. Undan tashqari shuni ham ta'kidlash kerakki, al-Farg'oniyning rub'i ma'mur haqidagi tasavvuri ancha aniq bo'lib, har xil afsonaviylikdan xolidir. Chunonchi, u Ya'juj mamlakati deb Sharqdagi afsonaviy yerni emas, balki hozirgi Mo'g'ulistonning sharqi va Xitoyning shimoli-sharqiga mos keladigan aniq geografik hududni aytgan.

Farg'oniyning nomi Xorazmiy kabi butun Sharq va G'arbda mashhurdir. O'rta asrda tabiiy-ilmiy bilimlarning rivojiga ulkan hissa qo'shgan olim sifatida manbalarda, so'nggi G'arb va Sharq mualliflari asarlarida, o'z yurti O'zbekistonda, ayniqsa, zo'r g'urur va iftixor bilan tilga olinadi. 1998-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni bilan allomaning 1200 yillik tavallud sanasi katta tantanalar bilan nishonlandi.



AHMAD AS-SAG'ONIY

(Vafoti 990)

Ahmad as-Sag'oniyning to'liq nomi Abu Hamid Ahmad ibn Muhammad as-Sag'oniyy al-Asturlobiy bo'lib, o'rta asr manbalarida «Sag'aniyan», fors manbalarida esa «Chag'oniyyon» deb yuritilgan joyda tug'ilgan. O'sha davrdagi Sag'oniyyon bugungi Surxondaryo viloyatining Denov shahri atroflarini o'z ichiga olgan. Olimning tug'ilgan yili noma'lum. U yoshligida o'z davrining eng yirik ilm markazi Bag'dodga borib qolgan va yirik astronomlaridan biri bo'lib yetishgan. Ahmad as-Sag'oniyning ismiga qo'shib aytiladigan «Asturlobiy» rutbasi uni asturloblilar, umuman, astronomik jihozlar yasashda va ularni qo'llashda mohir mutaxassis bo'lganidan dalolat beradi. Alloma astronomiyadan tashqari geometriyaga oid bir necha asarlarning muallifi hamdir.

Ibn al-Qiftiyning Ahmad as-Sag'oniyy haqidagi quyidagi fikrlari diqqatga sazovordir: «Abu Hamid Ahmad ibn Muhammad as-Sag'oniyy al-Asturlobiy o'z vaqtida geometriya va astronomiya sohalaridagi aksariyat muvaffaqiyatlarining sohibi bo'lgan fozil olimlardan edi. U Bag'dodda astrolabiyalar va boshqa astronomik jihozlar yasashda katta yutuqlarga erishgan. U yaratgan jihozlar o'sha vaqtdagi astronomlarga yaxshi ma'lum bo'lgan. Uning bir qancha shogirdlari katta shuhrat qozonganlar va o'z ustozlari bilan faxrlanganlar. Ahmad as-Sag'oniyy qadimgi jihozlarni takomillashtirishda hech kim amalga oshira olmagan natijalarga erishgan».¹ Ibn al-Qiftiyy yana shularni ma'lum qiladiki, Bag'dod hukmdori Adud ad-Davlaning o'g'li Sharaf ad-Davla (951–989) Bag'dodni boshqargan yillarida u yerda rasadxona sifatida foydalanish uchun bir uy qurdiradi va unda Quyosh va sayyoralar harakatini o'rganish bo'yicha kuzatishlar o'tkaziladi. Kuzatishlar natijasi yakunlanganda, Ahmad as-Sag'oniyy Quyoshning ikki burj bo'yicha botishini o'z qo'li bilan yozgan va ba'zi tuzatishlar kiritgan.²

Ahmad as-Sag'oniyning ilmiy merosi Beruniy, Ibn Iroq, as-Sijziy kabi olimlar tomonidan hurmat bilan eslanishi, uning asarlari naqaqlar shuhrat qozonganligidan dalolat beradi. Jumladan, Beruniy o'zining «Qa-

¹ Ibn al-Qiftiyy, Ixbar al-ulama bi axbar al-hukama, Qohira, 1908, 56-bet.

² O'sha asar, 57-bet.



«Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar» asarining yahudiy yillari va davrlarini aniqlash qismida as-Sag'וניy hisoblaridan foydalanganini aytadi.¹ Beruniy xuddi shu asarida doiralari va nuqtalardan iborat kurrallarni sathga aylantirish mumkinligi haqida gapirar ekan, shunday deydi: «Abu Hamid as-Sag'וניy konuslar boshini ikkala qutbdan ko'chirib, uni o'qlar bo'yicha qarab, kurraning ichiga yo tashiga qo'ygan. Shunda kurra to'g'ri chiziqlar, doiralari as-Sag'וניy istagan kayfiyatda, yetarli va ortiqcha parchalar tashkil etgan. Bu ajoyib sathni undan oldin hech kim ishlagan».²

Beruniy o'zining «Geodeziya» asarida Ahmad as-Sag'וניy qalamiga «Astronomiya ilmining qonunlari» («Kavaniyi ilm al-haya») kitobi mansubligini ko'rsatadi va unda as-Sag'וניy 965-yili Bag'dodning g'arbiy tarafidan «Birkatu Zalazal» degan joyda diametri olti qarich va aylanasi besh minutlik bo'limlarga taqsimlangan xalqa yordamida o'lchash olib borib, to'liq og'ishni (23 daraja 35 minut) va Bag'dodning kengligini (33 daraja 21 minut) topganini ta'kidlaydi.³

As-Sag'וניyning «Osmon sferasini tekislikda tasvirlash» («Kayfiyyat tastiyyh al-kura») risolasi Patna va Istanbuldagi kutubxonalarda saqlanadi. Ba'zi manbalarda bu asar «Kitab at-tastiyyh at-tamm» nomi bilan tilga olinadi. Risola o'n ikki bobdan iborat bo'lib, unda osmon sferasining astrolabiya sathida tasvirlanish masalalari ustida mulohazalar yuritiladi.⁴

Alloma yuqoridagilardan tashqari «Doira ichiga joylashtirilgan to'g'ri taraffi yetti burchakning tomonini yasash» («Risola fi 'amal dil' al-musabba' al-mutasaviyy fi ad-daira») va «Masofalar va hajmlar haqida» («Maqala fi-l-ajram») nomli (Parij va Damashqda saqlanmoqda) asarlarning muallifi hamdir. Oksforddagi Bodlean kutubxonasida olimning «Astrolabiya plastinkalarida yasalgan soatlar haqida» («Fi as-sa'at al-ma'mula ala safaih al-asturlab») va «Meridian chizig'ini topish» («Istixraj xatt nisf an-nahar») risolalari mavjud. Fikrimizcha, «Meridian

¹ A b u R a y h o n B e r u n i y, Tanlangan asarlar. 1-jild. (Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar), T., 1968, 415-bet.

² O'sha joyda.

³ A b u R a y h o n B e r u n i y, Tanlangan asarlar. 3-jild. (Geodeziya), T., 1982, 101-bet.

⁴ Risolaning to'liq mazmuni uchun qarang: М а т в и е в с к а я Г. П., Р о з е н ф е л ь д Б. А., М а т е м а т и к и и а с т р о н о м ы м у с у л ь м а н с к о г о с р е д н е в е к о в ь я и и х т р у д ы. (VIII—XVII вв.), М., 1983, Кн. 2. С. 162.

chizig'ini topish» (Bodlean kutubxonasiidagi inven. raqami MS. Thurston 3 (f. 94)) risolasi olim asarlari ro'yxatiga hozirga qadar kiritilmay kelinmoqda. As-Sijjiziy nomini keltirgan «Burchakning uchga bo'linishi» («Tasliys az-zaviyya») risolasi as-Sag'oniyning bizgacha yetib kelmagan asarlaridan hisoblanadi.

As-Sag'oniyy 990-yili Bag'dodda vafot etgan.

IMOM AL-BUXORIY

(810–870)

Hadis ilmining rivojida oltin davr hioblangan hijriy uchinchi (milodiy to'qqizinchi) asrda hadissunoslikda katta muvaffaqiyatlar qo'lga kiritilgan. Chunonchi, butun islom dunyosidagi eng nufuzli manbalar deb tan olingan oltita ishonchli hadislar to'plamining (as-sihoh as-sitta) mualliflari yashab ijod qilganlar. Yana shunisi diqqatga sazovorki, mazkur olti muhaddisning deyarli hammasi Markaziy osiyolik bo'lib, ular: Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy, Imom Muslim ibn al-Hajjoj (206/819–261/874), Abu Iso Muhammad ibn Iso at-Termiziy (209/824–279/892), Imom Abu Dovud Sulaymon Sijistoniy (202/817–275/880), Imom Ahmad An-Nasoiy (215/830–303/915), Imom Abu Abdulloh Muhammad ibn Yazib ibn Mojjja (209/824–273/886) kabi siymolardir. Shular ichidan «Hadis ilmida amir al-mo'miniyn» degan sharafli nomga sazovor bo'lgan Imom al-Buxoriy alohida e'tiborga molik buyuk olimdir.

Uning to'liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil ibn Ibrohim ibn al-Mug'iyra ibn Bardazbeh al-Juafiy al-Buxoriy bo'lib, u hijriy hisobda 194-yil shavvol oyining 13-kuni (810-yil 20-iyul)da Buxoro shahrida tavallud topgan. Boshqa ko'pgina olimlardan farqli o'laroq al-Buxoriy tug'ilgan sana aniq ko'rsatilishiga sabab shuki, uning otasi Ismoil o'z davrining ilmi odamlardan bo'lib, o'g'lining tug'ilgan kunini o'z qo'li bilan yozib ketgan qog'oz zamondosh olimlar ixtiyoriga yetgan va shu xususda ham uning aniqligiga hech shubha yo'q. Al-Buxoriy yoshligida-yoq otasi vafot etib, onasi tarbiyasida o'sgan. U yoshligidan aql-idrokli, o'tkir zehni va ma'rifatga havasi kuchli bo'lib, turli ilm-fanlarni, ayniqsa, hadis ilmini zo'r qiziqish bilan egallaydi. Manbalarda ko'rsatilishicha, u



o'n yoshidan boshlab o'z yurtidagi turli rivoyatchilardan eshitgan hadis-
larni, shuningdek, Abdulloh ibn al-Muborak va Vakiy kabi olimlarning
hadis to'plamlarini mutolaa qilib, yodlagan, ustozlari Shayx Dohiliy bilan
hadis rivoyatchilari haqidagi qizg'in bahslarda qatnashgan.

825-yili o'n olti yashar al-Buxoriy onasi va akasi Ahmad bilan Hi-
joga qarab yo'l tutadi, muqaddas shaharlar Makka va Madinani ziyorat
qilib, olti yil Hijozda yashashadi. Hadis ilmidan o'z bilimini yanada
o'stirish maqsadida o'sha paytda ilm-fanning yirik markazlaridan hisoblan-
gan Damashq, Qohira, Basra, Kufa, Bag'dod kabi shaharlarda yashab,
hijozdagi mashhur olimlardan hadis bilan bir qatorda fiqh ilmidan
ham ta'lim oladi, yirik olimlar davrasida ilmiy bahslar-u munozaralarda
qatnashadi va ilm toliblariga dars ham beradi. Imom al-Buxoriy hayo-
ti o'zining ko'p qismi xorijiy ellarda, musofirchilikda o'tdi. Bu haqda uning
o'z so'zlarida: «Misr, Shom, Mesopotamiyaga ikki martadan, Basraga to'rt marta
borib chiqqanman. Hijozda olti yil yashaganman, Bag'dod va Kufa shaharlariga
necha marta borganim hisobini bilmayman», degan ekan. U safar
chog'ida ham, bir shaharda muqim turganda ham ilm oshirish borasi-
da tinimsiz ishlar, to'plagan hadislarini oqqa ko'chirar edi. Muallifning
yozishicha, Bag'dodda istiqomat qilgan paytda ko'pincha o'zining nurida
ijod qilib, qorong'i kechalarda sham yorug'ida kitob yozar edi.

Ilm oshirish maqsadida al-Buxoriy juda ko'plab olimlardan ta'lim
oldi. Nishopurlik al-Hakimning (1015-yilda vafot etgan) yozishicha, us-
tuzlarining soni to'qson talar atrofida bo'lib, ular: Muhammad ibn Yusuf
al-Faryobiy, Ubaydulla ibn Musa al-Abasiy, Abu Bakr Abdulla ibn
al-Zubayr al-Hamiydiy ibn Rohavayh nomi bilan mashhur bo'lgan
Imom Is'hoq ibn Ibrohim, Imom Ahmad ibn Hanbal, Ali ibn al-Ma-
diniy va boshqalardir.

O'z navbatida, al-Buxoriy ham ko'pgina shogirdlariga ustozlik qilgan.
Is'hoq ibn Muhammad ar-Ramodiy, Abdulloh ibn Muhammad al-
Masnadiy, Muhammad ibn Xalif ibn Qutayba, Ibrohim al-Harbiy, Abu
Hafsat-Termiziy, Muhammad ibn Nasr al-Marvaziy, Muslim ibn al-
ajjoj kabi yetuk olimlar uning shogirdlaridir.

Termizlik mashhur muhaddis Abu Iso at-Termiziy al-Buxoriyga ham
shogird, ham safdosh hisoblanib, ularning o'zaro munosabatlari ibratli
bo'lgan. Uzoq yillar Sharqning turli-tuman mamlakatlariga safar qilgan-
dan keyin umrining oxirlarida al-Buxoriy besh (863–868) yil Nishopur-

da yashab, madrasada hadis ilmidan dars bergan. O'sha paytda Nishopur musulmon Sharqidagi eng yirik ilmiy markazlardan biriga aylanganligi sababli ko'p mashhur olimlar shu shaharda to'plangan edilar. Al-Buxoriyning at-Termiziy bilan uchrashuvi ham Nishopurda yuz berib, diyori-mizdan chiqqan ikki mashhur muhaddis o'rtasida unutilmas, qizg'in ilmiy bahslar, ko'pdan ko'p ijodiy, do'stona uchrashuvlar bo'lib o'tadi. At-Termiziyning yozishicha, u o'z asarlari uchun ko'p ma'lumotlarni al-Buxoriy bilan uchrashuvlaridan olgan. Shu bilan birga al-Buxoriy ham at-Termiziyning bilimini yuqori baholab: «Men sendan ko'rgan foyda sen mendan ko'rgan foydadan ortiqroq», deb unga nisbatan chuqur hurmatini bildirgan. At-Termiziy o'z ustози va safdoshi al-Buxoriyni butun umri davomida hurmatlab, unga samimiy sadoqatda bo'lgan. Arab tarixchisi Shamsuddin az-Zahabiyning (1274—1374) «Tazkirat ul-Hufoz» («Hofizlar haqida tazkira») nomli asarida yozishicha, at-Termiziy o'z ustozining vafoti tufayli qattiq qayg'uga botib «ko'p yig'laganidan hatto ko'zlari ko'r bo'lib qolib, uzoq yillar ko'zi ojiz holda yashadi».

Imom al-Buxoiy nafaqat yirik olim, balki o'zining go'zal xulq-atvori, odamoxunligi, muruvvatliligi, himmatliligi va beqiyos saxovatliligi bilan boshqalardan tamomila ajralib turgan. U zehni o'tkirligi va yodlash qobiliyatining kuchliligi bilan ham xalq orasida g'oyat shuhrat qozongan. Manbalarda al-Buxoriyning 600 mingga yaqin hadisni yod bilgani qayd qilingan.

Imom al-Buxoriy xoriждан qaytgach, o'z vatani Buxoroda ko'plab shogirdlar va ulamolarga hadis ilmidan saboq berish bilan mashg'ul bo'ladi. Ko'pchilik uni hurmat qilgan, ammo ba'zi hasadgo'y, qora niyatli kishilar al-Buxoriyni ko'rolmas edilar. Natijada, hasadgo'ylarning xatti-harakati tufayli Buxoro amiri Xolid ibn Ahmad az-Zuhliy bilan al-Buxoriyning aloqasi buzilib qoladi. Bunga sabab, amir olimdan huzuriga kelib «Al-jome' as-sahih», «At-ta'rix» kitoblarini o'qib berishni talab qiladi. Lekin al-Buxoriy «men ilmni xor qilib, uni hokimlar eshigi oldiga olib bormayman, kimga ilm kerak bo'lsa, o'zi izlasin. Lekin Alloh oxirat kuni ilmni yashirmay uni toliblarga sarf qilganim uchun meni kechiradi», degan javobni aytadi. Amirga javob yoqmay, fitnachi, bo'htonkor shaxslarning gapiga kirib al-Buxoriyga shaharni tark etishni buyuradi. Shundan keyin al-Buxoriy Samarqandga qarab yo'l oladi va birmuncha muddat Xartang qishlog'ida o'z shogirdlari va qarindosh-urug'larinikida yashagan-



dan keyin og'ir kasalga chalilib, hijriy 256-yil (milodiy 870-yil 1-sentabr) 60 yoshida vafot etadi va shu yerda dafn qilinadi.

Imom al-Buxoriy avlodlarga boy va qimmatli ilmiy meros qoldirgan bo'lib, u yozgan asarlarning soni yigirmadan ortiqdir. Ulardan «Al-jome' as-sahih», «Al-adab al-mufrad», «At-ta'rix as-sag'iyr», «At-ta'rix al-avsot», «At-ta'rix al-kabir», «Kitob al-ilal», «Barr ul-volidayn», «Asomi us-sahoba», «Kitob al-kuna» va boshqalarni ko'rsatish mumkin. Buyuk allomaning eng muhim asari, shubhasiz, «Al-jome' as-sahih»dir. Bu asar «Sahiyh al-Buxoriy» nomi bilan ham mashhur. Uning g'oyat ahamiyatli tomoni shundaki, Imom al-Buxoriygacha o'tgan muhaddislar o'z to'plamlariga eshitgan barcha hadislarini tanlab o'tirmay qatorasiga kiritaverganlar. Imom al-Buxoriy esa turli roviylardan eshitgan hadislarini tabaqalarga bo'lib, ularning ishonchlilarini ajratib, alohida kitob yaratdi.

Alloma ibn Salohning ta'kidlashicha, al-Buxoriyning bu asariga kiritilgan ishonchli hadislarining soni takrorlanadiganlari bilan birga 7275 ta bo'lib, takrorlanmaydigan holda esa 4000 hadisdan iborat.

Bu sharaflı ishni birinchi al-Buxoriy boshlab bergan bo'lib, keyin qator olimlar unga taqlid qilib, shu zaylda hadislar to'plamini yaratganlar. Imom al-Buxoriyning ushbu yirik asari yozilganiga taxminan 1200 yil bo'ldi, o'sha davrdan boshlab toki shu vaqtgacha u islom ta'limotida Qur'ondan keyingi ikkinchi o'rinda turadigan muhim manba sifatida yuqori baholanib kelinmoqda. Imom al-Buxoriyning ushbu asari ko'plab nusxalari turli shaharlarda tarqalgan. Hatto o'rta asrlarda yashagan ba'zi adib va xattotlar uchun bu asar nusxalarini ko'chirish tirikchilik manbai ham bo'lgan. Jumladan, taniqli adib va tarixchi an-Nuvayriy (1332-yilda vafot etgan) al-Buxoriyning ushbu asaridan sakkiz nusxa ko'chirib, har birini ming dirhamdan sotgan. 1325-yilda ko'chirilgan sakkiz jilddan iborat go'zal bir nusxasi hozir Istanbulda saqlanmoqda. «Al-jome' as-sahih»ga ko'pdan ko'p sharhlar bitilgan bo'lib, muhim manba sifatida u qayta-qayta nashr ham qilingan. Imom al-Buxoriy to'plamlariga kiritilgan hadislar faqat islom ta'limotiga oid umumiy qoidalarni aks ettirish bilan cheklanib qolmaydi. Ular mehr-muhabbat, saxiylik, ochiq ko'ngillik, otana, ayollar va kattalarga hurmat, yetim-yesirlarga muruvvat, faqir-bechoralarga himmat, vatanga muhabbat, mehnatsevarlik, halollikka da'vat etish kabi haqiqiy insoniy fazilatlar va namunali tartibotlar majmuasidir. Unda nima yaxshi, nima yomon, nimani qilish kerak, nimadan o'zini tiyish lo-

zimligi haqida hozirgi jamiyatimiz ahli, ayniqsa, yosh avlod uchun katta tarbiyaviy ahamiyatga ega yo'l-yo'riqlar, pand-nasihat va o'g'itlar aks ettirilgan.

1974-yilda O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari Diniy boshqarmasi tashabbusi bilan respublikamizda butun islom dunyosi vakillari ishtirokida allomaning 1200 yillik yubileyi nishonlangan edi. Uning shoh asarlari hisoblanmish «Al-jome' as-sahih» va «Al-adab al-mufrad» kitoblari Toshkentda qaytadan nashr qilinishi al-Buxoriy merosini o'rganishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Toshkentdagi diniy oliy ma'hadning Imom al-Buxoriy nomi bilan atalishi bundan o'n ikki asr muqaddam ilm-fan yo'lida beqiyos katta xizmat qilgan buyuk olimga chuqur hurmat-e'tiborning ramzidir. Allomaning Xartang qishlog'ida joylashgan salobatli maqbarasi eng obod va ko'rkam qadamjolardan biri sifatida ardoqlanib, islom ahli va barcha mehmonlar uchun tabarruk ziyoratgoh sifatida mashhurdir. 1998-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni bilan buyuk hadisshunos allomaning 1225 yillik tavallud kuni keng jamoatchilik tomonidan katta hurmat va ehtirom ila nishonlanib, uning maqbarasi qayta qurildi.

ABU ISO MUHAMMAD AT-TERMIZIY (824—892)

O'rta asrlarda yashagan ko'pgina olimlar ilm-fanning turli sohalariga oid dunyoviy fanlar bilan birga diniy ilmlar rivojiga ham katta e'tibor berganlar. Zotan diniy ilmlar jamiyat taraqqiyotida, insonlarning kamol topishi va ular dunyoqarashining shakllanishida alohida rol o'ynaydi.

Jahonshumul ahamiyatga ega asarlar yaratgan buyuk allomalardan biri — mashhur muhaddis (hadis ilmi olimi) Abu Iso Muhammad at-Termiziydir. Uning to'liq ismi Abu Iso Muhammad ibn Savra ibn Muso ibn ad-Dahhok as-Sullamiy (umrining oxirlarida ko'zi ojiz bo'lib qolganligidan ad-Dariyr taxallusi bilan ham atalgan) at-Termiziy bo'lib, u hijriy hisobda 209 (milodiy 824)-yilda Termizda, uncha badavlat bo'lmagan oilada tavallud topdi. Markaziy osiyolik mashhur olim va tarixchi Abu Sa'd Abdulkarim as-Sam'oniyy (113/1167) «Al-Ansob» nomli asarida yozishicha, at-Termiziy Bug' (hozirgi Sherobod tumani)

qishlog'ida vafot etganligi uchun uning nomiga al-Bug'iy taxallusi ham qo'shilgan. Uning yoshlik yillari Termiz shahrida o'tib, dastlabki ma'lumotni ham shu shaharda olgan. Chunonchi, yozma manbalar, tarixiy osori-atiqalardan ma'lumki, o'rta asrlarda Termiz ham Markaziy Osiyoning Urganch, Buxoro, Samarqand singari ilm-fan va madaniyati rivojlangan shaharlardan biri bo'lgan. Mana shunday madaniy muhitda o'sgan at-Termiziy yoshligidan turli ilmlarni egallashga zo'r qiziqish bilan intilgan. Bolaligidan o'ta ziyrakligi, yodlash qobiliyatining kuchliligi, noyob qobiliyati bilan o'z tengqurlaridan ajralib turgan at-Termiziy diniy va dunyoviy fanlarni, ayniqsa, hadis ilmini alohida qiziqish bilan egallab, bu boradagi o'z bilimlarini muttasil oshirish uchun ko'pgina Sharq mamlakatlarini ziyorat qilgan. Jumladan, u uzoq yillar Iroqda, Isfahon, Xuroson, Makka va Madinada yashagan. Ko'p yillar davom etgan safarlari chog'ida at-Termiziy ilm-fanning turli sohalaridan — ilm al-qiroat, ilm al-bayon, fiqh, tarix, ayniqsa, o'zi yoshligidan qiziqqan hadis ilmidan o'z davrining yirik olimlari — mashhur muhaddislaridan ta'lim oladi. Uning ustozlaridan imom al-Buxoriy, imom Muslim, imom Abu Dovud, Qutayba ibn Sa'iyd, Is'hoq ibn Muso, Mahmud ibn G'aylon va boshqa mashhur muhaddislarni ko'rsatish mumkin. Manbalarda yozilishicha, hadislarini to'plashda va o'rganishda at-Termiziy har bir qulay fursatdan unumli foydalangan. U yo'lda, safarda bo'lganda ham yoki bir joyda muqim turganda ham o'z ustozlaridan, uchratgan roviylaridan eshitgan hadislarini darhol yozib olib, ularni tartibli ravishda alohida-alohida qayd qilib borgan.

O'z davrining yetuk muhaddis olimi sifatida tanilgan at-Termiziy ko'pdan ko'p shogirdlarga ustozlik qilgan. Hadis ilmidagi uning shogirdlaridan Makhul ibn al-Fadl, Muhammad ibn Mahmud Anbar, Hamod ibn Shokir, Abd ibn Muhammad an-Nasafiy, al-Haysam ibn Qulayb ash-Shoshiy, Ahmad ibn Yusuf an-Nasafiy va Abul Abbos Muhammad ibn Mahbub al-Mahbubiylarni sanab o'tish mumkin. Musofirchilikdan qaytgan at-Termiziy o'z yurtida yirik muhaddis olim sifatida shuhrat qozondi va ijodiy ish, shogirdlar tayyorlash bilan mashg'ul bo'ldi. U 279-hijriy (milodiy 892) yilda Termizdan uzoq bo'lmagan Bug' qishlog'ida vafot etadi va shu yerda dafn qilinadi.

O'z ijodiy va ilmiy faoliyati davrida at-Termiziy bir qancha asarlar yaratdiki, ularning aksariyat qismi bevosita hadislariga bag'ishlangan. Gap

shundaki, VII asrning 1-yarmida davr jihatdan qisqa muddatda yuzaga kelgan Qur'oni karim islom ta'limotida katta madaniy va tarixiy ahamiyatga ega asosiy manba bo'lsa-da, musulmon dunyosining ijtimoiy, huquqiy va axloqiy tomonlariga oid jamiki masalalarni har tomonlama to'la-to'kis qamrab olmagan, albatta. Shu boisdan ham islom dini chegaralarining kengayishi, uning qonun-qoidalariga asoslangan jamiyat rivojlangan sari turli-tuman yangi g'oyaviy fikr-mulohazalar va ko'rsatmalarga ehtiyoj tobora kuchaya borgan. Shu sababdan ham barcha jihatlardan namunali zot hisoblangan payg'ambar Muhammad alayhissalomning o'zlari aytgan ibratomuz pand-nasihatlari, diniy, axloqiy masalalarga doir qarashlari, ko'rsatmalari hamda payg'ambar alayhissalom hayoti, faoliyati xususida qarindosh-urug'lari, sahobalari, yaqin safdoshlari aytgan hikoyat va rivoyatlari — hadislarni to'plash keng ko'lamda avj olgan. Shunga ko'ra, islom ta'limotida hadislar Qur'ondan keyin turadigan muhim manbalar hisoblanadi. Islom ulamolari o'rtasida ilk davrdan boshlab hadislarining to'g'riligi, ularni ishonchli manbalarga asoslanishiga katta e'tibor berilgan. Chunonchi, o'sha davrning o'zidan boshlab noaniq, chala-chulpa, hatto soxta hadislar ham el orasida tarqay boshlagan. Shunday paytlarda ular qayta-qayta tekshirilib, muhaddislarning betinim mehnati natijasida asl holiga qaytarilib, yozma ravishda qayd qilingan. Natijada, islomshunos yirik ulamolar orasida ishonchli manbalar asosida to'plangan va tartibga keltirilgan oltita hadislar to'plami (As-sihoh as-sitta) mualliflari eng nufuzli va mo'tabar muhaddislar deb tan olingan. Mana shu e'tirof etilgan mashhur muhaddislardan biri — Imom at-Termiziydir.

At-Termiziy qalamiga mansub asarlarning aksariyati bizgacha yetib kelgan. «Al-jomi'» («Ja'mlovchi»), «Ash-shamoil an-nabaviya» («Payg'ambarning alohida fazilatlarini»), «Al-ilal fi-l-hadiys» («Hadislardagi og'ishishlar»), «Risola fi-l-xilof va-l-jadal» («Hadislardagi ixtilof va bahslar haqida risola»), «At-tarix» («Tarix»), «Kitob az-zuhd» («Taqqivo haqida kitob»), «Kitob ul-asmo va-l-kuna» («Ismlar va laqablar haqida kitob») kabi asarlar shular jumlasiga kiradi.

At-Termiziyning asarlari ichida eng mashhuri, shubhasiz, «Al-jomi'» bo'lib, avval eslatib o'tganimizdek, payg'ambar alayhissalomga doir oltita ishonchli hadislar to'plamlaridan biridir. Ushbu asar ilmiy adabiyot va manbalarda «Al-jomi' al-kabir» («Katta to'plam»), «Al-jomi' us-sahih» («Ishonchli to'plam»), «Jomi' at-Termiziy» («Termiziy to'plami»), «Su-



nan at-Termiziy» («Termiziy sunanlari») nomi bilan ham atalib, payg'ambar alayhissalom hayoti va faoliyatiga doir muhim manbalardan hisoblanadi.

At-Termiziyning mashhur ta'liflaridan yana biri «Ash-Shamoil an-nabaviya» («Payg'ambarning alohida fazilatleri») bo'lib, ba'zi manbalarda «Ash-shamoil fi shamoil an-nabiy sallallohu alayhi vasallam» nomi bilan ham keltirilgan. Nomidan ham ko'rinib turibdiki, bu asar payg'ambar alayhissalomning shaxsiy hayotlari, u kishining suvrat va siyratlari, ajoyib fazilatleri, odatlariga oid 408 hadisi sharifni o'z ichiga qamragan manbadir. Bu o'rinda shuni ta'kidlash kerakki, payg'ambar alayhissalomning fazilatleri, odatlari haqidagi hadislarini to'plash bilan juda ko'p muhaddislar shug'ullanganlar va bu xildagi hadislar turli-tuman kitoblardan o'rin olgan. Lekin at-Termiziy asarining afzalligi shundaki, u hadislarini mun-tazam ravishda to'plab, muayyan tartibga solgan va yaxlit bir kitob holiga keltirgan. Muhammad alayhissalomning hayotiga doir muhim manba sifatida «Ash-shamoil an-nabaviya» azaldan islomshunos olimlar, tadqiqotchilarning diqqatini o'ziga tortib keldi. Arab tilida yozilgan ushbu asarga bir qancha sharhlar ham yozilgan. Shu bilan bir qatorda ushbu asarning tili ravon, uslubi g'oyatda oddiyligini ham qayd qilib o'tish o'rinlidir. Asarning fors va turk tillariga tarjima qilinishi ham unga bo'lgan qiziqishning kattaligidan dalolat beradi.

«Ash-shamoil an-nabaviya»ning birinchi qismida keltirilgan hadisi shariflar payg'ambarimiz sallallohu alayhi vasallamning suvrat (tashqi qiyofa)lariga, ikkinchi qismida keltirilgan hadisi shariflar esa ichki dunyolari-yu axloqiy fazilatlarini bayon qilishga bag'ishlangan.

«Ash-shamoil an-nabaviya»ning XVI asrga oid bir qo'lyozmasi Toshkentda, Movarounnahr musulmonlari idorasi kutubxonasida saqlanmoqda. 1980-yilda Toshkentdagi Diniy boshqarma buyurtmasi bilan «Ash-shamoil an-nabaviya»ning ushbu qo'lyozmasi nashr etilgan bo'lib, unga qisqacha so'zboshi O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari Diniy boshqarmasi hay'atining sobiq raisi, marhum muftiy Ziyovuddinxon ibn Eshon Boboxon hazratlari tomonidan yozilgan.

«Ash shamoil an-nabaviya» so'nggi yillarda ham Toshkentda bir necha bor nashr etildi. Bundan tashqari allomaning 1200 yillik yubileyi (1990) munosabati bilan gazeta va jurnallarda u haqida ko'plab maqolalar chop etildi.

Xulosa qilib aytganda, buyuk vatandoshimiz Abu Iso Muhammad at-Termiziy bizga boy va katta ilmiy meros qoldirgan. Afsuski, hozircha bu qimmatbaho meros respublikamizda yetarlicha o'rganilgani yo'q. Keng jamoatchilik ommasi ham uning hayoti va ijodi haqida g'oyatda oz ma'lumotga ega.

ABU NASR FOROBIY (873—950)

Forobiy uning taxallusi bo'lib, to'liq nomi Abu Nasr Muhammad ibn Muhammad ibn Uslug' Tarxon — jahon madaniyatiga katta hissa qo'shgan Markaziy osiyolik mashhur faylasuf, qomusiy olim. O'rta asrning bir qancha ilmiy yutuqlari, umuman Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida taraqqiyparvar ijtimoiy-falsafiy tavakkur rivoji uning nomi bilan bog'liq. Forobiy o'z zamonasi ilmlarining barcha sohasini mukammal bilganligi va bu ilmlar rivojiga katta hissa qo'shganligi, yunon falsafasini sharhlab, dunyoga keng tanitganligi tufayli Sharq mamlakatlarida uning nomi ulug'lanib, «Al-Muallim as-soniy» — «Ikkinchi muallim» (Aristo-teldan keyin), «Sharq Arastusi» deb yuritilgan.

Forobiy turkiy qabilaga mansub harbiy xizmatchi oilasida, Sirdaryo sohilidagi Forob (O'tror) degan joyda tug'ilgan. U tug'ilgan hudud Somoniylar tomonidan boshqarilib, arab xalifaligining shimoliy chegarasi hisoblangan. Forobiy boshlang'ich ma'lumotni ona yurtida oldi. So'ng Binkat (Shosh), Buxoro, Samarqandda o'qidi. Keyinroq o'z ma'lumotini oshirish uchun arab xalifaligining madaniy markazi bo'lgan Bag'dodga keladi. Bag'dodda bu davrda musulmon dunyosining turli o'lkalaridan, xususan Markaziy Osiyodan kelgan ko'p ilm ahllari to'planishgan edi. U yerga bora turib Forobiy Eron shaharlari — Isfahon, Hamadon, Ray va boshqa joylarda bo'ldi. Forobiy Bag'dodda al-Mu'tazid (892—902), al-Muqtafiy (902—908), al-Muqtadir (908—932) xalifaliklari davrida yashadi. U bu yerda o'rta asr fani va tilining turli sohalari, yunon falsafiy maktablari bilan chuqur tanishib, o'zga diniy e'tiqod, falsafiy fikrdagi kishilar bilan ilmiy muloqotda bo'ldi. Abu Bashar Matta ibn Yunusdan (870—940) yunon tili va falsafani, Yuhanna ibn Hiylon (860—920) dan tabobat va mantiq ilmini o'rgandi. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, u 70 dan ortiq tilni bilgan.

Taxminan 941-yildan boshlab Forobiy Damashqda yashagan. Shahar chekkasidagi bog'da qorovul bo'lib, kamtarona kun kechirib, ilm bilan shug'ullangan. So'nggi yillar u Halab (Aleppo) hokimi Sayfuddavla Hamdoniy (944—967) iltifotiga sazovor bo'ldi. Tadqiqotchilar uning Halabdagi hayotini eng samarali davr hisoblaydilar. Chunki bu hokim hurfikrliligi, ilm-fanga e'tibor berganligi bilan ajralib turgan. U Forobiyni saroyga taklif etadi, lekin Forobiy bunga ko'nmaydi, oddiy hayot kechirishni afzal ko'radi.

Forobiy 949—950-yillarda Misrda, so'ng Damashqda yashab, shu yerda vafot etgan va «Bob as-sag'ir» qabristoniga dafn qilingan deyiladi.

Forobiy o'rta asr davri tabiiy-ilmiy va ijtimoiy bilimlarining qariyb barcha sohalarida 160 dan ortiq asar yaratgan. U turli bilimlarning nazariy tomonlari, falsafiy mazmuni bilan ko'proq qiziqqanligi uchun uning asarlarini 2 guruhga ajratish mumkin: 1) yunon faylasuflari, tabiatshunoslarining ilmiy merosini izohlash, targ'ib qilish va o'rganishga bag'ishlangan asarlar; 2) fanning turli sohalariga oid mavzulardagi asarlar.

Forobiy qadimgi yunon mutafakkirlari — Platon, Aristotel, Yevklid, Ptolemey, Porfiriylarning asarlariga sharhlar yozgan. Ayniqsa, Aristotel asarlari («Metafizika», «Etika», «Ritorika», «Sofistika» va b.)ni batafsil izohlab, qiyin joylarini tushuntirib bera olgan, kamchiliklarini ko'rsatgan, ayni vaqtda bu asarlarning umumiy mazmunini ochib beruvchi maxsus asarlar yaratgan. Forobiy sharhlari O'rta va Yaqin Sharq ilg'or mutafakkirlarining dunyoqarashini shakllantirishda, ularni Aristotel g'oyalari ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Abu Ali ibn Sino Forobiy sharhlari («Metafizika» — «Moba'diy» tabiat»)ni o'qib, Aristotel asarlarini tushunganligini alohida ta'kidlaydi. Forobiyning sharh yozish faoliyati faqat Sharqningina emas, o'rta asr Ovro'posini ham yunon ilmi bilan tanishtirishda katta rol o'ynaydi. Bu faoliyat uning ilmiy faoliyati taraqqiyotining birinchi bosqichini tashkil etadi. Bu bosqich Forobiya o'ziga xos maktab xizmatini o'tagan va yangi mavzularda tadqiqotlar olib borish uchun zamin hozirlagan.

Forobiyning bunday asarlarini mazmuniga qarab quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

1) falsafaning umumiy masalalariga, ya'ni bilimning umumiy xususiyatlari, qonuniyatlari va turli kategoriyalariga bag'ishlangan asarlar: «Substansiya haqida so'z» («Kalom fi-l-javhar»), «Masalalar manbayi»



(«Uyunul masoil»), «Qonunlar haqida kitob» («Kitob fi-l navomis»), «Falak harakatining doimiyligi haqida» («Kitob fi-l harakat al-falaka doimatun») va b.;

2) inson bilish faoliyatining falsafiy tomonlariga bag'ishlangan, ya'ni bilishning shakllari, bosqichlari, usullari haqidagi asarlar. Mantiq (logika)ning turli muammolariga doir asarlari ham shunga kiradi: «Kattalarining aqli haqida so'z» («Kalom fi-l aql al-Kabir»), «Yoshlarning aqli haqida kitob» («Kitob fi-l aql as-sag'ir»), «Mantiq haqida katta qisqartma kitob» («Kitob al-muxtasar al-kabir fi-l mantiq»), «Mantiqqa kirish kitobi» («Kitob al-madخال ila-l mantiq»), «Isbot kitobi» («Kitob al-burxon»), «Sillogizm shartlari kitobi» («Kitob sharoit al-qiyos»), «Jon (ruh)ning mohiyati haqida risola» («Risola fi mohiyat an-nafs») va b.;

3) falsafa va tabiiy fanlarning fan sifatidagi mazmuni, tematikasi haqidagi asarlar: «Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi» («Kitob fi ixso al-ulum va at-ta'rif», qisqacha nomi «Ixso al-ulum»), «Falsafa tushunchasining ma'nosi haqida so'z» («Kalom fi ma'oni ism al-falsafa»), «Falsafani o'rganishdan oldin nimani bilish kerakligi haqida kitob» («Kitob fi ash-yo allati yaxtoju antallama kabl al-falsafa»), «Falsafaga izohlar» («Taoliq fi-l hikmat») va b.;

4) moddaning miqdori, fazoviy va hajmiy munosabatlarini o'rganishga bag'ishlangan, ya'ni matematika fanlari — arifmetika, geometriya, astronomiya va musiqa o'ld asarlar: «Hajm va miqdor haqida so'z» («Kalom fi-l xiyz va-l miqdor»), «Fazo geometriyasiga kirish haqidagi qisqartma kitob» («Kitob al-madخال ila-l handasat al-vaxmiyati muxtasar-san»), «Astrologiya qoidalari haqida mulohazalarni to'g'rilash usuli haqida maqola» («Maqola fi-l jihat allayati yassexxu alayxo al-qavl bi axkom an-nujum»), «Musiqa haqida so'z» («Kalom fi-l musiqiy»), «Ritmlar turkumlari haqida kitob» («Kitob ul fi ixso-il-iqo») va b.;

5) modda xossalari va turlarini, noorganik tabiatining, hayvonlar va inson organizmining xususiyatlarini o'rganuvchi, ya'ni tabiiy fanlar — fizika, kimyo, optika, tibbiyot, biologiyaga bag'ishlangan asarlar: «Fizika usullari haqida kitob» («Kitob fi usul ilm at-tabiat»), «Alkimyo ilmining zarurligi va uni inkor etuvchilarga raddiya haqida maqola» («Maqola fi vujub sanoat alkimyo va-r radd ala mubtiluho»), «Inson a'zolari haqida risola» («Risola fi a'zo al-insoniya»), «Hayvon a'zolari to'g'risida so'z» («Kalom fi a'zo al-hayvon») va b.;



6) tilshunoslik, she'riyat, notiqlik san'ati, xattotlikka oid asarlar: «She'r va qoliyalar haqida so'z» («Kalom fi she'r va-l qavofi»), «Ritorika haqida kitob» («Kitob fi-l xitoba»), «Lug'atlar haqida kitob» («Kitob fi-l lug'at»), «Xattotlik haqida kitob» («Kitob fi san'at al-kitobat») va b.;

7) ijtimoiy-siyosiy hayot, davlatni boshqarish masalalariga, axloq, tabiiyaga bag'ishlangan, ya'ni huquqshunoslik, etika, pedagogikaga doir asarlar: «Baxt-saodatga erishuv yo'llari haqida risola» («Risola fi-t tanbih ala asbob as-saodat»), «Shaharni boshqarish» («As-siyosat an-madaniya»), «Urush va tinch turmush haqida kitob» («Kitob fi maoyish va-l xurub»), «Fazilatli xulqlar» («As-siyrat al-fazila») va b.

Forobiyning ilmiy merosi, umuman o'rta asr Sharqining madaniy-ma'naviy hayotidan, tabiiy-ilmiy, ijtimoiy-siyosiy masalalaridan juda boy ma'lumot beradi. Mutafakkir o'z asarlarini o'sha davrda Sharq mamlakatlarida ilmiy-adabiy til hisoblangan arab tilida yozadi. Forobiy, shuningdek, arab va fors tillarida falsafiy mazmundagi she'rlar ham yozgan.

Forobiy asarlari XII—XIII asrlardayoq lotin, qadimiy yahudiy, fors tillariga, keyinchalik boshqa tillarga tarjima qilinib, dunyoga keng tarqalgan. So'nggi asrlarda ko'chirilgan nusxalari ko'p mamlakatlarning kutubxona va muassasalarida saqlanadi. Toshkentda Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida qadimgi Sharq faylasuflari asarlaridan jami 107 risolani, jumladan, Forobiyning 16 risolasini (arabcha) o'z ichiga olgan «Ilakimlar risolalari to'plami» («Majmuat rasoil al-hukamo», Qo'lyozmalar fondi, 2385-in.) bor. Bu noyob qo'lyozma Forobiy asarlarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. To'plamdagi Forobiy risolalari 1975-yili qisman o'zbek tiliga tarjima qilinib nashr etildi.

Forobiyning tabiiy-ilmiy fanlar haqidagi qarashlari «Ilmlarning kelib chiqishi va tasnifi» asarida batafsil yoritilgan. Kitobda o'rta asrda ma'lum bo'lgan 30 dan ortiq fanning ta'rifi, ahamiyati ko'rsatib beriladi. Barcha fanlar 5 guruhga ajratiladi: 1) til haqidagi ilm (7 bo'lim — grammatika, orfografiya, she'riyat); 2) mantiq va uning bo'laklari; 3) matematika (arifmetika, geometriya, optika, astronomiya, musiqa, og'irliklar haqidagi ilm, mexanika); 4) tabiatshunoslik va metafizika (8 bo'lim — bashorat qilish, tibbiyot, alkimyo); 5) shahar haqidagi fanlar — siyosiy ilm, fiqh, kalom (etika, pedagogika).



Fanlarning bu tasnifi o'z davrida ilmiy bilimlarni ma'lum tizimga solishning mukammal shakli bo'lib, bilimlarning keyingi rivoji uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Shu narsa diqqatga sazovorki, Forobiy tabiiy va ijtimoiy fanlarni vazifasidan kelib chiqib to'g'ri farqlagan. Uning talqinicha, matematika, tabiatshunoslik, metafizika fanlari inson aqlini bilimlar bilan boyitish uchun xizmat qilsa, grammatika, mantiq, she'riyat kabi ilmlar fanlardan to'g'ri foydalanishni, bilimlarni boshqalarga to'g'ri tushuntirish, ya'ni aqliy tarbiya uchun xizmat qilgan. Siyosat, axloq, ta'lim-tarbiyaga oid bilimlar esa kishilarning jamoalarga birlashuvini, ijtimoiy hayotga tegishli qoidalarni o'rgatadi.

Forobiy insonning amaliy faoliyati uchun tabiiy fanlarning ahamiyatini yaxshi tushunadi. Bunday fanlarni real narsalar haqidagi ilmlar deb ataydi. U yunon tabiatshunoslari Yevklid, Ptolemey, Galen kitoblariga yozgan sharhlarida, o'zining geometriyaga doir kitobida antik dunyo, o'rtasr matematik g'oyalarning yirik bilimdoni sifatida maydonga chiqdi, matematikaning bir qancha murakkab kategoriyalari va mavhum tushunchalarini ilmiy nuqtayi nazardan hal etish yo'llarini qidirdi, xususan, son haqidagi ehtimollik nazariyasi to'g'risidagi g'oyalarni boyitdi.

Forobiy «Yulduzlar haqidagi qoidalarda nima to'g'ri va nima noto'g'riligi to'g'risida» risolasida osmon jismlari bilan yerdagi hodisalar o'rtasidagi tabiiy aloqalarni, xususan, bulutlar va yomg'irlar paydo bo'lishining Quyosh issiqligi ta'sirida bug'lanishga sababiy bog'liqligini yoki Oy tutilishi Yerning Quyosh bilan Oy o'rtasiga tushib qolishiga bog'liq ekanligini ko'rsatgan edi. Bu bilan u osmon jismlariga qarab «fol ochuvchilar»ni fosh qildi. Forobiy arzon metallarni qimmatbaho metallarga aylantirishga urinuvchilarni tanqid qilib, kimyoga tabiiy ilmlarning bir qismi sifatida qaradi. Forobiy tabiblik bilan bevosita shug'ullanmagan bo'lsa-da, nazariy tibbiyotni yaxshi bilgan. Uning tibbiy qarashlari «Inson a'zolari haqida» risolasida bayon qilingan. U inson a'zolarini, turli kasalliklar sababini, ularning paydo bo'lish sharoitlarini alohida-alohida o'rganishni, organizmning salomatligini tiklash uchun kerakli oziq-ovqatlarga e'tibor berishni qayd etadi. Insonning ruhiy va jismoniy holati tashqi omillar, muhit ta'siriga bog'liqligiga e'tibor beradi. Uning tibbiyot vazifasi, maqsadi haqidagi qarashlari Ibn Sinoning bu haqdagi qarashlariga katta ta'sir ko'rsatdi.

Forobiy dunyoqarashining shakllanishiga, asosan, Sharqning qadimgi ilg'or madaniyati an'analari, arab xalifaligiga qarshi xalq harakatlari, o'rta asr tabiiy-ilmiy tafakkur yutuqlari, Yunonistonning falsafiy merosi ta'sir ko'rsatdi. Forobiy, avvalambor Aristotel ta'limotini tiklash, asoslash va ilg'or tomonlarini so'nggi ilmiy yutuqlar asosida rivojlantirishga harakat qilib, Sharq aristotelizm oqimini vujudga keltiradi. Bu oqimning uslubi, muhim masalalari, kategoriyalarini ishlab chiqdi.

Forobiyning falsafiy ta'limoti mohiyat-e'tibori bilan an'anaviy ilohiyot — kalomdan tubdan farq qilib, ilmiy g'oyalar bilan yo'g'rilgandir. Forobiy falsafasiga ko'ra, olam yagona mavjudotdan iborat, yagona vujud — vujudi vojib, ya'ni azaliy vujud — birinchi sabab hamda vujudi mumkin — yaratilgan, kelib chiqqan vujudlar natijalaridan iboratdir. Alloh — azaliy vujud (vujudi vojib) hamma narsaning ibtidosi, barcha vujudlar — vujudi mumkin undan asta-sekinlik bilan pog'onama-pog'ona kelib chiqadi, buning so'nggi pog'onasi moddadir. Uning fikricha, tabiat moddaning turli shakllarining paydo bo'lish, sabab-oqibat munosabatlari asosida, muayyan izchillik va zarurat bo'yicha kechadigan tadrijiy jarayondir. Forobiy «Masalalar mohiyati», «O'zgaruvchan narsalar haqida» risolalarida modda fazoda ham, vaqtda ham cheklanmagan, intihosiz degan fikrni ilgari suradi. Shu tarzda panteizmning Sharqdagi ko'rinishi — vujudiyun ta'limotini yangi g'oyalar bilan boyitdi.

Borliqning kelib chiqishi haqida Forobiy ta'limotida — mavjudot 4 unsur — tuproq, suv, havo, olovdan tashkil topadi; osmon jismlari ham shu unsurlarning birikuvidan vujudga keladi. Moddiy jismlarning o'zaro farq qilishiga sabab, ularning ibtidosidagi unsurlarning turlicha bo'lishidir: olov — issiqlik sababi; suv — sovuqlik, namlik; tuproq — qattqlik sababi. Forobiy butun mavjudotni sabab va oqibat munosabatlari bilan bog'langan 6 daraja (sabab)ga bo'ladi: Alloh (as-sabab al-avval), osmon jinslari (as-sabab as-soniy), aql (al-aql al-faol), jon (an-nafs), shakl (as-surat), materiya (al-modda). Bulardan Alloh vojib, ya'ni zaruriy mavjudlikdir, qolganlari esa — vujudi mumkin, ya'ni imkoniy mavjud narsalardir. Bular bir-birlari bilan sababiy bog'langan.

Forobiy uchun dunyo g'uncha bo'lib, asta-sekin o'zining rang-barang tomonlarini va bitmas-tuganmas boyliklarini tobora ko'proq namoyon qilib ochila boradi. Borliqning bunday talqini tabiiy-ilmiy g'oyalarning yanada rivojlanishi uchun keng yo'l ochdi. Abu Ali ibn Sino va undan keyingi



mutafakkirlar o'zlarining falsafiy qarashlarida shu borliq tizimi asosida ish olib bordilar.

Ilm, bilish va aql haqidagi ta'limot Forobiy asarlarida izchil va mukammal ishlangan. Ilm olish masalasiga u inson mohiyatini tushuntirib berishning tarkibiy qismi sifatida qaradi.

Forobiy fikricha, insonning bilimini, ruhiy qobiliyatlarini miya boshqaradi, yurak esa barcha a'zolarni hayot uchun zarur bo'lgan qon bilan ta'minlovchi markazdir, barcha ruhiy «quvvatlar», jumladan bilish qobiliyati muayyan a'zoga bog'liq. Forobiy «Ilm va san'atning fazilatlarini» risolasida tabiatni bilishning cheksizligini, bilim bilmaslikdan bilishga, sababiyatni bilishdan oqibatni bilishga, sifatlar (aksidensiya) (al-oraz)dan substansiya — mohiyat (javhar)ga qarab ilmning borgan sari ortib, chuqurlashib borishini ta'kidlaydi.

Insonning ibtidosida, avvalo «oziqlantiruvchi quvvat» paydo bo'lib, uning yordamida inson ovqatlanadi. Shundan so'ng «tashqi quvvat», ya'ni bevosita tashqi ta'sir natijasida sezgi organlari orqali vujudga keluvchi «quvvatlar» — 5 turlidir: teri-badan sezgisi; ta'm bilish sezgisi; hid bilish sezgisi; eshitish sezgisi; ko'rish sezgisi. Bularning hammasini Forobiy «hissiyot quvvati» («quvvai hissiyya») deb atab, hissiy bilish qismlari sifatida qaraydi. «Ichki quvvat»ga esda olib qolish, xayol (xotira, tasavvur), his-tuyg'u, nutq (fikrlash) «quvvat»lari kiradi. «Ichki quvvat»da Forobiy aqliy bilish bosqichini nazarda tutadi. Ilmni egallash shu quvvatlar orqali amalga oshiriladi.

Forobiy bilish jarayoni har 2 bosqichga bog'liqligini, aqliy bilish hissiy bilishsiz vujudga kelmasligini alohida ta'kidlaydi.

Forobiy «Aql ma'nolari haqida» risolasida aql masalasini chuqur talqin qiladi. U aql bir tomondan, ruhiy jarayon, ikkinchi tomondan, tashqi ta'sir — ta'lim-tarbiyaning natijasi ekanligini uqdiradi. Forobiy fikricha, aql faqat insongagina xos bo'lgan tug'ma quvvat — ruhiy kuch bilan bog'liq.

Forobiyning aql, umuman bilish haqidagi ta'limotida mantiq (logika) ilmi muhim o'rin tutadi. «Mantiq san'ati kishiga shunday qonunlar haqida ma'lumot beradiki, — deb yozgan edi u, — bu qonunlar vositasida aql chiniqadi, inson sog'lom fikr yuritishga o'rganadi». Forobiy mantiq ilmi bilan grammatika o'rtasidagi mushtaraklikni qayd etadi: mantiqning aqlga munosabati grammatikaning tilga munosabati kabidir. Grammatika odamlar nutqini tarbiyalagani kabi, mantiq ilmi ham tafakkurni haqiqiy yo'ldan olib borish uchun aqlni to'g'rilab turadi.

Forobiy logikasi musulmon Sharqidagi so'nggi mantiqqa oid fikrlarining rivojiga katta turtki berdi.

Forobiyning bilish, mantiq, aql haqidagi fikrlari uning inson haqidagi ta'limoti uchun xizmat qiladi, unga bo'ysundirilgandir. Aqlga ega bo'lish, bilimli, mantiqli bo'lish bilan chegaralanmay, u ma'lum axloqiy prinsiplarga, axloqiy madaniyatga egalik bilan yakunlanishi kerak.

Forobiy aqlli inson haqida gapirib, bunday yozadi: «Aqlli deb shunday kishilarga aytiladiki, ular fazilatli, o'tkir mulohazali, foydali ishlarga berilgan, zarur narsalarni kashf va ixtiro etishda zo'r iste'dodga ega, yomon ishlardan o'zini chetga olib yuradilar. Bunday kishilarni oqil deydilar. Yomon ishlarni o'ylab topish uchun zehn-idrokka ega bo'lganlarni aqlli deb bo'lmaydi, ularni ayyor, aldoqchi degan nomlar bilan atamoq lozim».

Forobiy O'rta asrlar sharoitida birinchi bo'lib jamiyatning kelib chiqishi, maqsad va vazifalari haqida izchil ta'limot yaratdi. Bu ta'limotda ijtimoiy hayotning ko'p masalalari — davlatni boshqarish, ta'lim-tarbiya, axloq, ma'rifat, diniy e'tiqod, urush va yarash, mehnat va boshqalar qamrab olingan.

Forobiy «Fozil shahar aholisining maslagi» risolasida jamiyat («inson jamoasi»)ning kelib chiqishi haqida bunday yozadi: «Har bir inson tabiatan shunday tuzilganki, u yashash va oliy darajadagi yetuklikka erishmoq uchun ko'p narsalarga muhtoj bo'ladi, u bir o'zi bunday narsalarni qo'lga kiritmaydi, ularga ega bo'lish uchun insonlar jamoasiga ehtiyoj tug'iladi... Bular jamoa a'zolarining faoliyati bir butun holda, ularning har biriga yashash va yetuklikka erishuv uchun zarur bo'lgan narsalarni yetkazib beradi. Shuning uchun inson shaxslari ko'paydilar va yerning aholi yashaydigan qismiga o'rmashdilar, natijada, inson jamoasi vujudga keldi».

Forobiy shaharni ijtimoiy uyushishning yetuk shakli, insoniyat kamolatiga erishishining zaruriy vositasi, deb hisoblaydi. Butun insonlarni o'zaro hamkorlikka, xalqlarni tinchlikka chaqiradi, dunyoda yagona inson jamoasini tuzish haqida orzu qiladi. Mutafakkir inson qadr-qimmatini kamситuvchi jamiyatga qarshi chiqadi. «Davlat arbobining hikmatlari» risolasida esa u doimiy urushlar va bosqinchilikka asoslanuvchi jamiyatni adolatsiz, johil jamiyat sifatida qoralaydi.

Forobiy o'zining fozil jamoasida odamlarni turli belgilarga qarab guruhlariga bo'ladi. Kishilarning diniy mazhabiga, millatiga, irqiga qarab emas, balki tabiiy xususiyatlariga, qobiliyatlariga, avvalo, aqliy iqtidoriga



haqida insonlarni o'rganish, hayotiy tajriba to'plash jarayonida orttirgan bilim va ko'nikmalariga katta ahamiyat beradi. Itoatkorlikka da'vat etuvchi ta'limotlarni keskin qoralaydi.

Forobiy «Baxt-saodatga erishuv yo'llari haqida risola», «Baxt-saodatga erishuv haqida risola» asarlarida o'zining orzu qilgan fozil jamiyatini yanada ham yorqin tasvirlaydi. «Davlatning vazifasi insonlarni baxt-saodatga olib borishdir, — deb yozadi u, — bu esa ilm va yaxshi axloq yordamida qo'lga kiritiladi». Forobiy davlatni yetuk shaxs (monarxiya), yetuk qat'larga ega bo'lgan bir necha shaxslar (aristokratiya) va saylangan odamlar (demokratiya) yordamida boshqarish shakllarini qayd etadi.

Forobiy jamiyat o'z rivojida yetuklikka tomon intilishi, shuning uchun baxt olib borishi va nihoyat fozil jamiyat, fozil shahar darajasiga ko'tarilishi haqida fikr yuritadi.

U shunday yozadi: «Fozil jamiyat va fozil shahar (yoki mamlakat) shunday bo'ladiki, shu mamlakatning aholisidan bo'lgan har bir odam baxt bilan shug'ullanadi. Odamlar chin ma'nosi bilan ozod bo'lalilar. Ular orasida turli yaxshi odatlar, zavq-lazzatlar paydo bo'ladi». Forobiy bunday fozil jamoani boshqaruvchi podshoh, rahbarlarga ham ma'lum talablar qo'yadi. U xalq haqida doimo g'amxo'rlik qilishi, boshqalar manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'ya bilishi zarur. Bunday jamoani idora etuvchi yoki idora etuvchilar guruhi o'zlarida muhim olti qat'lni ifodalashlari kerak, ya'ni adolatli, dono bo'lishi, qonunlarga rioya etishi va qonunlar yarata olishi, kelgusini oldindan ko'ra bilishi, boshqalarga g'amxo'r bo'lishi kerak.

Forobiyning fozil jamoa haqidagi ta'limoti, uning komil inson haqidagi fikrlari bilan uzviy bog'lanib ketadi. Fozil jamoada komil inson xislatlar vujudga keladi. Masalan, axloq-odobli yetuk inson o'n ikki fazilatga ega bo'lmog'i lozim. Bu fazilatlar insonlarning o'zaro munosabatlari mustahkamlanib, yaxshilik tomon yo'nalishida vujudga kela boradi. Forobiyning fozil jamoa va komil inson haqidagi ta'limotlari so'nggi olim-mutalakkularga katta ta'sir ko'rsatdi.

Umuman olganda Forobiyning fozil jamiyati, komil insoni baxt-saodat, o'zaro yordam, dono boshliq, tenglik haqidagi fikrlari o'z davri uchun xayoliydir. Lekin insonni ma'naviy ozod etishga, uning imkoniyatlarini ochishga, gumanistik yo'nalishni asoslashga qaratilgan bu ta'limot ilmiy ijtimoiy tafakkur taraqqiyotiga buyuk hissa bo'lib qo'shildi. Umum-

bashariy intilishlarni ifodaladi. Uning ijtimoiy g'oyalari keyinchalik so'nggi mutafakkirlar: Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Ibn Rushd, Baxmanyor, Nizomiy, Sa'diy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Bedil, Iqbol, Ahmad Donish va boshqalar ijodida rivojlantirildi.

Forobiy «Musika haqida katta kitob» degan ko'p jildli asari bilan o'rta asrning yirik musiqashunosi sifatida ham mashhur bo'ldi. U musika ilmini nazariy, amaliy tarmoqlarga, kuylarning ichki tuzilishi, qonuniyatlarini hisobga olib ta'rif va ilmi iqoga ajratadi.

Forobiy musika nazariyasida tovushlar vujudga kelishining tabiiy-ilmiy ta'rifini beribgina qolmay, kuylar uyg'unligining matematik prinsiplarini ochadi, turli jadvallar, geometriya qoidalari asosida ko'plab murakkab chizmalar keltiradi. U Sharq musikasining ritmik asosini dalillar bilan sharhlab beradi. U ritmlarni tashkil etgan zarb birliklari bo'lmish naqralar, ularning birikmasidan hosil etiladigan ruknlarning turli xillari asosida yaratiladigan ritm o'lchovlari va turlarini yoritib bergan.

«Musika haqida katta kitob»da faqat musika nazariyasi va tarixi bayon etilmay, Sharqda ma'lum bo'lgan rubob, tanbur, nog'ora, ud, qonun, nay kabi musika asboblari hamda ularda kuy ijro etish qoidalari tafsiloti ham berilgan. Manbalarda Forobiyning o'zi mohir sozanda, bastakor bo'lgani, yangi musika asbobi ixtiro etganligi, unda nihoyatda ta'sirchan kuylar yaratgani qayd etiladi. Forobiy musiqaga inson axloqini tarbiyalovchi, sihat-salomatligini mustahkamlovchi vosita deb qaragan. Uning musika sohasida qoldirgan merosi musika madaniyati tarixida olamshumul ahamiyatga ega.

Forobiy o'z davridayoq buyuk olim sifatida mashhur bo'lgan. Sharq xalqlarida u haqda turli hikoya, rivoyatlar vujudga kelgan. O'rta asr olimlaridan Ibn Xallikon, Ibn al-Qiftiy, Ibn Abi Usabi'a, Bayhaqiylar o'z asarlarida Forobiy ijodini o'rganib, uning g'oyalarni rivojlantirganlar. Xususan, Ibn Rushd Forobiy asarlarini o'rganibgina qolmay, ularga sharhlar ham («Sillojizmga nisbatan al-Forobiyning fikri», «Abu Nasrning mantiqqa doir asarida ifodalangan fikrning bayoni» «Al-Forobiy, xususan, uning «Organon» izohlariga turli sharhlari» va b.) yozdi. Averroizm nomi bilan mashhur bo'lgan uning falsafiy ta'limotining shakllanishi dastlab Forobiy va Ibn Sino faoliyati bilan bog'liq. Averroizm ilmiy tendensiyalarni ifodalovchi ilg'or yo'nalish sifatida keng yoyilgan va Uyg'onish davrining ko'p ilg'or mutafakkirlari dunyoqarashiga ta'sir ko'rsatgan.

Taraqqiyparvar insoniyat Forobiy ijodiga hurmat bilan qarab, uning merosini chuqur o'rganadi. Ovro'po olimlaridan B.M.Shtrenshneyder, Karra de Vo, T. U. Buur, R. Xammond, R.de Erlanje, F. Deteritsi, G. Farmer, N. Rishar, G. Ley, Sharq olimlaridan Nafisiy, Umar Far-rux, Turker, M. Maxdi va boshqalar Forobiy merosini o'rganishga mu-ayyan hissa qo'shdilar. Keyingi yillarda uning ijodi va ta'limotiga ba-g'ishlangan bir qancha tadqiqotlar, asarlar yuzaga keldi.

ABU BAKR NARSHAXIY (899–959)

Abu Bakr Narshaxiy — Markaziy Osiyo tarixnavisligining ilk qa-dimiy durdonalaridan biri bo'lmish «Tarixi Buxoro» deb shuhrat topgan nodir asarning muallifidir. U o'z asarini 943–944-yillarda arab tilida yozgan va uni shu yillarda taxtga o'tirgan Somoniylar davlati hukmdori Amiri Hamid, ya'ni Abu Muhammad Nuh ibn Nasr ibn Ahmad ibn Ismoil as-Somoniy (943–954)ga bag'ishlagan. «Buxoro tarixi»ning o'zi-da ham, boshqa tarixiy manbalarda ham muallifning hayoti va faoliyatiga doir biror kengroq ma'lumot uchramaydi. Faqat XIII asr muallifi Sam'o-niyning «Kitob ul-ansob» asarida uning to'la ismi Abu Bakr Muham-mad ibn Ja'far ibn Zakariyo ibn Xattob ibn Sharik ekanligi va u Bux-oro aholidan (Narshax qishlog'idan) bo'lib, 286-hijriy (899-milodiy) yili tavallud topgan va 348 (959)-yili vafot etganligi eslatiladi.

Afsuski, «Buxoro tarixi»ning arab tilida yozilgan asl nusxasi bizgacha yetib kelgan emas. Bizga nasib bo'lgani — bu fors tiliga tarjima qilinib, qariyb uch asr davomida bir necha bor tahrir, qisqartirish va qo'shim-chalarni boshidan kechirgan nusxasidir.

Asarning so'zboshisida aytilishicha, 1129-yili asli hozirgi Quva shah-ridan bo'lgan Abu Nasr Ahmad ibn Muhammad ibn Nasr al-Quboviy Narshaxiyning kitobini do'stlarining iltimosiga binoan arab tilidan forsiyga tarjima qilgan va bunda u asarning ba'zi joylarini qisqartirgan; ammo, shu bilan birga ayrim qo'shimchalarni ham kiritgan. Shundan yarim asr o'tgach, mazkur forsiy tarjima yana qaytadan tahrirga uchragan; 1178–1179-yillar davomida Muhammad ibn Zufar ibn Umar asarni ikkinchi marta qisqartirib bayon etgan. Ammo asarni o'qir ekanmiz, biz unda

mazkur 1178-yildan keyingi, to 1220-yilgacha bo'lib o'tgan tarixiy voqealar haqida qisqa-qisqa ma'lumotlarni uchratamiz. Bu hol shuni ko'rsatadiki, Muhammad ibn Zufarning qisqartirishidan (ya'ni 1178-yili) keyin ham bir necha noma'lum kishilar ana shu forsiy tarjimani tahrir qilganlar. Ular asarni yana qisqartirganlar deyishga asos bo'lmasa-da, lekin qo'shimchalar kiritganliklari voqealar mazmunidan ko'rinib turibdi.

«Buxoro tarixi»ning qo'limizdagi barcha nusxalari ana shu 1220-yilgacha davom ettirilgan matnni o'z ichiga oladi. Asarning arab tilidagi asli bizgacha kelmaganidek, forsiy tarjima ham keyingi tahrirchilar orqaligina mavjuddir. Chunonchi, tarjimon Abu Nasr Ahmad asardagi ba'zi joylarni qisqartirish bilan birga, unga katta tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlar kiritgan. Bunda u o'zidan oldingi ishonchli manbalardan foydalangan. Ulardan IX asr muallifi Abulhasan Abdurahmon ibn Muhammad Nishopuriyning «Xazoin ul-ulum» asaridir. Bundan tashqari tarjimon Abu Is'hoq Ibrohim ibn al-Abbos as-Suliyning «Axbori Muqanna'» asaridan, Abu Ja'far Muhammad at-Tabariyning «Tarixi Tabariy» asaridan qo'shimchalar keltirgan.

Tarjimon Abu Nasr Ahmad va undan keyingi tahrirchi, qayta ishlovchilar ham «Tarixi Buxoro» matniga anchagina o'zgartirishlar kiritgan bo'lsalar ham, ammo Narshaxiy nomini muallif sifatida saqlab qolganlar. Masalan, asarda uchraydigan «bu kitobning musannifi aytadi» (Tehron nashri, 1939-y., 4-bet) degan ta'kidlar buni yaqqol isbotlaydi. Lekin shunga qaramay, Narshaxiy o'z asarini tamomlagan 944-yildan keyingi, to 1220-yilgacha bo'lgan voqealar mualliflari deb biz mazkur tarjimon va tahrirchilarni tanimog'imiz lozim.

Narshaxiyning o'zi aslida asarga qanday nom berganligi ma'lum emas. Shuning uchun u qo'lyozma nusxalarda va tarixiy adabiyotlarda «Tarixi Narshaxiy», «Tahqiq ul-viloyat», «Axbori Buxoro», «Tarixi Buxoro» nomlari bilan yuritiladi. Lekin ulardan eng aniqrog'i va ilmiy adabiyotda ko'proq ishlatiladigani «Tarixi Buxoro»dir.

Narshaxiyning bu kitobda asosan Buxoro vohasining obod bo'lishi, ovchilik, baliqchilik va dehqonchilikning kasb etilishi, Numijkat, Poykand, Afshona, Varaxsha, Romiton, Vardona kabi qadimiy qishloqlarning barpo bo'lishidan tortib, to Buxoro shahrining qad ko'tarishigacha bo'lgan muhim tarixiy voqealar to'g'risida hikoya qilinadi. Kitobda Markaziy Osiyoda arab xalifaligi hukmronligining o'rnatilishi, Islom dinining tarqa-



tilishi, otashparastlik va u bilan bog'liq madaniy hayotning inqirozi, Muqanna — «Oq kiyimliklar harakati», Somoniylar davridagi davlat idorasi, madaniy qurilishlar borasida turli-tuman qiziqarli ma'lumotlar keltirilgan; Buxoroning iqtisodiy-ijtimoiy madaniy hayotiga, ayniqsa, pul munosabatlariga, xiroj yig'ish tizimiga oid ma'lumotlar bor. «Buxoro tarixi»da yersuv munosabatlari haqida so'zlar ekan, Narshaxiy qadimgi zamindorlarni «dehqonlar», ya'ni «qishloq hokimlari», ziroatchilarni «kashovarlar», ya'ni «yer haydovchi» — «qo'shimchalar», yirik yer egalari qaram qishloq aholisini «kadivarlar» nomlari bilan ataydi. VIII—X asrlarda Buxoroda hunarmandchilik nihoyatda rivojlangan bo'lib, har bir qishloq o'z mahsuli bilan shuhrat topgan. Masalan, Zandana qishlog'ida to'qiladigan ipak va ip matolar «zandaniycha» nomi bilan butun Sharqqa mashhur bo'lgan. Buxoro shahrining o'zida «Bayt ut-tiroz» nomli to'qimachilik korxonasi bo'lib, uning mahsulotlari Fors, Kermon, Hindiston, Iroq, Shom, Misr va Rum kabi o'lkalarga olib borilgan. Buxoro savdogarlari nihoyatda boy tabaqa bo'lib, Narshaxiy ularni «kashkashon» deb ataydi. Savdo munosabatlari keng yoyilganligi sababli Buxoro shahriga «Madinat ut-tujjor» ya'ni «Savdogarlar shahri» deb laqab berilgan.

Kitobda Buxoro vohasini sug'oruvchi anhorlar, obod qishloqlar, rabotlar va ko'shklar haqida ma'lumotlar bor. Butun voha VIII—XII asrlarda Karmana, Shopurkom, Harqonat ul-Ulyo, Harqonrud, Ovxitar, Somjon, Baykonrud, Farovizi Ulyo, Komi Daymun, Arvon, Kayfur, Rudi Zar kabi sug'orish tarmoqlari orqali suv bilan ta'minlangan. Birgina Poykand shahri atrofida mingdan ortiq rabot bo'lgan.

Buxoro vohasini tashqi hujumlardan mudofaa etish maqsadida uning barcha dehqonchilik muzofotlari bir necha yuz farsaxga cho'zilgan mudofaa devori bilan o'rab olingan. Bu devor 782—831-yillar mobaynida qurib bitkazilgan va u «Kampirak» nomi bilan mashhur bo'lgan.

Asarda Buxoro shahrining tarixiy topografiyasi to'g'risida ham qimmatli ma'lumotlar bor. O'rta asrlarda Buxoro arkining «Dari Registon» va «Dari G'o'riyon» nomli ikki darvozasi bo'lgan. Uning ichida «podshohlar, amirlarning turarjoylari bo'lib, podshohlik devonlari va podshohlar turadigan qasr qadimdan shu yerda joylashgan». 850-yilda Buxoro shahri yangidan devor bilan o'rab olingan. Uning yettita darvozasi bo'lgan. Buxoro qadim zamonlarda, Numijjat, Bumiskat, Foxira, Madinat us-sufriya, ya'ni «Mis shahar» nomlari bilan atalgan.



Xulosa shuki, Narshaxiyning «Buxoro tarixi» kitobi birgina Buxoro tarixini emas, balki Markaziy Osiyo tarixini o'rganish uchun qimmatli tarixiy asardir. Shu bois, Markaziy Osiyo xalqlarining VIII–XII asrlarga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarda Narshaxiy ma'lumotlari va uning hammuallifi, tarjimoni va muharriri Abu Nasr Ahmad Quboviyning qo'shimchalari XIX asrdanoq keng foydalanib kelinmoqda, asarning nusxalari dunyo qo'lyozmalar xazinalarida ko'plab uchraydi. Birgina O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida 20 dan ortiq nusxa mavjud. Asarning forsiy matni bir necha bor – 1892-yili Ch. Shefer tomonidan Parijda, 1904-yili Mullo Sulton tomonidan Buxoroda (Kogon), 1939-yili Mudarris Rizaniy tomonidan Tehronda nashr qilingan. «Buxoro tarixi»ning N. Likoshin bajargan rus tiliga tarjimasi 1897-yili Toshkentda, R. Frayning ilmiy izohlar bilan boyitilgan inglizcha tarjimasi 1954-yili Kembrijda, Nasrulloh Taroziyning arab tiliga ilmiy izohli tarjimasi Misrda chop etildi. Bir necha qo'lyozma va nashrlar matni solishtirilib, tafovutlar qayd etilgan ilmiy izohli o'zbek tilidagi tarjimasi 1966-yili A. Rasulov va A. O'rinboevlar tomonidan (tarixiy shaxslarga izohlar D. Yusupovaniki) «Fan» nashriyatida nashr etildi. «Tarixi Buxoro»ning matnini va ma'lumotlarini boshqa manbalar bilan qiyosiy o'rganib, undagi ma'lumotlarni manbashunoslik va matnshunoslik fani nuqtayi nazaridan tahlil etish ishlari hali davom etmoqda. 2011-yilda Narshaxiyning bu asari Toshkentda rus tilida (Sh.Kamoliddinning tarjima, izoh, ko'rsatkichlari bilan) nashr etildi.

QAFFOL ASH-SHOSHIY (903–976)

Toshkent – o'rta asr arab manbalarida esa Shosh – tarix jara-yonida ko'plab shoir va adiblar, allomalar, riyozat va tabobat ahillarini yetishtirgan. Ana shunday allomalardan biri Qaffol ash-Shoshiydir.

Qaffol ash-Shoshiyning to'liq ismi Abu Bakr ibn Ali Ismoil Qaffol ash-Shoshiy bo'lib, arab manbalarida uning hurmatini bajo keltirish uchun nomiga katta, ulug' yo muhtaram ma'nosini ifodalaydigan «al-Kabir» so'zini qo'shib yozadilar. Bu bilan o'tmishdoshlarimiz Qaffol ash-Shoshiyga nisbatan buyuk ehtiromni ifoda etganlar.

Qaffol ash-Shoshiy hunarmand oilada dunyoga kelgan ko‘rinadi. Shu sababdan «Qaffol» — qulfsuz deb mashhur bo‘lgan.

Qaffol ash-Shoshiy asli qulfsuz usta bo‘lib, kichik va nozik qulflar yasaydigan, qo‘li gul kishi bo‘lgan.

Ash-Shoshiy dastlabki ta‘limni o‘z yurtida, keyinchalik Markaziy Osiyoda mavjud ma‘rifat o‘choqlarida oladi. Samarqand, Buxoro, Termiz kabi shaharlarni kezadi. Bu yerlarda undan sal oldinroq o‘tgan va anchagina meros qoldirgan Imom al-Buxoriy (810–870), Abu Iso Muhammad at-Termiziy (824–892) kabi yirik mutafakkir olimlar merosi bilan tanishadi, ulardan bahramand bo‘ladi. U birmuncha vaqt Samarqandda yashab, u yerda ta‘lim oladi. Qaffol ash-Shoshiy qattiq kirishib, fiqhshunoslikni o‘rganadi. Zero bu fan musulmon Sharq o‘lkalarida juda keng tarqalgan va ijtimoiy hayotda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu fanni egallagan kishilar hamma joyda qadrlanar, ularga zarurat ham katta, chunki ijtimoiy hayotda qonunshunoslikka talab katta bo‘lib turishi tabiiy edi. Qaffol ash-Shoshiy fiqh ilmini egallash bilan birga fikr doirasi o‘ta keng, falsafa, mantiq, adabiyot sohalarini ham puxta egallagan, bu sohalarda eng bilimdonlar bilan munozara qila oladigan qudratga ega bo‘lgan bir zot edi.

Qaffol ash-Shoshiy doimo ilm-ma‘rifat istagida qo‘nim topmay, bir o‘lkadan ikkinchisiga — ilm chashmalaridan bahramand bo‘lish niyatida Yaqin va O‘rta Sharq mamlakatlarini kezadi, Hijoz, Bag‘dod, Damashq kabi shaharlarga boradi, u yerlarda zamonasining ko‘zga ko‘ringan olimlaridan ilm-ma‘rifat o‘rganadi.

Qaffol ash-Shoshiyning ustozlariga qarab ham uning bilimi, qanday fanlarni o‘rganganligini bilish mumkin. Manbalarning ko‘rsatishicha, Qaffol ash-Shoshiyning qonunshunoslik va tarix sohasidagi ustози mashhur olim at-Tabariy (839–923) edi. Ma‘lum bo‘lishicha, Abu Ja‘far Muhammad ibn Jarir at-Tabariy musulmon Sharq mamlakatlarining eng yirik tarixchisi bo‘lib, ko‘p jildlik asarlar muallifi edi.

Qaffol ash-Shoshiyning ikkinchi yirik ustози Abul-Hasan Ali ibn Abu Muso al-Ash‘ariy (873–941) edi. Bu kishi Sharqda kalomchilar oqimining asoschisi bo‘lib, bu sohada anchagina asarlar yozgan edi. Al-Ash‘ariy aslida islom falsafasida mashhur bo‘lgan ash‘ariya oqimi asoschisi sanaladi. Tojiddin Abu Nasr Abdulvahob as-Subkiyning (tug‘ilgan yili — 1328) xabar berishicha, «Qaffol ash-Shoshiy olim al-Ash‘ariydan

kalom ilmini va, o'z navbatida, al-Ash'ariy undan qonunshunoslik sohasini o'rganar ekan».

Arab olimi va bibliografi Ibn Xallikon (1211–1282) o'zining «Vafoyot al-a'yon» («Ulug' kishilar vafoti») degan asarida Qaffol ash-Shoshiy haqida to'xtab, shularni yozadi: «Qaffol ash-Shoshiy hadis ilmini bilgan, tilshunos, shoir odam edi. O'sha vaqtda Movarounnahrda u kishiga teng keladigan olim yo'q edi. Bu kishi Xuroson, Iroq, Hijoz, Shom (Suriya) va boshqa o'lkalarga sayohat qilib, hamma yerda ham nom taratdi... u kishining ko'p asarlari bo'lgan».

Qaffol ash-Shoshiy qonunshunoslik, mantiq kabi sohalariga oid asar yozgan. Uning «Odob al-qozi» («Qozining fe'l-atvori»), «Odob al-bahs» («Bahs odobi») degan ta'lifi bo'lib, arab tilidagi she'rlari ma'lum. Bu xususda yuqorida zikr qilingan arab olimi Ibn Xallikon yozadi: «Qonunshunoslardan dastlab otilib chiqib «Husni jadal» («Dialektika go'zalligi») degan asar yozgan kishi ham shu Qaffol ash-Shoshiy edi».

Qaffol ash-Shoshiy yaxshi shoir ham bo'lib, o'z she'rlarini arab tilida yozgan. Ammo uning she'riy ijodi davrimizgacha yetib kelmagan, faqatgina as-Subkiyning «Tabaqat ash-Shofiiyya» («Shofiiyya mazhabi darajalari») degan kitobida she'rlaridan parchalar saqlanib qolgan. O'sha she'rlarda shunday satrlar bor:

«Kimki uyimga mehmon bo'lib keladigan bo'lsa, dasturxonim doimo uning uchun yozilgan bo'ladi. Kimki mening dasturxonimdan biror narsa yesa (bilsinki), undagi barcha noz-ne'mat peshona terim bilan topilgan, (ya'ni) halol bo'ladi.

Biz bor-budimizni mehmon oldiga qo'yamiz. Bordi-yu (qo'yishga) narsa topolmasak, u holda sabzavot bilan sirka qo'yamiz. Shunda beg'araz, ko'ngli ochiq odam bo'lsa, u bunga rozi bo'lib ko'nadi; bordi-yu baxil bo'lsa, u holda uni men tuzata olmayman».

Qaffol ash-Shoshiyning qonunshunoslikka doir asari davr taqozosiga ko'ra, islom tarqalgan mamlakatlarda keng ko'lamda yoyildi.

Qaffol ash-Shoshiyning qalamiga mansub bo'lgan she'rlar as-Subkiy asariga kirib qolgan. Bu parchadan ma'lum bo'lishicha, Vizantiya imperatori bilan arab xalifasi o'rtasida janjalli yozishmalar bo'ladi. Bu yozishmalarda Vizantiya imperatori arab xalifaligiga do'q va po'pisa bilan murojaat qilib, bir vaqtlar uning yerlari bo'lgan, hozir esa Bag'dod xalifasi egallab turgan o'lkalarni tinchlik bilan, osonlikcha ularga qaytarib berishni

talab qiladi. Vizantiya hukmdorlari maktubni balandparvoz chiqishi uchun uni arab tilida she'r bilan bitadilar. She'r hoshimiylar xonadonidan bo'lmish hukmron xalifaga deb atalgan. Maktubda shunday satrlar ham bor:

«Biz sherdek otilib chiqib, o'z yerlarimizni egalladik. Damashq o'lkasi esa ota-bobolarimiz maskani edi, biz bu diyor mol-mulkiga ega bo'lamiz. Misri ham qilichimiz tig'i bilan egallaymiz. Hijoz, Bag'dod, Sheroz, Ray, Xuroson, Quddus, Sharq-u G'arb hammasini egallaymiz», deb xalifa va uning sarkardalariga dag'dag'a soladi, ularni ayyorlik bilan qo'rqitmoqchi va, nihoyat, ularni osonlikcha qo'lga kiritmoqchi bo'ladi. Xuddi mana shu voqealar bo'lgan kezda Qaffol ash-Shoshiy Bag'dod shahrida bo'ladi. U xalifalikda iqtidori zo'r olim, saroy a'yonlari o'rtasida yaxshigina qonunshunos, zabardast shoir sifatida tanilgan edi. Shu sababli Vizantiya hukmdorining lashkarboshisi Tag'fur (arab manbalarida Takfur) xatiga xalifalik nomidan javob yozish Qaffol ash-Shoshiyga nisbatan katta ehtirom edi.

Qaffol ash-Shoshiy maktubni o'qib ko'rib, o'sha maktub yozilgan she'r vaznida va o'sha tarzdagi qofiyada Tag'fur nomiga arab tilida javob she'rini yozadi. Vizantiyaliklarga mana shu ash-Shoshiy yozgan javob xatining yetmish to'rt bayti (148 yo'li) yuqorida zikr qilingan Tojiddin as-Subkiyning «Tabaqat ash-Shofiyya» asari ichida saqlanib qolgan. As-Subkiyning yozishicha, vizantiyaliklar, xususan, uning lashkarboshisi Tag'fur ash-Shoshiyning bu javob she'rini o'qib, dahshatga tushadi. So'ng lashkarboshilar bundan taajjubga tushib, bir-birlaridan so'rashibdi:

– Bu javob yozgan kishi kim bo'ldi ekan, u qaysi yurtidan ekan, xalifalikda biz bunday iste'dodli zot borligini bilmas edik-ku?

Xullas, Vizantiya lashkarboshilarini Qaffol ash-Shoshiyning diplomatiya tarzida yozilgan javob maktubi esankiratib qo'yadi. Voqeaning nima bilan tugashining bugungi kunda ahamiyati yo'q, lekin bu birgina misol orqali Qaffol ash-Shoshiyning zabardast davlat arbobi, hozirjavob shoir ekanligi ma'lum bo'ladi.

Qaffol ash-Shoshiy shunday ulug'vor va dovyurak shoir, ajoyib bir shaxs bo'lgan. Afsuski, uning adiblik, shoirlik, tilshunoslik, mantiqshunoslik faoliyati bilan deyarli hech kim shug'ullanmadi, uning jadal dialektikaga oid asari ham o'rganilgan emas.

Manbalarining ko'rsatishicha, bag'dodlik Xo'ja Muhammad Nomiy degan olim Qaffol ash-Shoshiy qo'lida o'qigan, natijada, u bilan qalin

do'st bo'lib qolgan ekan. Shu kishi o'z oilasi bilan birga ash-Shoshiyga ergashib Toshkentga kelgan, umrining oxirigacha shu yerda qolib ketgan. Qaffol ash-Shoshiy 976-yili Toshkentda vafot etgan va shu yerda dafn etilgan. Hozir Toshkentning xalq orasida «Hastimom» deb ataladigan joy shu mo'tabar zotga nisbatan aytiladigan nom — «Hazrati imom»ning qisqargani bo'ladi. Aslida bu joyning nomi Hazrati Imom Qaffol ash-Shoshiydir. U kishining qabrlari tegrasida Toshkentda mashhur bo'lgan mo'tabar zotlar dafn etilgan.

Qaffol ash-Shoshiy maqbarasi Toshkentning qadimiy, ko'zga ko'ringan tabarruk bir qadamjosi sanaladi.

ABU MANSUR AL-MOTURIDIY (870—944)

Abu Mansur al-Moturidiy sunniy e'tiqodidagi ikki yirik oqimlardan biri bo'lmish Moturidiya oqimining asoschilaridan hisoblanadi. Uning hayoti haqida ma'lumotlar juda oz. To'liq nomi Abu Mansur Muhammad ibn Muhammad ibn Mahmud al-Hanafiy al-Moturidiy as-Samarqandiydir. Buyuk kalom imomi va fiqh olimi asli Samarqandning Moturid qishlog'idan (hozirgi Jomboy tumanida joylashgan) bo'lib, uning taxallusi shu qishloqqa nisbatan olingandir. Abu Mansur al-Moturidiy ta'limni shu qishloqda olib, keyinchalik Movarounnahrning o'sha davrdagi diniy va ma'rifiy markazi bo'lgan Samarqandda davom ettiradi.

Al-Moturidiy yashagan davr Somoniylar hukmronlik qilgan davrga to'g'ri keladi. Samarqand dastlab bu davlatning poytaxti bo'lib, so'ngra IX asrning oxiridan boshlab poytaxt Buxoroga ko'chirildi. Biroq o'sha vaqtda ham Samarqand Buxoro bilan bir qatorda Movarounnahrning iqtisodiy-madaniy markazi bo'lib qolaverdi.

Abu Mansur al-Moturidiy 870-yil tug'ilgan. U Samarqandda 944—945-yilda vafot etgan va shahar chekkasidagi Chokardiza qabristoniga dafn etilgan.

Ba'zi manbalarda uning Samarqanddagi al-Ayoziy madrasasida ta'lim olgani qayd etilgan. Al-Moturidiy Abu Bakr Ahmad al-Juzjoniy, Abu Nasr Ahmad al-Iyodiy, Imom A'zam mazhabidagi buyuk olim Nasr ibn Yaxyo al-Balxiy, Muhammad ibn al-Fadl kabilarni o'zining ustozlari deb bilgan.

Al-Moturidiy fiqh va kalom masalalari bilan qiziqib, Hanafiya mazhab olimlaridan dars olib o'z bilimini oshiradi. Shu vaqt davomida ko'plab mashhur faqihlar va muhaddislar bilan muloqotda bo'lgan va munozaralar qilgan. Butun umri davomida shu sohaga oid asarlar yozib qoldirgandir. Mahmud ibn Sulaymon al-Kafaviyning (vafoti 1582-yil) «Katoib ul-a'lom al-axyor fi taboqot va mashoyix mazhab an-Nu'mon» («Nu'mon mazhabiga mansub bo'lgan taniqli alloma faqihlar va shayxlar haqidagi kitob») nomli kitobida al-Moturidiy va uning asarlari haqida ayrim ma'lumotlar beriladi. Masalan, quyidagi asarlari nomlari keltirilgan: «Kitabi Tavhid», «Kitab Maqomat», «Kitab rad avomil lil adila lil kabiyy» («Ka'biyy zalolatlarining boshlanishini rad qilishga bag'ishlangan kitob»), «Kitab bayon va hum ul-mu'tazila» («Mu'tazila g'avg'olari va undan qo'rqmaslik haqidagi kitob bayoni»), «Kitab Ta'vilot al-Qur'on» («Qur'on ta'vili kitobi»).

Lekin Hoji Xalifaning (1609–1659) «Kashf az-zunun an-asomil kutub va-l-funun» («Kitob va fanlar nomlari haqidagi shubhalarni bartaraf etish kitobi») kitobida e'tirof etilishicha, yana Abu Mansur al-Moturidiyning «Ma hazi ash-shari'a» («Shariat asoslari sarasi»), «Kitab al-jadal» («Dialektika haqida kitob») kabi asarlari ham bo'lgan. Bulardan tashqari al-Moturidiyning «Kitob al-usul» («Diniy ta'limot usuli kitobi») asari ham ma'lum.

Abu Mansur al-Moturidiyning ko'p asarlari bizgacha yetib kelmagan, yetib kelganlari ham, asosan, xorijiy mamlakatlar kutubxona va qo'lyozma fondlarida saqlanadi.

Al-Moturidiyning islom olamida juda nodir hisoblangan «Kitab Tavhid» — asari bizning davrimizgacha yetib kelgan va u 1970-yilda Fathulloh Xulif tomonidan Bayrutda nashr etilgan.

U islom dinidagi sunniylarning to'rtta asosiy mazhabi asoschilarining asarlarini o'rganib, fiqhga va kalomga oid asar yozadi. Bu al-Moturidiyning «Ta'vilot ahl as-sunna» yoki boshqa bir nomi «Ta'vilot al-Qur'on» deb nomlanadi. Al-Moturidiy bu asarida sunniy aqidadagi (ta'vilda) zid qarashlarni rad qilishga harakat qiladi va Abu Hanifaning qarashlariga suyangan holda ish ko'radi. Bu asar O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanadi. «Ta'vilot»ning birinchi jildi Qohirada 1971-yilda Ibrohim Avadayn va as-Said Avadaynlar tomonidan nashr etilgan.

Al-Moturidiyning bu birgina asari tarix jarayonida ko'p allomalar asarlariga asos solgan, ular ijodiga turtki bo'lgan.

Shularidan biri Alovuddin Abu Bakr Muhammad ibn Ahmad as-Samarqandiyning sharhidir. U «Sharh ta'vilot ahli as-sunna» deb nomlanib, institut fondida bu asarni ikkita nusxasi saqlanadi.

Shu bilan birga al-Moturidiy nomi ostida yozilgan bir necha soxta asarlar ham ma'lumdir. Masalan: «Favoid» (qoidalar), boshqa nomi «Pandnoma», «Kitob al-Usul», «Sharh al-Fiqh al-Akbar» asarlari shular jumlasidandir. Bu al-Moturidiyning diniy ilmlar namoyandalari orasida qanchalik mashhur bo'lganligidan dalolat beradi.

Al-Moturidiy ko'p shogirdlar yetishtirdi, ular orasida islom olamiga mashhur allomalar: Abu-l-Hasan ar-Rustug'faniy (vafoti 961), Is'hoq ibn Muhammad as-Samarqandiy va Abdu-l-Karim al-Pazdaviy (vafoti 999), Abu Ahmad al-Iyodiy kabi olimlar bor edi. Shogirdlari o'z ustozlarining ta'limotini davom ettirishganligi tufayli Hanafiya mazhabidagilar ichida Moturidiya oqimi vujudga kelgan.

Abu Mansur al-Moturidiyning zamondoshlari hamda hamfikrlaridan mashhur fiqh olimi Abu-l-Qosim Hakim as-Samarqandiyning alohida ko'rsatib o'tish lozim. Bu olim Samarqandda tug'ilib, butun umrini shu yerda o'tkazgan. Fiqh va kalom sohasida mashhur bo'lgan.

Abu Mansur umri davomida faqihlar, muhaddislar bilan muloqotda bo'lgan va munozaralar olib borgan. U islom dini Hanafiya mazhabini Movarounnahrda tarqatish va o'zidan keyingi avlodlarga qusursiz yetkazish ishiga muhim hissa qo'shdi.

Al-Moturidiy nafaqat fiqh, kalom ilmiga oid, balki boshqa fanlarga oid asarlar ham yozgan deb aytish mumkin. O'zr FAning Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanayotgan al-Moturidiyning ovchilikka oid asari bunga dalil bo'ladi. Bu asarning bir qo'lyozma nusxasi «Risola jonvor doriy» («Jonivorlarga oid risola») deb nomlangan bo'lib, unda ovchi qushlarni boqish haqida fikr yuritiladi. Bu asarda ovchi burgutlarning har xil zotlari, ularning tashqi ko'rinishlari, oziqlantirish, ovga yaroqliligi bilan bir qatorda ko'paytirish va chatishtirish usullari kabi masalalar haqida gap boradi.

Al-Moturidiy o'z davrining islomiy ilmlari sohasida eng yetuk bilim sohibi hisoblanib, musulmon dunyosi olimlari tomonidan tan olingan va hozirda ham turli diniy asarlarda zo'r ehtirom bilan tilga olinadi.



Al-Moturidiyni ulug'lab «Imom al-Xuda» va «Imom al-mutakallimin» (Hidoyat yo'li imomi va mutakallimlar imomi) kabi nomlar bilan ham ataganlar.

Movarounnahr — Markaziy Osiyo xalqlari turli falsafiy, tabiiy, aniq tanlar, adabiyot, san'at sohalarida dunyoga mashhur siymolar, allomalar bilan birga islom nazariyasi, diniy ilmlar bo'yicha al-Moturidiydek butun musulmon olamida nom qozongan olimlarni ham yetishtirib chiqardilar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-dekabrda qabul qilgan qaroriga binoan 2000-yilda allomaning 1130 yillik tavalud sanasi nishonlandi.

ABU BAKR AL-XORAZMIY (935–993)

Abu Bakr al-Xorazmiy 323-hijriy (935-milodiy) yili Xorazmda tug'ilib, ilk ta'limni shu yerda oladi. Umrining gullagan davrida (20–25 yoshlarida) vatandan chiqib, Iroq va Shomga boradi, yetuk olim va shoirlar bilan tanishib, ulardan ta'lim oladi. Keyin Halabga borib, mashhur Hamdoniylar amiri, shoir va olimlar homiysi Abulhasan Sayfuddavla (944–967) bilan tanishib, uning saroyida xizmat qilib, so'ng Buxoroga keladi, Somoniylar saroyida yashab, vazir Abu Ali al-Bal'amiy (960–974 va 992–996) bilan do'stlashadi, lekin u bilan munosabati yomonlashib, Nishopurga yo'l oladi. Bu yerdagi taniqli shoirlar Abulhasan al-Qazviniy, Abu Mansur al-Bag'aviy va Abulhasan al-Hakamiylar bilan do'stlashib, ularning shoirlik mahoratidan bahramand bo'ladi.

Umuman Xorazmiyning umri fojialar va rohatbaxsh etuvchi onlarga to'la. U turli shaharlarda bo'lib, qamoqda ham yotib chiqadi, amirlarning e'tiboriga tushib boylik ham orttiradi, amaldorlarning g'azabiga uchraydi va h.k. Abu Bakr al-Xorazmiy Nishopurga kelib, bu yerda muqim yashay boshlaydi. Talabalarga saboq beradi, she'r yozishni o'rgatadi, nishopurlik mashhur adib, shoir va olimlar, shular qatori as-Saolibiy bilan do'stlashib, ularning majlislarida ishtirok etadi. Yana Somoniylar vaziri al-Utbiy siquvidan qutilish uchun qochishga majbur bo'ladi. Shoir bir necha vaqtdan so'ng yana Nishopurga qaytadi, umrining oxirida yakkalanib

qoladi va hayotining keyingi davri og'ir musibatlar bilan o'tadi. U hijriy 383 (milodiy 993)-yili Nishopurda vafot etadi.

Abu Bakr al-Xorazmiyning adabiy merosidan arab tilidagi katta devoni va «Risolalari» bizgacha yetib kelgan. Abu Bakr al-Xorazmiy «Risolalari» X asr nasriy adabiyotining mashhur yodgorligi hisoblanadi. Til va uslub jihatdan nihoyatda puxta ishlangan bu asar saj' (qofiyali nasr) bilan yozilgan bo'lib, shoir zamonasidagi mashhur kishilar: amir, vazir, lashkarboshi, qozi, amaldor, faqihlarga, adib va tilshunos olimlarga, ya'ni al-Xorazmiyning do'stlari va homiylariga yozilgan xatlardir. Risolalar mazmuni turli bayramlar, yuqori martabaga ko'tarilish va biror muvaffaqiyatni qo'lga kiritish, o'lim, mansabdan chetlatilish, kasallik yoki urush xavfi kabi munosabatlar bilan tabrik yoki qayg'u izhor etib, tasalli berish, tuhfalalar uchun tashakkur aytish kabilardir. Risolalar orasida al-Xorazmiyning o'z shogirdlariga yozgan maktublari ham ko'plab uchraydi.

Al-Xorazmiy risolalarining aksariyati ilm-fan, aql-odob, adolat, himmat, do'stlik kabi muhim ijtimoiy masalalarga bag'ishlangan bo'lib, ularda qo'llangan iboralar xalq hikmatli so'zlariga aylanib ketgan.

Shoir risolalaridan manbalarda keltirilgan ba'zi bir parchalar tarjimasini beramiz: «Hurmat ehson bilan barobardir... Do'stlashish murojaat emas, xushmuomalaliklar, xushmuomalalik esa chuqur tekshirish va o'rganishni uzoqqa cho'zmaydi ham, hisob va sarfni ko'tarmaydi ham. Karamli kishi tahqirlansa ham azizdir... Sababsiz uzr gunohdir, ishonch yo'qolishi bilan qilingan takalluf haqoratdir. Ehtiyotsiz (qilingan) dori-darmon kasallikdir, unga hojat tushgandagina, u shifo bo'ladi. Oliyjanob kishi agar (birov) jarohatlansa, (uni) bog'lab qo'yadi, yirtsa — yamaydi, agar bir tomondan zarar keltirsa, har tomondan foyda keltiradi... Oliyhimmat zafarining karomati (shundaki), agar qo'lga kiritrsa, (boshqalarga) beradi, pastkash zafarining qabihligi shundaki, agar qo'lga kiritrsa, ko'proq qo'lga kiritishni istaydi... Otalar ikki xil: tug'ilish otasi va ta'lim berish otasi, birinchisi jismoniy hayot sababi, ikkinchisi ruhiy hayot sababidir... Karamli kishi go'zallik bilan savdo qiladi, mol bilan savdo qilmaydi... G'azabli hurmatni unutadi, yaxshiliklarni ko'mib yuboradi va gunohsizlar uchun jinoyatlar vujudga keltiradi. Qalbaki maqtash haqoratlashdir. Poydevorsiz qurilgan bino qulaydi... Muhabbat har qanday qimmat narsaning bahosidir va har qanday yuqori narsaning shotisidir... Agar hokimiyat atrofida adolat



hukm surmasa, u inqirozga yuz tutadi... Rostgo'y til yolg'on so'zlasa, tutilib qoladi».

Yana bir boshqa risolasida shunday yozadi: «Odamlardan shundaylari borki, (hokimiyatni) boshqarganda, nafsi uni amaldan tushiradi, odamlardan shundayi borki, lavozimdan bo'shaganda, fazilati uni yana o'rniga o'tkazadi», «Kimki odamlar qalblarini ovlayman desa, ularga ehson va muruvvat donlarini sepishi, fazl va oliyanoblik tuzoqlarini qo'yishi kerak».

Al-Xorazmiy she'rlari, asosan, qasida, g'azal, vaf va hajviyotdan iborat. Agar uning qasidaları amir va vazirlarga bag'ishlangan bo'lsa, hajviy she'rlari esa, asosan, amaldorlarga hamda o'z raqibi shoir va adib, maqoma janrining asoschisi Abulfazl al-Hamadoniya (vafoti 1007-y.) qarshi qaratilgan. Ishqiy misralar, mahjubni tarannum etish ham al-Xorazmiy ijodida asosiy o'rinni egallaydi.

Uning she'rlariga xos narsa shuki, shoir tazmini (o'z she'riga boshqa she'rni kiritib ketish) juda ko'p qo'llagan.

O'sha vaqt shoirlarida keksalikdan shikoyat qilish juda keng tarqalgan edi. Al-Xorazmiyning ham qarilikdan nolib yozgan she'rlari ancha uchraydi. Masalan: «Soch oqidan shikoyat qilib, unga zulm qilayotganingni ko'rib turibman, soch oqi bir ekin (bo'lsa), uning urug'i umrdir. U go'yo sharob, xumor uni o'ziga jalb qiladi, axir xumori hajv qilinib, sharob maqtalardi-ku».

Al-Xorazmiy ijodida sharobni maqtab yozilgan she'rlar ham uchraydi, lekin shoir mayning kishi hayoti uchun zararli ekanini ham unutmagan:

«Kosa va cho'ntakning ikkalasini (barobar) to'ldirishga hukm qilmagan, kosani to'ldirish uchun cho'ntak bo'shatish kerak», deydi shoir.

Jamiyat uchun illat bo'lgan ishyoqmas, dangasa kishilar haqida yozar ekan, ulardan hazar qilishga da'vat etadi:

«Dangasaning hojatida unga hamroh bo'lma, qancha solih kishilar boshqaning fasodi bilan buzilib ketmadilar». Boshqa bir she'rida yozadi:

«Ulug' odam kichik odamning suhbatini bilan kichik bo'lmaydi, balki kichik odam ulug' odam xizmatida ulug' bo'ladi». Yana bir she'rida:

«Ikki narsa kishida birlasha olmadi: dinorlarga muhabbat va do'stga muhabbat».

Boshqasida:

«Qachon zamonani koyisang, sabr qiluvchini koyigan bo'lasan, sen yig'laysan, koyilayotgan (zamona) esa kuladi» va b.

Abu Bakr Muhammad ibn al-Abbos al-Xorazmiyning boy ijodiy merosi barcha Sharq va G'arb olimlari tomonidan qizg'in o'rganilgan va o'rganilmoqda.

As-Saolibiy «Yatimat ad-Dahr» asarida al-Xorazmiy haqida maxsus to'xtab, uni «Zamonasining eng donosi, odob dengizi, nasr va nazmning tug'i, fazl va idrok olamidir. Ajoyib va ibratli balog'atni (o'zida) mujassamlashtirgandi», deb ta'riflaydi.

As-Saolibiy al-Xorazmiyning o'z mulohazasining o'tkir, go'zal va ishonarli bo'lishi bilan har qanday yig'ilishda g'olib chiqishi, uning risolalar devoni jildlarga ajratilib keng tarqalgani, she'rlar devoni ham xuddi shundayligini alohida ta'kidlab o'tadi.

O'rta asr mualliflari Utbiyning «Tarixi al-Yamini», Ibn al-Asirning «Komil fi-tarix», Ibn Xallikonning «Vafayat al-a'yan» va Qahholning «Mu'jam al-mu'allifin» kabi asarlarida Abu Bakr al-Xorazmiy asarlariga yuqori baho berilib, u haqida qimmatli ma'lumotlar keltirilgandir.

Shuningdek, al-Xorazmiyning hayoti va ijodi haqida Ovro'po olimlari V. Alvardt, K. Brokelman, X. Gibb va boshqalar o'z ishlarida eslab o'tishgan.

Abu Rayhon Beruniy o'z ijodida al-Xorazmiyning boy ijodiy merosidan keng foydalangan.

Al-Xorazmiy Markaziy Osiyoda X asr adabiy hayotidagi arab tilida ijod etgan mashhur adib hamda so'nggi badiiy jarayonga katta ta'sir ko'rsatgan ijodkor sifatida tilga olinadi.

ABU ABDULLOH AL-XORAZMIY

(Vafoti 997)

Milodning IX–XI asrlari Markaziy Osiyoda ilm-fan yuksak taraqqiy etgan va buyuk allomalar davri edi. O'sha davrning keng bilimli, peshqadam olimlaridan biri Abu Abdulloh al-Xorazmiy bo'lgan.

Bu olim haqida saqlanib qolgan ma'lumotlar juda kam. Olimning to'liq ismi Abu Abdulloh Muhammad ibn Ahmad ibn Yusuf al-Xorazmiydir. Uning yoshligi Xorazmning Xiva, Zamaxshar va Kot shaharlarida o'tgan. Bu shaharlarda u voyaga yetgan, yashagan, ta'lim olgan. Olim Xurosonda ham yashagan. Uning mashhurligi vazir Abul Hasan

al-Utbiy huzurida kotib bo'lib xizmat qilgan davrida cho'qqisiga chiqqan. Shu vazifasi tufayli u «al-kitob al-Xorazmiy» nomi bilan ham tanilgan. O'z xizmat vazifalari yuzasidan Buxoroga tez-tez borib turgan va ko'pgina allomalar bilan hamsuhbat bo'lgan. Ayni vaqtda ilmga chanqoq olim xizmat asnosida amirning boy kutubxonasidan foydalanish huquqini qo'lga kiritgan. Abu Abdulloh al-Xorazmiy 997-yilda vafot etgan.

Olimning dunyoqarashi o'sha davrda keng tarqalgan qadimgi yunon falsafasi va madaniyati, Sharq namoyandalari Yoqub ibn Is'hoq al-Kindiy, Abu Nasr al-Forobiy hamda Abu Bakr ar-Roziy ta'siri ostida shakllandi.

Abu Abdulloh al-Xorazmiyning bizgacha yetib kelgan, ko'pchilik asarlari singari o'sha davrning ilm tili — arab tilida bitilgan, yagona ma'lum asari — «Mafotih al-ulum» («Ilmlar kalitlari»)dir. «Mafotih al-ulum»ning qo'lyozma nusxalari juda ko'p emas. Yaqin-yaqingacha uning to'rt nusxasi bor deb hisoblanib kelinar edi. Ana shu to'rt nusxadan uchta Buyuk Britaniya muzeyida 7528, 23429 va 2524 raqamlari hamda Berlin kutubxonasida 1051 raqami ostida saqlanadi. Amriqolik olim K. Bosvort XX asrning 60-yillarida ushbu asarning yana olti nusxasini Turkiya kutubxonalarida borligini aniqladi. Barcha olti nusxa Istanbul shahridagi kutubxonalardadir.

Abu Abdulloh al-Xorazmiyning bu asari o'rta asrlardagi fanlar rivojlanishi tarixiga oid kamyob manba sifatida ko'pgina olimlarning diqqat-e'tiborini o'ziga jalb etdi. Birinchi bo'lib bu manbani o'rgangan va 1895-yilda nashr qilgan olim — gollandiyalik sharqshunos Van Flo-tendir. Shuningdek, I.Y.Krachkovskiy, V.V.Bartold, K. Brokelman, E. Videman, G. Sarton, M.M.Xayrullayev, U.I.Karimov, G.P.Mat-viyevskaya, H. Hasanov, A. Sharipovlar ham asarning turli tomonlarini tadqiq qilganlar.

«Mafotih al-ulum» o'ziga xos qomusiy asar bo'lib, o'sha davrdagi de-yarli hamma asosiy fan sohalarini o'z ichiga qamrab olgan. Muallif o'rta asrlardagi har bir ilm mazmunini sharhlash yo'li orqali tushuntirib beradi.

Olim ilmlarni ikkiga bo'lib, ularga «arab — shar'iy» va «arab bo'l-magan»larga ajratadi. Bu hol olim o'z davrining namoyandalari singari ilmlar tasnifida ularni ikki qismga bo'lish an'anasiga sodiq qolganligini ko'rsatadi.

Uning birinchi an'anaviy «arab» ilmlari qismi o'n bir bobdan iborat fiqh, yetti bobdan iborat kalom, o'n ikki bobdan iborat grammatika (sarf va nahv), sakkiz bobdan iborat ish yurgizish, besh bobdan iborat she'r va aruz hamda to'qqiz bobdan iborat tarixdan tashkil topganidir. Ikkinchi qismiga esa «arab bo'lmagan» quyidagi ilmlar kiritilgan: ular — uch bobdan iborat falsafa, to'qqiz bobdan iborat mantiq, sakkiz bobdan iborat tib, besh bobdan iborat arifmetika, to'rt bobdan iborat handasa, shuningdek, to'rt bobdan iborat ilm an-nujum, uch bobdan iborat musiqa, ikki bobdan iborat mexanika va uch bobdan iborat kimyodir.

Shunday qilib, asar ikki qismdan iborat bo'lib, unda o'n besh ilm to'qson uch bobda bayon etilgan.

Abu Abdulloh al-Xorazmiy ilmlar tasnifining shakli quyidagicha:

I. *Shariat va u bilan bog'liq «arab» ilmlari:*

1. Fiqh, ya'ni musulmon huquqshunosligi.
2. Kalom, ya'ni din asoslari.
3. Grammatika.
4. Ish yurgizish.
5. She'riyat va aruz.
6. Tarix.

II. *«Arab bo'lmagan» ilmlar (yunon va boshqa xalqlar):*

1. Nazariy falsafa:

a) tabiiy ilmlar — tibbiyot (tib, samoviy hodisalar — meteorologiya, mineralogiya, alkimiyo, mexanika) — quyi;

b) riyoziyot ilmlari (arifmetika, handasa, ilm an-nujum, musiqa) — o'rtanchi;

d) ilohiy, ya'ni metafizika — oliy ilm;

e) mantiq.

2. Amaliy falsafa:

a) axloq — etika (odamni boshqarish);

b) uyshunoslik (uyni boshqarish);

d) siyosat (shaharni, mamlakatni boshqarish).

«Mafotih al-ulum»da ilmlar tasnifi har bir fanning predmetini aniqlash hamda ularning asosiy atamalarini qisqa va aniq bayon etish bilan birgalikda olib boriladi. Bu yerda, biz zikr etganimizdek, Abu Abdulloh

al-Xorazmiy o'z tasnifida o'sha davr an'anasi, ya'ni ilmlarni ikkiga bo'lishni qo'llab-quvvatlab, shar'iy va falsafiy ilmlarga ajratadi.

An'anaviy «arab» ilmlari. Shu ilmlardan biri, fiqhda muallif islom qonunshunosligining asosi bo'lgan va islom huquqi posbonining doimiy dasturi Qur'on, payg'ambar so'zlari, hikmatli gaplari va hayotlarini aks ettiruvchi Sunnat, Hadis va uning xillari; ijmo' — islom jamoasining yakdillik bilan tan olgan qarori; shariat qonun-qoidalariga amal qilishni, ya'ni tahorat qilish, namoz o'qish, azon aytish, ro'za tutish, zakot to'lash ustida to'xtab o'tadi.

Ikkinchi bo'lim kalamda o'sha davrda Yaqin va O'rta Sharqda mavjud bo'lgan ko'pgina mazhablar haqida ma'lumotlar berilgan. Xususan bu mazhablarning yettiga bo'lib bayon etilishi, ayniqsa, mu'taziliylar haqidagi mukammal tafsilotlar muhim ahamiyatga egadir. Shu bilan birga grek-xristian mazhablari, islomgacha bo'lgan davrdagi Eron va Yamandagi diniy e'tiqodlar, Hindistonda tarqalgan ba'zi dualistik mazhablar va oqimlar hamda zardushtiylik bayon etiladi. Bu ma'lumotlar Yaqin va O'rta Sharq hamda Markaziy Osiyodagi xalqlarning dinlari tarixini o'rganishda g'oyat katta ahamiyatga egadir.


Arab adabiy tili grammatikasi, uning qonun-qoidalari grammatika bo'limida bayon etilgan. Ayni paytda muallif arab she'riyati va uning tarkibiy qismlaridan bo'lgan aruz ustida ham mufassal to'xtalib o'tgan.

Ish yurgizish bo'limi davlat devoni, soliq turlari va olinishi, soliq yig'uvchilarning vazifalari, askarlar ro'yxati, ularning kiyim-kechagi va to'lanadigan maoshlari, irrigatsiya shaxobchalarida foydalaniladigan atamalar, kanal xillari, suv uskunalari, ikki daryo — Sirdaryo va Amudaryo oralig'idagi sug'orish tizimlari haqidagi ma'lumotlarni yoritib berishi bilan muhimdir.

Asarning tarix bo'limida afsonaviy podshohlardan boshlab, tartib bilan turli davr va mamlakatlar maliklari, Umaviylar va Abbosiylar xalifaligi, islomgacha bo'lgan davrdagi Yaman tarixi, Rum va Yunon tarixi haqida mufassal ma'lumotlar keltirilgan. O'rta asrlarda odamlar jamoasini tabaqalarga bo'linishi ham shu bo'limda zikr etiladi.

An'anaviy bo'lmagan — «arab bo'lmagan» ilmlar. Bu ilmlar qatorida birinchi bo'lib falsafa qayd etilib, unda ushbu ilm atamalarining sharhi bilan bir qatorda ilmlar tasnifi masalasi yoritilgan.

Arastuning mantiqqa oid kitoblari sharhi Xorazmiy asarining mantiq bo'limida o'z aksini topadi. Unda muallif Yaqin va O'rta Sharq hamda



Markaziy Osiyodagi ushbu ilm haqidagi ma'lumotlar, oldinga surilgan ajoyib g'oyalardan foydalanib, ularni yanada boyitdi.

Asarning tabiiy ilmlarga oid bo'limlari O'rta asr Sharqida ilmiy yuk-salish darajasini o'rganish nuqtayi nazaridan nihoyatda ma'lumotlarga boydir. Tibga oid bo'limda kasalliklar, sodda va murakkab dorilar ha-qidagi ma'lumotlar keltirilgan. Ushbu bo'limda o'sha davr tabobatida ma'lum bo'lgan va keng tarqalgan mijoz hamda qon tomiri urushiga qa-rab kasallikni aniqlash to'g'risidagi nodir tavsiflar berilgan.

Kimyo bo'limida ham Xorazmiy o'rta asr Sharqidagi kimyoviy bi-limlar haqida nihoyatda qimmatli ma'lumotlarni keltiradiki, ular Sharqda tabiiy fanlar rivojini o'rganishda muhim ahamiyatga egadir.

Riyoziyot bo'limida o'rta asr Sharqidagi matematik ilmlar holati ba-yon etiladi. Al-Xorazmiy matematik tushunchani aqlning ixtiyoriy ijodi emas, balki obyektiv olamning ma'lum tomonlari, predmetlar munosabat-larining in'ikosi deb talqin etadi.

Masalan, muallif Forobiy g'oyalarini davom ettirib, arifmetikani ikki-ga: nazariy va amaliyga ajratadi. U kub sonlar bilan bir qatorda shakliy sonlarni ko'rib chiqish bilan nazariy arifmetikaning ba'zi bir tomonlarini boyitdi. Handasa ham nazariy va amaliy qismlarga bo'linadi, bu esa o'sha davrda uning boshqa riyoziyot ilmlari kabi yuqori darajada rivoj-langanligidan dalolat beradi. Astronomiya bo'limida uning vazifasi bilan birga tarixiga oid masalalar ham ko'rib o'tiladi.

Xorazmiy o'z tasnifida musiqani riyoziyot ilmlariga qo'shadi va unda musiqaviy asboblardan, tovushlarning o'zaro mutanosibligi, tartibi, sozi(lad) tavsiflanadi va oxirida ritm haqidagi ta'limot ko'rib chiqiladi.

Mexanika bo'limida, og'ir yuklarni va dalalarni sug'orish maqsadida ishlatiladigan qurilmalar, ya'ni sodda mashinalar, ularning tuzilishi va vazifalari ustida to'xtab o'tiladi. Xorazmiy dunyoviy ilmlar ustida to'xtal-ganda, ularning amaliy ahamiyatini ochib berishga harakat qiladi.

Umuman, asarda Abu Abdulloh al-Xorazmiy o'z davri tabiiy va ri-yoziyot ilmlarini yaxshi bilganligi, ularni nazariy falsafaga kiritish bilan, bir tomondan, ularning ahamiyatini oshirish va ta'kidlash, ikkinchi tomon-dan, falsafani boyitishga intilganligi o'z ifodasini topgan. Al-Xorazmiyning «Mafotih al-ulum» asari o'rta asr madaniyati va ma'naviyatini o'rganish-da muhim ahamiyatga egadir.



ABU ALI IBN SINO (980–1037)

Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatini oʻrta asr sharoitida dunyo madaniyatining oldingi qatoriga olib chiqqan buyuk mutafakkirlardan biri — Abu Ali ibn Sino boʻlib, u Ovroʻpoda Avitsenna nomi bilan mashhurdir.

Ibn Sino (asl ismi Husayn, otasining ismi Abdulloh) Buxoroning Afshona qishlogʻida, hijriy 370 (980)-yilning safar oyida, amaldor oilasida tugʻildi. 986-yilda Ibn Sino oilasi Buxoroga koʻchib keladi va shu vaqtdan boshlab yosh Husayn boshlangʻich maʼlumot olishga, ilm-fanni oʻrganishga kirishadi. Uning yoshligi, yigitlik chogʻlari Somoniylar hukmronligining soʻnggi yillariga, xususan, Nuh II ibn Mansur Somoniy hukmronligi davri (976–997)ga toʻgʻri keladi.

Ibn Sino isteʼdodli, xotirasi kuchli, zehni oʻtkir boʻlganligidan oʻz davrida maʼlum boʻlgan ilmlarni tez egallay boshladi. 10 yoshidayoq Qurʼoni karimni boshdan-oyoq yod oʻqir edi. 13 yoshlaridan boshlangʻich matematika, mantiq, fiqh, falsafa ilmlari bilan shugʻullana boshlaydi. Ibn Sino yosh boʻlishiga qaramay, Abu Abdulloh Notiliy rahbarligida falsafani, Hasan ibn Nuh al-Qumriydan tibbiyot ilmini har tomonlama oʻrganadi, asta-sekin tabiblik bilan ham shugʻullanadi. U oʻzidan avval oʻtgan Sharq mutafakkirlarining asarlarini chuqur oʻrganish bilan birga, qadimgi yunon tabiiy-ilmiy, falsafiy merosini, xususan Aristotel, Yevklid, Ptolemey, Galen, Gippokrat, Pifagor, Porfiriylarning asarlarini ham qunt bilan oʻrgandi. 16–17 yoshidayoq Ibn Sino mashhur tabib — hakim boʻlib tanildi. 999-yilda Buxoro Qoraxoniylar tomonidan zabt etilgach, Somoniylar hokimiyati inqirozga uchradi. 1000-yilda Ibn Sino Buxorodan chiqib ketdi va madaniyat markazlaridan biri hisoblangan Xorazmga bordi, u yerda Xorazm hokimi Ali ibn Maʼmun saroyidagi olimlarni birlashtirgan oʻz zamonasining akademiyasiga qabul qilindi. Ibn Sino Beruniy, ibn Miskavayh, Abu Sahl Masihiy, Abulxayr Hammor, Abu Nasr ibn Iroq kabi yetuk olimlar bilan yaqindan tanishdi. Lekin bu davrda kuchayib borayotgan Mahmud Gʻaznaviyning taʼqibidan qochib, Xorazmni tashlab ketishga va Xuroson, Eronning turli shaharlarida sarsion-sargardonlikda yurishga majbur boʻldi. Abivard, Tus, Nishopur shaharlari orqali Jurjon shahriga kelgan Ibn Sino hokim Qobus ibn

Vashmgir saroyida mashhur tabib sifatida yashadi, bo'lajak shogirdi Juzjoniyl bilan tanishdi. 1019–21-yillarda Hamadonda vazir lavozimida xizmat qilarkan, hokim bilan kelisha olmay, 4 oy qamoqda yotib chiqdi. 1023-yilda Isfahonga qochdi va butun umrini ilmiy asarlar yozishga bag'ishladi. Ibn Sinoning «Kitob al-qonun fit-tibb», «Kitob un-najot», «Kitob ul-insof» kabi mashhur asarlari, geometriya, astronomiya, o'simlik, hayvonot olami, mantiqqa oid risolalari, «Hayy ibn Yaqzon» falsafiy qissasi so'nggi yillarda yozilgan. U Isfahonda rasadxona qurish bilan mashg'ul bo'ldi. Umrining so'nggi yillarida zodagonlar o'rtasidagi urushlar kuchayib ketganligi, ijtimoiy-siyosiy hayotda o'zi ham faol qatnashganligi tufayli u Isfahon, Ray, Hamadon shaharlari orasida sarson-sargardonlikda yurib, 1037-yil 18-iyunda Isfahon shahrida 57 yoshida qulunj kasalligidan vafot etdi.

Ibn Sinoning hayot yo'li o'zi yozgan tarjimai holi va shogirdi Juzjoniyl tomonidan qoldirilgan manbalardan ma'lum. Ibn Sinoning ilmiy qiziqishlari, dunyoqarashining shakllanishida qadimgi Sharq madaniyati, yunon ilmi, falsafasi, Markaziy Osiyo xalqlarining mustaqillik uchun olib borgan kurashlari muhim rol o'ynadi. Ibn Sino tarjimai holida Forobiyning «Metafizika maqsadlari», «Fusus ul-hikam» kabi muhim risolalarini qunt bilan o'rganganligi, ulardan keng foydalanganligini ta'kidlab o'tadi.

Ibn Sino asarlarining umumiy soni 450 dan oshadi, lekin bizgacha faqat 160 ga yaqin asari yetib kelgan, xolos. Ko'p risolalari shaharshahar ko'chib yurish, o'zaro urushlar, saroy to'polonlari, turli falokatlar tufayli yo'qolib ketgan. Ko'p manbalarda Ibn Sino avvalo tabib sifatida talqin etiladi, holbuki tabobat uning ilmiy sohaları orasida eng muhimlaridan biridir. Ibn Sino asarlarining asosiy qismi Yaqin va O'rta Sharqning o'sha davr ilmiy tili hisoblangan arab tilida, ba'zilari fors tilida yozilgan. Uning bizga ma'lum bo'lgan katta asari «Kitob ush-shifo» («Shifo kitobi») 22 jilddan iborat bo'lib, 4 ta katta bo'limini mantiq, fizika, matematika, metafizikaga doir masalalar egallagan. Uning ayrim qismlari lotin tiliga, Ovro'podagi boshqa tillarga, sharq tillariga, shuningdek, rus, o'zbek tillariga tarjima qilingan. 20 jilddan iborat bo'lgan «Kitob ul-insof» («Insof kitobi») bizgacha yetib kelmagan, chunki Isfahondagi yong'inda yo'qolgan. «Kitob un-najot» («Najot kitobi») 4 katta qismdan — mantiq, fizika, matematika, metafizikadan iborat, «Kitob li-

son ul-arab» («Arab tili kitobi») 10 jildni tashil etadi. «Donishnoma» fors tilida yozilgan bo'lib, 4 qismni — mantiq, fizika, matematika, metafizikani o'z ichiga oladi (rus tiliga tarjima etilgan, bir qismi o'zbek tilida bosilgan).

Ibn Sino asarlari o'rta asrlarda Ovro'poda ilmiy til hisoblangan lotin tiliga, u orqali Ovro'poning boshqa tillariga tarjima etilgan. Ibn Sino ilmiy risolalardan tashqari, chuqur falsafiy mazmunli badiiy obrazlar va ma'lum voqealar orqali ifoda etuvchi «Tayr qissasi», «Solomon va Ibsol», «Hayy ibn Yaqzon» kabi falsafiy qissalar yaratgan.

Ibn Sino zamonasining yetuk shoiri ham bo'lgan. U Sharq, xususan, fors she'riyatida ruboiy janrining asoschilaridan biri. Uning ruboiylari o'zida chuqur falsafiy xulosalarni ifodalaydi. Ibn Sino arabcha qit'alar ham yozgan. Ibn Sino tabobat masalalarini ommabop holda nazm bilan izohlovchi «Urjuza» nomli tibbiy asar yaratdi. Uning Aristotel (Arastu) ta'limoti xususida Abu Rayhon Beruniy bilan va o'zining shogirdi — ozarbayjonlik mutafakkir Baxmanyor bilan yozishmalari fan olamida mashhur. Ayniqsa, tabobat, u bilan bog'liq holda anatomiya, psixologiya, farmakologiya, terapiya, xirurgiya, diagnostika, gigiyena kabi ilmlar Ibn Sino ijodida bir qancha yangi ixtirolar bilan boyidi va yangi bosqichga ko'tarildi. Bulardan tashqari, kimyo, mineralogiya, astronomiya, matematika, o'simlik dunyosi, geologik jarayonlarni o'rganish sohasida ham u yangi yangi fikrlarni olg'a sura oldi. Ibn Sinoning tibbiyot sohasidagi asarlaridan «Kitob al-qonun fit-tibb» («Tib qonunlari»), «Kitob ul-qulanj» («Ichak sanchiqlari»), «Kitob un-nabz» («Tomir ko'rish haqida kitob»), «Fuj ul-tibbiya joria fi majlisih» («Tib haqida hikmatli so'zlar»), «Tadbir ul-manzil» («Turar joyning tuzilishi»), «Fil-hindubo» («Sachratqi o'simligi haqida»), «Risola fi-dastur it-tibbiy» («Tibbiy ko'rsatmalar haqida») kabi asarlari mavjud. Uning tibbiyotga oid qomusiy asari «Kitob al-qonun fit-tibb» 5 mustaqil katta asardan tarkib topgan: ularning har biri ma'lum sohani izchil, har tomonlama yoritib beradi.

Birinchi kitobda tibbiyotning nazariy asoslari, uning predmeti, vazifalari, bo'lim va metodlari, kasallikning kelib chiqish sabablari, belgilari, sog'liqni saqlash yo'llari, kishi anatomiyasi haqida mazmundor, aniqligi bilan kishini taajjubda qoldiruvchi qisqacha ocherk, sog'liqni qanday saqlash kerakligi haqidagi ta'limot (keyinchalik gigiyena deb nomlangan) bayon etiladi.



«Qonun»ning bu kitobini hozirgi zamon ichki kasalliklar propedev-tikasi darsligiga tenglashtirish mumkin.

«Qonun»ning oddiy dorilarga bag'ishlangan ikkinchi kitobida 800 ga yaqin dorining xususiyatlari, ularni tayyorlash va iste'mol qilish usullari bayon etilgan. Ibn Sino simob, uning birikmalarini dori qilib ishlatishni birinchi bo'lib tavsiya etadi, sharobni quvvatga kirituvchi, jarohatlarni to-zalovchi dori sifatida ishlatadi.

Uchinchi kitobda ayrim organlar (hatto soch, tirnoqlar)ning kasal-liklari, ularni davolash usullari bayon etiladi, uni maxsus patologiya darsligi deb atasa ham bo'ladi. Bu kitobda bosh miya, nerv, ko'z, qu-loq, burun, tomoq, qorin, tish, yurak, jigar, buyrak kasalliklari batafsil tahlil qilinadi.

«Qonun»ning to'rtinchi kitobi organizmning umumiy kasalliklariga bag'ishlangan. Unda isitmalar, o'smalar, ularning sababi, xirurgik kasal-liklar (suyak sinishi, chiqishi, jarohatlanish) va ularni davolash usullari, har xil dorilardan zaharlanish va bunda ko'riladigan choralar to'g'risida ma'lumot beriladi. Chechak, qizamiq, moxov, toun, vabo va boshqa yu-qumli kasalliklar tafsir etiladi.

«Qonun»ning beshinchi kitobida murakkab dorilarning organizmga ta'siri, ularni tayyorlash, iste'mol qilish usullari bayon qilingan. Bu kitob dorishunoslik ilmiga — farmakologiyaga bag'ishlangan.

Tibbiyotning asosiy vazifasi, uning ta'biricha, «inson sog'lig'ini saq-lash, agar kasallik paydo bo'lgan bo'lsa, bu kasallikni keltirib chiqargan sabablarni aniqlash va ularni yo'qotish orqali sog'liqni tiklashdan ibo-rat». Ibn Sino fikricha, tib ilmida nazariy bilimlar va amaliyot o'zaro bog'liq bo'lishi, bir-biriga asoslanmog'i zarur, aks holda u rivoj top-maydi, o'z maqsadiga erisha olmaydi. «Tib ilmi avvalo ikki qismga — nazariy va amaliy qismlarga bo'linadi... Nazariya deb ataluvchi qismi tabiblarning fikrlarini ifoda qilib, maxsus amaliya deb ataladigan qismi tadbir va amalning qanday bo'lishi kerakligini o'rgatadi. Tibning amaliy qismi ikkiga bo'linadi. Birinchi qismi sog'lom tanlarning tadbirini bilish: bu sog'liqni saqlashga taalluqli bo'lgani uchun sog'liqni saqlash ilmi deb ataladi. Ikkinchi qismi — kasal tanning tadbirini bilish bo'lib, sog'lom holatga qaytarish yo'llarini ko'rsatadi, bu davolash ilmi deb ataladi». Ibn Sino kasallikni o'rganishda obyektiv sharoitni har tomon-lama bilishga katta ahamiyat berdi, muhitdagi turli tabiiy narsalar, suv,



havo orqali kasallik tarqatuvchi ko'zga ko'rinmaydigan «mayda hayvonotlar» haqidagi fikrni olg'a surdi.

«Qonun» 800 yil davomida hakimlar uchun asosiy qo'llanma bo'lib keldi. O'rta asrlarda «Qonun» Sharqdagina emas, balki G'arb mam-lakatlarining universitetlarida ham talabalar uchun tibbiyotdan yagona qo'llanma edi.

Ibn Sinoning «Kitob ush-shifo» asarida turli tibbiyot ilmlariga: botanika, geologiya, mineralogiya, astronomiya, matematika, kimyoga oid ko'p ma'lumotlar keltiriladi. Uning tog'larning vujudga kelishi, yer yuzasining davrlar o'tishi bilan o'zgarib borishi, zilzilaning sabablari kabi turli jara-yonlar haqidagi fikrlari keyinchalik geologiya ilmining mustaqil ravishda rivoj topishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Ayrim joylarning bir vaqtlar dengiz bo'lganligi, shu sababli qattiq qatlamlarda turli dengiz hayvonlarining izlari saqlanib qolganligi haqida ham turli misollar asosida fikr yuritiladi; meteoritlar, vulkanlar haqida ma'lumotlar keltiriladi. Mineralogiya ilmining rivojida ham Ibn Sinoning xizmati katta. U minerallarni 4 guruhga aj-ratadi: 1) toshlar; 2) eriydigan jism (metall)lar; 3) olingugurtli yonuvchi jismlar; 4) tuzlar.

Kimyoda ham Ibn Sino zamonasining bilimlarini umumlashtirishga harakat qilib, turli asarlar yozdi, tajribalar o'tkazdi. Xususan, uning or-ganik kimyo sohasidagi fikrlari keyingi davr mutaxassisleri tomonidan yuqori baholandi. U oddiy metallni qimmatli metallga aylantirish ustida fikr yurituvchi alximiklarni tanqid qildi. Ibn Sino astronomiya sohasida Ptolemeyning geotsentrik nazariyasidan tashqariga chiqmagan bo'lsa-da, tabiiy hodisalarning ichki sababiy bog'lanishini aniqlashga harakat qildi, inson hayoti va ijtimoiy hodisalarni osmon jismlari harakati, holatiga bog'lovchi astrologiyaga shubha bilan qaradi, turli tajribalar o'tkazish uchun yangi astronomik asbob yaratish, botanikada turli o'simliklarning tabiiy xususiyatlarini o'rganish, ilmiy terminologiya yaratish sohasida ish olib bordi.

Ibn Sino dunyoqarashi Forobiy asarlari ta'sirida shakllandi, u ijti-moiy-falsafiy masalalarda Forobiy qarashlarini davom ettirdi, ilg'or falsafiy oqimni yangi tabiiy-ilmiy fikrlar bilan boyitib sistemalashtirdi va yangi bosqichga ko'tardi. Ibn Sino fikricha, falsafaning vazifasiga mavjudotni — barcha mavjud narsalarni, ularning kelib chiqishi, tartibi, o'zaro muno-sabati, biridan ikkinchisiga o'tishini har tomonlama tekshirish uchun za-



ruriyat, imkoniyat, voqelik, sababiyat prinsiplarini asos qilib oldi. Olam — barcha mavjud narsalar ikkiga bo‘linadi: zaruriy vujud (vujudi vojib) va imkoniy vujud (vujudi mumkin). Zaruriy vujud hech narsaga bog‘liq bo‘lmagan bir butunlikni tashkil etib, u eng irodali, qudratli, dono Tangridir. Qolgan hamma narsalar imkoniy tarzda mavjud bo‘lib, zaruriy vujud — Tangridan kelib chiqadi. Vujudi vojib va vujudi mumkin — sabab va oqibat munosabatidadir. Bu jarayon emanatsiya tarzida, ya‘ni quyoshdan chiqayotgan nur shaklida asta-sekin amalga oshadi. Shu tartibda imkoniyat shaklidagi mavjud bo‘lgan aql, jon (nafs) va jism, ular bilan bog‘liq holda osmon sferalari kelib chiqadi, mavjud narsalarga aylanadi. Bular hammasi substansiya (javhar)dir. Bundan tashqari borliqda aksidensiya (obraz) — narsalarning belgilari, rang, hajmi, hidi va boshqa hislari mavjud. Jism shakl va modda (hayulo)dan tashkil topadi. Xudo abadiy, uning oqibati bo‘lmish materiya ham abadiydir. Uning o‘zi boshqa konkret jismlarning asosidir. Narsalarning konkret ko‘rinishlari, shakllari o‘zgaradi, lekin ularning moddiy asosi yo‘qolmaydi. Materiya doim vujudga kelishi mumkin bo‘lgan narsalardan avval mavjud bo‘lib, bu narsalar ulami tashkil etuvchi materiyaga muhtojdir. Materiyaning eng soddaga, bo‘laklarga bo‘linmaydigan shakli to‘rt unsur: havo, olov, suv, tuproqdan iborat. Ularning turlicha o‘zaro birikuv natijasida murakkab moddiy narsalar tashkil topadi. Murakkab narsalar o‘zgarib, turli shakllarga ega bo‘lishi mumkin, lekin ularning moddiy asosi bo‘lgan to‘rt unsur yo‘qolmaydi, abadiy saqlanadi. Uning fikricha, avval tog‘- Toshlar, so‘ng o‘simlik, hayvonot va taraqqiyotning yakuni sifatida inson vujudga kelgan. Inson boshqa barcha hayvonot olamidani so‘zi, tili va aqli, tafakkur qilishi bilan farq qiladi.

Real hodisalarni chuqur bilish, fan bilan shug‘ullanish insongagina xosdir. Ibn Sino «Risolatun fi taqsim al-mavjudot» asarida butun borliqni tarkibiy qismlarga bo‘lib, birma-bir sanaydi va ularga ta‘rif berib o‘tadi. Vujudi vojib, vujudi mumkin, substansiya, aksidensiya, materiya, shakl, aql, unsur, jism, quvvat, sezish, mineral, hayvon, nutq, lison kabi kategoriyalar bu risolada qisqacha ta‘riflanadi.

Inson bilimlari narsalarni bilish yordamida vujudga keladi. Bilish hissiy bilish va tushunchalar yordamida fikrlashdan tashkil topadi. «Sezish, — deb yozgan u, — bu shunday ta‘sirki, u tashqi narsalarning o‘zi bo‘lmay, balki bizning hislarimizda vujudga keladi. His moddiy obraz-

ning oynasi bo'lib, moddiy shakllarning bo'yi, uni bilan birga ifodalanganligi sababli, ularni inson moddiy asossiz in'ikos eta olmaydi va jum-larni bilolmaydi».

Inson aqli turli fanlarni o'rganish yordamida boyiydi, rivoj topadi. Bunda, xususan, u mantiq ilmiga katta e'tibor beradi. Aql har qanday bilishning va amaliy faoliyatning mezoni sifatida talqin etiladi. «(Aql) tarozisida o'lchanmagan har qanday bilim, — deb yozadi Ibn Sino, — chin bo'lolmaydi, demak, u haqiqiy bilim emas». O'rta asrda Yaqin va O'rta Sharq, jumladan, Markaziy Osiyo falsafasida aql nazariyasi juda muhim o'rin egallaydi.

Ibn Sino ijodida fanning strukturasi tekshirish, ilmlarning tartibini aniqlash, ularni tasnif qilishga e'tibor alohida o'rin egallaydi. Bu masala-da ham olim Forobiy boshlab bergan fanlar tasnifi haqidagi masalani yanada taraqqiy ettirishga harakat qiladi. Ibn Sinoning falsafiy sistemasini ifodalovchi asarlarida («Kitob ush-shifo», «Kitob un-najot», «Donishno-ma») falsafiy bilimlar: mantiq, fizika, matematika, metafizika tartibida beriladi. Bulardan mantiq — bilishning metodi, mavjudotni o'rganish, u haqda fikr yuritishning ilmiy usuli sifatida talqin etiladi. «Mantiq, — deb yozadi Ibn Sino, — insonga shunday bir qoida beradiki, bu qoida yordamida inson xulosa chiqarishda xatolardan saqlanadi». Mantiq yor-damida inson haqiqiy bilimni yolg'ondan ajratadi va noma'lum narsalarni o'rganadi. U mantiq ilmini tadqiq etishga katta e'tibor beradi, unga maxsus risolalar bag'ishlaydi. Xususan, u mantiqiy usullar, ta'riflash, hukm, xulosa chiqarish, isbotlash masalalarini o'rganishga katta hissa qo'shdi, mantiq fanini Forobiydan so'ng bilishning to'g'ri metodi sifatida rivojlantirdi. Mantiqdan tashqari barcha qolgan ilmlarni Ibn Sino tabiat va ijtimoiy hodisalar haqidagi ilmlar sifatida o'zining «Aqsom ul-ulum ul-aqliya» («Aqliy bilimlar tasnifi») asarida alohida-alohida sanab, ta'rif berib o'tadi. Ibn Sino falsafiy ilmlarni avvalo ikkiga bo'ladi: nazariy va amaliy ilmlar.

Nazariy ilmlar haqiqatni bilishga, amaliy ilmlar yaxshi ishlarni ba-jarishga qaratilgan. Falsafaning nazariy qismi uchga bo'linadi: 1) quyi darajadagi ilm, ya'ni tabiatshunoslik; 2) o'rta darajadagi ilm — mate-matika; 3) oliy darajadagi ilm — metafizika. Falsafaning amaliy qismi ham uchga bo'linadi: a) shaxs haqidagi ilm; b) insonning o'zaro munosabat-lari haqidagi ilm; d) davlatni, mamlakatni boshqarish haqidagi ilm.

Nazariy-falsafiy ilmlarga kiruvchi har uch turdagi ilmlar asosiy va yordamchi bo'laklarga ajraladi; tabiatshunoslik ilmlari astrologiya, tibbiyot, alkimyo kabi yetti xil tarmoqni o'z ichiga oladi. Matematika esa arifmetika, geometriya, astronomiya, musiqa nomi bilan 4 tarmoqqa bo'linadi. Asarda 29 ilm tarmog'i tilga olinadi.

Ibn Sino o'z dunyoqarashida panteistik prinsipga asoslanadi: Tangri va borliq bir-biriga zid, bir-birini inkor etuvchi narsalar emas, aksincha, ular bir butun holda mavjudotni tashkil etadi. Abadiylik Tangriga xos. Tangri va tabiat ma'lum pog'onalar yordamida bog'lanadi. Uzun va yaxlit zanjirning bir tomonida yaratuvchi Tangri — zaruriy vujud, ikkinchi chekkasida tabiat yotadi.

Ibn Sino haqiqiy axloqiy fazilatlariga va ideal jamoaga shu mavjud dunyoda erishuv mumkin, jamiyatda insonlar o'zaro yordam asosida yashashlari kerak deb ta'kidlaydi. Jamiyat kishilarning o'zaro kelishuvi asosida qabul qilinadigan adolatli qonunlar yordamida boshqarilishi lozimligini ta'kidlaydi. Jamiyat a'zolarining hammasi bu qonunga itoat etishlari, qonunni buzish va adolatsizlik jazolanishi, basharti podshoning o'zi adolatsizlikka yo'l qo'ysa, xalqning unga qarshi qo'zg'oloni to'g'ri va jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlanmog'i lozim.

Ibn Sino o'zining ko'p tarmoqli mahsuldor ijodi, boy merosi bilan jahon madaniyati taraqqiyotida katta rol o'ynadi. O'z ijodi, ilmiy faoliyatida Ibn Sino Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari-dagi yuqori madaniy ko'tarinkilik, madaniy «uyg'onish»ning ma'naviy yutuqlarini mujassamlashtira oldi, bu bilan butun Sharq va Ovro'podagi ma'rifat, madaniyat taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi. U o'z davrida Sharq va Ovro'poda «Shayx ur-ra'is», «Olimlar boshlig'i», «Tabiblar podshohi» kabi eng buyuk nomlarga sazovor bo'ldi. Ibn Sino mashhur murabbiy sifatida Abu Ubayd Jurjoniy, Umar Isfahoniy, Muhammad Sheroziy, Ahmad Ma'suriy, mashhur ozarbayjon mutafakkiri Baxmanyor ibn Marzbon, Yusuf Iyloqiy, ajoyib olim va shoir Umar Hayyom kabi shogirdlarini tarbiyaladi. Uyg'onish davri miniatura va suratlarida Ibn Sino mashhur qadimgi yunon olimlari Aristotel, Galen, Gippokrat, Ptolemy, Yevklid bilan bir qatorda tasvirlangan. O'simliklarning birinchi ilmiy tasnifini yaratgan tabiatshunos Karl Linney doimo yashil bo'lib turuvchi bir o'simlikni Ibn Sino sharafiga «Avitseniya» deb atagan.

Ibn Sino asarlari Ovro'poda XII asrdan boshlab lotin tiliga tarjima qilina boshladi. «Tib qonunlari» asarining o'zi lotinchada 30 martadan ortiq nashr qilindi. «Kitob ush-shifo»ning ko'p bo'limlari, mantiq, musiqa, Yerning tuzilishi, geologik jarayonlar, metafizikaga oid qismlari ham lotinchada nashr etildi. So'nggi ilmiy tadqiqotlar Ibn Sinoning Sharq adabiyotiga ham ta'sir ko'rsatganligini, chuqur falsafiy mazmuni ifodalovchi ruboiy va falsafiy qissalar janrining taraqqiyotiga turtki berganligini ko'rsatadi. Ibn Sino xalq orasida shu darajada hurmatga sazovor bo'ldiki, u folklor qahramoniga aylanib ketdi. Sharq xalqlarida uning to'g'risida turli hikoya, rivoyat-u afsonalar vujudga keldi. Jahon olimlari Ibn Sino asarlari, uning faoliyati to'g'risida ko'pdan beri ilmiy tadqiqot ishlarini olib boradilar. Hozirda jahondagi deyarli barcha tillarda Ibn Sino haqida asarlar yaratilgan.

ABU RAYHON BERUNIY

(973–1048)

O'rta asrning buyuk qomusiy olimi Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy zamonasining qator fanlari: astronomiya, fizika, matematika, geodeziya, geologiya, mineralogiya, tarix kabilarni chuqur o'rgandi. U Xorazmning qadimgi poytaxti Kot shahrida tug'ildi va yoshligidanoq ilm-fanga qiziqishi orta bordi. Beruniy keyinchalik mashhur olim Abu Nasr Mansur ibn Iroq qo'lida ta'lim oldi. Ibn Iroq astronomiya, geometriya, matematikaga oid bir qancha asarlar yozib, shulardan 12 tasini Beruniyga bag'ishlaydi. Beruniy ona tilidan tashqari yana bir qancha tillarni: arab, so'g'diy, fors, suryoniy, yunon va qadimgi yahudiy tillarini, keyinchalik Hindistonda sanskrit tilini o'rganadi.

O'z ilmiy asarlaridan birida yozishicha, u Xorazmda yashagan davrida, 990-yillardan boshlab Kot shahrida muhim astronomik kuzatishlar o'tkazgan. Bu kuzatishlar uchun o'zi astronomik asboblarni ixtiro etgan. Xorazm zodagonlari orasida taxt uchun boshlangan kurashlar olimning bu ilmiy ishlarini davom ettirishga imkon bermaganligi bois, 22 yoshida vatanini tashlab chiqib ketishga majbur bo'ldi va bir qancha vaqt Kaspiy dengizining janubi-sharqiy sohilidagi Jurjon shahrida muhojirlikda yashadi. So'ng qadimgi Ray shahriga bordi, 998-yildan keyin yana Jur-

jonga keldi va bu yerda o'zining ikkinchi ustози tabib, astronom, faylasuf Abu Sahl Iso al-Masihiy bilan tanishib, undan ta'lim oldi. Beruniy «Osor al-boqiya an al-qurun al-xoliya» («Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar») asarini Jurjonda muhojirlik davrida yoza boshlagan va 1000-yilda tamomlagan. «Osor al-boqiya» Beruniyga juda katta shuhrat keltirdi, uni fanning hamma sohasiga qiziquvchi buyuk olim ekanini ko'rsatdi. Bundan tashqari Beruniy Jurjonda astronomiya, metrologiya tarixiga oid 10 dan ortiq asar yozdi. Beruniy Xorazmning yangi hukmdori Abu Abbas Ma'mun II ibn Ma'mun tomonidan mamlakatning yangi poytaxti Urganchga chaqirtirildi. Xorazmshoh tomonidan juda katta izzat-ikrom bilan qabul qilindi. Beruniy Urganchda Ma'munning bevosita rahnamoligida vujudga kelgan ilmiy markazda faoliyat ko'rsatdi.

Beruniy shoh Ma'mun II ning eng yaqin maslahatchisi sifatida mamlakatning siyosiy ishlarida ham faol qatnashadi.

Xorazmning Mahmud G'aznaviy tomonidan bosib olinishi Beruniy hayotini xavf ostiga qo'yadi. U Xorazmshoh saroyidagi barcha olimlar bilan birga G'azna shahriga asir qilib olib ketiladi. Beruniyning 1017–1048-yillarda G'aznada kechirgan hayoti, bir tomondan nihoyat og'ir kechgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, uning ilmiy faoliyati uchun eng mahsuldor davr bo'ldi. Beruniyning «Xorazmning mashhur kishilari» asari ham shu davrda yaratilgan. Uning muhim astronomik-geografik asari «Tahdid nihoyot al-amoniya li tashidi masofat al-masokin» («Turarjoylar orasidagi masofani tekshirish uchun joylarning oxirgi chegaralarini aniqlash» — «Geodeziya») 1025-yilda yozib tugatilgan. Beruniyning «Munajjimlik san'atidan boshlang'ich tushunchalar» asari ham 1029-yil G'aznada yozilgan. Asarning forscha, arabcha nusxalari bizgacha yetib kelgan. Unda o'sha zamon astronomiyasi bilan bog'liq bo'lgan bir qancha fanlar haqida muhim ma'lumotlar berilgan. Beruniyning «Hindiston» asari «Tahqiq mo li-l-Hind min ma'quda maqbula fi-l-aql av marzula» («Hindlarning aqlga sig'adigan va sig'maydigan ta'limotlarini aniqlash kitobi») 1030-yilda yozilgan bo'lib, bu shoh asar G'arb va Sharq olimlari, shu jumladan, hozirgi zamon hind olimlari tomonidan yuksak baholangan. Akademik V.R.Rozen «Sharq va G'arbning qadimgi va o'rta asrdagi butun ilmiy adabiyoti orasida bunga teng keladigan asar yo'q», deb baho bergan. Mahmud G'aznaviyning Hindistonga qilgan yurishlaridan birida shohga hamroh bo'lgan Beruniy, u yerda sanskrit tilini



puxta o'rganishi hind madaniyati, adabiyoti va Hindistonning o'sha davr olimlari bilan yaqindan tanishishga hamda bu mamlakat haqida o'lmas asar yaratishga imkon berdi. «Hindiston» asari yozib tugatilgan yili Mahmud G'aznaviy vafot etdi va uning o'rniga taxtga o'g'li Mas'ud o'tirdi. Bu davrda Beruniyning ahvoli ancha yaxshilandi. Astronomiyaga oid «Mas'ud qonuni» asarini sulton Mas'udga bag'ishladi. O'sha asr olimlaridan biri Yoqutning yozishicha: «Mas'ud qonuni» kitobi matematika va astronomiya bo'yicha ungacha yozilgan hamma kitoblar izini o'chirib yuborgan».

Beruniy o'z asarlari ro'yxatini tuzgandan keyin yana ikkita muhim kitobini yozgan. Bulardan biri «Mineralogiya»dir. Bu risola o'z zamonasi uchun Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq, hatto Ovro'poda ham mineralogiya sohasida eng yaxshi, tengi yo'q asar hisoblanadi. Beruniyning oxirgi asari — «Dorivor o'simliklar haqida kitob»ining qo'lyozmasi XX asrning 30-yillarida Turkiyada topildi. Asar «Saydana» nomi bilan mashhur, unda Beruniy Sharq, ayniqsa, Markaziy Osiyoda o'sadigan dorivor o'simliklarning to'la tavsifini beradi. Beruniy shogirdi Abu-l Fadl as-Saraxsiy ma'lumoti bo'yicha 1048-yil 11-dekabrda vafot etgan.

Beruniy so'nggi avlodlarga katta ilmiy meros qoldirdi. Beruniyning o'z davri ilm-fanining turli sohalariga oid 160 dan ortiq tarjimalari, turli hajmdagi asarlari, yozishmalari qolganligi bizga ma'lum. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan katta hajmdagi asarlaridan tashqari astronomiya, astrologiya, matematika, geodeziya, geologiya, mineralogiya, geografiya, arifmetika, tibbiyot, farmakognoziya, tarix, filologiya masalalariga oid qator risolalar yaratdi va sanskrit tilidan arabchaga, arab tilidan sanskrit tiliga tarjimalar qildi, badiiy ijod bilan ham shug'ullanib she'rlar yozdi. «Astrologiyaga kirish», «Astronomiya kaliti», «Jonni davolovchi quyosh kitobi», «Ikki xil harakatning zarurligi haqida», «Ko'paytirish asoslari», «Ptolemey «Almagest»ining sanskritchaga tarjimasi», «Foydali savollar va to'g'ri javoblar», «Farg'oniy «Elementlar»iga tuzatishlar», «Turklar tomonidan ehtiyotkorlik», «Oq kiyimlilar» va karmatlar haqida ma'lumotlar», «She'rlar to'plami», «Al-Muqanna haqidagi ma'lumotlar tarjimasi», «Ibn Sino bilan yozishmalar» shular jumlasidandir.

Beruniy qadimgi yunon ilmi va uning vakillari Aristotel, Platon, Ptolemey, Yevklid kabilarning asarlari, hind olimlari, musulmon olimlari al-Xorazmiy, Farg'oniy, Battoniy, Roziy, Abu Tammam, Ibn Kaysum, Abu

Ma'shar asarlari bilan yaqindan tanish bo'lgan, ularga sharhlar, izohlar, tuzatishlar, radddiyalar yozgan. Uning ilmiy merosi g'oyat rang-barang bo'lib, tibbiyot va astronomiya faniga xizmati juda kattadir. Beruniy o'z ilmiy asarlarida dunyoning tuzilishi masalasida Ptolemey sistemasiga suyansa ham, Yerning harakati haqida Beruniy: «Yerning harakatsizligi (masalasi) astronomiya fanining asosiy masalalaridan biri bo'lib, bu haqda yuz beradigan shubhalarni yechish qiyin», deb yozadi. Osmon jismlarini geometrik tushuntirish asosida Beruniy Kopernikdan bir necha asr avval Yerni koinotning markazi deb biluvchi geotsentrik va Quyoshni koinot markazi deb o'rgatuvchi geliotsentrik tizim teng kuchga ega, degan xulosaga keladi. «Geodeziya» asarida Beruniy geotsentrizm bilan bog'liq bo'lgan ba'zi bir nazariyalarning to'g'riligiga shubha bilan qaraganini ochiqdan ochiq bayon etadi. Beruniy harakat trayektoriyasi va osmon yoritqichlari shaklining ellipsoid ekanligi haqida birinchi bo'lib fikr yuritgan olimlardan bo'lib, joylarning geografik uzoqligini, kengligini aniqlash yo'llarini tanlab olishda novator hisoblanadi. U trigonometriyani, geometriyani keng qo'llash orqali o'zidan oldingi astronomlarga nisbatan ancha aniq natijalarga erishdi. Turli joylarning geografik kengligi va uzoqligini aniqlashda Beruniy erishgan natijalar hatto hozirgi zamon olimlarini ham hayratda qoldiradi. Buyuk olim Yer yuzasining har bir qismi o'zining uzoq tarixiy taraqqiyotiga ega ekanligini qayd etadi. Markaziy Osiyoning ba'zi bir mintaqalari, shu jumladan, Amudaryo vodiysining geologik rivojlanishini birinchi marta jiddiy o'rganishga harakat qilgan ham Beruniydir. Uning Amudaryo vodiysining geologik o'tmishi va Orol dengizining paydo bo'lishi haqidagi xulosalari o'sha zamonning eng muvaffaqiyatli geologik tahlillaridan biri bo'lib hisoblanadi. Olim «Dengizlar quruqlikka, quruqliklar esa dengizga aylanadi» degan nazariyaga suyanadi. Beruniyning foydali qazilmalar qatlaminin paydo bo'lishi, jinslar yemirilishining ahamiyati, tog' jinslarining nurashi kabilar haqidagi xulosalari katta ilmiy ahamiyatga egadir. U tog'larning paydo bo'lishi va yo'q bo'lib ketishi tabiiy omillar asosida yuz berishini talqin etuvchi nazariyani olg'a suradi.

Beruniy Aristotelning naturfilosofiyasi bilan bevosita shug'ullanishi natijasida Aristotel qarashlariga tanqidiy yondashib, hatto zaif tomonlarini tanqid etish darajasiga borib yetdi.

Beruniyning Aristotelga munosabati Ibn Sino bilan yozishmasida o'z ifodasini topgan. Ularning yozishmalari, asosan, Aristotelning «Fazo

haqida» va «Fizika» asarlari bo'yicha olib borilgan edi. Beruniy Aristotelni qadimgi dunyoning eng qomusiy yetuk olimi deb zo'r hurmat bilan tilga oladi.

Beruniyning boshqa dunyolar mavjudligi to'g'risida taxmini uning ilmiy yutuqlaridan biri hisoblanadi.

Olimning fikrlari, bir tomondan, Markaziy Osiyo, qadimgi yunon va hind mutafakkirlarining ilg'or an'alarini ijodiy rivojlantirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, Beruniyning yetukligi tafakkur doirasining kengligidan dalolat beradi. Beruniy tomonidan «sabablarning sababi» — inson va insoniyat jamiyatining yuzaga kelishi masalasining qo'yilishi diqqatga sazovor. «Qadimgi tarixlarning eng qadimgisi va eng mashhuri bashariyatning boshlanishidir». Bu yerda Beruniy kishilik jamiyatining paydo bo'lishi haqida ratsionalizm pozitsiyasida turganini ko'ramiz. Beruniy insonlar o'rtasidagi tavofut borligi haqida gapirar ekan, u faqat tashqi farqlar to'g'risida fikr yuritgan. Lekin kishilarning ichki tuzilishi va tashkil topishi, uning fikricha, barchada umumiydir. U inson bilan maymun o'rtasida o'xshashlik borligini qayd etadi.

Beruniy o'zining «Hindiston» asarida musulmonlar bilan hindlarning urf-odatlari o'rtasidagi farqlarni tahlil qilib, ular geografik sharoitlarga bog'liq degan fikrni ilgari surdi, geografik omilning rolini tahlil qilishni davom ettirib, hatto tillarning turlichaligi ham geografik sharoitlarga bog'liq deb qaradi. «Tillarning turlicha bo'lishiga sabab odamlarning guruhlariga ajralib ketishi, bir-birlaridan uzoq turishi»dir.

Beruniy ijtimoiy hayot o'ziga xos «shartnoma» asosida tuzilishini e'tirof etadi: «Inson o'z ehtiyojlarini tushunib, o'ziga o'xshash kishilar bilan birga yashashning zarurligini anglay boshlaydi. Shuning uchun o'zaro kelishuvchanlik qabilidagi «shartnoma» tuzishga kirishadi. Odamlarning birgalikdagi turmushi insonni haqiqiy qudratga, uning ehtiyojlarini qondirishga olib kelmaydi, buning uchun yana mehnat qilish ham zarurdir». Bu fikrni davom ettirib, «insonning qadr-qimmatini o'z vazifasini a'lo darajada bajarishdan iborat: shuning uchun insonning eng asosiy vazifasi va o'rni mehnat bilan belgilanadi, inson o'z xohishiga mehnat tufayli erishadi», deb yozgan edi u.

Beruniy jamiyatni boshqarishda jamiyat podshohga xizmat qilmay, podshoh jamiyatga xizmat qilishi kerakligini tushungan. «Idora qilish va boshqarishning mohiyati balki boshliq zolimlardan aziyat chekkanlarning

huquqlarini himoya qilish, birovlarning tinchligi yo'lida o'z tinchligini yo'qotishdir. Bu ularning oilasini, ularning hayoti va mol-mulkinini himoya qilish va qo'riqlash yo'lida badan charchashidan iborat».

«Tabiatan boshqarishga moyil» bo'lgan hokim o'z fikri va qarorlarida qat'iy bo'lishi kerak, o'z ishlarini amalga oshirishda faylasuflarning qonunlariga, Aleksandr Makedonskiy Aristotelning falsafiy donishmandligiga amal qilganidek, bo'ysunishlik lozim: shohning o'zi ham «yaratuvchanlik onigiga» ega bo'lmog'i, ayniqsa, dehqonlar to'g'risida ko'proq g'am yeyishi kerak. «Podshohlik dehqonchiliksiz yashay olmaydi», dedi Beruniy. Beruniyda shunday fikrlar bor: «odil hokimning asosiy vazifasi oliy va past tabaqalar, kuchlilar va kuchsizlar orasida tenglik, adolat o'rnatishdan iboratdir».

Beruniy o'rta asr sharoitida haqiqiy ilmiy tabiatshunoslikka asos soldi, uning turli sohalarida o'z davri uchun taajjubga soluvchi shunday fikr va ilmiy farazlarni olg'a surdiki, ular bir necha asrlardan so'ng Ovro'po ilmidagi o'z isbotini topdi. Beruniy o'rta asr sharoitida haqiqiy tajribaga, kuzatish, eksperimentga asoslanuvchi aniq ilmiy tafakkurni boshlab beruvchilardandir.

Beruniy filologiya sohasida ham qalam tebratib, mumtoz arab she'riyati, hind she'riyati tuzilishiga oid tadqiqotlar, eron folklori namunalari-ning arab tiliga tarjimalarini yaratdi. Beruniy mamlakat ravnaqi fan ravnaqi bilan uzviy bog'liq deb bildi. «Har bir olim o'z muhokamasida amaliyotga asoslanishi, o'z tadqiqotida aniq bo'lishi, to'xtovsiz mehnat qilishi, xatolarini qidirib tuzatishi, ilmda haqiqat uchun har xil uydirma, yuzakichilikka qarshi kurash olib borishi zarur», degan edi.

U xalqlar do'st, inoq, ittifoq bo'lib yashashi uchun kurashib, insoniyatga, u yaratgan fan va madaniyatga qirg'in keltiruvchi urushlarni qattiq qoraladi. Olim o'zining «Hindiston» asarida «xalqlar o'rtasida tortishish va talashish ko'p», deb afsuslanib yozgan edi. Uning Hindistonda olib borgan keng ilmiy tadqiqot ishlari xalqlar o'rtasidagi do'stlik, o'zaro hamkorlik va madaniy munosabatlarni mustahkamlashga qaratilgan edi. Bundan ko'rinib turibdiki, Beruniy madaniy hamkorlik va ilm-ma'rifatning keng tarqalishiga katta e'tibor berdi.

Beruniyning asarlari musulmon Sharqi madaniyatining so'nggi rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. So'nggi arab va fors tillarida yozilgan Bayhaqiy, Shaxrizo'riy, Qiftiy, Yoqut Hamaviy asarlarida Beruniy haqida muhim ma'lumotlar keltiriladi. XIII asrda yashagan suriyalik tarixchi va

tabib Xristian Ioanni Bar Ebrey (1226–1286) Beruniyga shunday baho beradi: «O'sha o'tgan yillarda yunon va hind falsafasi dengizini kechib o'tgan Abu Rayhon Muhammad ibn Ahmad al-Beruniy o'tmish ilmlarda shuhrat qozondi. U matematika ilmlarida mutaxassis bo'lib, bu sohada qator muhim kitoblar yaratdi. Hindistonga borib, u yerda bir necha yil yashadi, hind faylasuflaridan ularning san'atini o'rgandi va ularga yunon falsafasini o'rgatdi. Uning asarlari nihoyatda ko'p, yetuk va nihoyatda ishonchlidir. Bir so'z bilan aytganda, o'z davrida, undan so'ng va hozirga qadar hamkasblari orasida astronomiya ilmida bunday bilimdon va bu ilmning asosini hamda nozik tomonlarini chuqur biladigan olim bo'lmagan». Beruniy haqidagi oliy baho va tavsiflar Tabriziy, Suyutiy, Qazviniy, Tusiy, Muhammad ibn Mansur al-Allomiy, al-Xurosoniy kabilarning asarlarida keltiriladi.

XIX asrdan boshlab Ovro'po va Osiyo mamlakatlarida Beruniy merosi bilan qiziqish yanada keng tus oldi. Uning asarlari lotin, fransuz, italyan, nemis, ingliz, fors, turk tillariga tarjima etila boshlandi. Beruniy asarlariga bag'ishlangan ovro'polik olimlar J. Reno, E. Zaxau, G. Zuter, E. Videman, K. Nallino, J. Sarton, R. Rayt, M. Meyerxof, osiyolik olimlar S.X.Nasr, M. Kozim, S. Baraniy, M. Nizamuddin, Sh. Yaltkay kabilarning kitoblari, tarjimalari nashr etildi. Bu tadqiqotchilar Beruniy ijodiga juda yuqori baho berdilar. Amriqolik tarixchi olim J. Sarton Beruniyning merosiga eng oliy baho berish bilan birga, uning o'z davrining jahondagi birinchi donishmandi deb baholaydi. Atoqli sharqshunos V.R.Rozen esa, unga ilmiy qarashlari taajjub qolarli darajada kengligi, uning hozirgi ma'nodagi haqiqiy fanning ruhiga xos ekanligini qayd etadi.

Hind olimlari ham Beruniyning Hindiston falsafasi, dini, ilmi, urfodatlarini o'rganishga qo'shgan ulkan hissasiga nihoyatda yuqori baho beradilar. Beruniy merosi rus olimlarini ham har tomonlama qiziqtirib keldi. I.Y.Krachkovskiy, S.P.Tolstov, A.A.Raynov, A.M.Belenitskiy, A.A.Semyonov, B.A.Rozenfeldlarning unga bag'ishlangan asarlari e'lon qilindi. Mashhur sharqshunos olim I.Y.Krachkovskiy Beruniy merosiga yuqori baho berib, «uning qiziqqan ilm sohalaridan ko'ra qiziqmagan sohalarini sanab o'tish osondir» deb, allomaning qomusiy aqlini yana bir bor ta'kidlab o'tadi.

Beruniyning o'z vatani O'zbekistonda ham uning ijodiga katta e'tibor berib kelinmoqda. H.M.Abdullayev, I.M.Mo'minov, V.Y.Zohidov,

Y.G.G'ulomov, U. Karimov, P.G.Bulgakov kabi atoqli olimlarimiz Beruniy faoliyati haqida qator risola, asarlar yaratdilar. Toshkentda unga bag'ishlangan Xalqaro ilmiy konferensiyalar o'tkazildi. Birinchi bor Beruniyning «Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar», «Hindiston», «Mas'ud qonuni», «Geodeziya», «Saydana» kabi asosiy asarlarini o'z ichiga oluvchi ko'p jildli saylanma asarlari o'zbek va rus tillarida O'zbekiston Fanlar akademiyasi tomonidan nashr etildi.

ABU ABDULLOH RUDAKIY (860—941)

Abu Abdulloh Ja'far Rudakiy taxminan hijriy 243(860)-yilda Samarqand yaqinidagi Panjrudak qishlog'ida, dehqon oilasida tug'ildi. Bu davrda Movarounnahr Eron, Hindiston, Xitoy, Misr va Suriya bilan savdo va madaniy aloqalarni yaxshi yo'lga qo'ygan edi.

X asrda Buxoro, Samarqand, Urganch, Marv, Nishopur, Balx, Zarafshon vodiysining yuqori qismi hunarmandchilik, savdo va madaniy markazlarga aylangan edi. Ayniqsa, Buxoro shahri IX—X asrlardayoq Sharqning eng yirik madaniy markazlaridan biri bo'lgan.

Rudakiy yoshligidanoq she'riyatga ixlos qo'ydi, o'z zamonasining mashhur cholg'uchisi Abul Abbas Baxtiyor qo'lida musiqadan ma'lumot oldi. Dastlabki ma'lumotni o'z qishlog'ida olgan Rudakiy o'qish uchun Samarqandga bordi. U yerda chuqur bilim olib, tez orada adabiyot va san'at sohasida ham dong chiqarishga muvaffaq bo'ldi.

Buxoro hukmdori Nasr II ibn Ahmad Somoniy (914—943-yillarda hukmronlik qilgan) davrida Rudakiyning shoirlik shuhrati Buxoro va umuman Sharqqa keng tarqaldi. Rudakiy asarlariga e'tibor berilsa, uning astronomiya va qadimgi yunon falsafasini ham yaxshi tushunganligini ko'rish mumkin.

Somoniy davlatining ko'zga ko'ringan davlat arbobi, Nasr II ibn Ahmadning yaqin do'sti Abulfazl Bal'amiy Rudakiy haqida «U faqat mashhur shoir bo'libgina qolmay, balki o'z davrining yetuk olimi ham edi», deb baho bergan.

Nasr II ibn Ahmad Somoniy Rudakiyni o'z saroyiga taklif etgandan so'ng, uning hayotining ko'p qismi Buxoroda o'tdi. Uning ko'zi ojiz

bo'lgan. Qadimgi manbalarda, uning onadan ko'r tug'ilganligi haqida naqlar bor. Ba'zi olimlarning fikricha, u saroydan quvilihi oldidan ko'ziga mil tortib ko'r qilingan. Rudakiy qarigan chog'ida quvg'inga uchragan, o'z qishlog'iga qaytib faqirlikda umr kechirgan. U 941-yilda olamdan ko'z yumdi va o'z vatanida dafn etildi. Bu joy xalqning ziyoratgohiga aylandi.

Rudakiyning adabiy merosidan bizgacha ming bayt yetib kelgan (2 qasida, 50 ruboiy, she'rlar, doston va boshqalar). Ammo XII asr shoiri Rashid Samarqandiyning ta'kidlashicha, bironta shoir Rudakiy singari ko'p asar yozgan emas. Ba'zi olimlarning fikricha, Rudakiy bir million uch yuz ming misra she'r yozgan. Muhammad Avfiyning xabar berishicha, Rudakiy yuzta to'plam (daftar) yozgan.

As-Somoniyni «Kitob ul-ansob» asarida keltirilishicha, «Rudakiyning she'rlar to'plami Ajam (arablar yashamaydigan) mamlakatlarda mashhur. Aytishlaricha, Rudakiy birinchi bo'lib fors tilida she'r yozgan shoirlardandir», deyilgan. Shuning uchun ham Nasr II ibn Ahmad Somoniy, uning vazirlari va harbiy boshliqlari unga qimmatbaho sovg'alar berar edilar. Shu tufayli Rudakiy katta boylikka ega bo'lgan. Ammo u butun diqqat-e'tiborini she'riyatga va fanga qaratgan. Rudakiy she'riyat vazifasini kishilar qalbiga ta'sir etish, «sang-u sandon yuraklarni mum kabi yumshatish» deb bildi. Uning asarlarida xalqchil g'oyalar kuchli. Qadimgi manbalarda Rudakiyning «Oftob davroni», «Arois an-nafois» («Nafis kurtaklar») va «Sindbodnoma» dostonlari bo'lganligi haqida ma'lumotlar uchraydi.

Rudakiyning qasidalaridan «Modari man», «Dar vasfi Buxoro» va «Shikoyat az piri» («Qarilikdan shikoyat») bizgacha yetib kelgan. Rudakiyning ijodida X asrning ijtimoiy hayoti o'z aksini topgan. Uning hamma asarlarida xalqning orzu-umidlari, manfaatlari ifoda qilingan.

Rudakiyning axloqqa oid asarlarida aql-idrok, xulq-atvor va bilim asosiy o'rinni egallagan. Mutafakkir bilimni hamma boyliklardan ustun qo'yadi. Uning ayrim nasihatlarini insonning qanday holatda baxtli bo'lish sharoitlarini aniqlashga yordam beradi. Rudakiyning fikricha, insonning to'la baxtga ega bo'lishi uchun to'rt narsa kerak: sog'liq, yaxshi odob, yaxshi nom va aql. U insonlarni voqealarning ichki mohiyatidan uning tashqi tomonini ajrata bilishga chaqiradi. U yaxshilik, saxiylik va ulug'vorlikni targ'ib qiladi.

Rudakiyning tabiat go'zalliklarini ifoda etgan asarlari juda jozibalidir. Uning asarlarida Vatanga, xalqqa muhabbat mavzularigina yoritilmay, keng falsafiy fikrlar ham bayon etilgan. Masalan, «Qarilikdan shikoyat» asarida moddalar bir shakldan ikkinchi shaklga o'tishini hamda yo'q bo'lib ketmasligini ta'kidlaydi.

Buyuk mutafakkir kishilar o'rtasidagi do'stlik va o'zaro hamkorlik kishilik jamiyati uchun muhim ahamiyatga ega ekanligini bir necha bor ta'kidlab o'tgan. Uning fikricha, haqiqiy do'stlik uchun kishilarni, hatto turli dinda bo'lishlari ham xalaqit bera olmaydi. Uning quyidagi satrlari diqqatga sazovordir:

Jahonning shodligi yig'ilsa butun,
Do'stlar diydoridan bo'lolmas ustun.

Rudakiy hayotning o'zini birinchi ustod hisoblaydi va undan ta'lim olishga undaydi:

Har kishi olmasa hayotdan ta'lim,
Unga o'rgatolmas hech bir muallim.

Rudakiy asarlarida inson aql-u zakovatiga ishonch kuchli. Asarlarining tili, badiiy ifoda vositalari sodda va tushunarli qilib yozilgan. U birinchi bo'lib, X asrdayoq fors mumtoz adabiyotiga asos solganligi uchun qo'rg'ina Eron olimlari, jumladan, professor Sayyid Nafisiy fors she'riyatining vatanini Movarounnahr deb hisoblaydi.

Tabiatni, vatanni vasf qilish, axloqiy pand-u nasihatlar bilan asarni bezash keyingi mutafakkirlarga Rudakiydan qolgan an'ana edi. Jumladan, buyuk shoir vafotidan keyin yana 50 yil yashagan mashhur tarixchi Abulfazl Bayhaqiy (995–1077) uning g'oyalarini o'z tarixiy asarlarida davom ettirdi.

NOSIR XISRAV (1004–1088)

Markaziy Osiyo madaniyatining ulug' donishmandi va mutafakkiri Nosir Xisrav Qobadiyonda 1004-yilda tug'ilgan. Uning ajdodlari o'z davrining obro'li, davlatmand kishilaridan hisoblangan. Amudaryo bilan

karvon yo'li kesishgan joydagi bu shahar XI asrda faqat qishloq xo'jalik mahsulotlari bilangina mashhur bo'lmay, balki savdo-sotiq hamda hunarmandchilik ham taraqqiy topgan joy edi. Qobadiyonning qoldiqlari hozir Tojikistonning Nosir Xisrav shahri chekkasidadir.

Uning nomi Abu Mu'iniddin Nosir, otasining nomi esa Xisrav bo'lib, she'rilarida «Hujjat» taxallusini qo'llagan. Nosir Xisrav zamon ananasiga ko'ra, boshlang'ich ma'lumotni tug'ilgan joyida oldi, keyinchalik Marv, Balx madrasalarida tahsilni davom ettirdi, diniy, dunyoviy bilimlarni egalladi. U Qobadiyon, Marv, Balxni o'z-shahri hisoblagan va «Safarnoma» asarida «Abu Mu'iniddin Nosir Xisrav Marvaziy va Qobadiyoniy nomlari bilan taniqlidir», deb yozadi. Adabiyot va ilm olamida Nosir Xisrav unvoni bilan tanilgan adib yoshligidayoq qator tillar va fanlarni (al-jabr val muqobala, handasa, mantiq, nujum, hay'at, tibbiyot, tib, falsafa, fiqh, tarix, kalom, musiqa, aruz va boshqalar) pishiq o'rganagan. Mutafakkirning asarlarida bu xaqda qiziqarli ma'lumot va lavhalarini o'qish mumkin.

Nosir Xisrav bu davrda ulug' vatandoshlari Abu Ali ibn Sino, Forobiy asarlarini chuqur o'rganadi hamda butun umrga ularning sodiq shogirdi va davomchisi bo'lib qoladi. Bundan tashqari, u qadim dunyo faylasuflari Sokrat, Platon, Aristotel ta'limotini o'rganish bilan shug'ullanadi.

Nosir Xisrav dunyoqarashining shakllanishi, o'sha zamon ilm-u madaniyati durdonalaridan bahramand bo'lishida uning Misr, Shom, Iroq, Qohira, Iskandariya, Damashq, Basra, Hijoz, Halab, Makka, Madina, Ozarbayjon, Armaniston, Falastin, Eron, Turkiston va Hindiston shaharlari bo'ylab qilgan safarlari muhim ahamiyat kasb etdi. Ulkan adib qaysi shaharda bo'lmasin, uning diqqatini o'sha yurtning ulug' shaxslari, olim-u shoirlari o'ziga jalb etgan va o'sha donishmandlar bilan muloqotda bo'lgan. Chunonchi, Nosir Xisrav 1045-yilda Qohira shahrida karmatlar, ya'ni ismoiliya diniy mazhabi bilan yaqindan tanishadi.

Manbalarning shahodatiga ko'ra, Nosir Xisrav ma'lum muddat G'aznaviy hukmdorlardan Sulton Mahmud G'aznaviy va uning o'g'li Mas'ud saltanati davrida rasmiy lavozimlarda faoliyat ko'rsatadi. Uning Saljuqiylar darborida xizmatda bo'lganligi xususida ham ayrim ishoralar saqlangan. Biroq saroy muhitining ayanchli manzaralari iste'dodli shoirga manzur tushmadi. Ayniqsa, amaldor-u mulozimlar, ruhoniylar-u manfaatparast shoirlarning nafs uchun past ketishlari, har qanday razilliklarga tayyor



turishlari, avjiga chiqqan madhiyabozliklar Nosir Xisrav ko'zini ochdi. Uning she'riyati va ilmiy qarashlarida tanqidning kuchayishiga zamin yaratdi. Ana shu omillar uning ma'naviy dunyosida burilish yasadi, u haqiqat izlash va xalq xizmati uchun ijodiy, fikriy izlanish bilan shug'ullanishga kirishdi.

Nosir Xisrav saroy ahli, reaksion kuchlar quvg'inidan qochib umri-ning so'nggi 20 yilini Yung'onda o'tkazdi va ko'p asarlarini Yung'onda (Badaxshondagi qishloqlardan biri) ijod etdi. Uning salkam chorak asrlik umri shu yerda o'tdi va o'sha yerda 1088-yilda vafot etdi. Nosir Xisravning qabri ham shu joydadir. Keyinchalik bu tabarruk maskan shoir ijodi ixlosmandlarining ziyoratgohiga aylandi.

Nosir Xisravning oilaviy hayotiga doir aniq ma'lumotlarga ega emas-miz. Manbalarda bu haqda hech qanday dalillar uchramaydi. Uning sarson-sargardonlikda o'tgan umri, tazyiq-u ta'qib etishlar, quvg'indagi yillar allomaning uylanishi, bola-chaqa ko'rishiga imkon bermagan ko'rinadi.

Nosir Xisrav adabiy, ilmiy, falsafiy, hikmatiy asar va risolalarini o'sha davr an'anasiga ko'ra, dariy va arab tillarida yaratdi. Bizgacha mutafakkirning ikkita she'rlar devoni (biri forsiy, ikkinchisi arab tilida), «Rushnoinoma», «Saodatnoma» masnaviy-lari, «Zod ul-musofirin», «Xon ul-ixvon», «Din vaji», «Bo'ston ul-uqul», «Jome' ul-hikmatayn» kabi ma'naviy-diniy asarlari, to'qson ikki falsafiy, mantiqiy savollarga javob usulida yozilgan nasriy risola va mashhur «Safarnoma»si yetib kelgan.

Nosir Xisravning fors tilidagi she'rlar devoni diniy-mazhabiy, falsafiy, ijtimoiy-axloqiy va ishq-u oshiqlik bahsiga bag'ishlangan qasida, g'azal, ruboiy, farz, qit'a singari janr namunalaridan iboratdir. Devondagi she'rlar 11000 baytni tashkil etadi.

«Rushnoinoma» — ixcham masnaviy bo'lib, 592 baytdan iborat. Asarda donishmandning diniy, falsafiy, ma'rifiy, ijtimoiy-axloqiy qarashlari rangin misralarda yuksak shoirona nazokat ila kuylanadi.

«Saodatnoma» uch yuz baytdan iborat bo'lib, unda «Rushnoinoma»dagi ayrim masalalar takrorlangan. Shuningdek, bir qator falsafiy-axloqiy muammolar o'z rivojini topgan.

Nosir Xisrav o'zining ma'naviy hayoti, diniy-falsafiy dunyoqarashi jihatidan botiniya va ismoiliya mazhabining izdoshi va hakim-ustozlaridan-dir. Ismoiliya firqalari yagona-botiniya atamasi bilan yuritiladi. Mazkur diniy-falsafiy mazhab Qur'onning (ichki) ma'nosiga tarafdor. Botiniylar

qarashiga qo'ra, Qur'anni hazrati Ali ibn Abutolib va uning do'st-u suhbatdoshlari haqiqiy ma'nosini biladilar. Mazkur mazhab ahli ta'limga ko'ra, Xudo olamning mabda'i, asl vujudidir va inson aqli-la Xudoni bilib olishga qodir emas. Inson o'z aqli bilan Mutlaq vujudning tashqi zohiriy tomoni — kull aqlni bilib olishi mumkin. Kull aql Xudodan ajralgan, tajalliy etgan ruhiy mohiyatdir. Kull aql dan esa jahoniy jon yoki nafs kull, uning oqibati sifatida jismoniy olam, undagi mavjudotlar vujudga kelgan. Inson noqis jon-u aqlga ega, komillashish uchun u poklanishi lozim. Mutlaq vujudga yetishish uchun yo'llovchi shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqat bosqichlarini bosib o'tib, haqiqiy — abadiy olam — Xudoyi taolo vasliga yeta oladi.

Nosir Xisrav mazkur botiniya — ismoiliya mazhabining asoschilaridan hisoblanadi. U «Rushnoinoma» asarining «Tavhid» bobida o'z aqidasi bayon etib yozadiki, Xudoyi taolo yakkay-u yagonadir, unga sherik yo'q, uning avvali va oxiri yo'q. Inson Xudoni fikr-u andisha ila jismoniy ko'z hissiyotlari orqali bila olmaydi. Faqat ruhiy ko'z, qalb ko'zi bilangina mushohada etishi — ko'rishi mumkin.

Mutafakkir o'ziga maslakdosh shayxlar nuqtayi nazarini ma'qullab qolmasdan, uni rivojlantiradi. Nosir Xisrav talqiniga binoan inson Xudoni va Koinotni bilib olishni o'zligini bilib olishdan boshlamog'i lozim. Zero vujudlikning bir necha jihatlari mavjud. Inson dastlab o'zligining haqiqiy va o'zgaruvchan jisimiy-moddiy jihatlari aqli bilan farqlab olishi darkor.

Nosir Xisrav zamonasining yetuk ma'naviy-ruhiy arbobi sifatida insonda asliy-ilohiy jihat borligi va u o'z haqiqatini bilib olishga qodir ekanligini ta'kidlaydi. Buning uchun inson hayotini behuda o'tkazmasligi, asliga yetish uchun sa'y-harakat qilishi, ilm egallashi va moddiy ehtiyoj girdobiga tushmaslikka da'vat etadi. Nosir Xisrav asosiy diqqatni insonning poklanish jarayoniga qaratadi. Uningcha, inson o'z asli — ilohiy ruhga qayta qo'shilishi uchun o'zining haqiqati, adabiyatini anglab yetishi, o'z-o'zini takmil eta bilishi, axloqini sof tutishi, poklashi lozim. Buning uchun g'ayri insoniy harakatlardan saqlanish, g'arib-u g'urabolar qalbiga ozor yetkazmaslikning o'zi kifoyadir.

O'tmishdoshlari an'anasini davom ettirgan shoir, odamlarni fazilatli, xush fe'l-atvorli qilib shakllantirishda tarbiya hissasining beqiyos ekanligiga urg'u beradi. Shundan bo'lsa kerak, alloma asarlarida axloqiy pand-u nasihatlar, hikoyat va qissalarga keng o'rin beriladi. Uning shunday uri-

nishlarini «Axloqi hamida va zamima» sarlavhali she'ri misolida ham yaqqol ko'rish mumkin.

Insonni ikkiga ajratgan faylasuf shoir uning axloqiga ham xuddi shunday munosabatda bo'ladi. Aslida odamning yomoni bo'lmaydi. Yomon tarbiya ko'rgan, fe'l-u atvori yaxshi yoxud noloyiq insonlar bo'lishi mumkin. Bas shunday ekan, asosiy diqqat axloqiy tarbiya muammolariga qaratilmog'i lozim.

Nosir Xisravning ma'naviy merosi pand-u hikmat bobida ulkan xazinani eslatadi. Uning katta-yu kichik asarlarida axloqiy qarashlar markaziy o'rin tutadi. Uningcha, yomon bilan yaxshi, xayr-u saxovat va baxlilik orasidagi farqni ajrata bilish uchun inson birinchi galda, o'zligini yaxshi anglab olishi lozim.

Hakimning asosiy axloqiy qarashlari umuminsoniy, umumbashariy ahamiyatga egadir. Jumladan, buyuk mutafakkirning g'arazlik bilan behad mol-u mulkka berilmaslik, o'tar dunyoning yuzaki xursandchiliklariga hirs-u havas qo'ymaslikka da'vati barcha davrlar, el-u elatlar uchun birday manfaat kasb etadi.

Mo'tabar donishmand ijodidagi umumbashariy ma'naviy qadriyatlardan yana biri o'zgalarga nisbatan adolatli, insofli bo'lish, qashshoq-u notavon, jismoniy jihatdan zaiflashganlarga rahm-u shafqat ko'rsatish, boshqalarning gunohini kechirish kabi yuksak g'oya va nasihatlardir. Ulug' shoir xuddi shunday chaqiriq ruhi bilan mansabdorlarga murojaat qiladi, ularni o'z qo'l ostidagi mehnat ahliga nisbatan rahm-u shafqatli, mehribon bo'lishga da'vat etuvchi misralarni yozadi.

«Ma'naviy jihatdan ulg'aymoqchi bo'lsang, martabangni yuqori ko'tarishni istasang, jahonning ulug'lariga yaqinlashishni xohlasang ilm o'rgan, aql-u idrokingni takomillashtir», deydi dono shoir. Chunki ayni o'sha fazilatlar insonni ulug'lik pog'onasiga ko'taradi, ular ma'naviy jihatdan uch turga — Payg'ambar, avliyolar va hakim-u donolarga bo'linadi. Ilm-u aql odamni haqiqiy inson rutbasiga erishtirsa, nodonlik esa uni odamiylik darajasidan chetlashtiradi.

Ilg'or mutafakkir ilm o'rganishgagina emas, uni targ'ib, tashviq qilishga, ilm toliblariga, uni qidiruvchilarga yetkazish kerakligiga alohida e'tibor beradi:

O'zingni ilm birla bezatgil,

Faqat kimxob kiygan emasdir go'zal.

U ilmni jon ichidagi gavhar deb ataydi:

Aql bilgan hama gavharlar aro,
Ilmdan yaxshi kimyo yo'qdir aslo.

Nosir Xisravning fikricha, kishi diliga taskin berguvchi, uni bu dunyoda shod-u xurram qilguvchi ham ilm:

Agar xurramlik istarsen, so'roqla ilm ila hikmat,
O'shanda ilm-u donishdin olursan mevayi hojat.

Uning «ilm» tushunchasi faqat diniy ilmlar bilan chegaralanib qolmay, balki butun dunyoviy bilimlarni o'z ichiga oladi. Uning fikricha: «Kishilar orasida aqllilari aqliy lazzatga intiladi. Shundagina u umumiy lazzatga erishadi. Bu lazzat manbayi tog'liq olamdir... Faqat odam ilm o'rganishdan lazzat topadi, bu his hayvonlarda yo'q, ilmning har bir pog'onasi yana yuqoriroq pog'onaga olib keladi, demak, bilimning chegarasi yo'q», deb yozadi Nosir Xisrav «Zod ul-musofirin» («Safar qiluvchilar yo'l anjomi») degan kitobida.¹

Nosir Xisrav ma'naviy bisotida ijtimoiy hayot, davlat tuzilishi, amaldor-u hokimlar faoliyati, ularning fuqarolarga munosabati haqida ham qimmatli fikr-u mulohazalar ko'zga tashlanadi. O'tmishda faoliyat ko'rsatgan talay faylasuf va mutafakkirlar singari u ham ma'rifatli, adolatparvar shoh-u hokimlar tarafdori edi. Tabiatan adolat va insof tarafdori bo'lgan donishmand shoir «Saodatnoma» masnaviysida mehnat ahlini, xususan, dehqonlarni samimiy muhabbat bilan sharaflaydi. Ular madhida otashin misralar yaratadi.

Mutafakkir shoir dehqon kasbiga, uning bunyodkorona mehnatiga yuksak baho beradi. Zeroki, ular tufayli olam obod. Ularning mashaqqatli mehnati sharofati ila xalq rizq-u ro'zi hamisha muhayyodur. Nosir Xisrav nigohida ular jannatdan joy olishga sazovordirlar. Chunki ular hayotning saqlovchilari va yaratuvchilari hisoblanadi:

Jahonning shodligin boisi dehqon,
Uning birla ekinzor, bog'-u bo'ston.

¹ Sh o i s l o m Sh o m u h a m e d o v ning «Fors-tojik adabiyoti klassiklari» kitobidan olindi. T., 1963, 71–72-betlar.

Bu ishdin yaxshi, olamda ne bordur,
Odam nasliga bu ish yodgordur...

Jafokash, pahlavon mehnat chekodur,
To'kib ter, barchaning rizqin ekodur.

Dehqonlardan keyingi o'rinda kasb-hunar egalari turadi. Ulug' shoir bu toifa ahlini xushbaxt odamlar hisoblaydi. Hunar, kasb egasi ham xuddi dehqon singari yaratuvchi-soni'lar sirasiga mansubdir. Xalq ehtiyoji ular san'ati, ijodiy mehnati-la ta'minlanadi:

Kosibdan shod-u xurram yo'q jahonda,
Hunardin yaxshi dur ham yo'q jahonda...

Arzir uning bo'lsa boshi osmonda,
Ulsiz yashay olmas shoh ham jahonda.¹

Shoir orzusicha, fozil hukmdor fuqaro-raiyatni doimo o'z muhofazasiga oladi. Mamlakatni adl-u insofla boshqaradi. Har qanday tadbirni vazirlar muhokamasiga, «kenkosh» — mashvarat majlisida ko'rib, ma'qullangandan keyingina farmon sifatida e'lon qiladi. Hukmdorlarning bunday adolatli boshqaruvi tufayli mamlakat obod, uning xalqi esa farovon yashaydi, bir-biriga mehribonlik bilan munosabatda bo'ladi. Yurtda hashar uyushtirish vositasida bog'-rog'lar yaratadi. Jamoa ahli sharob iste'mol qilmaydi. Bunday davlatda vijdon erkinligi barqaror hukm suradi. Diniy farzlar ixtiyoriy bajariladi. Yurt fuqarolari islom diniga e'tiqodli va Muhammad Mustafoning payg'ambarligiga iqrordurlar. Aytilganlar bilan bir qatorda, donishmand shoir «Muluk va umaro mazammati to'g'risida», «Yomon nafs va riyokorlar haqida» sarlavhali she'rlarida noinsof, adolatsiz, mag'rurlangan, raiyat, ilm-fan, mehnat ahliga yomon muomalamunosabat qiluvchi, poraxo'r, bema'rifat, johil, zulm-u jabrdan huzur qiluvchi hokim va amaldorlar faoliyatini qattiq qoralaydi. Shoir ta'biricha, bunday insonlardan it sharafliroqdir. O'sha johillar o'z jismoniy kayf-u rohatlari uchun qashshoq kambag'allarni xonavayron qilishdan uyalmaydilar. Bunday muftxo'r va xasis mulozimlar qarq'ishga uchragani uchun ham ularning mol-boyliklari barakasiz, harom.

¹ O'sha kitobdan, 80—81-betlar.

Ulug' shoirning talay pand-u nasihatlarida odamlarni ranjitmaslik, ularga ozor bermaslik ibratli mulohazalar o'rtaga tashlanadi. Biroq hukm ahli raftorining quyushqondan chiqishi shoirni behad g'azablantiradi. Shundan bo'lsa kerak, uning o'zi ham oshkora tanqidga o'tadi va zulm-u sitamkorlarning amaliy faoliyatini bo'rining tajovuzkorligiga o'xshatadi.

Alloma shoirning ko'pchilik asarlarida odamlar yuksak odamiylik sifat va fazilatlariga da'vat etiladi. U insonlararo o'zaro hurmat, samimiyat qaror topishi tarafdori edi.

Darvoqe, ahillik, adl-u amniyat, mehr-u oqibat, o'zaro ittifoq ustuvor bo'lgan yurtda zulmat chekinadi, inson sharafi yuksak ulug'lanadi, o'zaro nizolar yo'qoladi, inson insonning joniga qasd qilmaydi. Ana shunday ulug' insonsevarlik g'oyalari tufayli Nosir Xisrav bizga zamondoshdir.

Ey, mardum zodai, bo mardumi bosh,
Chi boshad dev budan, odami bosh!

Ya'ni:

Ey, inson avlodi sen, insoniylik bilan bo'l,
Nimadur dev bo'lish, odamiy bo'!

Nosir Xisravning ilm-fanni, insonni, mehnatni, kasb-hunarni ulug'lovchi, adolatsizlikning har qanday ko'rinishini qoralovchi merosi so'nggi avlodlar ma'naviy yuksalishi uchun muhim ozuqa bo'ldi, u xalqning sevimli shoir va mutafakkiriga aylanib ketdi. Nosir Xisrav ijodi Markaziy Osiyodan chiqqan donishmand, mutafakkirlar ijodining nihoyatda rang-barang, umuminsoniy bo'yoqlarga boy ekanligini yana bir bor isbotlaydi.

YUSUF XOS HOJIB (XI asr)

Yusuf Bolasog'uniy Yettisuv o'lkasidagi Qo'z o'rda (Bolasog'un) shahrida 1016–1018-yillar orasida dunyoga keladi. Bu davrda Yettisuv va Sharqiy Turkiston o'lkalari turkiy qarluq qabilasidan chiqqan Qoraxoniylar sulolasi qo'l ostida edi. Bu sulola vakillari VI–IX asrlarda hukm surgan Buyuk Turk xoqonligining davomchilari bo'lib, IX asr o'rtalaridan davlatni boshqarib keldilar. X asr boshlarida Abdulkarim Sotuq Bug'roxon (924–955) islom dinini qabul qildi va shu bilan turkiy

elatlarni ham uzil-kesil islom mintaqasi madaniyatiga kelib qo'shildilar. X asr oxiriga kelib, Somoniylar tanazzulga yuz tutgach, Qoraxoniylar Movarounnahrni tugal egalladilar. Bolasog'un ushbu ulkan mamlakatning shimolidagi poytaxti edi.

Shoir haqida ma'lumotlar ko'p emas. «Qutadg'u bilig» asarini 50 yoshlarda, hijriy 462-yili (1069/70) yozib tugatgan Yusuf o'zi haqida asar muqaddimasida shunday ma'lumot beradi: «Bu kitobni tartib beruvchi Bolasog'unda tug'ilgan, parqiz sohibi (sabr-qanoatli) kishidir. Ammo bu kitobni Koshg'arda tugal qilib, Mashriq maliki Tavg'achxon dargohiga keltiribdir. Malik uni yorlaqab, ulug'lab o'z (saroyida) Xos Hojiblik (lavozimini) beribdi. Shuning uchun Yusuf Ulug' Xos Hojib deb mashhur nomi tarqalibdi». Kitobda nomi tilga olingan xoqon Nasriddin Tavg'ach ulug' Bug'ro Qoraxon Abu Ali Hasan Xorunxon binni Arslonxon bo'lib, 1075–1103-yillar davomida Qoraxoniylar davlatini boshqargan. «Qutadg'u bilig» asari unga bag'ishlangan paytda u Koshg'arda Arslon-tegin To'g'ul Qoraxoqon Mahmudxon (1059–1075)ning o'rtoq-qog'oni sifatida hukm surardi (Qoraxoniylar sulolasida shunday odat bo'lib, Bolasog'un asosiy xoqon hukmdor bo'lganda Koshg'arda uning o'rtoq-qog'oni ish yuritardi).

Asar mazmuni, tili va uslubidan kelib chiqib aytish mumkinki, Yusuf Xos Hojib arab va fors tillarini mukammal bilgan, bu tillardagi diniy, ilmiy, badiiy adabiyot bilan chuqur tanish bo'lgan. Bundan tashqari shoir qadim turk yozma adabiyoti, turkiy xalqlar og'zaki ijodini ham yaxshi bilgan, ular muhitida tarbiya olgan. Shoir turkiy elatlarning qadimiy qo'shnilari xitoy, mo'g'ul, hind, eroniy xalqlar madaniyati, yunon falsafasi va boshqa o'sha davr ma'naviy hayotining turli tomonlari haqida mukammal ma'lumot egasi bo'lgan. Yusuf katta iste'dod sohibidir. O'sha davr an'anasiga ko'ra, u arab, fors tillarida ham she'r ijod qilgan bo'lishi kerak, turkiy adabiy tilda, balki devon ham tuzgandir. Afsuski, bizgacha shoirning yagona dostonidan boshqa asari yetib kelmagan. Ammo aniq aytish mumkinki, hech qaysi ijodkor ilk ijodini 6,5 ming baytga yaqin yirik doston yozishdan boshlamaydi. Masalan, Amir Xisrav Dehlaviy birinchi yirik dostonini boshlaganda ikki devon tuzgan va ular tarkibida bir qator kichik masnaviylari bor edi. Biz Yusufning ijodiy yo'li haqida ba'zi ma'lumotlarni dostonga tayanib olishimiz mumkin. Masalan, shoir kirish qismida yozadi:



Bu tug'mish elindin chiqib borg'oni,
Kitobni qo'shubon tugal qilg'oni.

(Tug'ilgan yurtidan chiqib borgani, kitobni jamlab tugal qilgani).

Ikkinchi satrdagi kitobni jamlab, tugal qilgani haqidagi ma'lumot, uning ba'zi qismlari oldinroq alohida asar sifatida yozib, mashq qilingan bo'lishi mumkinligidan darak beradi. Masnaviy janrida yozilgan asar tarkibida vazn va qofiyalash usuliga ko'ra undan farq qiluvchi ikki alohida qasida va 200 dan oshiq to'rtlik mavjud bo'lishi ham behuda emas. Biz bu asarning tarkibiy qurilishidan kelib chiqib, uni shoir bir necha marta tahrirdan o'tkazgan bo'lishi kerak deb, o'ylaymiz. Olimlar ham bu haqda xilma-xil taxminlar qilib kelishadi. Hozir bizning qo'limizga yetib kelgani oxirgi tahrir va xoqonga taqdim etilgan nusxadir. Bu nusxa tarkibi quyidagicha:

Uch bosqich muqaddima:

1. Nasriy muqaddima (38 satr);
2. She'riy muqaddima (77 bayt);
3. Muqaddimaviy boblar (II bob, 390 bayt).

Ikkinchi va uchinchi bosqich orasida bob sarlavhalari ro'yxati (fihristi abvob) berilgan.

Asosiy qism — doston mavzusi 68 bobda rivojlanadi. Undagi sarlavhalar hisobiga, agar ishtirok etuvchilarning savol-javoblarini ham kiritsak — 174 sarlavha ostida berilgan. Umumiy hajmi — 5896 bayt. Xotima qismi — 2 qasida va masnaviy bobdan iborat bo'lib, oxirgi masnaviy bob mazmunigina ma'lum darajada dostonga aloqalordir. Muqaddimaning faqat uchinchi bosqichi (II bobdan iborat) bevosita doston tarkibiga uyg'unlashgan. Oldingi ikki bosqich esa qayta tahrirda kitob haqida umumiy tasavvur hosil qilish uchun atayin nasr va nazmda ilova qilingandir. Shu sababli ular boblar nomlanishi ro'yxatidan ham ilgari berilgan.

Asosiy qism oxirida (6261—6286-baytlar) shoir kitobning yozilish yili, nima maqsadda yozilgani, o'quvchiga murojaat, Allohga munojot, Payg'ambar va chohoryorlarga salomlar bilan asarni xotimalaydi va alohida xotima qismga hojat qoldirmaydi. Ammo bundan so'ng yana 2 qasida (yigitlikka achinib, qarilikdan shikoyat qilish — 44 bayt va zamon buzuqligi, do'stlar jafosidan yozg'irish — 40 bayt) qo'shilib, yana 1 masnaviy bobda muallif o'ziga o'zi nasihat qiladi (37 bayt), asarning turk-

cha yozilganligi, tugallanish sanasi, yana munojot va salomlar qaytariladi. Shulardan bilinadiki, xotima qismiga ham 2 qasida qoʻshilib, qayta tahrir qilingan paytda yozilgan. Asosiy qism mazmuni va mundarijasiga koʻra «Qutadgʻu bilig» dostoni mintaqa adabiyotining birinchi bosqichida yaratilgan turkiy tildagi islom maʼnaviyatining badiiy-falsafiy, ijtimoiy-axloqiy qomusi deb baralla taʼriflasak arziydi. Uningdek ulugʻ yaxlit kitob al-Buxoriyning «Jomeʼ as-sahih»idan keyin arab va fors tillarida ham yaratilmagan edi. VIII–IX asrlarda Abdulhamid al-Kotib, Ibn al-Muqaffa (720–756), Adib Ahmad Yugnakiy, al-Johiz (775–868) kabi yirik adiblar tomonidan asos solingan adab ilmi, Abu Nasr al-Forobiyning ijtimoiy-axloqiy falsafasi, «Shohnoma» va turk xoqonlarining yodnomalari, mintaqa xalqlarining boy maʼnaviy merosi bu asar magʻziga singdirilgan. Eng asosiysi, bu kitob islom mintaqa maʼnaviyatining qomusi boʻldi. Firdavsiy «Shohnoma»si mintaqa xalqlarining oʻtmish tarixini badiiy aks ettirsa, Yusuf Xos Hojib asari uning yangi davrdagi holatini badiiy tafakkur qonuniyatlari asosida mujassam etdi. Muallif oʻz asarini «Shohnomayi turkiy» deb shuhrat topganini aytadi, bu qiyos shu maʼnoda toʻgʻriki, oʻtmishda mintaqa eroniy hukmdorlar – Kayoniy va Sosoniylar hukmida boʻlgan boʻlsa, Yusuf davrida Sosoniylar mulki turkiy hukmdorlar qoʻliga oʻtgan edi. Bolasogʻundan Bagʻdodgacha turkiy sulolalar hukm surar edilar. Shu sababli endi sulolalar tarixi emas, davlat boshqarish odobi muhim edi. Asarning yana boshqa shuhrat topgan nomlari «Adab ul-Muluk» («Hukmdorlar odobi») va «Oyin ul-mamlakat» («Mamlakatni idora etish qoidalari») xuddi shu jihatni aks ettirar edi.

Doston mazmuni shoir tasavvuridagi shunday bir badiiy olamni aks ettiradiki, uning asosiy qahramonlari 4 timsoldan tashkil topgan. Birinchisi, Adolat – u bosh hukmdor, uning nomi Kuntugʻdi, u quyoshdek barchaga barobar nur taratadi. Ikkinchisi, Davlat – turkiyda Qut, u bosh vazir, uning ismi Oytoʻldi. Qut yoki Davlat ichki mazmuniy tushuncha boʻlib, Boylik, Baraka, Omad, Baxt, Quدرات maʼnolarini oʻzida jamlagan, hukmdorning tayanchi, uning beliga quvvat, koʻziga nur, mulkiga farovonlik baxsh etuvchi bosh maslahatchi va nozir. Ammo Oytoʻldining umri foniy, Davlat, Baxt, Omad degan narsalar poydor emas, osmondagi Oy singari goh toʻlib balqiydi, goh Hilol singari noziklashib, quvvatdan ketadi, orada koʻrinmay qolishi ham mumkin. Oytoʻldi asar davomida xastalanib vafot etadi. Ammo uning vorisi, oʻgʻli

O'gdulmish uning o'rinbosari, hukmdorning yaqin maslahatchisi bo'lib qoladi. O'gdulmish Aql va Bilim ramzi. Agar Boylik, Omad, Baxt o'tkinchi bo'lsa, kishi qo'lida doimiy turmasa, Aql va Bilim ularning o'rini bosa oladi. Asli asarning bosh qahramoni O'gdulmish, ya'ni Aql va Bilimdir. Shu sababli kitobning asl nomi ham «Qutadg'u bilig» («Baxtga eltuvchi bilim»). Baxt, qut-baraka, omad, qudrat manbasi bo'lmish bilim bilan bog'liqdir. Asardagi to'rtinchi timsol — Qanoat. Agar insonda, jamiyatda qanoat bo'lmasa, uning barcha xosiyati bir pul, oqibati ayanchlidir. Qanoatning ismi O'zg'urmish bo'lib, u Oyto'ldining, ya'ni Baxt va Davlatning, O'gdulmishning, ya'ni Aql va Bilimning qarindoshidir. Ammo Oyto'ldi qarindoshini eslamaydi. Baxt va Omad Qanoatni xotirga keltirmaydi. Hukmdorga (Elig deb ataydi Yusuf hukmdorni) O'zg'urmish qarindoshi haqida O'gdulmish eslatadi, ya'ni Adolat Aql yordamida Qanoatdan xabar topadi va uning suhbatini istaydi. Asar oxirida O'zg'urmish ham xastalanib vafot etadi. Kuntug'di va O'gdulmish, ya'ni Adolat va uning bosh maslahatchisi Aql qoladilar.

Bular islom ma'naviyatining bosh timsollari edi. «Qutadg'u bilig»ning ayricha ahamiyati ana shunda.

Yusuf Xos Hojib tasavvuf g'oyalariga, haqiqiy taqvo egalariga yuksak ehtirom bilan qaraydi, ammo jamiyat, xalq baxti uchun, Adolat tantanasi uchun o'z umrini bag'ishlash uning bosh yo'nalishi bo'lib qoladi. Uning suyuqli qahramoni O'gdulmish — Aql va Bilim egasi, umrini Adolat xizmatiga bag'ishlagan shaxsdir.

«Qutadg'u bilig» qahramonlari faqat to'rt kishi emas, uning asari badiiy umumlashmalarni hayotdan uzib aks ettirgan deb bo'lmaydi. Doston hayot haqiqatlari bilan to'lug'dir. Unda o'sha davr turmushining barcha qirralari, ikir-chikiri, ziddiyatlari o'z ifodasini topgan. Yusuf Xos Hojib o'zining yuksak o'y-xayollarini ajoyib timsollarda ifodalar ekan, hayotdan bir zum uzilmaydi, davr ziddiyatlaridan ko'z yummaydi, jamiyatdagi barcha tabaqa, toifalarga xos fazilat, qusurlar, ijtimoiy ahvolni aniq idrok qiladi.

«Qutadg'u bilig» kitobi avom xalq uchun emas, birinchi navbatda, xoqon va beklar, ya'ni yurtning hukmdorlari uchun atab yozilgandir. Turkiy sulolalar butun islom mintaqasida hukmfarmo bo'lib kelayotgan bir paytda, ijtimoiy jihatdan «Shohnoma»dan ko'ra «Qutadg'u bilig», ya'ni «Hukmdorlar adabnomasi» ko'proq zarur va bu kitob aynan turkiy

tilda yozilmog'i kerak edi. Yusuf Xos Hojib ushbu ijtimoiy zaruratni vaqtida anglab yetdi; unga yuksak saviyada javob bera oldi. Uning asarini turkiy hukmdorlar qay darajada o'qidi va o'zlashtirdi, bu boshqa masala. Abu Ali Hasan Xorunxon uni yaxshi qabul qilgani, shoirni munosib taqdirlagani Kuntug'di va Oyto'ldi timsollari hayotiy haqiqatga ancha muvofiq kelganini ko'rsatadi.

O'sha davr ijtimoiy, axloqiy voqeligining juda ko'p, xilma-xil jihatlari asar mazmuniga singdirilgan. Ayniqsa, Kuntug'di va O'gdulmish suhbatlariga bag'ishlangan 15–25-boblar, O'gdulmish va O'zg'urmish suhbatiga oid 31–53-boblar davrning barcha ijtimoiy toifalari ahvol-ruhiyati, jamiyatdagi o'mi, fe'l-atvori haqida mufassal tasavvur beradi, ularga hukmdor va davlat ayonlarining adolatli munosabati qanday bo'lishi kerakligini tushuntiradi.

Yusuf Xos Hojib jamiyatni tubdan o'zgartirishni emas, muvofiqlashtirish, uyg'unlashtirish, takomil baxsh etishni maqsad qilib qo'yadi. Chunki XI asr islom jamiyatining shakllanib, yuksalib kelayotgan davri bo'lib, unda takomillashtirish takliflari o'rinli edi.

«Qutadg'u bilig»ning badiiyligi juda yuqori. Undagi har bir qirra, voqealardagi hayotiylik va shoir xayoli o'zaro nihoyatda uyg'un. Shoirning tasvirlari yorqin, tili nihoyatda shirali, mazmunga boy. Islom mintaqa she'riyatining eng asosiy uslubi xususiyati — har bir baytning mustaqil tasviriy, timsoliy birlik darajasiga ko'tarilish talabi Yusuf tomonidan to'la his qilingan va amalga tatbiq etilgan. Uning juda ko'p baytlari hikmatli so'z (aforizm) darajasiga ko'tarilgan. Har bir bayt tugal tasvir (yaxlit obraz) beradi. Asar tavid yoki yagona Alloh hamdi bilan boshlanadi. 32 baytli bu bobda islomning bosh tushunchasi har taraflama tavsiflab berilgan.

Xullas, turkiy tilda yaratilgan bu buyuk asar mintaqa adabiyoti rivojining birinchi bosqichi uchun ma'lum ma'noda yakunlovchi asar bo'ldi. Bu bosqichning o'ziga xos ikki jihatini qayd etib o'tmoq kerak.

Birinchidan, bu davrda ilm-fan va yozma badiiy adabiyot asosan turli hukmdorlar saroyi qoshida, ular homiyligida rivoj olib, gullab-yashnadi. Agar Abbosiy xalifalar saroyida arab tilidagi she'riyat, Somoniy va G'aznaviylar huzurida fors tilidagi adabiyot panoh topgan bo'lsa, Qoraxoniylar dargohida turkiy she'riyatning buyuk namunasi dunyoga keldi.

Ikkinchidan, bu adabiyotning o'ziga xos tomoni ma'rifatchilik edi. Nafaqat adabiyot, balki bu davrning butun ma'naviyatida yetakchi ruhni

aqlga tayanish, bilimga chorlash, ijtimoiy adolat, marg'ub axloqni aql, zakovat kuchi bilan o'rnatishga ishonch tashkil qililar edi. Bu adabiyot birinchi navbatda hukmdor tabaqaga, beklar, zodagonlarga mo'ljallangan va o'shalarga to'g'ri yo'lni ko'rsatishni maqsad qilgan edi.

MAHMUD KOSHG'ARIY

(XI asr)

Mahmud Koshg'ariy Markaziy Osiyoda ilk o'rta asr madaniyatining buyuk arboblardan bo'lib, tilshunoslik sohasida, xususan, turkiy tillarni o'rganish sohasida mashhur bo'ldi va tarixda o'chmas iz qoldirdi.

Mahmudning otasini ismi Husayn, bobosi Muhammad bo'lib, kelib chiqishiga va tiliga ko'ra Koshg'ariy nisbatini olgan. U XI asrda tug'ilib, yashab ijod etdi. Bu davrda Movarounnahrda Somoniylar o'rnini Qoraxoniylar sulolasi egallagan, turkiy adabiy til mintaqada keng urf bo'la boshlagan edi. Hatto Abbosiylar xalifaligi markazlarida, azaldan arab va boshqa somoniy xalqlar yashab kelgan o'lkalarda turkiy elatlar namoyandalari ko'payib, turkiy tilga e'tibor oshgan edi. Mahmud Koshg'ariy ham o'zining uzoq yillar davomida bunyod etgan «Devonu lug'atit turk» kitobini hijriy 469(1074/75)-yilda tugallab, abbosiy xalifalar avlodidan bo'lgan baland mavqeli Abulqosim Abdulloh binni Muhammad al-Muqtadoga bag'ishlagan. Asarning asosiy matni o'sha davrda keng mintaqada musulmon Sharqida, butun Yaqin va O'rta Sharqda din, fan tiliga aylangan arab tilida yozilgan bo'lib, turkiy tilning boyligini, mazmunda va rang-barangligini tushuntirish uchun yozilgan, deb taxmin qilish mumkin.

Mahmud Koshg'ariy Bolosog'unda tug'ilib, shu yerda yigitlik chog'larini kechirgan bo'lsa ham, uzoq yillar «Yuqori Chindan boshlab butun Movarounnahr, Xorazm, Farg'ona, Buxoro, hozirgi Shimoliy Afg'onistonga qadar cho'zilgan» turkiy o'lkalarni, turkmanlar, o'g'uzlar, chigillar, yag'molar, qirg'izlarning shaharlarini, qishloq va yaylovlarini kezib chiqdi, turli sheva va lahja xususiyatlarini o'rgandi, ularni adabiy til bilan chog'ishtirdi, o'z ishi uchun nihoyatda boy material to'pladi. Lug'at tuzishda arab tilshunoslari yaratgan an'anadan unumli foydalangan holda, ishga ijodiy yondashdi, birinchi navbatda, turkiy til qonuniyatlarini inobatga olib, kitobiga tartib berdi.

Koshg'ariy asari, o'zi ta'kidlashicha, «oldin hech kim tuzmagan va hech kimga ma'lum bo'lmagan alohida bir tartibda» tuzilgan. Unda ko'p shevashunoslikka oid qiyosiy qoidalar, grammatik, morfologik, leksik, semantik alomatlar ko'rsatilgan. Asar foydalanuvchilarga osonlik tug'dirish uchun sodda va lo'nda yozilgan. Unda qadim turk alifbosi, fonetik qonuniyatlar, orfoepik va orfografik qoidalar puxta tushuntirib berilgan. Lug'atda turkiy so'z tuzilishi an'analari, jumladan, so'z tartibi, fe'l shakllari, so'z etimologiyasiga oid fikrlar bayon etilgan. Muallif ko'rsatishicha, kitob 8 bo'limdan, muqaddima va xulosadan iborat. Har bir bo'limda ot-ism so'zlar, fe'llar qulaylik uchun alohida ajratib berilgan. «Devon»da 7500 dan oshiq turkiy so'z va iboralar izohlangan. «Devonu lug'atit turk» ham adabiy til, ham asosiy turkiy shevalarni qamrab olgan bo'lib, undagi adabiy til, sheva unsurlari nisbati o'rtacha adabiy tildagi 10–12 so'zga, shevaga oid bir so'zga to'g'ri keladi, ya'ni umumturkiy adabiy tilga ayricha ahamiyat ajratilgan. Bu holat o'sha davr islom mintaqasida turkiy adabiy til qancha keng tarqalgani va mustahkam mavqega ega bo'lganini tasdiqlovchi qat'iy dalildir. Lug'atda yuzlab kishi ismlari, shahar va qishloq, o'lka nomlari, daryo, tog', yaylov, vodiy, dara, yo'l, dovon, ko'l, soy kabi geografik atamalar, turli qabila, urug', elat, sayyora, yulduzlar, fasllar tilga olinadi. Unda izohlangan grammatik ko'rsatkichlar morfemalar hisobi ham mingga yaqin.

Turkiy xalqlar tarixiga oid qadimiy afsona va rivoyatlar, 300 ga yaqin maqol va matallar, hikmatli so'zlar, 700 satrdan oshiq she'riy parchalar ushbu asar sahifalaridan o'rin olgan. She'riy parchalarning ko'p qismi turkiy xalqlar og'zaki ijodiga xos to'rtliklardan iborat. Ammo «Devon»da keltirilgan she'riy satrlardan 150 satrga yaqini islom davri she'riyatiga xos bo'lgan «bayt» tipidagi masnaviy, qasida, g'azal, qit'a parchalari bo'lib, ularni Koshg'ariy o'zi ham ko'pincha «bayt» deb ataydi. Kitobda 7 ta epik doston, ishqiy qo'shiqlar, pandnomalar, koinot yaratilishiga oid asotir, she'rlar, tabiat manzaralari tasviri, madhiyalar, falsafiy mushohadalar uchraydi. Koshg'ariy devonida keltirilgan VIII–XI asrlarga oid turkiy she'riyat namunalarida u yoki bu darajada aruz vazniga o'tish moyilligi seziladi. Aruzning rajaz, ramal, munsarih, hajaz, basit, qarib, muta qarib vaznlari turkiy she'riyat namunalarida ishlatilgan bo'lib, ayniqsa rajaz bahridan keng foydalanilgan (44 parcha). Bunday she'rlarni muallif o'zi alohida urjuzalar deb nomlaydi. Ular turkiy xalq she'riyatida keng tarqalgan bo'lib, bu bahr

ohangi turkiy she'riyat tabiatiga mos kelishidan bo'lsa kerak. «Devon»dagi epik doston-qo'shiqlar ko'proq jangnoma xarakterida bo'lib, ba'zi yirik parchalarga shartli ravishda «Tangutlar bilan jangnoma», «Uyg'urlar bilan jangnoma», «Yabaku bilan jangnoma» deb nom qo'yilgan. Ular o'z mazmuniga ko'ra arablarning johiliya davridagi qabilalararo janglari tasvirlangan epik rivoyatlariga o'xshab ketadi, faqat arablarda bu janr nasriy, turkiy xalqlarda esa she'riy shakl ustundir. Ularda turkiy elatlarning shijoati, qiyinchiliklarga bardoshi, jasurligi, harbiy hiylalar, siyosiy kurash, elparvarlik, mardlik, hikmat, mehr va qahr tuyg'ulari jonli, go'zal misralarda tavsif etilgan. Shu bilan birga qabilaviy boshboshdoqlik, o'zaro nizo-advatlardan o'kinish, birlashishga, ittifoqqa intilish mayllari ham sezilib turadi. Buyuk turk xoqonligining tushkunlik holati, yagona birlashtiruvchi g'oyaning yetmasligi ushbu qo'shiqlar ko'proq islomdan ilgari og'zaki she'riyat namunalarini ekanidan darak beradi. Qadimgi epik qo'shiqlardan «Devon»da saqlangan ikki yirik asar ko'pchilikning diqqatini tortib keladi. Bularning biri «Alp Er To'nga marsiyasi» va ikkinchisi — «Qish va yoz» munozarasidir. Marsiya 44 satrdan iborat. Unda ma'lum ma'noda turkiy el o'zining sevimli qahramoni, xoqoni va yo'l boshchisigagina emas, boy berilgan imkoniyatlari, parchalangan elati, tushkunlikka yuz tutgan turkiy saltanatdagi ma'naviy yo'lsizlik holatiga ham ko'z yosh to'kadi, motam qiladi. Bu qo'shiq xalq og'zaki ijodidagi «yig'i» janrining adabiy lashgan namunasi desa bo'ladi. «Qish va yoz» munozarasi turkiy munozara janrining bizgacha yetib kelgan birinchi yorqin namunasi bo'lib, unda turkiy elatlarning butun tabiati, yashash, tafakkur tarzi, sevinchlari, qayg'ulari batafsil aks etgan. Ayniqsa, tabiatga mehr go'zal ifoda topgan. Asar majoziy tasvirlar, tashbehtar, istioralar, jonlantirish va yengil kinoyalarga boy. Uni o'qiganda chorvador turkiy elatlar hayoti, faoliyati, tabiiy muhit ko'z oldingizda yaqqol gavdalanadi:

Alin topu yashardi
 Urut o'tin yashirdi,
 Ko'lning suvin kushardi,
 Sigir buva mungrashur.

Mazmuni:

Tog' boshlari yashardi,
 Qurug' o'tni yashirdi,

Ko'l suvlari toshurdi,
Sigir, buqa ma'rashur.

Bu bahor tasviri. Qish tasviri aksincha:

Keldi asin asnayu,
Qozqa to'pal usnayu.
Kirdi budun qusnayu,
Qara bulit ko'krashur

Mazmuni:

Keldi shamol huvillab,
Bo'ron bo'lib g'uvillab,
Xalq titrashur uvillab,
Qora bulut gulditar.

Bu manzaralar chorvadorlar hayoti uchun islomdan oldingi davrda ham, keyinchalik ham xarakterli edi. Bu janrda jangnoma va marsiyalar singari dramatism ruhi juda kuchli. Shu bilan birga romantik surur ham mavjud.

Devonda islom davr she'riyati asosan ishqiy, falsafiy-didaktik, madhiyaviy qasida va she'r namunalarini bilan namoyon bo'lgan. Unda ham mazmun, ham shakliga ko'ra Ahmad Yugnakiy dostoniga asos bo'lgan to'rtliklarni eslatuvchi «aaba» qofiyali o'n bir hijoli parchalar uchraydi:

Yag'a erur yo'liguqin nangi tavar,
Bilig eri yig'isin nelik sevar,
Tavar yig'ib suv aqin indi saqin,
Ko'rum kabi izisin qo'di suvar.

Mazmuni:

Dushman erur insonga mol-u tovar,
Olim odam yovini qanday sevar,
Mol yig'ishni sel kelish deb
Mol egasini tosh kabi yumalatar.

«Devon»dagi birgina madhiyaviy qasidadan parcha ayol kishiga — malikaga bag'ishlangan. U tashakkurnoma yo'simda yozilgan bo'lib, aruz vaznining «munsari» bahriga to'g'ri keladi. Falsafiy-didaktik qasida va masnaviyalar pandnoma yo'sinida bo'lib, turkiy elatlar ma'naviyatiga xos

bo'lgan bunday yo'nalish «Devon»da ko'proq aks etgan. Ularda ilm o'rganish tashviq etiladi, jaholat, kibr-u havo qoralanadi, saxovat va himmat, mehmondo'stlik ulug'lanadi, mol-dunyoga hirs qo'yish, baxillik va ochko'zlik fosh qilinadi, ota-onani hurmatlash, ularning so'ziga quloq osishga da'vat etiladi. «Devon»da mardlikni ulug'lash, hushyorlikka, dushmandan ehtiyot bo'lishga chaqiruvchi baytlar ham pand-nasihat qatorida uchraydi:

Bilga eran savlarin alg'il o'gut,
Ezgu savi ezlasa o'zga singar.
Ardagi tila o'rganing, bo'lma quvaz,
Ardashsizin — o'gunsang angma angar.

Mazmuni:

Olim kishi so'zidan olgil o'git,
Ezgu so'zni eshitsang dilga singar.
Ilm-hikmat o'rganing, bo'lma qaysar,
Himmati yo'q maqtanchoq yo'l yo'qotar.

Bu ilm-hunarga tashviq, olimga hurmat haqida bo'lsa, quyidagi bayt mehmondo'stlik xususida:

Kelsa qali yag'lig' bo'lib yo'nchig' uma,
Kelur anig' bo'lmish anig' tutma uma.

Mazmuni:

Kelsa agar xonang uzra g'arib mehmon,
Bor narsangni oldiga qo'y, bo'l mehribon.

«Devonu lug'atit turk»da keltirilgan qasida va qatralar mazmun jihatdan o'sha davrning turkiyzabon shoiri Yusuf Xos Hojib dostoni mavzulari bilan juda uyg'unidir. Shu jihatdan ham undagi parchalarni Ahmad Yugnakiyning «Hibat ul-haqoyiq»iga va Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asari orasidagi davr she'riyatiga mansub ekanligini tan olish mumkin. Hatto dunyoning o'tkinchi va bevafoqligi, inson taqdirining o'zgaruvchanligi haqidagi misralar ham bu tasavvurni ta'kidlab turadi:

Ko'zum yashi savruqub quzi aqar,
Bilnib ajun emgagin tugal uqar,
Emgaksizmi turg'u yo'q munda tamu,

Ezgulugug ko'rmazib ajun chiqar,
Ajun kuni yo'lduzi tutchi tug'ar.

Mazmuni:

Ko'zim yoshi tirqirab quyi oqar,
Anglab dunyo g'amini tugal uqar,
Mashaqqatsiz hayot bunda aslo,
Ezgulikni ko'rmasdan ulur bitar,
Tug'ilgan zot dunyoda mangu porlar.

«Devon»dagi she'larning badiiy saviyasi yuqori ekanligi, ularni yaratgan shoirlarning juda ma'lumotli bo'lgani, nafis va chuqur badiiy didga ega ekanligi olimlar tomonidan ta'kidlanadi.

Mahmud Koshg'ariy asarida dunyo xaritasi doira shaklida chizib ko'rsatilgan. Uning markazida Markaziy Osiyo joylashgan. Bolosog'un, Shosh, O'zgan, Isfijob, Marg'inon kabi shaharlar ushbu hududga aloqador ko'rsatilgan. XI asr geografik tasavvurlaridan darak beruvchi xaritaning ilova qilinishi Koshg'ariyning qomusiy alloma ekanini yana bir marta isbot etadi.

Xulosa qilib aytganda, Mahmud Koshg'ariyning islomdan ilgari va ilk islom davri turkiy madaniyat obidalarini tadqiq etish, to'plash va avlodlarga yetkazib berishdagi xizmatlari nihoyatda ulkandir. Uning tarix, etnografiya, tarix-geografiya xususidagi keng bilim doirasi, til va adabiyot sohasidagi qomusiy salohiyati, tadqiq qudrati bugungi kunda ham hayratlanarli darajada edi. Uning kitobida jamlangan aniq-ravshan ma'lumotlar VIII–XI asrlar ham turkiy adabiy til va badiiy adabiyotning, ham og'zaki xalq ijodi va turli lahjalarning boy manbayi bo'lgani sababli imkon doirasida batafsil tavsif etildi.

«Devonu lug'atit turk»ni o'sha davrlarda Markaziy Osiyo mintaqasida yashagan turkiy xalqlar hayoti haqidagi qomusiy asar deb atash mumkin. Bu asar ustida tadqiqotlar olib borgan Fitrat, S. Mutallibov, I.V.Stebleva, V.V.Reshetov, G'. Abdurahmonov, A. Rustamov kabi olimlar Mahmud Koshg'ariyning qadimgi turkiy tillarni o'rganishga buyuk hissa qo'shgan o'z davrining o'ta bilimdon olimi ekanligini ta'kidlaydilar. «Devonu lug'atit turk» 3 jildda, o'zbek tilida nashr etilgan. Hozirgi zamon jahon ilmiy jamoatchiligi XI asr buyuk olimi Mahmud Koshg'ariyning qiyosiy tilshunoslikning asoschisi, deb tan oladi.

ABU AL-MU'IYN AN-NASAFIY (1027–1114)

Abu al-Mu'iyin an-Nasafiy nomi bilan mashhur bo'lgan allomaning to'liq nomi Maymun ibn Muhammad Mu'tamid ibn Makhul bo'lib, 1027-yilda Nasaf (Qarshi)da tavallud topgan. Uzoq yillar Buxoro va Samarqandda yashab ijod etgan olim haqidagi ayrim ma'lumotlarni nasaflik boshqa bir olim — Umar ibn Muhammad an-Nasafiyning «Al-qand fi zikri ulamoi Samarqand» («Samarqand olimlari zikrida qanddek (shirin) kitob») nomli asarida uchratish mumkin. Asarda keltirilishicha: «Sharq-u G'arbning olim-u ulamolari Abu al-Mu'iyin an-Nasafiy ilmining dengizidin bahra topib, ul taratg'on ziyo nurlarini ko'zlariga to'tiyo qilib surtg'onlar». Alloma 1114-yili — 87 yoshida Samarqandda vafot etgan.

IX–X asrlarda islom keng tarqalgan Yaqin va O'rta Sharq, Markaziy Osiyo o'lkalarida islom ilohiyoti, falsafasi, kalom ilmi rivoj topdi. Bu sohalarga bag'ishlangan qator asarlar va kalom masalasi bilan shug'ullanuvchi yirik mutakalimlar vujudga keldi.

Kalom ilmining bir qancha yo'nalishlari bo'lib, ulardan al-ash'ariyya va al-moturidiyya yo'nalishlari g'oyatda keng tarqalgan. Al-ash'ariyya maktabining asoschisi bag'dodlik olim Abdul Hasan al-Ash'ariy (873–935), al-moturidiyya maktabining asoschisi samarqandlik taniqli olim Abu Mansur al-Moturidiy (870–944) ta'limotidan saboq olgan an-Nasafiy, asosan, al-moturidiyya maktabiga mansub G'azzoliyning maslagiga amal qilgan olimlardan hisoblangan. O'z navbatida, al-Iyjiy (vafoti 1355-yil), Sa'duddin at-Taftazoniy (vafoti 1390-yil) va boshqa ko'plab taniqli olimlar an-Nasafiy ta'limotiga tayangan holda faoliyat ko'rsatib, kalom ilmida barakali ijod etib, yetuk olimlar darajasiga ko'tarilganlar.

Manbalarda keltirilishicha, an-Nasafiy o'n beshga yaqin asar yaratgan bo'lib, ularning aksariyati kalom ilmining turli masalalariga bag'ishlangan. Ular quyidagilardir: «Al-U'mda fi usul al fiqh», «Bahr al-kalom fi i'lm al-kalom», «Tabsirat al-adilliti fi i'lm al-kalom», «At-Tamhiyd li-qavoi'd at-tavhiyd fi i'lm al-kalom», «Al-O'lim val-muta'llim», «Iyzoh al-mahajatiy li-kovn al-aql hujjatan», «Sharh al-Jomi' al-Kabir lish-Shayboniy fi furu'», «Manoxij al-aimmati fil furu'», «Mu'taqidot» (Toshkentdagi Abu Rayhon Beruniy nomli Sharqshunoslik institutida Abu al-Mu'iyin an-

Nasafiyning bu asaridan bir qo'lyozma saqlanadi (inv. № 40008/2) Arab tilida yozilgan ushbu asar 52 varaqdan iborat).

Allomaning «Bahr al-kalom» asari alohida ahamiyatga egadir. Asarning oltinchi bobidagi fasl (bo'lim) to'rt banddan iborat bo'lib, ulardan birinchisi «al-Imomat» (Imomlikka oid) deb atalgan va shu bandda keltirilgan Payg'ambar alayhissalomning ikki hadisi katta ilmiy ahamiyatga ega. Birinchisi, «Iqtadu bil-laziyna min ba'diy Abu Bakr va Umar» (bu hadislarni Imom at-Termiziy, Imom ibn Moja, Ahmad ibn Hanbal va boshqa bir qancha muhaddislar o'z asarlarida rivoyat qilganlar.) – «Mendan keyin Abu Bakr va Umarga iqtido qilinglar», degan bo'lishiga qaramay, xalifalik ustida ikki kun bahs bo'lgan.

Ikkinchi hadisdagi «Mendan keyin xalifalik o'ttiz yil, undan keyin amirlik, podshohlik va hokozolar bo'ladi», degan fikrlari naqadar to'g'riligini alohida qayd qilish zarur. Chindan ham bu muddat (ya'ni o'ttiz yil) choryorlar paytida tugagan. Bu kitob kalom ilmi bo'yicha al-moturidiyya maktabining asosiylaridan biri hisoblanadi. Chunonchi bu asar ash-shayx Abu Mansur al-Moturidiy asos solgan islomiy aqidaning eng bosh manbalaridan sanaladi. Ayniqsa, islom dinida turli-tuman oqimlar va ta'limotlar yaratilayotgan hozirgi paytda bu asarning ilmiy-amaliy ahamiyati beqiyos darajada kattadir.

Abu al-Mu'iy an-Nasafiy o'z kitobini yaratishda asosiy manba sifatida Imom Abu Mansur al-Moturidiyning «At-Tavhid», Imom Abul Hasan al-Ash'ariyning «Al-Lam'a», «Maqolot al-Islomiyin», Imom al-Haramayn, Imom Abu al-Maoliy Abdulmalij al-Juvayniyning «al-Irshod» asarlaridan foydalangan.

«Bahr ul-kalom» asari alloma ijodining gultoji hisoblanib, islom dini falsafasini tashkil qilgan kalom ilmi bo'yicha eng qimmatli manbalardanidir. Bu kitobning bir qancha qo'lyozma va kitobiy nashrlarining mavjudligi ham uning muhim manbalardan ekanligidan dalolat beradi va uning qimmatli qo'lyozma nusxalari Dubaydagi Jum'a al-Mojid nomli madaniyat va meros markazida (1167-hijriy yilda ko'chirilgan), Damashqdagi az-Zohiriya kutubxonasining qo'lyozmalar bo'limida, Bag'doddagi «Maktabat al-Avqof»da, Qohiradagi mashhur «Dor ul-kutub»ning qo'lyozmalar bo'limida saqlanadi. Ushbu qo'lyozmaning 950-hijriy yilda oddiy xat bilan ko'chirilgan nusxasi Iskandariya (Misr)ning «Maktabat al-baladiyya» nomli kutubxonasida ham bor. Asar muhim

manba sifatida ikki marta nashr ham etilgan. Jumladan, 1886-yili Bag'dodda, 1908-yili Qohirada chop etilgan. Lekin ushbu nashrlar ta'dqiqotsiz amalga oshirilgan bo'lib, faqat asar matnidan iborat.

«Bahr ul-kalom»ga ayrim sharhlar ham bitilgan. Jumladan, Olim Badruddin Hasan Ibn Abu Bakr Ahmad al-Makdisi (1415-yili vafot etgan) asarga bag'ishlagan sharhini «G'oyat al-marom fi sharhi «Bahr al-kalom» deb atagan. Bu sharhning bir qo'lyozma nusxasi Qohiradagi «Dor ul-kutub»da, boshqasi Misrdagi «al-Maktabat al-Hadyavaya»da saqlanadi. Taniqli arab olimi Hoji Xalifa ham o'zining mashhur «Kashf uz-zunun» asarida «Bahr ul-kalom»ga yozilgan faqat shu sharh haqida zikr qilgan, xolos.

Sirasini aytganda, buyuk vatandoshimiz Abu al-Mu'iyin an-Nasafiy hayoti va ilmiy merosini har tomonlama chuqur o'rganish madaniyatimiz tarixini yoritishda katta ahamiyatga egadir.

MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIY (1075–1144)

Ko'hna Xorazm zaminida jahon fani va madaniyati rivojiga munosib hissa qo'shgan ko'plab buyuk allomalar yetishib chiqqan. Abul Qosim az-Zamaxshariy ana shunday ulug' siymolardan biridir.

Allomaning to'liq ismi Abul Qosim Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariy bo'lib, u hijriy 467-yil rajab oyining 27-kuni (1075-yil 19-mart) Xorazmning katta qasabalaridan biri — Zamaxshar qishlog'ida tavallud topdi. Az-Zamaxshariy haqidagi ma'lumotlar, asosan, o'rta asr arab manbalarida keltiriladi. Otasi unchalik badavlat bo'lmasa-da, savodli, taqvodor, diyonatli kishi bo'lgan va aksar vaqtini Qur'on tilovati-yu namoz o'qish bilan o'tkazib, Zamaxshardagi bir masjidda imomlik ham qilgan. Az-Zamaxshariyning onasi ham taqvodor, dindor ayollardan hisoblangan.

Aftidan, az-Zamaxshariyning otasi serfarzand bo'lgan. Chunonchi, shoir qasidalaridan birida otasining farzandlari ko'p va oilasi katta bo'lgani tufayli ham tirikchilik yo'lida tinmay mehnat qilgani haqida yozadi.

Az-Zamaxshariylar oilasi islomning mu'taziliy ta'limotiga mansub bo'lib, yosh Mahmudning dunyoqarashi mana shu dindor, taqvodor otasining ta'sirida shakllandi va dastlabki bilimni ham o'z otasidan oldi.

Alloma haqidagi ma'lumotlardan ma'lumki, uning bir oyog'i yog'ochdan bo'lib, tarixchilar bu haqda: «Bir oyog'i yog'ochdan edi va uzun yaktagini tushirib kiygani uchun ko'rgan odam uni cho'loq deb o'ylardi» — deb yozganlar. Og'ir illat tufayli u yoshligidan bir oyoq bo'lib qolgan va shundan so'ng otasi uni endi og'ir mehnatga yaramaydi, deb kiyim tikuvchi ustaga shogirdlikka bermoqchi bo'ladi. Biroq yoshligidan ilmga havasmand o'sgan Mahmud otasidan o'zini madrasaga o'qishga yuborishni so'raydi. O'g'lidagi ilmga bo'lgan zo'r ishtiyiq va havasni sezgan otasi uni madrasaga beradi.

Az-Zamaxshariy ilm-fanning turli sohaları bilan qiziqib, tolibi ilmlar orasida zo'r iste'dodini namoyon qila boshlaydi. U madrasada o'qitiladigan ilmlarni, ayniqsa, arab tili va adabiyoti, diniy ilmlarni puxta egalashga kirishadi, o'sha davrda ilm ahli orasida qadrlangan xattotlik san'atini ham mukammal egallab, o'z tirikchiligini birqadar tuzatadi. So'ng, arab tarixchisi va biografi Ibn Xallikonning yozishicha, talabalik yoshiga yetgach, bilimni yanada oshirish, har tomonlama kamol toptirish maqsadida Buxoroga yo'l oladi. Buxoro, mashhur olim Abu Mansur as-Saolibiyning (961—1138) iborasi bilan aytganda: «Somoniyler davridan boshlab shon-shuhrat makoni, saltanat ka'basi va zamonasining ilg'or kishilari jamlangan: yer yuzi adiblarining yulduzlari porlagan va o'z davrining fozil kishilari yig'ilgan (joy) edi». Az-Zamaxshariy Buxoroda o'qishni tugatgach, bir necha yil Xorazmshohlar xizmatida bo'lib, kotiblik bilan shug'ullanadi, hukmdorlar bilan yaqinlashishga urinadi. Biroq qobiliyati, ilmi, fazilatiga yarasha biror mansab va munosib e'tibor ko'rmagach, o'zga yurtlarga safar qiladi, matlab-u maqsadlarining ushalishiga umid bog'laydi. 1118-yili az-Zamaxshariy og'ir dardga chalinadi, bu kasallikdan tuzalgach esa hukmdorlar xizmati-yu mansab va mol-dunyo ta'masidan mutlaqo voz kechadi, qolgan umrini faqat ilm-fanga bag'ishlashga, asarlar ta'lif etishga astoydil qaror qiladi.

Az-Zamaxshariyning o'z davri ilmlarini to'liq egallashga, olimlik darajasiga yetishishida, shubhasiz, ustozlarining xizmati benihoya katta bo'lgan. Mana shunday ustozlardan biri — til, lug'at va adabiyot sohasida mashhur olim Abu Mudar Mahmud ibn Jariyr al-Dabbiy al-Isfahoniydir (1113-yili Marvda vafot etgan). Al-Isfahoniy Xorazmda ham bir qancha muddat yashagan. Bu o'lkada mu'taziliylar ta'limotining joriy bo'lishi ham



mana shu Al-Isfahoniy nomi bilan bog'liqdir. Az-Zamaxshariy Bag'-dodda shayx ul-islom Abu Mansur Nasr al-Xorisiy, Abu Saad anli-Shaqqoniy, Abul Xattab ibn Abul Batar kabi mashhur olimlardan hadim ilmidan tahsil oldi. Makkada bo'lganida esa nahv va fiqh bo'yicha ilmi Abu Bakr Abdulloh ibn Talxat ibn Muhammad ibn Abdulloh al-Yabiriy al-Andalusiy, ash-shayx as-Sadiyd al-Xayyatiy, lug'at ilmini esa Abu Mansur Mavhub ibn al-Xadar al-Javoliqiy kabi mashhur olimlardan o'rgandi.

Az-Zamaxshariy hayoti davomida Marv, Nishopur, Isfahon, Shom, Bag'dod va Hijozda, ikki marta Makkada bo'ldi. Olim bu yerda ilmiy ishlarini davom ettirdi, arab tili grammatikasi va lug'atini hamda mahalliy qabilalarning lahjalari, maqollari, urf-odatlarini chuqur o'rgandi, bu min-taqa geografiyasiga oid xilma-xil ma'lumotlarni to'pladi.

Adib ko'p asarlarini Makkadaligida yaratadi. O'z hayotida chuqur iz qoldirgan Makkada az-Zamaxshariy besh yilcha yashaydi. Shu boisdan u Jorulloh («Ollohning qo'shnisi») degan sharafli laqabga muyassar bo'ladi.

O'z davrining yirik olimi darajasiga ko'tarilgan az-Zamaxshariyning Xorazmda ham, Sharqning boshqa ko'pgina shaharlarida ham ko'pdan ko'p shogirdlari bo'lgan, alloma ko'p vaqtini o'shalarga bag'ishlardi. U qarindosh-urug'larining qiyin-qistovlariga qaramasdan, hayotida biror marta ham uylanmagan. Ilmiy asarlar yaratish va munosib shogirdlar tayyorlashni farzand o'stirishdan a'lo deb hisoblagan. Az-Zamaxshariy oxirgi marta Makkadan qaytib, Xorazmda bir necha yil yashaydi va hijriy 538-yilda, arafa kechasi (1144-yil 14-aprel) vafot etadi. 1333-yili Xorazmda sayohatda bo'lgan mashhur arab sayyohi ibn Battuta (1304–1377) «Ar-Rihla» («Sayohatnoma») asarida az-Zamaxshariyning ustida qubباسi bo'lgan maqbarasini ko'rganini yozadi.

Buyuk mutafakkir az-Zamaxshariy arab grammatikasi, lug'atshunoslik, adabiyot, aruz ilmi, geografiya, tafsir, hadis va fiqhga oid ellikdan ortiq asarlar yaratgan, ularning aksariyati bizgacha yetib kelgan.

Arab tilshunosligi va grammatikasining turli tomonlariga oid asarlar az-Zamaxshariy ijodida salmoqli o'rin egallaydi. Jumladan, arab tili grammatikasiga oid «Al-Mufassal» (1121-yil) nomli asarini u Makkada yashagan paytida, bir yarim yil davomida yozgan. «Al-Mufassal» arab tili nahv-u sarfini o'rganishda yirik qo'llanma sifatida azaldan Sharqda



ham, G'arbda ham shuhrat topgan asarlardan hisoblanadi. Ko'pchilik olimlar o'z ilmiy qimmatini jihatidan az-Zamaxshariyning bu asari taniqli arab tilshunosi Sibavayhning (796-yili vafot etgan) arab grammatikasiga oid mashhur kitobidan keyin ikkinchi o'rinda turadi, deb ta'kidlaganlar. O'sha davrning o'zidayoq arablar orasida ham bu asar katta e'tibor qozongan va arab tilini o'rganishda asosiy qo'llanmalardan biri sifatida keng tarqalgan. Hatto Shom (Suriya) hokimi Muzaffariddin Muso kimda-kim Az-Zamaxshariyning ushbu asarini yod olsa, unga besh ming kumush tanga pul va sarupo sovg'a qilishni va'da bergan. Bir qancha kishilar asarni yod olib, mukofotga ham sazovor bo'lganligi manbalarda keltirilgan. Bu misol az-Zamaxshariy asarining o'sha davrda ham qanchalik yuksak baholanganini ko'rsatadi. Bu asarning bir qo'lyozmasi Toshkentda, O'zR FA Sharqshunoslik institutida saqlanadi. «Al-Mufassal»ning ichamlashtirilib, muxtasar holga keltirilgan nusxasi «Al-Unmazaj» («Namuna») nomi bilan ataladi. Grammatikaga oid asarlaridan «Sharh abyat kitob Sibavayh» — hozir zikr etganimiz Sibavayhning kitobiga yozilgan mukammal sharhdir. Az-Zamaxshariyning xorazmshoh Alouddavla Abulmuzaffar Otsizga bag'ishlab yozilgan «Muqaddimat ul-adab» asari alohida ahamiyatga egadir. Bu o'rinda shuni ta'kidlash kerakki, xorazmshohlar davrida ilm-fan, madaniyat ancha taraqqiy qilgan edi. Hukmdorlar, ayniqsa, xorazmshoh Otsiz olimlar, shoir-u adiblarga hurmat bilan qarar, o'zi ham iste'dodli, ma'rifatparvar, adabiyotga qiziqqan, bilimdon odam edi. Uning davrida ilm-fan taraqqiyoti yo'lida bir qancha xayrli ishlar amalga oshirilgan. Shu sababdan bo'lsa kerak, az-Zamaxshariy «Muqaddimat ul-adab»ni uning nomiga bag'ishlab yozgan. Asar besh katta qismga bo'lingan bo'lib — otlar, fe'llar, bog'lovchilar, ot o'zgarishlari va fe'l o'zgarishlari haqida bahs yuritadi. Asar 1137-yillari yozib tugallangan.

Az-Zamaxshariy o'z asarida o'sha davr arab tilining iste'molda bo'lgan barcha so'zlari, iboralarini qamrashga intilgan, ularning etimologiyasiga katta e'tibor qilgan. Shu boisdan ham az-Zamaxshariyning bu yirik asarini mazkur yo'nalishdagi dastlabki asarlardan deyishga haqlimiz. «Muqaddimat ul-adab» arabchadan fors, chig'atoy, mo'g'ul va turk tillariga tarjima qilingan. Manbalarda ta'kidlanishicha, asarning chig'atoy tilidagi tarjimasini az-Zamaxshariyning o'zi tomonidan amalga oshirilgan. Zotan xorazmshoh Otsizning tushunishi uchun asarning arabcha matni bilan



birgalikda chig'atoy tilidagi tarjimasi ham yaratilgan, deb bilish o'rinlidir. «Muqaddimat ul-adab» yaratilgan davridan boshlab bir necha asrlar davomida olimlar, tadqiqotchilar diqqatini o'ziga tortib kelayotir. U birinchi marta 1706-yili Xo'ja Is'hoq Afandi tomonidan usmonli turk tiliga tarjima etilgan. So'ngra Ovro'poning bir qancha tillariga (fransuz, nemis) o'girilgan. Parij, Leypsig, Vena, Leyden, Qozon shaharlarida, Norvegiya, Misr va Hindistonda bir necha marta chop etilgan. Nemis olimi Vatzastayn «Muqaddimat ul-adab»ning Ovro'po qo'lyozma fondlaridagi yettita nusxasini qiyosiy o'rganib, 1850-yili Leypsigda asarning ikki jildlik tanqidiy matnini nashr etgan.

Asarning chig'atoy tilidagi tarjimasi o'zbek tili tarixini o'rganuvchilar uchun muhim ahamiyatga egadir. Bu haqda Sadridin Ayniy 1921-yili «Mehnatkashlar tovushi» gazetasiga yozgan maqolasida «Az-Zamaxshariyning «Muqaddimat ul-adab» asari o'zbek tili uchun butun dunyoning xazinasini bilan barobardir», deb yozgan edi.

Az-Zamaxshariy Makka amiri, olim va adib Abul Hasan Ali ibn Hamza ibn Vahhos as-Sulaymon bilan do'st edi. Ibn Vahhos o'z mamlakatining geografiyasi bilan juda yaxshi tanish bo'lgan. Az-Zamaxshariy ibn Vahhos ma'lumotlariga tayanib, o'zining Hijozga qilgan safaridan olgan shaxsiy kuzatishlari asosida yozgan «Kitob al-jibol va-l-amkina va-l-miyoh» («Tog'lar, joylar va suvlar haqida kitob») nomli asarida geografik joylar, tog'lar va dengizlarga doir qimmatbaho ma'lumotlar keltiradi. Mashhur arab olimi va sayyohi Yoqut al-Hamaviy (1179–1229) ham o'zining butun dunyoga taniqli «Mu'jam al-buldon» («Mamlakatlar qomusi») asarida Arabiston, xususan, Hijoz haqidagi ma'lumotlarni az-Zamaxshariyning ushbu asariga tayanib yozgan. Az-Zamaxshariyning bu asari G'arb olimlari o'rtasida ham keng tanilgan, 1856-yili gollandiyalik arabshunos olim Salverda de Grave tomonidan mukammal tadqiq qilingan holda nashr etilgan.

Az-Zamaxshariy adabiyot, tafsir, hadis, fiqh ilmlari bo'yicha ham mukammal asarlar yaratgan.

Olimning «Asos al-balog'a» («Notiqlik asoslari») asari, asosan lug'atshunoslikka bag'ishlangan. Unda arab tilining fasohati, mukammalligi haqida so'z boradi. Fikrni chiroyli ibora va so'zlar bilan ifodalash, so'z boyligidan ustalik bilan foydalanish uchun kishi fasohat, balog'at ilmlaridan yaxshi xabardor bo'lishi kerak. Buning uchun so'zni to'g'ri, o'z

o'rnida ishlatish, qoidaga muvofiq so'zlash va yozish ham kerak bo'lgan. Bu asarlar adabiyotning asosiy qismlari, frazeologik so'z birikmalari, ularni amalda tatbiq etish yo'llari chuqur tahlil qilingan.

«Atvoq uz-zahab fi-l-mavo'iz va l-xutab» («Xutbalar va va'zlar bayonida oltin shodalar») — nasihatimiz maqolalar to'plamidan iborat. Asar birinchi marta 1835-yili olmon olimi Fon Xomir tomonidan nemischaga tarjima qilinib, arabcha matni bilan nashr etilgan. O'ttiz yilcha o'tgach, fransuzchaga tarjima qilinib, 1886-yili Parijda chop etilgan. 1873-yili ham usmonli turk tiliga tarjima qilinib, Istanbulda nashrdan chiqqan...

Az-Zamaxshariyning «Rabi' ul-abror va nusus ul-axyar» («Ezgul bahori va yaxshilar bayoni») asarida adabiyot, tarix va boshqa fanlarga oid hikoyalar, latifalar, suhbatlarning eng saralari jamlangan, 97 bobdan iborat bu asarning nodir bir qo'lyozma nusxasi Toshkentda, O'zR FA Sharqshunoslik institutida saqlanadi. Bundan tashqari, Leyden, Berlin kutubxonalarida ham qo'lyozmalari mavjud.

Olimning aruz vazni haqida bahs yurituvchi «Al-Kustos fi-l-aruz» («Aruzda o'lchov (mezon)») asari muhim manbalardan hisoblanadi. Alifbo tartibida yig'ilgan arab maqollari, masallariga bag'ishlangan boshqa bir asarini «Al-Mustaqso fi-l-amsol» («Nihoyasiga yetgan masallar») deb atagan. «Maqomat» («Maqomlar») — ellik maqomdan iborat bo'lib, qofiyali nasr — saj' uslubining nozik namunalarini o'zida mujassam etgan muhim asardir. «Devon ush-she'r» kitobi ham diqqatga sazovor asarlardan sanaladi. Az-Zamaxshariyning yuksak did bilan yozilgan «Navobig' ul-kalim» («Nozik iboralar») asari esa arab lug'atlarini o'rganishga bag'ishlangan. Bu asar dastlab fransuz tiliga tarjima qilinib, asl nusxasi bilan birgalikda 1876-yili Parijda, 1870-yili Qohirada, 1884-yili Bayrutda, 1896-yili esa Qozonda nashr etilgan.

Az-Zamaxshariyning g'oyatda keng tanilgan «Al-Kashshof an haqiqit it-tanziyl va uyun il-taqoviyl fi vujuh it-ta'viyl» («Qur'on haqiqatlari va uni sharhlash orqali so'zlar ko'zlarini ochish») asari Qur'on tafsiriga bag'ishlangan. Ma'lumki, o'rta asrlardan boshlab Qur'onni tafsir yoki sharh bilan o'qish odat tusini olgan. Shu boisdan ham Qur'on yaratilgan davrdan boshlab unga bag'ishlangan tafsirlar, sharhlar yozishga katta ehtiyoj sezilgan. Turmush taqozosi bilan shunday vaziyatda islom tarixida

Qur'onga bag'ishlangan ko'pdan ko'p tafsirlar, sharhlar vujudga kelgan. Az-Zamaxshariy ham tafsir yozishdan avval o'zidan oldin yaratilgan Qur'on tafsiriga bag'ishlangan ko'plab asarlarni qunt bilan o'rgangan. «Al-Kashshof» az-Zamaxshariy Makkada turgan paytida, uch yil davomida (1332–1334) yozilgan.

Nemis sharqshunosi Karl Brokkelman dunyoning turli qo'lyozma xazinalarida «Al-Kashshof»ning yuzga yaqin qo'lyozmalari va asarning o'ziga bitilgan yigirmadan ortiq sharh va hoshiyalar borligi haqida yozishi az-Zamaxshariy asarining katta shuhratidan dalolat beradi.

Qohiradagi butun dunyoga mashhur Al-Azhar diniy dorulfununining talabalari ham az-Zamaxshariyning «Al-Kashshof» asari asosida Qur'onni o'rganadilar.

«Al-Kashshof»ning Toshkentda, jumladan, O'zbekiston musulmonlari idorasi kutubxonasida bir qancha qo'lyozma nusxalari saqlanadi.

Az-Zamaxshariyning chuqur bilimi, dahosi va fanning turli sohalariga oid o'lmas asarlari hali u hayot paytidayoq butun musulmon Sharqida unga katta shuhrat keltirgan. Allomani chuqur hurmat va mehr bilan «Ustoz ul-arab va-l-ajam» («Arablar va g'ayri arablar ustози»), «Faxru Xvarazm» («Xorazm faxri») kabi sharafli nomlar bilan ataganlar. Mashhur olimlar, shoirlar, adiblar davrasida u doimo peshvolardan biri bo'lib, qizg'in ilmiy bahslar, munozaralarda uning fikri inobatga olinardi. Mana shunday ulkan obro'-e'tibor, ehtimol, daho o'z asarlaridan birida «va inniy fi Xvarazm kaabat ul-adab» («Chindan ham men Xorazmda adiblar uchun bir ka'baman») deb yozishiga asos bo'lgan bo'lsa kerak!

ISMOIL JURJONIY

(1042–1136)

Zayniddin Abul Fazoyil Ismoil ibn Husayn al-Jurjoniyy al-Xorazmiyy ulug' olim va zamonasining eng mashhur tabiblaridan biri hisoblanar edi.

XII asrning mashhur tarixchisi Zahiriddin Abul Hasan Bayhaqiy o'zining «Tatimma sivan al-hikma» («Donolik xazinasiga qo'shimcha») asarida Ismoil Jurjoniyy haqida shunday yozadi: «Men u kishini 53-hijriy (1136-milodiy) yilda Saraxsda keksalik chog'larida ko'rgan edim. Yer yuzining adolatpesha hukmdori xorazmshoh Otsiz ibn Muhammad uni

bir necha muddatga Xorazmga taklif etgan edi. Xorazmda bo'lgan vaqtida u «Al-Xuffayi al-a'loiy» («Poyalarning yuqori qismi»), «At-Tibb al-mulukiy», «Kitob az-zahiraye Xorazmshohiy», «Kitob al-ahrod» («Hasad tufayli kelib chiqadigan kasalliklar»), «Kitob yodgor» («Esdalik kitobi»), «Kitob fi rad alal falosafa» («Faylasuflarga qarshi raddiya kitobi»), qozi Abu Said Shori'iyga bag'ishlab «Kitob tadbir yaum va laylat» («Kecha bilan kunduzning almashinishi haqida kitob»), «Kitob vasiyatnoma» va boshqa tabobat hamda falsafaga doir asarlar yozdi. Uning yozgan asarlari sevib o'qilganidan tez orada jahonga mashhur bo'ldi. Muhtaram kishilardan eshitishimcha, u kishi ochiq chehrali, xushmuomala, tabiatan saxovatli shaxs ekanlar» (172-bet).

Ismoil Jurjoniy 1042-yilda Jurjon shahrida tug'ilgan bo'lsa ham, umrining ko'p qismini Xorazmda o'tkazganligidan Zayniddin Abul Fazoyil Ismoil ibn Husayn al-Jurjoniy al-Xorazmiy deb ulug'lanar edi.

Jurjoniy xorazmshoh Qutbiddin Muhammad ibn Anushtagin (1097–1127) va uning o'g'li Alouddavla Otsiz (1127–1156) saroyida xizmat qildi. Jurjoniy o'z davrida qadimgi yunon tabobati vakillari Galen, Gipokrat, shuningdek, o'zidan oldin o'tgan Abu Bakr Roziy va ayniqsa, Ibn Sino asarlarini chuqur o'rgandi.

Tabobat ilmidan tashqari boshqa ilm sohalarida ham mashhur bo'lganligidan unga oyiga ming dinordan maosh tayin qilingan edi. Ismoil Jurjoniy o'zining tabobatga bag'ishlangan eng yirik asari «Zahiraye Xorazmshohiy»ni 1110-yilda yozib tugatdi va uni xorazmshoh Qutbiddinga bag'ishladi. Otsizning buyrug'iga ko'ra, bu asarning qisqartirilgan nusxasini 1113-yilda «Al-Xuffayi al-A'loiy» nomi bilan yozib tugatdi. Asar hammaga tushunarli fors tilida yozilgan bo'lib, harbiy yurishlar va sayohatlarda ham har kim etigi qo'njiga solib yurishiga (etigxuff) qulaylik yaratish maqsadida shunday qilindi.

«Zahiraye Xorazmshohiy» o'n kitobdan iborat bo'lib, keyinchalik unga «Dorisozlikka oid kitob» («Qorabodin») qo'shildi.

Birinchi kitob umumiy nazariy masalalarga bag'ishlangan bo'lib, unda tabiat va koinot haqidagi qarashlar bayon etiladi. Inson organizmining birlamchi a'zolarini tashkil etgan unsurlar, mijoz, to'rt suyuqlik, badanning har bir qismining nimalarga qodirligi haqidagi ta'limot va shu munosabat bilan tabobatning fan sifatidagi vazifalari haqida gapiriladi.



Ikkinchi kitobda sog'liq va kasalliklar haqidagi ta'limot, ularning tur-lari, namoyon bo'lish belgilari, tomir urishiga qarab kasallikni aniqlash to'g'risida so'z yuritiladi.

Uchinchi kitob sog'liqni saqlash, bunda atrof-muhitning ta'siriga, ya'ni havo, maskan, suv, oziq-ovqat, ichimlik, uyqu, bedorlik, harakat va osoyishtalikka bag'ishlangan. Bu kitobda bolalar, qariyalar, safardagilar uchun alohida-alohida qoidalar bayon etilgan.

To'rtinchi kitobda kasallikni qanday kechishi mumkinligini belgilash, qaysi paytlarda eng og'ir holatlarga tushib qolish, ulardan qutulish mu-ammolari haqida gap boradi.

Beshinchi kitobda bezgak kasalining paydo bo'lish sabablari, uning belgilari, davolash tarzi bayon etilgan.

Oltinchi kitobda inson a'zoyi badanining har xil joylarida paydo bo'ladigan kasalliklar, ularni davolash usullari tahlil etilgan.

Etinchi kitob rak kasalliklariga, yaralar, shishlar, suyak chiqishlari va sinishlariga bag'ishlangan.

Sakkizinchi kitobda pardoz-andozlar, o'ziga oro berishlar haqida gap boradi.

To'qqizinchi kitobda zaharlar va unga qarshi davolash usullari haqida hikoya qilinadi.

O'ninchi kitob davosizlikka bag'ishlangan. «Zahiraye Xorazmshohiy» o'z vaqtida omma orasida keng tarqalgan tabobat sohasidagi eng mashhur asar bo'lganligidan jahon kutubxonalarining ko'pchiligida uning qo'l-yozmalari hamon saqlanib kelinmoqda. XII asr muallifi vatandoshimiz Aruziy Samarqandiy bu asarni buyuk olimlar Jolinus, Roziy, Ibn Sino va boshqalarning shu sohadagi kitoblari qatoriga qo'ygan. Bu asar hatto yahudiy tiliga tarjima qilingan edi. XVI asrda esa Abul Fadl Muham-mad ibn Idris Daftariy uni turk tiliga tarjima qilgan.

Ma'lumki, Sharq olimlarigina emas, balki XVIII asr oxirigacha ya-shagan Ovro'po olimlari ham barcha borliqning asosida to'rt unsur, ya'ni tuproq, suv, havo va olov yotadi deb bilishgan. Ismoil Jurjoniy ham in-son tanasi mazkur to'rt unsurdan tashkil topganini, u sababsiz kasallikka chalinmasligini qayd etadi. Kasallik sababi esa, yuqorida zikr etilgan bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan to'rt unsur muvozanatining buzilishidan kelib chiqadi. Shuning uchun ham Jurjoniy tabobatni malaka hosil qilish yo'li bilan qo'lga kiritiladigan fan deb hisoblaydi.

Ismoil Jurjoniy fikricha, isbot va tafakkur vositasida hosil qilingan narsa ilm deb ataladi. Ilm ham, o'z navbatida, ikki xil bo'ladi: nazariy va amaliy. Nazariy ilmlarga adabiyot, mantiq, riyoziyot kirs, amaliy ilmlar o'z ichiga mexanika, tikuvchilik va boshqa qo'l ishlari, hunarmandchilikni qamrab oladi. «Tabobat ilmi esa, ayni holda ham nazariy va ham amaliy ilmlardan tashkil topadi». Tabobat ilmidan kuzatilgan maqsad tanani butunlikda — sog'lomlikda ushlab turishga tibbiy tadbirlar qo'llash yo'li bilan erishmoqdir. Bunday holat bemor kishilarning va ularni davolovchi tabiblarining vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Tabiblar esa, tabiatning barcha sir-u asroridan boxabar bo'lishlari lozim.

Ma'lumki, tabiatning eng buyuk mo'jizasi — bu insondir. Shuning uchun ham bu mo'jizaning nimadan tarkib topganini bilish — uni davolashning kalitidir.

Ismoil Jurjoniy fikricha, hayvonot olamining ham o'z mizoji bor, ammo insondagi mizojgina mo'tadildir. Bunday natijaga Ovro'po olimlari XIX asrning oxirlari va XX asrning boshlaridagina erishdilar. Ular butun inson badanida bo'ladigan kimyoviy jarayonlar, uning ona qornida paydo bo'lishidan boshlangan o'zgarishlar, tug'ilgandan keyingi hayotiy yo'li: chaqaloqligi, o'spirinligi, yoshligi, keksaligi, qarilik va o'lim bilan yakunlanadigan hayotiy bosqichlaridagi har bir hujayralarning paydo bo'lishi, zavolga yuz tutishi, bir tomondan asab tizimining daholati sababli yuz bersa, ikkinchi tomondan, badan a'zolariga ma'lum mijoz (temperament)ga ega bo'lgan harmonlarning aralashishi oqibatida yuz berishini aniqladilar. Harmonlarning kishi jismiga, ruhiyatiga ta'siri oshkora bilinib turadi.

G'ariza (instinkt) va hayajon, fe'l-u atvor va mizojlar harmonlar ta'siri vositasida namoyon bo'ladi. Hozirgi paytda issiq, sovuq, nam va quruq mizojli insonlarning bo'lishligi ishonchli dalillarga asoslangan ilmiy haqiqat sifatida tan olingan. Chunki ularning manbasi asab tizimi, ichki harmonlar amaliyotida ekanligi isbotlangan.

Ismoil Jurjoniy kishilar mizoji ularning umrlari davomida o'zgarib turishligini va o'limining tabiiyiligini ilmiy jihatdan sodda va ravon tilda tushuntirdi. Insonlar umrini u to'rt davrga bo'ladi:

Birinchi davr — tug'ilish, o'sish va parvarishlash bosqichi bo'lib, 15–16 yoshgacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga oladi.

Ikkinchi davr — yoshlik va yetuklik bosqichi bo'lib, 30 yoshgacha bo'lgan vaqtni o'z ichiga oladi. Bundan keyin jismonan o'sish va ulg'ayish davri boshlanadi. Ba'zilar o'sish va ulg'ayish yoshi 35 yoki 40 yoshgacha ham davom etishi, shu yoshgacha bo'lgan umrni yoshlik davri deb hisoblash mumkin.

Uchinchi davr — mo'ysafidlik bosqichi, bu davrda inson to 60 yoshga yetguncha yoshlik quvvatidan bahra olib yashashi mumkin bo'ladi.

To'rtinchi davr — kishi umrining qarilik davri bo'lib, bunda quvvatning susayish holati kuzatiladi va bu jarayon umrning oxirigacha davom etadi. Qarilikning fazilati shundaki, ba'zilar 60 yosh yashaydi, ba'zilar esa yana o'spirinlik, yoshlik va mo'ysafidlik yillari qancha davom etgan bo'lsa, o'shanga teng keladigan vaqtgacha yashab, 120 yoshga kirishi mumkin.

Kishilar bolalik davrlaridan to yetuklik yoshiga yetgunlariga qadar is-siq va nam mizojga, yetuklik yoshidan so'ng esa issiq va quruq mizojga ega bo'ladilar; 35 yoshdan keyin bunday holat kamayadi.

Ismoil Jurjoniyning koinot va inson haqidagi ilmiy mulohazalari vo-qelikdan olingan manbalar asosida shakllangan bo'lib, u insonning tabiiy ehtiyojlari cheksizligidan kelib chiqadi va ularni qondirishni aqliy yo'l bilan chegaralashni yagona chora sifatida targ'ib etadi.

Uning fikricha, haqiqiy lazzat jismoniy huzur-halovatda, to'kin-sochin hayot kechirishda emas, balki aqliy va ma'naviy kamolotga erishishdadir. Narigi dunyodagi behisht, jannat huzur-halovatlarini ruhiy, aqliy orom olishlikda deb tushunadi. «Zahiraye Xorazmshohiy» asarini tugatgandan so'ng Jurjoniyy Marv shahriga keladi. Bu paytda Marv shahri Sulton Sanjarning poytaxti hisoblanar edi. Sulton Sanjar unga katta iltifot va izzat-ikrom ko'rsatganligi sababli Jurjoniyy umrining oxirigacha shu yerda yashadi. Bu yerda hadis ilmida Abul Qosim Qushayriy bilan muloqotda bo'ldi, tabobat sohasida esa mashhur tabib ibn Abi Sodiq bilan hamkorlik qildi. Bundan tashqari Iroq, Fors va Xuziston tabiblari bilan, Ibn Sinoning ba'zi shogirdlari bilan hamsuhbat bo'ldi. Umrining oxirigacha Marv madrasalarida bir necha fanlardan saboq berdi. Yoqut Hamaviyning «Mu'jam ul-buldon» asarida keltirilishicha, Ismoil Jurjoniyy Marvda hijriy 531 (1136)-yilda vafot etdi.

Ismoil Jurjoniyning ilmiy merosidan foydalanish keyingi asrlarda ham samarali davom etdi.



MAHMUD CHAG'MINIY

(XII–XIII asr)

Ahmad Farg'oniy va Abu Rayhon Beruniyning ilmiy an'alarini davom ettirgan yirik faylasufflardan biri, XII–XIII asrlarda ijod etgan xorazmlik olim Mahmud ibn Muhammad ibn Umar al-Chag'miniydir.

Al-Chag'miniyning ilmiy asarlari Sharqda juda mashhur bo'lsa ham, uning hayoti va ijodiy faoliyati hozirgacha yaxshi yoritilmagan.

Akademik V.V.Bartoldning ta'kidlashicha, Ulug'bek madrasasidagi astronomiyaga oid mashg'ulotlarning mavzusi sifatida Chag'miniyning astronomiya sohasidagi asariga Mir Sayyid Sharif Jurjoniy va Qozizoda Rumiylar tomonidan yozilgan sharhlarni o'rganish ham kiritilgan. Mazkur olimlar Mahmud al-Chag'miniyning «Mulaxxas fi-l-xay'a» («Astronomiyaga oid qisqa to'plam») asariga sharhlar yozishgan. Jumladan, Qozizoda Rumiy o'z sharhining kirish qismida Chag'min so'zi haqida shunday tushuntirish bergan: «Chag'min so'zi al-Chag'miniy tug'ilgan Xorazmdagi joy nomidir». Uning tug'ilgan yili ma'lum emas, ammo adabiyotlarda ko'rsatilishicha, vafoti 1221-yil deb taxmin qilinadi. Chag'min o'sha vaqtdagi Xorazmshohlarning poytaxti bo'lgan Ko'hna Urganchdan uncha uzoq bo'lmagan yerda joylashgan. Ma'lumki, XI–XII asrlardagi Xorazm jahon miqyosidagi yirik ilmiy markazlardan biri bo'lgan va shubhasizki, bu narsa al-Chag'miniyning ilmiy dunyoqarashining shakllanishida hal qiluvchi rol o'ynagan. Boshlang'ich ma'lumotni Xorazmda olgan Mahmud al-Chag'miniy o'qishni davom ettirish uchun Samarqandga kelgan. Uning ilmiy asarlarida Beruniyning ustozlari bo'lgan Abu Nasr ibn Iroq bir necha marta tilga olinadi. Al-Chag'miniyning «Mulaxxas fi-l-xay'a» asaridan tashqari «Saylanma», «To'qqiz sonining riyoziyotdagi o'ri haqida risola», «Merosni bo'lish masalalarida riyoziyot usullariga sharh» va boshqa qator risolalari mavjud.

Mahmud al-Chag'miniy o'sha vaqtdagi yirik olimlar kabi fanning biror sohasi bilan emas, balki astronomiya, riyoziyot, tabobat, geografiya va boshqa sohalarida ham juda sermahsul ijod qildi. Bu fanlar rivojining har biriga shunchalik hissa qo'sha oldiki, natijada uni Abu Rayhon Beruniydan keyingi Xorazm ilmiy maktabining eng ko'zga ko'ringan olimi, deb hisoblash mumkin. Bundan tashqari al-Chag'miniy o'z davrining barcha fanlari erishgan yutuqlarni jamlab, o'ziga xos qomus tuzgan allomadir.

Mahmud al-Chag‘miniyning fanga qo‘shgan hissasi, birinchi navbatda, astronomiya sohasidagi kashfiyotlari bilan o‘lchanadi. Uning «Mulaxxas fi-l-xay‘a» kitobi o‘sha zamon astronomiya fanining xulosasi bo‘lib, geografiya va boshqa fanlarning umumlashgan xulosalari haqida ham keng ma‘lumotlar beriladi. Bu kitobning ilmiy qimmati shundaki, astronomiya bilimlari tizimlarida ish olib borgan al-Chag‘miniy qadimgi yunon astronomiya maktabi yutuqlari bilan birgalikda Sharq olimlari, jumladan, Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ilmiy ishlarini keng jalb etish orqali yangi xulosalar chiqargan. Al-Chag‘miniyning bu asarida insonni o‘rab turgan olamning umumiy tuzilishi, samoviy yoritgichlar, doiralar, sayyoralarning holati, Quyosh, oyning tutilishi, quyosh yilining uzunligi, kecha, kunduz va boshqa muhim muammolar qaytadan ishlab chiqilgan.

Al-Chag‘miniyning astronomiya sohasidagi ilmiy yutuqlari haqida gap borganda, shu narsani alohida ta‘kidlash mumkinki, uning fikricha, «Quyoshni o‘zidan nur tarqatuvchi sayyoralarning markazi deb hisoblash mumkin». Darhaqiqat, uning qayd etishicha, ba‘zi bir osmon yoritgichlari, jumladan, oy «o‘z nuriga» ega bo‘lmasdan, uni Quyoshdan oladi. Shunga asoslanib al-Chag‘miniy Quyoshni ba‘zi osmoniy jismlarning «markazi» deb ataydi. Albatta, bu uning tamoman geliotsentrik sistema tarafdori ekanligini bildirmaydi. Chunki nur harakati yo‘nalishlari haqidagi masalani mashoiyunlar (Arastu maktabi tarafdorlari) qo‘ygan tarzda muhokamaga qo‘yilishi katta ahamiyatga ega ediki, bu haqda Abu Rayhon Beruniy bilan Ibn Sino o‘rtasida ilmiy tortishuvlar bo‘lib o‘tgan edi. Bu muammoning mavjudligi sababli Beruniy o‘z vaqtida geotsentrik qarash tabiat falsafasiga binoan mantiqiy huquqqa ega ekanligiga shubha bildirgan edi.

Al-Chag‘miniy astronomiya muammolarini ishlab chiqishga bog‘liq bo‘lgan riyoziyotga oid masalalar bilan juda ko‘p shug‘ullandi. Uning samarali izlanishlari tufayli doiraviy trigonometriya asoslari ishlab chiqildi va uning asosiy qoidalari «Mulaxxas fi-l-xay‘a» asarida o‘z in‘ikosini topdi. Unda to‘rt tomonli doiraviy uchburchak va uning xilma-xil turlarining to‘la ta‘rifi beriladi. Muallif birinchi marta ufqiy tekislikdagi kuza-tish joyining asosi bo‘lgan koordinatlar sistemasini mufassal ishlab chiqishga muvaffaq bo‘ldi.

Al-Chag‘miniy o‘z asarida geodeziya va geografiya muammolariga ham katta e‘tibor berganligi sezilib turadi.

Tabiatshunoslik sohasidagi ilmlarda u tajribaga tayanib, tabiat hodisalarini o'rganishni targ'ib etar ekan, har xil fanlar tomonidan to'plangan ma'lumotlarga tanqidiy yondashib, xolisona xulosa chiqarishga amal qildi. «Astronomiyaga oid qisqa to'plam» kitobining muqaddimasida bu haqda shunday deb yozadi: «Garchi mengacha ham samoviy jismlar haqida ko'plab kitoblar yozishgan bo'lsalar ham, ulardagi asosiy masalalar chuqur yoritilmagan edi».

Al-Chag'miniy o'zi tahqiq qilgan fanlar sohasida tor doiradagi xulosalar bilangina chegaralanib qolmasdan, ulardan kelib chiqib yirik falsafiy muammolarni muhokamaga qo'yar edi. Uning tabiatga bergan ta'rifi muhim ahamiyatga egadir: «U (tabiat) har qanday harakat va sokinlikning manbayidir». Al-Chag'miniy fikricha, tabiat «tabiiy kuchga» egadirki, ushbu kuch uning faolligini zaruriy shartga aylantiradi. Tabiatga nisbatan o'z qarashlarini bayon qilib, Chag'miniy shunday yozadi: «Modda va shakl tabiatni shakllantiradi».

Ma'lumki, mashoiyunlar falsafasida modda bilan shakl qanchalik bir-biriga bog'liq bo'lmasin, ularning birini ikkinchisidan ajratish imkoniyati mavjud edi. Bunday imkoniyat ma'lum darajada al-Chag'miniy kiritgan «bo'linmas zarracha», «unsuriy zarracha» — ya'ni atom tushunchasi vositasida bartaraf qilindi.

Al-Chag'miniy fikricha, modda kichik zarrachalar ko'rinishida mavjud, ammo ularning xususiyati shundan iboratki, ularda modda va shakl bir-biridan ajratib bo'lmaydigan darajada birikib ketgan. «Kichik zarrachalarni har xil shakl va tabiatga ega bo'lgan qolipni qabul qiluvchi, undan ham kichikroq zarrachalarga bo'lib bo'lmaydi: ya'ni har bir zarracha o'zining muayyan shakl va tabiiy o'zligiga ega. U sodda zarracha bo'lib, o'ziga xos shakl, o'ziga muvofiq keladigan tabiatga egadir» («Mulaxxas fi-l-xay'a», 380-bet).

Mahmud al-Chag'miniyning qarashlarida o'rta asr mutafakkirlarining ko'pchiligi taxmin qilgan ikki xil zarrachaning, ya'ni atomlar va o'ziga xos molekulalarning mavjudligi haqidagi nazariya o'zining yorqin ifodasini topdi. Al-Chag'miniy ularni «birlamchi» va «ikkilamchi» kichik zarrachalar deb, so'ngra — «birlamchi zarrachani» aniqlab, uni «unsur», «ibtido», «asosiy ashyo», «modda» deb ataydi.

Ikkilamchi zarrachalar esa u yoki bu ashyoning kichik zarrachalarini tashkil etadi, ammo uning xususiyatini saqlab qoladi. Bu shunday zarrachalardirki, «boshqasiga nisbatan kichikroq bo'lmog'i kerak».



O'rta asrlarda astronomiya kundalik turmushda amaliy ahamiyatga ega bo'lgan, doimo rivojlanib borishi zarur bo'lgan fan hisoblangan. Barcha qishloq xo'jalik ishlari, bepoyon cho'llardan kompassiz savdo karvonlariga yo'l ko'rsatish samoviy yoritgichlar orqali amalga oshirilganini hisobga olsak, nima uchun al-Chag'miniyga o'xshash olimlarimiz tinimsiz tadqiqotlar bilan shug'ullanganliklari ma'lum bo'ladi.

BURHONUDDIN AL-MARG'INONIY (1123—1197)

Buyuk faqih Ali ibn Abu Bakr ibn Abd ul-Jalil al-Farg'oniy ar-Rishtoniy al-Marg'inoniy 1123-yil 23-sentabrda tug'ilgan. U Qur'onni, hadis ilmlarini mukammal egallab, fiqh — islom huquqshunosligi borasida benihoya chuqur ilmga ega bo'lganligi va bu sohada beqiyos durdonalar yaratganligi tufayli Burhon ud-din val-l-milla¹ va Burhonuddin al-Marg'inoniy² nomlari bilan mashhurdir.

Burhonuddin al-Marg'inoniy dastlabki ta'limni Marg'ilonda olib, keyinchalik Movarounnahrning o'sha davrdagi diniy va ma'rifiy markazi bo'lgan Samarqandga ko'chib borgan va umrining oxirigacha o'sha yerda yashagan. Mavlono Burhonuddin al-Marg'inoniy yoshlik chog'laridanoq Qur'oni Karimni yod olib, hadislarni chuqur o'rgangan.

U balog'at yoshiga yetganida mukammal ilmga ega bo'lganiga qaramay ustozlardan ta'lim olishni davom ettirdi. 1149-yili Burhonuddin al-Marg'inoniy haj safariga bordi. «Kitob ul-mashoyix» («Shayxlar haqidagi kitob») asarida u o'zi ta'lim olgan 40 dan ortiq shayx va allomani sanab o'tgan. Bu ro'yxatda Najmuddin Umar ibn Muhammad an-Nasafiy, Abu al-Asir al-Baydaviy, Abu Yoqub as-Sayariy, Abu Is'hoq an-Navqadiy, Ja'far al-Hinduvoniylarning nomlari bor.

Keyinchalik u fiqhga oid masalalar bilan qiziqib, o'sha davrning ko'zga ko'ringan allomalaridan «Al-Muhit» («Ilmlar dengizi») asarining muallifi Umar ibn Maaza, «Al-Fatava va favoid az-Zahira» («Fatvolar va zohir

¹ Milla deganda xalq, ya'ni musulmonlar tushuniladi. Bu yerda olimni ulug'lab, uni islom olamidagi xalqlar hamda islom dinining dalili, isboti deyilmoqchi.

² Marg'inon — Marg'ilon shahrini o'rta asrlarda arablar Marg'inon deb atashgan.

narsalarning foydalari») asarining muallifi Zohir ud-din ibn Umar al-Qodiy al-Buxoriy ibn al-Itobiy va boshqalarning nazariga tushgan.

Burhonuddin al-Margʻinoniy islom dinidagi sunniylarning toʻrtta asosiy mazhabi asoschilarining asarlarini oʻrganish bilan birga oʻzi ham fiqhga oid bir qator asarlar yaratgan. Bizgacha yetib kelgan asarlaridan «Bidoyat al-muntahiy» («Boshlovchilar uchun dastlabki taʼlim»), «Kifoyat al-muntahiy» («Yakunlovchilar uchun tugal taʼlim»), «Nashr ul-mazhab» («Mazhabning yoyilishi»), «Kitob ul-mazid» («Ilmni ziyoda qiluvchi kitob»), «Manosiq ul-haj» («Haj marosimlari»), «Majma ul-navozil» («Nozil boʻlgan narsalar toʻplami»), «Kitob ul-faroiz» («Farzlar kitobi») va boshqalar maʼlum.

Al-Margʻinoniyning butun islom olamida mashhur boʻlgan «Hidoya» asari 1178-yili Samarqandda yozildi. Mahmud ibn Sulaymon al-Kafaviyning «Katoib ul-aʼlom al-axyor fi taboqot fuqaho va mashoyix mazhab an-Nuʼmon» («Nuʼmon mazhabiga mansub boʻlgan taniqli al-loma faqihlar va shayxlar haqidagi kitob») nomli asarida keltirilishicha, Burhonuddin al-Margʻinoniy «Bidoyat al-muntahiy» asarining soʻzbohisida «Hidoya»ning yaratilishi xususida shunday yozgan: «Abu-l-Hasan Ali ibn Bakr Abd ul-Jalil bir kuni fiqh masalalariga bagʻishlangan hajmi uncha katta boʻlmagan, lekin mazmuni toʻliq boʻlgan bir yaxlit kitob zarur ekanligi haqida fikr bildirdi. Iroqqa safar qilganimda u yerda «al-Muxtasar al-Quduriy» («Quduriy qisqartmasi»)ni koʻrdim. U fiqh bobida ajoyib asar edi. Bu paytgacha katta-yu kichik barcha «Jomeʼ us-Sagʻir» («Kichik toʻplam»)dan foydalangan edi. Shunda fiqhga oid barcha asarlarni jamlab, ulardan eng zarur masalalarni oldim va bu asarga «Bidoyat al-muntahiy» deb nom berdim. Keyinchalik bu asarga sharh yozib, uni «Kifoya ul-muntahiy» deb nomladim».¹

Keyinchalik bu asarlarning ham hajmi kattalik qilib, yanada moʻjaz boʻlgan, butun islom olamida xanafiya mazhabining fiqh masalalarida asosiy qoʻllanmasiga aylangan al-Margʻinoniyning «al-Hidoya» asari yaratildi. Bu asar butun musulmon olamida mashhur boʻlib ketdi, musulmon huquqi — fiqh boʻyicha eng aniq, izchil, mukammal asar sifatida tan olindi.

¹ OʻzR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qoʻlyozmalar fondi. Inv. № 2929, 214.



«Hidoya»ning asosini fiqh ilmi asoschilaridan bo'lgan Abu Hanifa an-Nu'mon ibn Sobit, Abu Abdulloh Ahmad ibn Hanballarning yirik asarlari, bu allomalarning shogird va safdoshlaridan imom Abu Yusuf, imom Abu Abdulloh ibn Husayn ash-Shayboniy (imom Muhammad), imom Abu-l-Xazl Zufar ibn Xazllarning asarlari, dastlabki to'rt xalifa va sahobalarning rivoyatlari, ular xabar qilgan hadislar tashkil qiladi. Bundan tashqari, «Hidoya»da asosiy fiqhiy masalalarning sharhi va yechimida Muhammad Bazdaviyning «Mabsut», Abu Iso at-Termiziyning «Jome' ul-Kabir» («Katta to'plam»), Quduriyning «al-Muxtasar al-Quduriy» kabi asarlariga ishora qilinadi.

«Hidoya»da huquqiy masalalarning yechimi dastlab yirik fiqh olimlari fikrlarining bayoni va unga boshqa mualliflar e'tirozlari yoki qo'shilishlarini izhor etish yo'li bilan berilgan. Ana shu obro'li mualliflar fikrlaridan kelib chiqib, muayyan masalada eng ma'qul yechimni tanlab olish yo'liga amal qilingan. Shu tariqa unda qonunning aynan ifodasigina emas, balki uning mukammal sharhi ham asoslab keltiriladi.

«Hidoya» to'rt juzdan iborat bo'lib, birinchi juzga ibodat masalalari kiritilgan, bular: tahorat, namoz, ro'za, zakot va haj kitoblaridir. Ikkinchi juzga nikoh, emizish, taloq, qullarni ozod qilish, topib olingan bolaning nasabini aniqlash, topib olingan narsa, qochib ketgan qullar, bedarak yo'qolganlar, sherikchilik va vaqf mulki kabi masalalar kiritilgan.

Uchinchi juzda esa oldi-sotdi, pul muammolari, kafolat, pulni birovga o'tkazish, qozilarning vazifalari, guvohlik, berilgan guvohlikdan qaytish, vakolat, da'vo, iqror bo'lish, sulh, bir ishda pul bilan sherik bo'lish, pulni saqlashga berish, qarz berish, sovg'a, ijara, muayyan shart asosida cheklangan ozodlik berilgan qullar, voliylik (patronat), majbur qilish, homiylik, qisman ozod bo'lgan qullar va bosqinchilik xususidagi masalalar o'rin olgan.

To'rtinchi juzda esa shafolat, meros taqsimlash, dehqonchilik hamda bog'dorchilik xususida shartnoma, qurbonlikka so'yiladigan jonzot haqida, umuman qurbonlik qilish haqida, shariatga zid yomon narsalar haqida, tashlandiq yerlarni o'zlashtirish xususida, taqiqlangan ichimliklar haqida, ovchilik, garovga berish, jinoyatlar xususida, xun haqi to'lash, vasiyat kabi masalalar yoritilgan.

«Hidoya» bir necha asrlar davomida ko'p musulmon mamlakatlarida, jumladan, Markaziy Osiyoda ham huquqshunoslik bo'yicha eng asosiy

qo'llanma hisoblanib, bu yerda 1917-yil Oktabr to'ntarishidan keyin ham, to 30-yillargacha shariat qozilari bekor qilinib, sovet sud sistemasi joriy qilinguncha amalda bo'lib keldi. Hozirgi kunda ham islom shiari asosida ish yuritadigan musulmon mamlakatlar huquqshunosligida bu asardan keng foydalaniladi. «Hidoya»ning 1893-yilda rus tilida qisqartirilgan tarjimai N. I. Grodekov tomonidan nashr etilgan.¹

Asar 400 nusxada bosilgan bo'lib, «Turkiston o'lkasini» ma'muriy jandarm boshqaruv ishlaridagi xizmatchilariga mo'ljallangandir («Туркестанские ведомости» 1893 г. 16(28) июня), ya'ni Rus chorizmining mustamlakachilik siyosatini amalga oshirishni osonlashtirish maqsadlariga bo'ysundirilgan bo'lib, ruscha tarjima inglizcha tarjimasidek to'liq emas, ayrim qismlari to'lig'icha tushirib qoldirilgan.

O'zbekistonning mustaqillikka erishuvi tufayli islom yodgorliklari, jumladan, shariat, fiqhga oid asarlarni o'rganish, bu sohadagi boy merosimizni nashr etish imkoniyati vujudga keldi. Vatandoshimiz al-Marg'ioniyning «Hidoya» asari islom huquqshunosligida mashhurligini nazarga olib N.I.Grodekovning inglizchadan ruschaga qilgan va tor doira uchun mo'ljallangan «Hidoya»ning 1-kitobi Toshkentda 1994-yilda yuridik fanlari doktori A.X.Saidovning so'z boshisi va sharhi bilan qayta nashr etildi.

Uzoq musulmon olamida hozirgacha o'z qimmatini yo'qotmagan «Hidoya» va uning muallifi Marg'ioniy faoliyati o'z tadqiqotchilarini kutmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga asosan 2000-yilda al-Marg'ioniyning 910 yillik tavallud sanasi keng jamoatchilik tomonidan tantanali ravishda nishonlandi.

AHMAD YASSAVIY (1041–1167)

Islom dini paydo bo'lgandan so'ng uning doirasida, Qur'on va Hadis ahkomiga mos ravishda paydo bo'lgan tasavvufiy ta'limotlar X–XI asrlarga kelib Movarounnahrda ham keng tarqala boshladi.

¹ Qarang: Хидоя. Комментарий мусульманского права. Ташкент, 1893. Т., I–IV.

Tasavvuf — Yaqin va O'rtta Sharq xalqlarining ma'naviy hayoti tarixidagi eng murakkab, o'zaro ziddiyatlarga to'lib-toshgan va muhim hojli-salardan biri bo'lib, uning uchun tarkidunyochilik, bu dunyo boyliklaridan va noz-u ne'matlaridan voz kechish, Alloh vasliga yetmak uchun pok, halol, o'z mehnati ila yashash, ixtiyoriy ravishdagi faqirlik xarakterli xususiyatlardan hisoblangan.

Markaziy Osiyoda tasavvufiy ta'limotlarning paydo bo'lishi Yusuf Hamadoniy (1048—1140) nomi bilan bog'liqdir. Yusuf Hamadoniy Marv va Buxoroda xonaqo va madrasa qurdirib, ko'plab turkigo'y, for-sigo'y shogirdlar tayyorladi. Buxorodagi shogirdlari orasida Hasan Andoqiy, Abdullo Baraqiy, Ahmad Yassaviy va Abdulxoliq G'ijduvoni-y alohida ajralib turardi. Keyinroq bu to'rt iste'dodli shogird Hamadoniy maktabini muvaffaqiyat bilan davom ettirdilar.

«Yassaviya», «Naqshbandiya» tariqatlari Hamadoniy ta'limoti asosida shakllandi.

XII asrda Markaziy Osiyoda paydo bo'lgan ilk tasavvufiy tariqatning asoschisi Xoja Ahmad Yassaviy 1041-yilda Sayramda, Shayx Ibrohim oilasida dunyoga kelgan. Uning vafot etgan vaqti ko'pgina qo'lyozma manbalarda hijriy 562 (1166/67)-yil deb yozilgan. Ahmad yoshligida onasidan, so'ng otasidan ajraladi. Uni bobosi Arslonbob tarbiyalab vo-yaga yetkazadi. Ahmad dastlabki ta'limotni Yassida mashhur olim Sha-hobiddin Isfijobiydan oladi. So'ngra bobosi Arslonbob ko'rsatmasi bilan Buxoroga borib, Yusuf Hamadoniydan ta'lim oladi. Ahmad Yassaviyning o'zi «Ustoz Yusuf Hamadoniyning huzuriga 23 yoshida borganini va ul Hazratning tarbiyasiga noil bo'lg'onligini» aytadi. U yerda tasavvufdan ta'lim olib, so'ng o'z yurti Turkistonga qaytadi, o'z ta'limotini targ'ib etib, shogird, muridlar tayyorlay boshlaydi.

Rivoyatlarga ko'ra, Yassaviy 63 ga (Payg'ambar yoshiga) yetgach, yer ostida hujra yasatib, «chilla»ga kirgan, qolgan umrini toat-ibodat qilib, qimmatli hikmatlar yozib, riyozatlar chekib, yer ostida o'tkazgan. Bir rivo-yatga ko'ra, u 125 yil, boshqa rivoyatga qaraganda, 133 yil umr ko'rgan.

Yassaviy madaniyatimiz tarixida ilk turkiyzabon mutasavvuf shoir sifa-tida ma'lumdir. Uning tasavvufni targ'ib etuvchi turkiyda yozilgan she'rlari tilining xalqqa yaqinligi, ohangdorligi bilan tezda mashhur bo'lib ketdi.

Alisher Navoiy iborasi bilan aytganda, «Turkiston mulkinging ulug' Shayxul-mashoyixi» Hazrati Xoja Ahmad Yassaviy juda ko'p mutasavvuf

donishmandlarni tarbiyalab voyaga yetkazgan. Ma'lumki, «Yassaviya» tariqatidan keyin Markaziy Osiyoda ikki yirik tariqat paydo bo'ladi «Naqshbandiya» (Xojagon), «Bektoshiya».

Tasavvufdagi barcha yirik tariqatlarda bo'lganidek, «Yassaviya» tariqatining ham o'ziga xos muayyan qoidalari (odobi) bo'lib, bu ta'limotdagi soliklar quyidagi qoidalarga amal qilishlari majbur bo'lgan: 1) Murid hech kimsani o'z piridan afzal ko'rmasligi, unga doimo taslimiyat izhor qilmog'i lozim; 2) Murid shunchalik zukko va idrokli bo'lishi kerakki, to o'z shayxining rumuz va ishoralarini mukammal anglay olsin; 3) Shayxning barcha akvoli (so'zlari) va af'oli (ishlari)ga murid sodiq bo'lib, unga mutlaqo mute va mo'taqid bo'lmog'i lozim; 4) Murid o'z murshidi (piri)ning barcha topshiriqlarini chust-u choloklik (chaqqonlik) ila sidqidildan bajarib, uni hamisha rozi qilib yurmog'i zarur. Chunki rizoi Alloh uning (ya'ni Shayxning) zimnidadir; 5) Murid o'z so'ziga sodiq, va'dasiga rosix bo'lib, murshidi ko'nglida hech qanday shak-u shubha tug'dirmasligi zarur; 6) Murid o'z va'dasida vafodor, so'zida ustuvor turmog'i lozim; 7) Murid o'z ixtiyoridagi barcha mol-mulkini, butun bor-u yo'g'ini o'z shayxiga nisor etmoq uchun doimo tayyor turmog'i lozim; 8) Murid o'z murshidining barcha sir-asrorlaridan ogoh bo'lib, uning ifshosini hech vaqt xayoliga keltirmasligi kerak; 9) Murid o'z shayxining barcha takliflarini nazarda tutib, uning mushkilotini osor qilmog'i, pand-u nasihatlarini bajo keltirmog'i shart; 10) Murid Xudo visoli uchun o'z Shayxi yo'lida butun mol-u jonini nisor etmoqqa tayyor turishi, uning do'stiga do'st, dushmaniga dushman bo'lib yashamog'i shart.

«Yassaviya» tariqatining barcha aqidalari Ahmad Yassaviyning asosiy asari bo'lmish «Hikmat»da mufassal bayon etilgan. XII asrdagi turkiy-zabon she'riyatning ajoyib namunasi bo'lgan, keyingi davrlardagi turkiy adabiyotga katta ta'sir ko'rsatgan «Hikmat» asarida «Yassaviya» ta'limotidagi poklik, halollik, to'g'rilik, mehr-shafqat, o'z qo'l kuchi, peshona teri va halol mehnati bilan kun kechirish, Alloh taolo visoliga yetishish yo'lida Insonni botinan va zohiran har tomonlama takomillashtirish kabi ilg'or umuminsoniy qadriyatlar ifoda etilgan.

Bag'dodda 922-yilning 22-mart kuni riyokor shayxlar va mutaassib ulamolalar tomonidan xudosizlikda ayblanib dorga osilgan, so'ngra qo'l-oyoqlari kesilib, tanasi kuydirilib, daryoga tashlangan mashhur mutasavvuf olim Mansur Xalloy (858—922)ni Yassaviy bir talay she'rlarida chuqur

hurmat bilan tilga oladi, mazkur ilg'or, dovyurak va jasur mutasavvuf donishmandga katta rag'bat ko'rsatadi:

«Bilmadilar mullolar «Anal-haq»ning ma'nosin,
Qol ahliga hol ilmin Haq ko'rmadi munosib,
Rivoyatlar bitildi, holin ani bilmadi,
Mansurdek avliyoni qo'ydilar dorga osib,

Shariatdur, deb olimlar buyurdilar,
Kofir Mansur o'lmadi, deb kuydurdilar.
Axtar qilib kulin ko'kka sovurdilar,
Tog'-u tuzlar «Anal-haq», deb turar ermiş».

Yassaviy ham o'zining piri buzrukbori Shayx Yusuf Hamadoniya o'xshab mol-dunyo to'plashga mutlaqo qiziqmaganini, kambag'alparvar va g'aribparvar bo'lib yashaganligini uning ba'zi bir hikmatlaridan ham bilsa bo'ladi. Mol-dunyoga, boylikka va davlat orttirishga mukkasidan ketgan, xasis va ochofat kishilarni Yassaviy beayov tanqid qiladi:

Beshak biling bu dunyo barcha xalqdan o'toro,
Ishonmag'il molingga, bir kun qo'ldan ketoro,
Oto, ono, qarindosh qayon ketdi, fikr qil,
To'rt oyoqlik cho'bin ot bir kun sango yetoro.

Darhaqiqat, Xoja Ahmad Yassaviy Markaziy Osiyodagi ilk tasavvufiy tariqat — «Yassaviya»ning asoschisi, nafaqat Xuroson va Mavoro-unnahr, balki turkiyzabon xalqlarning ma'naviy tarixida keng ma'lum bo'lgan, mutasavvuf donishmand, insonparvar shoir hisoblanadi.

ADIB AHMAD YUGNAKIY (XII—XIII asrlar)

Turkiy adabiyotning bizga ma'lum namoyandasi mashhur «Hibat ul-haqoyiq» asarining muallifi Ahmad Yugnakiy bo'lganligini qayd etish mumkin. Ahmad Yugnakiy haqidagi ma'lumotlarni biz XV asrga oid Alisher Navoiy, Arslon xoja Tarxon va boshqalar yozib qoldirgan ma'lumot hamda shoirning o'z yozganlaridan bilamiz.

Manbalarla Ahmadning tugʻilgan joyi Yugnak deb ataladi. Bu nomdagi qishloqlar qadimgi Samarqand atrofi, Fargʻona vodiysi va Sirdaryo boʻylarida mavjud boʻlgan. Ahmad onadan koʻzi ojiz tugʻildi. Alisher Navoiy bu haqda shunday yozadi: «Haq subhonahu va taolo agarchi zoʻhir koʻzin yopuq yaratgandur, ommo koʻngil koʻzin bagʻoyat yoruq qilgʻondur». Ahmad yoshligidan juda qobiliyatli va ziyrak boʻlgan.

Uning ilmiy-nazariy risolalar yozgan yoki yozmaganligi bizga nomaʼlum. Adib Ahmad salohiyatli shoir va axloq muallimidir. Undan bizgacha yetib kelgan yagona yaxlit asar «Hibat ul-haqoyiq» («Haqiqatlar tuhfası») dostoni boʻlib, 484 misradan iborat. Bu asarning bugungacha 3 ta toʻliq qoʻlyozmasi, 2 ta ayrim parchalari saqlanib qolgan. Ulardan eng qadimgisi 1444-yilda Samarqandda Ulugʻbekning nufuzli amirlaridan Arslon xoja Tarxon topshirigʻiga koʻra, kotib Zaynul Obidin ibn Sultonbaxt al-Jurjoniy al-Husayniy tomonidan uygʻur yozuvida koʻchirilgan. Matn orasidagi oyat, hadis va ayrim baytlar arab yozuvida. Asar nomi mazkur nusxada «Atabat ul-haqoyiq» («Haqiqat eshiklari») deb koʻrsatilgan. Keyingi nusxa uygʻur va arab yozuvlarida boʻlib, 1480-yilda Turkistondan Istanbulga borib qolgan isteʼdodli kotib Shayxzoda Abdurazzoq baxshi tomonidan koʻchirilgan. Turk olimi Najib Osim 1914–1916-yillarda ushbu nusxani topib, tadqiq etib nashrdan chiqardi. Uchinchi qoʻlyozma arab xatida boʻlib, unga Turkiya sultoni Boyazid II (1481–1512)ning muhri bosilgan. Demak, bu nusxa ham XV asr oxiri XVI asrning boshida koʻchirilgan boʻlib chiqadi. Asar 14 bobdan iborat boʻlib, birinchi 5 bobini muqaddima qismi deb atash mumkin. Unda yagona Allohi taologa hamd, Rasululloh (sav)ga naʼt, toʻrt ulugʻ sahobalar – xulafoyi roshidin madhi, amir Muhammad Dod-sipohsolorbek va fazilat egasi Anas ibn Muoviyalarga bagʻishlangan madhiyaviy satrlar mavjud. Muqaddima qismining oxirida dostonning yozilish sababi bayon etilgan. Asar Movarounnahrda yozilgan boʻlishi kerak, chunki buyuk amir Muhammad Dod-sipohsolorbek turk va ajam mamlakatlarining hukmdori deb ulugʻlangan, arablar esga olinmagan.

«Hibat ul-haqoyiq» asari yozilgan davrda forsiy va turkiy dostonlar uchun umumiy boʻlgan muayyan sheʼriy shakl (yaʼni, aa, bb, vv usulida qofiyalanuvchi masnaviy shakli) hali mavjud emas edi. Shu sababdan asarning madhiyaviy kirish qismlari oʻsha davr arab adabiyotiga xos boʻl-



gan qasida janridan ijodiy foydalanib yozilgan. Ammo dostonning asosiy qismi va xulosasi qadim turkiy og‘zaki adabiyotida keng qo‘llanilgan to‘rtliklar shaklida yaratilgan. Shu sababli doston hajmini baytlar (2 satrli band sistemasi) bilan o‘lchash to‘g‘ri emas. Ahmad Yugnakiy nomiga «Adib» so‘zi qo‘shib aytilishi ma‘lum sababga ega. U o‘zini shoir emas, balki adab ilmi namoyandasi deb biladi. Uning dostoni ham turkiy elatlarga islomiy odob qoidalari, ma‘naviy-axloqiy kamolot sirlaridan ta‘lim berishga mo‘ljallangan. Buni undagi bob sarlavhalaridan ham anglash mumkin. Birinchi bob (annav’ ul-avval) – «Ilm manfaati va jaholatning zarari haqida» deb atalgan. Ma‘lumki, islomning ilk nozil bo‘lgan oyatlari «Iqra!» (ya‘ni «O‘qi!») deb boshlanadi va ilmga tashviq etish islom ma‘naviyatining muhim asoslaridan birini tashkil etadi. Doston matni orasida payg‘ambarimizning «Ilm Chin eli (ya‘ni Xitoy)da bo‘lsa ham, o‘rganing!» degan hadisleri arab tilida keltirilgan va ushbu fikr turkiy to‘rtliklar shaklida sharhlangan. «Saodat yo‘li bilim bilan bilinadi», deydi Adib. U bilim egasi bo‘lgan ayol kishini erlar qatorida ko‘radi, bilimsiz erkakni esa ayoldan ham zaif biladi.

Alisher Navoiy o‘z asarida Adib Ahmad dostonining ushbu bobidan eng erkin timsolni keltirgan:

So‘ngakka ilik tur, eranga bilik,
Biliksiz eran ul iliksiz so‘ngak.

Arslon xoja Tarxon tuzdirgan matnda shu satrlar biroz boshqacharoq jaranglaydi:

So‘ngakka yiliktek eranga bilik,
Eran ko‘rki aql, ul so‘ngaknung yillik.

Bilim egasi vafot etganda ham uning nomi boqiy qoladi, deb xulosalaydi shoir, ammo bilimsiz kishi tirigida ham o‘likdan farqi yo‘qdir. Adib Ahmad bilimsizlikni qoralab yana Rasululloh (sav) hadislariga murojaat etadi: «Tangri hech qachon johillarni aziz qilgan emas». Ilm qadriga faqat ma‘rifatli odam yetadi, nodonga esa nasihat befoydadir. Adib Ahmadning fikricha, bilim tuganmas boylikdir, u faqir kishini boy etadi, ilm ahlini esa arab ham, ajam ham olqishlaydi.

Darhaqiqat, Adib Ahmad yashagan davr, amriqo olimi Frans Rouzentel ta‘biri bilan aytganda, «ilm tantanasi» davri edi. Adib Ahmad



mintaqa madaniyatidagi mislsiz kamolot yo'lining ishtirokchisi edi. Ammo davr murakkab, o'ta ziddiyatli ham edi. Bu holat ilk turkiy pandnomaning keyingi boblari mundarijasida o'z aksini topgan. Ikkinchi bob «Tilni tiyish va boshqa odoblar haqida» deb nomlanadi. Bu bobdagi mashhur satrlar:

«Tiling bekta tutg'il tishing sinmasun,
Qali chiqsa bekta, tishingni siyur».

Alisher Navoiyning Adib Ahmad haqida yozganlarida biroz o'zgaragan holda takror etiladi. Adib fikricha, kishi boshiga har qanday ish tushsa, tili tufayli sodir bo'ladi, ba'zilar yaxshilik ko'radi, ba'zilar afsus chekadi. Ahmoq odamning tili — dushmani, ko'p kishilarning tili tufayli qoni to'kildi. Adib Ahmad behudago'ylik va yolg'on so'zlashni qattiq qoralaydi. So'zning to'g'risi va qisqasi yaxshi deb hisoblaydi. Bob davomida sir saqlashning muhimligi ta'kidlanadi, «hatto yaqin do'stingdan ham ehtiyot bo'l» — deya ogohlantiradi shoir. Bunday ogohlantirishlar zamonaning qaltisligini eslatib turardi. Uchinchi bob ham shunga muvofiq «Dunyo holatlarining o'zgarib turishi va dunyo ahlida vafo kamligi haqida». Adib Ahmad o'z asarini keksalik chog'ida yozganligi ushbu bob mazmunidan seziladi. Adib dunyoning o'tkinchiligi, kishi umrining yeldek o'tishi, obod o'lkalar xarob bo'lib, donolarning ko'pi dunyoni tark etganini afsus bilan qayd etadi. Dunyo bir qo'li bilan kishiga asal tutsa, ikkinchi qo'li bilan og'u tutadi.

Shu sababli «yeguliging va kiyguliging bor bo'lsa, ko'p ham moldunyo yig'ishga ruju qo'yma», deydi Adib.

«Hibat ul-haqoyiq» asari asosiy qismining keyingi 4—7-boblari ham insonlarning yuksak fazilatlarini ta'riflash, nuqsonlarini qoralashga bag'ishlangan. Ularda saxovat, qo'li ochiqlik, tavoze', insonlarga mehrlil bo'lish, vafoli, shavkatli, halim tabiatli, kechiruvchan, kamtar bo'lish targ'ib qilinadi, baxil va ochko'zlik, molparastlik, g'azabnok va takabburlik, riyokorlik, besabrlik, zulm va zo'ravonlik, safsatabozlik qattiq qoralanadi. Asar boshdan oyoq tavhid e'tiqodiga tayanadi, muallif fikrlari Alloh taoloning muborak oyatlari, Rasululloh (sav)ning hikmatli hadislaril bilan dalillanadi. Turkiy tilda bitilgan she'riy matn orasida qator oyatlar, 20 dan ortiq hadislarilning asl arabiy matn keltirilgan, ular turkiyda she'r vositasida sharh etilgan. Umuman olganda, «Hibat ul-haqoyiq» til jihatidan juda

qadimiy, ammo asrlar davomida ko'p ko'chirilib, kotiblar tomonidan tushunish qiyin jumlar soddalashtirilgan, keyingi asrlar til unsurlari ancha ancha ta'sir ko'rsatgan. Dostonning ilmiy-tanqidiy matnlari 1951-yilda turkiyalik olim Rashid Rahmat Arat, 1972-yilda o'zbek olimi Qozoqboy Mahmudov, keyinchalik Qozog'iston olimlari tomonidan turli qo'lyozmalarni chog'ishtirib tayyorlandi va chop etildi. Bu nashrlar barchasi XV–XVI asrlar matniga tayanadi, chunki qadimiyroq qo'lyozmalar saqlanib qolmagan. Dostonning barcha mavjud qo'lyozmalarida asl muallif matni oxirida ilova qilib, bir noma'lum kotib (yoki shoir) va Amir Sayfiddin (shoir Sayfiy)ning alohida to'rtliklari hamda Arslon xoja Tarxonning 10 baytli masnaviysi ilova qilingan. Bu she'riy ilovalar keyingi asrlarda qo'shilgan bo'lib, til xususiyatlariga ko'ra ham Adib Ahmad asaridan farq qiladi. Ular mazmuni, asosan, doston muallifini ta'rif etish, uning hayoti va ijodi haqida qo'shimcha ma'lumotlar berishga qaratilgan. Arslon xoja Tarxon Adib Ahmad asarini «qashqariy til bila» yozilgan deydi, ammo muallifning o'zi — «Anin ush chiqardim bu turkiy kitabi deb» yozgan edi. Demak, VI–VII asrlarda shakllanib bo'lgan umum-mintaqa turkiy tilini Adib Ahmad davrida «turkiy» atashgan bo'lsa, keyinchalik madaniy-adabiy markaz Qoraxoniylar poytaxtiga ko'chgach, uni «koshg'ariy» til deb atash rasm bo'lgan va Ulug'bekning amiri ushbu keyingi atamadan foydalangan. Umuman Adib Ahmad dostoni til xususiyatlarini Kultegin, Tunyuquq, Bilga qoon bitiklari bilan qiyoslab o'rganish turkiy madaniyat takomilini to'g'ri anglab yetishda katta ahamiyat kasb etgan bo'lur edi.

Ilk mutafakkirlardan bo'lmish Adib Ahmad Movarounnahr va Xurosonda turkiy elatlar madaniyatini yuksaltirishda katta xizmat qildi. XI–XII asrlarda ijod etgan Mahmud Koshg'ariy, Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy kabi nafaqat o'zbek xalqi, balki butun turk olami, hatto islom mintaqasining buyuk allomalari ichida Adib Ahmad muhim o'rin egalaydi. Alisher Navoiy u haqda shunday yozadi: «Xeyli elning muqtadosi ermish. Balki aksar turk ulusinda hikmat va nuqtalari shoedur (Ko'pgina el unga iqtido qiladilar, ya'ni ergashadilar. Uning hikmatli satrlari va nozik ishoralari aksariyat turkiy xalqlar orasida tarqalgandir). Asosan masnaviy shaklida yozilgan «Qutadg'u bilik» asarida yuzlab turkiy to'rtliklar uchraydiki, vazn va qofiyalanishi, ba'zan mazmuniy yo'na-



lishi ayni Adib Ahmad dostonidagi to'rtliklar kabidir. Ahmad Yassaviy hikmatlarida ham muvofiq joylar yo'q emas.

«Ilibat ul-haqoyiq» asari O'zbekistonda keng o'rganilib, o'zbek adabiyoti tarixi darsliklariga kiritilgan.

NAJMIDDIN KUBRO

(1145–1221)

Musulmon olamidagi eng zabardast mutasavvuf donishmandlardan biri buyuk vatandoshimiz shayx Najmiddin Kubrodir.

Abul-Jannob va Tomatul Kubro laqablariga sazovor bo'lgan tasavvufning Kubraviya silsilasining asoschisi Najmiddin Kubroning to'liq ismi Ahmad ibn Umar ibn Muhammad Xivaqiy al-Xorazmiydir. Hijriy oltinchi va yettinchi asrlarda yashagan Najmiddin Roziy, Majiddin Bag'dodiy, Sa'diddin Hamaviy, Sayfiddin Bahorziy va Bahouddin Valad kabi siymolar u kishining murid va shogirdlari bo'lgan.

Ahmad ibn Umar Abul-Jannob Najmiddin Kubro 540-hijriy (milo-diy 1145) yilda Xorazmning Xivaq shahrida dunyoga keladi.

Abdurahmon Jomiy o'zining «Nafahot ul-uns» asarida yozishicha, Najmiddin bolalik paytidayoq ilm istab Misrga ravona bo'ladi. Misrda Ruzbehon Vazzon al-Misriy (vafoti 584/1188) degan olim dargohida ta'lim oladi. Al-Misriy esa, o'z navbatida, mashhur mutasavvuf donishmand Abu Najib as-Suxravardiydan ta'lim olgan edi. Ruzbehon uni o'z o'g'lidek yaxshi ko'rib, alohida mehr bilan tarbiya qiladi, hatto qizini nikohlab berib, o'ziga kuyov qilib oladi.

Ammo ilmga chanqoq Najmiddin Kubro ko'p o'tmay Tabrizga borib, u yerdagi Imom Abu Mansur Hafda degan donishmanddan islomiy ilmlarni o'rganadi va Tabrizda shayx Bobo Faraj, Ammor Yasir, Ismoil Kasriy kabi ulkan mutasavvuf donishmandlardan tasavvufga oid ko'pgina zohiriy, botiniy ilmlarni ham egallaydi. U kishi shayx Ismoil Kasriy qo'lida tasavvufiy xirqapush darajasiga yetib, ul hazratning oq fothasini oladi. So'ngra Misrdagi ustoz va qaynatasi Ruzbehon maslahati bilan o'z vatani — Xorazmga qaytib kelib xonaqoh quradi va shogirdlar tarbiyasiga katta e'tibor beradi, «Kubraviya» yoki «Zahobiya» tariqatiga asos soladi.



Bu tariqat ta'limoti hadis va shariatga asoslangan bo'lib, o'z davrida Xuroson, Movarounnahr, Hindiston va boshqa musulmon mamlakatlari xalqlari orasida keng tarqaladi. Mazkur tariqat soliklari orasida zikri ovoz chiqarmasdan (xufiya) ijro qilish usuli joriy bo'lgan.

«Rashahot ayn-ul-hayot» asarining muallifi Faxruddin as-Safiy o'z asarida hazrati Abdurahmon Jomiy fikrlariga tayangan holda Najmiddin Kubroning zikri xufiya talqini to'g'risida so'z yuritadi va shayx Kubro tikricha, zikr jarayoni insonlarning nafas olish (tanaffus) jarayoni bilan chambarchas bog'liq ekanligi haqida shunday ma'lumot beradi: «Hazrat Mahdumi Nuriddin Abdurahmon al-Jomiy aytishlaricha, shayx Abul-Jannob Najm al-Kubro qudsi Allohi ruhi o'zining «Favotix al-jamol» risolasida yozganlaridek, hayvonlarning nafas olishi bir tabiiy zaruriyat tufayli yuz beradi. Insonlar ham aslida ayni o'sha zaruriyat yuzasidan nafas oladilar, lekin o'shanday nafas olish jarayonida inson g'oyibona haqu subhonahuning muborak nomini zikr qiladi.

Ali Akbar Dehxudoning mashhur «Lug'atnoma»sida keltirilishicha, «u kishining Kubro deb atalishlariga sabab shuki, behad ziyrakliklari va tunganmas zakovatlari tufayli har qanday muammoli masalani so'ralganda hal qilib berar edilar va har kim u kishi bilan bahs-munozara qilsa, g'olib chiqar edilar».¹

Shuningdek, u kishini Tomatul Kubro, ya'ni buyuk balo va qazolarning oldini oluvchi, xaloskor deb ham atashgan. Abul-Jannob deb atalishlariga sabab esa, u kishining dunyoviy ikir-chikirlardan uzoq turganliklaridir. Ul zotni «Valitarosh» (valiylarni parvarishlab yetishtiruvchi) deb ham atashgan. Chunki umrlari davomida o'n ikki kishini o'z muridliklariga qabul qilganlar va ularning barchasini shayx darajasiga yetkazganlar. Ular qatorida mashhur shayxlardan Farididdin Attorning otasi Majiddin Bag'dodiy (vafoti 1219) va Jaloliddin Rumiyning otasi Bahouddin Valad, Najmiddin Doya Roziy, Sa'diddin Hamaviy, Sayfiddin Bahorziy va boshqalar bor.

Najmiddin Kubroning Xorazmdagi so'nggi hayoti o'ta og'ir, shiddatli va murakkab sharoitda kechadi. Bu davrda mo'g'ullarning Turkistonga qilayotgan hamlalari kuchayib, Chingizxon Movarounnahrda yirik sha-

¹ A l i A k b a r D e h x u d o, Lug'atnoma. 104-jild, Tehron universiteti nashri, 1965, 365-bet (fors tilida).

hurlarni birin-ketin beayov bosib olishga muvaffaq bo'lgan. 1221-yilning jumodi ul-avval (iyul) oyida Chingizxon o'g'illari tumonat lashkar bilan Urganchni o'rab oladi. Urganch shahri qamal ichida qolib, aholi nihoyatda og'ir sharoitda azob chekayotgan bir asnoda munkillab qolgan, yetmishdan oshgan Najmiddin Kubro qo'lida qurol bilan shahar mudofaasida qatnashgan.

Najmiddin Kubro yuksak obro'ga ega bo'lsa ham, kamtarona hayot kechirgan. Ammo u kishining ba'zi muridlari mamlakat miqyosida shunchalik nufuzga ega bo'lganlarki, hatto Faxriddin Roziy kabi faylasuf va sulton Muhammad xorazmshoh ham ularning raqobatidan xavotirlanganlar. Masalan, «Sultonul ulamo» laqabiga ega bo'lgan Jaloliddin Rumiyning otasi Bahouddin Valad Balx shahrining uch yuzga yaqin faylasuf olimlari bilan bahs yurgizgan va ularni yunon falsafasi bilan ortiqcha shug'ullanishda ayblagan. Najmiddin Kubroning boshqa bir shogirdi, o'z navbatida, shayx Farididdin Attorning murshidi bo'lgan xorazmlik Majiddin Bag'dodiy hokimiyatdagi ishlarni tanqid qilgani uchun qatl qilingan. Lekin uning minglab shogirdlari bo'lgan. Ba'zida sulton Muhammad xorazmshohning o'zi ham shayxlarning huzuriga kelib, ularni ziyorat qilib turgan.

Najmiddin Kubro mo'g'ul bosqinchilariga qarshi o'z muridlari bilan shiddatli jangga kirib, shahid bo'lgan. Jangdan keyin, u kishining jasadini darhol topisha olmagan. Chunki ul zot qiyma-qiyma qilib tashlangan edi. Shahid bo'lganliklari haqidagi ma'lumotni hijriy 710(1311)-yilda yozilgan Rashididdin Fazlullohning «Jome at-tavorix» («Tarixlar to'plami») asarida uchratamiz.

Chingizxon shayx Najmiddin Kubroning mashhurliklarini eshitgan bo'lganligidan Xorazmga hujum qilish oldidan, u kishiga chopar yuborib, «Men Xorazmni qatliom qilmoqchiman, shuning uchun Sizdek ulug'vor shaxsni u yerdan ketib, bizga qo'shilishingizni so'rayman», degan. Ammo shayx unga javoban: «Men yetmish yil umrim davomida xorazmliklar bilan turmushning achchiq-chuchugini birga tortganman. Endi ular boshiga balo-qazolar yog'ilayotgan paytda qochsam muruvvatdan bo'lmaydi»,¹ degan.

¹ Mavlono Jaloliddin Rumiy, Masnaviye ma'naviy: Muqaddima, Kobul, 1982, 8-bet (fors tilida).

Bu voqea hijriy 618 (1221)-yilda ro'y bergan. Bu haqdagi ma'lumot «Tarixi guzida» («Tanlangan tarix»), Abdurahmon Jomiyning «Nafahot ul-uns», keyinchalik esa, «Ravzat ul-safo», «Habib us-siyar» va boshqa mashhur tarixiy kitob va tazkiralarda ham uchraydi.

Hijriy 733(1334)-yilda Xorazmga safar qilgan mashhur arab sayyohi ibn Battuta Urganch shahridan chiqaberishdagi zoviyada Najmiddin Kubroning maqbarasi va boshqa ulug'larning mozorini ko'rganligini yozadi.¹

Najmiddin Kubro bir necha ilmiy asarlar va ruboiylar yozganki, ular juda ko'p tazkiralarda uchraydi. U o'z qarashlarini arab tilida yozgan bir qator risolalarida bayon qilgan. Ulardan asosiyari «Favo'ix al-Jamol va favotix al-Jalol», «al-Usul al-ashara», «Risolat al-Xo'if al-xa'im min laumon al-la'im» va boshqalardir. Bu asarlar arab mamlakatlari va Turkiyada bosib chiqarilgan. Uning arab tilida yozgan «Risolatun odob ul-zokirin» («Zikr aytuvchilar odobi haqidagi risola») asarining Abdurahmon Jomiyning shogirdi Abdul G'ofur Loriy tomonidan fors tiliga qilingan tarjimasini bizgacha yetib kelgan va O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida № 503-X raqami ostida saqlanmoqda. Bu asarning asli nomi arabcha «Al-Usul al-ashara» («o'n usul» yoki «o'n asos») deb ataladi. Turkiyada ushbu asar turk tiliga tarjima qilinib, nashr etilgan.

Ma'lumki, Kubro haqiqat asroriga yetishish maqsadida o'z tasavvuf maktabini yaratdi. Uning aqidasi ko'ra, inson o'z mohiyati e'tibori bilan mikrokosm, ya'ni kichik olamni tashkil etadiki, u makrokosm, ya'ni katta dunyo bo'lgan koinotdagi barcha narsalarni o'zida mujassamlashtiradi. Ammo ilohiy sifatlar yuqori samoviy doiralarda birin-ketin o'ziga xos maqomlarda joylashganligidan, haqiqat yo'lini qidiruvchilar bunday yuksakliklarga ko'tarilib, ilohiy sifatlarga ega bo'lishi uchun, ya'ni kamolotlarga erishishi uchun, ma'lum riyozatli yo'llarni o'tishlari zarur. Buning uchun esa, har bir kishi o'n asosga tayanmog'i kerak:

1. Tavba — o'z xohishi bilan Haq taologa hech bir ko'rsatmasiz yuzlanishdir. Kishi o'z irodasi bilan Xudoni sevishi va o'zining «meni»dan kechishi kerak. Tavba Xudo tomon yuz tutgan barcha kishilarning har qanday gunohlardan forig' bo'lishidir. Gunoh shunday narsadir-

¹ И б р а г и м о в Н., Ибн Баттута и его путешествия по Средней Азии, Москва, «Наука», 1988, с. 74.

ki, u dunyoviy yoki ilohiy bosqichlardan tashkil topganiga qaramasdan Alloh taolodan yiroqlashtiradigan amaldir.

2. *Zuhd fi-dunyo* — bu dunyoda ham, uning tashqarisida ham, ni-maiki lazzat tomon boshlasa, undan tiyilishdir. Oz yoki ko'p bo'lsa ham, biror mol-u mulkka, jangga yoki bo'lmasa biror mansabga o'z tabiiy vafotigacha rag'bat yoki moyillik ko'rsatish, zuhddan chiqish hisoblanadi.

Zuhdning mohiyati dunyo va oxiratga rag'bat qo'yishdan voz kechishdir. Ichki lazzat, sharob ichish, nikohiy ishlarga ruju qo'yish, mansab va oliy martabalarni qo'rsash kabi rohatlarga o'xshash his-tuy-g'ulardan voz kechishdir. Yillar davomida xayrli ishlar bilan band bo'lib, yer ishlari bilan shug'ullanish va shunga o'xshash boshqa faoliyat ta'sirida dunyoviy narsalardan ko'ra, oxiratga ko'proq tamoyil va rag'bat ko'rsatish maqsadga muvofiqdir. Chunki dunyo foniy bo'lib, oxirat boqiydir.

3. *Tavakkal* — Xudoga ishonch jihatidan bu turmushdagi barcha iker-chikirlardan voz kechishdir. Shaxsning dunyoga rag'bat qo'yishi mol-u dunyo va mansab orttirish uchun tashabbus ko'rsatishga sabab bo'ladi. *Tavakkal* dildan Xudoga ishonish bo'lib, uning ulug'vorligini e'tirof etishdir. Maqsadga erishish mahalida *tavakkal* birinchi darajali ahamiyat kasb etadi.

4. *Qanoat* — hayot kechirishni ta'minlaydigan oz narsa bilangina qanoatlanish, o'z tarafiga tortadigan barcha noz-u ne'matlardan va hirslardan (ovqatni ko'p iste'mol qilish, qimmatbaho kiyimlarga havas qo'yish, o'yin-kulgi, bekorchilik va boshqalardan) yuz o'girish.

5. *Uzlat* — tanholikda o'tirib, ruhni mustahkamlash, odamlar bilan muomalani to'xtatish: gaplashmaslik, eshitmaslik, qaramaslik va turli fe'l-atvordan aloqani uzishdir. *Uzlatning* asl maqsadi xilvatda ado qilinganligi sababli his-tuyg'uni jilovlashdir. *Xilvat* va *uzlatga* ketish hissiyotlarning bosilishiga olib keladi.

6. *Mulozamat az-zikr* (uzluksiz zikr) — o'z xohishicha Xudoning ismini fikrida yod qilib turish va butun qalbni u bilan to'ldirish.

Shunday qilinganda, pastkashlik, hasad, ochko'zlik, ikkiyuzlamachilik kabi razillik va riyokorliklar ko'ngilga yo'l topa olmaydi.

7. *Tavajjuh* — butun ichki mohiyatni Xudoga qaratish, unga cheksiz muhabbat qo'yish, undan boshqa narsa borligini his etmaslikdir. O'z vujudini yo'qotish, Haqning abadiy va azaliy vujudini boshqa bilim ila ko'ra bilishdir.

8. Sabr — o‘z ixtiyori bilan nafs doirasidan mashaqqatlar chekib bo‘lsa ham, o‘zini olib qochishdir. Maqbul bo‘lgan to‘g‘ri yo‘ldan adashmasdan borish uchun, kishi o‘z mayllarini so‘ndirishi lozim. Bundan ko‘zlangan maqsad shundaki, dil kuduratlardan poklanishi, ruh esa, agar nafs natijasida zanglanib qolgan bo‘lsa, jilo topishi zarurdir.

9. Muroqaba (tafakkurga g‘arq bo‘lish) — erishilgan darajada mu-shohada yuritish, qalbni arziyas his-tuyg‘ulardan xoli qilib, tozalash va xotirjamlikka erishish. Kurash, riyozat chekish yo‘li bilan hosil qilingan yo‘l haqqoniy tuhfa etilgan tabiiy amal bo‘lib, yaratilish haqiqatining g‘alabasi sifatida paydo bo‘ladi va shuning uchun ham rivojlanib boradi.

10. Rizo — shaxsning nafs erkinligidan chiqib, Xudo xushnudligiga kirishi va azaldan nimaga ishongan bo‘lsa, o‘shani o‘z bo‘yniga olishidir. O‘z irodasini toabad qoladigan narsaga voqelik sifatida qaytarib, o‘linga o‘xshash o‘tkinchi narsaga e’tiroz bildirishidir.

O‘n usuldan chiqariladigan natija shundaki, o‘lmaydigan shaxsning yodi uning nafsini mag‘lubiyatga uchratgan sifatlarida yashaydi.

Najmiddin Kubro shahid bo‘lgandan so‘ng, uning ta‘limotini shogirdlari davom ettirib, Markaziy Osiyo Kubraviya maktabini vujudga keltirdilar. Bu birodarlik firqasi a‘zolarini birlashtirgan narsa rasmiy tashkilot emas, balki ta‘limotning ruhi va maqsadi edi.

Tashkiliy jihatdan Kubraviya xonaqohlarida o‘z-o‘zini boshqaradigan ozod anjuman bo‘lib, uning boshida xalifa turar edi. 1221-yilda vafot etgan Najmiddin Kubroning shogirdi Sayfiddin Bahorziy tomonidan Buxoro yaqinidagi Sokteriy qishlog‘ida tashkil etilgan ana shunday xonaqoh Najmiddin Kubro nomi bilan atalar edi. Bu yerdagi Kubraviya jamiyati XVIII asming oxirlarigacha faol ish ko‘rib, uning a‘zolari Kubro g‘oyalarini Xitoyning g‘arbiy chegaralarigacha yoydilar. Kubroning boshqa bir shogirdi, 1252-yilda vafot etgan Sa‘diddin Hamaviy Xurosonning Bahrabod deb atalgan maskanida xonaqoh barpo qilib, uning atrofida to‘garak tashkil etdi.

Kubraviya maktabi bir qator mustaqil shaxobchalar vujudga kelishiga sabab bo‘ldiki, ular musulmon dunyosi Sharqida keng tarmoq otdi. Bu tarmoq kelib chiqish manbayini Kubroning boshqa bir shogirdi bo‘lgan Majiddin Bag‘dodiy (Bag‘dodak Xorazmdagi qishloq bo‘lib, undan chiqqan Majiddin 1209 yoki 1219-yilda qatl etilgan) asos solgan tariqatdan, deb hisoblar edilar. Bular quyidagilar:

Firdavsiya — Sayfiddin Bahorziy shogirdining xalifasi bo'lgan, 1300-yillarda vafot etgan Najibiddin Muhammad tomonidan tashkil etilgan va Hindistonda (Dehli, Bihar) tarqalgan;

Nuriya — 1317-yilda vafot etgan Abdurahmon al-Isfaroiniy tomonidan asos solingan bo'lib, Kubraviyaning Bag'dod shaxobchasi hisoblanadi;

Rukniya — o'z kelib chiqishini 1261—1336-yillarda yashagan Rukniddin Alo'addavla as-Simnoniydan olgan birodarlik tariqati;

Hamadoniya oliya — Kashmirda islomni yoyishda faol ish ko'rsatgan Sayyid Ali binni Shahobiddin Hamadoni (1314—1385) asos solgan, rukniyadan ajrab chiqqan birodarlik tariqati bo'lib, Kubraviya tariqati silsilasining boshqa shaxobchalariga qaraganda eng mashhuridir;

Ig'tishoshiya — hamadoniya oliyaning Xuroson shaxobchasi bo'lib, Is'hoq al-Xuttaloni (1423-yil o'ldirilgan) tomonidan asos solingan. Uning ikki shogirdi esa, ikki mustaqil shia tariqatiga asos solishgan;

Zahabiya — asoschisi XV asr o'rtalarida vafot etgan Abdulloh Barzishobodi Mashhadiy;

Nurbaxshiya — asoschisi Nurbaxsh (1392—1464) laqabli Sayyid Muhammad binni Muhammad.

Yuqorida aytilganlar shundan guvohlik beradiki, Najmiddin Kubro ta'limoti butun musulmon Sharqi mamlakatlarida keng tarqagan bo'lib, hozirda ham uning ko'rinishlarini uchratish mumkin.

Shunday qilib, Najmiddin Kubro tasavvuf ta'limotining rivoji va butun musulmon Sharqida keng tarqalishida katta rol o'ynadi. Uning nomi islom olamida mashhur bo'ldi.





XIV asrning 2-yarmi — XV asr

AMIR TEMUR (1336—1405)

Amir Temur ibn amir Tarag'ay 1336-yil 9-aprelda Kesh (Shahrisabz) viloyatining Xo'ja Ilg'or qishlog'ida dunyoga kelgan. Uning otasi amir Muhammad Tarag'ay barlos ulusiga mansub beklardan, bahodir jangchi, ulamo-yu fuzaloga ixlosmand, ilm ahliga homiy va ishtiyoqmand kishi bo'lgan.

Amir Temurning yoshligi haqida ma'lumotlar kam uchrasa-da, ayrim manbalarga qaraganda, u yoshligida xat-savod chiqarib, o'z davrining tibbiyot, riyoziyot, falakiyot, me'morchilik va tarix ilmlarini o'rgangan. Amir Temur bilan suhbatlashish sharafiga muyassar bo'lgan buyuk arab faylasufi Ibn Xaldun jahongir turk, arab, fors xalqlari tarixini, diniy, dunyoviy va falsafiy bilimlarning murakkab jihatlarigacha yaxshi o'zlashtirganini ta'kidlaydi.

Amir Temur siyosat maydoniga kirib kelgan paytda, Movarounnahr mo'g'ullar istibdodi ostida bo'lib, Chingizxon bosib o'tgan shahar va qishloqlar vayronaga aylangan, suv inshootlari buzib tashlangan yoki ishga yaroqsiz holga keltirilgan, Chingizxon Movarounnahrni o'zining ikkinchi o'g'li Chig'atoyxonga suyurg'ol sifatida in'om qilgan edi.

Amir Temurning hayoti va faoliyatida ikki davr yaqqol ko'zga tashlanadi. Birinchi davri (1360—1385) Movarounnahrni mo'g'ul xonligidan ozod qilib, yagona markazlashgan davlat tuzish, o'zaro urushlarga barham berish. Ikkinchi davri (1386—1405) esa ikki yillik, uch

yillik, besh yillik, deb ataluvchi boshqa mamlakatlarga yurishlari bilan tavsiflanadi.

1360-yillardan boshlab Amir Temur Movarounnahrda ichki nizo, urushlarda ishtirok eta boshladi va Mo'g'uliston hukmdori Tug'luq Temurxon, uning o'g'li Ilyosxo'jaga qarshi kurashlardan so'ng, Amir Husayn ustidan g'alaba qozongach, 1370-yilda Movarounnahr taxtining haqiqiy sohibi bo'ldi va Samarqandni hokimiyat poytaxti etib belgiladi.

Amir Temur taxtga o'tirgach, Chig'atoy ulusining barcha yerlariga o'zini voris deb bildi va Sirdaryoning quyi havzasidagi yerlarni, Toshkent viloyatini, Farg'ona vodiysini, Xorazmni o'z hukmronligi ostiga kiritdi. Natijada, Movarounnahr va Xurosonda yirik markazlashgan davlat vujudga keldi. Sohibqiron so'nggi yillarda Eron, Iroq, Zakavkazye mamlakatlari, Hindiston, Oltin O'rda va Turkiya bilan bo'lgan janglarda g'olib chiqib, saltanat hududini sharqda Sharqiy Turkistonga qadar, g'arbda — O'rta dengizga, janubda esa Shimoliy Hindistonga qadar kengaytirdi.

Amir Temur faoliyatida muayyan siyosiy yo'l — mayda feodal hukmronligini tugatish, muhim xalqaro karvon yo'llarida ustunlik qilib turgan Oltin O'rda, Eron va boshqa mamlakatlarning raqobatini yengib, Movarounnahrning siyosiy-iqtisodiy quvvatini ta'minlay oladigan markazlashgan davlat tashkil etish edi. Amir Temur avvalambor mamlakatda davlat tizimini mustahkamlash, boshqarishdagi tartib-intizom, qonunchilikni kuchaytirish, savdo-sotiq, hunarmandchilikni kengaytirishga imkoniyat yaratish, soliqlarni tartibga solish, mamlakat himoyasini ta'minlash yo'lida qo'shinning qudratini oshirish kabilarga katta e'tibor berdi.

Amir Temurning har bir harbiy yurishiga turtki bo'larlik sabab bor edi. Bu sabablar — o'z davlatining chegaralarini mustahkamlash, tashqi dushmanlardan himoyalaniish, karvon yo'llarini turli yo'lto'sarlardan tozalash, xiyonatchi, sotqin, aldanchilarni jazolash, bo'ysunmaganlarni itoat ettirish, o'zining siyosiy ta'sirini kengaytirish kabilardan iborat bo'lganligini tarixiy manbalardan bilib olish mumkin. Masalan, Amir Temurning To'xtamishxonga qarshi yurishini olsak, Amir Temur To'xtamishxonga ko'p iltifotlar, yordamlar ko'rsatib, 1379-yilda O'rusxonni yengib, Oq O'rda taxtiga To'xtamishxonni o'tqazgan edi. Ammo To'xtamishxon Amir Temurning umidlarini puchga chiqardi.

U Movarounnahrğa bir necha bor talonchilik niyatida bostirib kirganidan so‘ng, Amir Temurda ham unga qarshi kurashish majburiyati vujudga keldi va 1395-yil 15-aprelda Qunduzchada Amir Temur bilan To‘xtamishxon o‘rtasida hal qiluvchi hayot-mamot jangi boshlandi. Jang faqat To‘xtamishxonning taqdirini hal qilib qo‘yaqolmay, balki butun Oltin O‘rda taqdirini ham hal qildi.

Tarix Amir Temur zimmasiga Oltin O‘rdadek qudratli mo‘g‘ul imperiyasining asosini yemirishdek ulkan vazifani qo‘ygan ekan, Sohibqiron bu vazifani ham buyuk jasorat bilan ado etib, Rus knyazliklari va Sharqiy Ovro‘po xalqlarini mo‘g‘ullar asoratidan xalos bo‘lishlariga yo‘l ochib berdi. Yirik rus olimi A.Y.Yakubovskiy: «Temurning To‘xtamish ustidan qozongan bu g‘alabasi nafaqat Markaziy Osiyo va Sharqiy Ovro‘po, balki Rusiya uchun ham katta ahamiyatga molik bo‘ldi», deb yozdi. Amir Temur davlatni boshqarishga katta e‘tibor berib, yangi davlat tizimi bo‘yicha Devoni buzurgdan tashqari, har bir viloyatda Devon deb ataluvchi boshqarma tuzib, bu boshqarmalar soliq yig‘ish, tartib saqlash, ijtimoiy binolar — bozorlar, hammomlar, yo‘llar, sug‘orish tarmoqlariga qarab turish va aholining xulqiy-axloqiy harakatlari nazorat ostiga olish kabi ishlar bilan shug‘ullangan. Har bir Devonda kirim va chiqimlarni hisobga olish, qayd etish turk-o‘zbek va fors-tojik tillarida olib borilgan.

Amir Temur tarixchilar tasviricha, o‘rta asrning atoqli davlat va harbiy arboblardan bo‘lib, Ovro‘po olimlari o‘z asarlarida uning salbiy tomonlari bilan birga muhim fazilatlarini ham ta‘kidlab o‘tganlar. Nemis olimi F. Shlosser o‘zining «Jahon tarixi» (III jild) asarida: «Baxtiyor jangchi, jahongir, uzoq Sharqda qonunshunos bo‘lish bilan birga o‘zida, Osiyoda kam uchraydigan taktik va strategik bilimlarni ifodaladi», deb yozsa, atoqli nemis olimi va tarixshunosi M. Veber: «Temur o‘z dushmanlariga nisbatan juda berahm edi, lekin sarkardalik, davlatni boshqarish va qonunchilik sohasida buyuk iste‘dodga ega edi», deb ta‘riflaydi. Shuningdek, «Tuzuki Timur» — «Temur tuzuklari»da ham Amir Temurning jamiyatga, ijtimoiy-siyosiy hayotga qarashi, birlashgan qudratli feodal davlatning siyosiy va axloqiy qoidalari haqida gap boradi.

«Temur tuzuklari»da davlat tizimi, davlatdagi turli lavozimlarning vazifasi, undagi turli toifalar va ularga munosabat, davlatni boshqarish-

ga asos bo'lgan qoidalar, qo'shinlarning tuzilishi, tartibi, uni boshqarish, ta'minlash, rag'batlantirish, qo'shin turlarining tutgan o'rni va o'zaro munosabati kabi masalalar bayon etiladi. Davlat ishlarini har doim islom va shariat hukmlari asosida olib borilganligi bir necha bor ta'kidlanadi. «Saltanatim martabasini, — deb ta'kidlaydi Amir Temur, — qonun-qoidalar asosida shunday saqladimki, saltanatim ishlariga aralashib, ziyon yetkazishga hech bir kimsaning qurbi yetmasdi». Bundan tashqari, asarda jamiyat ishlaridagi odamlarning 12 toifaga bo'linishi, saltanatni boshqarishda 12 qoidaga amal qilinganligi, saltanat 4 qat'iy qoidaga asoslanishi kabi masalalar ham tartib bilan bayon etilgan («Temur tuzuklari»ga qaralsin — M. X.).

Shaharlar va shahar atrofi aholisidan na jon solig'i va na boj olinardi. Birorta ham askarning doimiy turish uchun shaxsiy kishilar uyini egalashga yoki fuqarolarning molini va boyligini o'zlashtirib olishga haqqi yo'q edi. «Barcha ishlarda, — degan edi Amir Temur, — bu ishlar qaysi o'lka xalqiga taalluqli bo'lmasin, hokimlarning adolat tomonida qattiq turishlariga buyruq berilgan. Qashshoqlikni tugatish maqsadida boshpanalar tashkil qildimki, kambag'allar ulardan nafaqa olib turardilar». Bundan tashqari Amir Temurning soliqlar haqidagi qoidasi juda muhim ahamiyatga egadir. Amir Temur yozadi: «Soliqlar yig'ishda xalqni og'ir ahvolga solishdan yoki o'lkani qashshoqlikka tushirib qo'yishdan ehtiyot bo'lish zarur. Negaki, xalqni xonavayron qilish davlat xazinasining kambag'allashishiga olib keladi, xazinaning bequvvatligi harbiy kuchlarning tarqoqlanishiga, bu esa, o'z navbatida, hokimiyatning kuchsizlanishiga sabab bo'ladi...».

Amir Temur harbiy salohiyatda jahonga mashhur sarkarda va o'z zamonasining eng qudratli hukmdori bo'lishi bilan birga, uning harbiy nazariyasi va amaliy harbiy san'ati, taktika va strategiyasi, armiya tarkibining tuzilishi o'z davrining nodir mo'jizasi edi. Uning harbiy mahorati turli yo'nalishlarda — askariy qismlarni qayta tashkil etishda, dushmanga hujum qilishda turli-tuman usullardan foydalanishda, hujumdan oldin dushman joylashgan yerlarni obdon o'rganib chiqishda, ham lashkarboshi — qo'mondonlikda namoyon bo'ldi.

Adabiyotlarda Amir Temur haqida bir-biriga zid fikrlar mavjud bo'lib keldi, lekin ularning ko'plarida, Amir Temur faoliyatiga o'z davri



nuqtayi nazaridan emas, balki mualliflar yashagan davr nuqtayi nazarini asosida baho berilgan.

«Temur tuzuklari»ni inglizchadan fransuz tiliga tarjima qilib, 1787-yilda nashr etgan fransuz olimi Lyangle Amir Temur haqida shunday yozadi: «Temurxon (Temur) siyosiy va harbiy taktika haqida risola yozgan va o'z avlodlariga juda dono tizim qoldirgan. Biz buni tasavvur ham qilmagan edik va uning urushlarini bosqinchilik va talon-taroj qilish deb baholab kelgan edik. Deyarli yengib bo'lmaydigan ikki to'siq — bizdagi taassub hamda tarixiy nohaqlik Temurni bilishimizga va to'g'ri baholashimizga xalaqit berib keldi».

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Amir Temur davlat, jamiyat hayotida bo'lib o'tadigan har bir muhim reja oldidan kengash o'tkazar va bu kengashga nafaqat davlat arboblari, sarkardalar, temurzodalarni, balki sayyidlar, shayxlar, ilm-fan arboblari ham taklif etgan va o'zining har bir yurishi oldidan bunday kengashlarni o'tkazib turishni odat tusiga kiritgan.

Amir Temurning obodonchilik ishlari to'g'risida taniqli sharqshunos olim, akademik V.V.Bartold: «Temur go'yo Samarqanddan boshqa hamma yerda vayrongarchilik bilan shug'ullangan, degan fikr mubolag'ali: u Kobul vodiysi va Mug'an cho'li kabi Samarqanddan uzoq bo'lgan joylarda ulkan sug'orish ishlari olib bordi», degan tarixiy jihatdan g'oyat qimmatli fikrni aytib o'tgan. Bu fikrga muqoyasa qilib, Ali Yazdiyning yozishmasini keltirish maqsadga muvofiqdir. «Bir yil mobaynida, — deb yozadi o'rta asr tarixchisi Ali Yazdiy, — Bag'dod shahrini tiklash haqida buyruq berildi, toki shahar yana o'z qiyofasini olsin, unda hunarmandchilik rivojlansin, tevarak-atrofida dehqonchilik o'ssin, savdo-sotiq va madaniy hayot keng tarmoq yoysin, islom bilimi ilgarigiday yoyilsin. Bu vazifa amirzoda Abu Bakrga topshirildi».

Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Movarounnahrda mo'g'ullarning qariyb 140 yillik hukmronlik davrida bironta ham ko'zga ko'rinarli qurilish yoki suv inshootlari vujudga kelmagan. Amir Temurning tashabbusi bilan 1365-yilda Qarshi, 1370-yilda Samarqand, 1380-yilda esa Keshning atrofi qaytadan mudofaa devorlari bilan o'ralgan. Shuningdek, xalq farovonligi-yu, mamlakat obodonchiligi yo'lida suv omborlari, to'g'onlar qurishga, ariqlar qazishga, yangi yerlarni o'zlashtirishga alohida e'tibor berilgan. Mamlakatning iqtisodiy ahvolini ko'

tarishda savdoning ahamiyati beqiyos ekanligini tushungan hukmdor bozorlar, rastalar va timlar, turli-tuman ustaxonalar barpo etib, xalq hunarmandchilik san'atini taraqqiy ettirgan.

Amir Temur ilm-fan, ma'naviyat ahliga e'tibor, mehribonlik ko'rsatib, ulardan jamiyat madaniy hayotida foydalanishga intilar ekan, tarixchi Ibn Arabshoh yozganidek, «Temur olimlarga mehribon, sayyid-u shariflarni o'ziga yaqin tutar edi. Ulamo va fuzaloga to'la izzat-hurmat ko'rsatib, ularni har qanday odamdan tamom muqaddam ko'rardi. Ularning har birini o'z martabasiga qo'yib, izzat-u ikromini unga izhor qilardi».

Amir Temur saroyida ko'plab ilm-ma'rifat allomalari Mavlono Abdujabbor Xorazmiy, Mavlono Shamsuddin Munshi, Mavlono Abdullo Lison, Mavlono Badriddin Ahmad, Mavlono Nu'moniddin Xorazmiy, Xoja Afzal, Mavlono Alouddin Koshiy, Jalol Xokiylar Sohibqironning marhamatidan bahramand bo'lib, uning xizmatida bo'ldilar. Amir Temur ilm-fanning riyoziyot, handasa, me'morchilik, falakiyot, adabiyot, tarix, musiqa kabi sohalari ravnaqiga katta e'tibor berib, sohibi hunarlar bilan qilgan suhbatlari haqida fransuz olimi Lyangle shunday yozadi: «Temur olimlarga seriltifot edi. Bilimdonligi bilan bir qatorda softilligini ko'rgan kishilarga ishonch bildirardi. U tarixchilar, faylasuflar, shuningdek, ilm-fan, idora va boshqa ishlarda iste'dodli bo'lgan barcha kishilar bilan suhbatlashish uchun ko'pincha taxtdan tushib, ularning yoniga kelardi. Chunki Temur bu sohalarga g'amxo'rlik qilishga asosiy e'tiborini berardi».

Amir Temur o'zini mohir diplomat sifatida ham namoyon qilolgan. Uning Vizantiya, Venetsiya, Genuya, Ispaniya, Fransiya, Angliya, boshqacha aytganda, o'sha vaqtda ko'proq ma'lum va mashhur bo'lgan Ovro'po davlatlari bilan iqtisodiy aloqalar o'rnatish va uni mustahkamlash sohasidagi faoliyatini fransuz va ingliz qirollarining unga yozgan mak-tublari bilan dalillash mumkin.

Manbalarda sohibqiron Amir Temur — yorqin xislatlarga ega ekanligi, xotirasi o'tkir, shijoatli va qat'iyatli, birso'zli, zo'r ruhiy qudrat egasi, salobatli inson sifatida ta'riflanadi.


Amir Temurning Osiyo, umuman jahon tarixidagi xizmatlari va tutgan o'mi haqida xulosa qilib, quyidagilarni ta'kidlab o'tish joizdir: Amir Temur Markaziy Osiyoni mo'g'ullar iskanjasidan ozod etishda barcha

yurtparvar kuchlarni uyushtirib, ularni mustaqillik uchun kurashga yo'naltirgan yetakchi rahbar, yerli xalqning bu sohadagi orzu-umidlarini ro'yobga chiqishiga ulkan hissa qo'shgan sarkardadir; Amir Temur ko'p yillar davomida mustamlaka bo'lib, chet ellik hukmdorlarga bo'ysunib kelgan Movarounnahr va Xurosonda o'z yurti, xalqining kuch-qudratiga tayangan mustaqil va yagona davlat barpo etaoldi; Amir Temur ham o'z davriga xos bo'lgan turli sabablarga binoan boshqa mamlakatlarga yurishlar qildi va Ovro'po mamlakatlarining rivojlanishini tezlashishiga o'z hissasini qo'shdi. Rossiyani Oltin O'rda zulmidan, Ovro'poni Turkiya tajovuzidan saqlab qoldi; Amir Temur o'z siyosatida madaniyat, obodonchilik, hunarmandchilik homiysi bo'lib tanildi. O'z siyosati bilan madaniy yuksalishga va turkiy tilning rivojiga keng yo'l ochib, nafaqat Markaziy Osiyoning madaniy-ma'naviy olamida, balki butun musulmon olami tarixida o'chmas iz qoldirdi va so'nggi rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi; Amir Temur qator Sharq mamlakatlari va ayniqsa, Ovro'po mamlakatlari bilan diplomatik aloqalar o'rnatib, ular bilan turli savdosotiq, madaniy aloqalarga yanada keng yo'l ochib berdi.

Sobiq sovetlar mafkurasi, proletar dunyoqarashi hukmronlik qilgan sharoitda Amir Temur faoliyatiga nisbatan salbiy munosabatda bo'lindi, o'sha davr adabiyotlarida har doim qoralanib kelindi. Lekin mafkuraviy to'siq, taqiqlashlarga qaramay ayrim ilmiy asarlarda Amir Temur haqida ba'zi to'g'ri fikrlar ham bildirildi.

Bu jihatdan O'zbekistonda 1968-yili akademik I.M.Mo'minovning «Amir Temurning O'rta Osiyo tarixida tutgan o'rni va roli» risolasining nashr etilishi muhim voqea bo'ldi. Risola Amir Temur shaxsiga biryoqlamali qarashlarga qarshi yozilgan ilmiy asar sifatidagi dastlabki urinish edi. Lekin bu qadam Moskvadagi yuqori idoralar va matbuot organlari tomonidan qoralandi va asar muallifi benihoya aziyatlar chekdi.

O'zbekistonning mustaqillikka erishuvi, eski mafkura siquvidan qutulish, tariximizga to'g'ri munosabatda bo'lish imkonini yaratdi. Amir Temur va uning davrini o'rganishga bag'ishlangan qator manbalar, kitoblar, jumladan, Bo'riboy Ahmedovning Amir Temur haqidagi katta roman-xronikasi nashr etildi. O'zbekiston Prezidentining farmoni bilan 1996-yil — Amir Temur yili deb e'lon etilishi va bu sana jahon miqyosida mishonlanishi Amir Temur nomi oqlanib, o'zbek xalqiga butunlay qaytganiga yorqin dalildir.



BAHOUDDIN NAQSHBAND (1318–1389)

Markaziy Osiyoda XIV asrda paydo bo'lgan yana bir yirik tasavvufiy tariqat — «Naqshbandiya» tariqatidir. Bu tariqat Xoja Muhammad Bahouddin Naqshband nomi bilan bog'liqdir. Naqshband 1318-yilda Buxoro yonidagi Qasri Hinduyon (Hinduvon) qishlog'ida tug'iladi (so'ngra Hazrati Naqshband sharofati bilan bu qishloq «Qasri Orifon» deb atala boshlangan). 1354-yilda vafot etgan mutasavvuf olim Xoja Muhammad Boboi Samosi Bahouddin Naqshbandning Buxoro yonidagi Qasri Hinduyon qishlog'ida paydo bo'lishini oldindan bashorat qilgan ekan. Mazkur mutasavvuf donishmand yosh Bahouddinni o'ziga o'g'il qilib oladi va har tomonlama uni tarbiya qiladi. Vafotidan oldin uni o'z shogirdi Sayyid Mir Kulolga topshiradi. Shu zaylda yosh Bahouddin o'sha davrdagi atoqli mutasavvuf Sayyid Mir Kulol qaramog'ida ta'lim olgan.

Tasavvufning mashhur bilimdoni, atoqli sharqshunos Y.E.Bertelsning yozishicha, Naqshband ta'limotining asosida ixtiyoriy ravishdagi faqirlik yotadi... Shunga binoan, Bahouddin Naqshband umri bo'yi dehqonchilik bilan kun kechirgan, o'z qishlog'ida unchalik katta bo'lmagan yeriga bug'doy va mosh ekar ekan. U uyida hech qanday mol-dunyo va boylik saqlamagan. Qishda qamishlar ustida, yozda esa bo'yra ustida yotib kun kechirgan. Uning uyida hech qachon xizmatkor ham bo'lmagan. Hazrati Naqshband butun umrini o'z xohishi bilan faqirlik va yo'qsillikda o'tkazgan. Zero, bu tariqatning asl aqidasi — «Dil ba yor-u, dast-ba kor» — ya'ni «doimo ko'ngling Allohda bo'lsin, qo'ling esa ishda», degan g'oyani ilgari suradi. U o'z qo'l kuchi bilan kun ko'rishni yoqtirgan, topgan-tutganlarini — yetim-yesirlarga, beva-bechoralarga in'om etgan, hukmdorlardan doimo o'zini yiroq tutgan, ular oldida hech qachon ta'magirlik qilib yashamagan.

XIV asrda Markaziy Osiyoda paydo bo'lgan «Naqshbandiya» ta'limoti Afg'oniston orqali Hindistonga va boshqa islom yurtlariga shiddat bilan tarqala boshlaydi. Naqshbandiya ta'limoti Amir Temurning mo'g'ullar istilosiga qarshi kurash, mustaqil davlat barpo etib, unda madaniy-ma'naviy rivojlanishni ta'minlashga intilishida, temuriylar davri madaniy yuksalishida katta ijobiy ahamiyat kasb etadi.

XV asrning ko'p olim-fozillari, davlat arboblari, san'atkorlari Naqshbandiya ta'limotidan keng foydalandilar, unga o'ta ijobiy munosabatda bo'ldilar. Zahiriddin Muhammad Bobur (1483–1530) davrida, undan keyingi XVI–XVII asrlarda bu jarayon ancha tezlashadi. Naqshbandiya tariqati XVI asrda Xoja Muhammad al-Boqiy Kobuliy (vafoti 1605) Hindistonga borgandan so'ng Hind tuprog'ida ham avj oladi. Bu mashhur mutasavvuf olim Afg'on va Hind yurtlarida Xoja Boqibillo nomi bilan mashhurdir. Uning shogirdi Xoja Ahmad Foruq Sirhindiy (1563–1624) esa Naqshbandiya ta'limotining XVII asrda Hindistonda yoyilishida katta rol o'ynagan.

Shunday qilib, bizning tabarruk yurtdoshimiz Hazrati Bahouddin Naqshband tomonidan asoslangan Naqshbandiya ta'limoti Markaziy Osiyo, O'rta va Yaqin Sharq xalqlarining ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-madaniy hayotida juda katta o'rin egalladi. Bu ta'limot boshqalar mehnati bilan kun kechirishni, tekinxo'rlikni, ijtimoiy zulm-istibdodni qat'ian qoralaydi. Bu ta'limot tarafdorlari asketizmga (tarkidunyochilikka) qarshi, boy-zodagonlarning zulm va istibdodiga qarshi bo'lganlar, faqat o'z qo'l kuchi, peshona teri bilan halol mehnat qilib kun kechirishga chaqirganlar. Naqshbandiyalar savdo-sotiq, dehqonchilik, hunarmandchilik, badiiy adabiyot, musiqa, ilm-ma'rifat, xattotlik, naqqoshlik, miniatura, quruvchilik kabi barcha foydali va xayrli yumushlar bilan shug'ullanishga da'vat etganlar. Shuning uchun ham o'z davridagi ilm-ma'rifatning, adabiyotning yirik namoyandalari bo'lmish Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Xushholxon Xattak, Mahtumquli Firoq'iy singari yuzlab ulkan taraqqiyparvar, insonparvar shoirlar va mutafakkirlar Naqshbandiya yo'lini tanlaganlar, hayotni va insonni avji baland pardalarda kuylab, tinmay barakali ijod qilganlar.

Xoja Bahouddin Naqshbandni Markaziy Osiyo xalqlari juda yuksak qadrlaydilar. Xalqimiz ul Hazratga baland e'tiqod qo'yib, «Bahouddin — balogardon!» deya behad e'zozlaydi. Hozirgi mustaqillik zamonida «Yassaviya», «Kubraviya», «Naqshbandiya» kabi o'lkamizda (Turkistonda) vujudga kelgan tariqatlar endi bizda ham har tomonlama chuqur o'rganila boshlandi. Xoja Ahmad Yassaviy, Shayx Najmiddin Kubro va Xoja Bahouddin Naqshband singari mutasavvuf donishmandlarning poklik, to'g'rilik, mehr-shafqat, adl-u insof, imondorlik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi ilg'or umumbashariy fikrlari davri-

mizga hamohang bo'lib, kelajak uchun xizmat qiladi. 1993-yilda O'zbekistonda Bahouddin Naqshbandning 675 yilligi zo'r tantanalar bilan o'tkazildi, unga bag'ishlab qator asarlar nashr etildi, Xalqaro ilmiy konferensiyalar bo'lib o'tdi. Buxorodagi Naqshband nomi bilan bog'liq bo'lgan yodgorliklar qaytadan tiklandi.

SHOHRUX MIRZO (1377–1447)

Shohrux Mirzo Amir Temurning to'rtinchi o'g'li bo'lib, 1377-yil 20-avgust, payshanba kuni olamga kelgan. Tarixchi Xondamirning bergan ma'lumotiga qaraganda, Shohruxning onasi Tag'oy Turkon og'o Sohirqironning xos kanizaklaridan bo'lib, Amir Temur keyinchalik uni o'z nikohiga kiritgan. Shunday bo'lsa ham Shohruxni Saroymulxonim tarbiyalab voyaga yetkazgan.

Shohrux Mirzo yoshligidanoq ahkomi shariatga qattiq rioya qilib, diniy kitoblarga qiziqqan. U 20 yoshigacha otasi Sohirqiron qavatida bo'lib, harbiy yurishlarda, jumladan, Falastin yurishida ham faol qatnashgan. Amir Temur 1397-yilda unga Xuroson, Seiston va Mozandaron hokimligini bergach, to 1405-yilgacha Xuroson hukmdori degan nom bilan kifoyalangan.

Fasih Xavofiyning yozishiga qaraganda, Shohrux Mirzo Hirotning nufuzli xo'jazodalari rahnamoligida Xuroson hokimligini boshqargan.

Amir Temur vafotidan so'ng, Shohrux Mirzo taxtga da'vogarlar qatorida valiaxd Pirmuhammad Mirzo bilan ittifoq tuzib, Samarqand hukmdori Xalil Sultonga qarshi kurashadi. 1407-yili Pirmuhammad Mirzoning fojiali o'limidan so'ng yakka o'zi kurashni davom ettirib, 1409-yili Xalil Sulton ustidan qo'li baland kelib, taxtni qo'lga kiritgach, Movarounnahrni to'ng'ich o'g'li Ulug'bek Mirzoga, Balxni ikkinchi o'g'li Sulton Ibrohim Mirzoga, Hisorni marhum Muhammad Sulton Mirzoning o'g'li Muhammad Jahongir Mirzoga, Farg'onani esa marhum akasi Umarshayx Mirzoning o'g'li Ahmad Mirzoga in'om qilib, o'zi Hirotga qaytib ketadi.

Shohrux Mirzo asta-sekin o'z akalari Jahongir, Umarshayx va Mironshoxlarning avlodini har xil yo'llar bilan o'ziga tobe qilib, Movaroun-

nahr, Ozarbayjon, Iroq, Xuroson va Shimoliy Afg'oniston bilan iborat katta bir davlat jilovini o'z qo'liga kiritib, Hirotni o'zining poytaxti deb e'lon qiladi va «ulug' xoqon» sifatida saltanatni boshqarishga kirishadi.

Shohrux Mirzo ko'p vaqtini toat-ibodat va kitob mutolaasiga sarflarkan, devon va saltanatni boshqarishda o'ktam va tadbirkor xotini Gavharshodbegim faol ishtirok etgan.

Shohrux Mirzo ixlos va niyozmandlik yuzasidan darveshlar hamda go'shanishinlarga iltifotlar ko'rsatib, Hirotning Jome' masjidida juma namozini xaloyiq bilan birga o'qirdi. Juma namozlarining birida (1427-yil 21-fevral) Ahmad ismli kimsa masjid ichida Shohrux Mirzoga pichoq sanchadi. Ahmad o'sha zahoti qatl etiladi. Tabiblarning jonbozligi bilan qilingan muolajadan so'ng zaxm bitib, Shohrux Mirzo tuzalib ketadi.

Shohrux Mirzo umrining oxirigacha o'z o'rniga valiahd tayinlashga ikkilanib yuradi.

1446-yili Shohrux Mirzo o'z nabirasi, Qazvin, Ray va Qum viloyatlari hukmdori Sulton Muhammadga qarshi yurish boshlaydi. Chunki Sulton Muhammad bobosi Shohrux Mirzoga qarshi bosh ko'tarib, Hamadon va Isfahonni bosib olib, Sherozni qamal qilgan edi. Shohrux Mirzo qo'shini g'arbiy Eronda hech qanday qarshilikka uchramaydi. Nimagaki, bobosining kelayotganini eshitgan Sulton Muhammad Sheroz qamalini bo'shatib, tog'ga qochgan edi. Qo'zg'olon aybdorlari ayovsiz jazolanadilar.

Mazkur harbiy yurishdan qaytayotganda Shohrux betoblanib, 1447-yili Ray viloyatida, 70 yoshida vafot etadi.

Xuroson Shohrux Mirzo davrida siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy jihatdan ancha rivojlandi, ko'plab xayrli ishlar amalga oshirildi. Masjidlari, madrasalar, xonaqohlar, rabotlar, sardobalar, qishloq va qo'rg'onlar qurilib, mazkur qurilishlar vaqf mulklari bilan ta'minlandi. Shohrux Mirzoning mo'tadil ichki va tashqi siyosati Xurosonda tinchlikning barqaror bo'lishiga olib keldi. Bu davrda tijorat, hunarmandchilik, dehqonchilik yuqori darajada ko'tarila boshladi. Ayniqsa, hunarmandchilik, to'qimachilik, me'morchilik, o'ymakorlik, xattotlik, muqovasozlik hamda qog'oz ishlab chiqarishga katta e'tibor berildi. Shuningdek, metallni qayta ishlash, qurilish asbob-uskunalarini tayyorlash, kulolchilik san'ati o'sdi. Bulardan tashqari zargarlik, kashtado'zlik, kandakorlik, shohi va boshqa xil matolar to'qib chiqarishga e'tibor kuchaydi. Jumladan, mahalliy va



xorijdan olib kelingan xomashyolardan banoras, atlas kabi matolar ishlab chiqarila boshlandi. Shu kasbning mohir ustalari yetishib chiqdi. XIV—XV asrlarda Xurosonda kulolchilik san'ati sopol buyumlar bilan bir qatorda suv inshootlarida, ulkan binolar qurilishida ishlatiladigan sopol quvurlar, xilma-xil shakl va ranglar bilan jilolangan sopol koshinlar ishlab chiqarish keng yo'lga qo'yildi.

Shohrux Mirzo mamlakat istiqbolini ko'zlab Xitoy va Hindiston hukmdorlari bilan diplomatik munosabatlarni yaxshilashga harakat qildi. Mazkur mamlakat elchilari Samarqand va Hirotida, o'z navbatida, G'iyosiddin Naqqosh rahbarligida Xitoyda, Abdurazzoq Samarqandiy boshchiligidagi elchilar Hindistonda bo'ldilar. Shohrux Mirzo Hirot shahar qal'asining janub tomonida (1410—1411) madrasa va xonaqoh bino qildirdi. Bu paytda poytaxt Hirot va umuman Xurosonda madaniy va maishiy qurilishlar keng quloch yozadi.

Hirotida bir necha shifoxonalar mavjud bo'lib, bularning qatorida yana ikkita «Dorushshifo» quriladi. Bu shifoxonalarning bittasi Shohruxning uchinchi xotini Mulkat og'o (Mulk og'o) tarafidan, ikkinchisi esa Shohruxning nabirasi Alouddavla (1417—1460) tomonidan qurdirilgan edi. Mulkat og'o ham Gavharshodbegim kabi Hirotida «Dorulhadis» nomli xonaqoh, ikkita hammom, Hirotidan 8 farsax narida, Amudaryoga boradigan yo'l ustida bitta rabot, Balx shahrida bir madrasa qurdirdi.

Shohrux davrida Hirotida qurilgan eng katta yodgorliklardan biri malika Gavharshodbegim tarafidan qurdirilgan ulkan madrasa va mazkur madrasa yonida qad ko'targan xonaqohdir. Bu binolar 1417-yilda boshlanib, 1437-yilda qurib bitkazilgan. Mazkur madrasa va xonaqoh hozirgi kungacha yetib kelgan bo'lib, xonaqohga uning ayrim o'g'illari, Gavharshodbegim va boshqa Temuriy shahzodalar va malikalar dafn etilgan. Shohrux Mirzo saroyida xizmat qiluvchi amaldorlar, beklar, sarkardalar o'z nomlarini abadiylashtirish maqsadida bir qator madaniy va maishiy binolar qurdirishgan. Chunonchi, Hirotning Xiyobon mavzesida Qurbon Shayx, Feruzshoh, Chaqmoq Shoh, Alayh Ko'kaldosh madrasalari qad rostlagan edi. Bu madrasalarda diniy bilimlar bilan bir qatorda tilshunoslik, adabiyot, tarix, geografiya, handasa, riyoziyot, falakiyot kabi ilmlar o'qitilardi. Bulardan tashqari, falsafa, mantiq va musiqa ilmi ham ancha rivojlangan edi.

Hirotda qadim zamonlardan turli-tuman diniy va ilmiy kitoblarga boy shaharlardan hisoblangan. Shohrux Mirzoning o'zi ham kitobga o'ch kishi bo'lib, o'zining boy shaxsiy kutubxonasi, o'g'li Boysung'ur Mirzoning ham ajoyib kutubxonasi bo'lgan. Bu kutubxonalar qimmatli asarlarga boyligi va xilma-xilligi bilan shuhrat qozongan.

Umuman sohibqiron Amir Temur vafotidan keyin Movarounnahr va Xurosonda Shohrux Mirzoning hukmronlik davrida nisbatan osoyishtalik hukm surdi. Binobarin, Amir Temur boshlab bergan iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayot o'z rivojini topdi.

MIRZO ULUG'BEK

(1394–1449)

Ulug'bek 1394-yilning mart oyida Eronning g'arbidagi Sultoniya shahrida, bobosi Amir Temurning harbiy yurishi paytida tug'ildi. U Shohrux Mirzoning to'ng'ich o'g'li bo'lib, unga Muhammad Tarag'ay ismi berilgan, lekin bolaligidayoq u Ulug'bek deb atala boshlab, bu ism keyinchalik uning asosiy ismi bo'lib qoldi.

Ulug'bekning bolalik yillari bobosi Amir Temurning harbiy yurishlarida o'tdi. 1405-yil Xitoyga qilinayotgan yurish boshida Amir Temur vafot etgach, to'rt yil davomida uning avlodlari o'rtasida taxt uchun kurash davom etdi va bu kurashda Amir Temurning kenja o'g'li Shohruxning qo'li baland keldi. Lekin Shohrux o'ziga poytaxt qilib Hirotni tanlab, Movarounnahr poytaxti Samarqandni esa o'g'li Ulug'bekka topshirdi. Shunday bo'lsa ham Shohrux Eron va Turonning yagona xoqoni deb hisoblanardi.

Shohrux to'ng'ich o'g'li Ulug'bekni 1411-yili Movarounnahr va Turkistonning hokimi etib tayinlaydi. Ulug'bek 17 yoshida hokim bo'lib, bobosidan farqli o'laroq harbiy yurishlar bilan qiziqmas, ko'proq ilm-fanga moyil edi. Afsuski, Ulug'bekning boshlang'ich ma'lumoti va murabbiy hamda ustozlari haqida aniq ma'lumot saqlanmagan. Ulug'bek bolalik yillarida buvisi Saroymulxonim tarbiyasida bo'lgan. Albatta biz bu ayol o'zining sevimli nabirasiga o'quv-yozuvni o'rgatgani hamda tarixiy mavzudagi hikoya va ertaklarni so'ylab berganligini taxmin qilishimiz mumkin. 1405–1411-yillarda amir Shoh Malik yosh mirzoning otabegi bo'lgan. Lekin u Ulug'bekka, asosan, harbiy va siyosiy tarbiya bera olishi mumkin edi.

Ulug'bekning ustozlaridan biri munajjim Mavlono Ahmad bo'lganligini taxmin qilish mumkin, chunki bu kishi Amir Temurning saroyidagi eng yirik olimlardan bo'lib, sayyoralarning kelajak ikki yuz yillik taqvimlari jadvallarini tuza olgan. Lekin Ulug'bekning o'zi keyinchalik asosiy asari bo'lmish «Zij»ida faqat Qozizoda Rumiyni «ustozim» deb ataydi. Haqiqatan ham, Qozizoda 1360-yillarda tug'ilgan bo'lib, 20–25 yoshlarida, ya'ni Ulug'bek tug'ilmasidanoq Amir Temurning sarfiga o'tadi. Natijada Ulug'bek umrining ilk davridanoq Mavlono Ahmad va Qozizoda Rumiya kabi astronom va matematiklar ta'sirida ulg'ayadi. Shu sababli uning hayotida aniq fanlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Ulug'bek yigirma yoshlarida o'z davrining yirik olimlaridan bo'lib, uning hokimligi davridagi muhim yangiliklar butun o'rta asr madaniyati tarixida ulkan ahamiyat kasb etdi. Ulug'bekning xodimi bo'lmish G'iyosiddin Jamshid Koshiy 1417-yili Samarqanddan Koshonga otasiga yozgan maktubida Ulug'bekning faoliyati va bilimdonligini quyidagicha ta'riflaydi: «Allohga va uning ne'matlariga shukronalar bo'lsunkim, yetti iqlimning farmonbardori, Islom podshohi (ya'ni Ulug'bek — A. A.) donishmand kishidirlar. Men bu narsani odob rasmi yuzasidan aytayotganim yo'q. Haqiqat shuki, avvalo u kishi Qur'oni karimning aksariyat qismini yoddan biladilar. Tafsirlarni va mufasssirlarning har bir oyat haqidagi so'zlarini aqlda saqlaydilar va yoddan biladilar va arabchada g'oyat yaxshi yozadilar. Shuningdek, u kishi fiqhdan ancha xabardorlar, mantiq ma'nolarining bayoni va usullaridan ham xabardorlar.

U kishi riyoziyot fanining barcha tarmoqlarini mukammal egallagan va shunday jiddiy mahorat ko'rsatganlarki, kunlardan bir kuni otda ketayotib, 818-yil rajab oyining o'ninchi va o'n beshinchi kunlari orasidagi (milodiy 1415-yil 15–20-sentabr) dushanba kuni yil mavsumining qaysi kuniga munosib kelishini aniqlashni aytadilar. Shunga ko'ra otda ketayotib, xayoliy hisob bilan Quyoshning taqvimi o'sha kuni bir daraja va ikki daqiqa ekanligini toptilar. Keyin otdan tushgach, hisob to'g'riligini bu bandai bechoradan (Koshiydan — A. A.) so'rab, aniqlab oldilar.

Haqiqatan ham, xayoliy hisobda ko'p miqdorlarni yodda tutmoq va boshqa miqdorlarni bularga asoslanib topmoq kerak. Lekin insonning yodlash quvvati zaifdir va u daraja daqiqalarini u qadar aniq topolmaydi. Inson bino bo'lganidan beri shu kungacha hali hech kimsa bu qadar aniq hisoblay olmagan edi.

Qisqa qilib aytmoqchimanki, u kishi bu fan sohasida g'oyat katta mahoratga erishganlar, yulduzshunoslikka taalluqli amallarni yaxshi bajaradilar va chuqur dalillar bilan xuddi keragidek isbotlaydilar. «Tazkira» va «Tuhfa»dan shu qadar zo'r dars o'tadilarki, ularga hech qanday qo'shimcha qilishning hojati qolmaydi».

Ulug'bekning ilmga qiziqqanligi va mamlakatning ravnaqini ko'zlaganligi tufayli yangi usuldagi bilim yurti — maktab va madrasalar barpo qilishga qaror qilib, deyarli bir vaqtning o'zida Samarqand, Buxoro va G'ijduvonda uchta madrasa barpo etadi.

Samarqanddagi madrasa qurilishi 1417-yili boshlanib, uch yilda nihoyasiga yetkaziladi. Tez orada Ulug'bek madrasaga mudarris va olimlarni to'play boshlaydi va shu tariqa uning Samarqanddagi astronomik maktabi shakllanadi. Bu maktabning asosiy mudarrisleri ilmiy ishlariga qulay sharoit va panoh izlab Amir Temur davridayoq Samarqandga kelgan Taftazoniy, Mavlono Ahmad va Qozizoda Rumiy kabi olimlar edi. Qozizodaning maslahati bilan Ulug'bek Xurosonning Koshon shahridan G'iyosiddin Jamshid Koshiyni chaqirtiradi. Samarqandga Movarounnahrning turli shaharlaridan va Xurosondan to'plangan olimlarning soni, 1417-yilga kelib 100 dan ortib ketadi. Ular orasida adiblar, muarrixlar, xattotlar, rassomlar, me'morlar bor edi. Lekin astronomiya va matematika sohasidagi olimlar sharafliroq va obro'liroq edi. Ular orasida Qozizoda bilan Koshiy eng salobatli va nufuzli edilar.

1420-yili Samarqand madrasasining tantanali ochilishi bo'ladi. Zayniddin Vosifiy «Badoi' ul-vaqoi'» kitobida aytishicha, birinchi mudarris etib mavlono Shamsuddin Muhammad Xavofiy tayinlanadi. Madrasada asosiy ma'ruzalarni Qozizoda, Ulug'bek, Koshiy va keyinroq Ali Qushchi o'qiydilar.

Ulug'bek barpo etgan Samarqand madrasasi va ilmiy to'garagi Sharq madaniyati va fani tarixida ulkan ahamiyat kasb etdi, mamlakat ravnaqiga, shuningdek, ko'p xalqlarning madaniy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Bu yerda ko'plab buyuk siymolar shakllandi. Jumladan, Xurosonning Jom shahrida 1414-yili tug'ilgan bo'lajak shoir Jomiy Ulug'bekning Samarqand madrasasida tahsil ko'rdi. Bu yerda u Qozizoda, Ulug'bek va Ali Qushchi kabi ulkan olimlarning ma'ruzalarini eshitdi va ularning tarbiyasida bo'ldi.

Ulug'bek atrofida to'plangan Samarqand olimlari katta ahamiyat bergan eng muhim ilmiy yo'nalishlardan biri astronomiya fani edi. Is-

lomdagi eng avvalgi astronomik asarlar «Zij» deb atalib, ular asosan jadvallardan iborat bo'lgan. Ulug'bekdan avval yozilgan eng mukammal «zij»lar Beruniyning «Qonuni Mas'udiy»si va Nasiriddin Tusiyning 1256-yili yozib, Xulaguxonga taqdim etgan «Ziji Elxoniy» asari edi. XV asar boshlarida yozilib, Shohruxga atalgan Jamshid Koshiyning «Ziji Xoqoniy» asari asosan xitoy va mo'g'ul an'alariga asoslangan bo'lib, islom mamlakatlari uchun deyarli ahamiyatga ega emas va ilmiy jihatdan ham ancha sayyoz edi. Movarounnahrda esa mo'g'ul istilosidan keyin birorta «zij» yozilmagan edi. Ana shu sabablarga ko'ra Ulug'bek eng avvalo astronomik izlanishlarni yo'lga qo'yishi, buning uchun rasadxona barpo etishi kerak edi. Bu haqda Abu Tohirxo'ja bunday xabar qiladi: «Madrasaga asos solinganidan to'rt yil keyin Mirzo Ulug'bek Qozizoda Rumiy, Mavlono G'iyosiddin Jamshid va Mavlono Muiniddin Koshoniylar bilan maslahatlashib, Ko'hak tepaligida Obi Rahmat arig'ining bo'yicha rasadxona binosini qurdiradi. Uning atrofida esa baland hujralar barpo etadi».

Rasadxona qurilishi 1424-yildan 1429-yilgacha davom etadi. Rasadxona bitishi bilan astronomik kuzatishlar boshlanib ketadi. Rasadxona bilan madrasaning birgalikdagi faoliyati Ulug'bek ilmiy maktabida astronomiya va matematikani o'rta asrlar davrida eng yuqori pog'onaga ko'tarish imkonini berdi.

Davlat ishlari bilan bog'liq bo'lgan yurish-ko'chishlar, rasadxonadagi kuzatishlar va madrasadagi darslar, undan tashqari ilmiy ishlarga umumiy rahbarlik qilish ham Ulug'bekning ko'p vaqtini oladi. Shuning uchun bo'lsa kerak, bevosita Ulug'bek nomi bilan bog'liq ilmiy asarlar soni jihatdan ko'p emas — ular to'rtta.

Ulug'bek ilmiy merosining eng asosiysi, ma'lum va mashhuri uning «Zij»i bo'lib, bu asar «Ziji Ulug'bek», «Ziji jadidi Guragoniy» deb ham ataladi. «Zij»dan tashqari uning matematik asari «Bir daraja sinusini aniqlash haqida risola», astronomiyaga oid «Risolayi Ulug'bek» (yagona nusxasi Hindistonda, Aligarh universiteti kutubxonasida saqlanadi) va tarixga doir «Tarixi arba' ulus» («To'rt ulus tarixi») asaridir.

Ulug'bek «Zij»i o'z tarkibiga ko'ra VIII–IX asrlarda boshlangan astronomik an'anani davom ettirsa ham ilmiy darajasi ularga nisbatan beqiyos balanddir. Bu asar ikki qismdan: keng muqaddima va 1018 sobita yulduzning o'rni va holati aniqlab berilgan jadvallardan iborat bo'lib,

muqaddimaning o'zi mustaqil to'rt qismni tashkil qiladi. Muqaddimaning boshida Qur'ondan yulduzlar va sayyoralar taalluqli oyatlar keltiriladi. Ulug'bek bu bilan astronomik kuzatishlarning zarurligini g'oyaviy asoslanmoqchi bo'ladi. Muqaddimaning keyingi qismida Ulug'bek ushbu so'zlarni bitgan: «So'ng, parvardigor bandalarining faqir-u haqiri, ulardan Allohga eng intiluvchisi Ulug'bek ibni Shohrux ibni Temur Kuragon bunday deydi...». Bu so'zlardan ko'rinadiki, «Zij»ning muallifi Ulug'bekning o'zi bo'lgan. Biroq bu ishda unga yordam berganlarni Ulug'bek quyidagi so'zlar bilan odilona taqdirlaydi: «Ishning boshlanishi olimlar allomasi, kamolot va hikmat bayrog'ini o'rnatgan, tahlil va tahqiq maslakida bo'lgan Qozizoda Rumiyy deb shuhrat qozonmish janobi hazrat Mavloni Saloh al-milla vaddin Musoning, unga rahmat va g'afrolar bo'lsun, va hazrat Mavloni A'zam, olamdagi hukamolarning iftixori, qadimgi bilimlarda mukammal, masalalar mushkilotlarini hal etuvchi Mavloni G'iyos al-milla vaddin Jamshid, Alloh taolo uning qabrini salqin qilsun, ikkisining qo'llashi va yordamida bo'ldi...»

Ahvol boshida hazrat Mavloni marhum G'iyosiddin Jamshid: «Ajjibu do'i Alloh» chaqirig'ini eshitib, toat bilan ijobat etdi va bu jahon dorulg'ururdan u jahon dorulsururga rixlat etdi. Ish asnosida, hali bu muhim asar bajarilib tugatilmaganidan, hazrat ustoz Qozizoda, Alloh taolo uni rahmat qilsin, parvardigor rahmatiga payvasta bo'ldi.

Biroq farzandi arjumand Ali ibni Muhammad Qushchi bolalik yillaridan fanlar sohasida ilg'orlab boradi va uning tarmoqlari bilan mashg'ul. Umid va ishonch komilki, uning shuhrati inshoolloh, yaqin zamon va tez onlarda jahon atroflari va mamlakatlarga tarqaladi. Va bu muhim kitob tamomila yozilib bo'ldi. Yulduzlarning sifatlaridan kuzatilgan barcha narsalar imtihon qilinib, bu kitobga kiritilib sobit etildi».

Bu keltirilgan katta parchadan ko'rinadiki, Qozizoda Ulug'bekning ustozi bo'lgan va «Zij»ning ancha qismi uning ishtirokida yozilgan. Bundan yana shu narsa ko'rinadiki, Ulug'bek Samarqanddagi yana bir yirik olim Jamshid Koshiyni ustoz demaydi, balki uning yoshi Rumiyydan katta bo'lgani uchun Mavloni A'zam deyish bilan cheklanadi. Haqiqatan ham, u kishi Samarqandga 1416-yili, ya'ni Ulug'bek 22 yashar navqiron yigit va olim sifatida tanilganda keladi va u rasadxonadagi kuzatishlar boshlanishi bilanoq vafot etadi. Biroq fan tarixidan shu narsa ma'lumki, Koshiy «Zij»ning nazariy qismini arab tiliga tarjima etgan va

hozir bu tarjumaning nusxalari mavjud. Demak, bundan ko'rinadiki, Ulug'bek avval «Zij»ning nazariy qismini yozgan, so'ng jadvallari qismi uzoq kuzatishlar natijasida tuzilgan. Koshiy esa nazariy qism yozilishi bilan uni arabchaga ag'dargan va jadvallar ustida ishlar boshlanishida vafot etgan.

Yana bir diqqatga sazovor narsa, bu Ulug'bek Ali Qushchini «farzandi arjumand» deyishidir. Aslida Ali Qushchi uning farzandi emas, shogirdi bo'lib, ilm sohasida ustoziga Abdullatif va Abdulazizlardan, ya'ni o'z farzandlaridan ham sodiq va vafodor edi. Shuning uchun ham Ulug'bek unga o'z o'g'lidek qarar edi va uning yordami bilan «Zij»ni farzandi arjumand Ali ibn Muhammad Qushchi... ittifoqligida» poyoniga yetkazdi.

Endi «Zij»ning mazmuni haqida to'xtalaylik. Asarning birinchi — «Ta'rix, ya'ni xronologiyani ma'rifati» deb nomlangan maqolasi (kitobi) yetti bobdan iborat bo'lib, u eralar va kalendar masalalariga bag'ishlangan. Bu boblarda islomda qo'llaniladigan asosiy era — hijriy era, suryoniy-yunoniy era, «jaloliy» era, xitoy va uyg'ur erasi, forsiy-qadimiy era va bu eralarda keltirilgan sanalarni biridan biriga moslashtirib ko'chirish hamda bu eralardagi mashhur kunlar haqida bahs yuritiladi. Bundan tashqari ushbu maqolada turkiy muchal yillari haqida ham mufassal bayon etiladi.

Ikkinchi — «Vaqtlar va unga taalluqlik nimarsalar» deb nomlangan maqola 22 bobdan iborat. U, asosan matematika va sferik astronomiya masalalariga bag'ishlangan. Ikkinchi va uchinchi boblarda o'rta asrlar uchun eng aniq bo'lgan sinuslar va tangenslar jadvallari keltiriladi. Maqolaning to'rtinchi bobida Ulug'bek ekliptikaning (falak ul-burj) osmon ekvatoriga (mu'addal unnahor) og'ish burchagining miqdorini keltiradi. Bu haqda u bunday deydi: «Bizning kuzatishimizcha, eng katta og'ish (ya'ni ekliptikaning osmon ekvatoriga og'ishi) burchagini yigirma uch daraja o'ttiz daqiqa o'n yetti soniya topdik». Ulug'bek topgan bu miqdor o'rta asrlar davri uchun ancha aniq edi. Shuni ham aytish kerakki, bu burchakning miqdori barcha davr astronomlari uchun katta ahamiyatga ega edi, chunki yoritgichlar va yashash joylarining aniq koordinatlarini topish shu burchak miqdoriga bog'liq edi.

«Zij»ning uchinchi maqolasi 13 bobdan iborat bo'lib, faqat astronomiya masalalariga bag'ishlangan. Bunda Quyosh, Oy va besh sayyora-ning harakatlari haqida bahs yuritiladi. Asarda keltirilgan jadvallarning

aksariyati shu maqolaga taalluqlidir. Bu jadvallar orasida eng ahamiyatga ega bo'lgani 13-bobda keltirilgan va «Turg'un yulduzlarning uzunlama va kenglama bo'yicha holatlarini aniqlash» deb atalgan yulduzlar jadvalidir. Ulug'bek «Zij»ining boshqa «zij»lardan farqini ko'rsatish uchun shu yerda mazkur jadval boshidagi uning so'zlarini keltiramiz. U aytadi: «Ptolemeygacha bo'lgan astronomlar bir ming yigirma ikki yulduzning holatini aniqladilar. Ptolemey esa ularni oltita kattalik bo'yicha tartiblab, o'z «Almajistiy»sida keltirdi. Ularning eng kattasi — birinchi kattalikda, eng kichigi esa oltinchi kattalikdadir. Har bir kattalikni u uch qismga ajratdi. Ularni bir-biridan farq qilish uchun qirq sakkiz yulduz turkumiga joylashtirdi. Ularning yigirma bittasi falak ul-burjdan (ekliptika) shimolda, o'n ikkitasi falak ul-burjda va o'n beshtasi falak ul-burjdan janubda joylashadi. Bu yulduzlardan ayrimlari shu yulduz turkumlarining o'zida, ayrimlari esa turkumdan tashqarida joylashadi. Bu keyingilarni yulduz turkumlarining tashqi yulduzlari deb hisoblanadi.

Abdurahmon So'fiy turg'un yulduzlarni aniqlash to'g'risida maxsus kitob yozgan, barcha kishilar unga murojaat qiladilar va uni qabul etadilar.

Biz esa yulduzlarning osmon kurrasidagi holatini kuzatishimizga qadar ular haqida Abdurahmonning kitobidagiga asoslanardik. Biroq o'zimizda kuzatganimizdan keyin ba'zi yulduzlarning holati uning kitobidagiga mos kelmasligini ko'rdik. Alloh bizning kuzatishlarimizga taovun berganidan so'ng, bu yulduzlar va boshqa yulduzlarning holatlari Abdurahmonning aytganiga zid ekanligining shohidi bo'ldik. Biz bu yulduzlarni o'z kuzatishimizga mos kelgan holda kurraga joylashtirganimizda esa kuzatganimizga hech zid kelmaganligini ko'rdik. Biz bunga imonmiz. Biz barcha yulduz turkumlaridagi yulduzlarni kuzatdik. Lekin bundan yigirma yetti yulduz mustasno, chunki ularning janubiy masofalarining kattaligi tufayli ular Samarqandda ko'rinmasdi. Bu Samarqandda ko'rinmaydigan yulduzlardan yettitasi Mijmara («Qurbongoh») yulduz turkumidan, sakkiztasi Safina («Kema») turkumidan — bular 36-yulduzdan 41-yulduzgacha va 44,45-yulduzlar; o'n bittasi Kentavrus («Kentavr») turkumidan — bular 27-dan oxirigacha va yana bitta Sab' («Hayvon») yulduz turkumidan — bu 10-yulduz.

Shu yigirma yetti yulduzni biz kitobimizga Abdurahmon So'fiy sanasi bilan keltiramiz. Qolgan sakkiz yulduz haqida Abdurahmon So'fiy o'z kitobida ularni Ptolemey ko'rgan yerda hech qanday yulduz topmagan-

liqini aytgan. Biz ham har qancha harakat qilsak-da, o'sha joylarda hech qanday yulduzni topmadik. Shuning uchun biz ham u sakkiz yulduz bu kitobimizda keltirmaymiz. Bu yulduzlar Mumoik al-ainna («Jilo ushlovchi»)ning 14-, Sub'ning 11-yulduzi va Hutdan tashqarida, janub dagi oltita yulduzdir».

Keltirilgan parchadan ko'rinadiki, Ulug'bekning yulduzlar jadvali o'rt asrlar davridagi eng nodir va mukammal jadval bo'lgan. Bu parcha Ulug'bek rasadxonasida yulduzlar globusi yasalgan, degan xulosaga ham olib keladi.

«Zij»ning oxirgi — «Yulduzlarning doimiy harakati» deb nomlangan to'rtinchi maqolasi ikki bobdan iborat va u asosan ilmi nujumga bag'ishlangan.

Ulug'bek «Zij»i o'rta asrlardagi eng mukammal astronomik asar bo'lib, tezda zamondoshlarining diqqatini o'ziga jalb etdi. Eng avval bu asar Samarqandda Ulug'bek atrofida to'plangan olimlar ijodiga ta'sir ko'rsatdi. «Zij»ni o'rganish shuni ko'rsatadiki, u asosan amaliy qo'llanishga mo'l-jallangan bo'lib, nazariy masalalarni bayon etishni Ulug'bek oldiga maqsad qilib qo'ymagan. Shuning uchun bo'lsa kerak, «Zij»ni birinchi bo'lib Samarqand olimlarining o'zi, xususan Ali Qushchi sharhlaydi. Undan keyingi sharhlarni Miram Chalabiy va Husayn Birjandiylar yozadi.

1449-yili Ulug'bekning fojiali halokatidan so'ng Samarqand olimlari asta-sekin Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari bo'ylab tarqalib ketadilar. Ular o'zlari borgan yerlarga Samarqand olimlarining yutuqlarini va «Zij»ning nusxalarini ham yetkazadilar. Xususan Ali Qushchi 1473-yili Istanbulga borib, u yerda rasadxona quradi. Shu tariqa Ulug'bek «Zij»i Turkiyada tarqaladi va Turkiya orqali Ovro'po mamlakatlariga ham yetib boradi.

Hozirgi kundagi ma'lumotlarga ko'ra, «Zij»ning 100 ga yaqin forsiy nusxasi va 15 dan ortiq arabiy nusxasi mavjud. O'rta asrlarda yozilgan hech bir astronomik yoki matematik asar bunchalik ommaviy va keng ma'lum bo'lmagan. «Zij» musulmon mamlakatlarining deyarli barchasida o'rganilgan va sharhlangan. Uni sharhlagan olimlardan quyidagilarning nomlarini eslatish mumkin: Shamsiddin Muhammad ibni Abul Fath as-So'fiy al-Misriy (vafoti tax. 1495), Abulqodir ibni Ro'yoniyy Lahijiy (vafoti 1519), Miram Chalabiy (vafoti 1525), Abdulali Birjandiy (vafoti 1525), G'iyosiddin Sheroziy (vafoti 1542).

Ulug'bek «Zij»i ayniqsa Hindiston olimlariga kuchli ta'sir ko'rsatdi. Samarqand olimlarining ilmiy an'alarini Hindistonga Boburning o'zi yetkazgan degan ma'lumot bor. Boburning vorislari o'tmishdagi shohlarga o'xshab atroflariga olimlarni to'playdilar va ularning ilmiy izlanishlariga sharoit yaratadilar. Hind olimlari ko'p tarafdin Samarqand olimlariga taqlid qiladilar. Masalan, Shoh Jahon zamonida Lahor va Dehlida ishlagan Fariddin Mas'ud al-Dehlaviy (vafoti 1629) «Ziji Shoh Jahoniy» nomli asar yozadi: undagi maqola va boblarning soni xuddi Ulug'bek «Zij»idagidek va jadvallarning ham ko'p qismi Ulug'bekdan olingan. Yirik hind olimi Savoy Jay Sing (1686–1743) ham o'zining «Ziji Muhammadshohiy» asarini Ulug'bek «Zij»ining katta ta'siri ostida yozgan.

«Zij»ning G'arbiy Ovro'po faniga ham ta'siri katta bo'ldi. Umuman olganda, G'arbiy Ovro'po Amir Temur va uning farzandlarini, ayniqsa Ulug'bekni XV asrdanoq bilardi. Ali Qushchining Istanbuldagi faoliyati tufayli Ulug'bekning olimligi haqidagi xabar ham Ovro'poga tarqaladi.

1638-yili Istanbulga ingliz olimi va sharqshunosi, Oksford universitetining professori Jon Grivs (1602–1652) keladi. Qaytishida u o'zi bilan Ulug'bek «Zij»ining bir nusxasini Angliyaga olib ketadi. 1648-yili avval «Zij»dagi 98 yulduzning jadvalini chop etadi. O'sha yilning o'zida Grivs «Zij»dagi geografik jadvalni ham nashr etadi. 1650-yili esa u «Zij»ning birinchi maqolasining lotincha tarjimasini nashr etadi. Grivs 1652-yili mazkur oxirgi ikki ishni qayta nashr etadi.

Yana bir ingliz olimi va sharqshunosi Tomas Hayd (1636–1703) «Zij»dagi turg'un yulduzlar jadvalini 1665-yili forscha va lotinchada nashr etadi. Shunisi diqqatga sazovorki, Hayd Grivsning ishlaridan butunlay bexabar edi. Demak, «Zij»ning nusxalari qandaydir yo'llar bilan unga ham yetib kelgan.

Haydning nashridan 15 yil keyin polyak olimi Yan Geveliy (1611–1687) Dansigda «Zij»ning ayrim jadvallarini nashr etadi. Bundan keyin XVIII va XIX asrlarda qator Ovro'po olimlari «Zij»ning ayrim qismlarini nashr etadilar. Fransuz sharqshunosi L.A.Sediyo (1808–1876) «Zij»ning to'rttala maqolasi oldidagi so'zboshilari va muqaddimasining fransuzcha tarjimasini 1847–1853-yillarda nashr etadi. Va nihoyat, XX asr boshlarida amerikalik olim E.B.Nobl «Zij»ning Angliya kutubxonalarida saqlanadigan 28 qo'lyozmasi asosida yulduzlar jadvalining inglizcha tarjimasini nashr etadi (Vashington, 1917).

Shunday bo'lishiga qaramay Ulug'bek «Zij»i umuman olganda to'liq ravishda o'rganilmagan va biror zamonaviy tilga to'la tarjima etilmagan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga binoan 1994-yil Mirzo Ulug'bek tavalludining 600 yilligi munosabati bilan mamlakatimizda katta tantanalar va xalqaro ilmiy anjumanlar o'tkazildi. Parijda ham YUNESKO qarori bilan uchrashuvlar va konferensiyalar bo'lib o'tdi. «Ziji jadidi Guragoniy»ning birinchi bor to'lig'icha rus tiliga tarjimasi bosib chiqarildi.¹ Shu yili yana Ulug'bekning «Tarixi arba' ulus» asari ham o'zbek tilida Toshkentda nashr etildi.²

TAFTAZONIY (1322–1392)

Sohibqiron Amir Temur Markaziy Osiyo va unga qo'shni bo'lgan yurtlarni birlashtirgach, Samarqandga tasarruf etilgan barcha mintaqa va viloyatlardan mashhur olim va hunarmandlarni to'play boshlagan. Uning maqsadi IX–X asrlarda bo'lgani kabi islom dunyosining ilmiy markazlari sifatida tanilgan Xorazm, Buxoro va Bag'doddagi «Bayt ul-hikma» ilmiy maktablari an'alarini Samarqandda tiklash bo'lgan. Poytaxtda Samarqandga kelgan barcha olimlarga ijod qilishlari uchun barcha qulayliklar yaratilgan. Saroyda — Amir Temur huzurida erkin ilmiy bahslar bo'lib, g'olib chiqqan olim va shoirlar rag'batlantirilgan, sinovdan o'tgan yirik olimlar yangi qurilgan madrasalarga mudarrislikka yuborilgan. Ilm-fanga, ma'rifatga e'tibor balandligi bois o'sha zamonning ko'pgina olimlari Samarqandga borishni o'zlari uchun sharaf deb bilishgan. Shundaylardan biri Markaziy Osiyo falsafiy tafakkuri tarixida o'chmas iz qoldirgan faylasuf Taftazoniydir. U 722-hijriy (1322) yilning safar oyida hozirgi Ashxobod shahri yaqinidagi Niso muzofotidagi Taftazon qishlog'ida tug'ilgan. O'n olti yoshigacha ilohiyot fanlarini, arab tili, nutq san'ati va

¹ М и р з о У л у г б е к М у х а м м е д Т а р а г а й. Зиджи джадиди Гурагони. Новые Гурагановы астрономические таблицы. Вступительная статья, перевод, комментарии и указатели А. Ахмедова. Т. Изд. «Фан» Академии Наук Республики Узб. 1994.

² M i r z o U l u g ' b e k. «To'rt ulus tarixi», В. Ahmedovning kirish so'zi, izohlari va tahriri ostida, forschadan В. Ahmedov, N. Norqulov, M. Hasanovlar tarjimasi.

mantiq ilmini o'sha davrning mashhur olimlari al-Ijij va mantiqshunon Qutbiddin ar-Roziy at-Taxtoniydan (1290–1365) o'rganarkan, uning birinchi ilmiy asari esa Seraxs (Eron) olimlari orasida mashhur bo'lib, shu asari orqali madrasa mudarrisi huquqini qo'lga kiritgan. Shu davrdan boshlab u, qariyb 30 yil davomida Movarounnahr va Xuroson bo'ylab ko'chib yurib, turli madrasalarda falsafa va mantiqdan dars bergan. So'ng-
ra Amir Temur da'vatiga binoan Samarqandga kelib, umrining oxirigacha shu shaharda ijod etib, Amir Temur saroyidagi ko'psonli ilmiy bahslarda faol qatnashgan. Manbalarda qayd etilishicha, Samarqandda yashagan mashhur faylasuf Mir Sayyid Sharif Jurjoniy va Taftazoniy o'rtasidagi ilmiy bahslar juda keskin va qiziqarli o'tgan.

Taftazoniyning islom falsafasi, kalom, mantiq, handasa, she'riyat va arab tili grammatikasi sohasidagi katta asarlari Movarounnahr va Xuroson shaharlarida keng tarqalgan bo'lib, eng mashhur asari «Tahzib al-mantiq va-l-kalom» bizgacha Jaloliddin Davoniy va Kurdistoniylarning sharhlari orqali, «Maqosid fi ilm al-kalom» yoki «Maqosid at-tolibin fi usul ad-din» («Din asoslarini izlovchilarning maqsadlari») asari esa muallifning o'z sharhlari bilan birgalikda yetib kelgan. Taftazoniy 1392-yilning 12-avgustida vafot etgan.

Taftazoniyning ilmiy merosi o'rta asrlar fanining barcha sohalarini o'z ichiga olgan bo'lib, Qur'on tafsiridan boshqa asarlari arab tilida yozilgan. Bu asarlardan XIV–XVI asrning 2-yarmigacha Movarounnahr va uning atrofidagi madrasalarda o'quv qo'llanmasi sifatida foydalanilgan.

Taftazoniy qirqdan ortiq asar yozgan bo'lib, bizgacha «Tahzib al-mantiq va-l-kalom» («Mantiq va kalomga sayqal berish»), «As-Sa'diya» (XIII asr oxiri va XIV asr birinchi yarmida yashagan Kotibiyning mantiqqa oid «Ash-Shamsiya» risolasiga yozilgan sharh), «Al-mutavvol» («Keng talqin»), «Muxtasar al-maoniy» («Qisqacha ma'nolar»), «Al-irshod al-hodiy» («Yo'l boshlovchi rahbar»), «Al-maqosid at-tolibin» («Tolibilarning maqsadlari»), «Risola fi zavoye al-musallas» («Uchburchakning burchaklari haqida risola») kabi asarlaridan tashqari o'zidan oldin o'tgan mutafakkirlar asarlariga yozgan sharh va hoshiyalari yetib kelgan.

Taftazoniy o'z falsafiy qarashlarida tabiat hodisalari o'rtasida sabab-oqibat munosabatlari mavjudligiga shubha qilmay, borliqning ana shunday munosabatlarini diqqat bilan tahlil etib, sabab va oqibatning muayyan turlarini ajratib ko'rsatadi. «Sabab — bu shunday narsaki, narsaning mavjud bo'lishi unga bog'liqdir. Sabab ichki va tashqi ko'rinishlarga ega.

Agar sababning muayyan belgilari oqibatga ko'chib o'tsa, unda ichki sabab namoyon bo'lgan bo'ladi, agarda buning aksi bo'lsa, unda tashqi sabab o'zligini ko'rsatgan bo'ladi».

Taftazoniy o'zining «Tahzib al-mantiq va-l-kalom» asarida insonning xulq-atvoridagi iroda erkinligi masalasiga kengroq to'xtaladi. Uning fikricha, har qanday olijanoblik va xayrli ishlar o'z tabiatiga ko'ra xudoning mohiyatidan kelib chiqadi va u hamma narsaning xoliqi sifatida xayr va sharofatning yaratilganligi sababdan insonlarni yomon xulq-atvordan tiyilib turishga chorlaydi. Yomon xulqlar, gunohlar insonga xos narsalar bo'lmasdan, ular faqat kishilarni sinash uchun yaratilgan. Shunday qilib, uning fikricha, xudo o'z bandalariga ikki yo'lni «taklif» etadi, ya'ni sharafli, xayrli faoliyat ko'rsatishni yoki nomatlub mashg'ulotlar bilan gunohga botishni, gunohga botish esa jazoga tortilishni keltirib chiqaradi. Mutafakkirning ta'kidlashicha, xudo tomonidan insonlarga ko'proq xayrli ishlar qilish buyurilgan, g'ayrisar'iy ishlar insonning o'z irodasiga bog'liqdir. Shuning uchun xudo yomon xulq-atvorli insonlarni jazolaydi. Yomon xulq-atvorni qoralash xudoning irodasiga qarshi borish emas, chunki yomonlikning yer yuzida mavjudligi insonlarni poklikka chorlovchi sinovdir.

Bilish nazariyasida Taftazoniyning qarashlari Ibn Sinonikidan farq qiladi. Ibn Sino narsa, hodisalar haqidagi ma'lumotlarni bilim deb qabul etgan bo'lsa, Taftazoniy ularni alohida his-tuyg'u va bilim o'rtasidagi vositaviy bosqich deb tushunadi. Bilish jarayoni uch shartni taqozo etadi: 1) his-tuyg'u organlari va ashyolar o'rtasida o'zaro ta'sir; 2) bu omillarining inson ruhi tomonidan qabul etilishi; 3) aqliy bilish.

His-tuyg'uni esa tashqi hissiyot deb atab, ichki his-tuyg'u ham tashqi hissiyot asosida paydo bo'lishligini ta'kidlaydi. Narsalar to'g'risida biror tushuncha hosil qilish his-tuyg'u uyg'otgan qiyofa orqali amalga oshishini ko'rsatib o'tadi. Ashyolar va hodisalar mavjudligi tufayli ular uyg'otgan his-tuyg'u shakllaridan bilim shakllanadi. Chunki hissiyot moddadan, uning zaruriy sifatlari va aloqalari bilan birgalikda tashqi qiyofasining qabul qilib oladi. Shu sababdan mutafakkirning fikricha, hissiy tasavvurga ega bo'lish uchun moddaning bo'lishligi shartdir. Lekin aqliy, mantiqiy bilish esa moddiy asosdan ancha uzoqlashgan bo'lib, hissiy bilimlarga qaraganda yuqoriroq bosqichda hosil bo'ladi.

Taftazoniy fikricha, mantiq — tafakkurdagi xatoliklardan xalos qildigan vosita bo'lib, yangi bilimlar hosil qilish uchun zamindir. Mantiqiy bilish shakllari tasavvur va tasdiqdir. Biror ashyo yoki hodisani tasavvur

etish va uning to'g'risida hukm chiqarishda asosiy o'rinni til bajaradi. Ong va uning belgisi nutq bilan bevosita bog'langandir. Biror ashyo yoki hodisa belgisi bo'lgan so'zlar, biror-bir mazmun tufayligina qandaydir ma'no kasb etadi. Taftazoniy fikricha, mantiq fani mavhum mantiqiy ong bilan bog'langan bo'lib, tushuncha va hukmni ifodalovchi so'zlar va gaplarni tahlil etadi.

Aql quroli orqali ashyolarni aks ettiradigan tushunchalarni ta'riflab, Taftazoniy o'z oldiga shunday savol qo'yadi: Tushunchalar qanday kelib chiqadi va shakllanadi? Taftazoniy aqlning tahliliiy. — xulosaviy qobiliyati (tahlilot) va shuuriy iste'dodi (mafhumot) tushunchalar shakllanishi uchun asosiy yo'l deb hisoblaydi. Uning ta'kidlashicha: «Faqat tahlilot va mafhumot vositasidagina ashyolar haqida muayyan tushunchalar hosil etish mumkin».

Taftazoniyning ilmiy merosi Yaqin va O'rta Sharq xalqlari ijtimoiy-siyosiy tafakkuri tarixida munosib o'rin tutgan qadimgi yunon faylasuf va mantiqshunoslari maktabiga mansubdir. Ammo eramizdan oldingi ilmiy yutuqlar bilan chegaralanmasdan, sharq Uyg'onish davri yuksakliklaridan turib uni rivojlantirilganligi va yangi g'oyalar bilan boyitilganligi diqqatga sazovordir. Taftazoniy Amir Temur davridagi Samarqand ilmiy muhitida o'sha zamon olimlari bilan birgalikda samarali ijod etib, keyinchalik jahonshumul ahamiyat kasb etgan Ulug'bek maktabining vujudga kelishiga zamin hozirlagan mutafakkirlardan biri bo'lib tarixda qoldi. U islom falsafasi bo'lgan kalomga mantiqiy xulosalarni tadbiiq etib, uni kuchaytirdi va ilohiyotning ham jozibali fan sifatida rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Uning asarlarining ilmiy qimmatini hozirda ham o'z kuchini yo'qotgani yo'q. Taftazoniyning ilmiy merosini o'rganish tafakkurimiz tarixining zarhal sahifalarini boyitish imkonini beradi.

JURJONIY (1339—1413)

Sohibqiron Amir Temur tomonidan Samarqandning shon-shuhratini oshirish va uni jahon ilmiy markazlaridan biriga aylantirish niyatida o'z poytaxtiga to'plagan olimlardan biri Mir Sayyid Sharif Jurjoniydur. 1387-yili Sheroz fath etilgandan keyin mashhur kishilar qatorida Jurjoniyl ham Samarqandga jo'natilgan. Amir Temur vafot etgandan keyingina Sherozga qaytib, 1413-yilda olamdan ko'z yumdi.

Ali ibn Muhammad ibn Ali Husayn Jurjoniy Astrobod yaqinidagi Tog' u qishlog'ida 740-hijriy (1339) yilda tug' ilgan. Yoshlik davridan boshlab barcha fanlar qatori falsafa, mantiq va tilga juda ham qiziqqan. 1365-yili Jurjoniy Hirotga mashhur faylasuf Qutbiddin Muhammad ar-Roziy at-Taxtoniydan ta'lim olish uchun boradi. Taxtoniy o'zining qarib qolganligini aytib, Misrdagi shogirdi Muborakshoh oldiga borishni maslahat bergan. Lekin Jurjoniy 1368-yilgacha Hirotga bo'lgan. So'ngra turk faylasufi Muhammad Oqsaroiydan ta'lim olish uchun Qoramondan shahriga jo'nagan. Muhammad Oqsaroiy shuhrati va uning asarlari Jurjoniyning e'tiborini jalb etgan bo'lib, u mashhur faylasuf va mantiqshunos bo'lib yetishgan Oqsaroiyning shogirdi Muhammad Mullo Fanoriy bilan uchrashib, do'st tutindi va birgalikda 1370-yilda Misrga jo'nashadi. Jurjoniy Qohirada 4 yil davomida mashhur mantiqshunos Muborakshoh va Akmaliddin al-Bobartiylar ma'ruzalarini tinglab, o'z saviyasini oshirgach, 1374-yilda Istanbulda ilmiy izlanishlarini davom ettirdi. U yerdan Vatanga qaytib, 1387-yilgacha Sherod madrasalarida dars berdi. So'ng Samarqandda 20 yildan ortiq vaqt yashadi. Samarqandda yashagan davri Jurjoniy ijodida juda barakali bo'ldi. Ilm-u fanning barcha sohalariga bag' ishlangan bir qancha risolalar, o'tmish mutafakkirlarining asarlariga sharhlar yozdi.

Jurjoniy umri davomida 50 dan ortiq asar yozib, bu asarlar fanning deyarli barcha sohalarini qamrab olgan. Ammo Ulug'bekka bevosita ta'sir etgani, shubhasiz uning XII-XIII asrlarda Xorazmda yashab o'tgan Mahmud al-Chag'miniyning astronomiyaga oid asariga yozgan «Sharh mulahhas al-haya» («Astronomiyaga oid saylanmaga sharh») va Nasiriddin Tusiy asariga bag' ishlangan «Sharhe tazkiratul Nasiriyat» («Astronomiya haqida eslatmaga sharh») asarlaridir.

Jurjoniy bilish nazariyasi va mantiqqa doir «At-ta'rifot» («Ta'riflar»), «Usuli mantiqiya» («Mantiq usuli») va ilmiy bahs faniga bag' ishlangan «Odob ul-munozara» («Munozara olib borishning qoidalari haqida risola») kabi arab tilida yozilgan asarlarning muallifi hamdir. Bunday tashqari Jurjoniyning fors tilida yozilgan mantiqqa oid bir necha asarlar ham bizgacha yetib kelgan. Bulardan «Sug'ro» («Kichik dalil bo'la oladigan hukm»), «Kubro» («Katta dalil bo'la oladigan hukm»), «Avsat dar mantiq» («Mantiqda o'rta xulosa») va boshqalarni ko'rsatib o'tish mumkin. Uning «Sharhe feroize Sarojiya» («Meros bo'lish majburiyatlarining Sarojiy ta'rifiga sharh») asari huquqshunoslik masalalariga bag' ishlangan bo'lib, faqih Sajovandiy asarlariga javob tariqasida yozilgan

Jurjoniylar XIV asr faylasufi Eziddin Abdurahmon al-Ijiiy (1300–1356)ning «Muvoqif fi ilm al-kalom» («Kalom ilmidagi manzillar») asariga yozgan «Sharhe mavoqif fi ilm al-kalom» sharhi uning zamondoshlari va undan keyingi avlod olimlari uchun falsafa va mantiq bo'yicha o'ziga xos qomus maqomiga ega bo'ldi.

Sharhlardan tashqari Jurjoniylar juda qo'p falsafiy asarlarga hoshiyalar yozdi. Uning Abu Ali ibn Sinoning «Ishorat» («Ko'rsatmalar») asariga yozgan sharhi, Nasiriddin Tusiyning «Tajvid» («Abstraksiya») asariga sharh yozgan shayx Shamsuddin Mahmud Isfahoniy (1294–1349)ga javob tariqasida yozilgan hoshiyasi diqqatga sazovordir.

Jurjoniylar dunyoqarashi, undan oldin o'tgan salaflikidek, o'rta asrlardagi butun falsafiy masalalarni, chunonchi, borliq haqidagi ta'limot, koinot jumboqlari, modda va uning shakllari, jonsiz va jonli dunyoning xususiyatlari, jismoniy va ruhiy munosabatlar, bilish muammolari, mantiqiy fikrlash ta'limoti, til va tafakkur aloqalari va boshqalarni o'z ichiga oladi. U koinot, inson va aqlni qamrab oluvchi dunyoning umumiy manzarasini yaratishga harakat qildi. Jurjoniylar aqidasi xos bo'lgan narsa borliq manzarasini bosqichma-bosqich tartibda tushuntirishdan iborat edi. Besh bobdan iborat bo'lgan «Dunyoni aks ettiruvchi ko'zgu» risolasining birinchi bobini vojib ul-vujud va mumkin ul-vujud mavjud ekanligini asoslashga bag'ishlaydi. Jurjoniylar shunday ta'rif beradi: «Yo'q bo'lishi mumkin bo'lmagan, bor bo'lishi esa zarur bo'lgan narsa vojib ul-vujud deb ataladi. Masalan, xoliqning o'zligi kabi tushuncha. Borlig'i ham, yo'qligi xam zarur bo'lmagan narsa esa mumkin ul-vujud deb ataladi».¹

Jurjoniylar fikricha, vojib ul-vujud xudo bo'lib, mumkin ul-vujud moddiy olamdir. U borliqning birinchi sababi sifatida vojib ul-vujudni, ya'ni xudoning borligini tan oladi. Uningcha, mumkin ul-vujud o'zining bor bo'lishi uchun qandaydir tarzda bo'lsa ham, ma'lum sababga ehtiyoj sezadi. U biror-bir narsa tufayli, ya'ni birinchi sabab qimmatiga ko'ra vojib ul-vujud darajasiga ko'tariladi.

Jurjoniylar tabiatdagi hech bir hodisa sababsiz kelib chiqmaydi, deb ta'kidlaydi. Hamma mavjud ashyolardagi butun harakat va o'zgarishlar faqat makon va zamondagina ro'y beradi. Jurjoniylar dunyoqarashiga xos

¹ O'zR FA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondi: «Oynayye gininamo», 1-sahifa.

xususiyat, uning butun borliqni bir-biriga qonuniy ravishda bog'langan bo'lakchalardan iborat yagona tana sifatida ta'riflashdir. Uning fikricha, moddiy dunyoni tashkil etgan narsalar asosida to'rt unsur, ya'ni olov, havo, suv va tuproq yotadi. Uch unsurdan iborat boshqa jismlar, ya'ni metallar, o'simliklar va hayvonlar esa, yuqorida aytilgan to'rt unurning bir-birlari bilan qorishishining hosilasi sifatida kelib chiqqandir. To'rt unsur doimo harakatda ekanligidan o'zgaruvchan bo'lib, biri ikkinchisiga aylanib qolishi mumkin. Havo suvga, suv tuproqqa va hokazo.

Jurjoniylar falsafasida moddiylik g'oyalari emas, balki dialektik dunyoqarash mavjud. Uning fikricha, moddiylikdan xoli bo'lgan bo'sh joy yo'q. Bu haqda u shunday yozadi: «Samoviy gumbaz buyuk doiradir. U barcha jismlarni qamrab olgan bo'lib, moddiy dunyoni chegaralab turadi. Ammo u bo'shliq emas, chunki uni modddan tashqarida bo'lgan tushuncha yoki biror o'lchov bilan tushuntirib bo'lmaydi. Bundan tashqari bir-biri bilan o'zaro yopishib, ayni vaqtda boshqa jism bilan ham bog'lanib turgan narsaning o'zi bo'lishi mumkin emas. Har bir atrofdagi dunyo, o'zi turgan narsaga tegib turishi zarur va bir-birining ketidan yuqoridagidek tartibda joylashishi lozim, chunki bo'shliqning bo'lishi mumkin emas. Mana shunday jismlar, unsurlar, samoviy doiralari, butun sayyoralar va moddiy bo'lakchalarning tarkibiy majmuasi olam deb ataladi».¹

Jurjoniylar Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari mantiqiy merosining barcha oqimlarini tahlil etib, ularni yanada rivojlantirdi.

XV–XVI asrlar davomida mantiq ilmini o'rganish va o'qitish ishlari XIII asrda yozilgan darsliklarga XIV asrda yozilgan sharhlar, ayniqsa, mashhur mantiqshunos at-Taxtoniy, uning shogirdi ibn Muborakshoh, Taftazoniy, Jurjoniylar tomonidan yozilgan sharh va hoshiyalar asosida olib borildi. Bu davrda arab tiliga nisbatan fors tilida ko'proq asarlar yozildi. Mantiq ilmining huquq, til va ilohiyot sohasidagi tadqiqotlarda ishlatilish jarayoni ko'paydi.

Jurjoniylar o'z ijodida mantiqni falsafadan ajratmagan holda, uning ko'proq huquq va til sohalarida qo'llanilishini ta'minladi.

Jurjoniylarning ta'kidlashicha, nazariy bilimlar hayotiy tajribada hosil qilingan boshlang'ich bilimlar va ular to'g'risida fikrlash yo'li bilan ki-

¹ Jurjoniylar. Sharh mulaxxas al-haya al-Chag'miniy. O'zR FA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutidagi 2655-raqamli qo'lyozma, 225-a bet (arab tilida).

utiladi. Bunday fikrlash jarayonini u xulosa deb ataydi va uning uchi turini ko'rsatib o'tadi. Bular: qiyos (sillogizm), esteqro (inkluksiya — bo'lakdan butunga tomon hukm yuritish) va hads (analogiya — o'xshatish). Bulardan qiyos xulosaning bosh turi hisoblanib, nazariy bilimlar hosil qilishning asosiy vositasi bo'lib maydonga chiqadi.

Jurjoniylar to'la bo'lmagan induksiya faqat taxminiy mulohazagagina olib keladi, deb o'ylaydi va uning ko'rsatishicha, biz olovning ayrim xususiy holatlarini kuzatsak, har qanday olov issiqlik chiqaradi, degan ayrim xususiyatga ega bo'lgan bilimdan, ya'ni deduktiv (butundan bo'lakka o'tadigan) holatga o'tadigan xulosa kelib chiqishi mumkin.¹ Shu bilan birga uning ta'kidlashicha, induktiv yo'l bilan hosil qilingan bilimlar hamma vaqt ham haqiqatga to'g'ri kelavermaydi. Chunki inson tajribasi hech vaqt to'la mukammallikni bermaydi.

Jurjoniylarning induktiv va deduktiv xulosalar haqidagi fikri Arastu va uning Sharqdagi izdoshlari fikrini eslatadi. Ammo bu fikrga noyob xulosalar qo'shib, takomillashtirilgan.

Jurjoniylarning ilmiy faoliyati tufayli mantiq Temuriylar davrida inson bilimlarining barchasiga qo'llaniladigan qoida va mezon qonuniga aylandi. U har bir yuritilayotgan hukmning to'g'riligini tortuvchi fanlarning toshu tarozisi sifatida namoyon bo'ldi. Natijada tez orada vujudga kelgan Ulug'bek rasadxonasining ilmiy tadqiqotlarida keng qo'llanildi.

Jurjoniylar Ulug'bekni madrasada bevosita o'qitibgina qolmay, uning Akademiyasining vujudga kelishiga ham katta hissa qo'shdi. Chunki uning shogirdlari bu ilmiy markazning negizini tashkil etar edi. Shuning uchun ham uning ilmiy merosini to'laligicha o'rganish mustaqil Respublikamiz ma'naviyatiga salmoqli hissa bo'lib qo'shilishi shubhasizdir.

QOZIZODA RUMIY

(XIV asr 2-yarmi — XV asr boshi)

XV asr boshlarida Movarounnahrda shuhrat qozongan ulkan matematik va astronomlardan biri Qozizodadir. Olimning to'liq nomi Salohiddin Muso ibn Muhammad ibn Mahmud.

¹ Qarang: Mir Sayyid Sharif Jurjoniylar, Al-ta'rifot, Istanbul. «Dor-ul toboate omera» 1818 y., 11-bet.

Qozizoda aslida hozirgi Turkiyaning shimoli-g'arbidagi Marmara dengizidan janubroqdagi Bursada tavallud topgan. Uning otasi Muhammad «Xoja Afandi» laqabi bilan ma'lum bo'lib, Salohiddinning bolalik yillarida vafot etgan. Xoja Afandi ancha olim va komil odam bo'lib, ko'p yillar Bursaning qozisi lavozimida, xizmat qilgan. Salohiddinning tug'ilgan yili aniq ma'lum emas. Turkcha manbalarda u hijriy 755–765 (milodiy 1354–1364)-yillar orasida tug'ilgan, deb taxmin qilinadi.

Qozizoda boshlang'ich ma'lumotlarini Bursadagi madrasada olib, astronomiya va matematika bilimlarini mavlono Shamsiddin Fanoriydan o'rganadi. Lekin u yoshligidan Movarounnahr va Xurosonda ilm-fanning yuksak darajada ekanligini eshitib, u yerga ketishga taraddud ko'ra boshlaydi. Oila a'zolari bu sayohatga monelik qilishlaridan qo'rqib, buni sir tutadi. Qozizoda XIV asr oxirlarida bir kun to'satdan Bursadan g'oyib bo'ladi. Avvaliga u Xurosonga borib, u yerda poytaxt Samarqandning shuhrati haqida eshitadi va o'sha shahar tarafga intiladi. Bu orada Amir Temurning yetti yillik yurishi boshlanib qoladi. Qozizoda yo'lda Amir Temurning ulamolari qatoriga qo'shilib qolib, ular bilan orqaga qaytib, yurishda ishtirok etadi va shu ketishda o'zining Bursadagi ustoz mullo Fanoriyning «Anmuzaji ulum» asariga sharh bitadi. U Xuroson va Movarounnahrda kelib olimlardan tahsil olib, bilimni kamolotga yetkazadi. Xususan u Amir Temurning saroy astronomi Mavlono Ahmaddan astronomiya va matematika fanlaridan chuqur ma'lumotlar oladi. Amir Temurning yetti yillik yurishi tugagach, 1404-yil yozida Salohiddin birinchi marta Movarounnahr poytaxti Samarqandga keladi. Tez orada Salohiddin Movarounnahr va Xuroson olimlari orasida «Qozizoda Rumiy» (Usmonli turklar mulki bo'lib qolgan Kichik Osiyo, ya'ni qadimgi Rim imperiyasi yerlarini Sharqda Rum deyilar edi) nomi bilan shuhrat qozonadi.

1405-yil boshida yuz bergan Sohibqironning vafotidan keyingi Movarounnahrda hukm surgan notinchlik Qozizodani Ulug'bek bilan birgalikda Hirotda ketishga majbur qiladi. Bu yerda u bir necha yil davomida bo'lajak buyuk olimga astronomiya va matematika fanlaridan saboq beradi va unda shu fanlarga nisbatan chuqur va so'nmas mehr uyg'otadi. Ulug'bek keyinchalik o'z «Zij»ida Qozizodani minnatdorchilik bilan «ustozim» deb tilga oladi.

Ulug'bekning o'zi aytganidek, uning ustozlari Qozizoda Rumiydir.

Ulug'bek Samarqandda 1417–1420-yillarda madrasa ta'sis etib, Qozizodani u yerda rais ul-muallimin nasabiga tayinlaydi va aksariyat hollarda uning darslarida o'zi ham ishtirok etadi. Ulug'bek madrasasi kvadrat shaklida bo'lib, uning to'rt tarafida darsxonasi va har bir darsxonaning o'z mudarrisi bo'lgan. Qozizoda madrasada darsga chiqquncha darsxonalarining talabalari o'z mudarrislari bilan chiqib, uni kutib turganlar.

Bir kuni qandaydir sababga ko'ra Ulug'bek o'sha to'rt mudarrisdan birini ta'zil etadi, ya'ni koyib ishdan chetlatadi. Buni eshitgan Qozizoda raddiya sifatida darsga chiqmaydi va bu hol bir necha kun davom etadi. Ulug'bek bundan ogoh bo'lib, Qozizodaning huzuriga boradi va uning sihat-salamatligini ko'rib, uning darsga chiqmayotganining sababini so'raydi. Shunda Qozizoda bunday javob beradi: «Biz mudarrislikning hech bir kimsaga aloqasi va munosabati yo'q bir mansab deb bilamiz. Hamda mudarrislik mansabi ta'zil joriy etilmaydigan mansabdir, deb hisoblardik. Holbuki endi bu mansab ham sultonlik tasarrufida ekanligini ko'rdik. Binobarin biz ham endi o'zimizni mudarrislik amalidan forig' etdik».

Ulug'bek buni eshitib, o'sha mudarrisni darhol o'z vazifasiga tiklaydi va bundan buyon hech bir mudarrisni ta'zil etmasligi haqida va'da beradi. Qozizodadan esa darslarga yana chiqishini iltimos qiladi.

Qozizoda Ulug'bek madrasasida mudarrislik yillarida «sayyid as-sana» deb tilga olinadigan Sayyid Sharif Jurjoniy nomli bir mudarris bilan muloqotda bo'ladi. Qozizoda u kishi bilan ko'p mubohisa va munozara qilardi. Ba'zan shunday bo'lardiki, bu mubohisalarda ikkala shaxs ham bir-biriga nisbatan ovozi ko'tarar va tafovut, muxolifotga borardilar. Shunday hollarda Qozizoda Sayyid Sharifga nisbatan «matematik fanlarda qudratsiz» desa, Sayyid Sharif Qozizodaga «ta'bi matematik fanlarga mag'lub va falsafiyotga mansub» der edi. Lekin ikkisi ham bir-birining asarlarini tahrir qilar va tortishuvga sabab bo'lgan masalalarni talabalar oldiga qo'yar edilar.

Ulug'bek Jamshid Koshiydan «Ziji Elxoniy» haqida va Marog'adagi kuzatishlar haqida ko'p eshitib, o'zi rasadxona barpo etish va yangidan astronomik kuzatishlarni boshlashga tashabbus ko'rsatadi. Rasadxona qurilishini Qozizoda bilan birga Jamshid Koshiy boshqaradi. Qurilish tugatilib, kuzatishlar boshlanishi bila'noq Koshiy vafot etadi. Bundan so'ng ishlarga ilmiy rahbarlik Qozizodaning zimmasiga yuklanadi. U ham kuza-

tishlar oxiriga yetkazilmasdan vafot etadi. Endi kuzatishlarni davom ettirish navbati Ali Qushchiga keladi va u bu ishda katta jonbozlik ko'rsatib, ustozlari Ulug'bek bilan ishni nihoyasiga yetkazadi.

Qozizoda bilan Jamshid Koshiylar, shubhasiz XV asr 1-yarmida Sharq va G'arbning eng buyuk olimlaridan edilar. Ular ikkisinining o'zara munosabatlari do'stona edi va ular bir-biriga katta hurmat bilan qaradilar. Xususan Qozizoda Koshiyga «birodari a'zam» deb murojaat etardi. Qozizoda Samarqanddaligida juda ko'p shogirdlar yetishtirdi. Bularning avvali va eng buyugi Ulug'bekdir. Ikkinchi shogirdi Fathulloh Shirvoniy bo'lib, u 1449-yili Ulug'bek o'ldirilishi bilan darhol Kichik Osiyoga ketadi va Kastamonu shahrida mudarrislik bilan shug'ullanadi. Qozizoda Samarqandda uylanib, bu nikohdan bo'lajak yirik olim Miram Chalybiyning otasi Qutbiddin dunyoga keladi.

Qozizodaning vafot etgan yili ma'lum emas. Lekin bu voqea 1426-1436-yillar orasiga to'g'ri keladi, deb taxmin qilinadi.

Olimning qalamiga mansub asarlar quyidagilardir:

1. «Risola fi-l-hisob» («Hisob haqida risola»). Arifmetikaga doir arab tilida yozilgan risola bo'lib, unda kasr va butun sonlarning o'nliq uslublaridagi hisobi bayon etilgan. Risola 1382-yili Bursada yozilgan. Ikki kita qo'lyozmasi Mashhadda imom Rizo kutubxonasida saqlanadi.

2. «Sharhi mulaxxis fi-l-hay'a» («Astronomiya haqida qisqacha risolaning sharhi»). Asar Mahmud ibn Muhammad ibn Umar al-Xorazmiy al-Chag'miniyning (XIII asr) «Mulaxxas fi-l-xaya» nomli asariga arab tilida yozilgan sharhidan iborat. Sharh 1412-yili Ulug'bek uchun Samarqandda yozilgan. Risolaning 150 dan ortiq qo'lyozma nusxalar dunyodagi turli kutubxonalarda saqlanadi.

3. «Sharhi ashkol at-ta'sis». Bu risola XV asrda yashagan matematik Shamsiddin Samarqandiyning «Ashkol at-ta'sis» («Asoslangan jumalar») nomli geometriyaga doir risolasiga arabchada yozilgan sharhidir. Bu ham 1412-yili Samarqandda Ulug'bek uchun yozilgan. Bu risolaning ham 70 dan ortiq qo'lyozmalari bo'lib, turli kutubxonalarda mavjuddir.

4. «Risola al-jayb» («Sinus haqida risola»). Bu risolada bir darajaning sinusini aniqlashning yangi bir usuli bayon etilgan, arab tilida Samarqandda yozilgan. Uning ikki qo'lyozmasi Istanbulda Sulton Muhammad kutubxonasida saqlanadi.



5. «Dar bayoni istirohati jaybi yak daraja» («Bir daraja sinusini aniqlash usulining bayoni haqida»). Bu risola ham oldingi risola mavzusiga bag'ishlangan va fors tilida Samarqandda yozilgan.

6. «Dastur al-amal va tashiq al-jadval» («Amal dasturi va jadvallarini tuzatish»). Arabchada yozilgan va Ulug'bek «Zij»idagi bir matematik masalaning sharhiga bag'ishlangan. Birgina qo'lyozmasi Tbilisida saqlanadi.

7. «Misoxa» («O'lchash»). Arab tilida yozilgan, yuzalarni o'lchashga bag'ishlangan risola. Bir nusxasi Mashhadda Mavlaviy kutubxonasida saqlanadi.

8. «Risola fi-l-hay'a va-l-handasa» («Astronomiya va geometriya haqidagi risola»). Birgina nusxasi Turkiyada, Bursa shahrida saqlanadi.

9. «Sharhat-Tazkira». Nasiriddin Tusiyning «At-Tazkira» nomli arab tilidagi risolasiga sharh.

10. «Sharh Tahrir al-Majistiy» arab tilida yozilgan. Astronomiyaga doir risola, ikki qo'lyozmasi Berlin va Londonda saqlanadi.

11. «Risola fi ilm al-hay'a» («Astronomiya ilmi haqida risola»). Birgina qo'lyozmasi Sankt-Peterburgda saqlanadi.

12. «Risola fi rub' al-mujayab» («Sinus kvadrat haqida risola»). Arab tilida. Qo'lyozmalari Sankt-Peterburg, Mashhad va Tehron kutubxonalarida saqlanadi.

13. «Lima kana halla kavni nisba irtifa' a'zam al-jibol ila qutri al-arz kanisba sub' ard sha'ira ila zira'» («Nima uchun tog'larning eng balandining Yer diametriga nisbati arpa donining bir gazga nisbati kabi ekanligi qabul qilingani»). Yer o'lchamiga bag'ishlangan arab tilidagi risola. Birgina qo'lyozmasi Berlinda saqlanadi.

14. «Risola fi samiy al-qibla» («Qibla azimuti haqida risola»). Qo'lyozmasi Bursada (Turkiya) saqlanadi.

15. «Sharh hikmat al-ayn». Al-Qazviniyning «Hikmat al-ayn» nomli risolasiga sharh, arab tilida. Qo'lyozmalari Bog'chasaroy (Qrim), Berlin, Dushanbe, Qozon, Qohira va boshqa ko'plab shaharlardagi kutubxonalarda saqlanadi.

Ulug'bek rasadxonasining yetuk namoyandalaridan sanalgan va Ulug'bekdek buyuk olimni tarbiyalagan Qozizoda Rumiyl qoldirib ketgan adabiy-ilmiiy meros bugungi avlodning oltin mulki hisoblanadi. Lekin shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, bu olimning qator asarlari o'z tadqiqotchilari-ni hanuzgacha kutib yotibdi.

G'YOSUDDIN AL-KOSHIY

(1429-yil vafot etgan)

Jamshid ibn Mas'ud ibn Mahmud G'iyosuddin al-Koshiy (ko'proq G'iyosuddin al-Koshiy ismi bilan mashhur) — XIV—XV asrda o'z fanining bilimdonlari — riyoziyotchilar, tabiblar va hunarmandlari bilan shuhrat qozongan Koshonda tug'ilgan. Uning bobosi Mahmud ibn Yah'yo ibn al-Hasan al-Koshiy ham o'qimishli bo'lib, 1411-yilda Sherozda riyoziyot va astrologiyaga oid risola — Iskandarning (Amir Temurning nabirasi) goroskopini tuzgan.

G'iyosuddin Koshiyning tavallud yili noma'lum bo'lsa-da, u yoshlik yillarini Koshonda o'tkazib, riyoziyot va falakiyot ilmiga qiziqib, Yunoniston, Eron va Markaziy Osiyolik mashhur olimlarning asarlarini tarjima qilib, ularga sharhlar yozgan. U tabobat, mantiq, huquqshunoslik, adabiyot fanini yaxshi bilgan. Keyinchalik Koshiy Hirotga kelib, Shohrux saroyida xizmat qilgan va unga atab «Elxon zij»ini takomillashtirish uchun «Xoqon Ziji» («Ziji Xoqoniy dar takmili «Ziji Elxoniy») nomli astronomik asarini bitgan. Uning bu asari o'z davridagi astronomiya sohasidagi eng yetuk asarlardan hisoblangan.

Qozizoda Rumiyning maslahati bilan Ulug'bek 1416-yili al-Koshiyni Samarqandga taklif etgan va u hayotining so'nggi yillarigacha Samarqandda yashab, taxminan 1429-yilda vafot etgan.

Jamshid Koshiy XIV—XV asrning riyoziyot va falakiyot ilmining buyuk allomalaridan biri sifatida ajoyib riyoziyot qomusi — «Miftoh al-hisob» («Hisob kaliti») asari bilan Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlari, shuningdek, Markaziy Osiyoda mashhur edi. Ushbu asarda sistemali ravishda bayon etilgan o'nli kasrlar ta'limoti al-Koshiyning yuqori ilmiy yutuqlaridan biri edi.

Riyoziyot fanida taqribiy hisob usulini rivojlantirish borasida ham al-Koshiyning xizmati kattadir. Ushbu masalaga u «Risola al-muhitiya» («Doira haqida risola»)sini bag'ishlaydi va bu bilan o'rta asr matematikasi rivojiga muhim hissa qo'shdi. Asarda 17 aniq o'nli belgiga ega «L» sonining taqribiy ma'nosi asliyat uslubi bilan ko'rsatib berilgan.

Mirzo Ulug'bek o'zining «Ziji Ko'ragoniy» asarining muqaddimasida Koshiy mazkur asar ustida ish boshlagan ilk da'fada vafot etdi, deb ma'lumot beradi. Koshiy arab tilini juda yaxshi bilgan va Ulug'bek

Uning muqaddimasini arabchaga o'g'irgan. Bu haqda muqaddimasi muqaddimada shunday deyiladi: «Mavlono sulton Ulug'bek ibn Sulton Shohi ibn Sulton Temur Kuragonning «Zij»i tugatildi. U buni Samarqandda kuzatgan. Arabchaga mavlono va allomalar shayxi, alloma Sayyid G'iyosuddin Jamshid o'g'irdilar». Demak, bundan ko'rinadiki, Jamshid Koshiy Samarqanddagi astronomik kuzatishlar tugamasdan oldin qazo qilgan bo'lsa ham, «Zij»ni rejalashtirish va uning nazariy qismining tuzilish ishlarida ishtirok etgan va uni arabiyalashtirgan. Koshiy Ulug'bekka «Zij»ni yaratish, rasadxona qurish sohasida maslahatlar berganligi va bu ishlarida ishtirok etganligi tabiiy holdir. Chunki Nasiriddin Tusiyning «Ziji Elxoniy»sini mukammallashtirib, «Ziji Xoqoniy»ni yozgan Koshiyga «Zij»larning jumboqlari avvaldan ma'lum edi. Pokistonlik olim Abbos Rizviy aytganidek, «Koshiyning astronomiya va astronomik asboblarni, qadimgi va yaqin o'tmishdagi astronomlar, ayniqsa, Marog'a va Sheroz rasadxonalari astronomlari ishlarining yaxshi bilganligi uni nodir bir shaxs-ka aylantirgandi».

Koshiy hijriy 814(1411–1412)-yilda al-Chag'iniyning «Falakiyot haqida qisqartmalar» asariga va 1413-yilda esa XIII asrning ikkinchi yarminidagi samarqandlik olim va falakiyotchi Shamsuddin Muhammad Samarqandiyning «Ashkol at-ta'sis fi-l-handasa» («Handasa ilmida shakllar asosi») geometrik risolasiga o'z sharhlarini tuzib chiqqan.

Koshiyning fors tilida otasiga yozgan maktublarida Ulug'bek va uning astronomik maktabi haqida qimmatli ma'lumotlar uchraydi.

Masalan, Koshiyning 1421-yillar atrofida Koshonga yuborgan maktubida Ulug'bek, Qozizoda Rumiy, G'iyosuddin Koshiyning o'zi va Samarqand maktabining boshqa olimlarining ilmiy faoliyatlariga oid qiziqarli ma'lumotlar hamda rasadxona qurilishiga doir lavhalar mufassalligi bilan diqqatga sazovordir.

G'iyosuddin xatida Samarqand Markaziy Osiyoning madaniy markazi sifatida Koshondan afzalligini, Ulug'bekni esa ko'zga ko'ringan davlat arbobi va hukmdorgina emas, balki yirik olim ekanini tasvirlab o'tadi. Muallifning Ulug'bek haqida keltirgan ushbu dalillari boshqa tarixiy manbalarda uchraydigan Ulug'bek haqidagi ma'lumotlarni, ayniqsa, uning yetuk alloma ekanligini anchagina to'ldiradi.

Samarqandda 1420-yilda qurilgan madrasa ilm-fanning nufuzli markazi bo'lib, unda Ulug'bekning o'zi ma'ruzalar o'qigan. Maktub yozilgan

paytida Ulug‘bek 26–27 yoshlarda bo‘lgan va o‘ta qiziqish bilan fala kiyot va riyoziyot fanlari bilan shug‘ullangan. Koshiy o‘z maktubida Ulug‘bekni falakiyot sohasidagi favqulodda qobiliyatini qayd etib, uning «Na siriddinning xotiranomalari» («Tazkira»)sidan va «Shoh tuhfası» («Tuhla»)dan o‘qigan ajoyib ma‘ruzalarini eslatib o‘tadi. G‘iyosuddin Ulug‘bekning beqiyos xotirasi haqida yozarkan, u oftobning uzunligini darajalari va daqiqalarigacha bo‘lgan aniqlikda yoddan hisoblay olishini ta‘kidlab o‘tadi. U Ulug‘bekning madrasalarda va saroyda o‘tkaziladiga katta ilmiy kengashlardagi bahslarda faol ishtirok etishini va shu muno sabat bilan Ulug‘bekning ustozı Qozizoda Rumiynıng ismini ham tilg oladi va uni eng ma‘rifatli olim deb ajratib ko‘rsatadi. G‘iyosuddin maktubida Ulug‘bekning huquqshunoslikdagi ajoyib bilimlarini ta‘kidlagank bu haqda shu vaqtgacha faqatgina taxminlar qilingan, xolos.

Bundan shunday xulosa chiqarish mumkinki, Alouddin al-Buxori 1447-yili Abu Xanifa an-Nu‘mon ibn Sobit ibn Zutaning (767-yild vafot etgan) asariga yozilgan «Sharh ala-l-fiqh al-akbar» («Buyuk fiqh»g sharh)ini Ulug‘bekka bag‘ishlangani bejiz emas. Maktubdan yana sh narsa ma‘lum bo‘ladiki, Abu Rayhon Beruniyning «Qonuni Mas‘udiy Ulug‘bek va uning atrofıdagi hamkorlari — Qozizoda Rumi, G‘iyosuddi Koshiyning o‘zi va boshqalar uchun doim kerak bo‘ladigan kitob hisob langan. Mazkur ma‘lumotlar Samarqand maktabining buyuk olim Ab Rayhon Beruniy ilmiy merosi bilan bog‘liqligidan guvohlik beradi.

Maktubda rasadxona devoriga o‘rnatilgan quyosh soati haqida ma‘ lumot keltiriladi. Vaholanki, Ulug‘bek asarlarida bunday soat mavjudlig haqida bevosita ta‘kid yo‘q. Demak, G‘iyosuddinıng bu ma‘lumotlar M.T.Qori-Niyoziyning Ulug‘bekka bag‘ishlangan «Ulug‘bekning ast ronomik maktabı» asaridagi shunday soat bo‘lganligi haqida taxminir tasdiqlaydi.

Maktubning forsha matni eron olimi M. Tabotaboıy (Eron, 1940) turk olimi Oydin Sayiliy tomonidan ingliz va turk (Anqara, 1960) amerikalik olim E. Kennedi tomonidan ingliz (Rim, 1960), arab olir Ahmad Sa‘id Damardosh tomonidan arab (Misr, 1963), tojik olimlar G‘. Sobirov va N. Boboyev rus (Dushanbe, 1973), shuningdek, Tosh kentda rus (1979) va o‘zbek (1996) tillariga tarjima qilinib, nashr etil gan. Bundan tashqari, Koshiyning «Sullam as-samovat» («Osmonla narvoni»), «Nuzhat al-hadoıyiq» («Bog‘lar sayrı»), «Risola al-vatar alh

ayb» («Xorda va sinuslar haqida risola») kabi asarlari ham bizgacha yetib kelgan va bu asarlar Movarounnahr ilmiy-adabiy muhitida salmoqli o'rin egallagan.

Koshiyning Hirot, ayniqsa, Samarqanddagi ilmiy tadqiqotlari, uning matematika va astronomiya sohasida erishgan yutuqlari Temuriylar davrida Xuroson va Movarounnahrda madaniy rivojlanish va turli yurtlardan kelgan olimlarning erkin ilmiy faoliyati uchun keng imkoniyatlar yaratilganligining yana bir muhim dalilidir.

ALI QUSHCHI

(1474-yil vafot etgan)

«O'z davrining Batlimusi» deb tanilgan Ali Qushchining to'liq nomi Alouddin Ali ibn Muhammad al-Qushchi bo'lib, u Samarqandda tug'ilib o'sgan va XV asrda ilmiy faoliyat ko'rsatgan matematik va astronomlardandir. Uning tug'ilish sanasi ma'lum bo'lmasa-da, XIV asr oxiri – XV asr boshida tug'ilgan deb taxmin qilinadi. U Ulug'bek saroyidagi Muhammad ismli ovchi qushlarga qarovchi bir kishining o'g'li bo'lib, shu sababli unga Qushchi laqabi berilgan. U otasidan yetim qolganidan so'ng Ulug'bekning tarbiyasida bo'lgani bois, Ulug'bek uni o'z «Zij»ining so'zboshisida «farzandi arjumand» deydi.

Ali Qushchi boshlang'ich va shar'iy bilimlarni Samarqand olimlaridan, matematik va astronomik bilimlarni esa Qozizoda Rumiylar bilan Ulug'bekdan oladi. Bir ma'lumotga ko'ra, u yoshligida beruxsat Samarqanddan g'oyib bo'ladi-da, Kermonda biroz muddat mahalliy olimlardan bilim o'rganadi va yana Samarqandga, Ulug'bek huzuriga qaytib kelib, uzr so'raydi, Kermonda yozgan oyning shakllariga taalluqli eng birinchi asarini unga taqdim etadi.

Ulug'bek 1424-yili o'zining mashhur rasadxonasiga asos soladi, ish boshlanishi bilanoq Jamshid Koshiy, bir necha yildan so'ng Qozizoda Rumiylar ham vafot etadi. Shunda Ulug'bek rasadxonadagi qurilish ishlariga va astronomik kuzatishlarga yosh olim Ali Qushchini mutasaddi qilib qo'yadi.

Ali Qushchi umrining ko'p qismini Samarqandda o'tkazadi. Faqat 1449-yili Ulug'bek o'ldirilib, mirzolar o'rtasida ro'y bergan nizodan afsus-

lanib, asta-sekin bu yerda ilmiy ishlarni to'xtatishga majbur bo'ladi, lekin ulardan haj safariga ruxsat olishga muyassar bo'larkan, bu yerdan Ozarbayjonga ketib, biror muddat Tabrizda turadi. U yerda uni mahalliy hokim Uzun Hasan o'z saroyiga taklif qilib, unga nisbatan katta hurmat va ehtirom izhor etadi. Ali Qushchi hajni bajo keltirgan yo keltirmagani haqida ma'lumotga ega emasmiz. Lekin u o'z safarining pirovardida Usmonli sulton Muhammad II ning saroyiga keladi. Sulton uni juda iliq qabul qilib, o'ziga yaqin tutib, doimiy yashash uchun Istanbulda qolishni taklif etadi. Ali Qushchi bu taklifni qabul etadi va sultonning ruxsati bilan yana Tabrizga qaytib borib, u yerda turgan ikki yuzga yaqin qarindosh-urug'lari va yaqinlarini Istanbulga olib keladi. Sulton uni juda zo'r dabdaba bilan kutib oladi.

Ali Qushchi 1472-yil bahoridan boshlab kundalik 200 aqcha moyana bilan Ayo So'fiyo madrasasiga bosh mudarris etib tayinlanadi. Uning qarindoshlari va yaqinlari ham o'zlariga munosib vazifalarga tayinlanadilar.

Ali Qushchining tug'ilgan yili aniq bo'lmasa ham, vafot etgan sanasi juda aniq. Bu sana uning qizi tarafidan nabirasi bo'lmish Miram Chalbiyning ushbu forsiy misralarida keltirilgan:

Rahnamoyi ilm mavlono Ali Qushchi,
Chun bi-suyi ravzayi rizvon biraft:
Bud zi hijrat hashtsadu haftodu no'h,
Ruzi shanba haftumi sha'bon biraft.

Ma'nosi:

Ilm-fan rahnamosi mavlono Ali Qushchi,
Jannat gulzori sari yuzlangan vaqt:
Hijratdin sakkiz yuz yetmish to'qqizinchi yil,
Shanba kuni sha'bonning yettinchi kuni.

Bu yerda keltirilgan hijriy 878-sana, milodiy 1474-yil 17-dekabriga to'g'ri keladi. U Istanbuldagi Abu Ayyub Ansoriy maqbarasida dafn etilgan.

Ali Qushchining ilmiy asarlari Ulug'bek «Zij»idek shuhrat qozonmagan bo'lsa ham, uning ijodi fan tarixida nihoyatda muhim o'rin tutadi. U o'rta asrlardagi Movarounnahrda rivoj topgan aniq fanlar sohasidagi buyuk olimlarning eng so'nggi namoyandasi bo'lishi bilan birga Usmonli

turklardagi birinchi eng yirik va ko'zga ko'ringan olim bo'lgan. Hozirgi zamon turk tarixchilarining e'tirof etishicha, Istanbulga Ali Qushchi kelguniga qadar «ilmi hay'atda u daraja bir sohib vuqufi mavjud bo'lmagan edi». Istanbulga Ali Qushchi kelishi bilan bu mamlakatda qisqa muddat ichida astronomiya fani sohasidagi ishlar yo'lga qo'yildi va pirovard natijada, Miram Chalabiy va boshqa atoqli zotlar yuzaga keldi.

Lekin u Istanbulda kam vaqt bo'lgani bois bu yerda yirik ishlarni amalga oshirishning imkoni bo'lmadi. Biroq shu qisqa muddat ham va umuman uning Istanbulga kelishining o'zi ham nafaqat Usmonli turk fani tarixida, balki dunyo fanida muhim bir voqea bo'ldi. Chunki Usmonli turklar 1453-yili Istanbulni fath etganidan so'ng biroz o'tmay bu shahar Sharq va G'arb madaniyatlarining uchrashuv joyi bo'lib qoldi. Ma'lumki, o'sha davrda Ovro'poda Sharq fani va madaniyatiga qiziqish juda katta bo'lib, Ovro'po Sharqning ilmiy yutuqlarini chanqoqlik bilan o'ziga singdirayotgan edi. Istanbulga Italiya, Germaniya, Avstriya va Gollandiyadan rassomlar, muhandislar, harbiy mutaxassislardan tashqari astronomiya va matematika mutaxassislari ham to'plangan edi. Xususan, Germaniyadan hisobdon «kossistlar» kelgan edi. Birinchi bo'lib Samarqand olimlarining yutuqlaridan ana o'shalar bahramand bo'ldilar. Shu tariqa Ulug'bek va uning «Zij»i haqidagi xabarlar milodiy XV asr oxiridayoq Ovro'poga yetdi. Bunda esa Ali Qushchining xizmati kattadir.

Ali Qushchining qalamiga mansub asarlar quyidagilardir:

1. «Risola fi-l-hisob» («Hisob haqida risola»). Asar fors tilida 1425-yili Samarqandda yozilgan. U uch qismdan iborat: o'nlik hisoblash tizimi, oltmishlik hisoblash tizimi va handasa.

Ali Qushchining bu risolasi o'rta asrlarda keng tarqalgan bo'lib, nafaqat Movarounnahr olimlarining, balki butun Yaqin va O'rta Sharq olimlarining diqqatini o'ziga jalb qilgan. Chunonchi, yozilganidan 150 yilcha keyin Bahouddin Omuliy (1547–1621) o'zining «Xulosat ul-hisob» nomli asarini yozganida undan foydalangan. Risolaning qo'lyozmalari O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida, Tojikiston poytaxti Dushanbe shahridagi Firdavsiy nomli kutubxonada, Sankt-Peterburgda, Rossiya akademiyasi kutubxonasida, Mashhadda imom Rizo kutubxonasida, Istanbuldagi (Turkiya) Ayo So'fiyo kutubxonasida va Oksford (Angliya) universiteti kutubxonasida saqlanadi.

2. «Risolai qusur» («Kasrlar risolasi»). Bu asar ham Samarqandda fors tilida 1426-yili yozilgan. Bu risolaning qimmatini shundaki, unda Ali



Qushchi o'nlik kasrlar tushunchasini va o'nlik kasrlar yordamida irratsional kvadrat ildiz chiqarish usulini bayon etadi. Risolaning yagona nusxas Sankt-Peterburgdagi Sharqshunoslik institutida saqlanadi.

3. «Risola at-fathiya» («G'alaba risolasi»). Asar turk sultoni Muhammad II ning Iroq sultoni Azim ustidan g'alaba (fath) qilgani munosabati bilan 1473-yili Istanbulda yozilgan va astronomiyaga bag'ishlangan. Asarning qo'lyozmalari Mashhadda imom Rizo kutubxonasida, Istanbulda Ayo So'fiyo kutubxonasida, Tehron universiteti kutubxonasida, Kembrij universiteti kutubxonasida, Britaniya muzeyida, Berlindagi Germaniya davlat kutubxonasida, Dehlidagi Hindiston universiteti kutubxonasida va Mumbay kutubxonasida saqlanadi.

4. «Risola al-Muhammadiya fi-l-hisob» («Hisob haqida»). Asar arabiy imlododa yozilgan hisobga doir eng nodir asarlardan bo'lib, turk sultoni Muhammad II ga bag'ishlangan. Unda o'nlik va oltmishlik hisoblash tizimlaridan arifmetika, algebra, geometriya va trigonometriya masalalari ko'riladi. Asarni muallifning o'zi 1472-yili forsiyga o'g'irgan. Risolaning muhim taraflaridan biri shundaki, unda birinchi marta «musbat» va «manfiy» iboralari hozirgi biz qo'llayotgan ma'noda ishlatiladi. Risolaning ikki qo'lyozmasi Istanbulda Ayo So'fiyo kutubxonasida va Leyden universiteti kutubxonasida saqlanadi.

5. «Risola fi halla ash-shakl al-hilo» («Hilolsimon shakllarni o'lchash haqida risola»). Arab tilida yozilgan risola, qo'lyozmasi saqlanmagan.

6. «Sharhi Miftoh al-ulumi Taftazoniy» («Taftazoniyning «Miftoh al-ulum»ining sharhi»). Fors tilida yozilgan risola. Unga mashhur Qozizoda Rumiy sharh yozgan. Birgina qo'lyozmasi Mashhaddagi imom Rizo kutubxonasida saqlanadi.

7. «Risola dar ilmi hay'at» («Astronomiya ilmi haqida risola»). Asar «Risola dar falakiyot», «Risolayi forsiya dar hay'at» va «Hay'ati forsiy» nomlari bilan ham ma'lum bo'lib, fors tilida bitilgan. Risolada Samarqand maktabi olimlarining astronomiya sohasida erishgan yutuqlaridan guvohlik beruvchi qator ma'lumotlar mavjud. Ali Qushchining shogirdlaridan biri Abulqodir ibn Hasan Ro'yoniy (vafoti 1520) risola haqida bunday deydi: «Men astronomiyaga doir ko'p asarlarni o'rgandim, Shamsiddin al-Koshiy, Husaynshoh Samoniy, Nosiri Sheroziy va Alishoh Xorazmiylarning «zij»larini sinchiklab mutolaa qildim. Lekin Ali Qushchining risolarini o'qiganimdan so'ng astronomiya sohasidagi barcha anglamagan narsalarim menga ayon bo'ldi».

Bu risolaning qo'lyozmalari O'zbekiston Respublikasi FA Sharqshunoslik institutining qo'lyozmalar fondida, Sankt-Peterburgdagi ommaviy kutubxonada, Parij milliy kutubxonasida, Mashhaddagi imom Rizo kutubxonasida, Oksford universiteti kutubxonasida, Britaniya muzeyida, Kembrij universiteti kutubxonasida, Berlinda Germaniya davlat kutubxonasida va Istanbulda Ayo So'fiyo kutubxonasida saqlanadi.

8. «Sharhi «Ziji Ulug'bek» («Ulug'bek «Zij»iga sharh»). Sharh ham «Zij»ning o'zi kabi fors tilida yozilgan. Uni avval Jamshid Koshiy va Qozizoda Rumiylar boshlagan edi. So'ng sharhni Ali Qushchi Istanbulda yakunladi. Bu sharhning qo'lyozmalari Tehron universiteti kutubxonasida, Leyden universiteti kutubxonasida, Parij milliy kutubxonasida hamda Sankt-Peterburg, Dushanbe, Mashhad, Istanbul va Angliyadagi kutubxonalarda saqlanadi.

9. «Sharhi risolai «Tuhfai shohiya» («Shohiy tuhfa» risolasining sharhi»). Mashhur matematik va astronom Qutbiddin Sheroziyning (vafoti 1311) risolasiga sharh, forsiy tilda yozilgan. Qo'lyozmalari Ayo So'fiyo; Oksford universiteti va boshqa kutubxonalarda saqlanadi.

10. «Sharhi risolai «Sullam as-samo» («Sullam as-samo» risolasiga sharh»). Bunda Ali Qushchi o'zining Samarqanddagi ustodlaridan biri bo'lmish Jamshid Koshiyning «Sullam as-samo» nomli astronomik risolasiga sharh bergan. Qo'lyozmalari G'arbiy Ovro'po va Turkiya kutubxonalari saqlanadi.

11. «Xitoyнома». Bu risolani Ali Qushchi 1438-yili Ulug'bek tomonidan Xitoyga elchilikka yuborilganidan qaytganidan so'ng fors tilida yozgan. U o'zining shaxsiy kuzatishlariga ko'ra Xitoyning iqlimi, tabiati, xitoyliklarning urf-odatlarini bayon etgan. Undan tashqari bu asarda matematika, geografiya bilan birga olam xaritasi ham keltirilgan.

12. «Risolai mantiq» — 1430-yili Samarqandda, fors tilida yozilgan risola. Yagona qo'lyozmasi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik institutida saqlanadi.

13. «Sharhi tajvidi Xoja» («Xoja «Tajvidi»ning sharhi»). Asar mashhur astronom, matematik va faylasuf Xoja Nasiriddin Tusiyning (1201–1274) falsafaga doir «Tajvid» nomli asariga sharhdan iborat. Uni bo'lajak olim 1417-yili Kermondaligida yozgan bo'lib, uning qalamiga mansub ilk asar edi.

Asarning qo'lyozmalari Britaniya muzeyida, Mashhaddagi imom Rizo kutubxonasida, Istanbulda Ayo So'fiyo kutubxonasida, Tehron universiteti

kutubxonasida, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida va Sankt-Peterburgdagi ommaviy kutubxonada saqlanadi.

14. «Risola al-Mufradiya». Arab tilidagi risola, mantiqqa bag'ishlangan. Yagona qo'lyozma nusxasi Leyden kutubxonasida saqlanadi.

15. «Mahbub ul-hamoyil fi kashfil masoyil» («Masalalarni hal qilishning mahbub bo'lganlari haqida»). Risola arab tilida yozilgan bo'lib, 20 bobdan iborat. Har bir bob alohida fanga bag'ishlangan. Birgina qo'lyozmasi Tehron universiteti kutubxonasida saqlanadi.

16. «Risola muta'olliqa bi kalimat at-tahvid» («Tavhid kalimasiga aloqador risola»). Arab tilida yozilgan ilohiyotga doir risola.

Qo'lyozmalari Berlin, Rim va boshqa shaharlardagi kutubxonalarda saqlanadi.

17. «Risola tata'llaq bi kuiya» («Umumiyatga aloqador risola») arab tilida yozilgan falsafiy asardir.

18. «Risola al-istorot». Arab tilida yozilgan mantiqqa doir risola. Ikki qo'lyozmasidan biri Leyden universiteti kutubxonasida, ikkinchisi Sankt-Peterburg ommaviy kutubxonasida saqlanadi.

19. «Sharh ar-risola al-Azudiya» («Al-Azudiya» risolasiga sharh»). «Al-Azudiya» risolasi aslida Izziddin ibn Abdurahim ibn Ahmad Ijjiy (vafoti 1335) tomonidan arab tilida yozilgan bo'lib, uni Ali Qushchi sharhlagan. U tilshunoslikka mansubdir. Qo'lyozmalari Leyden universiteti kutubxonasida, Sankt-Peterburg ommaviy kutubxonasida, Parij milliy kutubxonasida, O'zR FA Sharqshunoslik institutida, Istanbulda Ayo So'fiyo kutubxonasida va Oksford universiteti kutubxonasida saqlanadi.

20. «Al-unut va zavahir fi nazmil javohir» arab tilida yozilgan mantiqiy risola. Ayo So'fiyo va Leyden kutubxonasida ikki qo'lyozmasi saqlanadi.

21. «Risola al-mujas fit-tibb» («Tibbiyotga mansub mo'jaz risola»). Arab tilida. Birgina qo'lyozmasi Ayo So'fiyo kutubxonasida saqlanadi.

22. «Sharh risola al-fiqh» («Fiqh haqidagi risolaning sharhi»). Bu asar islomdagi to'rt mazhabdan biri bo'lmish «Imomi A'zam» mazhabiga asos solgan mashhur imom Abu Xapifa Nu'mon ibn Sobit tomonidan yozilgan «Al-fiqh» risolasiga sharhdir. Asar arab tilida yozilgan va islom huquqshunosligiga taalluqlidir. Qo'lyozmaning birgina nusxasi Qozon universiteti kutubxonasida saqlanadi.

23. «Risola fi hall al-misol al-handasa» («Geometriyaga doir bir masalaning yechilishi haqida risola»). Arab tilida yozilgan bu asarda muallif aylanaga o'tkazilgan urinma hosil qilgan burchak haqida bir teoremani isbotlaydi.

Ali Qushchining butun hayoti va ijodi fan yo'lida sarflandi. U o'z asarlari bilan va ustози Ulug'bek bilan hamkorligi tufayli o'z nomini tarix sahifalariga abadiy kiritdi.

YA'QUB CHARXIY

(1447-yil vafot etgan)

XV asrning 1-yarmida Movarounnahrda yashagan Naqshbandiya ta'limotining yirik vakillaridan Xoja Ahrori Valiyning ustози bo'lmish mavlono Ya'qub Charxiy G'azna (Afg'oniston) shahriga tobe qishloqlardan biri hisoblangan Charxda tug'ilganligi uchun Charxiy taxallusini olgandir. Manbalarning guvohlik berishicha, u o'z davridagi ilmlarni egalagach, ko'nglida tasavvufga nisbatan xohish paydo bo'lib, Buxoroga keladi va Xoja Bahouddin Naqshband bilan uchrashadi. Bu voqealarning tafsiloti uning «Risolai unsiya» («Do'stlik haqida risola») nomli kitobida bayon qilingan.

Bir necha sinovlardan so'ng, Xoja Bahouddin Naqshband Charxiyni shogirdlikka qabul qilib, so'fiylik ta'limoti bilan tanishtiradi va uni o'zining shogirdi va kuyovi Xoja Alouddin Attorning tarbiyasiga topshiradi. Buxoroda Ya'qub Charxiy tasavvuf sohasida tez orada ma'naviy kamolot topadi va Chag'oniyonda faoliyat ko'rsata boshlaydi.

Ya'qub Charxiy Naqshband ko'rsatmasiga muvofiq xalqni haq yo'lga da'vat qila boshlaydi. O'z asarlari va yetishtirgan shogirdlari bilan shuhrati har tomonga tarqaladi. U, asosan, Movarounnahrda Ulug'bek, Xurosonda esa Shohrux davrlarida faoliyat ko'rsatdi. Keyinchalik Naqshbandiya ta'limotining XV asrdagi eng yirik namoyandasi bo'lib tanilgan Nasiriddin Ubaydulloh (Xoja Ahrori Valiy) Charxiyning shon-shuhratini eshitib, u bilan uchrashishga oshiqadi va pirovard-natijada uni pir tutib, unga shogird tushadi. Bu voqeaning tafsiloti «Rashahot»da bayon qilingan.

Charxiy XV asrda Temuriylar davridagi tasavvuf, xususan Naqshbandiya ta'limotining yirik vakillaridan biri sifatida nom qozonadi. Bu haqda turli manbalarda ma'lumotlar keltiriladi. Mashhur Abdurahmon Jo-



miy o'zining «Nafohot ul-uns» kitobida Ya'qub Charxiy faoliyati va tasavvufni targ'ib qilish sohasidagi xizmatlarini alohida ta'kidlab o'tadi va Xoja Ahrori Valiy bilan ustoz-tolib munosabatlarini tilga oladi.

Mavloni Ya'qub Charxiy o'z ustozini Xoja Bahouddin Naqshbandning «mendan nimaiki senga yetgan bo'lsa, boshqalarga yetkaz», degan amrlariga farmonbardor bo'lib, hozir bo'lganlarga xitob (so'zlash) orqali, g'oyibdagilarga kitob orqali yetkazishga harakat qildi.

Mavloni Ya'qub Charxiy Naqshbandiya ta'limoti, turli diniy ilmga oid bir qancha asarlar yozadiki, bu yerda ularning ro'yxatini keltirib o'tish maqsadga muvofiqdir:

1. «Tafsiri Charxiy» («Charxiyning Qur'onga qilgan tafsiri»).
2. «Risolai unsiya» («Do'stlik haqida risola»).
3. «Ar-risolat ul-abdoliya» («Abdollar haqida risola»).
4. «Risola dar siyrati Mustafaviya va tariqai mustaqimiya» («Mustafoning siyratlari va to'g'ri yo'llar haqida risola»).
5. «Risola dar ilmi faroyiz» («Farz narsalar haqida risola»).
6. «Risola dar aqoid» («Aqoid ilmi haqida risola»).
7. «Risola fi-l-hisob va-l-faroyiz» («Hisob va meros taqsimi haqida risola»).
8. «Muxtasar dar bayoni silsilai Naqshbandiya» («Naqshbandiya suluki haqida qisqacha risola»).
9. «Sharhi asmoulloh» («Alloh ismlarining sharhi haqida risola»).
10. «Sharhi nuvadu nuh nom» («Allohnig to'qson to'qqiz ismining sharhi»).
11. «Faroyizi manzuma» («Nazmiy farz narsalar haqida»).

Charxiyni ko'pchilik faqat Qur'oni karimga tafsir yozgan olim sifatidagina taniydi. Haqiqatan uning maqbarasi peshtoqiga «tafsirchi olim» deb yozib qo'yilgan. Asarlari ro'yxatidan ko'rinib turganidek, Charxiy Naqshbandiya silsilasini bayon qiluvchi alohida risola ham yozgan. Bundan tashqari u «Risolai unsiya» («Do'stlik haqida risola»)ni yozdiki, unda Xoja Bahouddin bilan uchrashgani, uning ta'lim-tarbiyasi va tariqat yo'lida buyurgan ishlarini mukammal bayon qilib, o'z ustozlarining nomi va shuhratlarini yoyishga xizmat qildi. Shuningdek, uning qalamiga meros haqidagi risola ham mansubdir. Charxiy hijriy 851, milodiy 1447-yili vafot etgan. U Movarounnahr va Xurosonda tasavvufning hayotiy yo'nalishlaridan bo'lmish Naqshbandiya ta'limotining keng yoyilishi va bu bilan umumiy madaniy yuksalish ishi yo'lida xizmat qildi va bu yo'lda o'z hissasini qo'shdi.

XOJA MUHAMMAD PORSO (1348—1420)

Tasavvuf ilmining Naqshbandiya maktabi islom olamiga mutasavvuf shayxlar bilan bir qatorda yetuk olimlarni ham yetishtirib bergan edi. Ana shunday zotlardan biri Xoja Muhammad Porso al-Buxoriydir. Uning ismi sharifidagi «al-Buxoriy» qo‘shimchasiga asoslanib aytish mumkinki, Porso Buxoroda tug‘ilgan. U madrasalarda o‘qib, Qur‘on, hadis, kalom kabi turli diniy ilmlarni chuqur o‘rganib, zamonasining zabardast kishilaridan biri bo‘lib yetishdi va Bahouddin Naqshbanddan so‘ng Markaziy Osiyoda naqshbandiya oqimining eng yirik vakili hamda targ‘ibotchisi sifatida mashhur bo‘ldi.

Abdurahmon Jomiy o‘zining «Nafahot ul-uns» nomli asarida ko‘rsatishicha, Muhammad Porsoning to‘liq ismi Muhammad bin Mahmud al-Hofiz al-Buxoriydir. «Porso» uning laqabi bo‘lib, bu laqabni unga Bahouddin Naqshband bergan. «Rashahot» muallifi buning tafsilotini quyidagicha bayon qiladi: «Muhammad Porso ko‘chada muntazir holda turardilar. Nogoh ichkaridan Hazrati Xoja (Bahouddin)ning kanizaklari chiqib qoldi. Hazrati Xoja kanizakdan: «Ko‘chada turgan kim?» — deb so‘radilar. «Bir porso (dindor) yigit turibdi», dedi kanizak. Hazrati Xoja tashqariga chiqib, Xoja Muhammadni ko‘rdilar va unga: «Siz porso ekan-siz», dedilar. Shu kundan boshlab el orasida u «Porso» laqabi bilan mashhur bo‘lib ketdi. Xoja Muhammad Porsoning Bahouddin Naqshband bilan bo‘lgan o‘zaro munosabatlari shu davrda yashagan Muhammad Boqirning «Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband» nomli asarida mukammal bayon qilingan.

Xoja Muhammad Porso «Tuhfat uz-zoirin» kitobida ko‘rsatilishicha, Bahouddin Naqshbandning ikkinchi xalifasi edi. Bahouddin Naqshband o‘zining bu shogirdiga katta umid bilan qaragan va uning tarbiyasini o‘z nazoratiga olgan.

«Rashahot»da Xoja Muhammad Porsoning quyidagi hikoyasi keltiriladi: «Hijoz yo‘lida Xojai Buzrug (Bahouddin) kasalga chalindilar va vasiyatlar cildilar. Shu asnoda do‘stlar huzurida bu majlisga yuzlanib: «Xojagonlar xonadonining xalifalaridan bu zaifga nimaiki yetgan bo‘lsa va bu yo‘lda nimaniki topgan bo‘lsa, bu omonatlarning barini senga topshirdim. Bu omonatlarning barini Haq subhonahu xalqiga yetqiz», dedi-

lar. Hijoz safaridan qaytganimizda esa do'stlar huzurida: «Bizda nimaiki bo'lsa, sen hammasini to'liq olding», dedilar. Hayotlarining oxirida esa: «Bizning vujudga kelishimizning sababi Muhammad (Porso)ning zuhuri edi», dedilar».

Bahouddin Naqshband vafoti oldidan Xoja Muhammad Porsoni o'z o'rniga tayin qilganligini uning yaqinlaridan bo'lgan Xoja Ali Domod quyidagicha tavsiflaydi: «Hazrati Xoja Bahovuddin oxirgi bemorliklari paytida hozirgi jasadlari yotgan qabrni kovlashga buyurdilar. Qabrni kovlab bo'lib, ularning huzurlariga keldim. O'zlaridan so'ng irshod ishiga kimni buyurar ekanlar, degan fikr ko'nglimdan o'tdi. Ular to'satdan menga o'g'irilib: «Hijoz yo'lida aytgan gapim gapdir, kimki bizni orzu qilsa, Xoja Muhammad Porsoga nazar qilsin», dedilar».

Mazkur misollar Xoja Bahouddin Naqshbandning shogirdiga nisbatan hurmat va e'tiqodining dalilidir.

Xoja Muhammad Porso o'z ustozlari kabi musulmonlarning ahvoli haqida qayg'urib, podshohlar ishiga ham aralashib turgan. «Rashahot»da keltirilgan bir hikoya avvalida Xoja Muhammad Porsodagi karomat quvvatining kuchliligidan dalolat qilinsa, so'ng davr ulamolarning hamda podshohning ilm-u fanning sof bo'lishi borasida qayg'urganliklari ko'rsatiladi.

«Rashahot» muallifi Ali Safiyning yozishicha, Xoja Muhammad Porso kuchli karomat sohibi bo'lsa-da, biroq buni iloji boricha yashirishga harakat qilgan. Ammo, qattiq zarurat tug'ilgandagina uni oshkor qilishga majbur bo'lgan. Shunday voqealardan birining tafsiloti quyidagicha:

«Hadischi olimlarning peshvosi shayx Shamsuddin Muhammad ibn Muhammad al-Jazariy alayhir rahmat Mirzo Ulug'bek zamonida Samarqandga kelgan edilar. Ba'zi g'arazgo'y kishilar: «Hazrati Xoja Muhammad Porso Buxoroda ko'p hadislarni naql qiladilar, ularning asnodlari to'g'ri yoki noto'g'riligi hech kimga ma'lum emas. Hazrati Shayx buni tekshirib ko'rsalar yomon bo'lmas edi», dedilar.

Hazrati Shayx bu ishning payiga tushdilar. Mirzo Ulug'bekni ham bunga ko'ndirib, Buxoroga odam yubordilar va Hazrati Xoja (Muhammad Porso)ni Samarqandga kelishlarini iltimos qildilar. Shunday qilib, Shayx Samarqandning shayxulislomi bo'lgan Xoja Isomiddin hamda ulamolarning eng ulug'lari bilan birga katta majlis tashkil qildilar. Xoja Muhammad ham majlisga yetib keldilar. Shayx undan iltimos qilib, asnodlari bilan birgalikda bir hadis aytishni so'radilar. Xoja Muhammad ayt-

gach, Shayx: «Bu hadisning to'g'riligiga shubha yo'q, biroq uning asnodi bizga ma'lum emas», dedilar. Bu so'zdan hasadchilar xursand bo'lib, bir-biriga ko'z qisdilar. Xoja Muhammad esa bu hadisning ikkinchi asnodini ham aytib berdilar. Shayx yana o'zining yuqoridagi so'zini takrorladi. Xoja Muhammad qancha asnod aytsa ham so'zi bu yerda maqbul bo'lmasligini fahmladilar. So'ng bir lahza muroqabaga berildilar, biroz sukutdan keyin Shayxga qarab: «Siz falon hadis kitobini tan olasizmi va undagi asnodlarni mo'tabar der hisoblaysizmi?» — dedilar. Shayx: «Ha, u kitoblardagi asnodlarning hammasi e'tiborli va ishonchga loyiqdir. Hadis fanini tahqiq etuvchilardan hech kim unga shubha qilmaydi, agar siz aytgan asnodlar shu kitobdan bo'lsa, u paytda bizning hech qanday e'tirozimiz yo'q», dedilar.

Hazrati Xoja (Muhammad Porso) Xoja Isomiddinga qarab: «Sizning kutubxonangizda falon tokchada, falon kitobning tagida, falon rangli va falon jildli kitob bor, unda biz aytgan asnod falon varaqdan so'ng, lalon sahifada batafsil keltirilgan, iltifot qilib, xodimlaringizdan bir kishini yuborsangiz, uni tezda olib kelsa», dedilar.

Xoja Isomiddin, bu asnod o'sha yerda bormi-yo'qmi, deb ikkilanib turardi. Majlisdagilar esa hang-u mang bo'lib, o'yg'a tolgan edilar. Hazrati Xojaning bu shaxsiy kutubxonada bo'lmaganliklari hammaga ma'lum edi. Shunday qilib, Xoja Isomiddin o'z yaqinlaridan birini zudlik bilan uyiga yuborib, agar aytilgan narsalar o'sha yerda bo'lsa, olib kelishni buyurdi. U kishi aytilgan belgilar bo'yicha kitob va asnodni topib, majlisga keltirdi. Aytilgan hadis o'sha asnodlar bilan o'sha sahifada hech bir tafovutsiz mavjud edi. Buni eshitgan majlis ahlidan hayrat ovozlari baland ko'tarildi. Shayx va boshqa ulamolar taajjub ichida qoldilar. Ayniqsa, Xoja Isomiddinning hayrati boshqalarnikidan ziyoda edi, chunki u bu asnodli kitobning o'z uyida borligidan bexabar edi. Bu qissani eshitgan Mirzo Ulug'bek Hazrati Xojani chaqirtirganidan xijolat bo'ldi. Hazrati Xojadan yuz bergan bu karomat odamlar orasida ularga nisbatan aqidalarini mustahkamladi».

«Rashahot»da Xoja Muhammad Porsoning o'sha davrdagi siyosiy voqealarga ham aloqador bo'lgani haqida ma'lumotlar keltirilgan. Uning faoliyatidan Amir Temurning farzandi Muhammad Jahongirning o'g'li Xalil Mirzo, shuningdek, Xuroson shohi Shohrux yaxshi xabardor bo'lganlar. Porso Shohrux bilan turli masalalar bo'yicha yozishmalar ham olib borganligi manbalarda qayd etilgan.

Xoja Muhammad Porso nafaqat valiulloh, balki o'z davrining yiri olimlaridan ediki, uning O'zbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomida Sharqshunoslik institutida quyidagi asarlari saqlanmoqda:

1. «Risolai qudsiya» («Xoja Bahouddinning qudsiy kalimalari haqida risola»).

2. «Az anfozi qudsiyai mashoyihi tariqat» («Tariqat mashoyixlarining qudsiy kalimalaridan»).

3. «E'tiqodot» («E'tiqod haqida risola»).

4. «Tahqiqot» («Tasavvuf istilohlari haqida risola»).

5. «Tafsiri Qur'on» («Qur'on tafsiri»).

6. «Al-hadis ul-arba'una» («Qirq hadis»).

7. «Risola dar odobi murid» («Murid odoblari haqida risola»).

8. «Risolai kashfiya» («Karomatlar haqida risola»).

9. «Risolai mahbubiy» («Do'stlik haqida risola»).

10. «Sharhi «Fiqhi Kaydoniy» («Fiqhi Kaydoniy» asarining sharhi»).

11. «Fasl ul-xitob bi-vusuli-ahbob» («Do'stlar visoliga yetishishda oqila qorani ajratuvchi kitob»).

12. «Muxtasari ta'rixi Makka» («Makka shahrining qisqacha tarixi»).

13. «Fusuli sitta» («Olti fasl»).

14. «Maktubi Xoja Muhammad Porso va Mavlono Zaynuddin» («Xoja Muhammad Porsoning Mavlono Zaynuddinga maktubi»).

15. «Maqomoti Xoja Alouddin Attor» («Alouddin Attor maqomoti»).

16. «Maqomoti Xoja Bahouddin Naqshband» («Xoja Bahouddin Naqshband maqomoti»).

17. «Muqaddima li-jomi' ul-kalim» («Jomi' ul-kalim» kitobiga muqaddima»).

18. «Haftodu du firqa» («Yetmish ikki firqa»).

Institutda Xoja Muhammad Porsoning qo'li tekkan va o'z muhrini bosgan boshqa bir muallifning asari ham saqlanmoqdaki, bularning barchasi uning yetuk olim bo'lishi bilan birga, o'zining shaxsiy kutubxonasi-ga ham ega ekanligini ko'rsatadi.

Xoja Muhammad Porso ikki marta haj safarini ado etgan. Dastlab Bahouddin Naqshband bilan, keyin 1419-yili Buxorodan Termiz, Balx va Hirot orqali Nishopurga, undan esa Madinaga kirib boradi. Haj ziyoratini amalga oshirgach, kasalga chalinib, 72 yoshida vafot etadi. Amir ul-mo'minin Abbos maqbarasi yoniga dafn etiladi. Shayx Zaynuddin al-Xavofiy Misrdan taroshlangan oq tosh keltirib, uning qabriga qo'yadi.

Muhammad Porsoning «Risolai qudsiya» asari Xoja Bahouddin Naqshbandning qudsiy kalimalarini sharhlashga bag'ishlangan. Bu kalimalar Bahouddin Naqshbandning o'z og'zidan eshitilgan bo'lib, Muhammad Porso ularni jamlab yurgan. Bu haqda uning o'zi shunday deydi: «Bu so'zlar (ularning) muborak og'izlaridan chiqqan so'zlardan bir tomchisigina bo'lib, bu zaif banda... bu qudsiy kalimalardan ba'zilarini sadoqat va irodad yuzasidan tabarrukona va irshod sifatida qalamga olib yurardi». Muhammad Porso o'zining bu asarida ulug'vor ustozining qudsiy kalimalarini keltiribgina qolmay, ularni sharhlab ham beradi. Asar Bahouddin Naqshband hayoti, uning xizmatlari va ma'naviy olamini ochib berish hamda Naqshbandiya sulukining asoslari haqida chuqur ma'lumotlarni o'z ichiga olishi bilan nihoyatda qimmatlidir.

Porsoning shariat va tariqat masalalariga bag'ishlangan va unga katta shuhrat keltirgan asari «Fasl un-xitob bi-vusuli-l-ahbob» («Do'stlar visoliga yetishda oq ila qorani ajratuvchi kitob») nomli asaridir. Katta hajmga ega bo'lgan bu kitob islom ulamolari orasida qo'llanma sifatida foydalanilgan. Asar bir necha marta chop etilgan.

O'tmishda shariat, tariqat va firqalar to'g'risida qandaydir bahs tug'ilib qolsa, albatta «Fasl ul-xitob»ga murojaat qilib, Porsoning fikrini hujjat sifatida ko'rganlar va unga suyanganlar. Mazkur asarning munda-riyasi bilan tanishib chiqishning o'zi asarda muhim masalalar keng yoritilganligidan guvoh beradi. Asar 494 ta masalaga bag'ishlangan bo'lib, bu masalalarning hammasi islomda bahsli hisoblangan va Porso bu masalalarni turli asarlarga suyangan holda yechib bergan.

Umuman olganda, Xoja Muhammad Porso Markaziy Osiyo xalqlari ma'naviyatida, islom va tasavvuf tarixida chuqur iz qoldirgan allomadir.

XOJA AHROR (1404–1490)

Hazrat Xoja Ubaydulloh Ahror — Markaziy Osiyo xalqlarining XV asr 2-yarmidagi ijtimoiy-siyosiy, madaniy va tafakkur rivojida muhim o'rin tutgan. Naqshbandiya tariqatining nazariy, amaliy jihatlarini boyitib, bu ta'limotning mashhur bo'lishiga hissa qo'shgan tarixiy shaxsdir. U hijriy 806-yil ramazon oyida (1404-yil, mart) Shosh — Toshkent viloyati muzofotlaridan Bog'istonda dunyoga kelgan. Otasi Xoja Mahmud

va buvalari ma'rifatli kishilardan bo'lib, dehqonchilik va tijorat bilan shu g'ullangan. Ona tarafidan Xoja Ahror mashhur Shayx Xovandi Tahurga borib ulanadi.

Xoja Ahror boshlang'ich ma'lumotni Toshkent madrasalarida olib, yoshlik chog'laridanoq muqaddas joylarni ziyorat qilishga moyillik ko'rsatadi va 23–24 yoshlarda tog'asi, zamonasining bilimdon kishilaridan bo'lgan Xoja Ibrohim uni Samarqandda o'qitishni maqsad qilib qo'yadi. Xoja Ahror ko'proq tasavvuf ilmiga qiziqadi. Shu maqsadda Hirotga kelib, 1428–1431-yillar orasida Shayx Bahouddin Umar, Shayx Zaynid-din Xavofiy kabi taniqli mutasavvuf bilimdonlari suhbatida bo'ladi. So'ng Chag'oniyonning Xulg'atu mavzesida istiqomat qiluvchi Xoja Bahouddin Naqshbandning shogirdi bo'lgan Ya'qub Charxiy (vafoti 1447)ga qo'l berib, undan Naqshbandiya tariqati asoslarini o'rganadi. 1431–1432-yillar orasida Xoja Ahror Toshkentga qaytib, Naqshbandiya tariqatining yirik arbobi Bahouddin Naqshband ta'limotining davomchisi sifatida tanilib, ayni vaqtda dehqonchilik va tijorat ishlari bilan mashg'ul bo'ladi.

Manbalarda ko'rsatilishicha, Xoja Ahrorning xo'jalik faoliyati tez orada juda keng rivoj topadi. Chunonchi, «Rashahot» asari muallifi Faxrid-din Ali Safiy Xoja Ahror yerlari Toshkent viloyatidan to Amudaryo sohillarigacha bo'lgan hududda 1300 dan ortiq ekinzorlarni tashkil etganini eslatadi. Shunisi e'tiborga sazovorki, tadqiqot ishlarida aniqlanishicha, mayda mulkchilar soliqlardan qutulmoq uchun o'z yerlarini Xoja Ahror ixtiyoriga o'tkazishgan. Xoja Ahrorning hukmdor oldidagi nufuzi shariatda belgilangandan (ushr, mol, zakot) tashqari favqulodda soliqlarni mehnat-kashlar gardaniga yuklashdan ularni himoya etgan. Xoja Ahror yerlari-ning ko'payib borishiga shu omil ham bir sabab bo'lgan, xolos. Dehqonchilik, chorvachilikdan tashqari Xoja Ahrorning shaharlarda ham hunarmandchilik rastalari, ustaxonalari bo'lgan va bulardan ham katta daromad kelib turgan.

Savdo-sotiq masalalarida Xoja Ahror nafaqat Movarounnahr hududida, balki Xuroson, Hindistonga ham mollarni yuborib, savdo qilgan. Shuni ham aytib o'tmoq lozimdirki, Xoja Ahror o'z xo'jalik faoliyatidan olgan daromadning ko'pgina qismini aholi boshiga tushgan og'ir soliqlarni to'lash, diniy va madaniy qurilishlarni amalga oshirish kabi ishlarga sarflagan. Chunonchi, Umarshayx Mirzo Toshkent aholisidan 250000 dinor hajmida soliq talab qilganida Xoja Ahror bu mablag'ning hammasini

o'zi to'lab, yana 70000 dinorni ham soliq yig'uvchilarga topshirgan. Shuningdek, Xoja Ahror tomonidan Samarqandda, Toshkentda va Kobulda ham madrasalar qurdirilganligi manbalardan ma'lum.

Naqshbandiya tariqatining asosiy g'oyasi: mehnat bilan mashg'ul bo'lish va ayni vaqtda dil Alloh bilan bo'lmog'i lozimligi Xoja Ahror tomonidan e'tirof etilgani va amalda qo'llanilgani uning o'z so'zidan ravshandir. «Hazrat Abdulxoliq G'ijduvoniylar buyurmishlar-ki, — deydi u Ali Safiyning «Rashahot» asarida keltirilishicha, — xalqning og'irini yengil qilmoq darkor, ammo bunga halol kasb bilangina erishiladi. «Qo'l ish bilan, dil yor (Alloh) bilan» shiori Xojagon tariqatida muqarrardir».

Xoja Ubaydulloh Ahrorning mamlakat siyosiy hayotida faol ishtiroki 1451—1452-yillarga oiddir. 1447-yili Temuriylar davlati bosh hukmdori Shohruxning, 1449-yili esa Movarounnahr hukmdori Mirzo Ulug'bekning vafotidan so'ng bir necha yil Temuriy shahzodalar orasida taxt uchun kurash boradi. 1451-yili shahzodalardan biri Abu Sa'id Mirzo Toshkentda bo'lib, Xoja Ahrorni o'ziga ma'naviy madadkor deb taniydi va shu yili Mirzo Abdullo bilan bo'lgan jangda qo'li baland kelib Samarqandni egallaydi hamda Xoja Ahrorni Toshkentdan Samarqandga ko'chirib keladi. Xojaning Samarqandda muqim turishi ana shu 1451-yildan boshlanadi. Uning mamlakatdagi siyosiy jarayonlarda ishtiroki 1454-yilga oid bo'lib, shu yili Xuroson hokimi Abulqosim Bobur Samarqandni qamal qilganida Xoja Ahror shahar himoyachilariga bosh bo'lib, dushmani sulh tuzishga majbur etadi. Shu bilan Xoja Ahrorning shahzodalar orasidagi nizolarni sulh bilan yakunlab, mamlakatda osoyishtalik o'rnatishga qaratilgan siyosiy faoliyati umr bo'yi davom etadi. Uning 1458-yili Shohruxiyada o'zaro qonli to'qnashuvga tayyor uch hukmdor: Sulton Abu Sa'id (1451—1469)ning o'g'illari Sulton Ahmad Mirzo, Umarshayx Mirzo va Yunusxon (1462—1487)ning o'g'li Sulton Mahmudlar orasidagi nizoni sulh bilan bartaraf qilganligi manbalarda ko'p talqin etilgan.

Xoja Ahror Valiy 1490-yilda vafot etgan va Samarqandda dafn etilgan.

Xoja Ahror qalamiga mansub uch risola bizgacha yetib kelgan. Ulardan biri — «Faqarot ul-orifin» («Oriflar so'zlaridan parchalar») nomi bilan mashhur bo'lib, unda Xoja Ahrorning va ba'zi boshqa tasavvuf namoyandalarning tariqatga oid fikrlaridan namunalar keltirilgan.

«Validiya» deb nomlangan ikkinchi risolasini Xoja Ahror o'z otasi iltimosiga ko'ra yozgan. Unda tariqat yo'liga kirgan kishining axloq-odobi faqr va fano tushunchalari haqida so'z boradi. Bu risola o'z davrida mashhur bo'lib, Jomiy va Alisher Navoiylar u bilan yaqindan tanishganlar. Zahiriddin Muhammad Bobur esa uni forsiydan o'zbek tiliga she'riy tarjima qilgan. Uchinchi risola «Havroiyya» deb atalib, mashhur mutasavvuf shoir Abu Sa'id Abulxayming (XI asr) ushbu «Havro» («Hur-lar» yoki «Farishtalar») so'zi bilan boshlanuvchi bir ruboiysini sharhlashga bag'ishlangan.

Bulardan tashqari Xoja Ahror tomonidan o'z zamondoshlariga yozilgan anchagina ruq'a — nomalari ham bizgacha yetib kelganki, ularni ham mazkur asarlar sirasiga kiritish joiz, chunki ularda muallifning o'z davri ma'naviy, ijtimoiy va siyosiy hayotida tutgan o'rni aks etadi. Xatlar turli to'plam va manoqiblar sahifalari orqali bizgacha yetib kelgan. Ulardan eng muhimi «Majmu'ayi murosalat» deb nomlangan XV asr dastxatlar to'plami tarkibidagi ruq'alardir. To'plam Alisher Navoiy buyrug'i bilan tuzilgan va shuning uchun «Navoiy albomi» deb ham ataladi (O'zR FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondi, raqam 2178). Unda Xoja Ahrorning 128 dona ruq'alari mavjud. Ular Samarqanddan Hirotda — Husayn Boyqaroga va aksari, Alisher Navoiyga yozilgan. Bu haqda «Nasoim ul-muhabbat» asaridagi Navoiyning o'z so'zlari tasdiqlaydi: «...Alarning bu haqir ila iltifotlari ko'p bor uchun vahiy osor ruq'alari bilan musharraf qilib, ishlarga ma'mur qilur erdilar, ul ruq'alarni mu-rasqa yasab, jazval va takallufot bila asarmen». Mazmun jihatdan ruq'alarni uch turkumga bo'lib sharhlash mumkin: Birinchisi — bu Movarounnahr va Xurosonda hukmronlik qilgan Temuriy hukmdorlar, chunonchi, Badaxshon hokimi Sulton Mahmud (1459— 1494), Movarounnahr hokimi Sulton Ahmad (1468—1493) hamda Sulton Husayn Boyqarolar orasidagi siyosiy, hududiy munosabatlarga doir xatlar. Ularda Xoja Ahror Temuriy shahzodalar oldiga o'zaro nizolarni tinchlik yo'li bilan hal etish, urushlar tufayli aholining jon-u moliga zarar yetkazmaslik kabi talablarni qo'yadi va buni amalga oshirishni Navoiydan iltimos qiladi.

Ikkinchi tur xatlarda esa, Xoja Ahror shariat qonun-qoidalarini mustahkamlash va bu orqali mamlakatda adolat o'rnatish, musulmonlar, ya'ni oddiy raiyatga jabr-u zulm o'tkazishdan zolimlar qo'lini ko'toh qilish kabi

fikrlarni ifodalaydi, ba'zan esa adolatsizlikka uchragan biror jabrdiylarning aniq nomini aytib, yordam ko'rsatishni so'raydi.

Uchinchi turkum xatlarga kelsak, ular Xoja Ahror va uning yaqin muridlarining Xuroson hududida olib borgan xususiy xo'jalik hamda savdo-sotiq ishlariga va shular bilan bog'liq soliqlar masalasiga oiddir. Bu xatlarda Xoja Ahror o'z davrining yirik yer-suv, mol-mulk egasi sifatida gavdalanadi, o'zining va yaqin kishilarining manfaatlarini Xurosonda ham himoya qilinishiga intiladi. Ammo, aytib o'tish lozimki, bu turdagi xatlar orasida ham ba'zan oddiy adolattalab kishilar huquqini himoya qilishga qaratilgan iltimoslar uchrab turadi.

Ma'lumki, XV asr Temuriylar davlatida — Movarounnahr va Xurosonda iqtisodiy, madaniy, ilm-fan sohalarida yuksalish davri bo'lgan. Shu bilan birga Temuriylar davlatining inqirozi ham ana shu asrga to'g'ri kelib, o'zaro taxt uchun kurashlar natijasida oddiy xalq ahvoli og'irlasha borgan. Shariat tomonidan belgilangan ushr, mol va zakotlardan tashqari har xil vaqtlarda turli munosabatlar bilan olinadigan oliq-soliqlar soni 30 ga yaqin adadni tashkil etar edi. Ulardan ba'zilar (tamg'o, yorg'u) mo'g'ullar hukmronligi davrida joriy etilgan bo'lib, ba'zi vaqtlarda hali ham qo'llanib kelardi. Ana shunday bir sharoitda Xoja Ahror musulmonlar boshidan jabr-zulmni daf etmoq uchun din va shariatni dastur qilgan holda sultonlarga murojaat qilmoq lozimligini Naqshbandiya tariqatining vazifalaridan deb uqtiradi. Xoja Ahror saroy xizmatidan voz kechmoqchi bo'lgan Alisher Navoiyga xat yozib, aytadi: «...Eshitishimcha, onhazrat, ya'ni sultonga mulozamat qilishdan goho malomat chekar ekansiz. Iltimos shuki, musulmonlarga madad yetkazmoq va biror faqirning dili mushkullikdan xalos topib, shod bo'lmog'i uchun xotiri sharifingizni saroy xizmatidan uzming... Biror kishi ham musulmonlar g'amini yeyishni o'ylamay qo'ygan bu vaqtda ularga g'amxo'rlik qilish — eng xayrli ishdir!..»

Sobiq sovetlar davrida Xoja Ubaydulloh Ahror haqida bir qancha tadqiqotlar yozilib, uning iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy hayotdagi faoliyati yoritilgan bo'lsa-da, hukmron mafkura nuqtayi nazaridan salbiy baholalardi. Keyingi tadqiqotlarda (A.N.Boldirev), ayniqsa, Markaziy Osiyo respublikalari istiqolga erishgandan so'ng (B. Valixojayev, A. Muhammadxojayev, Z. Qutiboyev va boshqalar) Xoja Ubaydulloh Ahror shaxsiyati va faoliyatiga yangicha, har taraflama yondashib, uning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni haqqoniy ravishda yoritilmoqda.

SAKKOKIY

(XIV asr oxiri — XV asr oʻrtasi)

Oʻzbek mumtoz adabiyotida yorqin iz qoldirgan, betakror gʻazallar va qasidalar yaratgan yetuk isteʼdod egasi, lirik shoirlardan biri Sakkokiydir.

Sakkokiyning hayoti va faoliyati haqida bizgacha juda kam maʼlumot yetib kelgan. Uning tarjimai holi toʻgʻrisida oʻzining devoni va Alisher Navoiyning «Majolis un-nafois» va «Xutbai davovin» asarlaridan baʼzi bir maʼlumotlarni bilib olishimiz mumkin. Bundan tashqari shoir Yaqiniyning «Oʻq va yoy» asarida Sakkokiy turk (oʻzbek) shoirlarining mujtahili (gʻayratlisi) deb taʼriflanishi, uning oʻz zamonasining zabardast shoirlaridan biri ekanligini bildiradi. Sakkokiy movarounnahrlik boʻlib, u Temuriylar saltanatining poytaxti Samarqandda umrguzaronlik qilib ijod etgan.

Sakkokiy — shoirning taxallusi, uning asl ismi maʼlum emas. «Sakkok» (pichoqchi) soʻzidan, shoir hunarmand oilada tugʻilgan degan fikrni taxmin qilish mumkin. Sakkokiy XIV asrning 2-yarmida yoki XIV asrning oxirgi choragida tugʻilganini esa hijriy 810 (1407–1408)-yilda Amir Temurning nabirasi Xalil Sultonga bagʻishlagan qasidasidagi:

Tarixqa sakkiz yuz dogʻi oʻn erdi-yu qadr axshomi,
Bir oy tugʻuldi dunyoda kim mamlakatda xon erur —

misrasidan taxminan bilib olish mumkin. Chunki shoir bu qasidasin ancha ijodiy tajribaga ega boʻlgandan keyin, taxminan, 30 yoshlarida yozgan boʻlishi kerak.

Sakkokiy ijodining gullagan davri Ulugʻbek hukmronlik qilgan davrlarga (1409–1449) toʻgʻri keladi. Tarixdan maʼlumki, buyuk munajjim va yetuk davlat arbobi Mirzo Ulugʻbek maʼrifatparvar podshoh boʻlish bilan birga ilm-fan, sanʼat va adabiyot ahlining homiysi ham edi. Ana shu fikrdan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, Sakkokiy Ulugʻbekdar panoh topgan allomalar sirasiga kirib, uning ijodiy faoliyati odil podshoh bilan bogʻliqdir. Sakkokiy oʻz homiysiga atab qasida bitadi, Ulugʻbekni koʻklarga koʻtarib maqtaydi, uning dushmanlariga qarshi oʻz soʻzlari bilan zarba beradi. Shoir Ulugʻbekka baho berar ekan, shunday maʼrifatparvar podshoh bilan zamondosh boʻlganidan faxr hissini tuyadi va:

Falak yillar kerak sayr etsa-yu keltirsa ilkiga,
Meningdek shoiri turku seningdek shohi dononi,

degan misralarni yozadi.

Sakkokiy o'z devonida Mirzo Ulug'bek, Xalil Sultondan tashqari, Xoja Muhammad Porsoga, Arslonxoja tarxonga ham qasidalar bitgan. Bu qasidalardan tashqari devonga bir qator lirik g'azallar ham kiritilganki, bu g'azallarning ko'pchiligi bizgacha yetib kelmagan. Sakkokiyning o'zi tuzgan devonining bir necha qo'lyozma nusxalari ma'lum bo'lsa-da, bu nusxalarning birortasi ham to'la va mukammal nusxa emas. Jumladan, Londonda, Britaniya muzeyida devonning taxminan XVI asr o'rtalarida ko'chirilgan bir nusxasi va Toshkentda, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida 1937-yilda Shoislom ismli kotib tomonidan qaysidir manbadan ko'chirilgan nusxasi saqlanadi.

Sakkokiy XV asr o'rtalarida vafot etganligini Navoiyning Samarqandda bo'lgan yillarida (1465–1469) Sakkokiy muxlislari bilan uchrashgani va suhbatlashgani bilan izohlash mumkin. Nimagaki, Sakkokiy bu davrda hayot bo'lmagan, agar hayot bo'lganida Navoiy uning o'zi bilan uchrashgan bo'lardi.

Sakkokiyning qasidachilik borasidagi mahoratini nazarda tutadigan bo'lsak, shak-shubhasiz, uni o'zbek qasidachiligining asoschisi desak yanglishmaymiz. U ulug' shoir Lutfiy bilan bellasha oladigan shoir darajasida bo'lgan. Bu haqda Alisher Navoiy «Xutbai davovin» asarida shunday jumalarni keltiradi: «Uyg'ur iborati fusaxosindin va turkiy alfozining bulag'osindin Mavlono Sakkokiy ham Lutfiylarkim, birining shirin abytotining ishtihori Turkistonda bag'oyat va birining latif g'azaliyotining intishori Iroq va Xurosonda benihoyatdurur va devonlari mavjud bo'lgay». Bundan ko'rinadiki, Sakkokiy Turkiston, ya'ni Movarounnahrda o'z ijodi bilan juda katta obro'ga ega bo'lganki, uning go'zal qasidalari, sevgini vasf etuvchi betakror g'azallari Samarqand ilm ahlining ko'nglidan mustahkam joy olgan.

Sakkokiy lirikasining asosiy mavzusi ko'pgina shoirlarnikidek asosan sevgi-muhabbatni sharafdashdan iborat. U insonni insonga bo'lgan muhabbatini kuylarkan, sevgini hayotga, uning zavq-shavqi, tabiat manzarasi va insoniy ezgu xislatlarga bo'lgan mehr-muhabbat bilan uzviy holatda tarannum etadi. U o'z she'rlarining ma'no va shakliga katta e'tibor ber-

gan, g'azallarida zamondoshlari kabi ajoyib so'z o'yinlaridan ustalik bilan foydalangan. Tasvirlanayotgan ma'shuqaning g'amzasini ta'riflar ekan:

Qochonkim g'amzasi ko'zlab o'qin kirpiki kezlosa,
Qora qoshlaridan paydo bo'lur ushshoqning yosi,

— deydi.

Sakkokiy g'azallarida keltirilgan ko'pgina badiiy tasvirlar va o'xshatmalarni Alisher Navoiy, Bobur va boshqa shoirlarning g'azallarida ham uchratish mumkin.

Sakkokiy faqat lirik she'rlar yozish bilan cheklanib qolmay, yuqorida aytganimizdek, go'zal qasidalar yozdi va bu qasidalar u yashagan, ijod etgan davrdagi ijtimoiy hayot bilan chambarchas bog'lanib ketgan.

Sakkokiy Ulug'bekka atab yozgan qasidasidagi yana bir misraga e'tiborni qaratsak, foydadan xoli bo'lmas:

«Raiyat qo'y erur, Sulton anga cho'pon yo bo'ri,
Bo'ri o'lga-yu qo'y ting'ay, chu Musotek shubon keldi»,

— deb yozadi.

Bu bilan Sakkokiy o'sha davrdagi hukmdorlar haqida fikr yuritadi va adolatli hukmdorlarni cho'ponga, adolatsiz hukmdorlarni bo'riga o'xshatadi.

Ulug'bek davlat tepasiga kelishi voqeasini shoir quyidagicha ifodalaydi:

Jahondin ketti tashvish-u mabodoyi amon keldi,
Xaloyiq aysh eting bu kun, sururi jovidon keldi.
Tan erdi bu ulus barcha, aningtek joni bor yo yo'q,
Bihamdilloh, o'g'on fazli bila ul tanga jon keldi.

Ulug'bekka bag'ishlab yozilgan qasidada xalq, ulus, raiyat, omonlik, surur, adolat so'zlari ko'p uchraydi. Bundan ko'rinib turibdiki, zamonasi-ning ilg'or fikrli kishisi sifatida buyuk shoir Sakkokiy xalq ahvolini o'y-lagan holda, Ulug'bekdek ma'rifatli hukmdorning davlat tepasiga kelishi xalq uchun yaxshi ish bo'lganligidan mamnun ekanligini izhor etgan.

Shunday qilib, hazrat Alisher Navoiy aytganlaridek, Mavlono Sak-kokiy ajoyib lirik she'rlar va betakror qasidalar ijod etgan hamda o'zbek mumtoz adabiyotining ravnaq topib, gullab-yashnashiga ma'lum hissa qo'shgan buyuk shoirlardan biri sifatida tarixda muhrlandi.

LUTFIY (1366–1465)

Mavlono Lutfiy XIV–XV asrlardagi o‘zbek mumtoz adabiyotining to‘g‘ri namoyandasi bo‘lib, o‘zining o‘zbek va fors-tojik tillaridagi asarlari bilan Sharqda katta shuhrat qozongan so‘z san‘atkoridir. Shoirning hayoti va ijodi haqida zamondoshlari Davlatshoh Samarqandiy, Shamsiddin Somiy, Xondamir, Abdulla Kobuliy kabi tazkiranavislarning asarlarida muhim qayd va mulohazalar uchraydi. Xususan, Lutfiyning yaqindan bilgan, u bilan ustoz va shogirdlik rutbasi bilan bog‘langan Alisher Navoiy asarlarida keltirilgan ma‘lumotlar g‘oyat qimmatlidir.

Sharq adabiyoti tarixida Lutfiy taxallusi bilan asarlar yaratgan ijodkorlar ko‘pgina bo‘lib, «Qomus ul-a‘lam» asarida ulardan ayrimlari sanab o‘tilgan. Alisher Navoiy va Abdurahmon Jomiy bilan yaqin muloqotda bo‘lib, o‘zining asarlari bilan Xuroson va Movarounnahr adabiy muhitida chuqur iz qoldirgan Mavlono Lutfiy «Malik al-kalom», ya‘ni «So‘z podshosi» (Alisher Navoiy) unvoni bilan shuhrat qozondi.

Lutfulloh Lutfiy Alisher Navoiy «Majolis un-nafois» asarida guvohlik berishicha, 99 yil umr ko‘rgan. Shoirning zamoniga oid manbalardagi ma‘lumotlar asosida uning tavallud sanasi 1366-yil deb ko‘rsatilgan. Lutfiy boshlang‘ich tahsildan keyin madrasalarda o‘z davrining dunyoviy va shariat bilimlarini chuqur o‘rganadi. So‘ngra esa tasavvuf bobida malaka hosil qilishga kirishadi. Bu haqda Alisher Navoiy quyidagilarni qayd etadi: «Mavlono yigitligida ulumi zohiriyni takmil qilg‘ondin so‘ngra Mavlono Shahobiddin Xiyoboniy qoshida so‘fiya tariqatida ham suluk qilg‘ondur». Shahobiddin Xiyoboniy o‘z davrining ko‘zga ko‘ringan mutasavvuf shayxlaridan bo‘lib, uning «Qur‘oni karim»ga yozgan sharhlari ham mavjud edi. Lutfiy ana shu allomadan tasavvuf ta‘limini olib, keng va chuqur bilim sohibi bo‘lib yetishdi. Lutfiy asarlaridan shu narsa ma‘lum bo‘ladiki, u Abu Ali ibn Sinoning «Qonun» va «Ash-Shifo» asarlarini chuqur o‘zlashtirgan.

Lutfiyning yoshlik yillaridanoq adabiyotga bo‘lgan katta qiziqishi alohida ko‘zga tashlanib turar edi. Bo‘lajak shoir o‘zigacha bo‘lgan turkiy tildagi adabiyot bilan bir qatorda fors va arab adabiyotlarini ham qunt bilan o‘rganadi. Uning Hofiz, Kamol Xo‘jandiy va Nasimiy meroslariga rag‘bati ayniqsa katta edi. Amir Temur davridan boshlab Xuroson va

Movarounnahrda ro'y bergan siyosiy markazlashuv samarasi o'laroq sha llangan adabiy muhit Lutfiyini ham o'z maydoniga tortdi. Uning g'azalari og'izga tushib, mushoiralarning va adabiy suhbatlarning mavzuiga aylandi. Oddiygina hayot tarziga o'rgangan, darvishlarga xos xokisorlik bilan mo'tabarlik kasb etgan bu shoiming she'rlari chuqur fikrlarni sodda so'zlar yordamida yuqori badiiy bo'yoqlarda ifodalay olishi bilan ajralib turar va she'rlari shu jihati bilan Navoiy va Jomiy kabi adabiyot homiy-larining diqqat-e'tiborini qozongan edi.

Mavlono Lutfiydan bizgacha salmoqligina adabiy meros yetib kelgan bo'lib, uning katta qismini lirik asarlar tashkil qiladi. Lutfiyning lirikadagi serqirra ijodi haqida Alisher Navoiy «Majolis un-nafois» asarida quyida-gilarni yozadi: «Mavlono Lutfiy o'z zamonasining «Malikul-kalom»i erdi. Turkiy va forsiyda benazir edi, ammo turkiyda shuhrati ko'proq erdi va turkcha devoni mashhur». Shoiming forsiy tildagi asarlarini to'plab devon tuzgani bizga ma'lum bo'lmasa-da, uning bu tilda ham katta mahorat bilan ijod qilganligini zamondoshlari munosib baholagan edilar.

Lutfiyning adabiy merosi orasida dostonlari alohida o'rin egallaydi. Shulardan biri 1411-yilda yaratilgan «Gul va Navro'z» dostonidir.

Alisher Navoiy «Majolis un-nafois»da Lutfiyning bizgacha yetib kel-magan «Zafarnoma» deb nomlangan dostoni to'g'risida shohidlik beradi va yozadi: «Mavlononing «Zafarnoma» tarjimasida o'n ming baytdan ortiqroq masnaviysi bor. Bayozga yozmog'oni uchun shuhrat tutmadi». Lut-fiy ijodining tadqiqotchilari yuqorida qalamga olinayotgan «Zafarnoma» tarjimasining manbai Sharafiddin Ali Yazdiyning fors tilida yaratilgan Amir Temur hayotiga oid «Zafarnoma» asari ekanligini qayd etadilar. Shunday ekan, Lutfiy o'z davrida avlodlar uchun g'oyat ahamiyatli bo'l-gan bir mavzuga qo'l urgan va Ali Yazdiyning tarix va xotira uslubida yozilgan asarining turkiy tildagi she'riy namunasini yaratgan. Professor Y.E.Bertels, shoir bu masnaviyni Firdavsiyning «Shohnoma»si uslubidagi qahramonlik asari sifatida rejalashtirgan bo'lishi kerak deb aytadi. Lekin qandaydir sabablarga ko'ra shoir uni oqqa ko'chirmagan. Navoiy ham uni «oqqa ko'chirmagani («bayozg'a yozmog'oni uchun») uchun shuhrat tutmadi» deb aytadi.

Sharq madaniyati tarixiga oid manbalarda Lutfiyning axloq-odob mavzuida «Mashqun ul-haqoyiq» nomi bilan ham asar yaratganligi es-lanadi. Xo'tanlik Mulla Ismatullaning «Tarixi musiqiyun» asarida Lutfiy-

uning musiqa tarixi bilan ham shug'ullanganligi, kuylar bastalaganligi quyidagi kitoblarda ko'rsatiladi. Qariyb yuz yil umr ko'rgan daho shoirning ijod qamrovi ham rang-barang bo'lganligi, xususan, badiiy adabiyot sohasida ko'p ishlarga ulguriganligi shubhasizdir.

Lutfiyning ona tilidagi lirik asarlaridan iborat devoni o'z davridayoq Xuroson va Movarounnahrda tashqari turkiy tilda so'zlashuvchi ko'pgina xalqlarga ham kirib borgan edi. Keyin bu hudud yanada kengayib bordi. Shoir devonining Respublikamizdan tashqari ko'pgina mamlakatlar kutubxona xazinalarida saqlanayotgan qo'lyozmalari shundan dalolat beradi. Respublikamizda O'zbekiston Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti fondida Lutfiy devonining o'nlab nodir nusxalari saqlanadi. Ushbu manbalar devonning London va Parij nusxalari bilan qiyosiy-tanqidiy o'rganilib, shoirning qator «Saylanma» nashrlari yaratildi. 1987-yilda G. G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida chop etilgan Lutfiyning «Sensan sevarim» nomli to'plami so'nggi o'n yillikda nashr etilgan devonidir.

Devon Sharq she'riyatining yetakchi janrlaridan bo'lgan g'azal, ruboiy, tuyuq, qit'a va fardlarni o'z ichiga oladi. U odatdagidek, hamd va na't she'rlari bilan boshlanadi. Devonning deyarli ko'p nusxalarida Shohrux Mirzo nomiga yozilgan qasidaga ko'zimiz tushadi. Ayrim nusxalarda esa Temuriy shahzodalar: Boysung'ur Mirzo, Iskandar Mirzo nomiga bag'ishlangan qasidalar ham uchraydi.

Lutfiy devonidan o'rin olgan lirik asarlarning yetakchi mavzusi — ishqdir. Shu ishq insonning zohiriy va botiniy olamini oyna bo'lib aks ettiradi. Biz bu asarlarda ishqning dunyoviy talqinlarini ham yuksak san'at bilan aks ettirilganligini kuzatamiz. Navoiy o'zining «Manoqibi Pahlavon Muhammad» asarida Lutfiyi «zohir ahli shuarosi», ya'ni dunyoviy mavzular talqinida mahorat ko'rsatgan shoir sifatida alohida xarakterlaydi. Shoir lirikasida ancha keng o'rin tutgan dunyoviy mavzular, ayni paytda, diniy-tasavvufiy mavzular bilan uyg'unlashib, bir-birini to'ldirib keladi. Shu tarzda ular majoz va haqiqat birligini tashkil qiladi.

Alloh o'zi yaratgan mavjudot va maxluqotlar orasida insonni eng mo'tabar pog'onaga ko'tardi. Unga o'z nurini berdi. Inson shuning uchun ham azizdir. U husn bobida ham «mazhari sun'i ilohdir». Odam shu qadar buyuk mohiyatki, Alloh uning yuzida o'z aksini ko'radi. Lutfiyning quyidagi baytida shu mazmunga ishora qiluvchi teran bir fikr o'zining go'zal badiiy ifodasini topgan:

Ulki husn etti bahona elni shaydo qilg'ali,
Ko'zgedek qildi seni o'zini paydo qilg'ali.

Shoir asarlari uning o'sha davrda keng tarqalgan tasavvuf g'oyalar ta'sirida bo'lganligidan dalolat beradi. Alloh dunyoni mukammal go'zallik timsoli sifatida yaratgan, shu go'zallik og'ushidagi odamning borliqni idrok etish tuyg'usi, muhabbat hislarining ustivorligi, atrofni o'rab turgan jamoat va nabotot olami bilan aloqasini eng go'zal fazilatlarini sifatida kashf etgan. Lekin hayotda hamma narsa muvaqqat, u uzluksiz harakatda. Tabiat fasllari kabi odam umrining fasllari bir-biri bilan almashinib turadi. Shunga ko'ra ham Lutfiyning g'azallari markazida turgan qahramon hayotining Alloh in'om etgan barcha go'zalliklari-yu, ne'matlaridar bahramandlik tuyg'usi bilan yashaydi. «Bari aysh birla kechsa kerak ushbu umri foni», deb xitob qiladi. Shoir lirik qahramonini navbahori kelishi bilan chamanlarning gurkirab ketishi, gul faslining tarovati maftur etadi. U shu chamanda «sarviqad guli xandoni»ni izlaydi.

Yoz bo'ldi, kerak ul buti ayyor topilsa,
Barcha topilur, bizga kerak yor topilsa.
Men kezuguchi qulnung tururin siz ne so'rarsiz!
Istang meni ul yerdaki, dildor topilsa.

Shoir lirikasida hayot zavqlari, tabiat go'zalliklaridan bahramand bo'lishi, shodlik va tarona ohanglari bilan bir qatorda inson qadriyati va uning orzu-umidlarini oyoq osti qiluvchi «kajraftor charx», «sergina falak», «jaholatpesha odamlar»dan ozurdahollik kayfiyatlari ham yuz ko'rsatadi. Bunday tasvirlarda shoir o'zini o'rab turgan hayotga har jihatdan yaqinlashib boradi.

Lutfiyning hamisha yaxshilikka umidvor bo'lgan oshiq nidolarini o'z ichiga olgan shoh baytlaridan birida quyidagi talqinga ko'zimiz tushadi.

Yo'q turur yolg'uz bu Lutfiy joniga javri raqib,
Qayda bir dono durur ul javri nodon tortadur.

Lutfiyning o'ziga xos katta mahorati ham dastlab, bir tomondan qalamga olinayotgan barcha mavzularni qulay ochib beradigan poetik obrazlar vositasida tasvirlash bilan kitobxonlar qalbiga yo'l topishidadir. Uslub sodaligi, ifodalarning xalqonaligi, she'r vaznining xalq qo'shiqlariga yaqinligi Lutfiy lirikasining muvaffaqiyatini ta'min etgan ikkinchi muhim omildir.

Lutfiy g'azallari aruzning rang-barang tarmoqlarida yozilgan va ular aksar hollarda hajm jihatidan juda ixchamdir. U o'z g'azallarida aruzning xalq qo'shiqlariga yaqin turgan ohangdor, o'ynoqi o'lchovlarini tanlaydi. Lutfiy she'rilarida xalq urf-odatlari, marosim lavhalarini tez-tez uchratish mumkin. Lutfiy o'z lirikasida xalqning jonli so'zlashuv tilidagi erkalash, yuqatish, qarg'ish, istehzo, qochiriq iboralaridan mahorat bilan foydalanadi. Ma'shuqning jabr-u sitamlaridan ko'ngli ozurda bo'lgan oshiq ichki hidan zorlanib aytadi:

Lutfiyini kim qarg'adi: «Yo rab, balog'a uchra!» deb
Kim, seningtek tosh bag'irliq dilrabog'a uchradi.

Lutfiyning nazmiyatda xalq maqollaridan istifoda etish bobidagi san'atkorligi, ayniqsa yuksakdir. Uning ruboiy, qit'a, tuyuq va fardlarida kishi ruhiy olamining rang-barang lahzalari, axloq-odob mavzularining talqinlari asosiy o'rin tutadi.

Shoirning to'rtliklari haqida so'z borar ekan, uning tuyuqlari alohida diqqatga sazovor. Ko'proq turkiy tildagi she'riyatga taalluqli tajnisli (zulma'niayn) so'zlar vositasida tuyuq yaratish san'ati Lutfiy she'riyatida yorqin ifodalangan deb aytish mumkin. Uning devonidan o'rin olgan ko'plab tuyuqlardagi nafis ma'no tovlanishlari kitobxonni ona tilining boy imkoniyatlari qatlamlariga olib kiradi, uni xayolga tortib, estetik zavq beradi.

Men sening ilkingdin, ey dil, bandamen,
Vah, qachon yetkayman ul dilbanda men,
Bevafolarg'a meni qilding asir,
Sen manga sultonsan, ey dil, bandamen.

Ushbu tuyuqda uch marta goh qo'shilib, goh alohida yozilgani holda takrorlanib kelayotgan «dilbandamen» so'zi misralardagi o'rinlariga ko'ra uch ma'noni keltirib chiqarmoqda: 1) Ey, dil (ko'ngil), men sening dastingdan qo'l-oyog'i bog'langan (bandamen); 2) Faryodim shuki, u ma'shuqa (dilband)ga qachon yetar ekanmen; 3) Ey, ko'ngil (dil), sen meni vafosizlarga asir qilib qo'yding. Bunga mening bo'ysunib yurishdan boshqa ilojim yo'q. Chunki sen menga podshohsan, men esa, senga bandada — (qaram)dirman.

Alisher Navoiy o'zining «Majolis un-nafois» asarida Lutfiyning turkiy tildagi she'riyatda bo'lgani kabi forsiy ijodda ham «benazir erdi» deb

yozadi. Lutfiy, xususan, forsiy qasidanavislikda o'z zamonasi ijodkorlarinin e'tiborini qozongan edi. Navoiy yozadi: «Mavlono Lutfiy forsiyda qasida go'y ustodlardin ko'pining mushkul she'rlariga javob aytibdur va yaxsh aytibdur». Navoiy tomonidan «Majolis un-nafois»da qayd etilgan bir ne cha parchalarning o'zi Lutfiyning bu sohadagi salohiyatini ko'rsatib berad Navoiyning qayd etishicha, umri oxirlab borayotgan Lutfiyning:

Ey zi zulfi shab misolat soyaparvar oftob,
Shomi zulfatro ba joi moh darbar oftob.

(Sening tun kabi sochingdan quyosh soyada parvarish topadiga bo'ldi. Sochingdan taralgan shom qoraligini oy o'rniga quyosh ko'tarmoqda) matlali g'azaliga zamondosh ijodkorlar ko'plab javob yozganla Lekin ularning hech biri Lutfiy darajasida she'r aytolmagan.

Lutfiyning Abdurahmon Jomiya ixlosi katta edi. U Jomiya «Suxan» radifli qasida ham bag'ishlagan. Umri oxirida boshlang'ich baytini gina yozishga ulgurgan «Aftad» radifli g'azalini tugallab, o'z devonig kiritishini Abdurahmon Jomiya vasiyat qilgan. Jomiy keksa shoirning b vasiyatini ado etgan, bugungacha Jomiy devonida yashab kelayotga «Aftad» radifli g'azal ikki buyuk so'z san'atkorining ijodiy hamkorligida yodgorlik sifatida qadrlidir.

Lutfiyning forsiy nazmiyatidagi mislsiz san'atkorligini keyingi asrlard yashagan tazkiranavislar ham qayd etadilar. Akbarshoh zamonida yasha gan Abdulla Kobuliy o'zining «Tazkirat ut-tavorix» asarida Lutfiy me rosi haqida so'z ochib, «dar forsi she'ri zebo va qasidai g'arro dorad («forsiyda go'zal she'rlari va porloq qasidaları bor») deb aytadi.

Lutfiy o'z davri adabiy hayotida ustoz sifatida katta mavqega eg edi. Keksayib borayotgan shoirning uyi ko'pincha shogirdlar bilan gavjur bo'lardi. Uning yaqin shogirdlaridan biri Alisher Navoiy edi. Navoiy o' ustozi haqida gapirganda ikki o'rtadagi yaqin insoniy munosabatlarni ichl bir iftixor bilan tilga oladi. Navoiy Lutfiydan nazmiyatning sirru sinoatla bobida ko'p narsa o'rgandi. Ustoz she'riyatiga bo'lgan katta e'tiqod bilan uning «Laylatul me'rojning sharhi sochi tobindadur», «Ko'kdadur har dam fig'onim ko'rgali sen mohni», «Ey soching shaydo ko'ngullarning savodi a'zami» misralari bilan boshlanuvchi g'azallariga muxammaslar bog'ladi. Uning ustozni «Ey jamoling lahzol-u bebadal husnung jamil», «Ey qading to'biyi jannat haddi gulgun ustina» muqaddimali g'azallariga

musaddaslari ham mavjud. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Navoiy o'ziga va o'ziga zamondosh bo'lib yashagan turkiygo'y shoirlardan faqat Lutfiy g'azallarigagina muxammas va musaddaslar bog'lagan.

Lutfiy 1465-yilda o'z manzilgohi bo'lgan Dehikanorda vafot etgan. Navoiyning xabar berishicha, Mavlononing qabri ham o'sha yerdadir.

Keyingi asrlarda Lutfiy mahoratining ta'sir doirasi tobora kengayib bordi. Fuzuliyning Lutfiy g'azallariga ko'plab naziralari, qator muxammaslari ma'lum. Mashrab Lutfiyning «xoh inon, xoh inonma» radifli g'azalining matlaidan tazmin yo'li bilan foydalanib, butun boshli yangi bir g'azal yaratgan.

Lutfiy g'azallariga muxammaslar bog'lash Munis, Ogahiy, Ravnaq va Amiriy ijodlarida ham uchraydi. Shu yo'nalishda bizga zamondosh bo'lib yashagan Charxiyning ham manzur muxammaslari bor. Shoir g'azallari maqom va xalq kuylari bilan ijro etiladi. Ularga zamondosh bastakorlarimiz ham kuylar yozganlar. Lutfiy devoni va undan saylanmalar O'zbekistonda bir necha bor, so'ng Turkiya va Sharqiy Turkistonda ham chop etilgan. Shoir g'azallarining rus va boshqa tillarga tarjima qilingani ma'lum. Lutfiyning boy badiiy merosi adabiyotshunos olimlarimiz tomonidan keng o'rganilib kelinmoqda, u haqda qator tadqiqotlar yaratildi. Bu o'rinda dastlab Zaki Validiy, Y.E.Bertels, Hodi Zarif, A. Hayitmetov, E. Rustamov, shuningdek, Y. Ishoqov, H. Rasulov va E. Ahmadxo'jayev kabi olimlarning tadqiqotlarini ko'rsatib o'tish mumkin.

ABDURAHMON JOMIY

(1414—1492)

Temuriylar saltanati hukmronligi davrida Movarounnahr va Xurosonda badiiy adabiyot ham yangi bosqichga ko'tarildi. Shu davrda fors-tojik adabiyoti o'zining yangi rivojlanish pog'onasiga erishgan bo'lsa, o'zbek adabiyoti Alisher Navoiy, Mavlono Lutfiy, Durbek, Hofiz Xorazmiy, Atoiy, Sakkokiy, Gadoiy, Sayyid Qosimiy, Yaqiniy ijodlari misolida o'z taraqqiyotining eng yuksak bosqichiga ko'tarildi. Abdurahmon Jomiyning «Haft avrang», Alisher Navoiyning «Xamsa», «Xazoyin ul-maoniy» asarlari shu davr adabiyotining shoh asarlari edi. Jomiy yetti dostonidan iborat to'plamiga «Haft avrang» («Yetti taxt») deb nom qo'yar ekan,



Temuriylar sulolasidan yetti shoh (Amir Temur, Xalil Sulton, Shohrux, Ulug'bek, Abulqosim Bobur, Abu Said Mirzo, Husayn Boyqaro)ni ko'zda tutgan bo'lsa, Navoiy o'z «Xamsa»sini yaxlit holda Husayn Boyqaroga bag'ishlagan va bu bilan har ikki muallif ham shu davr hukmdorlariga o'zlarining ma'lum ma'noda minnatdorchiliklarini namoyon etgan edilar.

Temuriylar davridagi adabiy hayotning o'ziga xos xususiyatlaridan biri adabiy jarayonning yagonaligi, unda turkiy tilda ijod qiluvchilarning ham, forsiyda qalam tebratuvchilarning ham barobar va faol qatnasha olgani edi. Buni biz Alisher Navoiyning «Majolis un-nafois» tazkirasida yaqqol ko'ramiz. Unda ijodkorlar til xususiyatlariga qarab bir-biridan ajratilmagan. Husayn Boyqaro hukmdorligi davridagi adabiy hayotga to'xtalar ekan, Zahiriddin Muhammad Bobur «Boburnoma»da: «Shuarodin bu jam'ning saromad va sardaftari Mavlono Abdurahmon Jomiy edi»,¹ — deb yozadi.

Binobarin, faqat forsiy adabiyotning emas, shu davrdagi o'zbek adabiyotining gullab-yashnashida ham Abdurahmon Jomiyning roli juda katta bo'lgan.

Abdurahmon Jomiy Shohrux hukmdorligi davrida — 1414-yil noyabrda Nishopur yaqinidagi Jom shahrida, ruhoniy oilasida dunyoga keldi. Jomiyning ota-bobolari asli Dashtdan bo'lib, Jomda turib qolishgan. Bobosi Mavlono Muhammad va otasi Nizomiddin Ahmad singari Abdurahmon ham qo'lga qalam olib, she'r yoza boshlagan vaqtdan boshlab o'z taval-lud topgan shahri nomini o'ziga adabiy taxallus qilib olgan (Ba'zi olimlarning fikricha, «Jom» so'zi «idish» ma'nosida tasavvufiy tushunchani ham bildiradi. Sharqdagi adabiy an'anaga ko'ra adabiy taxallus ko'p ma'noli bo'lishi ma'qul ko'rilgan). U asosiy umrini Hirotida o'tkazdi va shu yerda mashhur shoir va mutafakkir bo'lib yetishdi. Bolalik chog'idayoq Jomiy zehning o'tkirligi bilan ajralib turgan. Boshlang'ich ma'lumotni otasidan olgan. Oilaning Hirotga ko'chishi, otasining bu yerda shayx ul-islom mansabiga tayinlanishi Jomiy hayotida muhim ahamiyatta ega bo'ladi. Hirotda uning o'qishiga Xoja Alouddin Ali Samarqandiy, Shahobiddin Muhammad Jojarmiy kabi mashhur allomalar o'z hissalarini qo'shdilar. Natijada arab tili, ilohiyot, tasavvuf, she'r qoidalari, adabiyot tarixi va boshqa fanlarning asoslarini juda erta o'zlashtira boshladi.

¹ «Boburnoma». Toshkent, 1960, 241-sahifa.

Jomiy turli fanlar bo'yicha o'z tahsilini Samarqandda nihoyasiga yetkazishni ixtiyor qilar ekan, Ulug'bek madrasasida Ulug'bek, Qozizoda Rumiy, Ali Qushchi kabi allomalarning ma'ruzalarini eshitish sharafiga muyassar bo'ldi. U fiqhshunos olim, arab tili, «Qur'on», hadislar bo'yicha mutaxassis Fazlulloh Abullaysdan ham ko'p saboq oldi. Hirotida Jomiy tasavvuf yo'liga kirishni, o'z bilim va faoliyatini shu yo'lga, qolaversa, ijodga, ilm-fanga bag'ishlashni afzal ko'radi.

Yosh Jomiy Shayx Sa'diddin Koshg'ariy bilan yaqinlashib, unga qo'l beradi va tez orada uning hurmatini qozonadi. Jomiy piringing qiziga uy lanadi. Sa'diddin Koshg'ariy tasavvufda Muhammad Naqshband sulukiga mansub edi.

1469-yili Sulton Husayn Boyqaro Hirot taxtiga o'tiradi. Oradan ko'p vaqt o'tmay, 1476/77-yillar orasida u o'z do'sti va vaziri Alisher Navoiy bilan Jomiyni o'ziga pir va ustoz deb taniydi. Bu Jomiy hayoti va faoliyatida katta voqea bo'ldi.

Jomiy kundalik hayotda oddiy, darvishona yashasa ham, biroq shoh va unga aloqador kishilarning, hatto asarlari orqali tanigan boshqa mamlakat podshohlarining unga muruvvati katta edi. Shuning uchun u o'ziga tushgan daromadlar hisobiga bir qancha binoyi xayriyalar, shu jumladan, Hirotida ikki madrasa va xonaqoh, tug'ilgan shahari — Jomda bir masjid qurish imkoniga ega bo'lgan. Uning Shamsiddin Muhammad ismli ukasi bo'lib, u katta tabib, olim va sozanda bo'lib yetishgani ma'lum.

XV asrning 2-yarmidagi ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-madaniy va adabiy hayotda yuz bergan ibratli hodisalardan biri Navoiy — Jomiy munosabatlaridir. Bu ikki buyuk zot ijod sohasida xalqparvarlik va insonparvarlik mavqeida turish bilan birga xalq, davlat ishlarida insof va adolatni yoqlar edilar. Jomiyning «Nafahot ul-uns», «Lujjat ul-asror», «Ashiat ul-lamaot», «Risolai musiqiy», «Risolai muammo» kabi bir qancha asarlari Navoiyning maslahati va iltimosi bilan yozilgan. Jomiy o'z lirik she'rlarini yig'ib, Navoiyning maslahati bilan uchta devon tuzadi va devonlarning birinchisiga «Fotihat ush-shabob», ikkinchisiga «Vositat ul-iqd», uchinchisiga «Xotimat ul-hayot» deb nom qo'yadi.

1480-yildan 1485-yilning oxiriga qadar Jomiy o'zining buyuk «Haft avrang»i tarkibiga kirgan dostonlarini yaratish ustida ish olib bordi. Sharq adabiyotidagi xamsachilik an'analari asosida yozilgan bu dostonlardan «Silsilat uz-zahab», «Tuhfat ul-ahror», «Suhbat ul-abror» g'oya-

viy-tematik jihatdan falsafiy-axloqiy yo'nalishda, janr e'tibori bilan pand-noma tipida bo'lib, o'z davrining eng dolzarb masalalariga bag'ishlangan edi. «Yusuf va Zulayho», «Layli va Majnun», «Salomon va Absol», «Xiradnomai Iskandariy» dostonlarida esa shoir an'anaviy syujetlarning yangicha talqinlarini berdi.

Jomiy bir necha marotaba haj qilgan, haj safari davomida Nishopur, Bastom, Domg'on, Qazvin, Hamadon, Karbalo, Bag'dod, Damashq, Halab, Tabriz kabi shaharlarni ko'rgan, bu shaharlarda yuksak izzat-hurmatga sazovor bo'lgan. Uning shaxsiy maktublaridan ma'lum bo'lishicha, yaqin do'sti Xoja Ahror taklifi bilan Toshkentda ham bo'lgan va ulug' mozoratlarni ziyorat qilgan.

Abdurahmon Jomiy 1492-yili shamollash natijasida xastalanib, 78 yoshida hayot bilan vidolashgan. Uning dafn marosimini Navoiy boshqarib, podshoh Husayn Boyqaro esa mamlakatda bir yil motam e'lon qildi. Unga atab ko'pgina shoirlar, shu jumladan, Navoiy ham qayg'uli marsiyalar bitdi. Navoiy marsiyasida Jomiy vafotining tarixi «Kashfi asrori iloh» («Ilohiy sirlar kashfi») degan so'zlardan (hijriy 898, milodiy 1492-yil) chiqarilgan edi.

Abdurahmon Jomiy g'oyat sermahsul ijodkor bo'lib, undan bizga adabiyotning turli janrlariga, fan va san'atning rang-barang sohalariga oid boy maeros qolgan. Jomiy asarlari o'z davridayoq Xuroson va Movarounnahr doirasidagina emas, boshqa mamlakatlarga ham keng tarqalgan edi. Ba'zan qo'shni mamlakat podshohlari, masalan, Sulton Ya'qub uning asarlarini so'rab maxsus elchilar yuborgan. Uning asarlari o'z davrida va undan keyin ham ko'p qo'lyozma nusxalarda ko'chirilgan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida Jomiy asarlarining XV–XVI asrlarda ko'chirilgan o'nlab qo'lyozmalarini uchratish mumkin.¹

Bunday qo'lyozmalar Rusiya, Afg'oniston, Eron va Ovro'po mamlakatlaridagi boshqa qo'lyozma fondlarida ham uchraydi. Taniqli sharqshunos Y.E.Bertels «Jomiy» monografiyasida shoir asarlarining Toshkent kulliyoti (O'zR FA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, Qo'lyozma inv. №2122) asosida 52 asarining nomini keltiradi.

¹ Қаранг: «Рукописи произведений Абдурахман Джами в Собрании Института востоковедения АН РУз., изд. «Фан», Т., 1965.

Jomiy asarlarining bir qismi diniy va falsafiy mazmunga ega bo'lib, ularda shoir Islom dini va Sharq falsafasining bir qator masalalarini o'z qarashicha talqin qiladi, tasavvufning XV asrdagi eng yirik arbobi sifatida o'z fikr-mulohazalarini bayon etadi. Bunga uning «Naqshi fusus» («Ma'nolar naqshi»), «Shavohidi nubuvva» («Payg'ambarlikka dalillar»), «Sharhi qasidayi «Toiya» («Radifda «to» harfidan foydalanib yozilgan qasida sharhi»), «Naqdi nusuf» («Matnni tanqid»), «Sharhi qasidayi «Xamriya» («Xamriya» qasidasi sharhi»), «Naqshbandiya ta'limoti haqida risola», «Vohid» atamasi haqida risola», «Zikr» shartlari haqida risola», «Haj qilish yo'llari haqida risola», «Ashiot ul-lamaot» kabi bir qancha asarlarini shu guruhga kiritish mumkin.

Jomiy o'zining mutasavvuflik faoliyatida Bahouddin Naqshband g'oyalari shu sulukning ikkinchi bir yirik namoyandasi — Xoja Ahror Valiy bilan yaqin munosabatda bo'lgan holda yanada rivojlantirdi. Rasman u o'zini kundalik hayotda «Malomatiya» tariqatiga mansub deb hisoblasada, asarlarida ulug' Naqshbandga ixlosi cheksiz edi. O'zining «Lujjat ul-asror» qasidasida so'fiy xulq-axloqi, inson tarbiyasi haqida gap borganda ta'magirlikni qoralab, qanoatli kishilarning olijanobliklarini, ularning ma'naviy jihatdan podshoh va vazirlardan ham ustun ekanliklarini madh etgan.

Shoir fikricha, inson halol va pok yashashi, buning uchun esa u bir kasbga ega bo'lishi, o'z mehnati hisobiga kun ko'rish zarur:

Mardi kosib k-az mashaqqat mekunad kafro durusht,
Bahri nohamvoriyi nafi dag'al suhongar ast.

Mazmuni:

Kosib odam mehnat tufayli qo'lini qavartiradi,
Bu qo'ldagi dag'al esa nafs g'idir-budurini
tekislovchi randalar.

Jomiyning tasavvufga bo'lgan e'tiqodi sof va mukammal bo'lib, u Xudoni yorug' nur ko'rinishida tasavvur etar edi. She'riy asarlarida esa Xudoni go'zal ma'shuqa qiyofasida tasvirlagan. Shu bilan birga uningcha, dunyodagi hamma narsalarni Xudo yaratgan. Xudo o'zi ham ming-larcha ko'zguda, turli qiyofada va ko'rinishda namoyondir.

Jomiy «Nafahot ul-uns» asarini yaratish bilan tasavvuf tarixini o'rganishga katta hissa qo'shdi. Unda 616 mutasavvuf hayoti va faoliyati haqida ma'lumot berilgan bo'lib, ulardan 34 tasi ayollardir. Jomiy vafotida keyin bu asarni Navoiy ma'lum to'ldirishlar bilan o'zbek tiliga tarjim qilishi bejiz emas edi.

Jomiyning «Risolayi aruz», «Risolayi muammoyi kabir», «Risolayi muammoyi sag'ir», «Risolayi muammoyi mutavvassit», «Risolayi muammoyi manzum», «Sharhi bayti Masnaviy», «Sharhi bayti Xusrav», «Sharhi rubbiyot», «Risolayi qofiya» kabi asarlari Sharq adabiyoti tarixini, uning vazn, qofiya va she'r turlari bilan bog'liq nazariy masalalarini o'rganishd hozirgi kunga qadar o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Olimning faqat muammo haqida 4 ta nazariy qo'llanma yaratgani yoki ulug' salafarlari asarlarining murakkab bir baytini izohlash, tasavvufning biron atamasini yoritish uchun maxsus risolalar yozgani, uning adabiyot tarixini o'rganishga juda katta ahamiyat berganini, o'zi bu sohalarning haqiqiy donishmand bo'lganini ko'rsatadi.

Bundan tashqari Jomiy o'z davrining eng buyuk tilshunosi ham edi. U fors tili grammatikasi bo'yicha maxsus she'riy va nasriy qo'llanma yozgan. Arab tilini esa o'z ona tilidek bilgan. U vaqtda arab tili mashhur xorazmlik tilshunos olim Ibn Hojibning (1175–1249) «Al-Qofiya» kitoli bo'yicha o'rganilardi. Shoirning suyuqli farzandi Ziyovuddin arab tilini shu darslik bo'yicha o'qir ekan, darsni o'zlashtirishda katta qiyinchilik sezadi. Shunda Jomiy uning ahvolini tushunib, 1492-yili, ya'ni umrining oxirlarida «Al-Qofiya»ga maxsus sharh yozadi. Shundan so'ng Ibn Hojibning asari maktab va madrasalarda shu sharh yordamida o'qitiladigan bo'ladi. Jomiy «Sharhi» esa «Sharhi Mullo» nomi bilan shuhrat qozonadi.

Uning aruz bilan bir qatorda musiqa nazariyasi haqida «Risolayi musiqiy» asarini yozishi shu davr madaniy hayotida katta voqea bo'ldi. Jomiy o'z risolasida Abu Nasr Forobiyning ko'p jildlik «Musiqa haqida katta kitob» asaridagi g'oyalarni yanada rivojlantirdi, musiqani tovushlarining o'zaro ohangdoshlik (ta'lif) va nohangdoshlik (manofarat) nuqtayi nazaridan o'rganuvchi, yangi kuy yaratish uchun ular orasidagi oralik (ozmina)larni tekshiruvchi fan deb xarakterladi. Musiqa, uning fikricha, insonga eng yuqori ma'naviy oziq beradigan mukammal go'zal tovushlar haqidagi fandir. Bu fan insonlarga xizmat qilishi, ularning hayotini bezashi zarur.

XV asr adabiy hayotida she'riy asarlar bilan bir qatorda nasrni rivojlantirishga ham ahamiyat berilar edi. Shayx Sa'diyning «Guliston» nomli mashhur hikoyalar to'plamini g'oyat sevgan va uni «jannatdan nihon, xashak-tikoni ham anbagadir jon» deb ta'riflagan Jomiy 1486–1487-yillarda shu asarga javoban «Bahoriston» degan asarini yaratdi. Jamiyatdagi turli tabaqalar hayotidan, tarixdan hikoya qiluvchi bu to'plamda biz janr e'tibori bilan yengil, yozilish uslubi o'zgacha, tili xalqchil, «yujeti sodda ko'p hikoyalarni o'qishimiz mumkin. Har bir hikoya katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Masalan, quyidagi hikoyani Iskandarning murakkab bir savolga g'oyat oqilona javob berganini va do'stlik, insoniylik g'oyalarni ulug'laganini ko'ramiz:

«Iskandardan:

– Sen shunday yoshlik va navqironlik chog'ingda qanday qilib bu davlat-u saltanatga erisha olding? – deb so'rganlarida, u shunday javob beribdi:

– Men dushmanlarimga xushmuomala bo'ldim, toki adovat jilovi yig'ilib jonlansin; do'stlarga sadoqatda bo'ldim, toki do'stlik mustahkamlansin».

«Bahoriston»ning 7-ravzasi adabiy tazkira xarakterida bo'lib, unda Rudakiy, Daqiqiy, Firdavsiy, Nosir Xusrav, Nizomiy, Shayx Sa'diy, Hofiz Sheroziy, Kamol Xo'jandiy, Xusrav Dehlaviy kabi mashhur forsojlik shoir va adiblari to'g'risida qimmatli ma'lumotlar hamda ularning hayotidan olib yozilgan hikoyalar bor.

Lekin Jomiy ijodining eng katta qismini, hech shubhasiz, uning she'riyati tashkil etadi. 1490-yilning boshida o'z she'rlaridan 3 ta devon tuzgan bo'lib, bu devonlar 1805 g'azal va boshqa she'r turlarini o'z ichiga olgandir. Bu devonlardagi deyarli barcha she'rlar shoirning yuksak iste'dodidan darak beradi. Navoiy: «Jomiy yigitlik davrida ilm olishga qattiq e'tibor bergan bo'lsalar-da, «ammo hech vaqt nazm oyinidin xoli emas ekan-durlar», – deb yozadi «Xamsat ul-mutahayyirin» asarida. U o'z mulohazalarini davom ettirib, ulug' shoir she'rlarining diniy-tasavvufiy, mazmuni Allohni tanish, bilish bilan bog'liq haqiqatni shoir majoziy yo'l, uslub bilan, o'zini majbur qilib emas, balki beixtiyor ifodalagani haqida yozadi.

Jomiy she'rlarida ham, boshqa ko'p Sharq mumtoz shoirlardagi kabi hayot, inson go'zalligi va ichki tuyg'u, ehtirosarlari o'zining tabiiy ifodasini topgan va shoir ularga tasavvufiy ma'no bergan. Jomiy she'riy merosining



yirik tadqiqotchisi A. Afsaxzod ham bu to'g'ri-da: «Jomiydagi so'fiyon kayfiyat uning ijodiy yo'lini eng ibtidosidan boshlangan edi»,¹ — de yozganda to'la haq edi.

Jomiy lirik she'riyatida real hayot bilan tasavvufiy xayolot shoirmn ijodiy fantaziyasi orqali birlashib ketgan.

Shoir she'riyatidagi pand-nasihat ruhidagi she'rlar kishilarni ezgulikka halol va pok bo'lishga, kamtarlikka, Alloh tomonidan berilgan umri yaxshi ishlar bilan yashab o'tkazishga da'vat etadi. U o'z ruboiylarinin birida yozadi:

Bo'laylik dil xasta ham siynalar chok,
Hayotda doimo pok bo'laylik, pok.
Xokistar bo'laylik ishning boshidan,
Chunki oxiri ham xok bo'lurmiz, xok.

(Sh. Shomuhamedov tarjiması)

Rang-barang hayotiy mavzularda yaratgan badiiy yuksak va serjil she'rlar bilan forsiy adabiyotni boyitgan Jomiy, Sa'diy Sheroziy, Am Xusrav Dehlaviy, Xoja Hofiz Sheroziy kabi so'z san'atkorlari safida munosib o'rin oldi.

Abdurahmon Jomiy ijodining gultoji, shubhasiz, uning «Haft avrang deb nomlangan dostonlar majmuasidir. Bu dostonlarida Jomiy fors-toji adabiyotida yaratilgan Nizomiy Ganjaviy (1141–1209) va Amir Xusrav Dehlaviyning (1253–1325) «Xamsa»laridagi eng yaxshi g'oyaviy va adabiy an'analarni davom ettirib, XV asrning ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy hayotida mavjud muammolarga o'z munosabatini bildirishga harakat qilganki, masnaviyda, oldingi «Xamsa» dostonlari vaznida yaratilgan b dostonlar Nizomiy va Dehlaviy asarlaridan qolishmasligini ta'kidlab, Al sher Navoiy quyidagi baytlarni yozgan edi:

G'azal dard-u so'zini, vah-vah, ne dey!
Desa masnaviy, allah-allah, ne dey!
Agar nazmdin borcha uslub anga,
Bori bir-biridin erur xo'b anga,

¹ А ъ л о х о н А ф с а х з о д, Лирика Абд ар-Рахмана Джами. М., 1988, стр. 184.

Vale masnaviy o'zga olam durur,
Ki ta'biga holo musallam durur.
Bo'lub jilvagar tab'i ko'zgusida,
Ki sabb ayladi «Xamsa» o'trusida,
Erur andin ortuqki, o'ksuk emas,
El andin der ortuqki, o'ksuk demas!¹

Ijtimoiy-siyosiy, falsafiy-axloqiy masalalarda Jomiy xalqparvarlik va insonparvarlik, adolat va insof masalalariga, zulmni, zolimlarni qoralashga o'ring o'rin berdi. Buni u ayniqsa, shohlar haqida gap borganda, qayta-qayta qalanga oldi. Uningcha, shoh odil bo'lsa, u bexavf-bexatar yashaydi.

Jomiyning «Yusuf va Zulayho», «Layli va Majnun» dostonlarida sheq va muhabbat, do'stlik mavzulari yangi ilhom, yangi she'riy harorat bilan yoritilgan bo'lib, shu an'anaviy syujetga qurilgan dostonlar orasida alohida o'rin tutadi. «Layli va Majnun»ning kirish qismida do'stlikni, muhabbatni ulug'lab shoir yozadi:

Umid xazinasin kaliti yordir,
Hayoting u birla shod, baxtiyordir.
Vujuding maqsudi nedir g'ayri yor?
Yorsiz bu savdoning ne keragi bor?
Vujuding topguncha butkul inqiroz,
Bior qush etolmas yor kabi parvoz.

(O. Bo'riyev tarjimai)

Xuddi shu satrlar davomida Jomiy do'stlikka misol tarzida bir umrlik qadrdon do'sti Alisher Navoiyni eslaydi va uni do'stlik bog'idagi eng vafodor va mehribon do'st sifatida shunday ta'rif va tavsif etadi:

Do'stlik bog'idagi ma'sus xushkalom,
Vafo shoxidadir Navoiy mudom.
Go'zal so'zlar bilan navo aylagay,
Ozurda dillarni davo aylagay.
Bundan boshqa ishning bo'lmas adosi,
Jahonda do'stlarning bo'lmas adosi.

¹ A l i s h e r N a v o i y, Xamsa, Toshkent, 1960, 636-bet.

O'z davrida Jomiy faqat Navoiyning emas, balki butun o'zbek adabiyotini ham eng yaqin do'sti edi. Navoiy yozishicha, u turkiy tilda she'r yozmasa ham, ammo bu tildagi asarlarni yaxshi tushunar va ulai haqida o'z fikrini ayta olar edi.

Abdurahmon Jomiy Temuriylar davri ilm-fani va adabiyotining faxri, Sharq she'riyatini yangi yuksaklikka ko'targan so'z san'atkorlaridan biridir. U bir necha asrdirki, Navoiy bilan yonma-yon, o'zbek shoir va adiblariga ham ustozlik qilib kelmoqda va doim shunday bo'lib qoladi.

ALISHER NAVOIY (1441–1501)

XV asr jahon ma'naviyatining buyuk siymosi Nizomiddin Mir Alisher Navoiy hijriy 844-yil ramazon oyining 17-kuni (1441-yil 9-fevral)da Hirotida tug'ilgan. Hirot shahri XV asr 1-yarmida Sohibqiron Amir Temur asos solgan ulug' saltanatning ikkinchi poytaxti, Amir Temurning kenja o'g'li Shohrux Mirzoning qo'l ostidagi obod manzillaridan biri edi.

Alisher tug'ilgan xonadon Temuriylar saroyiga azaldan yaqin va yurt-da muayyan nufuz sohibi edi. Bo'lg'usi shoirning otasi G'iyosiddin Muhammad (G'iyosiddin Kichkina bahodur) o'g'lining tarbiyasiga jiddiy e'tibor berdi. Alisherning she'riyatdagi ilk ustozlari tog'asi Mir Sayyid Kobuliy va Muhammad Ali G'aribiydirlar. Navoiy «Majolis un-nafois» asarida Kobuliy haqida: «Yaxshi tab'i bor erdi, turkchada mayli ko'proq erdi...» — desa, G'aribiy haqida: «Xush muxovara (xushsuhbat) va xushxulq va dardmand yigit erdi. Ko'proq sozlarni yaxshi chalar erdi. Uni va usuli xo'b erdi. Musiqiy ilmidin ham xabardor erdi...» — deydi.

1447-yilda Shohrux vafot etgach, Temuriy shahzodalar o'rtasida tojtaxt dardi xuruj qilib, yurtda taloto'p boshlandi va G'iyosiddin Muhammad xonadoni ham ko'p qatori vatanni tark etdi. Yosh Alisher uchun taqdir sinovlari boshlandi. Shohruxning nabirasi Abulqosim Bobur 1452-yilda Hirot taxtiga o'tirgach, Alisherning otasini Sabzavorga hokim etib tayinladi. Lekin oradan ko'p o'tmay G'iyosiddin Kichkina dunyodan ko'z yumdi. Bu paytda Alisher endigina 12 yoshga qadam qo'ygan edi. Abulqosim Bobur Alisher va uning maktabdosh do'sti Husaynni o'z

tarbiyasiga oldi, 1456-yili esa o'zi bilan Mashhadga olib ketdi. Keyinchalik Husayn Boyqaro sipohiylik yo'lini tanladi, Alisher esa zamonaning «malik ul-kalom»i Mavlono Lutfiy tahsini va hayratiga sazovor bo'lgan iste'dod egasi bo'lib yetishdi. «Faqirning nazmlari Xurosonda shuhrat tutib erdi», deb yozadi Navoiy 1455–1458-yillar haqida.

Taqdir Alisher Navoiyni zamonaning ulug' va sharafli kishilariga yaqin qildi, ustoz-murabbiylik etuvchi zotlar bilan oshno etdi. 1466–1468-yillar Alisherning umri asosan Samarqandda kechdi. Sulton Husayn Boyqaro Hirotni egallaganda, Alisher Navoiy 28 yoshli mukammal bilimlar egasi, yurtga tanilgan shoir va tajribali davlat arbobi darajasiga yetishgan edi.

1469-yilda Sulton Husayn iltimosiga ko'ra Alisher Navoiy Samarqanddan Hirotga qaytadi va ramazon hayiti munosabati bilan do'sti sharafiga bitilgan «Hiloliya» qasidasini unga taqdim etadi.

Husayn Boyqaro Alisherni muhrdor qilib tayinlaydi va shu paytdan shoirning el xizmatidagi faol jiddu jahdi boshlanadi. Ko'p o'tmay Navoiy muhrdorlikni o'zining yaqin do'sti va fikrdoshi, shoir Amir Shayxim Suyayliygga topshiradi. «Bu nozikta'b va zukko Amir 20 yildan ortiq Boyqarog'a mulozim bo'ldi». Lekin Boyqaro do'stining noroziligiga ham qaramay, 1472-yil fevralida uni vazir lavozimiga tayinlaydi va «Amiri Kabir» («Ulug' Amir») unvonini beradi. Bu lavozimda Navoiy el-ulus manfaati, shahar va mamlakat obodonchiligi, madaniyat ravnaqi, adolat tantanasi uchun foydalanadi-ki, bularning barchasi pirovard natijada Sulton Husayn davlatining barqarorligi va nufuzini ta'minlaydi.

Hirot bu davrda nihoyatda ko'rkamlashdi, xalq turmushi yaxshilandi, she'riyat, nafis san'atlari rivoj oldi. Talabalar uchun «Ixlosiya» madrasasi, darveshlar uchun «Xalosiya» xonaqohi, bemorlar uchun «Shifoia» shifoxonasi, masjidi Jome' yoniga Qorixona («Dor ul-huffoz») qurildi. Ulug' amirning kutubxonasida 70 dan ortiq xattot va musavvirilar qo'lyozmalarni oqqa ko'chirish, ularni badiiy bezash bilan band edilar. Hirotida yana «Nizomiya», Marvda «Xusraviya» va boshqa madrasalar bino etildi.

Navoiy madrasa, shifoxonalar qurdirib qo'ya qolmasdan, ularni kerakli darajada jihozlash, o'z-o'zini ta'minlash uchun vaqf yerlar ajratib berish, mudarrislar, tabiblar va boshqa xodimlar bilan ta'minlash, ularga oylik maosh, ozuqa, kiyim-bosh belgilashgacha, talabalar nafaqasi va kitoblari-gacha, barcha-barchasini mukammal boshqarib, tashkil etib berar edi va

o'zi doimo xabar olib, nazorat qilib turishni ham unutmadi. Binolar qurilishi tarhi bilan bevosita shug'ullanar, usta va shogirdlar mehnatidan boxabar bo'lib turardi. Shoir o'z huzuriga tez-tez she'r, ilm va san'at ahlini chorlab, ma'rifiy suhbatlar uyushtirib turar, yosh iste'dodlarni tarbiyat qilib, ularga sharoit yaratardi. Xondamir, Behzod, Vosifiy va o'nlab ushbu tarbiyatga noil bo'lgan iste'dod egalari shular jumlasidandir.

Shu davr ichida Alisher Navoiy o'z qo'li bilan birinchi devoni «Badoyi ul-bidoya» («Badiiylik ibtidosi»)ni tuzdi. Bu devonga uning yoshlik va yigitlik paytlarida yozgan 800 dan ortiq she'rlari jamlangan bo'lib, shoir ijodiy kamolotining birinchi bosqichini aks ettiradi.

Alisher Navoiyga bag'ishlangan tarixiy va ilmiy asarlarda batafsil tavsif qilinishicha, 1469–1481-yillar Alisher Navoiyning ijtimoiy hayot va obodonchilik borasidagi eng faol xizmat ko'rsatgan yillari bo'lgan. Shoir 1481-yili «Vaqfiya» asarini yozib, unda o'zining binokorlik va xayriya ishlariga yakun yasab, o'z-o'ziga hisob bergan.

Navoiy dehqonchilik ishlarini yo'lga qo'yib, juda yaxshi natijalarga erishgan. Tarixchilarning yozishicha, Navoiyning bir kunlik daromadi 18 ming shohruxiy dinor miqdorida edi. Ulug' Amir bu daromadning ko'p qismini xayriy ishlariga sarf qilgan. Tarixchi Xondamir Navoiy qurgan 52 rabot, 20 hovuz, 16 ko'prik, bir qancha to'g'on, ariq, hammom, masjid-madrasalarni eslaydi. Navoiy turli soha olimlariga homiylik qilib, o'nlab ilmiy risolalar bitilishiga bevosita sababchi bo'lgan.

1483-yildan Alisher Navoiy o'zining buyuk «Xamsa» asarini yozishga kirishdi va uni uch yilda tugalladi. Besh dostonni o'z ichiga olgan bu ulkan badiiy qomus 50 ming misradan oshiq bo'lib, Navoiyning barcha she'riy merosini deyarli yarmini tashkil qiladi. «Xamsa» — Alisher Navoiy ijodining qalbidir.

Fors tilidagi birinchi «Xamsa» buyuk shoir Nizomiy Ganjaviy (1141–1209) tomonidan yaratildi. Shoir hech bir o'rinda o'zining «Xamsa» yozganligini qayd etmaydi. Nizomiy vafotidan 100 yil o'tib, Hindistonda tug'ilib o'sgan forsiyazon turk o'g'loni Xusrav Dehlaviy Nizomiy «Xamsa»siga birinchi bo'lib tatabbu yozadi va «xamsachilik» an'anasini boshlab beradi. Dehlaviy «Xamsa»si Nizomiyga ajoyib sharh va undagi mazmunlarning yangicha talqini sifatida o'zining ham, salafining ham shuhratini olamga yoydi. Keyingi XIV–XV asrlar mintaqqa ma'naviyati «Xamsa» an'anasi ta'sirida rivoj oldi, shoirning salohiyati va iqtidori hech bo'l-

maganida «Xamsa»ning bir dostoniga munosib javob yoza bilish bilan o'lgan bo'ldi. Bu jahon ma'naviyati tarixida betakror hodisadir. Turkiy adabiyotda Qutb va Haydar Xorazmiylar boshlab bergan «xamsachilik» an'anasi o'zining kamolini Alisher Navoiy ijodida topdi.

Islom aqidalariga ko'ra bir kecha-kunduzda o'qiladigan besh vaqt namoz «al-Xamsatu» deyiladi, dinimizning besh ustuni (rukni) ham — tavhid (imon), namoz, ro'za, zakot, haj — o'ziga xos «Xamsa» (beshlik)ni tashkil etadi. Demak, Nizomiy dostonlarining «Xamsa» turkumi sifatida talqin etilishi, unga Amir Xusrav va Navoiy javoblari bejiz emas. Alisher Navoiy «Saddi Iskandariy» dostonining muqaddima qismida bu masalaga maxsus to'xtalib, «Xamsa»ning har bir dostoni yozilishini kunning ma'lum vaqtlarida o'qiladigan sahar, peshin, asr, shom va xufton namozlari bilan qiyos etadi hamda «Xamsa»ni buyuk tog' cho'qqisiga ko'tarilish mobaynida besh o'rinda to'xtab, nafasni rostdash uchun bino etilgan besh oromgohta o'xshatadi.

Navoiy o'z «Xamsa»sini yaratishga 1483-yilda kirishgan bo'lsa, uning birinchi dostoni «Hayrat ul-abror» («Yaxshi kishilarning hayratlanishi»)ni o'sha yili yozib tugatdi. 1484-yilda «Farhod va Shirin», «Layli va Majnun», «Sab'ai sayyor» («Yetti sayyora»), 1485-yilda «Saddi Iskandariy» dostonini poyoniga yetkazdi. Shoir o'z «Xamsa»siga kiritilgan dostonlarda o'sha davr uchun muhim bo'lgan muammolarni qo'ydi, mutafakkir sifatida ilg'or qarashlarni ilgari surdi, o'zbek tilining qudratini olamga namoyish etdi.

Navoiyning turkiycha «Xamsa»sining yaratilishi XV asrda Xuroson eli uchun favqulodda shodumonlik va saodat sifatida qabul qilindi. Davrning ikki qutbi — ma'naviyat piri Jomiy va buyuk sulton Husayn Boyqaroning hayrati va yuksak e'tirofi ushbu haqiqatga dalildir.

Navoiy shu yillar orasida ikkinchi devoni — «Navodir un-nihoya» («Behad nodirliklar»)ni tuzishga kirishdi. Mutafakkir adib tarixiy haqiqatga ham muayyan izchillikda o'z munosabatini bildirib o'tishni insof yuzasidan lozim topdi va «Zubdat ut-tavorix» («Tarixlar qaymog'i») asarini yozib tugatdi.

1487-yili qishda Navoiy Astrobod hokimi etib tayinlandi. Boshqa bek va amirlar uchun sharafli hisoblanishi joiz bo'lgan bu martaba Amir Alisherning nozik tabiati uchun muayyan darajada ozorli bo'ldi. Ammo shoh hukmi vojib, Amiri Kabir o'lganining hassos bir hududini muhofaza

va obod qilish niyatida jo'nab ketdi. Astrobodda Navoiyning ikki yuqoridagi hammasi hokimligi bu shahar ahli uchun saodatli, Boyqaro saltanat uchun xayrli bo'ldi.

Bu orada birin-ketin Navoiyning eng yaqin ustoz va musohiblari hayotdan ko'z yumdilar. 1488-yili Sayid Hasan Ardasher, 1492-yili Abdurahmon Jomiy, 1493-yili Pahlavon Muhammad vafot etdi. Navoiy ustozlari xotirasiga «Holoti Sayid Hasan Ardasher», «Holoti Pahlavon Muhammad», «Xamsat ul-mutahayyirin» («Besh hayrat») asarlarini shu yillar ichida yozib tugalladi. Bu asarlarida o'sha davr voqeligiga oid qimmatli ma'lumotlar bilan birga Navoiy yaratgan yangi badiiy olamning nazariy asoslariga oid bir qator dalil va mulohazalar ham bayon etilgan. Shu yillarda yana Navoiy davr shuarosi xususida «Majolis un-nafois» va islom ma'naviyatining buyuk siymolari, xususan, turk, fors, hind mashoyixlari tarixiga oid «Nasoim ul-muhabbat» («Muhabbat shabbodasi») risolalarini yozadi. Bu asarlar nihoyatda muhim manba bo'lib, o'sha davr ma'naviyatining jonli siymolaridan mingga yaqin kishi haqida qimmatli ma'lumotlarni o'zida jam etgan. Bundan tashqari nafaqat tasavvur irfoni va adabiyoti, balki islom davri ma'naviyatining boshqa muhim jihatlari haqida ham ko'plab nazariy mulohazalar ushbu asarlar qatidan joy olgan bo'lib, ularni mufassal tadqiq etish milliy ma'naviyatimizni xolis anglab yetishda bugungi avlodlar uchun benazir manba va asos bo'lib xizmat etadi.

1492-yilda aruz ilmiga bag'ishlangan «Mezon ul-avzon» («Vaznlar o'lchovi») risolasi yozildi va shoir o'z lirik ijodini qayta taqsimlab, yangi devonlar majmui «Xazoyin ul-maoniy» («Ma'nolar xazinasi»)ni yaratish ishiga astoydil kirishdi. «Chor devon» nomi bilan shuhrat qozongan bu buyuk majmua 45 ming misraga yaqin turli janrlardagi kichik va o'rta hajmli she'rlarni o'zida jamlagan bo'lib, «G'aroyib us-sig'ar» («Bolalik ajoyibotlari»), «Navodir ush-shabob» («Yigitlik davri nodirliklari»), «Badoye' ul-vasat» («O'rta yosh kashfiyotlari»), «Favoyid ul-kibor» («Keksalikkidagi foydali mulohazalar») nomlari bilan ataladi. Bu to'rt jildda 16 janrga oid 3000 dan ortiq she'r bo'lib, ularda 2600 g'azal, 210 qit'a, 133 ruboiy, 86 fard, 52 muammo va boshqalar mavjud. «Xazoyin ul-maoniy»ga oldingi ikki alohida devondagi she'rlarning deyarli barchasi kirgan bo'lib, keyin yaratilgan 1400 ga yaqin yangi asarlar qo'shilgan.

Bu turkiy tilda yozilgan asarlari, dostonlari, she'rlaridan tashqari Navoiy fors tilida ham 12 ming misradan oshiq she'r, muammo janri haqi-

«Mufradot» risolasini, «Sittayi zaruriya», «Fusuli arbaa» turkum qismlarini yozdi, «Foniy» taxallusi bilan alohida devon tuzdi. Ushbu asarlar Xoʻqoniy, Amir Xusrav, Saʼdiy, Hofiz, Kamol Xoʻjandiy, Jomiy kabi bosh adabiyotining mumtoz namoyandalari bilan ijodiy bahsda tugʻilgan boʻlib, ham badiiy ifoda, ham mazmuniy teranlikda salafilar bilan teng qudrat namoyish etadi.

Navoiy 1498-yilda «Lison ut-tayr», 1499-yilda «Muhokamat ul-lugʻatayn», 1500-yili «Mahbub ul-qulub» asarlarini yozdi. Bu uch asar buyuk shoir va mutafakkir ijodining avj nuqtalari edi. Adib «Muhokamat ul-lugʻatayn»da oʻzining butun ijodiy yoʻlini sarhisob qilib, turkiy tildagi sheʼriyatning qudratini taʼkidlagan. Unda, jumladan, quyidagi maʼlumot bor: «Chun «Lison ut-tayr» ilhomi bila tarannum tuzupmen, qush tili shorati bila haqiqat asrorini majoz suratida koʻrguzupmen». Alisher Navoiy goʻdaklik chogʻlaridan tasavvuf sheʼriyatining ustodi Fariddin Attor yaratgan «Mantiq ut-tayr» asariga mehr qoʻygani bizga maʼlum. Uning oxirida ushbu asarga tatabbu — javob yozar ekan, oʻzining shunga yozgan barcha asarlariga falsafiy yakun yasaydi. Attor asari Borliqning yagona mohiyati haqida, Haq asrori va inson uchun uni anglab yetish imkon darajasi haqida edi. «Lison ut-tayr» mazmuni «Mantiq ut-tayr»ga zid yoki undagi fikrlarning takrori ham emas, balki yangi tarixiy-maʼnaviy bosqichdagi sharhi, talqinidir.

Attorning qushlar tilidan yozilgan dostonida irfoniy ehtiros nihoyatda joshqindir. Navoiy esa bosiq voqeaband tasvirga urgʻu beradi, qushlar sarguzashtida va ichki hikoyalarda hayotiylikni kuchaytiradi. Bu bejiz emas. Oxirgi xulosada Navoiy salafiga qaraganda olgʻa ketadi, masala mohiyatini teranroq his qiladi va badiiy tasvirni ham shunga munosib yaratadi.

Nihoyat Navoiy oxirgi asari «Mahbub ul-qulub» («Koʻngillarning sevgani») risolasida barcha savollarga yana oʻzi javob bergan. Bu asar tom maʼnoda ijtimoiy-falsafiy va axloqiy gʻoyalarga toʻliq boʻlib, XV asrda mavjud boʻlgan barcha ijtimoiy toifalar mohiyati mufassal ochib berilgan, ijtimoiy va axloqiy hodisalarning oʻzaro bogʻliqligi, yaxlitligi ishonarli taʼkidlangan. Bu asar turli aforizm, maqol va matallarga boy boʻlib, xalq orasida juda keng tarqalgan.

Alisher Navoiy oʻzi va salafilari — Nizomiy, Dehlaviy, Hofiz, Iroqiy va boshqalar yaratgan mustaqil badiiy tafakkur tarzini «majoz tariqi» deb nomladi va unda Haq asrori «majoz suvratinda» aks etishini taʼkid-



lagan. Bu Borliqni o'ziga xos idrok etish tarzi Naqshbandiyaning: «Dil ba yoru dast ba kor», qoidasiga muvofiq bo'lib, unda ibrat, ilm, irfon va amal bir nuqtada birlashar va yangi dunyoga ko'z ochardi. Tavhid ta'limoti va e'tiqodini idrok etishning eng yuqori bosqichi bo'lgan bu dunyoqarash tizimi «Xamsa» va «Lison ut-tayr» asarlarida, shoir lirika-sida badiiy in'ikosini topgan.

1500-yilga kelib shoirming hayot sharoiti qiyinlashib, sog'ligi zaiflashib qolsa-da, ijoddan to'xtamadi. 1501-yilning boshida Navoiy kasallikdan vafot etdi. Butun Hirot xalqi o'zining buyuk shoiri bilan xayrlashishga chiqdi va 7 kun davomida motam tutdi.

Navoiy o'z ijodi bilan o'zbek adabiyotining so'nggi rivojini belgilab-gina qolmay, Movarounnahr va Xurosonning butun ma'naviy madaniyati taraqqiyotiga juda katta ta'sir ko'rsatdi. Uning asarlari, she'riyati qayta-qayta ko'chirilib, xalq orasida keng tarqalib, shoirlar uchun maktab vazifa-sini o'tadi, madrasalarda keng o'rganildi.

DAVLATSHOH SAMARQANDIY

(Taxminan 1435–1495)

XV asrning ko'zga ko'ringan adabiyotshunos olimlaridan biri Davlatshoh ibn Alouddavla Baxtishoh al-G'oziy as-Samarqandiydir. Uning tarjimaiy holiga oid ma'lumotlar juda kam bo'lib, «Tazkirat ush-shuaro» («Shoirlar tazkirasi») asarida keltirilgan ba'zi bir ma'lumotlarga qaraganda, u yirik harbiy xizmatchi va davlat arbobi oilasida tug'ilgan. Otasi Baxtishoh Shohrux Mirzoning amirlaridan bo'lib, ko'pgina harbiy yurishlarida qatnashgan va toj-u taxt sohibiga sadoqat va qahramonlik namunalarini ko'rsatgan. Uning «al-G'oziy» atalishi ham shundandir.

Davlatshohning tug'ilgan vaqti ma'lum bo'lmasa-da, o'zining «Tazkirat ush-shuaro» asarini 50 yoshga kirganida yoza boshlaganini ma'lum qiladi. Bizga esa asar 1486-yili yozib tugatilgani ma'lum. Agar bu katta va muhim asarni yozish uchun kamida 2–3 yil vaqt sarflangan deb taxmin qilinganda, Davlatshoh taxminan 1435–1436-yillarda tug'ilgan bo'lib chiqadi.

Davlatshoh Samarqandiy yoshligidan ilmga qiziqib, o'z davrining ko'zga ko'ringan olimi, faqih va shoir Xoja Jaloluddin Fazlulloh Abu-

Ilmidsiydan ta'lim olgan. Lekin 1480-yillarga qadar ilmiy yoki adabiy faoliyat bilan shug'ullanmagan, balki saroy xizmati va harbiy ishlarga jalb qilingan, Sulton Husayn Boyqaroning ko'pgina harbiy yurishlarida ishtirok etgan. U so'nggi marta Sulton Husayn Boyqaro bilan Sulton Mahmud (Histori Shodmon va Badaxshon hokimi) o'rtasida Chakmansaroy (Afyonistonning Andxoy viloyatida joylashgan manzil)da bo'lgan jangda qatnashgan. Bu jang, Xondamirning ma'lumotlariga qaraganda, 875/1471-yilda sodir bo'lgan.¹ Davlatshoh Samarqandiy 60 yilga yaqin umr ko'rib 1495-yili vafot etgan.

Davlatshoh Samarqandiy «Tazkirat ush-shuaro» asarini yozishda juda ko'p manbalardan: o'zidan oldin yozilgan tazkiralardan, xususan Abu Tohir Xotuniyning «Manoqib ush-shuaro», Avfiyning «Lubob ul-albob» kitoblaridan, tarixiy va geografik asarlardan, xususan, Istaxriyning «Kitob masolik ul-mamolik», Gardiziyning «Zayn ul-axbor», Abulfazl Bayhaqiyning «Tarixi oli Sabuktakin» va boshqalardan, shuningdek, tazkirada qayd etilgan shoir va adiblarning asarlaridan keng foydalangan.

Tazkirada VII–XV asrlarda yashab ijod etgan 155 shoir haqida qisqacha, lekin nihoyatda qimmatli ma'lumotlar keltirilgan. To'g'ri, guruch kurtaksiz bo'lmagani kabi, Davlatshoh Samarqandiy tazkirasi ham ayrim juz'iy kamchiliklardan xoli emas. Masalan, ayrim hollarda sanalar, u yoki bu shoirning tug'ilgan joyi noto'g'ri berilgan, ayrim hollarda keltirilgan ma'lumotlar chalkashib ketgan. Shunga qaramay asarning ijobiy tomonlari ko'p. Bu asar juda katta davr — qariyb sakkiz yuz yil mobaynida Eron va Markaziy Osiyoda yashab ijod etgan shoir va adiblar faoliyatini tadqiq qabzasiga olgan.

«Tazkirat ush-shuaro» yoki «Tazkirai Davlatshohiy» muqaddima, xotima va yetti qism (tabaqa) dan iborat.

Muqaddimada asarning yozilish sabablari, VII–X asrning 1-yarmida yashab o'tgan arab shoirlaridan Labid (VII asr), Abu Nuvos (vafoti tax. 814), Abu Tayyib al Mutanabbiy (vafoti — 963), Abu A'lo al-Ma'arriy (973–1058) va boshqalar haqida ma'lumot keltirilgan.

Birinchi va ikkinchi qism X–XI asrlarda Eron va Markaziy Osiyoda yashab o'tgan 21 yirik shoirning qisqacha tarjimai holi va ijodiga bag'ishlangan.

¹ A h m e d o v B., Davlatshoh Samarqandiy, Toshkent, «Fan» nashriyoti, 1967, 6-bet.



Uchinchi, to'rtinchi va beshinchi qismlarda Xorazmshohlar — Anush teginiylar (1077—1231), Elxoniyalar (1258—1349) va Muzaffariylar (1315—1393) zamonida ijod etgan 54 shoir haqida ma'lumot bor.

So'nggi ikki tabaqa Amir Temur va Temuriylar zamonida Markaziy Osiyo, Eron va Iroqda yashagan 41 shoir ijodiga bag'ishlangan.

Xotimada esa mazkur tazkira muallifi bilan zamondosh mashhur olimlar Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Xoja Afzaliddin Muhammad, Amir Ahmad Suxayliy, Xoja Shahobiddin Abdulloh Marvarid hamda Xoja Osafiy haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Davlatshoh Samarqandiy tazkirasida jamlangan shoirlarning asarlari sharq mumtoz adabiyotining umumiy yo'nalishi, uning taraqqiyot yo'llari, Sharq she'riyatida keng qo'llanilgan ruboiy, qasida, g'azal, hajv janrlarining paydo bo'lishi va takomillashuvi, tarsi', tajnis, tarji'band, murabba' singari she'riy shakllarni o'rganish hamda tadqiq etishda muhim rol o'ynaydi. Qolaversa, ular orasida Javhariy Zargar, Xoja Kirmoniy, Jalol Tabib, Xoja Ismatullo Buxoriy, Aminiddin Nuzulobodiy singari dostonchilik janrining yetuk namoyandalari, nazm va nasrga oid «Tarjimon al-balog'a» («Notiqlikni tushuntirib beruvchi kitob») asari bilan mashhur Farruxiy (vafoti — taxminan 1037—1038), «Chahor maqola» kitobi bilan shuhrat topgan Nizomiy Aruzdiy Samarqandiy (XII asr), fors tilining sharhli lug'atini tuzgan Qatron ibn Mansur Termiziy (XII asr), «Hadoiq as-sehr» («Sehr bog'lari») asari bilan nom taratgan xorazmlik Rashididdin Vatvot (1088—1182), «Nigoriston» asari muallifi Muiniddin Juvayniy, «Shabistoni xayol» kitobi muallifi Yahyo Sebak Nishopuriy, «Javohir ul-asror» («Sirlar javohiri») asarini butun Sharqqa manzur eta olgan Shayx Ozariy (1382—1462), musiqa ilmining mashhur namoyandaligidan Sohib Balxiy, xat va xattotlik ilmining piri Simiy Nishopuriy ham borki, bular ijodi mumtoz adabiyot hamda o'rta asr Sharq fani taraqqiyoti tarixida muhim o'rin egallaydi.

Kitobda ta'rifi keltirilgan shoirlardan aksariyati davrining malik ushshuarosi bo'lgan. Ularning qariyb hammasi oxir-oqibatda shohlar saroyini tark etgan. Avhadiddin Anvari (XII asr), Rashididdin Vatvot, Buxoroda mulammah (bir she'mi ikki tilda yozish) an'anasini boshlab bergan, hajv janri rivojiga ulkan hissa qo'shgan Xoja Ismatullo Buxoriy (1365—1426) ana shunday shoirlar jumlasidandir.

Tazkirada jahonga mashhur faylasuf shoir va olim Nosir Xusrav (1004—1088), Sharq mumtoz she'riyati daholaridan va musiqashunos

Xusrav Dehlaviy (1253–1325), shoir va yirik tarixchi olim Faxriddin Hanokatiy (vafoti – 1329), Kamol Xo‘jandiy (1318–1401), Abdurrahmon Jomiy, Alisher Navoiy bilan birga mehnatkash xalq orasidan chiqqan nozimlar ham qayd etiladi. Asli dehqon tabaqasidan, Nizomiy Ganjaviyning «Mahzan ul-asror»iga ming baytdan iborat javob yozgan Jamoliddin ibn Ja‘far Farrahoniy; bir umr qo‘sh qo‘shib, dehqonchilik qilgan, she‘ri ketmon dastasiga bitib yurgan ko‘histonlik Muhammad Hisoniddin; avom un-nos (oddiy xalq)dan chiqib, shoirlik, xattotlik va naqqoshlikda nom chiqargan Simiy Nishopuriy; bo‘yra to‘qib kun kechirgan Samarqandlik Bisotiy haqidagi ma‘lumotlar shular jumlasiga kiradi.

Shuningdek, tazkirada o‘z she‘rlari bilan shohlar va hokimlar, noiblar va qozilar kirdikorlarini fosh etgan Yaminiddin Faryumodiy va uning o‘g‘li Amir Mahmud (ibn Yamin), Ubayd Zakoniy, Burunduq Buxoriy hamda Bobo Savdoyi Abivardiy kabi shoirlar zikri ham keltirilganki, bu hul asar qimmatini yanada oshiradi.

Davlatshoh Samarqandiy asarining yana bir fazilati unda ayrim muhim tarixiy voqealar bayonining ham keltirilganidir. Chunonchi, Markaziy Osiyo, Afg‘oniston, Eron xalqlarining sulton Jaloliddin Manguberdi (Mankburni) boshchiligida 1221–1232-yillari mo‘g‘ul bosqinchilariga qarshi olib borgan kurashi tarixidan ayrim lavhalar; 1337-yili Xurosonda bo‘lgan sarbadorlar qo‘zg‘oloni hamda shu qo‘zg‘olon natijasi o‘laroq, Xurosonning kattagina qismida bunyod topgan sarbadorlar davlatining (1337–1381) qisqacha tarixi ham asarda aks ettirilgan. Shuningdek, kitobda keltirilgan Xuroson va Markaziy Osiyo janubiy qismining XV asr 40-yillaridagi siyosiy hayoti bilan bog‘liq tafsilotlar, yirik tarixiy shaxslar – vazir va olim Nizomulmulk, ulug‘ shoir va olim Umar Hayyom, ismoiliylar tariqati asoschisi Hasan Sabboh, buyuk munajjim Mirzo Ulug‘bek hayotiga oid voqealar ham alohida qimmatga ega.

Davlatshoh Samarqandiyning mazkur tazkirasi jamoatchilik e‘tiborini ko‘pdan beri tortib kelmoqda. 1819-yildan buyon asarning ayrim parchalari Rossiyada (V.A.Jukovskiy va F. Erdman), Fransiyada (Silvestr de Sasi), Angliyada (E. Broun va A. Falkoner), Turkiyada (Fahim Sulaymon afandi), Germaniyada (Xammer) hamda Gollandiyada chop etilgan. Uning to‘la matni 1887-yili Bombayda Mirza Muhammad, 1901-yili Londonda E. Broun va 1958-yili Tehronda Hoji Muhammad Ramazoniy tomonidan nashr etilgan.

1900-yili birinchi bor Xivada Muhammad Rafe tomonidan eski o'zbek tiliga (Xorazm shevasida) o'girildi. 1967-yili B. Ahmedov «Tazkirush-shuaro» tazkirasidan Markaziy Osiyo va xurosonlik 32 va 1981-yil 50 dan ortiq shoir hayoti hamda ijodiga oid ayrim parchalarni o'zbek tiliga tarjima qilib, «Davlatshoh Samarqandiy» nomli kitobiga ilova qilgan. Holbuki, bu katta asarni atroflicha ilmiy tadqiq qilib, o'zbek tiliga o'girib, keng kitobxonlar ommasiga taqdim etish bugungi olimlarimiz oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

HUSAYN BOYQARO

(1438–1506)

Sulton Husayn Amir Temurning evarasi bo'lib, 1438-yil iyul (hijriy 842-yil, muharram) oyida Hirotning sharqi-shimolidagi Davlatxona saroyida dunyoga kelgan. Uning otasi G'iyosiddin Mansur Boyqaro Mirzoning uchinchi o'g'li edi. Boyqaro Mirzoning otasi esa Amir Temurning ikkinchi o'g'li Umar Shayx (1356–1394), onasi Feruza begim esa ota tomonidan Amir Temurning katta qizi O'gi Begi xonimning o'g'li Sulton Husayn Mirzoning qizi bo'lib, Feruza begimning onasi Qutlug Sulton begim esa Amir Temurning uchinchi o'g'li Mironshoh Mirzoning (1366–1408) qizi edi. Darhaqiqat, Husayn Boyqaro Zahiriddin Muhammad Bobur ta'riflaganidek, «Karim ut-tarafayn», ya'ni har ikki tomondan ham nasabi Amir Temur Kuragonga borib tutashadi.

Husaynning otasi G'iyosiddin Mansur 1445-yilda vafot etgach, Husayn 14 yoshigacha maktabda ta'lim oladi va shu maktabda yosh Alissher bilan do'stlashadi.

1452-yilda yosh Husayn Hirot hukmdori Abulqosim Bobur saroyiga xizmatga kiradi. 1457-yili Abulqosim Bobur vafotidan so'ng, Husayn Mirzo saroyini tark etib, Marv hukmdori Sanjar Mirzo Marviy saroyiga xizmatga o'tgach, hukmdor o'z qizi — 15 yoshli Beka Sultonni unga nikohlab beradi. Biroq, qaynata bilan kuyov o'rtasiga sovuqchilik tushib, saroydan ketishga majbur bo'ladi. Shundan so'ng Husayn Mirzo o'n yildan ko'proq vaqt davomida Xorazm, Xuroson, Astrobod, Mozandaron va Jurjon oralig'ida sargardonlikda umr kechirdi. Bu davr mobaynida Temuriy shahzodalarning toj-u taxt uchun olib borgan o'zaro urushlarida


Husayn Mirzo ham faol qatnashib, Hirot hukmdori Sulton Abusaid Mirzo (1424—1469) halokatidan so'ng, 1469-yil 24-mart, juma kuni Husayn Mirzo tantana bilan Hirotga kirib keldi va o'sha kuni Jome masjidida uning nomiga xutba o'qildi.

Tarixiy manbalardan shu narsa ma'lumki, Sulton Husayn Boyqaro Temuriy shahzodalar orasida jasoratli, mard, odil va tadbirkor saltanat ahli bo'lgan. U hukmronlik qilgan davrda Xuroson fuqarolari birmuncha osoyishta va farovon hayot kechirgan. Ayniqsa, uning vaziri Alisher Navoiyning sa'y-harakatlari natijasi o'laroq, mamlakatda yirik suv inshootlari, ma'muriy va madaniy qurilishlar, madrasa, masjid, karvonsaroy, rabotlar, ko'priklar va shu kabi qurilish ishlari keng ko'lamda olib borilgan. Shu bois Sulton Husayn Boyqaroning hukmronlik davrida Hirot tani va madaniyat markaziga aylangan edi. Bu davrda ilm-u fanning barcha jabhalarida qalam tebratgan allomalar, so'z ustalari, adiblar, shoirlar, musiqashunoslar, hunarmand naqqoshlar va musavvirilar Hirotning dovruqini jahonga mashhur qilganlar.

Sulton Husayn Boyqaro Xuroson muzofotida, ayniqsa, Hirotida diniy va madaniy-maishiy binolarni ko'plab qurdirdi. Bu qurilishlarning asosiy mutasaddiysi sifatida Alisher Navoiyni ko'rsatish joizdir. Shuningdek, shahanshohning yaqin kishilari hamda bek va amirlari o'z nomlarini abadiylashtirish maqsadida masjid, madrasa, rabot, ko'prik, hammom va shunga o'xshash qurilishlar bilan shahar ko'rkini yanada jilolantirganlar. Chunonchi, Sulton Husayn Boyqaro Gozurgoh yaqinida o'z nomiga madrasa, Hirot tashqarisida «Bog'i bayt ul-imon» va «Bog'i xamsa oroyi» bog'larini barpo etgan. Sulton Badiuzzamon Mirzo nomi bilan ataluvchi «Madrasayi Badi'a» ham Sulton Husayn Boyqaro davrining ulkan obidalaridan biridir. Bu davrda ta'mirlangan Jome' masjidi ulkan binolardan bo'lib, 403 gumbazi, 130 ravoqi va 44 ustuni bo'lgan.

Shuningdek, Alisher Navoiy ham o'z hisobidan bir necha madaniy-maishiy binolar, chunonchi «Safoiya» nomli hammom va «Shifoiya» nomli kasalxona qurdirgan.

Tarixchi Xondamirning yozishicha, Xurosonda qirqaqa yaqin yirik inshootlar Sulton Husayn Boyqaro davrida vujudga kelgan va Hirotga atrof-tevarakdan olimlar, shoirlar, adiblar, rassomlar, xattotlar, musiqachilar va boshqa har xil hunar ahllari kirib kela boshlagan. Jumladan, o'sha davrda tabib Husayn jarroh ichakni kesib davolashda chumolidan foy-



dalanish usulini ixtiro qilgan. Ustod Sayyid Ahmad g'ijjak, Ustod Shok'uli g'ijjak, Ustod Qul Muhammad udiy, Ustod Husayn udiy, Usto Shayx Foniyyaynilar Xurosonda nom chiqargan yetuk musiqashunc allomalardan bo'lgan. Naqqoshlik va xattotlik sohasida Xoja Mira naqqosh, Mavlono Xoja Muhammad naqqosh va buyuk iste'dod sehibi Ustod Kamoliddin Behzodlar o'z mahoratlari bilan Xuroson fax hisoblangan.

Zahiriddin Muhammad Bobur Husayn Boyqaro zamonidagi olimla fozil va shoirlar haqida gapirib, ularning hammasini saromadi Mavlona Abdurahmon Jomiy, shuningdek, Shayxim Suhayliy, Husayn Ali Tufayliy, Osaifiy, Binoiy, Sayfi Buxoriy, Mir Husayn Muammoiy, Mullo Muhammad Badaxshiy, Yusuf Badiy, Ohiy, Shoh Husayn Koshiy, Hiloli Ahliy, Muhammad Solih va boshqalar haqida qisqacha to'xtalib o'tad Alisher Navoiyning ta'kidlashicha esa Husayn Boyqaro qadimgi turk tilning taqdiriga befarq bo'lmay, uning rivoji uchun qator chora-tadbirlar amalga oshirgan. O'sha davr adabiy muhitining ba'zi bir «mo'tabar» na moyandalari nazarida turk tili tahqirlanib, mazkur tilda ijod etish, ijokorning iste'dodsizligini bildiruvchi nuqsonlardan biri deb hisoblangan. B. nobarin, arab va fors tillariga e'tibor berilib, turk tili kamsitilgan. An shunday sharoitda Husayn Boyqaro yozuvda turk tilini iste'molga kiritis borasida maxsus farmon bergan. Bu dadil qadam mamlakatning siyosiy ijtimoiy va madaniy hayotida katta voqea bo'lgani shubhasiz.

Husayn Boyqaro fors va turkiy tillarida g'azal bitish iqtidoriga eg bo'lsa-da, asosan turk tilida «Husayniy» taxallusi bilan ijod etgar Uning ta'bi nazmi haqida Alisher Navoiy «Majolis un-nafois» asarid shunday yozadi: «Ul hazratning xo'b ash'ori va marg'ub abyoti bag'oy ko'pdur va devon ham murattab bo'lubtur».

Sulton Husayn Boyqaro Xuroson hududini ichki va tashqi dushman dan tozalagach, beg'amlikka, aysh-u ishratga beriladi. Hukmdornin so'nggi yillari mamlakat ichida vujudga kelgan isyonlarni bostirish bila o'tadi. Bu isyonlar o'z o'g'illari tarafidan mulk talashib, ko'tarilgan niz va mojarolardan iborat edi. Ammo shunga qaramay, u qo'lidan kelga nicha mamlakatda adolat va osoyishtalikni, ilm-ma'rifat va madaniyat ravnaq toptirishga harakat qilgan. 1506-yil bahorida Sulton Husay Boyqaro xastaligiga qaramay Xuroson qo'shinini yig'ib, Muhamma Shayboniyxonga qarshi Movarounnahr hududiga qarab yo'l oladi. Sha

hanshoh Bobo Ilohiy mavzeiga yetganda, ahvoli og'irlashib, qo'shinni to'xtatishga qaror qiladi. 1506-yil 5-may, dushanba kuni kechqurun sultanat sohibi Abulg'oziy Sulton Husayn Mirzo Boyqaro saktayi qalb (apopleksiya) kasali bilan 69 yoshida olamdan o'tadi.

JALOLIDDIN DAVONIY (1427–1502)


Davoniyning to'la nomi Jaloliddin Muhammad Asad as-Siddiqiy al-Davoniy bo'lib, 1427-yilda Eronning Kazarun viloyatiga qarashli Davon qishlog'ida tug'ilgan. U yoshligidanoq ilm-fanga, ayniqsa, musulmon fiqh-shunosligiga qiziqadi va boshlang'ich maktabni bitirgandan so'ng Sherozga kelib, madrasada yirik olimlar qo'lida tahsil oladi.

Keyinchalik u Sheroz shahrining qozisi etib tayinlanadi. Qozilikdan iste'foga chiqqandan so'ng madrasada mudarrislik qiladi.

Keyinchalik yana o'z qishlog'iga qaytib, umrining oxirigacha (1502) ilmiy ish bilan shug'ullanadi. U Davon qishlog'ida dafn etilgan.

Manbalardan ma'lumki, Jaloliddin Davoniy Markaziy Osiyo olimlari va shoirlarining ijodi va dunyoqarashi bilan yaxshi tanish, Forobiy, Ibn Sino, Nasiriddin Tusiyning ilmiy merosi, asarlarini qunt bilan o'rgangan, ularning ilmiy va insonparvarlik g'oyalari bilan xabardor bo'lgan. Xususan, Hirot, Vizantiya (Rum), Ozarbayjon, Kermon, Ho'rmuz, Tabariston, Xuroson, Jurjon mutafakkirlari bilan aloqa qilgan.

Muhammad Ali Tabriziyning ta'kidlashicha, Davoniy o'z risolalarini yozishda «Vizantiya, Xuroson, Turkiston olimlari hamda Sulton Abu Said Temuriy davrida yashagan mashhur mutafakkirlarning asarlaridan foydalangan» (Muhammad Ali Tabriziy. Rayhonat ul-adab. Tehron, 1949, 3-jild). Davoniy Hirotida uzoq vaqt bo'lib, u yerdagi olimlar bilan yaqindan muloqotda bo'lib, Abdurahmon Jomiy va boshqa olim, fozillar bilan uchrashadi. Sherozga qaytib kelgandan so'ng esa Jomiy bilan mutasil yozishib turadi. Shuningdek, Davoniy Ali Qushchi va uning risolalari bilan ham tanish bo'lganligini hisobga olsak, Davoniyning falsafiy va ijtimoiy qarashining shakllanishida Yaqin va O'rta Sharqning ilmiy, madaniy merosini o'rganishi hamda qo'shni mamlakatlar, ayniqsa, Movarounnahrning mashhur olimlari bilan aloqa qilishi muhim rol o'ynadi.



U salafklarining asarlarini targ'ib qilish bilan cheklanib qolmasda Markaziy Osiyo mutafakkirlarining madaniy, ilmiy va falsafiy an'analari davom ettirdi. Bulardan tashqari, Yunon va Markaziy Osiyo mutafakkirlari Arastu, Aflotun, Forobiy, Ibn Sino, Nasiriddin Tusiy va boshqalarning asarlarini yaxshi bilar, hatto ularning ba'zi risolalariga sharh ham bitgan. U qadimgi olimlar risolalaridagi murakkab va tushunilishi qiyin bo'lgan muammolarni sharhlash bilan birga, ular hal qila olmagan botiniy, zohiriy ilmlar va mushkul masalalarni yecha olar edi.

Davoniyning ilmiy merosi boydir. U falsafa, mantiq, fiqh, axloqshunoslik, riyoziyot va geometriya sohalarida bo'yicha risolalar yozgan. O'sha davrda uning asarlari olimlar orasida keng tarqalgan bo'lib, ular ko'p fanlarni bo'yicha rasmiy qo'llanma vazifasini o'tagan. Uning «Risolari isboti vojib» («Zaruriyatning isboti haqidagi risola»), «Risolat ul-xuruf» («Harflar haqidagi risola»), «Risolari fi tavjix ul-tashbix» («Majoz talqini haqidagi risola»), «Risola dar ilm ul-nafs» («Ruhshunoslik haqidagi risola»), «Tarbiyat tarbiyat ul-avlod» («Bolalarni tarbiyalash usuli»), «Arznoma» («Armiyani boshqarish prinsipi») va boshqa asarlari ma'lum. Davoniy ilmiy ishlardan tashqari Navoiy singari «Foniy» taxallusi bilan she'rlar yozgan. Uning she'rlari Eron va Iroqda chop etilgan. Davoniy Movarunna'hr va Xurosondagi madaniy yutuqlardan o'z ijodida keng foydalanishga harakat qilganligi bois, uning asarlari shu mamlakatlarda ham tarqalib bu yerdagi turli ilmiy yo'nalishga, ma'naviy hayotga ta'sir ko'rsatdi.

Davoniyning eng yirik risolasi — «Axloq-i jaloliy»dir. Asar 1470-1478-yillar orasida yozilgan va G'arbiy Eron hokimi, Oq qo'yunlik sulolasi vakili Uzun Hasanga bag'ishlangan. Ushbu kitob 1839-yilda V. F. Tompson tomonidan ingliz tiliga tarjima qilingan. Davoniyning «Axloq-i jaloliy» risolasi fors tilida yozilgan bo'lib, qo'lyozmasi dunyoning juda ko'p muzeylari va kitobxonalarida mavjud. Asar 1911-yili Kalkutta'da chop etilgan. O'zbekiston Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik institutida ushbu risolaning qo'lyozma va toshbosma nusxalari saqlanmoqda. Mazkur asar 1948-yilda Eshonjon Muhammadxo'ja tomonida o'zbek tilidagi qisqartma tarjimasi amalga oshirilgan. Rus sharqshunosi A.A.Semyonov Re va Braunlarga asoslanib, Davoniyning ushbu risolasi musulmon Sharqida mashhur kitoblar sirasiga qo'shadi.

Kitobda muhim ijtimoiy-siyosiy, ijtimoiy-xayoliy va axloqiy g'oyalarni ilgari surilgan. Unda jamiyatning paydo bo'lishi, ijtimoiy tabaqalar, davlat



va uni boshqarish yo'llari, adolatli va adolatsiz podshohlar, ularning fuqarolarga munosabati, axloq, ta'lim-tarbiya masalalari batafsil tahlil etilgan.

«Axloqi jaloliy»da XV asrning ilg'or axloqiy qarashlari o'z ifodasini topgan, kitobda o'rta asr Sharqining axloqiy ta'limotlari, uning yutuq va kamchiliklari aks ettirilgan. Asar uch qismdan iborat bo'lib, o'z navbatida ular yana mayda bo'lim — «lavom»larga bo'linadi. Birinchi qism axloq faniga bag'ishlangan bo'lib, muallif axloqning asosiy tushunchalari: adolat, shijoatkorlik, donolik, iffat va boshqalarga to'xtaladi. Ikkinchi qism «Odamning ichki holati» deb atalib, oilaviy hayotga bag'ishlangan. Bunda bolalarni tarbiyalash va kamolga yetkazish, kasb-hunarni o'qitish, xulq-odob qoidalari, nutq madaniyati, ota-onalarning o'z bolalarga munosabatlari va boshqa shunga o'xshash muammolar ko'tariladi.

Oxirgi uchinchi qism — «Shahar (davlat)ni boshqarish va podshohlar siyosati» deb ataladi. Bu qismda muallif shaharlarda yashovchi fuqarolar baxtli bo'lishi uchun qanday tadbir-u choralar ko'rish kerakligi, davlat boshliqlari bilan fuqarolarning o'zaro munosabati, jamiyat haqida fikr-mulohazalarni ilgari suradi. Eng so'nggida Nasiriddin Tusiyning «Axloqi nosiriy» risolasida keltirilgan, Afлотuning o'z shogirdi Arastuga qilgan vasiyati beriladi.

Davoniyning ijtimoiy qarashlarida Forobiyning ta'siri yaqqol sezilib turadi. Inson bir o'zi mehnat qilib, yashash uchun va har kuni zarur bo'ladigan narsalarni qo'lga kiritishi qiyin. U yakka holda hayot kechirishi uchun bir o'zi ovqat pishirishi, kiyim-kechak tikishi, mehnat qurollari yasashi va shunga o'xshash ko'p ishlarni bajarishi, bir necha kasb-hunar egallashga majbur bo'lar edi. Bu esa amri maholdir. «Odamlar birlashib, bir-biriga yordamlashganda boshqalar to'g'risida chinakamiga qayg'uradi, o'zaro yordam va aloqa o'rnatilganda adolatning sinalgan yo'llari paydo bo'ladi, yashash vositalari tartibga tushadi, kishilarning ahvoli mustahkamlanadi va inson zoti saqlanadi» (Davoniy. Axloqi jaloliy. 135-varaq).

Davoniy o'zining «Axloqi jaloliy» asarida davlat to'g'risida o'zining utopik — xayoliy orzusini tasvirlaydi. U Ibn Miskavayh, Forobiy va Nasiriddin Tusiy singari shaharni (davlatni) fozil va johilga bo'ladi. Fozil shaharni tasvirlar ekan, Davoniy «bu shunday shaharki, uning qoidasi baxt-saodatga erishuvdan va baxtsizlikka olib boradigan hodisalarni bartaraf qilishdan iborat», deydi (o'sha joy, 152-varaq). Fozil shaharni

aqlli, adolatli va jasur kishilar boshqarishi lozim. Shahar aholisi, qaysi ijtimoiy tabaqadan bo'lmasin, qonun-qoidalarga so'zsiz bo'ysunadilar. Johil shahar aholisi esa baxtsizlik va falokat yo'lga kirgan bo'lib, bunday shahar hokimlari ta'magir, johil bo'ladilar, o'z xohish-istaklari hamda hissiyotlarini qondirishga ruju qo'yadilar.

Jaloliddin Davoniy axloq va ta'lim-tarbiya masalalariga ham katta e'tibor beradi. Mutafakkirning talqinida, axloq fani kishilarning amaliy faoliyati, tafakkuri bilan chambarchas bog'langan. Axloq muammolari falsafiy, ijtimoiy-siyosiy masalalar bilan bir qatorda ko'riladi.

Davoniy o'z risolalarida ilm-fanning jamiyatda tutgan o'rniga katta baho berib, kishilarni ma'rifatli bo'lishga, kasb-hunarni egallashga chaqirdi. Uning insonparvarlik ruhi bilan sug'orilgan ijtimoiy g'oyalari umuminsoniy xarakterga ega bo'lib, keyingi davrlarda muhim rol o'ynadi va hozir ham o'z tarbiyaviy ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

HUSAYN VOIZ KOSHIFIY

(1440—1505)

XV asrning 1-yarmida Xurosonda, Alisher Navoiy atrofida to'planagan shoir, donishmandlar orasidagi mashhur va qomusiy talant egalaridan biri Voiz Koshifiydir.

Kamoliddan Husayn Voiz Koshifiy taxminan 1440-yillarda Xuroson viloyatidagi Sabzavor shahrining Bayhaq kentida tug'ilgan, uning otasonasi, bolaligi haqida hozircha hech qanday aniq ma'lumot yo'q. Bizningcha, u boshlang'ich ma'lumotni Sabzavorda olgan, arab, fors, turkiy tili, matematika, astronomiya, kimyo, musiqa, adabiyot, fiqhdan to'liq ma'lumotga ega bo'lgan. Yoshligidanoq voizlik — so'z san'ati bilan shug'ullangan. Koshifiy Sabzavorda tez orada ko'zga ko'ringan voiz — notiq bo'lib tanilgan. Keyinchalik Nishopurda, 1455—1468-yillarda esa Mashhadga yashab, voizlik qilgan. 1468-yilning oxirlarida Abdurahmon Jomiyning tavsiyasi bilan Husayn Voiz Koshifiy Hirotga keladi va qolgan umrini asosan Hirotga Temuriylar rahnamoligida o'tkazadi. Ma'lumki, XV asrning 2-yarmida Temuriylar, xususan, Husayn Boyqaro davrida Hirot Sharqning madaniyat markazi edi. Tarixchi olim Sayyid Nafisiyning aytishicha, Koshifiy umrining oxirida Hindistonga qilgan safari haqi-

da ham deyarli ma'lumot yo'q. Husayn Voiz Koshifiyning ikki qizi va bir o'g'li bo'lib, o'g'li Faxriddin Ali as-Safiy o'z davrining katta shoiri, yozuvchisi va olimi («Rashahoti ayn al-hayot» asari bilan mashhur) bo'lib yetishgan. Ali as-Safiyning islom tarixiga, payg'ambarlar hayotiga, adabiyotga, Xoja Ahrorga, axloqqa, kimyoga bag'ishlangan o'ndan ortiq ilmiy va badiiy asarlari bor. Husayn Voiz Koshifiy 1505-yilda Hirotda vafot etadi.

Kamoliddin Husayn — allomaning ism-sharifi, voiz (notiq) — laqabi, Koshifiy (kashf qilmoq, yaratmoq) — adabiy taxallusidir. Husayn Voiz Koshifiy asarlarini o'z davrining ilmiy tili — fors tilida yozgan bo'lib, undan ko'pgina ilmiy, badiiy tarjima asarlari ham meros qolgan. U falsafa, axloq, tilshunoslik, adabiyotshunoslik, siyosat, tarix, kimyo, astronomiya, matematika, musiqa, voizlik, she'r san'ati, din tarixi, fiqh, tibbiyot kabi fanlarga oid 200 dan ortiq asar yozganligi manbalardan ma'lum. Koshifiyning O'zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida asarlarining qo'lyozma va toshbosma nusxalari saqlanmoqda. Bundan tashqari o'z davrining ko'zga ko'ringan ilohiyotchi olimi bo'lib, hadisni, Qur'oni Karimni yoddan bilgan, hatto Qur'onga to'rt kitobdan iborat sharh ham yozgan. Koshifiyning «Axloqi Muhsiniy», «Risolai Hotamiya», «Anvori Suxayliy», «Futuvvatnomai Sultoniy», «Tavsiri Husayniy», «Javohirnoma» kabi o'ndan ortiq asari arab, tatar, eski o'zbek, urdu, turk, nemis, ingliz, fransuz va boshqa tillarga tarjima qilingan. Hozirgi kunda Koshifiy asarlari Parij, London, Berlin, Sankt-Peterburg, Moskva kabi shaharlarda, Iroq, Turkiya, Eron, Afg'oniston, Hindiston, Bangladesh va boshqa sharq mamlakatlarining kutubxonalarida saqlanmoqda. Chet mamlakatlarda Koshifiy asarlariga qiziqish XVIII—XIX asrlardayoq kuchli bo'lib, G'arbiy Ovro'poning N.G.Kin, M. Duayt, D.D.Donelson, E. Braun, A.A.Arberri, E.S.Kennedi, E. Rozental, X. Masse, K.S.Lambton, R. Levi, A.M.Shasteri kabi mashhur olimlari Markaziy Osiyo va Eronning XIV—XV asrlardagi madaniyati tarixini atroflicha o'rganishga harakat qilganlar va Koshifiyning ijodi, merosiga yuqori baho berganlar.

Koshifiy ijodini o'z davrining yirik tarixchisi Xondamir «Xulosat ul-axbor» asarida: «Ul janob nujum ilmida ham zo'r mahoratga ega edi, chunonchi uning ta'birlari Qazo o'qi singari bexatar bo'lardi. Uning balog'atoyotlik hamda fasohatsifatlik kitoblari ko'p va behisob bo'lib, ularning ko'pi oliymaqom amir Alisherning atoqli nomi bilan ziynatlan-

gan. Amir Alisherning inoyati va iltifoti ul janobning hol sahifasiga har ma vaqt tushib turardi...»¹ — deb ta'riflaydi. Alisher Navoiy «Majolis un-nafois» asarining to'rtinchi majlisida: «Mavlono «Husayn Voiz - «Koshifiy» taxallus qilur, Savzavorlikdur. Yigirma yilg'a yaqin borkim shahrdadur va Mavlono zufunun va rangin va purkor voqe' bo'lubtur On fan bo'lg'aykim, dahli bo'lmag'ay. Xususan, va'z, insho va nujumk aning haqqidur va har qaysida muttayyin va mashhur ishlari bor...»² — deb yuksak baholangan.

Husayn Voiz Koshifiy Hirot madrasalarida talabalarga ta'lim-tarbiya bergan, Xuroson shaharlarida axloq-odobdan va'z aytgan. Koshifiy o'z asarlarida ijtimoiy-axloqiy hayot, ma'naviyat masalalariga katta o'rin ajratadi, siyosat, davlatni boshqarish, shoh bilan fuqarolar o'rtasidagi munosabat, jamoani idora etish, yetuk insonni tarbiyalash muammolari uning ijodida katta o'rin egallaydi. Ularda insonparvarlik, xalqparvarlik, yuqori ma'naviyatga ega bo'lish, madaniy yuksalish g'oyalari ilgari suradi. Uning «Axloqi Muhsiniy», «Risolai Hotamiya», «Anvori Suhayliy», «Axloqi Karim», «Javohirnoma», «Lubbo ul-ma'naviy fi intixobi masnaviy», «Iskandar oynasi», «Tafsiri Husayniy», «Futuvvatnomai Sultoniy» kabi asarlari shular jumlasidandir. Bu asarlardan Xuroson mamlakatida, Hirotida va boshqa shaharlardagi madrasalarda talabalar uchun darslik sifatida foydalanilgan. Mutafakkir bu asarlarida o'zining hayotdan olgan saboqlari, tajribalari asosida xalqchillik, insonparvarlik, ijtimoiy hayot, adolat, halollik, sofdillik, poklik, to'g'rilik, rostgo'ylik haqidagi fikrlarini o'qimishli, qiziqarli hikoyatlar, rivoyatlar yordamida bayon etadi. Bu asarlar Koshifiy tili bilan aytganda «Hikmati amaliy» asosida yozilganligidan bugungi kunda ham juda katta tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Husayn Voiz Koshifiy insonni dunyodagi eng yuksak, olijanob mavjudot deb biladi.

Odam nomi yaxshilik bilan eslash tufayli boqiydir,

Hayotlik ayyominging hosili yaxshi nom orttirishdir.

— deydi.

¹ X o n d a m i r. «Xulosat ul-axbor». Navoiy zamondoshlari xotirasida, T., 1986, 70–71-betlar.

² N a v o i y A., «Majolis un-nafois». Asarlar, 12-jild. T., 1966, 123–124-betlar.

Bu Voiz Koshifiy axloqiy ta'limotining yetakchi g'oyasidir. U kulliy axloqiy xislatlarni qoralaydi, ularning inson hayotida va jamiyat uchun katta zarar olib kelishini qator hikoyat va rivoyatlar bilan ko'rsatadi.

Husayn Voiz Koshifiy yaxshilik, yomonlik, adolat, vijdon, burch tushunchalari haqida ham atroflicha fikr yuritadi. Axloq normasi — insonlarning xulq, fe'l-atvorlarini tartibga solib turuvchi axloqiy talablardir. Koshifiy ijobiy xislatlarni kishilarda bo'lishi shart bo'lgan insoniy fazilat deb tushunadi va sabr, hayo, iffat, pokizalik, sobitqadamlik, saxiylik, saxovat, rostgo'ylik, shijoat, kamtarlik, hushyorlik, baland himmatlik, diyonatlilik, ahdig va vafolik, andishalilik, izzat-hurmatni bilish, sir yashira olish kabi fazilatlarini birma-bir ta'riflab o'tadi. Koshifiy axloqli inson deganda, ilm-ma'rifatga intiluvchi, haqiqat va adolatni sevuvchi, adolatsizlikka qarshi kurashuvchi, mard, harakatchan, olijanob, saxiy, ochiq qalb insonni tushungan.

Axloq masalalarini yoritishda, Koshifiyning «Axloqi muhsiniy» asari eng mashhur va muhim ahamiyat kasb etadi. Koshifiy o'z asarlarida siyosat, davlatni boshqarish masalalari bo'yicha ham o'z davri uchun muhim fikrlarni olg'a suradi. U davlatni odilona boshqarishda siyosatdan foydalanish kerakligini alohida ta'kidlaydi:

Jahonda pok suv ichmakka bo'lmas hech kim qodir.

Agar shohlar siyosat tig'in eliga qilmasa zohir.

— deydi.

Siyosat mamlakatni boshqarish uchun zarur, u shaxsiy ish emas, balki ijtimoiy ishdur. Siyosat adolatli bo'lsa, mamlakat, jamiyat rivoj topadi, xalq farovon yashaydi. Siyosatni odil podshohlar adolat bilan boshqarishlari kerak:

Mamlakat tobqoy siyosatdin nizom,

Gar siyosat bo'lmasa yetgay xalal,

Topmag'ay olam ishi aslo tuzut.

Besiyosat hech vaqt-u hech mahal.

Yoki:

«...Adl (adolat — R. M.) siyotsiz mavjud bo'lmas. Siyosat yo'q bo'lsa, sardorlik zaif. Na uchunkim mulk-u millat ziynati, din-u davlati musallahi siyosatdur», deb mamlakat taraqqiyotini, adolat qaror topishini ham Koshifiy siyosatga bog'laydi.

Demak, Husayn Voiz Koshifiy shoir, yozuvchi, olimgina emas, balki dono siyosatchi ham bo'lgan. Uning jamiyat, davlat, tinchlik, ixtiloflarni osoyishtalik bilan hal etish zarurligi to'g'risidagi fikrlari hozir ham o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Voiz Koshifiy Alisher Navoiyning ma'naviy davrasida bo'lgan XV asr Xuroson va Movarounnahr madaniyatining rivojiga katta hissa qo'shgan hamda o'z asarlari bilan so'nggi avlodlarga katta ta'sir ko'rsatgan mashhur allomalardan bo'lib tarixda qoldi. U qomusiy ijodi bilan o'z davri ma'naviy yuksalishi yo'lida faol xizmat qildi va nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun Sharq umuminsoniy, madaniy boyliklarini kuchaytirishga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Koshifiyning «Axloqi muhsiniy» kitobi Sharqda juda mashhur asarlardan biri hisoblangan. Shuning uchun ham bu asar ko'p tillarga tarjima qilingan. Xususan 1858-yilda Xivada Muhammad Rizo Ogahiy tamonidan toshbosma usulda o'zbek tilida bosilgan. 2010-yilda «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti Husayn Voiz Koshifiyning mazkur asarini hozirgi o'quvchiga mo'ljallab o'zbek tilida nashr etdi. O'zbekiston FA Sharqshunoslik instituti xazinasida saqlanayotgan asar qo'lyozmasi Hirot kitobat san'atining shoh asari bo'lganligi uchun ham ushbu nashrda qo'lyozma faksimilesi ham berildi.

KAMOLIDDIN BEHZOD (1455–1537)

Movarounnahr va Xurosonda XV asrdagi Renessans (Uyg'onish davri) vakillaridan biri, Navoiyning shogirdi, «Sharq Rafaeli», ulug' musavvir va miniaturachi Kamoliddin Behzoddir.

Nafaqat musulmon Sharqi xalqlari, balki butun dunyo xalqlari san'ati tarixida sezilarli iz qoldirgan, uning taraqqiyotiga o'zining barakali hissasi-ni qo'shgan zabardast musavvir Kamoliddin Behzod 1455-yilda Hirotida, kambag'al hunarmand oilasida dunyoga kelgan. Behzod ota-onadan juda erta ajraldi. Uni bolaligidayoq Hirotning mashhur musavviri Amir Ruhillo (Mirak Naqqosh) o'z tarbiyasiga olib, tutingan otasi bo'ldi va Kamoliddinga tuz-non berib, kiyim-bosh bilan ta'minlab, har tomonlama ilmi qilib voyaga yetkazdi. Yosh Kamoliddin Mirak Naqqosh tarbiyasi-

da, uning Hirotidagi Nigoristonida (san'at akademiyasida) naqqoshlik va miniaturachilik hunarining sir-asrorlarini o'rgandi.

Behzodning buyuk musavvir, naqqosh va miniaturachi bo'lib yetishuvining muhim omillaridan biri — bu uning XV asrning 2-yarmida mashhur shoir Alisher Navoiyning nazariga tushib, badiiy-g'oyaviy va estetik jihatdan ulug' mutafakkir va homiy dahosidan bahramand bo'lganligidir.

San'at va nafosatga ishtiyoqi nihoyatda kuchli bo'lgan Behzod g'oyatda mehnatsevarligi, zahmatkashligi, o'tkir aql-u zakovati tufayli iste'dodi kundan kunga ortib bordi va tez orada Hirotida mashhur musavvir bo'lib tanildi. Alisher Navoiyning maktabdoshi va do'sti, podshoh Sulton Husayn Boyqaro Behzodni o'z huzuriga — saroyiga jalb qilib, unga saroydan maxsus joy ajratib, ijodiy ishlar bilan shug'ullanishi uchun barcha sharoitlarni muhayyo qilib berdi. 1487-yilda esa Behzod Sulton Husayn Boyqaroning shaxsiy farmoni bilan Hirotidagi saltanat kitobxonasiga boshliq etib tayinlandi.

XV asr oxirlariga kelib, Hirotidagi Temuriylar saltanati avj olib borayotgan toj-u taxt uchun o'zaro jang-u jadallar tufayli asta-sekin yemirila boshlaydi. Bu davrda Behzodning Hirotidagi eng sevimli homiysi — Mavlono Abdurahmon Jomiy (1492-yilda), so'ng ustози Alisher Navoiy (1501-yilda) birin-ketin olamdan o'tadilar. 1506-yilda Hirotidagi Temuriylar sulolasining so'nggi qudratli vakili Sulton Husayn Boyqaro vafot etadi. Shundan keyin shahzodalar Hirot saltanatini halokat yoqasiga olib keladilar. 1507-yilda ko'chmanchi o'zbek qabilalarining xoni Shayboniyxon (Shoybekxon) Hirot taxtini osonlik ila ishg'ol etadi. Bunday beayov to'qnashuvlar, toj-u taxt uchun uzluksiz qonli ur-yiqitlar sharoitida ham Kamoliddin Behzod Hirotida qolib, o'zining ijodiy faoliyatini davom ettiradi. Behzod uch yilcha Hirotida, Shayboniyxon saltanatiga qarashli saroyda ish olib borarkan, Behzod san'ati oldida lol qolgan Shayboniyxon uning ijodiy ishlariga to'sqinlik qilmaydi, aksincha, bu ulug' miniaturachiga ishlashi uchun qulay sharoit yaratib beradi. Behzod Shayboniyxonning tasvirini ayni o'sha yillari chizgan bo'lishi kerak.

1510-yilda Shayboniylar lashkari bilan Erondagi kuchayib borayotgan Safaviylar saltanati lashkari o'rtasida Marv yonidagi Mahmudobod degan joyda shiddatli jang bo'ladi. Jang maydonida Shayboniyxon qo'shinlari tor-mor etilib, 1510-yilda Hirot Safaviylar qaramog'iga o'tadi.



Shoh Ismoil Safaviy 1512-yilda Hirotdagi bir necha iste'dodli san'atkorlarni saltanat poytaxti Tabrizga olib ketadi. Hirotdan Tabrizga olib ketilganlar orasida zabardast san'atkor Kamoliddin Behzod va uning bir guruh iste'dodli shogirdlari ham bor edi. Bu paytga kelib Behzod va uning Hirotdagi musavvirlik maktabining dovrug'i butun Sharqqa tarqalgan edi. Behzodning san'atini yuksak qadrlagan Shoh Ismoil Safaviy ham naqqoshga ijod qilmoq uchun Tabrizda barcha zarur sharoitlarni yaratib beradi. Behzod va uning shogirdlari Tabrizda o'zlarining ijodiy ishlarini samarali ravishda davom ettiradilar. Behzod Tabrizda Hirotdan keyingi nafis tasviriy san'at (miniaturachilik)ning yana bir ulkan maktabini yaratadi. O'sha paytlarda Tabrizda, umuman Eronda ham ichki siyosiy ahvol — yaxshi emas edi. Usmonli turk sultoni Salim I Yovuz Eronga ketma-ket tahdid solib turardi. 1514-yilda Eron va Turkiya qo'shinlari o'rtasida Tabriz yaqinidagi Choldiron degan keng tekislikda qattiq va dahshatli jang bo'lib, bu jangda Safaviylar saltanati mag'lubiyatga uchrab, Shoh Ismoil Safaviy jang maydonidan qochib, zo'rg'a qutulib qoladi. Bir yilcha Tabriz turklar qaramog'ida bo'ladi.

Behzodning sho'rlik boshiga yana og'ir musibatlar tushadi. Tabrizdagi eng e'tiborli san'atkor bo'lganligi uchun Behzodni, boshqa bir atoqli xattot Shoh Mahmud Nishopuriyni turklar o'z yurtiga o'lja qilib olib ketmasliklari uchun podshoh amriga binoan, Tabriz atrofidagi bir g'orga majburan yashirib qo'yadilar. Eronda nashr etilgan «Saromadani hunar» asarida yozilganidek, o'z saroyidagi xazinalar ichidagi eng nodir va noyob gavhar (Behzod)ning turklar qo'lga tushib qolmasligi uchun ishonchli joy (bir ulkan g'or)ga yashirib ketgan Shoh Ismoil Safaviy jangdan yengilib chiqqach, o'z mulozimlaridan biriga bergan ilk savollari quyidagilardan iborat bo'lgan: «Behzod qalay? Uning joni omonmi? Uni, xudoy na-xosta turklar olib ketmadimi?»

1512–1522-yillar Behzod hayotida og'ir va musibatli yillar bo'ldi. Bu yillar orasida u ahyon-ahyon ona yurti Hirotda ham borib-kelib turgan. 1522-yilda Shoh Ismoil Safaviy maxsus farmon chiqarib, Behzodni Tabrizdagi saltanat kitobxonasiga boshliq etib tayinlaydi. 1524-yilda Shoh Ismoil Safaviy vafot etib, uning o'rini o'g'li — yosh shahzoda Taxmasp egallaydi.

1537-yilda (hijriy 942) keksayib qolgan Behzod Hirotda suyuqli ji-yani va shogirdi Rustam Alining o'lim to'shagida yotganligidan xabardor

bo'lib, uni ko'rmoq uchun ona shahri Hirotga otlanadi. Lekin u Rustam Al diydoriga yetisha olmaydi. Behzod Hirotga yetib kelguncha u olamdan o'tgan bo'ladi. Bunday judolikdan qattiq qayg'urgan, keksa mo'y-
nahul Behzodning o'zi ham og'ir xastalanib, 1537-yilda Hirotda olamdan o'tadi. Uni ham Hirot aholisi chuqur iztirob ila, zo'r motam ostida shahar yonidagi Ko'hi Muxtor tog'i yonbag'rida, jiyani va shogirdi Rustam Alining qabri yoniga dafn qiladilar.

Amir Do'st Hoshimiy degan shoir Kamoliddin Behzodning vafot etgan yilini bayon etib, zo'r qayg'u va g'am-g'ussa ila she'riy tarix bitib, mana bunday qayd etgan:

Vahid-ul-asr Behzod on ke chun u
Zi batni modari ayyom kam zod,
Qazo chun suvrati umrash bipardoht
Ajal xoki vujudash dod bar bod.
Zi man uvratgare tarix porsid,
Ba'd u guftam javob az joni noshod:
«Agar xoxe ke torixash bidoni,
Nazar afkan ba «Xoki qabri Behzod»

(Mazmuni: O'z asrining yagonasi bo'lgan Behzod shunday buyuk, benazir zotki, unday kishilar onadan juda kam tug'iladi. Qazo (o'lim) uning umriga xotima yasadi, ajal uning tabarruk tana tuprog'ini yerga topshirdi. Bu suvratlar Behzod vafotining tarixini (yilini) mendan so'radi. Unga g'am-g'ussa bilan shunday javob berdim: «Behzodning vafot etgan yilini bilmog'chi bo'lsang, «Xoki qabri Behzod» jumlasidan abjad hisobi hijriy 942-yil chiqadi. Bu yil milodiy hisobda 1537-yilga to'g'ri keladi).

Demak, Kamoliddin Behzod uzoq va sermahsul hayot yo'lini bosib o'tdi. Husayn Boyqaro, Shayboniyxon, Shoh Ismoil Safaviy, Shoh Taxmasp Safaviylar hukmronlik qilgan turli-tuman, bir-biriga bag'oyat ziddiyatli to'rt saltanatning guvohi bo'ldi, Temuriylar sulolasi poytaxti Hirot va Safaviylar poytaxti Tabrizda yashab, o'z davrining barcha azob-uqubatlarini o'z ko'zi bilan ko'rdi, mushohada qildi, o'z atrofini o'rab turgan ijtimoiy borliqdan olgan o'ta boy va rang-barang taassurotlarini, ichki kechinmalarini, latif va nozik kayfiyatlarini o'zining sermahsul va go'zal ijodida zo'r mahorat bilan tasvirladi.

Behzod miniatura san'ati tarixida maxsus maktab — «Behzod maktabini» yaratdi. U real hayot hodisalari va tabiatni tasvirlash uslubi, bo'yoqlardan foydalanish vositalari, rasmga olinayotgan voqealarni nozik chiziqlarda ifodalash yo'llari, inson kayfiyati va harakatini aks ettira bilishdagi ustaligi, rasm kompozitsiyasining kengligi, turli-tuman hodisalarni qamrab olabilishi, ajoyib estetik zavq uyg'otishi bilan miniatura san'atini yangi bosqichga ko'tardi, uning tarixida yangi davr yaratdi. Behzod miniaturalari uning tirikligidayoq va ayniqsa, undan so'ng musulmon Sharqida va G'arbda ham bu san'atning eng oliy yutug'i deb tan olindi hamda eng qimmatli san'at asarlari sifatida mashhur bo'lib ketdi.

Behzodning ijodiy merosini o'rganuvchi mutaxassislar fikricha, uning hozirgacha ma'lum bo'lgan asarlari taxminan o'ttizta rasm va rasmlar turkumidan iborat, ulardan eng mashhurlari quyidagilardir:

1. Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma»siga ishlangan miniaturalar.
2. Husayn Boyqaroning majlislari tasvirlangan muraqqadagi 40 dan ortiq go'zal miniatura.
3. Abdurahmon Jomiyning «Salomon va Ibsol» asariga ishlangan rasmlar.
4. Amir Xusrav Dehlaviyning «Xamsa»siga ishlangan 33 ta ajoyib miniatura.
5. Sa'diyning «Bo'ston» asariga ishlangan go'zal rasmlar.
6. Nizomiy Ganjaviyning «Xamsa» asariga chizilgan noyob va benazir miniaturalar.
7. Abdulloh Xotifiyning «Temurnoma» asariga chizilgan rasmlar.
8. Sa'diyning «Guliston» asariga ishlangan nafis miniaturalar.
9. Abdurahmon Jomiy tasviri.
10. Husayn Boyqaro tasviri.
11. Shayboniyxon tasviri.
12. Shoh Taxmasp tasviri.
13. Shoir Abdulloh Xotifiy tasviri.
14. Tuyalar jangi.
15. Raqsi darvish (darvishlar raqsi).
16. Samarqandda madrasa qurilishi va hokozolar.

Behzod o'ta saxiy va mehribon ustod sifatida juda ko'p atoqli miniaturachi, musavvir va naqqoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazdi.

XV–XVI va undan so'nggi asrlarda Kamoliddin Behzod shogirdlarini Hirotda, Tabrizda, Buxoroda, Samarqandda, Sherozda, Isfahonda,

Istanbulda, Hindistonda, shuningdek, ulkan Sharqning boshqa jufta ko'p-
lab shaharlarida uchratish mumkin edi. Sulton Muhammad Qosim Ali
Chabrakushoy, Darvish Muhammad, Ustod Muhammadiy, Muzaffar Ali,
Yusuf Mullo, Rustam Ali, Shayxzoda Xurosoniy, Shoh Muzaffar, Mir
Said Ali, Mahmud Muzahhib, Abdullo kabi o'ndan ziyod atoqli mu-
savvirilar Behzod maktabini, uning uslubini o'z zamonalari taqozolariga
binoan zo'r muvaffaqiyat bilan davom ettirganlar.

Behzod maktabining hozirgi zamondagi davomchilarini Afg'onistonda
(Ustod Muhammad Said Mash'al), Eronda (Karim Tohirzoda Beh-
zod), O'zbekistonda (marhum Ustod Chingiz Ahmarov) va boshqa
Sharq o'lkalarida ham ko'rish mumkin. Hozirda Sharq va Ovro'po
mamlakatlarida san'at, rassomchilik tarixini o'rganishda miniatura chizish
tarixi, xususan, Behzod miniatura maktabi alohida o'rganiladi va tadqiq
etiladi hamda maxsus maktablarda o'qitiladi.

Behzodning musavvirlik mahorati va maktabi Temuriylar davri ma-
daniyati tarixiga bag'ishlangan barcha tadqiqotlarda o'z davri san'atining
ajoyib yutug'i sifatida alohida ta'kidlab o'tiladi.

Behzod nafaqat Sharq xalqlari musavvirchiligi tarixida, balki jahon
rasm san'ati tarixida o'chmas iz qoldirgan, o'zining ajoyib va qim-
natbaho miniatura durdonalari bilan butun dunyo madaniyati tarixida
salmoqli o'rin olgan buyuk va zabardast san'atkordir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan, 2000-
yilda Kamoliddin Behzodning 545 yillik tavallud kuni keng nishonlandi.

NIZOMIDDIN SHOMIY (XIV asr — XV asrning boshi)

Markaziy Osiyoning XIV—XV asr, ya'ni Amir Temur va Temu-
riylar davrida yashab ijod etgan mohir tarixnavis, yozma yodgorliklarning
eng dastlabkilaridan biri — Amir Temur topshirig'i bilan yozilgan «Za-
farnoma» asarining muallifi Nizomiddin Shomiydir.

Nizomiddin Shomiy hayoti va ijodi haqida o'z asarlaridan ba'zi bir
kichik-kichik lavhalardan tashqari o'rta asrlar yoki hozirgi zamon manba-
larida ma'lumotlar juda kam. Tug'ilgan yili noma'lum. Uning Shomiy
yoki Shanbi G'ozoniy nisbasi asosida, u aslida Tabriz chekkasidagi Shanli

G'ozon deb atalgan mavzedan bo'lgan, deb taxmin qilinadi. Mavlono Nizomiddin 1398-yilning avgust oyida Amir Temur askarlari Bag'dod shahrini zabt etganliklari haqidagi voqealarni qalamga olar ekan, o'zi birinchi bo'lib shahardan chiqqanligi, hazrat Sohibqiron bilan uchrashib, suhbatida bo'lganligini eslatib o'tadi («Zafarnoma», Tauer nashri, 1-jild, Bayrut, 1937-y., 139-bet.). Demak, u 1398-yili Bag'dodda yashagan va uning Amir Temur bilan birinchi uchrashuvi ana shu yili sodir bo'lgan. Amir Temur bilan ikkinchi uchrashuvi esa «Zafarnoma»ning 1400-yil voqealari bayonida uchraydi. O'sha yili oktabr oyida Amir Temur Shom (Suriya) chegarasida joylashgan Halab shahrini qamal qilgan. Muallifning yozishicha u o'sha vaqtda Hijoz safariga ketayotgan ekan, shahar muhofazachilari undan shubhalanib to'xtatganlar va qal'a ro'baro'sidagi bir binoga qamab qo'yanlar. Bu yerdan u qal'aning zabt etilishini o'z ko'zi bilan ko'rgan (o'sha joy, 227-bet). Shu davr muarrixlaridan bo'lgan Hofizi Abruning yozishicha, jangdan so'ng Jalol us-Isлом nomli bir amir Nizomiddin Shomiyini Amir Temur huzuriga olib kelgan, hazrat Sohibqiron unga iltifotlar ko'rgazib, yaxshi qabul qilgan («Zafarnoma», Tauer nashri, 2-jild, Praga, 1956-y. 160-bet).

Jumladan, Hofizi Abru yana 1412-yil voqealarini bayon etar ekan, Nizomiddin Shomiyini marhum sifatida tilga oladi (o'sha joy, 14-bet).

«Zafarnoma»ning yozilish tarixi haqida shuni ta'kidlash lozimki, Mavlono Shomiyning o'zi bergan ma'lumotga ko'ra, hijriy 804-yili (1401-yil 11-avgustdan 1402-yil 1-avgust oralig'i) Amir Temur uni huzuriga chorlab, o'z yurishlari bitilgan yirik bir asar yaratishga undagan. Sohibqiron o'sha davrga qadar munshiy va kotiblari tarafidan tuzilgan bitiklar uni qoniqtirmaganligini aytgan. Yozilajak asar bir tomondan, avom xalqqa tushunarli, sodda, ravon tilda va ayni paytda ma'rifatli kishilar e'tiboriga ham loyiq tarzda yozilishini uqtirgan. Mavlono Nizomiddin bu mas'uliyatni o'z bo'yniga olgan («Zafarnoma», 1-jild, 10–11-betlar).

Tabiiyki, bu uchrashuvdan so'ng Nizomiddin Shomiy saroy tarixchisi sifatida Amir Temurning keyingi barcha yurishlarida unga hamrohlik qilgan. 806-yil muharram oyida (1403, iyul–avgust) Gruziyadagi Birtis qal'asi zabt etilishini yozar ekan, Nizomiddin Shomiy bu voqeani o'zi kuzatganligini aytadi. Shomiy yurishlardan birida iydi ramazon munosabati bilan yig'ilgan jamoaga va'z aytib, so'ng iyd namozida peshnamozlik qilgan. Bu voqeani mashhur tarixnafis Sharafiddin Ali Yazdiy shunday

Yozgan: «Shu yil ramazon iymini (806/1404) hazrat Sohibqiron Dun O'g'liq yoqasida kutdi. Zamonaning balog'atli fuzalolaridan bo'lgan hazrat Sohibqironning ezguliklari va faxrli ishlaridan bir qanchasini mayon qalami bilan ifodalagan Mavlono Nizomiddin Shanbiy iyd xutba- bitlik qiroatiga va namoziga kirishdi» (Yazdiy, «Zafarnoma», Toshkent, 1972, 449-bet).

Taxminan, shu vaqtda, yoxud bir necha hafta keyin Mavlono Nizomiddin Sohibqiron yurishlarini 1404-yil bahorigacha yetkazib, asarini muhurlagan va uni Ozarbayjondan Samarqandga qaytish taraddudida bo'lgan Amir Temurga taqdim etgan (Bundan keyingi, Amir Temur vafotigacha (fevral, 1405) kechgan voqealar, keyinroq Hofizi Abru tomonidan «Zayl» — (Ilova) tarzida yozilgan.

Nizomiddin Shomiy «Zafarnoma» asarini yozish uchun qanday manbalardan foydalanganligi xususida, afsuski, na o'zining va na zamondoshlari tomonida uchraydi. Lekin «Zafarnoma» asarini tadqiq etish natijasida Shomiy quyidagi manbalardan foydalanganligini taxmin qilish mumkin:

a) Amir Temurning kotiblari nazm, nasrda forsiy, turkiy tillarida yozgan kundaliklar va bitiklar. Bular Nizomiddin Shomiy va undan keyingi mualliflar davrida mavjud bo'lgan bo'lsa ham, bizning davrlarga yetib kelmagan yoki hali topilganicha yo'q;

b) muallifning o'zi keyingi 2–3 yil davomida Amir Temur yurishlari haqida to'ldirilgan bo'lgan va yozib olgan voqealar;

d) Amir Temurning Hindistonga yurishi bilan bog'liq voqealar bilan bog'liq etilgan G'iyosiddin Alining «Amir Temurning Hindistonga yurish haqidagi undaligi» asari.

«Zafarnoma» tarixiy asar sifatida XIV–XV asrlarda Amir Temur va Temuriylar hukmronligi davridagi Markaziy Osiyo, Oltin O'rda xonligi, Ozarbayjon, Eron, Afg'oniston, Iroq, Suriya, Misr, Turkiya va boshqa mamlakatlar tarixiga oid voqealarni o'z ichiga olgan. Asar muhaddimasida Amir Temur tarix sahnasiga chiqqan 1360-yilga qadar Markaziy Osiyoda hukmronlik qilgan chingiziy hukmdorlar haqida qisqacha ma'lumot berilgan. So'ngra Amir Temurning XIV asrning 2-armi va XV asrning boshida qilgan yurishlarining batafsil bayoni keltirilgan. Asar 1404-yil mart oyida Amir Temurning Ozarbayjonda Arron Jarobog'ida turganligining bayoni bilan yakunlanib, uning vafotigacha, a'ni, bir yilcha vaqt ichida sodir bo'lgan voqealar yoritilmay qolgan.

Nizomiddin Shomiy asarida keltirilgan voqealar silsilasi keyingi tarixnavislar tomonidan davom ettirilgan. Jumladan, Temuriylardan Shohrux Mirzoning tarixnavisi Hofizi Abru «Majmua» («To‘plam») asarini yozgan, Shomiyning «Zafarnoma»sidan ham foydalangan va voqealarini masini Shohrux Mirzo hukmronlik qilib turgan 1420-yilgacha davom ettirgan. Keyinroq, 1423-yili Shohrux Mirzoning o‘g‘li Boysung‘ur Mirzo (vafoti — 1433) farmoni bilan Hofizi Abru to‘rt jildidan iborat «Majmua ut-tavorixi sultoniya» («Sultonga atalgan tarixlar yig‘indisi») dastlabki atalgan asarni yozishga kirishgan va uni 1427-yil voqealarining bayoni bilan tugatgan.

Nizomiddin Shomiyning «Zafarnoma» asari o‘zida jamlangan tarixiy ma‘lumotlarning ishonchliliigi bilan XV—XVI asrlardanoq boshqa asarlar uchun bosh manbalardan biri bo‘lib xizmat qilgan. Sharafiddin Ali Yuldiyning «Zafarnoma», Abdurazzoq Samarqandiyning «Matla‘i sa‘dayn majma‘i bahrayn» («Ikki saodatli yulduzning chiqishi va ikki dengizning qo‘shilish joyi»), Fasih Havofiyning «Mujmali Fasihiy», Muhammad Fazlulloh Musaviyning «Tarixi hayrot», Xotifiyning nazmda bitilgan «Temurnoma», Mirxondning «Ravzat us-safo» («Poklik bog‘i»), Xondamirning «Habib us-siyar» («Yaxshi xislatlar») va boshqa bir qator asarlar shular jumlasidandir. Ularning har birida ilgarigi asarlardagi voqealar har xil tahrirlarda qaytarilishi bilan birga boshqalarida uchramaydigan voqealar tafsiloti ham mavjud.

Shomiy «Zafarnoma»sining faqat ikki qo‘lyozma nusxasigina saqlanib qolgan. Birinchisi, Amir Temurga taqdim etilgan qo‘lyozmadan 1425-yilda ko‘chirilgan nusxasi bo‘lib, u Istanbuldagi «Nuri Usmoniy» masjidi kutubxonasida, 3367-inventar raqami ostida mavjud. Ikkinchisi, muallif Amir Temurning nabirasi Mirzo Umar bahodir ibn Mironshoh (vafoti — 1409)ga taqdim etgan qo‘lyozmadan 1434-yili ko‘chirilgan nusxa bo‘lib, u Londondagi Britaniya muzeyi kutubxonasida, 23980-inventar raqami bilan saqlanadi.

Taniqli matnshunos olim Feliks Tauer mazkur qo‘lyozmalar noqis bo‘lganligi sababli, ularni Hofizi Abruning «Zubdat ut-tavorix» asari bilan solishtirib tadqiq etish asosida «Zafarnoma»ning ikki jildidan iborat ilmiy-tanqidiy matnini nashr ettirgan. Birinchi jildiga faqat «Zafarnoma» ilmiy-tanqidiy matni kiritilgan. Ikkinchi jildida esa nashrning so‘zboshisi, qo‘shimchalar, nusxalardagi farqlar berilgan.

Asar keyingi vaqtlarda Sharq va G'arb olimlari tomonidan o'rganilib, melan qisqartirilgan tarjimalar amalga oshirilgan. Jumladan, 1949-yili An-janada Nejeti Lug'ol degan olim F. Tauerning nashri asosida qisqar-rib, turk tiliga tarjima qilgan. Undan tashqari, sharqshunoslikka oid bir-echa kitoblarda bu asardan terma tarjimalar e'lon qilindi. Bu tarjimalar o'liq bo'lmasa-da, noyob bo'lib qolgan. Shuni nazarga olgan holda DZR FA Abu Rayhon Beruniy nomli Sharqshunoslik institutida «Za-faroma»ning o'zbek tiliga to'liq ilmiy-izohli tarjimasi Hofizi Abru «Ilo-mosi bilan birga nashrga tayyorlandi. Unga institutning sobiq ilmiy xo-limi, marhum Yunusxon Hakimjonovning F. Tauer nashri bo'yicha qi-nagan dastlabki qoralama tarjimasi asos qilib olingan.

SHARAFIDDIN ALI YAZDIY

(Vafoti 1454-yil)

Sharafiddin Ali Yazdiy Markaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarining XIV va XV asr boshlaridagi tarixidan bahs yurituvchi nashhur «Zafaroma» asarining muallifi sifatida tarix zarvaraqlarida man-gu muhrlangan muarrixlardan bo'lib, uning hayoti va faoliyati asosan XV srning 1-yarmiga to'g'ri keladi.

Sharafiddin Ali Yazdiy Eronning Yazd shahriga qarashli Taft mav-esida (Taft-i-Yazd deb ham atalgan), taxminan XIV asrning oxirgi horagida tug'ilgan. Uning tarjimai holi haqidagi ma'lumotlar o'z asarlari a zamondoshlarining asarlarida keltirilgan dalillardan iborat. Uning otasi - Shayx Hoji o'z davrining yirik olimlaridan sanalib, tariqat ahli - o'fiylar bilan hamfikir bo'lgan. Manbalarda aytilishicha, Sharafiddin Ali am yoshligida Yazd so'fiylari bilan yaqin aloqada bo'lgan.

Sharafiddin Ali Yazdiyning bundan keyingi faoliyati haqidagi ma'-lumotlar, uning Sherozda Temuriylar saroyida xizmatda bo'lganligi bilan bog'liq. Shohruxning o'g'li Mirzo Ibrohim Sulton 1414-yili otasi to-monidan Eronning Fors viloyatiga (markazi Sheroz) hokim qilib tayin-lanadi. 1435-yilgacha Sharafiddin Ali ana shu shahzodaning saroyida xizmat qiladi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, Sharafiddin Alidan qolgan ilmiy-adabiy meros, adabiyot va til uslubi, she'riyat nazariyasi, ilmi nujun,

falsafa, tasavvufning nazariy masalalari bo'yicha yozilgan asarlardir. «Sharaf» taxallusi bilan she'rlar yozganligi ham ma'lum.

Yazdiyning 1446-yili Hirotga kelgani, bu yerdan Samarqandga Ulug'bek xuzuriga borganligini ham taxmin qilish mumkin bo'lsa-da biroq bu uzoq vaqt davom etgan emas. Aftidan, Shohrux vafotida (1447) keyin tez orada Sharafiddin Ali o'z vatani Taftga qaytib kelad va bu yerda xonaqohga joylashib, umrining oxirigacha shunday yashaydi U hijriy 858 (1454)-yili vafot etadi, shu xonaqohga dafn etiladi.

Sharafiddin Ali Yazdiy qalamiga mansub ilmi nujum, she'riyat va tariqat nazariyasiga oid bir qancha asarlar borki, ularni birma-bir sanal o'tishni lozim topdik:

1. «Hulal-i mutarraz dar muammo va lug'az» («Muammo va to pishmoqlar borasida bezakli joma»).

2. «Muntaxib-i Hulal» (Mazkur asarning qisqartirilgan bayoni).

3. «Mavotin yo manozir dar muammo» («Muammo fanida turarjoy va manzaralar»).

4. «Qunh uz-zod dar ilm-i vaqf-i a'dod» («Adadlar muvofiqligi il mida haqiqat cho'qqisi»).

5. «Al-Kitob fi ilm-i usturlob» («Usturlob ilmi bo'yicha kitob»).

6. «Devon-i Sharaf-i Yazdiy» («Sharafi Yazdiyning she'rlar to'plami»).

7. «Haqoyiq at-tahlil» («Tahlil, ya'ni «Lo iloha illa-l-loh»ning haqi qatlari»).

8. «Sharh-i «Qasida-i burda» («Qasida-i burda»ning sharhi»).

9. «Sharh-i «Asamo-i Alloh» («Alloh ismlari»ning sharhi»).

10. «Tuhfat ul-faqir va hadyat ul-haqir» («Faqirning tuhfas-yu ha qirning hadyasi»).

11. «Munshaot» («Xatlar to'plami»).

12. Maxsus nomga ega bo'lmagan, ammo Amir Temurning tarix she'riy bayon etilgan asar.

Ushbu asar nomlaridan qo'rinib turibdiki, Sharafiddin Ali Yazdiy o'z davrining anchagina bilimlari bo'yicha ozmi-ko'pmi ma'lumotga ega bo'lgan. Shuning uchun ham u Temuriy shahzodalar saroyida xizmatga takli etilib, zamondoshlari orasida ma'lum darajada shuhrat qozongan. Uning tarixnavislik fani namoyandalari qatoridan o'rin egallashiga sabab bo'lgan «Zarafnoma» asarining bitilish tarixi ham muallifning o'z davrining yetakchi muarrixlaridan biri bo'lganligini ko'rsatib turibdi.



«Zarafnoma» asari — «Fathnomayi sohibqiron», «Tarixi jahonkushoyi Temuriy» degan nomlar bilan ham ataladi, lekin tarix fanida u ko'proq «Zafarnoma» nomi bilan mashhur. Asar tuzilishi jihatidan ikki qismga: Amir Temurdan oldingi davr tarixidan umumiy tarzda so'zlovchi «Muqaddima» va bevosita Amir Temur davri tarixini yorituvchi asosiy qismga bo'linadi. Har bir qism uchun alohida-alohida yozilgan, ko'p jihatdan mushtaraklikka ega bo'lgan so'zboshilarda muallif mazkur qismlarning yozilish tarixini yoritib beradi. U har ikki qism ham Shohruxning o'g'li Ibrohim Sultonning tashabbusi bilan yozildi, deb ko'rsatadi.

Muallifning ta'kidlashicha, Ibrohim Sulton o'z bobosi Amir Temur haqida maxsus kitob yozilishini niyat qilgan va hijriy 822 (1419—20)-yilda o'z vaqtida baxshiy va munshiylar tomonidan Amir Temur haqida turkiy, forsiy tillarda yozib qoldirilgan mavjud ma'lumotlarni yig'ib keltirish haqida farmon chiqargan. Bu ish amalga oshgandan so'ng mazkur ma'lumot-hujjatlarni o'rganishga kirishilgan.

«Muqaddima»da bu hol quyidagicha bayon etilgan: «To'planilgan ma'lumotlar voqealarni o'z ko'zi bilan ko'rgan kishilar hikoyasi bilan taqqoslab bo'lingach, bu ma'lumotlar bilan Sharafiddin Ali tanishib chiqib, Ibrohim Sultonga axborot berishi lozim bo'lgan. Ibrohim Sulton ma'qullagandan keyin esa Yazdiy «Muqaddima»ni tuzishga kirishgan».

Amir Temur davridan bahs etuvchi qism — «Zafarnoma»ning bosh so'zboshidan quyidagilarni bilib olamiz: «Podshohlkning barcha tomonlaridan Temur haqidagi turkiy va forsiy tillarda bayon qilingan hikoyalarning hamma she'riy va nasriy nusxalari to'planib bo'lingach, ma'lumotlar bilan tanishish uchun uchta guruh tuzilgan. Turkiy va forsiy tillarning bilimdonlari ikki guruhni, voqealarni o'z ko'zi bilan ko'rganlar esa bir guruhni tashkil etganlar. Dastlab Temur haqidagi har bir hikoya o'qilgan, agar uning mazmuni voqealarni o'z ko'zi bilan ko'rgan kishining talqiniga to'g'ri kelmay qolsa, Ibrohim Sulton haqiqatni tiklash uchun turli shaharlarga choparlar yuborib, mazkur voqeani Amir Temurning yana boshqa zamondoshlaridan surishtirgan yoki qo'shimcha ma'lumotlar to'plangan. Ana shu qo'shimcha guvohlar hikoyatlarini ham tinglagach, Ibrohim Sulton aytib turgan va kotiblar yozib borgan. Shu tarzda asarning dastlabki xomaki nusxasi tuzib chiqilgan. So'ng ana shu xomaki nusxa asosida Sharafiddin Ali Yazdiy «Zafarnoma» asarini yozgan. Ibrohim Sultonning qat'iy buyrug'iga asosan kitobni yozish vaqtida

sanalar, joy nomlari, ular orasidagi masofa o'lchovlari haqidagi barcha ma'lumotlar juda sinchiklab tekshirilishi lozim bo'lgan. Sharafiddin Ali Yazdiydan esa asarni jonli til bilan tushunarli qilib yozish talab etilgan va shuningdek, hujjatlarga qat'iy rioya qilishi, Ibrohim Sultonning bevosita shaxsiy nazorati ostida tuzilgan dastlabki xomaki yozuvdan aslo chetga chiqmasligi hamda hech narsani bo'yab ko'rsatmasligi shart qilib qo'yilgan».

«Zafarnoma» asarini o'qir ekanmiz, Sharafiddin Ali Yazdiy daliliiy ma'lumotlarni keltirish borasida haqiqatan ham Ibrohim Sulton qo'yan shartlarga rioya qilganligini ko'ramiz. Biroq bu shartni asarning til uslubi, ayrim shaxslarning sifatlarini haddan ziyod tavsiflash hollariga nisbatan rioya qilingan deb bo'lmaydi. Asar til uslubi jihatidan fors tilining o'sha XV asr adabiy uslubini mukammal bilgan savodxon uchun mo'ljallangan, hatto uni o'z davri uchun tarixiy voqealar asosida yozilgan badiiy asar sifatida ham qabul qilish mumkin.

Asarning «Muqaddima» qismini Sharafiddin Ali Yazdiyning o'zi «Tarixi jahongir» deb nomlagan, lekin fanda «Muqaddima» nomi bilan mashhur va «Zafarnoma»ning ajralmas qismi hisoblanadi. Shu bilan birga, hajmi katta bo'lganligi tufayli bo'lsa kerak, qo'lyozma nusxalari alohida mustaqil asar sifatida ham tarqalgan. U so'zboshi, ikki fasl va xotimadan iborat.

«Muqaddima»dan ko'zda tutilgan maqsad Amir Temur shajarasini bayon etish va uning o'zidan oldin o'tgan hukmdorlardan davlat arbobi va lashkarboshi sifatidagi ustunligini isbotlab berishdan iboratdir. Shu munosabat bilan muallif turkiy qabilalarning kelib chiqish tarixi va Chingizxonning to'rt ulus tarixini, XIV asr 1-yarmida Markaziy Osiyo va unga qo'shni mamlakatlardagi siyosiy vaziyatni bayon etadi, tarqoqlik va o'zaro urushlarning kuchayishini va bu hol Movarounnahrda markazlashgan davlat tuzgan Amir Temurning tarix maydonida paydo bo'lishiga bir qadar shart-sharoit yaratilganligini ko'rsatib beradi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma»ga Amir Temur davri tarixidan tashqari, undan oldingi asrlardagi tarixni ham (garchi umumiy tarzda bo'lsa ham) kiritishi tasodifiy emas.

«Zafarnoma» asarining asosiy qismi esa muallifning dastlabki rejasiga ko'ra, uchta maqoladan iborat bo'lmog'i lozim bo'lgan. Birinchi maqola Amir Temurga, ikkinchisi, uning o'g'li Shohruxga va uchinchisi, Shoh-

runing o'g'li va Sharafiddin Ali Yazdiyning homiysi Ibrohim Sultonga taqdim etilishi ko'zda tutilgan. Binobarin, «Zafarnoma» asari faqat Amir Temurnigina emas, balki Temuriy shahzodalar Shohrux (1405–1447) va Ibrohim Sulton (1414–1435)lar hukmronlik davri tarixini ham yoritishi kerak bo'lgan. Biroq «Zafarnoma»ning hozirda, fanda ma'lum bo'lgan qo'lyozma nusxalarida keyingi ikki maqola yo'q, ular yozilmagan yoki bizgacha yetib kelmagan.

Sharq tarixnavisligining eng nodir yodgorliklaridan biri va Amir Temur davri tarixining birlamchi manbalaridan bo'lgan «Zafarnoma» uzoq vaqtdan buyon sharqshunos tadqiqotchilar diqqatini o'ziga jalb etib kelmoqda. Daliliy ma'lumotlarning to'liqligi hamda ishonchliligi tufayli u o'sha davr manbalari orasida hanuzgacha muhim o'rin egallaydi.

XV va XVI asrlarda «Zafarnoma» qahramonlik qissasi janrida ikki marta she'riy yo'l bilan o'zbek tilida Lutfiy, fors tilida Abdurahmon Jonnuyning jiyani Xotifiy (vafoti – 1521) tomonidan kuylangan edi. XVI asr boshlarida Shayboniylarning dastlabki vakillaridan Kuchkunchixon (1510–1530) topshirig'iga muvofiq Muhammad Ali ibn Darvesh Ali Buxoriy tomonidan «Zafarnoma» o'zbek tiliga tarjima qilingan. Adabiyotlarda Hofiz Muhammad ibn Ahmad al-Ajamiy tomonidan asarning turk tiliga tarjima qilinganligi haqida ham ma'lumot bor. Bulardan tashqari «Zafarnoma» 1822–1823-yillarda Xivada Xudoyberdi ibn Qo'shmuhammad So'fi al-Xivaqiy tomonidan o'zbek tiliga qisqartirib tarjima qilinganligi ham ma'lum.

XVIII asrdan boshlab «Zafarnoma»ning ayrim qismlari fransuz (Peti de la Kroa, 1713), ingliz (J. Darbi, 1723) va rus tiliga ham tarjima qilingan. Asarning forscha matni esa 1887–88-yillarda Kalkuttada (Hindiston), 1958-yili Tehronda (Eron) chop etilgan. Biroq bu nashr-larda asarning «Muqaddima» qismi hamda zaruriy ko'rsatkichlar berilmagan. 1972-yili Toshkentda asarning har ikki qismini qamragan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutida saqlanayotgan 4472-raqamli qo'lyozmaning faksimil nashri amalga oshirildi. Bunda tarixiy manbalar ilmiy nashri uchun zaruriy bo'lgan so'zboshi va turli ko'rsatkichlar bilan birga asar matnining har xil nusxalari va nashrlari orasidagi farqlar ham qayd etildi.

Keyingi yillarda Sharqshunoslik institutida «Zafarnoma»ni hozirgi o'zbek tilida ilmiy izohli tarjimasini nashrga tayyorlandi va chop etildi.

ABDURAZZOQ SAMARQANDIY

(1413–1482)

Abdurazzoq Samarqandiy hijriy 12-sha'bon, 816 (milodiy 7-noyabr 1413)-yili Temuriylar davlatining Hirot shahrida tug'ildi. Uning to'liq ismi Kamoliddin Abdurazzoq, otasining ismi Jaloliddin Is'hoq Samarqandiydir. Abdurazzoq Hirotida tug'ilganligiga qaramay «Samarqandiy» degan nisba bilan shuhrat topganligiga sabab, otasi Jaloliddin Is'hoqning asli samarqandlik bo'lganligi va yana bo'lajak tarixnavisning o'zi ham bir necha muddat Samarqandda yashaganligidir.

Abdurazzoq Samarqandiy dastlabki ta'limni Hirotning o'zida olgan. Keyinchalik Hirotidagi Temuriylar saroyida qozilik va imomlik lavozimida bo'lgan otasi va o'z davrining ziyolilaridan bo'lgan akalari Abdulg'affor, Abdulqahhor, Abdulvahhoblar ko'magida tafsir, hadis, fiqh, tarix va til-adabiyot fanlari bo'yicha chuqur ma'lumot egasi bo'lib yetishgan. Atoqli adib Alisher Navoiy «Majolis un-nafois» asarida Abdurazzoq Samarqandiyning mazkur ilmlar bo'yicha yaxshi bilimga ega ekanligini quyidagi so'zlar bilan tasdiqlaydi: «Mavlono Abdurazzoq... xushmuhovara kishi erdi... zohir ulumin takmil qilib erdi va fazliyoti ham yaxshi erdi...»

Otasining saroydagi tutgan mavqeyiga ko'ra taxmin qilish mumkinki, Abdurazzoq Samarqandiy ham davlat ishlari bilan yaqindan tanish bo'lgan. Uning yaxshi tahsil ko'rganligi, bu boradagi iqtidori balandligi tufayli otasi vafotidan so'ng, 1437/38-yili, 24 yoshida Temuriylar saroyiga xizmatga olinishi bejiz emas. Shundan so'ng, to 50 yoshiga qadar, avval Shohrux, keyin Hirot taxtini egallagan boshqa Temuriy hukmdorlar — Mirzo Abulqosim Bobur (1452–1457), Sulton Abu Sa'id (1451–1469) va taxtga o'tirgan boshqa shahzodalar saroyida davlat ishlari bilan band bo'ladi. Uning zamondoshi Abdulvose an-Nizomiyning yozishicha, Abdurazzoq «xoqoni sa'id (ya'ni Shohrux)ning davlati zamonida uzoq muddatlar shuhratli ishlarni bajarishni bo'yniga olgan, ba'zi sohibdavlat shahzodalarning xizmatida sadoratlik oliy mansabiga yetishgan, ba'zi boshqalarning mulozimati esa noiblik va xoslikka erishgan».

Biroq Abdurazzoqning o'zi asarlarida mazkur sadoratlik lavozimlarini eslatmasa-da, tarixiy voqealar sirasidan uning Temuriylar davlati xorijiy diplomatik munosabatlarni olib borishda muhim rol o'ynaganligi anglashiladi.

XV asrning 1-yarmida Temuriylar davlati bilan Rum (Kichik Osiyo), Misr, Hindiston, Xitoy va boshqa mamlakatlar orasida diplomatik aloqalar yo'lga qo'yilgan edi. Bu aloqalarning amalga oshirilishida Abdurazzoq Samarqandiyning ham faol ishtirok etganligiga, uning o'z elchilik safarlari haqida keltirgan axborotlari yaqqol dalil bo'loladi. Chunonchi «Matla'i sa'dayn»ga kiritilgan «Hindiston safari dostoni va u yerning «joyib-g'aroyibotlari» deb nomlangan o'z safar esdaliklarida Abdurazzoq Samarqandiy 1442-yili Shohrux tomonidan Janubiy Hindistonga yuborilgan elchilarga boshchilik qilganligini yozadi. Elchilar 1442-yili 13-yanvarda Hirotidan yo'lga chiqib, Sharqi-Janubiy Eron, Arabiston, Ho'rmuz bandargohi, Maskat, Arabiston dengizi orqali 1442-yil 17-oktabrida Kalkuttaga yetadilar va bu shaharda besh oy, Vijayanagarda esa 1443-yil oxirigacha turib, so'ng orqaga qaytadilar. Qaytishda yana dengiz yo'li bilan Ho'rmuzga, u yerdan 1444-yil dekabr oyida Hirotga yetib keladilar.

Shu kabi «Matla'i sa'dayn»da Abdurazzoq Samarqandiyning Shohrux Gilonga va boshqa yerlarga elchilikka yuborganligi eslatiladi. Abdurazzoq oxirgi marta Misrga elchilikka yuborilayotgan paytida Shohrux vafot etadi va shu bois elchilik amalga oshmaydi. Shu kabi diplomatik aloqalarda Abdurazzoq keyingi Temuriy hukmdorlar Abulqosim Bobur, Sulton Abu Sa'idlar davrida ham faol ishtirok etganligi, uning o'z so'zlaridan ma'lum.

1463-yilga kelib esa Abdurazzoq Samarqandiyning o'z iltimosiga binoan uni davlat ishlaridan ozod etdilar va Hirotidagi Shohruxiya xonaqohiga shayxlik vazifasiga tayinlaydilar. Hijriy 887-yil jumod al-avval (1482-yil, iyul—avgust) oyida shu shaharda olamdan o'tadi.

Abdurazzoq Samarqandiy she'r, arab tili grammatikasiga oid risola yozganligi ma'lum bo'lsa-da, lekin uning bizgacha yetib kelgan yagona tarixiy asari — «Matla'i sa'dayn va majma'i bahrayn» («Ikki saodatli yulduzning chiqishi va ikki dengizning qo'shilish joyi»)dir. Asar fors tilida yozilgan bo'lib, ikki jildni tashkil etadi.

Asarni Abdurazzoq Samarqandiy, asosan, 1467—1469-yillar orasida yozib tamomlagan va 1470-yili yana davom ettirib, shu yilning safar oyida tugallagan.

«Matla'i sa'dayn»ning birinchi jildida qisqa tarzda Chingizxon avlodidan bo'lgan Eron hukmdori Abu Sa'id (1316—1335) haqida so'zlagach, so'ng sohibqiron Amir Temur tarixi boshlanadi va umuman 1304-

yildan 1405-yilgacha Markaziy Osiyo, Afg'oniston, Eron, Ozarbayjon qisman Hindiston va boshqa mamlakatlar tarixiga oid ma'lumotlar keltiriladi. Tarixiy voqealar bayoni Amir Temurning 17-sha'bon, 807 (18 fevral, 1405)-yili O'trorda vafot etganligi, uning nabirasi Xalil Sultonning Samarqandda taxtga o'tirganligi bilan tugallanadi.

Ikkinchi jildning so'zboshisida muallif Amir Temur avlodlari haqida so'zlamochi ekanligini aytib, voqealarni Shohruxning Hirotda taxtga o'tirgan vaqtdan (mart, 1405) boshlaydi. So'ng Shohrux vafoti (1447)dan keyin hukmronlik qilgan Temuriylar: Mirzo Abulqosim Bobur, Sulton Abu Sa'id va boshqa shahzodalardan so'zlab bo'lgach, Husayn Boyqaroning Hirotda Yodgor Mirzoni qatl etib, ikkinchi marta taxtga o'tirish haqidagi ma'lumotlar bilan asarni tugatadi.

Abdurazzoq Samarqandiy «Matla'i sa'dayn»da tarixiy voqealar bayonini solnoma tarzida joylashtirgan. Asarning muallif o'zi yashagan davrdan (XV asr o'rtalari) ilgari qismlari solnomasi avval yozilgan asarlar asosida tuzilgan. Bu haqda Abdurazzoqning o'zi, 1427-yil voqealarini yakunlar ekan: «Hofizi Abruning yozgani... «Zubdat ut-tavoxirixi Boysung'uriy» shu yerda tugadi», deydi va o'zining asosiy manbasi ushbu asar ekanligini ta'kidlaydi. Bundan keyingi yillar tarixining yoritilishiga kelsak, aytish mumkinki, ularning aksarini Abdurazzoq Samarqandiy o'zi ko'rib bilgan yoki shohidlar so'zlariga asoslanib yozgan Qanday bo'lganidan qat'i nazar «Matla'i sa'dayn» sahifalarida bayon etilgan tarixiy voqealar, xoh Hofizi Abrudan olingan qismlar, xoh undan keyingi qismlar bo'lsin tadqiqotlar uchun manba sifatida muhim ahamiyatga egadir.

Ma'lumki, «Matla'i sa'dayn»da ko'proq siyosiy voqealar bayon etilgan. Lekin shu bilan birga Temuriy hukmdorlarning mamlakatni iqtisodiy, ma'naviy va madaniy hayotida o'ynagan bunyodkorlik roli ham Abdurazzoq Samarqandiyning diqqat markazida bo'lgan. Shuning uchun ham XV asrning deyarli uch choragida Samarqand va Hirotda shaharlardagi ilm-fan, madaniyatning yuksakligi hamda bu borada Mirzo Ulug'bek, Mirzo Boysung'ur va ba'zi boshqa shahzodalarning faoliyatlari ham izchillik bilan yoritib berilgan.

E'tiborga sazovor tomoni shuki, Abdurazzoq Samarqandiyning «Matla'i sa'dayn» asari o'z davrida shuhrat topgan va bir qancha tarixnavislar tomonidan e'tirof etilgan. So'ngra bu asar Temuriylar davri ijtimoiy-siyosiy

siy, iqtisodiy, madaniy va xalqaro munosabatlari tarixiga oid nodir va bahonchli manba sifatida Ovro'poda ham tanilib, uning ayrim qismlari XIX asrdan boshlab bir necha marta fransuz (Langle, Katrmer, Blocher), ingliz (Elliot), rus tillarida nashr etilgan.

«Matla'i sa'dayn»ning forscha matni 1936-yili Lohurda (Pokiston) matnshunos olim Muhammad Shafe tomonidan chop etilgan. Abdurazzoq Samarqandiyning 1442–44-yillardagi Hindiston safarnomasi 1960-yili o'zbek tilida va forsiy tanqidiy matni bilan, asarning 1405–1427-yillar voqealari (I jild, 1-qism) 1969-yili o'zbek tilida Toshkentda chop etildi. 1992-yili esa «Matla'i sa'dayn»ning shu qismiga kiritilgan G'iyosiddin Naqqoshning Xitoy safari kundaligi o'zbek tilida nashr etilgan.

MIRXOND

(1433–1498)

Mir Muhammad ibn Sayyid Burhoniddin Xovandshoh ibn Kamoluddin Mahmud al-Balxiy — Mirxond o'rta asr tarix fanining ko'zga ko'ringan namoyandalaridan biridir. Ota-bobolari buxorolik bo'lib, fiqh ilminida zamonasining yetuk olimlari sifatida mashhur bo'lgan. Ulardan Mahmud ibn Ahmad al-Mahbubiy (vafoti — taxminan 1300) fiqh ilminida peshqadam olim bo'lganligi uchun «toj ash-shari'a» (shariat toji) nomi bilan nom chiqargan va Sharqning mashhur fiqh olimi Sayyid Burhoniddin Marg'inoniyning «Hidoya» asariga «Viqoya ur-rivoyat fi masoil ul-Hidoya» («Hidoya masalalarini himoya qiluvchi rivoyatlar») nomli sharh yozgan. Ubaydulloh ibn Mas'ud al-Mahbubiy (vafoti — 1346) «toj ash-shari'a soniy» (ikkinchi shariat toji) nomi bilan tanilgan va «Sharh ul-viqoya», «An-nihoya muxtasar ul-viqoya» nomli mashhur kitoblar yozib qoldirgan. Mirxondning otasi Sayyid Burhoniddin Xovandshoh ham o'z davrining bilimdon kishilaridan bo'lib, Temuriylar hukmronligi davrida Balxga kelib qolgan va o'sha yerda vafot etgan.

Mirxond 1433-yili Balxda tug'ilgan bo'lsa-da, umrining deyarli ko'p qismini Hirotda o'tkazdi. Uning hayoti va ilmiy faoliyatiga oid ma'lumotlar juda kam bo'lishiga qaramay, nabirasi Xondamir «Xulosat ul-axbor» kitobida bobosi haqida quyidagilarni yozadi: «Padarpanoh janob

amir Xovand Muhammad yigitlik chog'larida turli ilmlarni tahsil etish va nafis fazilatlarini kamoliga yetkazish yo'lida tirishqoqlik va zo'r mehn qildi... Qisqa vaqt ichida bilimdonlikda zamon fozillarining peshqadar bo'lib oldi. U (ko'proq) tarix ilmini kasb qildi va jahon ahvolini ham osori-atiqalarini tahqiq qilishga kirishdi. Oliyjanob xotirani tez fursat ichida bu fanni egallashdan forig' qildi, ammo fe'l-u atvori maishat ahli bilan qo'shilishga yo'l bermadi, zavq-u shavqqa berilmadi... Dars berish va amr-u ma'rifatga ishtiyoq uning ravshan xotirida aslo ko'rinmadi. Ammo (bu hol)... orzu va omonlikning qiblagohi, ya'ni olijanob Sult (Husayn) hazratlari yaqin do'sti (Amir Alisher Navoiy)ning huzurlariga borgunicha va uning har turli navozish, marhamat, iltifot hamda murvatlarini topmagunlaricha davom etdi».

Xondamirning yana bir ma'lumotiga qaraganda, Navoiy Mirxond o'zining «Ixlosiya» xonaqosidan bir hujra ajratib bergan va undan bir tarixiy asar yozib berishni iltimos qilgan. Mirxond bu asarni qisqa vaqt ichida yozib tamomlagan, so'ng umrining oxirida, taxminan bir yil Gozigohda istiqomat qilgan. 1497-yilning bahorida og'ir kasallikka chalini 1498-yilning 22-iyun kuni olamdan o'tgan.

Navoiyning ko'rsatmasi va homiyligi bilan Mirxond yaratgan asarning nomi «Ravzat us-safo fi siyrat ul-anbiyo va-l-muluk va-l-xula-fo» («Payg'ambarlar, podshohlar va xalifalarning tarjimai holi haqida jannat bog'i») bo'lib, undan dunyoning «yaratilishi»dan to 1523-yilga qadar Makaziy Osiyo, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida bo'lib o'tgan ijtimoiy-siyosiy voqealar keng bayon etilgan.

«Ravzat us-safo» muqaddima, xotima va jug'rofik qo'shimchade tashkil topgan. Asar yetti jilddan iborat: 1) Dunyoning «yaratilishi»dan to Sosoniy Yazdigard III (632–651) davrigacha o'tgan tarixiy voqealar; 2) Muhammad payg'ambar va birinchi to'rt xalifa davrida bo'lib o'tgan voqealar; 3) O'n ikki imom tarixi, Umaviya va Abbosiya xalifalari; 4) Abbosiylar bilan zamondosh bo'lgan sulolalar (asosan, Eron, Markaziy Osiyo va Hindistonda); 5) Mo'g'ullar, Chingizxon, uning avlodi, Erc va ba'zi qo'shni mamlakatlarda mo'g'ullar hamda ulardan keyin Amir Temur davrigacha mavjud bo'lgan sulolalar; 6) Amir Temur va uning zamonidan, to Sulton Abu Sa'id o'limigacha (1469) bo'lib o'tgan voqealar; 7) Sulton Husayn Boyqaro va uning farzandlarining tarixi (1523-yilgacha).



Xondamirning ta'kidlashicha, ushbu asar bizga ma'lum bo'lgan holda Mirxond tomonidan tugatilmagan. Uning yettinchi jildining matni, shubhsiz, Xondamirning qalamiga mansub. Bu fikrni tasdiqlaydigan quyidagi ma'lumotlarga e'tibor berish kifoya: Xondamir «Ma'osir ul-muluk» va «Xulosat ul-axbor»ning xotimasida Mirxondga to'xtalib, Amir Temur tarixiga oid qog'ozga tushirilgan har xil materiallarga ega bo'lmaganligi uchun, o'z asarini tugata olmagan va agar fursat topilsa, (Xondamir) bobosi asarini tugatishga yo'l topgan; asarda bayon etilgan tarix to 1523-yilgacha yetkazilgan, vaholanki, Mirxond 1498-yili vafot etgan; yettinchi jildning matni Xondamirning «Habib us-siyar»ini III jild 3-qismining ikkinchi yarmi bilan deyarli bir xil.

«Ravzat us-safo»ning «jo'g'rofik qo'shimchasi» esa Mirxond va Xondamir tomonidan amalga oshirilgan. Unda turli «ajoyibotlar», ba'zi dengizlar, daryolar, muhim shaharlarning qisqacha ta'rifi bayon etilgan. Asar ustida olib borilgan oxirgi tahrir ham Xondamir tomonidan bajarilgan.

Asarning I—VI jildlari bir-biriga bog'liq bo'lib, mustaqil ahamiyatga ega emas. Uning so'nggi qismi, xususan, VII jildi original bo'lib, XV asrning 2-yarmi tarixini o'rganishda katta ahamiyat kasb etadi.

«Ravzat us-safo»ning qo'lyozma nusxalari ko'pgina jahon kutubxonalarida saqlangan bo'lib, asar matni Bombay (1845, 1848, 1864), Tehron (1853—1857, 1954) va Laknav (1874, 1883, 1891)da chop qilingan. Asardan ayrim parchalar rus, fransuz, ingliz hamda nemis tillarida ko'p bora nashr etilgan. Asarning eski o'zbek tiliga o'girilgan nusxalari ham mavjud.

XONDAMIR

(1473/76—1534)

Hiroflik tarixchi Xondamir (to'la ismi G'iyosiddin Muhammad ibn Xoja Xumomuddin ibn Xoja Jaloluddin Muhammad ibn Burhonuddin) o'z asarlari bilan XVI asr boshlarida fan taraqqiyotiga kirib kelgan allomalardandir. Uning hayoti, ijodi haqida o'z asarlari, zamonadoshlari yozib qoldirgan oz-moz ma'lumotlardan tashqari, deyarli boshqa ma'lumot yo'q.

Ona tomonidan u «Ravzat us-safo» («Musaffolik bog'i») muallifi, mashhur tarixchi Mirxondning nabirasi bo'lgan. Otasi Xoja Xumomud-

din Muhammad ibn Xoja Jaloluddin Muhammad ibn Xoja Burhonuddin Muhammad Sheroziy o'z zamonining ziyolilaridan edi va Sulton Mahmud Mirzo Temuriyning (Hisor Shodmon va Badaxshonda hukmronlik qilgan) vaziri bo'lgan.

Xondamir 1473–1476-yillar orasida Hirot shahrida tug'ilgan va o'sha yerda ta'lim olgan bo'lsa kerak, deb taxmin qilinadi. U tarix adabiyot va inshoni puxta egallab, o'z zamonasining yirik olimi sifatida nom qozongan tarixchidir.

Xondamirning olim sifatida shakllanishida ma'rifatparvar shoir Mir Alisher Navoiyning hissasi katta bo'lib, u bo'lajak olimga, o'zining juda boy kutubxonasidan foydalanishga ruxsat bergan va shu bilan birga ilmiy ishlariga rahbarlik qilgan.

Tarixchining o'zi haqida keltirgan ma'lumotlardan shu narsa ma'lumki, u yoshlik chog'idayoq Navoiy qo'liga kelgan, dastlab uning kutubxonasida kutubxonachi, keyinroq esa mudir bo'lib ishlagan.

Alisher Navoiy vafotidan so'ng, Xondamir Xurosondagi siyosiy voqealar girdobiga tushib, dastlab Balxga Sulton Husayn Boyqaroning to'ng'ich o'g'li Badiuzzamon Mirzo saroyida xizmat qiladi. Ayni shu paytda Badiuzzamon Qunduz hokimi Xisravshohni Shayboniyxon (1500–1510) lashkari tomonidan kutilayotgan hujumdan Xurosonni himoya qilishda ishtirok etishga og'dirish orzusida yuborilgan elchilar qatoriga Xondamir ham qo'shib, shaxsan o'zi Badiuzzamonning maxsus topshirig'in bajardi. Shu davrda unga «sadr» unvoni berilgan. Xondamir biroz fursatdan so'ng yana Badiuzzamon topshirig'iga binoan Shayboniyxonga qarshi tuzilgan ittifoqqa Qandahor hokimini birlashtirish maqsadida u yerga jo'natildi. Ammo Badiuzzamon qizining vafoti tufayli Xondamir safarni to'xtatib, Hirotga qaytishga majbur bo'lgan va 1507-yili Shayboniyxon Hirotni zabt etishining shohidi bo'lgan hamda Xuroson markazi Hirotni topshirishdagi shartlarni ishlab chiqishda ishtirok etgan.

Sulolalar hukmronligi o'zgargandan so'ng, Xondamir Temuriylar sulolasining tarafdori bo'lganligi bois, Hirot dan ketishga qaror qiladi va 1507-yildan to 1510-yilgacha Shimoliy Afg'onistondagi Basht qishlog'ida ijod bilan shug'ullanadi. Hirot taxtiga Safaviylar sulolasi, uning asoschisi Shoh Ismoil (1502–1524) kelishi bilanoq, 1510-yili Xondamir Hirotga qaytib keladi. Shoh Ismoil vafoti (1524) dan so'ng (1527) Hirot dan butkul yuz o'girib, Qandahorga, 1528-yili u yerdan

Boburiylar poytaxti Agraga (Hindiston) Zahiriddin Muhammad Bobur huzuriga o'tadi.

Xondamir Agraga kelgach, Boburning yaqin odamlari qatoridan joy oladi va 1529-yili Boburni Bengaliya va Gang daryosi sohili tomon qilgan yurishi paytida kuzatib boradi. Bobur vafotidan so'ng, uning vorisi Humoyunning (1530–1556) xizmatida bo'lib, 1534-yili u bilan birga Gvaliorda bo'ladi va Gujarotga qilgan yurishida qatnashadi. Ayni vaqtda, u «Humoyunnoma» asarini yozadi va bu xizmati uchun «Amir al-muarrixin» («Tarixchilar amiri») unvoniga sazovor bo'ladi. Xondamir 1534-yili Humoyun bilan Manduga qaytib kelayotganda vafot etadi. Uning wasiyatiga ko'ra jasadi Dehlidagi qabristonga — Nizomiddin Avliyo, shoir Xusrav Dehlaviylar yoniga dafn etiladi.

Xondamirning ikki farzandi — birining ismi Amir Mahmud, ikkinchisi Sayyid Abdulxon bo'lgan. Amir Mahmud Shoh Ismoil va Shoh Taxmasp (1524–1576) hukmronlik qilgan davr tarixini yoritgan asar muallifi bo'lib, asar Muhammadxon Sharafiddin Takaliyga bag'ishlangan. Ushbu asar «Ravzat us-Safaviya» («Safaviylar bog'i»)da keltirilgan ma'lumotga ko'ra, o'sha davr olimlari orasida katta e'tibor qozongan.

Xondamir butun umri davomida, taxminan o'n uchta asar yozgan bo'lsa, bizgacha shu asarlarning sakkiztasi yetib kelgan.

Muarrixning «Ma'osir ul-muluk» («Hamasr podshohlarning tarixi») asari Alisher Navoiy iltimosiga ko'ra va unga minnatdorchilik izhori tariqasida 1498–1499-yillarda yozilgan. Bu asar podshoh hamda qadimgi donishmandlarning xayrli ishlari haqida aytilgan hikmatnamo gaplarni o'z ichiga oladi. Jumladan, Qayumarsdan Anushirvongacha, Odam Atodan Buzurgmehrgacha bo'lgan hamda Muhammad payg'ambar va imomlar haqida bitilgan naqllardan iborat. So'ngra muallif Umaviylar, Abbosiylar, Somoniylar, G'aznaviylar va boshqa sulolalarga tegishli hukmdorlar tarixi bilan birga Kurt podshohlari va turk xoqonlari tarixini yoritgan. Asarning oxirgi qismida Husayn Boyqaro va Alisher Navoiyga zamondosh bo'lgan hukmdorlar, olimlar va donishmandlar haqida ma'lumotlar ham berilgan.

«Xulosat ul-axbor fi bayon ul-ahvol ul-ahyor» («Xayrli kishilar ahvolini bayon etish borasida xabarlar xulosasi») 1498–1499-yillar orasida yozilgan bo'lib, bu asar ham Alisher Navoiyga bag'ishlangan. Unda Husayn Boyqaro va Alisher Navoiy zamonida Hirot va uning atrofida

olib borilgan ulkan qurilishlar, qazilgan suv inshootlari, shuningdek, o'sha zamonda o'tgan shoirlar, olimlar, matematiklar, astronomlar, musiqashunoslar, shifokorlar, san'atkorlar haqida qimmatli ma'lumotlar bor.

«Makorim ul-axloq» («Olijanob xulqlar») asari ham Alisher Navoiyga minnatdorchilik ramzi sifatida yozilgan (lekin Navoiy vafot etib Xondamir unga kitobni taqdim etishga ulgurmagan). «Makorim ul axloq»da Xondamir Navoiyning yuksak insoniy fazilati, olijanob axloqi asarlari, uning tashabbusi bilan qurilgan binolar, unga zamondosh shoir olim va fozil kishilar, shuningdek, Xurosonning o'sha davrdagi ijtimoiy siyosiy ahvoli, Navoiy bilan Husayn Boyqaro orasidagi munosabatlar xususida hikoya qiladi.

Xondamirning «Dastur ul-vuzaro» («Vazirlar uchun qo'llanma») asari Alisher Navoiy iltimosiga muvofiq 1500-yili yozilib, Husayn Boyqaro va uning vaziri Amir Kamoliddin Mahmudga bag'ishlangan. Ora dan to'qqiz yil o'tgach, 1509-yili asar qayta ishlangan va kengaytirilgan. Undan Sharq mamlakatlarining VII–XVI asrlardagi tarixi, jumladan, Movarounnahr va Xurosonda Temuriylar sulolasi inqiroziga qadar o'tgan vazirlar, Chingizxonning vaziri, keyinroq mo'g'ullarning Xi toydagi noibi, xorazmlik Mahmud Yalavoch hamda uning o'g'li, Ching'atoyxonning Movarounnahrdagi noibi Mas'udbek to'g'risida ma'lumotlar joy olgan.

Allomaning «Nomai nomi»sida («Atoqli nomalar») 1522-yilda kechgan voqealar bayon qilingan (asarning «Inshoi G'iyosiddin» yoki «Insho G'iyosiy» degan nomi ham bor). Kitob insho ilmiga oid (stilistika, turli maktub va farmonlarni yozish qoidalari) bo'lib, Sharq mamlakatlaridagi o'tgan turli tabaqadagi tarixiy shaxslar (shohlar, amirlar, sadrlar, qozilar shayxlar, shoirlar)ga doir ma'lumotlar, podshoh va xonlarning yorlic hamda farmonlaridan namunalari, ularni bitish tartiblari ham bayon etilgan. Asarning qimmatli shundaki, asar ba'zi bir muhim mansablarning (parvonachi, munshiy, mustavfiy, ihtisob (muhtasib), qalantar, mubashshir, hofiz) kelib chiqishi, bunday mansab egalarining haq-huquqlari vazifalari xususida so'z yuritadi.

Mirxondning «Ravzat us-safu fi sirat ul-anbiyo va-l-muluk va-l-xulafa» («Xalifalar, podshohlar, avliyolar hayotiga oid musaffolik bog'i») asariga Xondamir tomonidan 1522-yilda yozib tugatilgan ilova (7-jild va «Jug'rofiy qo'shimcha» qismlari mavjud. Yettinchi jild mazmunai

Xondamirning «Habib us-siyar» asarining uchinchi jild uchinchi qism ikkinchi yarmi mazmuni bilan mosdir. Asarning «Jugʻrofiy qoʻshimcha»si, taxminan 1495-yili Mirxond tomonidan yozila boshlagan va 1523-yilda Xondamir uning davomini yozib tugatgan. Asar mazmuni ham «Habib us-siyar»ga kirgan matndan tashkil topgan va bu oʻrinda voqealarni «Habib us-siyar» orqali oʻrgangan maʼqulroq deb oʻylaymiz.

Xondamirning eng yirik asari «Habib us-siyar» 1520–1524-yillar mobaynida yozilgan va vazir Karimuddin Xoja Habibulloh Sovajiya bagʻishlanib, asar nomi ham qisman shu vazir ismi bilan bogʻlangan. Asarda qadim zamonlardan, to 1524-yilga qadar Sharq mamlakatlarida, xususan, Eron, Afgʻoniston, Iroq va Markaziy Osiyoda sodir boʻlgan voqealar qalamga olingan. Uning XV asrning soʻnggi va XVI asrning I-choragida Movarounnahr hamda Xurosonning umumiy ahvolini aks ettirgan uchinchi jild uchinchi va toʻrtinchi qismlaridagi maʼlumotlar yangiligi bilan katta ilmiy qimmatga egadir.

Xondamirning «Humoyunnoma» asari «Qonuni Humoyun» nomi bilan ham mashhur boʻlib, Hindiston podshohi Boburiy Humoyun Mirzoga bagʻishlangan va 1535-yili yozib tamomlangan. Asardagi Humoyun Boburiylar davlatida hukmronlik qilgan davrida joriy etilgan yangiliklar, aholini uch tabaqaga, hokimiyatni esa toʻrt idora usuliga boʻlinishi va Humoyunning meʼmorchilik faoliyati haqidagi maʼlumotlar diqqatga sazovordir.

Xondamirning qolgan beshta asarining faqatgina nomlari maʼlum, xolos. Bular: «Osor ul-muluk va-l-anbiya» («Podshoh va paygʻambarlar haqida hikoyalar»), «Axbor ul-ahyor» («Yaxshi insonlar haqida xabarlar»), «Muntaxab-i tarix-i Vassof» («Vassof tarixidan saylanma»), «Javohir ul-axbor» («Xabarlar gavharlari») va «Gʻaroyib ul-asror» («Qiziqarli sirlar») deb nomlangan asarlaridir.

Navoiy asarlaridan shu narsa maʼlumki, Xondamir «Naqiy» taxallusi bilan sheʼrlar ham bitgan, biroq uning sheʼrlar toʻplami bizgacha yetib kelmagan, lekin ayrim parchalar «Humoyunnoma», «Makorim ul-axloq» va boshqa asarlarida qisman uchrab turadi.

Yuqorida keltirilgan maʼlumotlarga koʻra, Xondamir Markaziy Osiyo, Afgʻoniston, Hindiston tarixiga oid asarlar yaratgan va shu bilan birga jahon madaniyati xazinasiga munosib hissa qoʻsha olgan.

ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR

(1483–1530)

Zahiriddin Muhammad Bobur o'rta asr Sharq madaniyati, adabiy va she'riyatida o'ziga xos o'rin egallagan adib, shoir, olim bo'lish bilan birga yirik davlat arbobi va sarkarda hamdir. Bobur keng dunyoqarar va mukammal aql-zakovati bilan Hindistonda Boburiylar sulolasiga asos solib, bu mamlakat tarixida davlat arbobi sifatida nomi qolgan bo'lsa, serjilo o'zbek tilida yozilgan «Boburnoma» asari bilan jahonning mashhur tarixnavis olimlari qatoridan ham joy oldi. Uning nafis g'azal va ruboiylari turkiy she'riyatining eng nodir durdonalari bo'lib, «Mubayyin» («Beyon etilgan»), «Xatti Boburiy», «Harb ishi», Aruz haqidagi risolalari esa islom qonunshunosligi, she'riyat va til nazariyasi sohalariga munosib hissa bo'lib qo'shildi.

Zahiriddin Muhammad Bobur 1483-yilning 14-fevralida Andijonda Farg'ona ulusining hokimi Umar Shayx Mirzo oilasida dunyoga keldi. Bu davrda Markaziy Osiyo va Xurosonda turli hokimlar, aka-ukala tog'a-jiyanlar, amakivachchalar o'rtasida hokimiyat — ulug' bobolari Amir Temur tuzgan yirik davlatga egalik qilish uchun kurash nihoyat keskinlashgan edi.

Adabiyot, nafis san'at, tabiat go'zalligiga yoshligidan mehr qo'ygan Zahiriddin, barcha Temuriy shahzodalar kabi bu ilmlarning asosini ota saroyida, yetuk ustozlar rahbarligida egalladi. Biroq uning betashvis yoshligi uzoqqa cho'zilmadi. 1494-yili otadan yetim qoldi. 12 yoshid otasi o'rniga Farg'ona ulusining hokimi etib ko'tarilgan Bobur qalami qilichga almashtirib, Andijon taxti uchun ukasi Jahongir Mirzo, amaki Sulton Ahmad Mirzo, tog'asi Sulton Mahmudxon va boshqa raqiblarga qarshi kurashishga majbur bo'ldi. Bobur ukasi Jahongir Mirzo bilan murosaga kelish uchun unga yon berishga — Farg'ona ulusini ikkiga taqsimlab, yarmini ukasiga topshirishga qaror qildi va o'zi Samarqandga uchun olib borilayotgan kurashga kirishib ketdi. Bir necha yil davom etgan bu kurash qirg'in-barotdan boshqa biror natija bermadi: unda katta harbiy kuch bilan aralashgan Shayboniyxonning qo'li baland keldi va Bobur Samarqandni tashlab ketishga majbur bo'ldi. 1504-yili Shayboniyxon Andijonni ham qo'lga kiritgandan so'ng, Bobur janubga qarab yo'l oldi va Kobul ulusida o'z hokimiyatini o'rnatdi. 1505–1515-yillarda

Markaziy Osiyoga qaytishga bir necha bor urinib ko'rdi. Ammo bu urinishlardan hech qanday natija chiqmadi. So'ng o'z mavqeyini yanada mustahkamlash maqsadida, 1519–1525-yillar davomida Hindistonni qo'lga olib olish uchun bir necha bor janglar olib bordi. 1526-yil aprel oyida Panjobda Hindiston sultoni Ibrohim Lo'di bilan va 1527-yili mart oyida Chitor (Chitur) hokimi Rano Sango bilan bo'lgan janglarda Boburning qo'li baland keldi. Tarixiy ma'lumotlarning bayon qilishicha, Boburning Hindistonga yurishida Dehli hukmdori Sulton Ibrohim siyosatidan norozi bo'lgan Panjob hokimlari ham Boburni qo'llaganlar va Sikri jangidagi bu g'alaba Boburga Hindistonda o'z hukmronligini uzil-kesil o'rnatish va Boburiylar sulolasini barpo etish imkoniyatini berdi. Ovro'po tarixchiligida «Buyuk mo'g'ullar» nomi bilan «g'alati mashhur» bo'lgan, aslida «Boburiylar sulolasi» Hindistonda 300-yildan ortiq hukmronlik qildi.

Bobur bu g'alabadan keyin uzoq yashamadi — 1530-yil dekabr oyida, Agra shahrida vafot etdi va keyinroq uning vasiyatiga ko'ra farandlari uning xokini Kobulga olib kelib dafn etdilar.

Biroq qisqa bir vaqt ichida Bobur Hindistonda siyosiy muhitni barqarorlashtirish, Hindiston yerlarini birlashtirish, shaharlarni obodonlashtirish, savdo-sotiq masalalarini to'g'ri yo'lga qo'yish, bog'-rog'lar yaratish ishlariga homiylik qildi. Hindistonni obodonlashtirish, unda hozirgacha mashhur bo'lgan me'moriy yodgorliklar, bog'lar, kutubxonalar, karvonsayohat yo'llari qurdirish, ayniqsa, uning o'g'illari va avlodlari davrida keng miqdorga yoyildi. Hindiston san'ati va me'morchiligiga Markaziy Osiyo uslubining kirib kelishi sezila boshladi. Bobur va uning hukmdor avlodlari davrida o'sha davrning ilg'or va zehni o'tkir olimlari, shoirlari, musiqashunoslari va davlat arboblari mujassam etgan mukammal bir madaniy-ruhiy muhit vujudga keldi. Boburiylar davlatidagi madaniy muhitning Hindiston uchun ahamiyati haqida Javoharlal Neru shunday yozgan edi: «Bobur Hindistonga kelgandan keyin katta siljishlar yuz berdi va yangi rag'batlantirishlar hayotga, san'atga, arxitekturaga toza havo baxsh etdi, madaniyatning boshqa sohalari esa bir-birlariga tutashib ketdi».

Bobur Hindistonda katta hajmdagi davlat ishlari bilan bir qatorda o'zining adabiy-badiiy faoliyatini ham davom ettirdi va yuqorida zikr etilgan asarlarini yaratdi. Boburning butun jahon ommasiga mashhur bo'lgan shoh asari «Boburnoma»dir. Ma'lumki, unda Bobur yashagan davr oralig'ida Movarounnahr, Xuroson, Eron va Hindiston xalqlari ta-

rixi yoritilgan. Asar asosan uch qismdan iborat bo'lib, uning birinchi qismi — XV asrning 2-yarmida Markaziy Osiyoda ro'y bergan voqealarni; ikkinchi qismi — XV asrning oxiri va XVI asrning 1-yarmida Kobul ulusi, ya'ni Afg'onistonda ro'y bergan voqealarni; uchinchi qismi — XVI asrning 1-choragidagi Shimoliy Hindiston xalqlari tarixiga bag'ishlangan. «Boburnoma»da o'sha davrning siyosiy voqealari mukammal bayon qilinar ekan, o'z yurti Farg'ona viloyatining siyosiy-iqtisodiy ahvoli, uning poytaxti Andijon shahri, Markaziy Osiyoning yirik shaharlari: Samarqand, Buxoro, Qarshi, Shahrisabz, O'sh, Urganch, O'ratepa, Termiz va boshqa shaharlar haqida nihoyatda nodir ma'lumotlar keltirilgan. Unda Kobul ulusining yirik shaharlari Kobul, G'azna va ular ixtiyoridagi ko'pdan ko'p tumanlar, viloyatlar, Shimoliy Hindiston haqida ma'lumotlarni uchratish mumkin.

«Boburnoma»ni varaqlar ekanmiz, ko'z oldimizdan Markaziy Osiyo, Afg'oniston va Hindiston xalqlariga xos bo'lgan fazilat va nuqsonlar, ularning tafakkur olamining kengligi va murakkabligi bilan birga, o'sha davrdagi hayot muammolari, Bobur davlatidagi siyosiy va ijtimoiy hayotning to'liq manzarasi namoyon bo'ladi. «Boburnoma»da keltirilgan bu tarzda ma'lumotlar Bobur davrida yozilgan boshqa tarixiy manbalar: Mirxond, Xondamir, Muhammad Solih, Binoiy, Muhammad Haydar, Farishta, Abul-Fazl Allomiy va boshqa tarixchilarning asarlarida bu darajada aniq va mukammal yoritilgan emas. Muallif «Boburnoma»da Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Behzod, Mirzo Ulug'bek va boshqa allomalar haqida o'zining eng yuqori fikr va mulohazalarini bildiradi.

«Boburnoma» — Movarounnahr, Xuroson, Hindiston, Eron xalqlarining XV asr oxiri — XVI asrning 1-yarmidagi tarixini o'zida aks ettirgan bo'lsa ham, shu bilan birga juda ko'p dolzarb iqtisodiy, ijtimoiy masalalar, yuqorida nomlari keltirilgan viloyatlarning o'zaro siyosiy-iqtisodiy va savdo munosabatlari, jug'rofiy mavqeyi, iqlimi, o'simlik va hayvonot dunyosi, tog'lari, daryolari, xalqlari, qabila va elatlari va ularning yashash sharoitlari, urf-odatlari, muhim tarixiy inshootlari — hindular va musulmonlarning ibodatxonalari, to'y va dafn marosimlari haqida nihoyatda nodir ma'lumotlarni o'zida qamrab olgan shoh asardir. Shu bois «Boburnoma» tarixiy va adabiy meros sifatida dunyo olimlarini hayratda qoldirib kelmoqda.

Uzoq yillar davomida G'arb va Sharqning mashhur sharqshunos olimlari «Boburnoma» mazmunini jahon jamoatchiligiga yetkazish borasida katta faoliyat ko'rsatdilar. Masalan, gollandiyalik olim Vitsen, ingliziyalik olimlar J. Leyden, V. Erskin, R. Koldekot, A. Beverej, T. Albot, germaniyalik Y. Klaynrat va A. Keyzer, fransiyalik Pave de Kurteyl, hindistonlik Mirzo Nasriddin Haydar Rizvi, turkiyalik R.R.Art va N.I.Bayur va bizning davrimizdagi fransiyalik olim Bakke Gromon, afg'onistonlik olim Abulhay Habibiy, pokistonlik olimlar Rashid Axtar, Nadvi va Shoh Olam Mavliyot shular jumlasidandir. «Boburnoma»ni o'rganish sohasida jahonning mashhur sharqshunoslari qatoridan yaponiyalik olimlar ham joy olmoqdalar.

Ma'lumki, Boburning tarixiy, ilmiy va adabiy merosini o'rganish va ommalashtirishda O'zbekiston, Tojikiston, Rossiya olimlarining faoliyatlari ham diqqatga sazovordir. XIX–XX asrlar davomida Georg Ker, N. Ilminskiy, O. Senkovskiy, M. Salye, Porso Shamsiyev, Sodiq Mirzayev, V. Zohidov, Y. G'ulomov, R. Nabiyev, S. Azimjonova, A. Qayumov kabi olimlarning sa'y-harakatlari bilan «Boburnoma» bir necha bor rus va o'zbek tillarida chop etildi, ularga so'zboshi yozildi va keng kitobxonlar ommasining ma'naviy mulkiga aylantirildi, uning she'rlari ham bir necha bor nashr etildi.

Bobur o'zbek adabiyotida o'zining nozik lirik asarlari bilan ham mashhurdir. Uning hayoti va adabiy faoliyati Movarounnahrda siyosiy hayot nihoyat murakkablashgan zodagon guruhlarining boshboshdoqlik harakatlari avjiga chiqqan va Temuriylar davlatining inqirozi davom etayotgan bir davrga to'g'ri kelgan edi. Bunday murakkabliklar in'ikosini «Boburnoma»da ko'rgan bo'lsak, shoir ruhiyatida qanday aks etgani esa, uning she'rlarida namoyon bo'ladi. Movarounnahrni birlashtirishga urinishlari natija bermagach, Bobur ruhan qiynalgan, amaldorlarning xiyonatlarini ta'sirida umidsizlikka tushgan kezlardagi kayfiyati she'rlarida aks etgan. Keyinchalik o'z yurtini tark etib, Afg'oniston va Hindistonga yuz tutganda Bobur she'riyatida Vatan tuyg'usi, Vatan sog'inchi, unga qaytish umidi mavj ura boshladi:

Tole' yo'qki jonimg'a balolig' bo'ldi,
Har ishnikim, ayladim xatolig' bo'ldi,
O'z yerin qo'yib Hind sori yuzlandim,
Yorab, netayin, ne yuz qarolig' bo'ldi.

Shu bilan birga Bobur lirikasida she'riyatning asosiy mazmuni bilan bog'liq insoniy fazilatlar, yor vasli, uning go'zalligi, unga cheksiz muhabbat, hijron azobi, ayrilg' amlari va visol quvonchlari nihoyat go'zal va ibratli ifoda etilgan:

Xazon yaprog'i yanglig' gul yuzung hajrida sarg'ardim,
Ko'rub rahm aylagil, ey lola ruh, bu chehrai zardim.
Sen ey gul, qo'ymading sarkashligingni sarvdek hargiz,
Ayog'ingga tushub bargi xazondek muncha yolvordim.


Bobur o'z lirik she'rlarida har doim odamlarni yaxshilikka, adolat, sonparvarlikka, yuksak insoniy tuyg'ularni qadrlashga chaqirdi:

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidur,
Har kimki jafu qilsa, jafu topqusidur.
Yaxshi kishi ko'rmag'ay yomonlig' hargiz,
Har kimki yamon bo'lsa, jazo topqusidur.

Bobur lirik she'rlari va tarixiy «Boburnoma»sidan tashqari, islom qonunshunosligi va boshqa sohalarida ham asarlar yaratgan. 1522-yilda o'g'li Humoyunga atab yozgan «Mubayyin» nomli asarida o'sha zamon soliq tizimini, soliq yig'ishning qonun-qoidalarini, shariat bo'yicha kimda qancha soliq olinishi va boshqa masalalarni nazmda izohlab bergan.

«Xatti Boburiy» deb atalgan risolasida arab alifbosini turkiy tilla xususidan, o'zbek tili nuqtayi nazaridan birmuncha soddalashtirib berishga harakat qilgan. U, tajriba sifatida «Xatti Boburiy» alifbosida Qur'oni karimni ko'chirgan. Boburning aruz vazni va qofiya masalalariga bag'ishlangan «Mufassal» nomli asari ham bo'lganligi ma'lum, biroq bu asar bizgacha yetib kelmagan.

Bobur o'zining ma'lum va mashhur asarlari bilan tarixnavis adib, lirik shoir va ijtimoiy masalalar yechimiga o'z hissasini qo'shgan olim sifatida xalqimiz ma'naviy madaniyati tarixida munosib o'rin egallaydi.



XVI–XIX asrning 1-yarmi

MAXDUMI A'ZAM (1463/64–1542)

Movarounnahrlik alloma, yirik diniy va siy arbob, Naqshbandiya tariqatining rahnamosi va nazariyotchilaridan biri Maxdumi A'zamning to'liq ismi – Sayyid Ahmad Xojagi ibn Sayyid Jaloliddin Kosoniy Dahbediydir. U Farg'ona vodiysining Koson shahrida tavallud topgan. Kosoniyning otasi Qoraxoniylar (840–1212) sulolasiga mansub sultonlardan Burhoniddin Qilich (XI asr) avlodlaridan bo'lib, onasi esa Koson sayyidlari oilalariga mansub edi.

Maxdumi A'zam ilk ta'limni Koson maktablaridan birida olgan. So'ng Axsikatda, Xoja Muborak madrasasida o'qishni davom ettiradi. Kosoniyning domlasi Mulla Ziyo o'z shogirdining a'lo darajadagi qobiliyatini e'tiborga olib, unga «ilm uz-zohir» (oddiy, umumiy ilmlar)dan yaxshi ta'lim beradi va shu bilan birga «ilm ul-botin»ni chuqur o'rgatadi. Chunonchi, yosh Ahmad ustozining ra'yiga ko'ra taniqli so'fiy shoirlardan Jaloliddin Rumiyning (1207–1273) «Masnaviyi ma'naviy» deb nomlangan mashhur devonini qayta-qayta o'qib, undagi chuqur falsafiy fikrlarni «qalb ko'zlari» bilan ko'rib, anglab olishga harakat qiladi.

Madrasani bitirgach, Ahmad Kosoniy Shayx Mir Sayyid Aliga shogird tushadi. Mir Sayyid Ali yangi shogirdining bilimini sinab ko'rish uchun qiyin-qiyin savollar beradi. Ahmad Kosoniy savollarga to'liq javoblar qaytaradi. Shogirdining bilimidan mamnun bo'lgan shayx: «Endi men senga emas, balki sen menga ustoz bo'lding», degan ekan. Yana

bir necha kundan so'ng Shayx Ali shogirdiga bunday degan ekan: «Shosh viloyati tomon yo'l olki, ul viloyatda zamonimiz qutbi Muhammad Qozi bordur; Xojagon (Naqshbandiya) tariqati korxonasining butun ishlari ul javonmardning qo'llaridadur». Muhammad Qozi (vafoti 1516) mashhur Xoja Ahror (1404–1490) shogirdi va o'z zamonida Naqshbandiya tariqatining rahbari edi. U Xojagi Ahmadni shogird qilib oladi va tez orada o'ziga xalifa etib tayinlaydi. Manbalarga qaraganda, Maxdumi A'zam o'sha chog'larda (taxminan 1491–92-yillar) ustoz bilan Hirotga safar qilib, u yerda taniqli alloma va shoir Abdurahmon Jomiy bilan bir necha bor uchrashib suhbatlashadi.

Olti oylik safardan so'ng Movarounnahrqa qaytgach, Maxdumi A'zam ustoz bilan Toshkentga keladi. 1503-yilda Buxoro shahrining hokimi Muhammad Temur Sulton (1500–1504) taklifi bilan Buxoroga ko'chib boradi. Oradan biroz vaqt o'tgach, Mahdumi A'zam Muhammad Qozi ruxsati bilan Axsikatga qaytadi va bu yerda mustaqil va'xonlik qilib, Naqshbandiya tariqatini targ'ib etishga astoydil kirishadi.

Muhammad Qozi vafotidan so'ng, Naqshbandiya tariqatining barcha movarounnahrlik shayxlari Maxdumi A'zamni «peshvoyi tariqat» (tariqat peshvosi) sifatida e'tirof etishdi. Tez orada Maxdumi A'zamning shuhrati butun Movarounnahr va uning atrofidagi qo'shni mamlakatlarga yoyildi.

Aynan o'sha kezlarda buyuk shoir va davlat arbobi Zahiriddin Bobur Mahdumi A'zamning e'tiborini qozonish maqsadida unga Xoja Ahroming «Risolayi volidiya» asarini turkiy tilga ag'darib, Hindistonda bitilgan o'z ruboiylar devoni — «Devoni Bobur»ga qo'shib yuboradi. Aftidan «Boburnoma»da bu hodisa asarning bizgacha yetib kelmagan (1509–1520-yillar voqealari zikri) qismida tavsif qilingan. Biroq Mirzo Boburning mazkur devonida Maxdumi A'zamga bag'ishlangan ruboiylar ham uchraydi:

Dar havoyi nafi xudi mo umri zo'i kardaim,
Pesh ahlulloh az af'ali xud sharmandaim.
Yak nazar ba muxlisoni xastayi dil farmon ki, mo
Xojagi (Ahmad) ro mondaim va Xojagi ro bandaim.

Mazmuni:

Nafsimiz havaslarida umrimizni nobud qildik,
Endi ahlulloh (so'fiylar) oldida qiliqlarimiz
uchun sharmanda bo'ldik.

Bizday xastayi dil muxlislaringga bir nazaringni
tashlaki, biz
Xojagi (Ahmad)ni tashlab ketgan bo'lsak-da, lek
biz uning bandalarimiz.

O'z navbatida, Maxdumi A'zam Mirzo Boburga bag'ishlab «Boburiya» risolasini yozib Hindistonga jo'natadi.

Taxminan 1524–25-yillarda Maxdumi A'zam Karmana va Miyonqol hokimi Jonibek sultonning taklifiga binoan Karmanaga ko'chib kelgan edi.

Tez orada shayboniy sultonlaridan Ubaydulloxon (1504–1539), Iskandarxon (vafoti 1583), Balx hokimi Kistin Qaro sulton va boshqalar Maxdumi A'zamni o'zlarining ruhiy piri deb biladilar.

Maxdumi A'zamning ilmiy merosi boy bo'lib, u tasavvuf nazariyasi va amaliyoti, xususan, naqshbandiya ta'limotini yanada rivojlantirish sohasida barakali faoliyat ko'rsatdi. Uning qalamiga mansub 30 dan ortiq risola ma'lum bo'lib, «Asror un-nikoh» («Nikoh sirlari»), «Ganjnoma», «Risolat un-sam'iyyatun» («Samo' risolasi»), «Bayoni zikr» («Zikr bayoni»), «Risola-i silsila-i Xo'jagon» («Xo'jagon silsilasi»), «Sharhi g'azali Ubaydiy» («Ubaydiy g'azaliga sharh»), «Me'roj ul-oshiqin» («Oshiqlar me'roji»), «Risola-i Naqshbandiyya», «Risolat un-vujudiyyatun» kabilar shular jumlasidandir. U o'z asarlarining ko'p qismida ulamolar, so'fiy shayxlar va davlat arboblari orasidagi munosabatlar xususida to'xtab o'tgan va tariqatning siyosiy faoliyatiga to'la asos bor ekanligini isbotlagan. Xojagi achinib yozganidek, u yashayotgan zamonda viloyat hokimlari shaxsiy manfaatlarini birinchi o'ringa qo'yib, hokimiyat talashish bilan band edilar, tinimsiz harbiy harakatlar esa xalq ahvolini yanada og'irlashtirardi. Shunday murakkab siyosiy va iqtisodiy vaziyatda Maxdumi A'zam o'z obro'yidan foydalanib fitnabozlikka mayli bo'lgan viloyat hokimlarini «Ulug' Xoja Ahror kabi inoqlik dasturxonni atrofiga yig'ib, bir-birlariga sulh qo'llarini uzatishga undadi».

Payg'ambarimiz: «Amirlarning yaxshisi olimlarni, olimlarning yomoni esa amirlarni ziyorat qiladi» hadisiga Xojagi Kosoniy quyidagicha sharh beradi: «Agar amirni ziyorat qiluvchi ulamo dono tanbehlar vositasi bilan davlatda adolatlik, ezgulik, fuqarolar orasida osoyishtalik va barqarorlik o'rnatishni maqsad qilib olsa, bunday olim aslida mazkur (ziyosat etilgan), amir esa zo'ir (ziyosat etuvchi) deb hisoblanadi» («Zubdat us-solikin va tanbeh us-salotin» risolasidan).

Maxdumi A'zamning tasavvuf ta'limotiga oid fikrlari Naqshbandiya nazariyasiga asoslangan. Allomaning fikricha, Naqshbandiya tariqati uch zaruriy qoidaga bo'lingan: 1) Ihvon (birodarlik). Ya'ni, tariqat a'zolari xatti-harakatlarida hamdard, hamnafas va hamfikir bo'lishlari lozim; 2) Makon (o'rin, mavqe). Har bir tolib murshidining nasihatlariga amal qilib, bar-kamollikka intilmog'i lozim va shu jarayonda tariqat a'zolari orasida o'zi-ga munosib mavqe sohibi bo'lib, o'z martabasiga loyiq ish qilmog'i ke-rak; 3) Zamon. Agar ma'lum bir zamonning xalqlari va qavmlari orasi-da ziddiyat va ixtiloflar paydo bo'lsa, bular tariqat birodarlarini qarama-qarshiliklarga keltirmasligi lozimdir. Ammo Mahdumi A'zam fikricha, ushbu qoidalar qatoriga yana bir muhimini qo'shmoq darkor — Xon. Ya'ni, tariqat faoliyatining samaralari xalqqa yetib borishi uchun, so'fiy toifalarining murshidlari amirlaru sultonlarga yaqinroq bo'lmog'i kerak. Asosiy maqsad bu yerda shuki, davlatda osoyishtalik, barqarorlik, fu-qarolarni halol mehnat bilan tirikchilik qilishlariga barcha qulay sharoitlar mavjud bo'lsa, unday holda so'fiy shayxlar davlat arboblarni qo'llab-quvvatlaydilar.

Maxdumi A'zam asarlarining eng to'la majmuasi O'zR FA Sharq-shunoslik instituti xazinasida saqlanmoqda. Alloma fikrlari va dunyoqa-rashlariga asosan G'azzoliy (1058—1111), Ibn Arabiy (1165—1240), Xoja Muhammad Porso (1345—1419) va boshqa taniqli faylasuf so'fiy olimlarning asarlari ta'sir qilgan. Maxdumi A'zam Naqshbandiya ta'limoti va umuman tasavvuf falsafasini o'z zamoniga moslashtirgan holda yangi g'oyalar bilan boyitdi.

«Mirot us-safo» («Soflik oynasi»), «Asror un-nikoh» risolasida Ibn Arabiyning «Dunyo azaliy (ilohiy) mavjudotning oynaviy aksi» mavzu-sidagi nazariyasiga quyidagicha sharh berilgan: Mutlaq va azaliy mav-judotni darvesh yuragining ko'zgisida in'ikos etishi mumkin. Maxdumi A'zam esa: «Har bir inson yuragida bunday ko'zgu mavjud, ammo uni g'ofillik zangi bosgan. Zangni yo'qotish uchun inson tariqatga kirishib, ruhiy kamolotga intilishi lozimdir», — deydi.

Yana boshqa qator risolalarida («Odob us-solikin», «Odob us-sid-diqin») alloma Naqshbandiya ta'limotida murid — murshid munosabatlari borasida ham o'ziga xos fikrlarni ilgari surgan. Uning fikricha, shu ta-riqat odobu qoidalarida murid va shayx munosabatlari o'zaro hurmat-iz-zat asosida qurilmog'i lozim. Shu bilan bir qatorda murid (solik) Alloh-

ga vosil bo'lish yo'lidagi to'siqlarni osonroq yengmoq uchun o'z piriga to'la bo'ysunishi kerak.

Maxdumi A'zam fikricha, tariqat a'zolari xalqqa yaqin bo'lib, uning dardlari va ehtiyojlariga qayg'udosh bo'lsa ham tariqatga, ham xalqqa foydalidir. Shu borada Maxdumi A'zam quyidagicha tushuntirish bergan: «Tolib (haqiqat izlovchi) uchun uning Alloh yo'lida qilgan ibodatlari faqat xalq bilan bo'lgan aloqa va suhbatlarida samarali bo'lishi mumkin-kim, agar ul nomard bo'lsa, mard bo'lur, mard bo'lsa, shirmard bo'lur va agar shirmard bo'lsa, fardmard (tengi yo'q mard) bo'lg'ay» («Zubdat us-solikin»).

Maxdumi A'zam Naqshbandiya nazariyasiga yana boshqa islohotlar kiritdi. Jumladan, Naqshbandiya shayxlaridan birinchilar qatorida jahr zikri, samoa va shunga o'xshash tasavvuf marosim tartiblari shariatga xilof emasligini isbotladi va hatto ularni ma'lum bir darajaga yetgan shogirdlari orasida tadbiiq etdi. Bunday islohotlarning yagona maqsadi — «Naqshbandiya tariqatini turk (o'zbek) va tojiklar uchun bir xil qilib, yaqinlashtirishdir». Allomaning gapiga qaraganda, Xojagon tariqati «o'zida ko'z ko'rmagan va quloq eshitmagan tariqatlarni mujassamlagan va shu sababdan uni tariqatlar sarasi va tuzi yoxud «silsilat uz-zahab» (oltin zanjir) deb atash mumkin.

Maxdumi A'zamning tarjimai holi va faoliyati yaqin shogirdlari tomonidan bir necha asarlarda yoritilgan. Ulardan: Muhammad Shahri Safoyi al-Kotibning «Anis at-tolibin» («Haqiqat izlovchilarning yaqin do'sti»), Do'st Muhammad Folizkorning «Tanbiyat uz-zallin val-muzillin» («Yo'ldan adashgan va adashtiruvchilarga tanbehlar»), Do'st Muhammad ibn Navro'z Ahmad al-Keshi al-Kosoniyning «Silsilat us-sodiqin va anis ul-oshiqin» («Sadoqatlilar silsilasi va oshiqlar do'sti») kabi asarlarda eng to'liq va ishonchli ma'lumotlarni uchratishimiz mumkin. Shu ma'nabalar asosida tuzilgan Mahdumi A'zamning to'ldirilgan tarjimai holi ham ma'lumdir. 1617-yilda Abul-Ba'qo ibn Bahouddin ibn Maxdumi A'zam tomonidan tuzilgan «Jome' ul-maqomat» deb nomlangan asar shular jumlasidandir.

Mahdumi A'zam yozgan risolalarga maxsus bitilgan sharhlar kam bo'lsa-da, ammo bu asarlarning tariqatning so'nggi XVI—XX asr boshlarida bitilgan nazariy adabiyotlarga katta ta'siri bo'lgan.

Naqshbandiya tariqatining taniqli nazariyotchisi Badriddin Kashmiriy (vafoti taxminan 1620) o'zining qator asarlari («Rauzat ar-Rizvon».

«Rauzat ul-jamol»)da Maxdumi A'zam risolalaridan foydalangan. Uning asrdoshi Naqshbandiya va Yassaviya tariqatlarining buyuk namoyandasi, nazariyotchisi va targ'ibotchisi Sulton Ahmad Xaziniy al-Hisoriy asarlarida ham Maxdumi A'zam bayon etgan fikrlarga keng sharhlar bitilgan. Ma'lumki, Xaziniy 1567–68-yillarda hajga safar qilib, so'ng umrining oxirigacha Usmoniylar saltanatiga qarashli ulkan shahar va viloyatlarda (Suriya, Qohira, Istanbul) yashab, o'sha yerlarda Maxdumi A'zam g'oyalari ni targ'ib etdi.

MUHAMMAD SHAYBONIYXON

(1451–1510)

Shayboniylar sulolasining asoschisi Muhammad Shayboniyxon hukmdor Abulxayrxonning nabirasi, Shoh Budog' sultonning o'g'li bo'lib, 1451-yil tug'ilgan. Bolaligidan uni Muhammad Shoh Baxt («Shoh baxti») deb atar edilar. Muhammad Shoh Baxtning otasi Shoh Budog' sulton erta vafot etgan. Ko'chmanchi oliy tabaqadagilarning o'zaro nizolari qurboni bo'lgan Abulxayrxon vafotidan so'ng (1469), uning hokimiyatiga birlashgan qabilalar tarqab ketdi. Dashti Qipchoqning sharqiy qismida g'alayonli yillar boshlandi. Shayboniyxon hokimiyat uchun kurash olib bordi va bir madaniy markazdan ikkinchi bir madaniy markazga o'tish chog'ida ba'zi qal'alarga yurish qildi. Keyinchalik u Samarqandga, Temuriylar saroyiga taklif etildi.

Temuriylar saroyida Shayboniyxon «buyuk xon»ning nabirasi sifatida yaxshi kutib olindi. Temuriy hukmdorlar Shayboniyga Dashti Qipchoqda o'z siyosatlarini amalga oshiruvchi shaxs sifatida umid bilan qarar edilar. Markaziy Osiyoning madaniy markazlarida ma'rifatli kishilar bilan yaqindan tanishuv Muhammad Shayboniyga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, Buxoroda yashagan yillari uning hayotida o'chmas iz qoldirdi, bu yerda Qur'onni juda yaxshi o'quvchi qorilardan biri Mavlono Muhammad Xi-toyi unga dars bergan.

Shayboniyxon o'z davrining ma'rifatli kishisi, jasur jangchi bo'lishi bilan birga mohir sarkarda ham edi. O'zining she'riy solnomasi — «Shayboniynoma»ni Shayboniyxonga bag'ishlagan Muhammad Solih uni harbiy mahoratga ega kishi sifatida ta'riflaydi.

Shayboniyxon Dashti Qipchoqda o'z davlatini tiklashga muvaffaq bo'ldi

Shayboniyxon 1510-yil Marv yaqinidagi Mahmudobod qishlog'ida Eron shohi Ismoil Safaviy bilan bo'lgan jangda halok bo'ldi. Jang tugaganidan so'ng uning jasadi askarlar jasadlari orasidan topilgan. Shayboniyxonning vahshiylarcha tanib bo'lmas holga keltirilgan boshsiz tanasi Samarqanddagi Baland Sufa degan yerga dafn etildi. Hozirda boshqa shayboniylar ham dafn etilgan Sufa Registon maydonida joylashgan bo'lib, Tillakori va Sherdor madrasalari o'rtasidagi burchakdadir.

Tarqoq qabilalarni to'plash va shaharlardagi e'tiborli shaxslardan o'ziga ittifoqdoshlar yig'ishdan o'z faoliyatini boshlagan Muhammad Shayboniyxon qo'lga kiritilgan qal'alarni mustahkamlash va ularda o'z hokimiyatini yanada kuchaytirishga katta e'tibor berdi. U harbiy yurishlar va davlat ishlari orasidagi qisqa tanaffuslarda turli fanlar: islomni o'rganish, tarixiy va she'riy asarlar bitish bilan shug'ullandi. Shayboniylar davlatiga asos solgan Muhammad Shayboniy o'z saroyiga ko'plab tarixchilar, shoirlar, olimlarni jalb etdi. Uning saroyida Kamoliddin Binoiy, Muhammad Solih, Mulla Shodi, Fazlulloh ibn Ruzbehxon kabilar panoh topib, o'z asarlarini bitdilar. Muhammad Shayboniyxonning Hirotni qo'lga kiritganidan so'ng Kamoliddin Behzod tomonidan chizilgan portreti bizning kunlarga saqlanib qolgan. Rasmning diqqatga sazovor tomoni xon oldidagi yozuv qurollari bo'lib, ular hukmdorning ilm-ma'rifatga qiziqqani va yozishni yaxshi ko'rganligini ko'rsatadi.

Shayboniyxon tarixni sevgan va tarixiy asarlar yaratilishida ishtirok etgan. So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, Shayboniyxon o'zbek («turk») tilida bitilgan o'ziga xos manba — «Tavorixi guzidayi nusratnoma» asarining yozilishida bevosita ishtirok etgan. Bu manbada keltirilgan aniq dalillar bilan tasdiqlanadi.

Hozirda «Tavorixi guzidayi nusratnoma» hamda Shayboniyxon faoliyatiga oid bo'lgan boshqa tarixiy asarlarning bir manba asosida vujudga kelganligi haqidagi faraz isbotlangan deb aytish mumkin (V.P.Yudin, R.G.Mukminova). Bu hol muallifi noma'lum «Tavorixi guzidayi nusratnoma», Muhammad Solihning «Shayboniynoma», Kamoliddin Binoiyning «Shayboniynoma», Mulla Shodining «Fathnoma» asarlarida bayon etilgan voqealarning o'xshashligi va ularda keltirilgan bir xil she'rlar, shu jumladan, Muhammad Shayboniyga nisbat beriladigan she'rlarning mavjudligi bilan ham tasdiqlanadi. «Tavorixi guzidayi nusratnoma» muallifi noma'lum asardir. Asarning saqlanib qolgan hech bir qo'lyozmasida (Sankt-

Peterburg va Londondagi asosiy qo'lyozmalardan tashqari, yana qisqartirilgan qo'lyozma nusxalari ham mavjud) muallifning nomi ko'rsatilmagan Sankt-Peterburg qo'lyozmasi matnida muallifning nomi ko'rsatilishi lozirn bo'lgan joy bo'sh qoldirilgan. Shu narsa aniqki, «Tavorixi guzidayi nus-ratnoma»ni yozishda Shayboniyxonning o'zi ishtirok etgan.

Davr talabiga binoan Shayboniyxon turkiy tilidan tashqari fors tilin yaxshi egallagan, she'riyatga qiziqib, o'zi she'rlar yozgan. Xonning bayt-lari uning atrofidagi mualliflarning asarlarida keltirgan. Hasanxoja Nisoriy o'zining «Muzakkir al-ahbob» asarida Shayboniyxonning bayt va g'a-zallaridan namunalar keltiradi. Xon haqida yozar ekan u: «yaxshi she'r-lari bor edi» deb ta'kidlab shunday deb qayd qiladi: «...Hazrati shayx Najmiddin Kubroning... vafoti tarixini yaxshi aytgan. Tarix:

«Oning ta'rixidur shahi shuhado,
Yana bir alif birla bo'lur ado».

Muhammad Solih Muhammad Shayboniyxonning she'riy asarlarini yuqori baholab, uni yuksak ma'lumotli kishi deb ta'riflaydi. Temuriylar jamiyatiga yaqin shoir sifatida tan. olinishini istagan Shayboniyxon o'z she'rlari bitilgan qog'ozlarni odamlar gavjum bo'lgan yerlar, bozorlarda osib qo'yishni buyurgan.

Shayboniyxon Qur'onni yaxshi bilgan va diniy ulamolar bilan suhbat qurishni xush ko'rgan. Hukmdorning siyosiy raqibi bo'lgan Zahiriddin Muhammad Bobur ham uning musulmon dini borasida yaxshi bilimga ega ekanligini ko'rsatib o'tadi. Muhammad Shayboniyga hamroh va maslakdosh bo'lgan shaxslar ichida shayxlar, sayyidlar va xojalardan chiqqan bilimdon kishilar eslatib o'tiladi. Ularning ba'zilari xonga nisba-tan «buyuk muhabbat va sadoqat»larini ko'rsatgan bo'lib (Xondamir), keyinchalik ham hukmdorning yaqinlaridan bo'lib qolganlar. Ularning ichida Muhammad Solih tomonidan «olim kishi» deb atalgan Abdura-him sadr alohida imtiyozli o'rin egallagan edi.

Shayboniyxon islomdagi sunniy yo'nalishga rioya qilar edi. Xon o'zini «imom az-zamon va xalif ar-rahmon» deb, sunnizmni esa, Eron shohi Ismoil Safaviy tomonidan davlat dini etib tayinlangan shialikka qarama-qarshi, Shayboniylar davlatining dini deb e'lon qildi.

Muhammad Shayboniy kun tartibiga turli masalalar qo'yilgan mu-nozaralar o'tkazar edi. Ularda Movarounnahrning yirik olimlari ishtirok



etib, fikrlarini bildirar edilar. Samarqand yaqinidagi Konigilda o'tkazilgan shunday majlislarning birida urushlar va o'zaro tortishuvlar natijasida qarovsiz yerlarga aylanib qolgan mulk yerlaridan foydalanish haqida qaror qabul etilgan edi.

Shayboniyxon hukmronligi davrida tarixiy va badiiy adabiyotda o'zbek tilining mavqeyi kuchaydi.

Xonning buyrug'i bilan fors tilidagi va mo'g'ul yozuvi bilan bitilgan asarlar turk tiliga tarjima qilingan.

PODSHOXOJA (1480—1547)

Sayyid Podshoxoja ibn Abdulvahhobxoja mutafakkirning to'liq ismi bo'lib, Xoja uning taxallusidir.

Xoja 1480-yili Niso shahrida dunyoga kelgan. U dastlab otasi qo'lida, so'ngra Niso va Marv madrasalarida mufassal ta'lim olgan. Ijtimoiy faoliyatini temuriyzodalardan Niso viloyati hukmdori Kepak Mirzo hukumatida 1496-yili yozida sadrlilik (yer o'lchovchi) bilan boshlagan. 1508-yili Niso va Obivard viloyatlari Shayboniylar tomonidan zabt etilganda Xoja yetuk shoir va adib sifatida tanilgan edi. Shu yili Shayboniyxon urushdan qaytayotganida Nisoda to'xtab, Xojani Durun viloyatiga hokim qilib tayinlaydi. Shu orada Nisoga shoir amir Muhammad Solih hokim etib yuborildi. 1510-yili kech kuzida Xoja va Muhammad Solih Marv mudofaasiga keladilar, Shayboniyxon halokatidan keyin esa Xoja mamlakat ichkarisiga — dastlab Samarqand va sal keyin Buxoroga kelib vatan tutadi. 1514-yilgacha Temur Sulton, keyin Kuchkunchixon xizmatida bo'lib, 1515—1516-yillardan e'tiboran Karmana hokimi Jonibek Sulton hukumatida Jumlatulmulk, sadrlilik lavozimlarini boshqaradi.

U 1529-yili Buxoro hokimi Ubaydulloxon zamonida qisqa vaqt shayxulislomlik qilgan. 1534-yili Ubaydulloxon Nishopurga kelganda Balx hokimi Kistan Qaro undan Xojani Balxga yuborishini so'raydi. Shundan so'ng Xoja Balxda avval sadrlilik, ko'p o'tmay esa shayxulislomlik vazifasini bajaradi. 1543-yili hokim Kistan Qaro ruhiy kasallikka chalingandan keyin Xoja o'z vazifasidan ketib ijod bilan mashg'ul bo'ldi. Xoja 1547-yili Buxoroda vafot etadi va Bahouddin Naqshband maqbarasi yoniga dafn qilinadi.

Xojaning bizgacha Temur Sultonga atalgan «Miftoh ul-adl» («Adolat kaliti» 1508–1510-yillar), Kistan Qaro Odilga bag‘ishlangan «Gulzor» (1538-yil) falsafiy-axloqiy asarlari va Jonibek Sultonga atalgan «Maqsad ul-atvor» (1514–1520-yillar) axloqiy-didaktik masnaviy-dostoni hamda bir necha g‘azallari yetib kelgan. Hasanxoja Nisoriyning «Muzakkir al-ahbob» tazkirasida keltirilishicha, Xoja «Layli va Majnun» nomli asar ham yozgan, ammo bu asar haligacha topilgani yo‘q.

Xoja buyuk mutafakkir-ustoz Alisher Navoiyga ergashib, «Xamsa» yaratish orzusida bo‘lgan bo‘lishi mumkin. Xojaning «Miftoh ul-adl» va «Gulzor» nomli asarlari aksar qo‘lyozmalarda bitta kitob qilib muqovallangan. Bu ikki asar mazmun jihatidan bir-biriga yaqin turadi. «Miftoh ul-adl» asari o‘n besh bobdan tashkil topgan bo‘lib, har bir bobda ijtimoiy-siyosiy, axloqiy-ta‘limiy masalalarga bag‘ishlangan biror nazariya, ko‘p hollarda hadis yoki Qur‘on oyatlaridan keltiriladi va ularni izohlash maqsadida shoir «Nazir hikoyatlar» bayon qilib, o‘zining xulosasi bilan yakunlaydi. Masalan, asarda keltirilgan boblar: «Olimlarning bayoni», «Odil sultonlarning bayoni», «Zolim sultonlarning va zolim beklarning bayoni», «Sultonlarga mute’ bo‘lmoqning bayoni», «O‘g‘urlikning bayoni», «Zino haddining bayoni» kabi masalalar tahliliga bag‘ishlangan.

Xoja har bir bobda insoniyat ma‘naviy taraqqiyotida barcha davrlar uchun muhim ahamiyatga ega bo‘lgan muammolarni izohlab berishga harakat qilgan. Shoirning «Gulzor» asari ham mazmun va ko‘tarilgan muammolarning dolzarbligi bilan «Miftoh ul-adl»ga o‘xshab ketadi. Xoja «Gulzor» asarini Balx davlatining shayxulislomi lavozimida turib, xonning din borasidagi maslahatchisi bo‘lgan paytida yozgan. Din homiylari esa u paytlarda katta nufuzga ega bo‘lganlar. Binobarin, Podshoxoja asari ham beklar uchun davlatni boshqarish, xalq bilan qanday munosabatda bo‘lish haqida bitilgan o‘gitlarga to‘la asar hisoblanadi.

«Maqsad ul-atvor» dostoni Xojaning dunyoqarashini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Xoja insonni faqat yaxshilik qilish uchun yaratilgan, deb biladi va undagi salbiy illatlarni aql-zakovat va donolik yordamida yo‘qotish mumkinligiga ishonadi. Xoja zeb-ziynat, boylik va martaba insonga ma‘naviy fazilat bermaydi, degan xulosaga keladi. Shuning uchun ham u o‘z qarashlarida xon, bek va katta mol-dunyo egalari bo‘lgan kishilarni insofli, diyonatli, saxovatli bo‘lishga chaqirib, beva-bechoralar, kambag‘al-



qashshoqlar haqidan qo'rqmaydigan sitamgar, zolim, qonxo'r, xasis kishilarni fosh qiladi.

Xoja o'z davrining yetuk mutafakkiri, shoiri, din va tasavvuf ilmlarini ham chuqur egallagan, o'sha davrda Movarounnahrda kuchli oqimga aylangan yassaviya, qalandariya, naqshbandiya tariqatlari mohiyatini to'la anglab yetgan shayxulislom darajasiga ko'tarilgan siymolardan biri edi.

Xoja o'z qarashlarida yer yuzidagi barcha insonlar dini, jinsi, irqi, millati, tili qanday bo'lishidan qat'i nazar xudo yaratgan bandalar, deb biladi, odamlarni tutgan o'rni, mavqeyi, martabasi qanaqa — shohmi, gadomi — Haq taolo oldida teng va javobgar ekanligini aytadi. Shu bois inson nafsoniy havaslarga berilib, o'tkinchi dunyo tashvishlariga mukka ketmasligi, botiniy dunyo g'amini ham yoddan chiqarmasligi kerak degan fikrni olg'a suradi. Haqqa ruhiy komillik tufayli erishish mumkin. Buning uchun inson rostgo'y, halol, diyonatli, insofli, mehr-shafqatli, kamtar bo'lmog'i, boshqalarga yaxshilik qilib, mehr-oqibat ko'rsatish fikri bilan yashamog'i, dilozorlik, o'g'rilik, munofiqlik kabi yaramas illatlarni aql-farosat va qanoat bilan yengib o'tmog'i kerak.

Inson bu dunyoda nimaiki ish qilmasin, qanday sharoitda yashamasin undan faqat yaxshilik qoladi:

Odami uldirkim jahonda yaxshi so'z din pand olur,
Qolmas ushbu odami, ammo olami ichra so'z qolur.
So'zki keldi arshdin yer yuzini islom uchun,
Oyati Qur'ondur ulkim, nuridin partav solur.

Qolgan barcha narsalar o'tkinchi va bu zohiriy dunyo mohiyatiningina aks ettiruvchi hodisalardir.

Xoja jamiyatda ijtimoiy adolat barpo etilishi uchun shu jamiyatni boshqarib boradigan sulton, bek va yirik amaldor shaxslar, dini islom homiylarini insof va diyonatga, to'g'rilik va halollikka da'vat etadi, jamiyatning har bir a'zosi o'z huquq va burchidan to'g'ri foydalansin, degan fikrga keladi. Ayniqsa, uning mukammal jamiyatda odami teng huquqli bo'lishi lozim, degan fikri diqqatga sazovordir.

Shoir inson muayyan ijtimoiy muhitda, ta'lim-tarbiya natijasida yaxshi xulqli bo'lishi mumkin, deb o'ylaydi. Adib o'zining «Maqsad ul-atvor» degan asarida din va ilm kishini rostgo'ylikka, halollikka, poklikka, yomonni yaxshidan ajratishga olib keladi, degan fikrni ilgari suradi.

XVI asrning yetuk shoirlaridan Bobur Xojaning bir necha g'azallari bilan tanishib, unga ijodkor sifatida hurmat bilan qaraydi va o'zining mulohazalari, maslahatlarini berib turadi. Xojagon tariqatining XVI asrdagi buyuk targ'ibotchilaridan bo'lgan mutasavvuf olim Maxdumi A'zam Kosoniy asarlarida Xojani «yuksak parvozli lochin» deb ta'riflaydi.

MIRZO MUHAMMAD HAYDAR DUG'LOT (1499–1551)

Mirzo Muhammad Haydar Dug'lot — Markaziy Osiyoning XVI asrdagi atoqli muarrix, adibi va davlat arbobi bo'lib, mashhur «Tarixi Rashidiy» asarining muallifi sifatida tarix sahifalaridan mustahkam o'rin olgan. Adabiyotda ko'pincha Mirzo Haydar ismi bilan ataladi. Uning ota ajdodlari XIV–XVI asrlarda Mo'g'ulistonda hukm surgan nufuzli dug'lot amirlaridan bo'lib, Chig'atoy xonlari tomonidan in'om etilgan imtiyozlarga va tarxonlik unvoniga ega bo'lganlar, Koshg'ar viloyatining hokimligi vorisiy tarzda ularning ixtiyoriga topshirilgan edi.

Mirzo Haydarning otasi Muhammad Husayn Mo'g'uliston xoni Sulton Mahmudxon (1487–1503) bilan yaqin munosabatda bo'lib, 1493-yili uning singlisi Xo'b Nigor xonim (Yunusxonning kichik qizi)ga uylangan va ko'ragon (xon kuyovi) unvonini olib, 1495-yili O'ratepa viloyati hokimligiga tayinlangan. Shu bilan birga bir necha yil Toshkentda Sulton Mahmudxon huzurida yashagan va Mirzo Haydar bu shaharda hijriy 905 (1499-yil, avgust — 1500-yil, iyul) yili tavallud topgan. Yunusxonning o'rtancha qizi Qutlug' Nigor xonim Zahiriddin Muhammad Boburning onasi ekanligi bilan Mirzo Haydar Boburga qarindosh (xolavachcha) bo'ladi.

1503-yili Sulton Mahmudxon Axsida Shayboniyxon lashkari bilan jangda mag'lubiyatga uchragach, Muhammad Husayn O'ratepani tashlab Qoratepinga, u yerdan Kobulga Zahiriddin Muhammad Bobur huzuriga boradi. 1506-yili Bobur Xurosonga ketgan vaqtida Muhammad Husayn hukumatni egallashga qasd qilgan kishilar bilan birlashadi. Ammo bu urinish natijasiz chiqadi. Bobur qaytib kelgach, garchi gunohidan o'tgan bo'lsa-da, Muhammad Husayn endi bu yerda turolmaydi va Farg'onaga jo'naydi. 1509-yili u Shayboniyxon buyrug'i bilan qatl etiladi.

Otasini Shayboniyxon qatl etgan vaqtda 9 yashar bola — Mirzo Haydar o‘z murabbiysi Mavlono Muhammad bilan Buxoroda, Ubaydulloxon nikohida bo‘lgan opasi huzurida edi. Shayboniyxon uni ham qatl etish uchun Buxoroga maxfiy odamlar yuboradi. Buni payqagan murabbiy Mavlono Muhammad turli hiylalar bilan ularni chalg‘itib, darvesh kiyimida bolani shahardan olib chiqib ketadi. Ular Badaxshonga, Mirzoxon (1507–1521) oldiga keladilar. Buni eshitgan Bobur Mirzoxonga xat yozib, uning viloyati Shayboniyxon xavfidan emin emasligini aytib, bolani Kobulga yuborishni talab qiladi.

Mirzo Haydar Kobulda, 1509–1512-yillarda Bobur saroyida istiqomat qiladi. Undan 17 yashar katta bo‘lgan Bobur Mirzo Haydarga otalarcha g‘amxo‘rlik ko‘rsatadi, tarbiyalaydi, bilim, hunar o‘rgatadi. Boburning ko‘rsatgan g‘amxo‘rligi haqida Mirzo Haydar o‘z asarida chuqur minnatdorchilik bildirib, bir necha bor eslab o‘tadi.

1512-yili Mirzo Haydarning amakisi, Mo‘g‘uliston xoni Sulton Sayyidxon uni Boburdan so‘rab oladi. Mirzo Haydar avval Andijonga, Sayyidxon huzuriga, so‘ngra esa Sayyidxon Koshg‘arda ham o‘z hukmronligini o‘rnatgach, u bilan birga Koshg‘arga jo‘naydi va to Sayyidxon vafo etguniga qadar (1533) uning xizmatida bo‘ladi. Sayyidxon unga, «Tarixi Rashidiy»da aytilganidek, «butun lashkar va davlat ishlarini boshqarishda va barcha boshqa ishlarda cheksiz ishonch bildirib, shularning barchasini topshirib qo‘ygan». Hatto o‘z o‘g‘li Abdurashidni tarbiya qilishni ham Sayyidxon Mirzo Haydarga ishongan edi.

Hayotining ko‘p qismi xuddi Boburnikidek tinimsiz safarlar va harbiy yurishlarda o‘tganligiga qaramay, Mirzo Haydar o‘z davri uchun yuqori darajada bilim olishga muvaffaq bo‘lgan edi. Chunonchi, Mirzo Haydarning chuqur bilimli, barcha hunarlardan xabardor, yuksak qobiliyatli ekanligini Zahiriddin Muhammad Bobur «Boburnoma»da qayd qilib o‘tgan: «Otasini Shayboniyxon o‘lturgandan so‘ng Kobulga kelib mening mulozimatimda uch-to‘rt yil turib, so‘ng ijizat tilab Koshg‘arga (Sulton Sayyidxon) qoshig‘a bordi... Bu tarixda (ya‘ni, «Boburnoma» yozilayotgan 1525–1530-yillar orasida) deydurlarkim, toyib bo‘lub, yaxshi tariqa paydo qilibtur. Xat va tasvir va o‘q va paykon va zihgir — har nimga iliki chaspondur. Tab‘i nazmi ham bordur. Manga arzadosht qilib erdi, inshosi ham yomon ermas» («Boburnoma», Toshkent, 1960, 68-bet).

Haqiqatan ham, «Tarixi Rashidiy»ni o‘qir ekanmiz, muallif Mirzo Haydar o‘zining hayotiy-falsafiy mulohazalari, o‘z davri ma‘naviy-madaniy tushunchalari haqida so‘zlaganida aytib o‘tgani — o‘zi o‘qigan oltmishdan ortiq asarlarni nazarga olsak, aytish mumkinki, tarixnavisning bilim doirasi o‘z davrining yuksak ma‘rifatli, bilimli kishilari qatorida bo‘lgan. Chunonchi, mazkur asarlar mazmuniga ko‘ra, Mirzo Haydar tanish bo‘lgan quyidagi sohalarni sanab o‘tish mumkin: tarix, adabiyot va she‘riyat nazariyasi (aruz, muammo, insho san‘ati), jug‘rofiya, astronomiya, tasavvuf, fiqh, Islom dini tarixi, falsafa, arab grammatikasi va hokazo. Asarda keltirilgan Temuriylar, ayniqsa, Alisher Navoiy doirasidagi adabiy-ma‘naviy hayot haqidagi ma‘lumotlar esa mukammalligi bilan Mirzo Haydarning o‘zi ham shu davr ilmiy-madaniy va adabiy an‘analari bo‘yicha tarbiya olganligini bildiradi.

Sulton Sayyidxon xizmatida ekanligida Mirzo Haydar Badaxshon, Kofiriston, Tibet, Kashmirlarga bir necha harbiy yurishlarni boshqargan.

Sulton Sayyidxon 1533-yili vafot etdi. Uning o‘g‘li Abdurashidxon taxtga o‘tirgach, u dug‘lot amirlarini davlat ishlaridan chetlata boshladi. Dastlab u ko‘p yillar davomida Sulton Sayyidxon qoshida davlatning ikkinchi shaxsi hisoblanib, ulusbegi mansabini egallab turgan Mirzo Haydarning amakisi Sayyid Muhammad Mirzoni qatl etdi. Bu vaqtda Tibetda harbiy yurishda bo‘lgan Mirzo Haydar bundan voqif bo‘lib, Mo‘g‘ulistonga qaytishga jur‘at qilolmay, bir qancha vaqt Badaxshonda yurdi, so‘ng u yerdan Lohurga, Boburning o‘g‘li Komron Mirzo huzuriga, 1539-yili esa Agraga, Humoyun xizmatiga bordi, uning Sherxon bilan harbiy to‘qnashuvlarida qatnashdi. 1551-yili noma‘lum kishilar tomonidan uyushtirilgan suiqasd natijasida halok bo‘ldi.

Ba‘zi adabiyotlarda qayd etilishicha (Ch.A.Storining fors adabiyoti tarixiga oid asarida), Mirzo Haydarning «Jahonnoma» nomli turkiy tilda nazm bilan bitilgan asari ham bor. Muallif turkiy va forsiy tillarda she‘rlar yozganligi «Tarixi Rashidiy»ning o‘zida keltirilgan she‘riy parchalardan ham ko‘rinadi hamda Mirzo Haydarning Bobur aytganidek, «ta‘bi nazmi ham bo‘lganligi»ni isbotlaydi.

«Tarixi Rashidiy»ga kelsak, uni Mirzo Haydar Kashmirda ekanligida, 1541–1546-yillar orasida yozgan. Asarning muqaddimasida aytilishicha, uni yozishdan maqsadi Mo‘g‘uliston mamlakatining 1347-yili taxtga o‘tirgan Tug‘luq Temur davridan, to muallif zamonigacha to‘liq tari-

xini yaratishdir. U aytadi: «Mo'g'ullar islom dinini qabul qilgandan so'nggi davr haqida kichkinagina bo'lsa ham bir tarixiy asar yo'q».

«Tarixi Rashidiy» ikki qismdan iborat. Muallif ularni «daftar» deb ataydi. Birinchi daftarda Mo'g'uliston va Koshg'arda hukm surgan Chig'atoy xonlari tarixi, ulardan birinchi bo'lib islom dinini qabul qilgan Tug'luq Temurxondan boshlab, to 1533-yili taxtga o'tirgan Abdurashidxon tarixi izchil ravishda yoritilgan.

Ikkinchi daftar 1541–1542-yillarda yozilgan. Unda tarixiy voqealar va muallifning o'z sarguzasht-kechinmalari esdaliklar janrida bayon etilgan. Esdaliklar XV asr oxirlariga oid voqealardan boshlanib, 1542-yilgacha, ya'ni Mirzo Haydar Kashmirni zabt etib, shu yerda muqim turib qolgan vaqtigacha davom etadi.

Asarning birinchi qismi ikkinchisidan to'rt yil keyin yozilgan. Muallif o'z esdaliklarini yozar ekan, ko'p hollarda voqeabandlik taqozosicha, o'tgan davrlar tarixini eslatib o'tishiga to'g'ri kelgan. Bunday tafsilotlar davom etaversa, maqsadni ifodalash chalkashib ketishi muqarrar edi. Shuning uchun muallif ko'pincha esdaliklar orasida «bu haqda birinchi daftarda so'zlaymiz» deyish bilan cheklanib, esdaliklarni davom ettiraveradi va oradan bir qancha vaqt o'tgach, haqiqatan ham birinchi daftarni yozib, qariyb 200-yillik Mo'g'uliston tarixini yoritadi.

Asarning birinchi qismini yozishda Mirzo Haydar Alouddin Atomalik Juvayniyning «Tarixi jahongo'sho» va Sharafiddin Ali Yazdiyning «Zafarnoma» asarlariga tayangan. Chunonchi, sohibqiron Amir Temurning Movarounnahrda mustaqil davlat barpo etishi, uni tashqi tazyiqlardan himoya etishda Mo'g'uliston xoni Tug'luq Temur (1360-yillar), keyinroq esa asli dug'lot amirlaridan bo'lib, hokimiyatni qo'lga olgan Qamariddinga qarshi yurishlari butunlay «Zafarnoma»dan olinadi. Bunday hollarda muallif «Zafarnoma»dan naql, deb o'quvchini ogohlantiradi. Juvayniyning «Tarixi jahongo'sho»sidan olingan ba'zi parchalar oldidan ham shunday ogohlantirish beriladi. Zahiriddin Muhammad Boburning «Boburnoma» asari ham Mirzo Haydar uchun manba vazifasini o'tagan.

Bulardan tashqari, Mirzo Haydar yoshi yuzlarga borib qolgan odamlar, otasidan eshitganlari, amakilari va boshqa ishonchli zamon-doshlarining hikoyalaridan ham manba sifatida foydalanadi. O'z davri tasavvuf namoyandalarining risolalari, adabiy asarlaridan ham parchalar keltiradi.

Ammo «Tarixi Rashidiy»ning ikkinchi daftarini yozishda muallif asosan o'z esdaliklariga tayanadi, ularni garchi ayrim-ayrim sarlavhalar ostida ma'lum voqealarga bag'ishlab yozsa-da, esdaliklar uslubini saqlaydi. Bunda xolavachchasi va tarbiyachisi Boburning «Boburnoma»siga taqlid qiladi. Balki, aytish mumkinki, «Boburnoma» Muhammad Haydarning ham esdalik uslubida asar yozishiga timsol-o'mak bo'lgan. Biroq Bobur o'z asarini o'zbek tilida yozgan bo'lsa, Mirzo Haydar forsiy tilda yozgan. Ammo asar matnida ba'zi o'rinlarda keltirilgan turkiy parchalar muallifning ona tili turkiy til ekanligidan dalolat beradi.

«Tarixi Rashidiy»ni chuqur o'rganib, uni «Boburnoma» bilan solishtirgan V.V.Bartold yozgan edi: «Mirzo Haydarning asari qo'p hollarda uning xolavachchasi Boburning yodnomalarini eslatadi. Uning tarixiy ma'lumotlari xuddi Boburnikidek haqqoniyliги va betarafligi bilan ko'zga tashlanadi, jug'rofiy tavsiflar esa joylarni aniq va ravshan tasvirlaydi. — Bartold yana xulosa qilib aytadiki: — Garchi «Tarixi Rashidiy» mayda tafsilotlarning izchilligi, voqealar kechgan sanalarning aniqligi borasida «Boburnoma»dan keyinda tursa-da, biroq unda Mo'g'uliston tarixiga oid shunday ma'lumotlar keltiriladiki, ularni boshqa tarixiy manbalardan topib bo'lmaydi».

V.V.Bartoldning fikrini davom ettirib aytadigan bo'lsak, «Tarixi Rashidiy»ning ma'lumotlari, tadqiqotchilar aniqlaganidek, «Boburnoma»ning bizgacha yetib kelmagan yoki o'z vaqtida yozilmay qolgan ayrim kam-bud joylarini to'latishga ham yordam beradi. Undan tashqari «Boburnoma»da bayon qilingan voqealarning jug'rofiy kengligi Boburning o'zi bosib o'tgan joylar — Movarounnahr, Xuroson, Kobul, Badaxshon, Hindiston doirasida ifodalansa, Mirzo Haydar esdaliklarida bu yerlardan tashqari yana uning o'zi yurgan joylar: Mo'g'uliston, Koshg'ar, Tibet, Kashmirlar tasvirlanadi. Binobarin, har ikki asarni bir-biriga qiyoslab o'rganish, ulardagi tarixiy ma'lumotlar doirasini kengaytiradi va har ikkala asarning ham tarixiy manba sifatidagi ahamiyatini oshiradi.

Asarning «Tarixi Rashidiy» deb atalganligiga Mirzo Haydar uch sababni ko'rsatadi:

1. Mo'g'uliston xoni Tug'luq Temurni Islomga keltirgan Shayx Arshaduddin nomini abadiylashtirmoq uchun.

2. «Haq yo'l», «To'g'ri yo'l» ma'nosini anglatuvchi «Rushd» so'zini ta'kidlamoq chunki, Islomni qabul qilgan Tug'luq Temur o'z tobe'larini ham shu yo'lga boshlagan.

3. Asar yozilayotgan vaqtda Mo'g'ulistonda hukm surib turgan Abdurashidxon nomini eslatmoq uchunki, garchi u o'z tarbiyachisiga yomonlik istagida bo'lib, do'stlik va'dalarini unutgan bo'lsa-da, uning otasi Sulton Sayyidxonning muallifga qilgan yaxshiliklarini qadrlash uchun.

Mirzo Haydar o'z asarida Markaziy Osiyoning hozirgi O'zbekiston, Qirg'iziston, Janubi-sharqiy Qozog'iston hamda Sharqiy Turkiston hududlariga to'g'ri keladigan o'lkalar haqida yozar ekan, bu joylarda yashovchi o'zbek, qozoq, uyg'ur, qalmoq kabi xalqlarning siyosiy, xo'jalik sohalariga, madaniy hayot va bir-birlari bilan aloqalariga oid ko'plab ma'lumotlar keltiradi. Tibet, Kashmir Badaxshon hududlariga bo'lgan harbiy yurishlarni yoritganida, bu mamlakatlar haqida ham tarixiy, etnografik, jug'rofiy ma'lumotlar beradi.

«Tarixi Rashidiy»da bulardan tashqari Husayn Boyqaro, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiyilar doirasidagi Hirot madaniy-adabiy muhitiga, Movarounnahrda Ulug'bek, Xoja Ubaydulloh Ahror davridagi ilmiy-ma'naviy hayotga oid, tasavvuf namoyandalari, ularning risolalariga oid ishonchli va qiziqarli ma'lumotlarni uchratish mumkin.

«Tarixi Rashidiy»ning qo'lyozma nusxalari birmuncha keng tarqalgan. Undan Mirzo Haydardan keyinroq yozilgan Markaziy Osiyo, Sharqiy Turkiston, Hindiston tarixiga oid asarlarning barchasida foydalanilgan.

XVIII–XIX asrlarda «Tarixi Rashidiy» Muhammad Sodiq Koshg'ariy va Muhammad Niyoz ibn Abdulg'afurlar tomonidan turkiy tiliga tarjima qilingan.

Ovro'poliklardan bu asarga birinchi bor 1840-yilda V. Erskin e'tibor berib, undagi ma'lumotlarni o'z asariga jalb etgan. Undan so'ng asardan G. Elliot foydalangan. Sharqshunos S.D.Ross 1895-yili «Tarixi Rashidiy»ni ingliz tiliga tarjima qilib, nashr etdi. Bu nashrga V.V.Bartold kattagina taqriz ham yozgan. Xullas, «Tarixi Rashidiy» ma'lumotlari o'zbek, qozoq, qirg'iz, qalmoq va boshqa Markaziy Osiyo xalqlariga, ularning o'tmishdagi aloqalariga, iqtisodiy, siyosiy-madaniy hayotiga, shu mintaqaning jug'rofiy sharoitiga oid tarixiy tadqiqotlarning deyarli barchasidan foydalanilib kelinmoqda (bu haqda to'laroq ma'lumot uchun: Mirzo Muhammad Haydar. Tarixi Rashidiy, «Fan» nashriyoti, Toshkent. 1996, 710–719.-betlarga qaralsin).

O'zbekiston FA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida asarning rus tiliga tarjimasi bir necha forsiy original nusxalari asosida bajarilib, ilmiy izohlari bilan 1996-yilda nashrdan chiqarildi.

2010-yil Bobur jamoat fondi tomonidan «Sharq» nashriyat-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyatida «Tarixi Rashidiy»ning o'zbekcha nashri nashr etildi (mas'ul muharrir akademik Aziz Qayumov; tarjimonlar: Vahob Rahmonov, Yanglish Egamova).

TURDI FAROG'IY

(XVII asr)

XVII asrda yashab ijod qilgan Turdi Farog'iy o'zbek adabiyoti tarixida o'ziga xos mavqega ega bo'lgan shoir va mutafakkirlardan biridir. Shoir o'z she'rlarini ko'p hollarda «Turdi» nomi, ba'zan esa «Farog'iy» taxallusi bilan yozgan. «Farog'» Jizzax hududidagi qishloqlardan birining nomi bo'lishi ehtimoli bor.

Turdi Farog'iyning hayoti va ijodi haqida tarixiy manbalarda aniq ma'lumotlar saqlanib qolmagan. Bu to'g'rida asosan uning bizgacha yetib kelgan sanoqli she'rlari bo'yicha fikr yuritish imkonimiz bor, xolos. Turdi ijodini o'rganishga A. Fitrat, O. Sharafuddinov, H. Yoqubov kabi olimlar katta hissa qo'shdilar. Shoirning A. Majidiy tomonidan topilgan va 1924–25-yillarda nashr etilgan she'rlar qo'lyozmasi 1930-yillardagi qatag'onda yo'qolib ketgan bo'lib, uni qaytadan topish va ilmiy muomalaga kiritish 1959-yili ushbu satrlar egasiga nasib etdi. Shoir asarlari qo'lyozmasining qayta topilishi uning asarlari matnlarini to'g'ri o'qish va qayta nashr etishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu qo'lyozma hozir Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida 1407-raqam bilan saqlanmoqda.

Turdi taxminan XVII asrning 40-yillarida tug'ilib, Buxorodagi Ash-tarxoniy hukmdorlardan Nodir Muhammad va uning o'g'illari – Abdulazizxon hamda Subhonqulixonlar davrida faoliyat ko'rsatgan. U bir she'rida o'z o'tmishini eslab:

Ahli davlatlar bilan yoru harif, hamdush edim,
Hoyu-xuyi bazmlarda shahd no'shono'sh edim,
Xush zamonlar yuz qazoni boshida sarxush edim...

— deb yozishidan anglaniladiki, u oldin o'tgan bir zamonlarda amaldorlar safida qaynoq va suronli hayot kechirgan, yuz urug'ining ko'zga ko'ringan siyosiy arboblardan bo'lgan. Shu bilan birga u o'zi ham shu urug'ga mansub bo'lgani ehtimoldan uzoq emas.

Turdi o'zbek va fors tillarini yaxshi bilardi. U qarigan chog'larida yozgan «Dar mazammati sipohigari» degan she'rda o'zining asosiy kasb-kori sipohiylik («harbiylik») bo'lganini, shu kasbi bilan uzoq yillar davomida nimalarnidir tama qilib, shohlarga xizmat qilganini, lekin oxir-oqibatda hech narsaga erisha olmaganini afsus-nadomat bilan ma'lum qiladi.

Lekin harbiylik bilan bir qatorda Turdi o'z zamonasining eng o'qimishli, Sharq adabiyotidan mukammal xabardor, hayot, jamiyat haqida keng tushunchaga ega bir kishi bo'lib yetishgan edi. Uning jamiyatda tutgan mavqeyi esa o'z atrofida yuz berayotgan voqea va hodisalarga faol aralashishni taqozo etgan. Aftidan u oddiy askar emas, balki qo'shin boshliqlaridan biri, ba'zan biron siyosiy guruhning rahbari bo'lgan yoki biron shunday guruhga yon bosgan.

XVII asr Buxoro siyosiy hayotidagi eng muhim voqea Ashtarxoniy-lardan Nodir Muhammadning taxtga chiqishi, oradan ko'p o'tmay o'g'li Abdulazizxon hukmdorlikni undan tortib olishi, bu ahvol bilan kelisha olmagan kichik o'g'li — Subhonqulixonning esa akasiga qarshi uzoq yillar davomida kurash olib borishi va nihoyat, 1680-yilda o'z maqsadiga erishuvi bo'lgan edi. Subhonqulixon davlat tepasiga kelgach, raqibi — Abdulazizxonni Madina shahriga ketishga majbur etish bilan birga Turdi kabi unga yaqin turgan kishilarni ham quvg'in ostiga oldi.

Subhonqulixon davrida zulm va jaholat avj olib, ayrim urug' va ay-moqlarning manfaatlariga katta ziyon yetgan, mulklari tortib olingan, po-raxo'rlik kuchaygan. Ilm, madaniyat ham orqaga ketgan. «Tarixi Mu-qimxoniy» asari muallifi Yusuf Muhammad Munshining xabar berishicha, u 2000 bayt she'r yozgan jiyani shoir Qosim Sultonni ham vaqti kel-ganda ayamaydi — o'ldirtiradi. Oradan ko'p vaqt o'tmay mamlakatda qattiq noroziliklar yuz berib, bu pirovardida yangi hukmdorga qarshi uyushgan xalq qo'zg'olonlariga aylanadi. Turdi shubhasiz, xalq tomonida turib bu harakatlarda ishtirok etadi.

Lekin bu qo'zg'olonlar Subhonqulixon tomonidan ayovsiz ravishda bostirildi. Turdining shundan keyingi hayoti Xo'jand tomonlarda, muh-tojlik va uzluksiz ma'naviy tushkunlikda kechgan. Uning Xo'jand hokimi Oqbo'tabiy dargohidan ketib, Jizzax hokimiga mute bo'lib yashagan vaqtida yozgan turkiy muxammasi buning yorqin dalilidir. Uning biz-gacha yetib kelgan she'rlarining katta qismi shu davrda yaratilgan. Turdi taxminan 1699–1700-yillarda vafot etgan.

Turding adabiy merosi 18 she'rdan iborat bo'lib, ulardan 12 tasi g'azal, 5 tasi muxammas va bittasi fard turiga oiddir. 434 misra hajmidagi bu merosning 165 misrasi Subhonqulixon to'g'risidagi mashhur hajviyani tashkil etadi. Biroq shu merosi bilan ham Turdi o'zbek mumtoz adabiyoti tarixidan muhim o'rin egallagandir.

Diqqat bilan nazar tashlansa, Turdi ham o'z ijodini boshqa shoirlar kabi an'anaviy ishq mavzusidan boshlagani, bu sohada o'zigacha mavjud ijodiy tajribani puxta egallagani seziladi. Shoirning:

Turkona xirom ayladi ul sho'xi diloro,
Dil mulkini bir go'shai chashm ayladi yag'mo —

matlai bilan boshlangan ishqiy g'azali lirikaning yaxshi namunalaridan deb baholashga loyiq. Yana diqqatga sazovor tomoni shundaki, Turding lirik g'azallari boshqa shoirlarnikidan o'zining nihoyatda ixchamligi, ya'ni 3—4—5 baytdan iboratligi bilan ajralib turadi. Turding tasavvufiy she'rlari ham g'oyat go'zal va falsafiy teran mazmunga boy.

Turdi o'zining tasavvuf bilan bog'liq qarashlarini «Burun» radifi bilan yozilgan turkiy muxammasida shunday bayon etgan:

Lobaqodur qalbiy, qalbining bog'lama iqbolinga,
Bo'lma g'arra oriyat dunyo-vu mulk-u molinga,
Yod etib go'r-u qiyomat, yig'la doim holinga,
Bur nazar mo-u manidin, yonib o'z ahvolinga,
Ibrat ila boq, ko'zung tufroqqa to'lmasdan burun.

Lekin Turdi g'azallarining aksariyati hali hech kim qalamga olmagan, o'tkir ijtimoiy-siyosiy va falsafiy-axloqiy mavzularga bag'ishlangan. Ayniqsa, shoiming quyidagi g'azalida yurtni boshqarayotgan beklarga murojaat qilib, ularni keng fe'li, o'zaro ittifoq bo'lishga, bir-birini qabilachilik belgilariga qarab kamsitmaslikka chaqirishi, uni o'z davrining eng yuksak fikrli, vatanparvar va haqiqiy insonparvar kishi bo'lganligidan dalolat beradi:

Tor ko'ngullik beklar, manman demang, kenglik qiling,
To'qson ikki bo'li o'zbek yurtidur, tenglik qiling,
Birni qipchoqu xitoyu birni yuz, nayman demang,
Kirqu yuz ming son bo'lub, bir xon oyinlik qiling.

Bir yaqodin bosh chiqarib, barcha bir to'ng'a kirib,
Bir o'ngurlik, bir tirizlik, bir yaqo yenglik qiling...

XVII asr sharoitida Buxoro xonligida turkiy, xususan, o'zbek urug'lari o'rtasida o'zaro nizolar kuchaygan bo'lib, shoir ularning bir-biridan uzoqlashib, mamlakatning esa mayda bo'laklarga bo'linib ketishini ularning o'zlari uchun ham g'oyat xatarli deb bilar, buning oldini olishga intilar edi. Shu bilan birga u xonlikning boshqarishda ishlayotgan, «o'zbekman!» deb talonchilik bilan shug'ullanayotgan vakillarini dinsizlikda ayblashi, muttaham, bebosh sifatida fosh etishi achchiq hayotiy haqiqatga asoslangan edi.

Turding shoh asari, albatta, Subhonqulixon to'g'risidagi hajviy muxammasidir. Shoir fikricha, Subhonqulixon davlat tepasiga kelishi bilan butun mamlakatda ahvol yomon tomonga o'zgargan, osoyishtalik o'rni tartibsizlik, adl-u karam o'rni o'zaro nifoq egallagan.

Turdi yozishicha, Subhonqulixonning aybi shundaki, u taxtga o'tirishi bilanoq tajribali, ishbilarmon mulozimlarni quvib, ularning o'rniga o'z atrofida davlatni boshqarish ishidan butunlay xabarsiz, fikr-mulohazalari sayoz, axloqan tuban kishilarni yig'a boshlagan. Subhonqulixon va uning beklariga xos nuqsonlarni fosh etishda Turding hajviy qalami satrdan satrga, banddan bandga tobora o'tkirlasha boradi. Shoir bu shoh haqida:

Bid'atu zulm ani xilqatu asli zoti...
Fuqaro bo'ldi bu shoh asrida ko'zi zoru nahif,
Zulmdan bo'ldi raiyat elikim xoru zaif —

deb yozsa, uning beklariga:

Ey yuzi qora, ko'zi ko'r, qulog'i kar beklar...
Yedingiz barchangiz itdek fuqaroni etini;
G'asb ila molin olib, qo'yildingizlar bitini...

— deb xitob qiladi. Subhonqulixon faoliyatida ham ayrim ijobiy tomonlar bo'lib, Turdi esa ulardan butunlay ko'z yumadi. Masalan: u shohlik bilan bir qatorda tibbiyot masalalari bilan izchil shug'ullangan va o'z davrida «Tibbi Subhoni» degan asarni yozgan. Biz 1972-yili Afg'onistonda bo'lganimizda, Balxga yaqin Dehdodi qishlog'i masjidida Subhonqulixonning katta kutubxonasi bo'lgani haqida ma'lumotga ega bo'lgan edik.

To'g'rirog'i, Turdi bu asarida Subhonqulixon qiyofasida qattiqqo'l, johil shoh timsolini yaratishga harakat qilgan va bunga erishgan. Bunda Subhonqulixon obrazini biz to'la tarixiy real shaxs sifatida emas, balki adabiy tip sifatida baholamog'imiz zarur. Bu hajviy asari bilan Turdi o'zbek hajviyotini Alisher Navoiydan keyin yangi bir yuksaklikka ko'tardi.

Turdi Shayx Sa'diy g'azaliga bog'lagan muxammasida esa o'z ulug' salafi asarida insonparvarlik g'oyalari yanada chuqurlashtirdi. Sa'diy bu g'azalida shunday yozgan edi:

Nest on lolaki, dar bodiyaho jilvagarand,
Kushtagonandki, az xok bar ovarda sarand.

Mazmuni:

Sahrolarda jilva qilayotgan narsalar lola emas,
Balki so'yilgan odamlardirki, tufrog'dan bosh
chiqarib turibdilar.

Turdi bu bayt oldiga quyidagi uch satrni qo'shib, yangi band yaratgan va Sa'diy g'azalini to'ldirgan:

Bargi har toza gule shohidi maddi nazarand,
Varaqı safhai manzur zi ahli basarand.
Xushklab, dog' va dil tashna ba xuni jigarand.
Nes on lolaki, dar bodiyaho jilvagarand,
Kushtagonandki, az xok bar ovarda sarand.

Mazmuni:

Gulning har bir yaprog'i kishi diqqatini o'ziga tortadi,
Uning har bir gulbargi esa ziyrak kishilarga
manzur bo'ladigan bir varaqdir.
U gullar labi qurigan, dili dog', jigarining
qoniga tashnadirlar.
Sahrolarda jilva qilayotgan narsalar lola emas,
Balki so'yilgan odamlardirki, tufrog'dan
bosh chiqarib turibdilar.

Turdi muxammasining yana bir qimmatli tomoni shundaki, uning shu muxammasi tufayli Sa'diyning boshqa qo'lyozmalarda yo'q bir g'azali

bizgacha yetib kelgan. Biz 1996-yili Sherozda bo'lganimizda, u yerdagi «Sa'diy markazi» ilmiy xodimlari ham bu g'azalni ulug' shoir asarlarining Eron nashrlaridan topib bera olmadilar.

Turdi o'z she'rlarida Sharq she'riyatidagi badiiy san'atlar bilan mahorat bilan istifoda etgan holda, birinchi o'ringa hayotiy mazmuni qo'yadi, ko'p o'rinlarda uning she'riy uslubiga falsafiy tafakkur xosdir.

U o'z ijodida hamma vaqt fikrni o'tkir va tiniq holda, katta bilim va tushunchalar asosida, o'ziga, o'z orzulariga, o'z asarlarini jamiyat hayotini o'zgartira olish kuchiga qattiq ishonib qalam tebratgan.

Shuning uchun uning adabiy merosi bizning davrimizda ham katta ma'no kasb etib, kishilarimizning tarbiyasida muhim o'rin tutib, xalqimizning chinakam ma'naviy mulkiga aylangandir.

BOBORAHIM MASHRAB

(1655–1711)

Boborahim Mulla Vali (Valibobo) o'g'li Mashrab o'z ijodi bilan o'zbek adabiyotida xalqchilik, ijtimoiylik va dunyoviylikning chuqurlashuvida, jaholat va bid'atga qarshi kurash g'oyalarining kuchayishida, she'riyat shakllarining takomillashuvi hamda badiiyatning kamolga erishuvida katta o'rin tutgan so'z ustalaridan biridir.

Mashrab faqat otashzabon ijodkor sifatidagina emas, balki, ayni zamanda, adolatsizlik, zo'ravonlik, qabohat va jaholat bilan aslo kelisha olmaydigan dovyurak shaxs sifatida ham dong taratgan. Xalq tasavvurida u johil amaldorlar ustidan kuluvchi, axloqan tuban kishilarni, munofiq din arboblarni ayovsiz fosh qilib, keng omma manfaatini himoya etuvchi botirso'z, tadbirkor kurashchi tarzida shakllangan: oddiy xalq Mashrab timsolida o'z ishonchli vakilini, o'z orzu-intilishlarini baralla ayta oluvchi otashin siymoni ko'rgan.

Boborahim Mashrab hayoti va ijod yo'li haqida ma'lumot beruvchi tarixiy manbalar ko'p emas. Uning nomi XVIII–XIX asrlarda tuzilgan ayrim tazkira va tasavvufiy yo'nalishdagi asarlarda (Muhammad Bade' Malehoning «Muzakkir ul-ashob», «Tazkirai Fahmiy», «Musavvai Abdushshukur Ziy», «Tazkirai avliyo Majzub Namangoniy») zikr etiladi. Ammo ularda shoir hayoti va ijodiy faoliyati haqida keltirilgan ma'

lumotlar nihoyatda kam, uzuq-yuluq va biri-biriga zid. Mashrabning qoldirgan adabiy merosi xususida ham aniq ma'lumot beruvchi manba yo'q. Uning o'z asarlarini to'plab devon yoki biror majmua tuzganligi ma'lum emas. Faqat «Devoni Mashrab», «Devonai Mashrab», «Eshoni Mashrab», «Hazrati shoh Mashrab» nomlari ostida xalq orasida qo'lyozma va toshbosma shaklida juda keng tarqalgan qissalardagina (ularning kim tomonidan va qachon tuzilganligi aniq belgilangan emas) shoirning hayot yo'li va ijodiy faoliyati ma'lum tartib va izchillikda bayon etiladi, asarlaridan namunalar keltiriladi. Mashrab faoliyatining qator nuqtalari aniq va tarixan to'g'ri qayd etilganidan qissaning birinchi nusxalari shoirni yaqindan bilgan va asarlaridan yaxshi xabardor shaxs tomonidan, o'sha davrlardayoq yaratilgan, deb taxmin etish mumkin. Ayni zamonda, u uzoq yillar davomida o'zgartirish va tuzatishlarga duch kelgan, turli to'qimalar, yangi-yangi rivoyat, naqllar, sarguzasht va latifanamo lavhalar bilan to'ldirila borilgan. Natijada qissalarda tarixiy Mashrab faoliyati xalq tasavvuridagi to'qima Mashrab hamda u haqidagi sarguzasht-rivoyatlar bilan qorishib-chatishib ketgan. Shunday bo'lsa-da, Mashrab haqidagi qissalar shoir hayot yo'lini nisbatan to'la va bosqichma-bosqich o'zida jamlovchi adabiy-tarixiy manba sifatida ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Boborahim Mashrab 1655-yilda Namanganda kambag'al kosib-bo'zchi Valibobo oilasida dunyoga keldi. Qissa ma'lumotlariga ko'ra, Boborahim otadan yosh yetim qoladi, oilaning moddiy qiyinchiliklari yanada ortadi. Onasi ip yigirib tirikchilik o'tkazadi. Qissada bo'lajak shoirning go'dakligidanoq nihoyatda halol, ziyrak, to'g'riso'z bo'lganligi, hozirjavob va mushohadaligi bilan tengqurlaridan ajralib turishi alohida ta'kidlanadi. Har holda o'z davri bilimdonlaridan, xususan, din asoslari va falsafadan durustgina boxabar bo'lgani uchun Namanganning so'fiy eshoni Mulla Bozor Oxund nomi bilan shuhrat qozongan Xo'ja Ubaydullo qo'liga tahsil takmiliga topshirilgan. Boborahim ma'lum muddat Mulla Bozor Oxundda diniy ta'limot va so'fiy tariqatlari bo'yicha bilimini oshiradi, forsiy tilni o'rganadi, ayni zamonda, Sharq she'riyatini, xususan, uning yirik vakillari merosini qiziqish bilan mutolaa qiladi.

Taxminan 1665-yillarda Mulla Bozor Oxund tavsiyasiga ko'ra o'sha zamonda katta obro'ga ega bo'lgan yirik din arbobi koshg'arlik Hidoyatullo Ofoq Xoja eshon huzuriga boradi. Boborahim ko'p bilimlar sohibi, fozil Ofoq Xojaga sidqidildan murid tushadi, uni o'ziga murshidi komil

deb qabul qiladi va yetti yil uning dargohida xizmatini o'taycli, yumushlarini bajarib, saboq oladi, muridlari qatorida kun kechiradi. Qissalarda ta'kidlanishicha, she'riyatni yuksak qadrlagan Ofoq Xoja Boborahimning ijodiy iqtidorini yuqori baholaydi, hatto «Mashrab» taxallusini ham u tavsiya etadi. Mashrab g'azallarining birida uchrovchi mana bu baytla ham xuddi shu mazmun ifodalangan:

Quddisa sirrihu Xojam otimni «Mashrab!» dedilar,
Koshg'aru Yorkand ichida sohibi guftor o'zim!

Shoir adabiy merosidagi diniy mazmun va tasavvufiy yo'nalish ruhidagi she'rlarning ko'pchilik qismi Ofoq Xoja dargohida va uning targ'ibot-saboqlari ta'sirida yaratilgan, desak xato bo'lmas. Ofoq Xojaning shaxsiy xislat-fazilatlarini madh etuvchi, uni «piru rahbar» deb tan oluvchi bayt-misralarni tarkibida jam etgan g'azal va muxammaslar ham («Koshki», «O'zim» radifli g'azallar, «Qolmadi» radifli muxammas) shu muridlik yillari mahsulidir.

Mashrab taxminan 1672–73-yillarda Ofoq Xoja dargohini tark etishga majbur bo'ldi. Shoir hayot yo'lini bayon etuvchi qissalarda qayd etilishicha, bunga Mashrabning piri dargohidagi kanizlarining biriga ko'ngil qo'ygani, sevib-sevilgani rasmiy sabab bo'lgan. Ammo Mashrabning og'ir jismoniy jazolanib quvilishi zaminida pir bilan murid o'rtasidagi jiddiy g'oyaviy ziddiyatlar bo'lgan deyilsa haqiqatga muvofiq bo'ladi.

Mashrab Koshg'ardan 1673-yilda Namanganga — onasi yoniga qaytadi. Kasalmand onasining vafotidan keyin hech kimi qolmagan shoirning qo'nimsiz hayoti boshlanadi. Uning keyingi deyarli qirq yillik umri doimiy safarda, darbadarlikda, turli o'lkalarda musofirlikda o'tdi. Turli adabiy-tarixiy manbalar, shuningdek, qissa nusxalari Mashrab borgan shahar-yurtlari, safar tartibi haqida xilma-xil, ko'pincha biri-biridan farqli ma'lumotlar beradi. Ularda shoirning Samarqand, Xo'jand, Toshkent, Turkiston, Buxoro, Andijon, Badaxshon, shuningdek, Yaqin Sharq o'lkalariga borganligi haqida so'zlanadi. Mashrabning adabiy merosida hayot yo'lining qator nuqtalari jumlasida yuqorida sanalgan shahar — o'lkalarning ko'plari zikr etiladi. Mashrabning biror shahar-qishloqqa kelishi izsiz o'tmas edi, ma'lum shov-shuvlarga sabab bo'lardi: oddiy xalq samimiyat va xursandchilik bilan, hokim, amaldorlar, riyokor ruhoniylar esa hadiksirab, dushman ko'zi bilan sovuq qarshi olardilur.

Mashrab qo'nimsiz hayotining so'nggi nuqtasi Balxda ham xuddi shunday bo'ldi: hokim tabaqa, riyokor ruhoniylar, mutaassib mullolar unga o'zlarining ashaddiy dushmani deb qaradilar va jisman yo'qotish niyatida bo'ldilar. Natijada, «Tazkirai Fahmiy»da qayd etilganidek, «dar soli 1123 hijriy dar Qunduz bafatvoi ulamo va hukmi Mahmudbiy Qatog'on shahid karda shuda», ya'ni «1123-hijriy (1711 milodiy) yilida Qunduzda (Balx viloyatida) ulamolarning fatvosi va Mahmudbiy Qatog'on (Balx, Qunduz hokimi)ning hukmi bilan shahid bo'ldi». Otashin shoir, dovyurak shaxs, jasur qalb sohibi Boborahim Mashrab osib o'ldirildi. U xuddi Mansur Xalloy va Imomiddin Nasimiy kabi hurfikr g'oyalari yo'lida, o'sha zamonadagi hukmron tabaqalar va johil ulamolar rasmiy siyosatiga nomuvofiq dunyoqarashi yo'lida qurbon bo'ldi.

Boborahim Mashrab mumtoz adabiyotimiz buyuk namoyandalarning ilg'or an'alarini o'rganib yirik shoir bo'lib shakllandi, kamolga yetdi. U qoldirgan merosda, birinchi navbatda, ishqi mavzudagi g'azal-muxammaslardan ana shu an'alarining barakali ta'sirini aniq kuzatish mumkin. Masalan: Mashrab Lutfiyning mashhur:

Sen-san sevarim, xoh inon, xoh inonma,
Qondur jigarim, xoh inon, xoh inonma —

matlaini o'zgartirmay qabul qilib, uni shu o'ynoqi vazn, shu qofiya va radif, shu ruhda davom ettiradi, buyuk ustoziga hurmat hamda san'atini tan olishi belgisi sifatida o'xshatma g'azal yaratadi.

Mashrabning ijodiy kamolotida, ayniqsa, Navoiy merosining ijobiy ta'siri katta bo'ldi. Shoirning eng yaxshi asarlarida biz Navoiy ijodiga xos falsafiylik va dunyosevarlikni ko'ramiz, mazmunning hayotiyligi, xalqchilligini, vazn ravonligi va o'ynoqiligini qayd etamiz, mavzu tanlash va uni badiiy talqinida yaqinlik va o'xshashlikni uchratamiz. Mashrab muxammaslardan birida ma'shuqaning uchrashuv haqida oshiqqa va'da bergani, oshiqning tunlarni bedor o'tkazib, intizorlik bilan vasl daqiqalarini kutishi to'g'risida so'z boradi. Ammo, ma'shuqa va'dani buzadi, vafosizlik ko'rsatib uchrashuvga kelmaydi. Muxammas oshiqning ana shu holatdagi hayajonini, his-tuyg'ularini, hijronda yorni kutishdagi nozik kechinmalarini yuksak badiiylik bilan nihoyatda jonli ifodalaydi:

Va'da qildi bir kelay deb, ko'zga uyqu kelmadi,
Termurub yo'lida qoldim, sho'xi badxo' kelmadi,

Necha keldi shum raqiblar, ul parirol kelmadi,
Dardidin o'ldim, tabib, dardimg'a doru kelmadi,
Men shahidi ishq bo'ldim, qatrai suv kelmadi.

O'n ikki band davomida mavzuni shu yuksak saviyada badiiy tahlil etuvchi bu muxammas Mashrab ijodiga Navoiyning barakali ta'sirini ko'rsatuvchi yaqqol misol bo'la oladi. Bunda ulug' shoirning: «Kecha kelgumdur debon ul sarvi gulro' kelmadi» misrasi bilan boshlanuvchi mashhur g'azalidan Mashrab ilhomlanganligi ko'zga ravshan tashlanadi.

Mashrab Navoiy merosidan lirikada jiddiy ijtimoiy mazmun ifodalashni, norozilik ohanglari va tanqidiy fikrlarni ishq-muhabbat mavzusidagi she'rlar jismiga «joylab yuborish» mahoratini ham o'zlashtirdi, ijodiy rivojlantirdi.

Mashrab ijodidagi ijtimoiy mazmundorlik va kuchli tanqidiy yo'nalish shoirning ilg'or dunyoqarashi, xalqchil falsafasi, zamonasidagi salbiy voqea-hodisalarga aniq tanqidiy munosabatidan shakllangan. Qat'iy aytish mumkinki, chuqur ijtimoiylik va kuchli tanqidiy munosabat Mashrabning umumijodiy faoliyatida ustivorlik qilgan hamda yaratgan ko'pdan ko'p asarlarining asl fazilati darajasiga ko'tarilgan.

Shahar va qishloqlar ezilgan ommasining g'am-u hasratlarga to'la kulfatli hayotini badiiy tasvirlash xalqchil shoir ijodida yetakchi mavzulardan biri bo'lgan. Doimo xalq ichida yurib, uning yashash sharoiti va orzu-intilishlaridan yaqindan xabardor bo'lgan Mashrab mashaqqatli hayotni haqqoniy badiiy lavhalarda mahorat bilan tasvirladi, nihoyatda soddada, ravon, ammo mazmunan zalvorli misralarda samimiy hamdardlik va yurakdan achinish tuyg'ularini ta'sirchan ifodaladi. She'rlaridan birida «Azaldin men dili g'amgin xaloyiq xaylini sevdim!» deb yozgan shoir boshqa bir o'rinda «O'zimdek xonavayronlarni ko'rsam zor yig'larman!» deya ezilgan ommaga to'la xayrixoh ekanligini alohida ta'kidlaydi.

Mashrab she'riyatida «ko'zi yoshli», «baxti qaro», «dard ahli»ga, «g'am xayli»ga hamdardlik, ular bilan hamdamlik g'oyalari qayta-qayta takrorlanishi bejiz emas.

Mashrabning «Tanho» radifli muxammasida bevosita xalq va uning turmush sharoitini haqqoniy ko'rsatuvchi lavhalar chizilgan. Har bir o'quvchi yuragini o'rtovchi mana bu misralar shoir ijodining to'la xalqchil mohiyatiga ishonchli dalildir:

Dili tig'i sitamdin pora bo'lgan xalqni ko'rdim,
Tanu dardu alamdin yora bo'lgan xalqni ko'rdim,
Ko'zi vaqti sahar sayyora bo'lgan xalqni ko'rdim...

Boborahim Mashrab qoldirgan ijodiy merosda diniy va tasavvufiy g'oyalar ham, o'sha zamonda keng tarqalgan qalandarlik tariqatining ayrim ohanglari ham sezilarli o'rin egallaydi. Shoir islomning asosiy nazariy qoidalarini shubhasiz qabul etadi. Ammo, ayni zamonda, islom ta'limotining bir qator zohiriy belgilarini, birlamchi deb hisoblangan qonun-qoidalarini, shariatning ayrim ko'rsatma-talablarini, farz-sunnatlarini tan olmaslik va past nazar bilan qarash ham ko'zga tashlanadi, ayrim diniy rukn-tushuncha va muqaddas deb bilingan marosim va odatlarga, talqin va aqidalarga shubha bilan qarash, hatto, ochiqdan ochiq mensimaslik va masxaraomuz munosabat ancha-muncha uchraydi.

Turli-tuman shakl va talqinlarda jilolanuvchi bu dunyoqarashning butun mohiyat-mag'zi shoirning quyidagi qat'iy e'tirofida nihoyatda yaqqol va lo'nda ifodalangan:

Bir Xudodin o'zgasi barcha g'alatdur, Mashrabo,
Gul agar bo'lmasa ilkimda tikonni na qilay?!'

Ha, birgina qudratli yaratuvchidan boshqa hamma-hammasi «g'alat», deydi shoir. Baytda Mashrab birinchi misra mazmunini ikkinchi misrada hayotiy va tasavvufiy ramz-timsollar vositasida namoyon etadi.

Umuman tasavvuf ta'limotida bo'lganidek, Mashrab ijodida ham, faqat Allohningina tan olish, yakka ungagina chin muhabbat qo'yish va uning vasliga talpinish jarayonida barcha «g'alat»larni rad etish so'fiy adabiyotda asrlar davomida qaror topgan ramz-timsollar, tushuncha-iboralar («Ishq», «Muhabbat», «Yor», «Jonona», «Gul», «May», «Boda», «Visol» va boshqalar) vositasida amalga oshirilgan.

Albatta, Mashrab she'riyatining har bir namunasidan tasavvufiy mazmun va so'fiy ramz-timsollarni qidirish, har bir holatda ma'shuqa madhi va uning vasliga intilish zaminida Yaratuvchi madhi va unga sig'inish, talpinishni tushunish xatodir.

Mashrab qoldirgan ijodiy merosda hayotiylik, tirik inson va uning insoniy kechinmalarini ifodalash, xislat-fazilatlarini ta'riflash, orzu-umidlari, shodlik-quvonchlari va g'am-tashvishlarini haqqoniy tasvirlash ham sal-

moqli o'rin egallaydi. Bu mavzu asosan, hayotiy ishq-muhabbatni ulug'lash, go'zal yorni — ma'shuqa husn-u latofatini ta'riflash, oshiqning sevgi-sadoqatini, yor vasliga intilishini ishonchli tasvirlash jarayonida tahlil etiladi.

Hayotiy ishq-muhabbat mavzusi Mashrab ijodida Sharq she'riyatining g'azal, mustazod, murabba' va muxammas, shuningdek, musaddas va musabba' turlarida ishlandi. Bu guruh asarlari asosida tashvish va lazzatlarga to'la insoniy sevgi yotganligini ko'ramiz. Shoir ma'shuqa siymosini chizar ekan, shunday badiiy mahorat namoyish etadiki, natijada lirik «men» ko'nglini zabt etgan yor o'quvchi ko'zi oldida o'zining butun ayollik latofati, nazokati, ichki hissiyoti, xulq-atvori, sharm-u hayosi, nozu-jilvasi, kiyinishi, yurish-turishi bilan jonli gavdalanadi; o'quvchi ham uni oshiq qatorida sevib qoladi, o'zida ham qandaydir latif hissiyot jo'sh urayotganini, ko'nglida nozik kechinmalar tug'yonga kelayotganini sezadi. Xuddi shuning uchun ham o'quvchi oshiqning alam-iztirobiga, hijronda cheksiz qiynalayotganiga ishonadi, oshiq bilan hamkorlikda xayolga cho'madi, ezgu orzularga beriladi, uning qayg'usiga sherik bo'ladi.

Chindan ham Mashrabning ishqiy lirikasi, uning barcha she'rlari kabi, hayotiy mavzusi va jo'shqinligi, nihoyatda ravon va o'ynoqiligi, xalq qo'shiqlari kabi sodda va samimiyligi bilan tinglovchilar qalbiga tezda yo'l topa biladi, ularga badiiy zavq baxsh etadi. Shoir agar ta'bir joiz bo'lsa, asarlarining shu fazilatlar bilan she'riyatda Mashrabona uslub yaratdi. Aytilgan fazilatlar jumlasiga sho'x vazn va jarangdor radif-qofiyalar tanlash, xalq jonli tilidan o'rinli va unumli foydalanish, har bir misraga sur'at va jo'shqinlik baxsh etish mahoratini ham kiritish joiz.

Mashrabning adabiy merosi to'g'risida so'z borganda, uning mustazod va murabba'lari xususida alohida to'xtash zarurati bor. Ta'kidlash lozimki, shoir o'tmish she'riyatimizda eng ko'p va har jihatdan yetuk mustazod yaratgan ijodkor sifatida bu o'ynoqi va sho'x lirik turning adabiyotimizda uzil-kesil mustahkamlanishi va boyishiga katta hissa qo'shdi. Mashrab mustazodlarida insoniy sevgi-muhabbatni kuyladi, shu zamin go'zalini madh etdi, uning barkamol chiroyi va latofatini ulug'ladi, sadoqat va vafodorlikni chin ijobiy fazilatlar sifatida targ'ib etdi.

Shoirning butun ijodiy faoliyatiga xos bo'lgan xalqona uslub va badiiy-tasviriy vositalar rang-barangligi uning murabba' va muxammalarida ham ko'zga ravshan tashlanadi. Ayniqsa, har bir bandi:

- Ey bod, yetkur, yora salomim!
- Yorga yetar kun bormu, yoronlar?! –

misralari bilan yakunlanuvchi romantik ruhda bitilgan murabbalari o‘z g‘oyaviy-badiiy kamoloti jihatidan alohida ajralib turadi. Mashrabning lirik shoir sifatida yuksak badiiy mahorati uning sakkiz band – ellik olti misradan tashkil topgan musabbasida ham butun fazilatlarini bilan yuzaga chiqqan.

Vah-vah, na go‘zalsan, na ajoyib, na qiyomat!
Hay-hay, na jafo qilsa sanam – jonima rohat! –

bayt-radifi har bandida takrorlanuvchi bu musabbanini umuman o‘tmish she‘riyatimizda yaratilgan bu tur asarlarining eng yetuk namunalari qatoriga kiritish mumkin. Mashrab ko‘p bo‘lmasa-da, fors tilida ham qalam tebratdi, qator g‘azal, muxammaslar yaratdi, «shiru shakar» (mulamma‘) shaklida namunalar bitdi.

Ko‘p asrlik adabiyotimiz tarixining eng yorqin namoyandaligidan biri bo‘lgan Boborahim Mashrab ijodi she‘riyatimizni ko‘pdan ko‘p yetuk asarlar bilan boyitdi, uning keyingi rivojiga barakali ta‘sir ko‘rsatdi.

Tabiiy g‘urur bilan faxriya uslubida:

- Shuhrati she‘r bobida, Mashrabo, mo‘tabar o‘zum!
- Mashrabo, har bir so‘zingdur gavhari qimmatbaho! –

misralarini bitgan shoirning badiiy barkamol asarlari xalqimiz ma‘naviy mulkining muqaddas va mo‘tabar bir qismiga aylangan.

SO‘FIY OLLOYOR

(1644–1724)

So‘fiy Olloyor o‘zbek mumtoz adabiyotida tasavvuf adabiyoti an‘analarini izchil davom ettirib, o‘ziga xos maktab yaratgan adib, shoir va mutafakkirdir. Shoir 1644-yilda Kattaqo‘rg‘on bekligiga qarashli Minglar qishlog‘ida Olloquli (Temiryor) xonadonida dunyoga kelgan. So‘fiy Olloyor dastlab Shayxlar qishlog‘idagi masjid qoshidagi maktabda, so‘ng Buxorodagi madrasalarda ta‘lim olgan. Madrasani tugatgandan keyin Jo‘y-

bor shayxlari qo'lda tahsil ko'rgan. So'ng So'fiy Olloyor ma'lum bir muddat Buxoroda, Abdulazizxon saroyida soliq yig'uvchi bo'lib ishlagan. Lekin tabiatan rahmdil, ko'ngilchan So'fiy Olloyor bu ishda ko'p ishlamadi. Boylik orttirmadi. Ilm olishga, tasavvufni chuqur o'rganishga, badiiy ijodga qattiq kirishib ketdi. Tinmay ijod etdi. Bunga ham qanoat qilmay o'zidan bir pog'ona yuqori turgan mashhur mutasavvuf shayx Habibullohga shogird tushdi. O'n yildan keyin shayxlik martabasiga ko'tarildi.

Mutasavvuf shoir bu davr ichida «Maslak ul-muttaqiyin», «Sabot ul-ojizin», «Murod ul-orifin», «Siroj ul-ojizin», «Mahzan ul-muti'n», «Najot ut-tolibin» kabi diniy-falsafiy asarlar yaratdi. So'fiy Olloyorning bu asarlarida Qur'oni karim oyatlari, Hadisi sharif hikmatlari va tasavvuf g'oyalari ajib bir tarzda uzviy bog'lanib ketgan. Faylasuf shoir oqizlarga, yo'ldan ozganlarga hidoyat va najot yo'lini ko'rsatib beradi. Toliblarga to'g'ri yo'l ko'rsatadi. Insof-u adolatni, halollik va to'g'rilikni, oriflik, oshiqlik, xilvat va uzlatni to'lib-toshib kuylaydi, nafs va xudbinlikni qattiq tanqid qiladi. Dunyo lazzatlaridan voz kechib, o'zni Haqning inonixiyoriga topshirish falsafasini ilgari suradi. Markaziy Osiyoda keng tarqalgan Yassaviya — Jahriya tariqati g'oyalari uchun kurashadi.

So'fiy Olloyor she'rlarida dunyoviy ishq-muhabbatni ham to'lib-toshib vasf etgan. Shoir g'azallarida qo'llanilgan badiiy-tasviriy vositalar kishini maftun qiladi:

Ko'rk uchun tushti ziloli la'la mushkin xattu xol,
Tutti suhbat Xizr ila Kavsar qirg'og'inda hilol.
Nargisi masting xumori bodadin gulgunmudir?
Yo budurkim lolazor ichra tushan vahshi g'izol...

So'fiy Olloyor dunyoviy ishq mavzusida bitgan she'rlarida ijtimoiy mazmundagi fikrlarini ham bayon etadi. Shoirning quyidagi baytlari fikrimizni to'la tasdiqlaydi:

Hech ishim ro'yi zamin ichra kifoyat bo'lmadi,
Baxti kajimni so'rog'in berdi Qof arqosida.
Qo'l sunub olguncha tegdi davr ayog'i o'zgaga,
Ko'z yumub ochkuncha umr o'tti jahon g'avg'osida...

Shoir g'azallarida mahbubaning ma'naviy latofatini alohida shukuh bilan tarannum etadi. Ularda tasvir etilgan mahbuba mavhum ilohiy paripaykar, huru g'ilmon emas, siz bilan biz yashab turgan haqiqiy dunyodagi go'zal qiz siyмосi. So'fiy Olloyorning g'azallarini dunyoviy adabiyotning yaxshi namunolari qatoriga qo'yish mumkin.

So'fiy Olloyorning «Sabot ul-ojizin» deb nomlangan asari falsafiy-didaktik adabiyotning eng yaxshi namunalaridan biridir. Unda pir bilan shogirdlar o'rtasidagi munosabatlar xususida fikr yuritilgan. Ustozning shogirdlari oldidagi vazifalari, aksincha, shogirdning pir oldidagi burchlari haqida bayon qilingan:

Kerak murshid bergan monandi ummon,
Muborak botini pur durri marjon.
Jaholat dashtidin kim kelsa suvsab,
Aning tohir suvidan bo'lsa serob.
Agar bo'lsa kase, kim tolibi dur,
Cho'mub botinga jaybin aylasa pur...

Asarda komil insonni tarbiyalab yetishtirish asosiy masala qilib qo'yilgan. Muallifning fikricha, inson ma'lum e'tiqodga ega bo'lishi zarur. E'tiqodsiz, aniq maqsadsiz kishi behuda umr kechirgan bo'ladi. Umri zoye ketadi. Unga to'g'ri yo'lni ko'rsatish darkor.

So'fiy Olloyor inson fe'lidagi salbiy jihatlarni qanchalik iztirob bilan tasvirlasa, ijobiy tomonlarni shunchalik zavq-shavq bilan kuylaydi. Odamlarni ochiqko'ngillikka, shirinso'zlikka, rahmdillikka, mehr-oqibatga, saxovatga da'vat etadi:

Ochuq qo'llik, kushoda yuzli bo'lg'il,
Muruvvatlik, muloyim so'zli bo'lg'il.
Muloyim til bilan beharbu bezarb,
Birovni keltirurlar sharqdan g'arb,
Suchuq tildir ajib ganji muazzam,
Ato qilg'on hech bo'lmag'ay kam...

So'fiy Olloyor o'zbek adabiyoti tarixida tasavvuf ta'limotini rivojlantirishga munosib hissa qo'shgan shoirdir. U o'z she'rlarida so'fiylikning axloqiy masalalarini keng targ'ib qildi. Odam faqat shu yo'l bilan ha-

qiqat va komillikka erishadi, degan falsafani olg'a surdi. So'fiy Olloyov asarlarini fors, arab tillarini puxta bilgan holda sodda o'zbek tilida yozdi. Shuning uchun shoir asarlari xalq ommasida keng tarqalgandir. Shoir asarlari Toshkent, Qozon, Boku, Istanbul va boshqa shaharlarda toshbosma yo'li bilan bir necha marta bosilib chiqqan.

MAXTUMQULI (1733–1793)

Maxtumquli mashhur turkman shoiri va mutafakkiri, turkman adabiyoti, madaniyati rivojiga ulkan hissa qo'shgan talant sohibi. U shoir Ozodiy Davlatmamat oilasida 1733-yilda tug'ilib, boshlang'ich savodni ovul maktabida oladi. So'ng o'z ilmini oshirish maqsadida Xiva, Buxoro va Andijon madrasalarida tahsil olib, o'zbek adabiyotining o'tmish namoyandalari asarlari bilan yaqindan tanishadi. Maxtumquli bir qancha fanlarni o'zlashtirish bilan birga, zargarlik hunarini ham egallaydi. U Turkistondagi shaharlardan tashqari Ozarbayjon, Eron, Afg'oniston, Hindistonga ham sayohat qilib, ajnabiy yurt hayoti, u yerlardagi xalqlar turmushi bilan ham tanishadi. Markaziy Osiyo, Ozarbayjon, Eron folklori va adabiyotini chuqur o'rganadi, Nizomiy, Fuzuliy, Alisher Navoiy, Firdavsiy ijodidan bahramand bo'ladi. Maxtumquli ayniqsa, o'zbek madaniyati tarixi bilan yaqindan tanishib, bir qancha liro-epik dostonlar, juda ko'p g'azallar yaratib, o'z davri hayotini, o'z xalqi urf-odatlarini, o'tmish tarixini kuylaydi.

Maxtumquli ijodining turkman adabiyoti tarixidagi o'rni, uning o'zbek-turkman adabiy aloqalar sohasidagi ahamiyati B. Qoriyev, G. Choriyev, M. Koseyev, U. Abdullayev, A. Qilichdurdiyev kabi taniqli turkmanistonlik olimlarning ilmiy ishlarida qalamga olingan.

Iste'dodli turkman shoirining o'zbeklar o'rtasidagi obro'-e'tibori, uning jo'shqin she'riyati professor J. Sharipov, Q. Tohirov va K. Kuramboyev kabi o'zbek olimlarining ishlarida ham tadqiq etila borgan maroqli bir holdir. Maxtumquli asarlarining mavzulari, janriy xususiyatlari, shakli o'ziga xosligi, asarlari tilining nihoyatda xalqchilligi bilan ko'p asrlik turkman adabiyotini yangi bir bosqichga ko'tardi. Shoir asarlarining yetakchi g'oyasi — bu turkman yeri ustiga yopirilib turadigan chet el

bosqinlariga barham berish, tarqoq yashayotgan, o'zaro nifoq va ziddiyatlardan zada bo'lgan qabila hamda urug'larni birlashtirish bilan osovish talik va ittifoqlikka asoslangan qudratli bir davlatni barpo etishdek milliy vatanparvarlik his-tuyg'ularidan iborat. Ana shu millat manfaatlarini yo'lida qayg'urish, ma'rifatparvarlik yo'li bilan bu g'oyani samarali kuchga aylantirish shoir ijodining asosiga aylandi. Bu yo'ldagi izlanish, she'riyat kuchi bilan yuksak ufqlarga talpinish Maxtumqulini o'z davrining ko'zga ko'ringan taraqqiyparvar siymosi darajasiga ko'tardi.

Turkman adabiyoti tarixi tadqiqotchilarining ta'kidlashlaricha, Maxtumquli o'z davrida el va yurt qadr-qimmatini oyoqosti qilib kelayotgan illatlarni hammadan ko'ra ko'proq anglab yetdi. Shoir asarlarida zamon-doshlarini o'z davrida ro'y berib turgan voqealarning mohiyatini chuqur idrok qilib ish tutishga chaqirdi.

Pand-nasihat Maxtumquli ijodining muhim bir yo'nalishi bo'lib, shoirning bizgacha yetib kelgan poetik merosi o'sha davr adabiy hayotining hamma mavzularini qamrab oladi. Zotan, Maxtumquli ijodining talqinchilik kasb etib, ravnaq topib borishida Sharq lirikasi an'analari bilan bir qatorda turkiy qo'shiqlar, folklor murabbalari shaklidagi ijod namunalari o'rni katta bo'ldi.

Maxtumquli ijodida Ahmad Yassaviy pandnomalari uslubining izlari yaqqol ko'zga tashlanib turadiki, odamning hayotda o'z maqomini idrok qilishi, ota-bobolarning hamma yaxshi xislatlarini o'zlashtira borishi va aksincha, takabburlik, manmanlik, dilozorlik, mol-davlatga hirs qo'yish, nafs kuyiga kirib ketish kabi illatlarni yengish g'oyalari pandnomalarning asosiy mazmunini tashkil etadi.

Maxtumquli o'z she'rlarining birida o'zbek xalqining mutafakkir shoiri Alisher Navoiyni ustoz sifatida hurmat bilan tilga oladi. Uning «Chordevon»i haqida to'lqinlanib gapiradi. Shoirning bu talqinlarida asos bor, albatta. Alisher Navoiy turkman xalqi tarixi, madaniyatini yaxshi bilgan. Uning bevosita Marv, Saraxs, Obivard kabi turkman manzillarida bo'lganligi haqida ma'lumotlar saqlangan. Bugina emas, Navoiy o'z zamoni-da Marvda «Xusraviya» nomi bilan madrasa qurdirib, bu yerda tolibi ilmlarni iqtisodiy jihatdan qo'llab turgan. Shu o'rinda Navoiyning Oqqayunli turkmanlarning sultonlaridan Yaqubbek bilan yaqin munosabatini ham eslash kerak bo'ladi.

Navoiy «Majolis un-nafois», «Nasoyim ul-muhabbat» kabi asarlarida turkman mavzalaridan bo'lgan yoki shu yerlardan Xurosonga kelib ijod qilayotgan bir qancha turkman so'z ustalarini qalamga oladi, ularga hurmat bildiradi. Jumladan, ulardan Ruhiy Yoziriyini «tab'i xo'b va suluki marg'ub kishi erdi», deb ta'rif etadi.

Alisher Navoiy asarlari o'zbek va turkman adabiy aloqalarining taraqqiy etib borishiga katta ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Turkman adabiyoti tarixchilari Andalib, Shaydoniy, G'oyibiy, Shukriy va Ozodiy kabi turkman shoirlarining Navoiy an'alarini ijodiy davom ettirishda muvaffaqiyatga erishganliklarini yozadilar.

Maxtumquli Navoiyning lirika sohasidagi an'alaridan ko'p bahramand bo'ldi. Ustozning g'azal va muxammaslari uslubida manzur asarlar yaratdi. O'z asarlarida go'zallik timsoli bo'lgan mahbuba siymosini chuqur muhabbat bilan chizdi. Maxtumquli go'zalga «Oltinmisan, kumushmisan, namasan?»», «Yo yoqutmi, yo marjonmi, durmisan?» deb savol bilan murojaat etadi.

Shoir el-yurt qismatiga beparvo odamlarni «nodon», «nomard» sifat-lari bilan ataydi. Nomard biror ishga qo'l urgudek bo'lsa darhol horib qoladi. Biror kishi bilan gaplashganda qat'iyatsizligini darhol bildirib qo'yadi. Uyg'a kelgan mehmonga ham zahrini sochadi. Mardlar kirgan maydonga kirolmaydi. Butun bir qabila yoki urug'ning izzat-nafsini yerga urishdan qaytmaydi. Agar shunday nomard saltanat taxtiga o'tirib qolsa, u taqdirda ho'l-u quruq baravar yonadi. Maxtumquli «Fattoh» deb atalgan hajviy asarida shunday shaxslarning umumlashma obrazini yaratgan deb aytish mumkin:

Sen turkmaning elin gulin so'ldirding,
Qonlar to'kib go'zal yurtim to'ldirding,
Shahid bo'lganlarning boshin qoldirding,
Unutarsan taxti ravonni sen Fattoh.

Maxtumquli o'z davrining jarohatlariga aql-zakovatni, imon va e'tiqodni, ahillik va hamjihatlikni, ajdodlar udumiga asoslangan hamdardlik va adolatli kurashni qarshi qo'yadi va bu tuyg'uni poetik so'z qudrati bilan ma'naviy qurol darajasiga ko'taradi.

Maxtumquli islomiy bilimlarni chuqur o'zlashtirgan orif bir shaxs edi.¹ Shunga ko'ra ham uning pand-nasihat ruhidagi she'rlarida Qur'on oyatlari, Muhammad payg'ambar hadislariga ko'p murojaat etilgan... Ulardagi purmag'z ta'limiy-axloqiy dasturlardan davrdagi voqea va hodisalarning mohiyatini ochib berishda mohirona istifoda etgan. Maxtumquli asarlarining til xususiyatlarini kuzatayotgan olimlar haqli ravishda uning soddaligi, shiradorligi, xalq jonli so'zlashuviga yaqin turishini ta'kidlaydilar. Shoir o'z asarlari tilida xalq maqollari va obrazli iboralarini mahorat bilan qo'llash orqali ham tilning jonliligiga erishgan... Shoirning she'rlarida qo'llangan badiiy vositalar ham o'z talqinlari bilan xalqona, ayni paytda ma'nolidir. Uning ayrim misralari xalq hikmatlariga aylanib ketgan. Maxtumquli bir o'rinda turkman yerlarini «Xizr kezgan cho'llar» deb faxr qiladi. Uning binolarining mangu qad ko'tarib turishiga umid bog'laydi. Shunday bo'lgach, uning yigitlari ham chilladagi mastlik uyqusidan, ya'ni g'afolat uyqusidan uyg'onish, ahil bo'lib bir dasturxon atrofiga to'planishi kerak. Shoir bu o'rinda o'z vatandoshlarini birlashtirishga chaqiradi.

Maxtumquli she'rlari mazmunliligi va latif badiiyligi bilan o'ziga mangulik haykalini qo'ydi. Asarlaridan birida o'ziga xitob qilib: «Go'zal dostonlaringni elingga baxshida qil» deb yozgan edi. Shunga ko'ra shoirning merosi davrlar osha turkman xalqi ardog'ida yashab kelmoqda. Shoir turkmanlar orasida mashhur donishmand adib sifatida nom qozongan bo'lsa, o'zbekning ham eng sevimli shoiri sifatida ma'lum bo'lib ketgandir.

Turkmaniston Fanlar akademiyasining qo'lyozma fondida Maxtumquli asarlarining yuzga yaqin nusxasi to'plangandir. Uning «Tanlangan asarlari» tarjimashunos J. Sharipov tomonidan o'zbek tiliga o'girilib, 1958-yilda Toshkentda chop etilgan edi. 1976-yilda «Maxtumquli she'riyatidan» nomi bilan yangidan nashr yuzini ko'rdi. O'zbekistonda shoir ijodi yuzasidan bir qator tadqiqotlar e'lon qilingan. Har subhidam havo to'lqinlarida Lutfiy va Alisher Navoiy qo'shiqlari sirasida o'zbeklar uchun sevimli bo'lib qolgan Maxtumquli qo'shiqlarini ham eshitamiz.

Ch o r i y e v G., Maxtumquli. Tanlangan asarlar. So'zboshi, Toshkent, 1958. 13-bet.

UVAYSIY (1779–1845)

O'zbek adabiyoti tarixida munosib o'ringa ega bo'lgan Jahon otin — Uvaysiy XVIII asr oxiri XIX asrning 1-yarmida yashab ijod etgan mashhur o'zbek shoirasidir. U Marg'ilon shahrining Childo'xtaron mahallasida, taxminan 1779-yilda dunyoga kelgan. Jahon otinning otasi to'quvchi, ham kosib bo'lib, o'zbek va tojik tillarida she'rlar yozgan, onasi Chinnibibi esa o'z davrining donishmand ayollaridan bo'lib, maktabdorlik qilgan. Jahonbibi oilada xat-savodini chiqarib, so'ng onasining yonida maktabdorlik, akasi Oxunjon hofiz yordamida esa kuy-musiqaga rag'bat paydo qilgan. Jahonbibining hayot yo'ldoshi Tojixon juda erta vafot etgach, u qizi Quyosh va o'g'li Muhammadxonlarni o'zi tarbiyalab voyaga yetkazdi. Jahonbibi oila a'zolarining ta'sirida ko'proq shaxsiy mutolaaga berilib, o'zbek, tojik va ozarbayjon allomalarining asarlarini muhabbat bilan o'qib, Vaysiy, Uvaysiy taxallusi bilan she'rlar yoza boshlaydi va tez orada shoira, otin sifatida taniladi.

Uvaysiyning hayoti o'z davrida Markaziy Osiyoning katta ilm-fan va madaniyat markazlaridan bo'lgan Marg'ilon hamda Qo'qonning iste'dodli adib va shoirlari davrasida o'tdi. Mohlaroyim — Nodira bilan ijodiy hamkorlikda bo'lgan. Saroyda she'riyat ilmidan dars berib, ustozlik qildi, Nodira bilan Konibodom, Xo'jand, O'ratepa, Toshkent, Andijon kabi shaharlarda bo'lib, ijodiy doiralar va ziyolilar bilan munosabat o'rnatdi. 1842-yili Buxoro amiri Nasrullaxon Qo'qonni egallagach, Marg'ilonga qaytib, umrining oxirigacha shu yerda yashadi.

Oltmish yildan ko'proq umr ko'rgan Uvaysiydan bizga kattagina adabiy meros yetib kelgan. Uning qo'lyozma devonlari O'zbekiston Fanlar akademiyasi Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti va Andijon Davlat pedagogika universiteti kutubxonasida saqlanmoqda.

Shoira devonining qo'lyozmalarini aniqlash, ommalashtirish va tadqiq etishda akademik A. Qayumov, professor H. Razzoqov va E. Ibrohimovalarning xizmatlari kattadir.¹

¹ U v a y s i y. Devon, Toshkent, «Fan», 1958-yil. U v a y s i y. Devon, Toshkent, 1963, E. Ibrohimova, Uvaysiy, T., «Fan», 1963.

Shoiraning 4 ta devon tuzganligi ma'lum. Uvaysiy ijodining g'oyaviy-badiiy mohiyatidan o'zbek mumtoz adabiyoti an'alarini ijodiy davom ettirganligi ko'rinib turadi. Shoiraning Navoiy, Fuzuliy g'azallariga bog'lagan ko'plab muxammaslari va naziralari, Bedil she'rlariga izdoshligi uning poetik balog'atidan dalolat beradi. Shoirada adabiyotda taraqqiyparvar namoyandalarning qarashlari asosida maydonga kelgan inson taqdiri, shaxs erki va ma'rifatparvarlik g'oyalarida latif va dilkash asarlar yaratadi, asarlarida insonni e'zozlash, odamning tabiat va hayot noz-ne'matlaridan bahramand bo'lishga undash, do'stlik, vafo va sadoqat kabi o'zining ulug'vor niyatlarini Qur'on oyatlari, hadislar va tasavvufiy talqinlar bilan asoslagan holda ijodiy barkamollikka erishdi. Uning she'rlarida tariqatning talab va qoidalariga taalluqli bo'lgan talqinlar ko'p uchraydi. Shoirada shunday yozgan edi:

Fano mardumlarini sirridin hech kimsa yo'q ogoh,
Qabih guftor mardumdin ko'ngul dog' o'ldi, dog' o'ldi.

Shoiraning bu kabi orifona satrlari Alisher Navoiyning insonni ko'millik yo'lidagi izlanishlarida tasvirlagan — yuz kufr ketganda ham bir tavba qilishni xayoliga keltirmaydigan, pokni nopokdan ajrata bilmaydigan dilozor kishilarni kattiq qoralagan satrlariga hamohangdir.

Uvaysiy o'z asarlarida insonga xos bo'lgan ilohiy muhabbat tuyg'ularini e'zoz bilan kuylaydi. Tabiatning hisobsiz go'zalliklari mavjida ishq hissiyoti ham shaloladek tug'yon uradi. Bu ishq-sevgi hayotni qadrlashga, uning lazzatlaridan bahramand bo'lishga chaqiradi. Shoirada muhabbat tuyg'ulari zavqiga berilib, bora-bora uning nozik qa'riga nazar tashlaydi:

Zaboningni keturgil, ey shakarlab to'ti guftora,
Nechukkim marhamat o'lsun necha mendek dil afgora.
Nigohing tashlag'il, lutf aylabon, ey sho'xi beparvo,
Yo'lingda intizor o'lg'on meni bul oshiqi zora.

Uvaysiy dastlab yuksak odamiylikni, shu odamiylikni qalb to'rida avaylovchi vafodor yorni ulug'lar ekan, uni quyosh bilan qiyos qiladi. Quyosh har tong ufqdan bosh ko'tarib o'zining otashin nuri bilan olamga, odamlarga o'z mehr va shafqatini sochadi. Shoirada yor va oftob tashbehlarini qarshilantirish san'ati orqali katta mahorat bilan eng go'zal

tuyg'ular silsilasini guldasta qiladi. Uning lirik qahramoni mushohadakor donishmand, vafoli oshiq. Shuning uchun ham shoira:

Vaysiy, boshing uzra qo'y, xurshed tal'at yorni,
Bilmadingmu zarralar boshinda dastor oftob, —

deb vafoli yorni eng zarif satrlar bilan ulug'laydi. Uning uchun yor bilan suhbat, do'st bilan mubohasa, dilkash mutrib taronalari yuksak bir sharafdir.

Ma'lum bo'lishicha, Uvaysiy uzoq vaqt maktabdorlik qilib, o'z davrining yosh toliblariga Alloh kalomi bo'lgan Qur'on va hayot go'zalliklaridan saboq bergan. U talabalar uchun tez fikrlash, chiroyli so'zlash va boshqa ta'lim-tarbiya vositalari bilan bog'liq bo'lgan chiston-topishmoqlar yaratgan. Uning anor haqidagi mashhur chistoni o'zining muhim mazmuni va yuksak badiiyligi bilan shoira ijodining yorqin bir sahifasi sifatida ko'zga tashlanadi:

Bu na gumbazdur, eshigi, tuynugidin yo'q nishon,
Necha gulgun pok qizlar manzil aylabdur makon?
Tuynugin ochib alarning holidan olsam xabar,
Yuzlarida parda tortug'liq tururlar bag'ri qon.

Uvaysiyning lirik she'rlaridan tashqari «Shahzoda Hasan», «Shahzoda Husan» kabi liro-epik asari va «Voqeoti Muhammad Alixon» kabi tarixiy dostonlari mavjud. Shoiraning liro-epik dostonlari islom tarixi bilan bog'liq voqealar asosida yaratilgan bo'lib, bu Uvaysiyning o'z davrining bilimdon otini — muallimasi va dinimiz tarixidan chuqur xabardorligidan dalolat beradi.

Uvaysiy hayotlik davridayoq nafis lirikasi bilan mashhur bo'ldi va zamondoshlarining e'tiborini qozondi. Uning zamondoshi va izdoshi shoir Dilshod — Barno o'zining Nodirabegimga bag'ishlangan «Tong mahal chiqdi haramdin turfa moh» deb boshlangan g'azalida Nodira bilan bir qatorda Uvaysiy ham juda katta e'zoz bilan xotirlaydi:

Kim? — dedim, Nodira — dedilar ani,
Yonida Vaysiy turur olampanoh.
Har biri ming shoira o'rnidadur,
Ikkovi birla to'lur har borgoh.

Uvaysiy asarlari o'zining latif mazmuni va dilkash badiiyligi bilan davrlar osha muxlislar qalbiga bitmas-tuganmas estetik zavq bag'ishlab kelmoqda. Ular xalq ommasi orasida keng yoyilgan, hofizlar, xonandalar tomonidan maqom va xalq ohanglari bilan hozirgacha kuylanib keladi.

NODIRA (1792–1842)

Mohlaroyim — Nodira XIX asrning 1-yarmida yashab, ijod etgan mashhur shoira, davlat arbobi, madaniyat va adabiyot homiysidir. Shoira 1792-yili Andijon hokimi Rahmonqulbiy oilasida tavallud topdi. Uning onasi Oyshabegim ma'rifatli ayol bo'lgan. O'zining oilaviy silsilasiga ko'ra Bobur nasliga mansub bo'lib, shoira ota-onasi ham davming e'tiborli kishilari edilar. Mohlaroyimning ta'lim-tarbiyasi shu muhitda kamolotga yetdi va u tahsil yillarida xalqimizning tarixi, madaniyati, ilm va adabiyoti ravnaqidan yaxshigina xabardor bo'lib o'sdi.

Mohlaroyim she'riyatga juda erta havas qo'ydi. Ustoz Navoiy, Jomiy va Bedil kabi allomalarning asarlariga bo'lgan e'tiqodmandlik bilan ruhan barkamollashib bordi.

Ma'lumki, bu yillarda Qo'qon xonligini Olimxon idora qilardi. Uning ukasi Umarxon esa Farg'ona vodiysining nufuzli shaharlaridan bo'lgan Marg'ilonda hokim edi. 1807-yilda ilgaridan bir-birlariga ko'ngil qo'yib, sevishib kelgan Umarxon va Mohlaroyim turmush quradilar. Shu munosabat bilan Mohlaroyim Marg'ilonga keladi. Ko'p o'tmay Qo'qon xonligida davom qilib kelayotgan ziddiyatlar oqibatida 1810-yil Olimxon qatl etilib, uning o'rniga Umarxon taxtga ko'tariladi. Shundan boshlab Mohlaroyim taqdiri Qo'qon bilan bog'lanib qoladi. Uning shoira sifatida keng ko'lamda ijod maydoniga kirib kelishi ham shu yillarga to'g'ri keladi.

Nodira Qo'qonda xon saroyida ekan, davlat ishlaridan ham voqif bo'lib borardi. Xususan, adabiyot va san'at ahli bilan yaqinlashishga, ko'p asrlik adabiyotimiz yo'lidan borib, davr she'riyatini yuqori ko'tarishga astoydil kirishadi. Mohlaroyim va Umarxonning oilasida ikki o'g'il tug'iladi. Muhammad Alixon va Sulton Mahmudxonlar o'sib-ulg'ayib boradilar. Umarxonning 1822-yili bevaqt vafotidan keyin yosh Muhammad Alixon davlatni boshqarishga kirishadi. Nodira ham yosh o'g'lining yoniga kirib mamlakatni boshqarish ishida faol ishtirok eta boshladi.

Nodira davlat va mamlakat ishlarini tadbir va adolat bilan idora qilishda homiylik namunalari ko'rsatarkan, bu yillarda mamlakatda nisbiy osoyishtalik saqlandi. Qo'shni o'lkalar va ularning hukmdorlari bilan savdo-sotiq va boshqa sohalarda kelishuvlar amalga oshirildi. Nodiraning mamlakatdagi qurilishlar sohasida olib borgan ishlari, madaniyat va adabiyot borasida ko'rsatgan tashabbuskorliklari shoira devonining debochasida ta'kidlab o'tilgan.

Shoira keltirgan bu ma'lumotlarni uning zamondoshlari Nodir, Xotif va Mushrif kabi tazkira va tarix asarlarining mualliflari to'ldiradilar va tasdiq etadilar. Shoir Nodir Mohlaroyimga bag'ishlab yozgan «Haft gulshan» dostonida uni olimlarga, fozillarga ahamiyat bergani, iste'dodli shoirlarni ijodga tashviq etgani, ayniqsa, xotin-qizlardan chiqqan shoira va fozilalarni o'z himoyasiga olgani haqida gapiradi. O'sha davrda yashagan qozi Abdunabi Xotifning Nodira haqidagi xotiralari va shoiraning hayoti hamda ijtimoiy faoliyatiga bag'ishlangan, ammo tamomlanmay qolgan voqeband dostonida shoiraning ilmiy va ijtimoiy faoliyatini ishonarli dalillar bilan ko'rsatishga harakat qiladi. Xotif «Asar yozishdan maqsadim Nodiraning oqila, fahmli, ilm va so'zning qadriga yetadigan donishmand ayol ekanligini ko'rsatishdir», deydi. Nodiraning madaniyat va adabiyot homiysi sifatidagi sarvarligi alohida ta'kidlanadi: «Umarxon vafotidan so'ng, — deb yozadi Xotif, — bu iffat sadafining injusi kunlarni hasrat-u firoq bilan shu tariqa o'tishini noshukurchilik deb bildi. U gulistondek Chahorchaman bog'iga borib, Farg'ona, Toshkent, Xo'jand, Andijon va boshqa shaharlardan fozillar, olimlar, xattotlar, naqqoshlarni o'z xizmatiga chaqirtirib keldi. Mamlakat xirojlaridan behisob tilla va javohirlarni sarf qilib bir madrasai oliy, naqshdor masjid, hammom, karvonsaroy bino qildirdi va madrasa, masjidlarga hisobsiz vaqflar tayin qildi... Bu kunlarda yana kitoblar yozdirish va ularga zebi ziynat berishga farmon qilib, bir kitobxona bino ettirdi. Undagi kotiblar, xattotlar, naqqoshlarga shunday karam va ehsonlar qo'rguzdiki, buning ovozasi atrof olamga mashhur bo'ldi. Amudaryoning bu tomonidagi yoqutqalam kotiblar, Mirali raqam roqimlar, Moniy kabi musavvirlar bu yerga jam bo'ldilar. Shunday qilib, bu ayol aqlu donish va yaxshi fazilatlar bilan yagonai zamona, «Nodirai davron» bo'lib tanikli va xalqlar tahsiniga sazovor bo'ldi».¹

¹ Qarang: Q o d i r o v a M., Nodira (hayoti va ijodi). O'zR FANLIK «Fan» nashriyoti, Toshkent, 1965, 91–92-betlar.



Biroq xonliklar o'rtasida davom etib turgan muttasil kelishmovchiliklar Mohlaroyimning o'z faoliyatini keng ravnaq toptirishiga rahna solib turar edi. Oqibat shunga olib keladiki, Buxoro amiri Nasrullo turli vaj-korsonlar bilan Qo'qon ustiga bostirib kelib, go'yo bu yerda izidan chiqqan shariat qoidalarini nizomga solmoqchi bo'ladi. Xonlikning hamma e'tiborli kishilarini ta'qib etadi va Mohlaroyimni, ikki o'g'li — Muhammad Alixon, Sulton Mahmudxon va nabirasi Muhammad Aminxonni vahshiy-larcha qatl etadi.

O'zbek xalqining ajoyib shoirasining hayoti shu yo'sinda fojiali yakun topadi.

Nodira o'zbek mumtoz adabiyotidagi ulkan bir bosqichning namoyandasidir. Shoira yashab ijod etgan davrda Qo'qon xonligida o'zbek adabiyoti keng rivoj topib, o'ziga xos adabiy muhit vujudga keladi. Bu adabiy muhit boshida Qo'qon xoni, Nodiraning umr yo'ldoshi Umarxon — Amiriy turardi.

Mohlaroyimdan bizgacha o'zbek va fors-tojik tillarida «Komila», «Nodira» va «Maknuna» taxalluslari bilan yaratilgan lirik asarlardan iborat katta meros yetib kelgan.

Nodiraning hayot yo'li va adabiy merosi haqida Lutfulla Olim, Fitrat, S. Ayniy, V. Zohidov, V. Abdullayev, O'tkir Rashid, T. Jalilov kabi olim, shoirlar va ayniqsa, uning o'z davri adabiyotidagi o'rni haqida A.P.Qayumov yaratgan tadqiqotlar diqqatga sazovor. Adabiyot tarixiga oid manba va tazkiralarda Nodiraning katta meros egasi ekanligi qayd etilsa-da, lekin 1960-yillargacha ham shoira lirikasining juda kam qismi ma'lum edi. Ushbu satrlar muallifining izlanishlari natijasida shoira devonining qo'lyozmalari topildi, ularni o'rganib, tahlil etish bo'yicha ilmiy ishlar davom ettirildi. Natijada o'tgan davr ichida Samarqanddan shoiraning Komila taxallusi bilan o'zbek va fors-tojik tillarida jamlangan, o'zi hayotlik davrida ko'chirilgan devoni ma'lum bo'ldi. O'z navbatida shoiraning Nodira taxallusidagi asarlaridan iborat devoni Namangan shahridan topildi. Toshkentda esa Maknuna taxallusi bilan yaratilgan fors-tojik tilidagi she'rlari jamlangan yana bir devoni aniqlandi.¹

Shoiraning Komila taxallusi bilan jamlangan katta ilk devoni o'z davrida mashhur bo'lgan. Keyinchalik shoiraning madaniyat va adabiyot

¹ Shoira devonlarining qo'lyozmalari O'zR FA Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti fondida saqlanmoqda.



sahasidagi favqulodda tashabbuskorlik faoliyati va go'zal iste'dodini taq-
dirlagan zamondoshlari unga «Nodirai davron» nomini munosib ko'rgach,
Nodira devoni ham yuzaga kelgan edi. Ayni paytda shoiraning fors-tojik
tilidagi devoniga so'zboshi yozgan noma'lum adibning ta'kidlashicha,
ushbu devon Umarxon vafotidan so'ng jamlangan bo'lib, undagi forsiy
she'r'larga shoira tevaragidagi fozillarning maslahati bilan Maknuna taxal-
lusi qo'yilgan. Shunday qilib, bu uchta taxallusda yozilgan devonlar o'n
ming misra atrofidagi she'rlarni o'z ichiga oladi.

Nodiraning o'zbek va fors-tojik tilidagi devonlari shu tillarda yozilgan
debochalar bilan boshlanadi. Ushbu debochalarni shoiraning hayot yo'li,
ijod bosqichlari, uni o'rab turgan adabiy muhitning xususiyatlari, so'z
borayotgan devonlarning mundarijalari haqida muhim ma'lumotlarga ega
bo'lgan manba sifatida baholash mumkin.

Shoiraning yuqorida so'z borayotgan devonlari qo'lyozmalarini ko'zdan
kechirar ekanmiz, ularda Sharq adabiyoti, xususan, o'zbek adabiyotining
tematikasi, janr xususiyatlariga xos boy manzarani ko'ramiz. Ayni paytda
Mohlaroyim o'tmishning teran an'alaridan bahramand bo'lib yaratgan
g'oyaviy va badiiy yetuk asarlari alohida diqqatga sazovordir.

Nodira ijod borasida Alisher Navoiyni o'ziga ustoz deb bildi. Na-
voiy ijodining asosiy mazmuni uning insonparvarligi bilan izohlanadi. No-
dira insonning ruhiy holatini baland ohanglarda tarannum etadi. Shoiming
«Aziz» radifli g'azalining:

Keldi ashraf barcha odam ahlidin,

Yo'q turur dunyoda insondin aziz, —

misralari bevosita Navoiyning «Jondin seni ko'p sevarman, ey umri aziz»
so'zlari bilan boshlanuvchi ruboiysini esga soladi.

Nodira she'riyat maydoniga qadam qo'yar ekan, bu yo'lda Jomiy,
Fuzuliy, Bedil, Bobur va Mashrab she'riyatidan ham bahramand bo'ldi.
Nodira shu ulug' ustozlari izlaridan borib, asarlarida insonni o'rab turgan
borliq va uning nash'u namolaridan bahra oldi. Nodira hayotni sevadi,
uni qadrlaydi, u Muhabbat Alloh taolo tomonidan insonlar qalbiga so-
lingan mangu yog'du ekanligini kuyladi:

Muhabbatsiz kishi odam emasdur,

Gar odamsan muhabbat ixtiyor et!..

Kuyib ey Nodira, olam elig'a
Muhabbat shevasini oshkor et!

Shoira himmat, sabr, qanoat, nomus, hayo kabi xislatlarni ma'rifat, ya'ni xudo vasliga erishishni yaqinlashtiruvchi manzillar sifatida qayd etadi, odam ana shu sharaflı xislatlarni mukammal o'z ruhiga singdirib olishi va uni sobitqadamlik bilan ko'ngil ganjinasida asramog'ini obrazli bir tarzda tasvirleydi. Odamzod shu sifatlardan mahrum bo'lar ekan, u riyo yo'liga kirib ketadi.

Nodira o'z ijodida dunyoviylik bilan bir qatorda tasavvufning naqsh-bandiya yo'nalishiga asoslangan bir butunlik bilan insonning jamiyat va tabiatga munosabatini ham, ilohiy muhabbat yo'lidagi ruhiy dunyosini ham juda go'zal va jonli misralarda ifodalab beradi. Shoira uchun ishq, go'zallikning nash'asini ham, dardini ham kuyib, yonib kuylash, his qilish sharaflıdır. Shoira «Otash ast» radifli g'azalida:

Dar kalomam nest, Maknuna, ba g'ayr az suxtan,
Daftaram majmuai dog'u kitobam otash ast.¹

Mazmuni:

Men Maknunaning so'zlarida kuyishdan
boshqa narsa yo'q,
Daftarim dog' to'plami-yu kitobim otashdir, —

deb yozgan edi. Nodiraning ishq-muhabbat mavzuyidagi she'rlarida shu muhabbatni yuksak pog'onada tutib turuvchi vafo va sadoqat hislari ham ulug'lanadi:

Bo'lsa to umru hayotim boqiy,
Meni ilgimduru domoni vafo.²

Nodira inson qalbida yuksak axloq-odob cho'g'i bo'lmas ekan, u ishq-muhabbatni qadrlay olmasligini ta'kidlaydi va «beadab kirma muhabbat dashtig'a», deydi.

Nodira tabiat maftuni edi. Uning bir qator she'rlarida safoli bahor ayyomining kirib kelishi, Navro'z tufayli shodiyona taronalarning boshlani-

¹ N o d i r a, Asarlar, 2-jild, 1-kitob, 228-bet.

² N o d i r a, Ey sarvi ravon, 20-bet.

shi, bog'larda gullarning ochilishi bilan ularning rang-barang libos kiyishi, muattar hidlar taratishi ajoyib obrazlarda kuylanadi. Nodira she'rlarida islom ruhi, tasavvuf ta'limi va hayot falsafasini chuqur idrok etgan holda hayotga hamma vaqt umidbaxsh nigoh bilan qaraydi va undan yaxshilik urug'ini qidiradi.

Shunday qilib, Nodira lirikasining mavzular doirasi qancha keng bo'lsa, undagi ma'nolar ham shu darajada zalvorli. Shu zalvorli ma'nolarni yuzaga chiqarishda shoira tomonidan qo'llangan badiiy vositalar uning katta mahoratidan darak berib turadi.

Nodira she'riyatiga qattiq ixlos qo'yganlardan biri — uning zamon-doshi va izdoshi Dilshod — Barno (1800—1905) edi. Dilshod Nodiraga alohida she'rlar bag'ishlar ekan, uni «ilm-adab va nazm osmonining yulduzi», «ushshoqlar g'azalxon», «shakar sochuvchi bulbul» sifatlari bilan ta'riflaydi.

O'z davridayoq she'riyat malikasiga aylangan Nodira bizning zamonamizga ham nafis so'z san'atkori sifatidagi fazilatlar bilan kirib keldi. Nodira merosining katta va kichik qo'lyozmalari xalqimiz qo'lga yetib kelishi bilan ular matniy jihatdan o'rganilib, bir qator nashrlar yuzaga chiqdi. Jumladan, shoiraning 1960-yillarda chop etilgan ilk saylanmasi keyinroq shoira asarlarining alohida jildlari sifatida boyidi (Nodira. Devon, 2-jild, 3-kitob, 1968—72-yillar). 1968—72-yillarda shoiraning ikki jild, uch kitobdan iborat o'zbekcha va fors-tojik tilidagi devoni muxlislar qo'lga yetib bordi (forsiy g'azallari nasriy tarjimasini bilan). Nodira asarlari Tojikiston va Afg'onistonda chop etildi, ularning ruscha tarjimalari Sankt-Peterburglik sharqshunos olim S.N.Ivanov tarjimasida rus kitobxonlariga ham yetib bordi.

Respublikamiz mustaqillik yo'lga qadam qo'yishi bilan o'tmish qadriyatlarimizning tiklana borishi yana yangi sahifalarni ochdi. 1992-yilda mamlakatimizda shoira tavalludining 200 yilligi Qo'qon, Andijon va boshqa shaharlarda keng nishonlanib, poytaxtimizda o'tkazilgan ilmiy anjumanlar va tantanali kechalar bilan yakunlandi. Shu yillarda «Davr Nodirasi», «Ey sarvi ravon» kitoblari chop etildi. 1994-yilda «F'an» nashriyoti «Uvaysiy va Nodira she'rlari»dan iborat o'zbek shoirlari bayozi turkumli yana bir yangi nashrni kitobxonlarga hadya etdi. Badiiy adabiyotda esa Nodira obrazi gavdalantirildi, drama, roman, kinofilmlar yaratildi. Shahar va qishloqlarda bu hassos ijodkor nomi bilan atalgan kinoteatrlar, ko'chalar, kutubxonalar va madaniyat maskanlari mavjud.



MAXMUR

(1844-yil vafot etgan)

Maxmur taxallusi bilan qalam tebratgan Mahmud Mulla Shermuhammad o'g'li XIX asr 1-yarmi o'zbek mumtoz adabiyotining eng yirik namoyandalaridan biridir. U XVIII asrning oxirgi choragida Qo'qon shahrida, ziyoli oilasida dunyoga kelgan. Otasi Mulla Shermuhammad — Akmal taxallusi bilan she'rlar yozib, XIX asr boshlari Qo'qon adabiy hayotida ko'zga ko'rinarli o'rin tutgan, o'zbek va fors tillarida she'rlaridan ikki devon tartib etgan. Akmal Amir Umarxon saroyida to'plangan ko'p sonli ijodkorlar jumlasidan bo'lib, she'riyat muxlislari o'rtasida nom chiqargan va shu bois Fazliy Namangoniy tuzgan «Majmuat ush-shuaro» tazkirasida bir necha bor hurmat bilan tilga olingan, asarlaridan namunalar keltirilgan.

Maxmur yoshligidan boshlab otasi tashabbusi bilan uyushtirilgan mu-shoiralarda, adabiy suhbatlarda ishtirok etish imkoniga ega bo'ldi. Maxmurning Qo'qondagi Madrasai Mirda chuqur tahsil olganligi, jumladan, fors tilini mukammal egallaganligi ma'lum, uni tugatgandan keyin, o'zi qayd etganidek, ma'lum muddat sarbozlik-sipohiylik qilgan. Bu haqda Maxmur o'z she'rlarining birida an'anaviy faxriya uslubida «ham ilm-u fanda, ham sipohlikda mohiram, jang kunida botir qahramonam», deb g'ururlanadi. Xuddi shu o'rinda o'zining «she'r ilmidagi» mahorati haqida so'z yuritadi. Bir namunada oilasi va uch farzandi borligi to'g'risida so'z yuritsa, bir qancha she'rlarida shaxsiy hayotidagi yetishmovchilikdan shikoyat etadi, moddiy qiyinchilikdan nola qiladi, turmush tashvishlari yuzasidan fig'on chekadi.

Shoir Qo'qon xoni Amir Umarxon nomiga yozilgan she'riy arizasida o'zining nihoyatda og'ir iqtisodiy sharoitini kuyunch bilan bunday tasvirlaydi:

Kechalar yotgani na ko'shim bor,
Kunduzi ichgani na no'shim bor.
Bir hovuch na uyimda g'allam bor,
Ikki gaz na boshimda sallam bor.
Boshimda gaz desamki, sallam yo'q,
Salla desam, uyimda g'allam yo'q!

Maxmur hayotda botirso‘z, dovyurak, qo‘rqmas kishi bo‘lgan, tabiatan munofiqlik va riyokorlikni, ayni zamonda qat‘iy qoralovchi, hiyla-nayrang va qing‘ir ishlarni yoqtirmaydigan, nozikdil va serjahl, o‘z qadr-qimmatini yuqori tutuvchi inson bo‘lgan. Shoir tabiatidagi bu belgilar bir qator zamondoshlari va yuqori lavozimdagi amaldorlar bilan sovuq munosabatlarni shakllantirganidek, ijodida shaxsiy yo‘nalishdagi turkum hajviyalarning yaratilishiga ham turtki bo‘lgan.

Maxmurning qancha umr ko‘rgani ma‘lum emas. Ammo uning vafoti sanasi Qori Qunduziy — Komiyning tarixi orqali aniq qayd etilgan. U Maxmurning hijriy 1279, milodiy 1844-yilda Qo‘qonda vafot etganligini ma‘lum qiladi.

1950-yillarga qadar Maxmurning ijodiy faoliyati va u qoldirgan adabiy meros xususida juda cheklangan ma‘lumotlarga ega edik. Adabiyotshunoslik ilmiga uning Fazliy tazkirasidan o‘rin olgan besh g‘azali hamda Muqimiyning hajviy taxmisiga asos bo‘lgan Hapalak qishlog‘i haqidagi g‘azaligina ma‘lum edi. 1950-yilda mumtoz adabiyotimizning yetuk bilimdonlari Po‘latjon Qayumov va Asqarali Charxiylar sa‘y-harakatlari tufayli Qo‘qonda Maxmurning qariyb uch yarim ming misrani o‘z ichiga olgan o‘zbek va forsiy tillardagi she‘riy to‘plami topildi hamda adabiyotshunos olim A. Qayumovning qator tadqiqotlari orqali ilmiy doiraga tortildi, keng jamoatchilik hukmiga havola qilindi.

Maxmurning hozircha ilmga ma‘lum asarlarining hammasi, beistisno, o‘z mazmun va ruhiga ko‘ra hajviy va tanqidiy yo‘nalishdadir.

Mumtoz she‘riyatimizning g‘azal, masnaviy, muxammas va qasida turlarida yaratilgan bu asarlar ijtimoiy hajviyotning Maxmur ijodida yanada yuqori bosqichga ko‘tarilganini isbotlovchi badiiy hujjatlardir. Shoir XIX asr 1-yarmidagi mavjud tuzumning ko‘pdan ko‘p illatlarini, o‘sha zamondagi adolatsizlik, ijtimoiy tengsizlik, zo‘ravonlik va huquqsizlikni ayovsiz fosh etadi. «Hojatlar chiqaruvchi qozi dargohiga munojot» deb nomlangan muxammasidagi quyidagi misralari mavjud adolatsiz tuzumga kuchli qahrg‘azabni ifodalaydi va o‘sha tuzumga aybnomadek jaranglaydi:

Qaysi bir zulmung etay te‘dod, ey, garduni dun
Kim, sening bedodu javring haddi g‘oyatdin burun!..
Behunar johilga berding beaded dunyo-yu. dun.
Jam‘i donolarni qilding holini zoru zabun,
Zog‘ni a‘lo qilib, to‘tini nodon aylading!



O'zni kelganda aytib o'tish kerakki, o'n bir banddan iborat bo'lgan bu muxammasning olti bandi forscha yozilgan. Ammo, bu bandlarning ham beshinchi misralari hamda umumiy radifi o'zbekchadir.

Maxmur hajviyoti va tanqidiy she'rlarining deyarli barchasi oddiy bechora shaxs tilidan va nuqtayi nazaridan mavjud ijtimoiy-iqtisodiy hayot va kundalik turmush tashvishlari to'g'risidagi achchiq haqiqat bayoni tarzida yaratilgan va xuddi shu bois xalqchil ruh egallagan. Keng xalq ommasining, xususan, dehqon ahlining och-yalang'och hayoti, o'lkani qurshagan vayronagarchilik va xarobazorga aylangan qishloqlarning achiq-ariqli manzarasi Maxmur hajviyotiga zamin bo'lgan va bu manzara «Dar sifati qishloqi Hapalakki, ba maxdum Maxmur taalluq yofta» deb nomlangan asarida juda jonli chizilgan:

Turfa qishloqi g'azab kardaki, parrandalari,
Tovuqi ignachiyu o'rdagu g'ozu — kapalak.

Boru yo'q uylarini banda bayon gar qilsam:
Bir katak, ikki kapa, uch olachuq, to'rt katalak.

Dema uy, balki, zaminkandur, agar kirsu kishi,
Har taraf betiga urgaylar aning ko'rshapalak.

Xalqini ko'rsang agar o'lasiyu qoqu xarob,
Ochlikdan egilib qomati — misli kamalak.

Ajirig' tomurini o'g'urida mayda tuyub,
Qaynatib kunda ichar, otuni qo'yub sumalak.

Vayrona qishloqlar va ularda kun ko'ruvchi bechora dehqon ahli mavzusi Maxmurning boshqa she'rlarida ham, jumladan, Qurama viloyatiga bag'ishlangan hajman kattagina muxammasida shunday tanqidiy ruhda hayotiy ishlangan.

Maxmur hajviyalarining ko'pchiligi o'sha zamonning ko'zga ko'ringan amaldorlarining kirdikorlarini, aldanchi-xasisliklarini, inson sifatida tuban fe'l-atvorlarini fosh etishga bag'ishlangan. Shoir ularni shaxsan juda yaxshi tanigan, iflos qilmishlaridan to'la xabardor bo'lgan va shu bois o'z hajv o'qlarini ulardagi yetakchi nuqsonlarga bexato urgan. «Xoja Mir Asad hajvi»da o'ta muttahaam shaxsning mug'ombirliklari kulgili voqea bayonida fosh etilsa, «Hajvi Atoyi poraxo'r ayni savobi akbarast», ya'ni

«Atoyi poraxo'rga hajv yozish ulug' bir savobdir» — misrasi bilan boshlanuvchi asarida poraxo'rlik fosh etilgan.

«Qozi Muhammad Rajab avj sifatлари» deb nomlangan hajviyada shoir takabburlik bilan o'zini pokdomon va bilimdon tutuvchi, aslida esa axloqan tuban va batamom omi, no'noq bo'lgan qozining ijtimoiy qiyofasini chizadi:

Ajab qoziyi qohili, johile,
Bo'lub omiylik ilmiga komile,

Aning ko'ksini chok qilsang hama.
G'ilu g'ashini pok qilsang hama.

Adamdur, «alif» anda ko'p izlama,
Bu narxarni qozi debon sizlama!

Maxmurning ijodiy merosida ayrim tarixiy shaxslarning tabiati va amaliy-ijtimoiy faoliyatlarini ayovsiz fosh etuvchi hajviy juftliklar uchraydi. Har juftlik nishonga olingan shaxsga masnaviyda bitilgan salbiy tavsif-noma va shu shaxsning o'z kirdikorlarini o'zi fosh etish uslubida yozilgan g'azaldan tashkil topgan. Masalan, Maxmurning hajviy qalami ostida tabiblik da'vosida bo'lgan Hakim Turobiy aslida tamoman nodon va firibgar shaxs ekanligini «o'zi bo'yniga» oladi, tan beradi:

Bihamdilloh, tabibi shahri Buqroti xaloyiqman,
Ajaldin ham bani odamni o'ldirmoqqa foyiqman...

Tabibi shahr nomi oyda bir bemor o'ldursa,
Vale, man kunda yuz bemor o'ldirmoqqa hoziqman.

Mani badbaxt to zarbulmasal bo'ldum tabiblikda,
Jahon voricha aknun ko'p haqoratlariga loyiqman!

Bu namunalar Maxmurning barcha hajviy usullardan, xususan, o'z-o'zini fosh etish san'atidan samarali foydalanganini ravshan ko'rsatadi.

Maxmur qoldirgan adabiy meros haqida so'z borar ekan, shoirning «Karimqul Mehtarning sifatleri» hajviyasi ustida alohida to'xtab o'tish kerak. Ellikdan ortiq baytdan tashkil topgan bu masnaviyning an'anaviy qismi yengil hajv bilan sug'orilgan va har bir o'quvchida iliq talabnamo,



kulgu va zavqli kayfiyat uyg'otadi. Maxmur xon buyrug'iga binoan uning amaldorlaridan Karimqul Mehtar tomonidan o'ziga ajratilgan otni ta'riflash jarayonida hajviy tasvirning go'zal lavhalarini yaratadi:

...Bir zamon menga ot deb berding,
Rasmi Rustamsifot deb berding.

Bir qaro eshaki falakzodani,
Ham samovatu ham samaqzadani.

Ham harisu ham xarobu ham badnom,
Ikki ming ayb angadur mudom.

Suv ichsa ham tamog'iga tiqilar,
Pashsha gar qo'nsa yoliga yiqilar...

Shoir ot ta'rifida xalq og'zaki ijodining lof, askiya turlaridan ham keng foydalanib, o'quvchilarga zavq-shavq baxsh etuvchi misralarni bitadi.

Maxmur ijodiy faoliyati o'zbek adabiyotida tanqidiy yo'nalishning, ayniqsa, hajviyot taraqqiyotining navbatdagi yuqori bosqichi bo'ldi. Shoirning adabiy merosi keyingi davrlar hajvgo'ylariga, xususan, Muqimiy va Nodimlarning ijodiga samarali ta'sir qildi.

MUNIS XORAZMIY (1778–1829)

Amir Avazbiy o'g'li Shermuhammad, adabiy taxallusi Munis Xorazmiy XVIII asrning 2-yarmi va XIX asrning boshlarida Xorazmda yashab ijod etgan shoir, tarixnavis olim, tarjimon, xattot va ma'rifatparvardir.


Munis o'zbek adabiyoti, umuman madaniyati tarixida salmoqli o'rinni egallaydi. U muarrix sifatida o'zining «Firdavs ul-iqbol» tarixiy asarini yozdi, shoir sifatida devon tuzdi. Tarjimon sifatida tarixiy asarlarni o'zbek tiliga tarjima qildi, pedagog sifatida «Savodi ta'lim» nomli risola yozdi. Munisning hayoti va ijodini o'rganar ekanmiz, avvalo uning adabiy va tarixiy asarlariga murojaat qilamiz. U o'zining «Munis ul-ushshoq» devoniga yozilgan so'zboshida va «Firdavs ul-iqbol» nomli tarixiy asarida tarjimayi holiga oid anchagina ma'lumotlar keltirgan.

Munis 1778-yili Xivadagi tug'ildi. «U Xivadagi Qiyot qishloqlik Avazbiy Mirobning o'g'lidir».¹ Uning ota-bobolari xonlar saroyida miroblik ishlarini boshqarib kelganlar.

U yoshlik chog'laridan boshlab ilm olishga qiziqib, tarix va adabiyotga mehr qo'ydi. Dastlabki ma'lumotni Qiyot qishlog'ida olib, keyinchalik Xiva madrasalarida o'qidi. 1800-yilda otasi vafot etgach, Xiva xoni Avaz-Inoq Munisni Xiva saroyining farmonnavis kotibi qilib tayinlaydi. Munis zamonasining mashhur olim, shoir va san'atkorlari bilan yaqin aloqada bo'lib, o'zini ilm-fan, ma'rifatga bag'ishladi. O'zidan ilgari yashagan shoir va tarixchilarning asarlarini ishtiyok bilan o'rgandi. Bu hol Munisning quyidagi she'rida yaqqol ko'zga tashlanadi:

Voliyi mulki tariqat gar Nizomiydur manga,
Manzili ma'niga Xizri roh Jomiydur manga.
Xotiring'a Xisraviydin har zamon sho're yetib,
Banda davronning bari shirin kalomidur manga.
Pir Ansoriy so'zidan choshni nutqum topib,
So'zda hosil sharbati yuhyal Nizomiydur manga.
Hofizi Sheroz, Lutfiydin taraqqiylar topib,
Jilvagoh aqli tasavvufning maqomidur manga.
Yuzima Attor har lahza do'koni fayz ochib,
Doim andin atrparvar jon mashomidur manga.
Fayzi Firdavsiy gahi ko'nglum ochib firdavsdek,
Goh Xoqoniy futuhining payomidur manga.
Goh ta'bim Anvariy nuri bila ravshan bo'lub,
Goh Sa'diy jomining fayzi mudomidur manga.
Topibon ishqiqi Iroqiydin zamirim nash'ayi,
Hosil ahli ishqning sho'ri tamomi dur manga.
Nusxai ta'yid Bedildin topib, Fayzi suxan,
Ma'ni ichra nomayi Iqbol nomidur manga.
Qilsa hosil dahl bejo so'z aro yo'qdir g'amim,

¹ Hasan Murod Muhammad Amir o'g'li Lutfasiy, Xiva shoir va adabiyotchilarning tarjimayi hollari, O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, qo'lyozma asarlar fondi, inv № 9494, v: 2^a.



Kim bu ma'nida Navoiy ruhi homiydur manga.
Tong emas, Munis, agar bo'lsam Kiromiy qadrikim,
Ustozi zohiru botin — Kiromiydur manga.¹

Bu g'azalda keltirilgan ma'lumotdan Munisning qator Sharq mumtoz shoirlarining ijodidan bahramand bo'lganligi ko'rinib turibdi. Munis yoshligidanoq she'r yozish bilan mashg'ul bo'lgan va o'zidan ilgari o'tgan tarixchilarning asarlarini zo'r havas bilan o'rgangan. Shoir birinchi devonini 1804-yilda tuzdi. 1813-yilda esa barcha she'rlarini to'plab «Munis ul-ushshoq» deb nomlangan devon tuzdi.²

O'zbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti Sharq qo'lyozma asarlar fondida Munis devonlarining bir necha qo'lyozma nusxalari saqlanmoqda.³ Ulardan 1330-raqamli qo'lyozma Munis 27 yoshga kirgan vaqtda 1804—1805-yili shoir tarjimayi holidan ko'chirilgan. Devon oxirida quyidagi to'rtlik keltirilgan.

Muniso, to'kmay yigirma yetti yosh,
Vah, yigirma yetti uzra yetti yosh.
Yosh kabi mashg'ullik qilmoq nedur,
Har qachonkim suhbatingga yetti yosh.

Shoirning bu devonidan uning g'azallari, muxammaslari, musaddaslari, ruboiylari va boshqalar o'rin olgan. Devonning oxirida muallifning «Savodi ta'lim» nomli ilmiy asari ham bor bo'lib, unda xattotlik qoidalari bayon etilgan.

Shoir go'zallik va muhabbatni kuylagan bo'lsa-da, uning g'azallarida o'sha davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy hayot ham o'z ifodasini topgan. Zamonasining ilg'or fikrli kishisi sifatida o'zi yashayotgan hayotda faol ishtirok etdi. Munis tarixnavis olim sifatida Xorazm tarixiga oid qimmatli «Firdavs ul-iqbol» nomli muhim tarixiy asarini ijod etdi. Olim o'z asarini Sharq tarixchilarining an'anasiga muvofiq hamd va na't bo'limlar bilan boshlagan. So'ngra o'z hayoti va asarining yozilishi haqida qisqacha ma'lumot berib, Xorazm tarixini yozgan.

¹ Devoni Munis, mazkur fond, qo'lyozma, inv. № 940, v: 66.

² Mazkur fond, qo'lyozma inv. № 9494, v: 3^a.

³ Mazkur fond, qo'lyozma, inv. № 940, 1330, 1793, 7865, 9356.

Asar muqaddima, besh bob va xotimadan iborat.

I bobda Odam Atodan to Nuh payg'ambar avlodigacha bo'lgan hodisalar bayon etilgan. II bobda Yofasdan Qo'ng'irot sho'basigacha bo'lgan Mo'g'ul hukmdorlari davri xususida fikr yuritilgan. III bobda Kurlos avlodiga mansub podshohlar davrida sodir bo'lgan voqealar to'g'risida yozilgan. IV bobda Eltuzarxonning ota-bobolari hayoti tasvirlangan. V bobda Eltuzarxonning tug'ilishidan bu asarning yozilib tamom bo'lishiga qadar sodir bo'lgan voqealar xususida qalam tebratilgan.

Xotima esa olimlar, avliyolar, amirlar, beklar, shoirlar, hunarmandlar haqida ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.¹

Munis «Firdavs ul-iqbol» nomli asarini yozib tamomlay olmagan. U qadim zamonlardan boshlab Muhammad Rahimxon I hukmronligining yettinchi yiligacha (1813) bo'lgan voqealarni yozishga ulgurgan. Uning bu chala qolgan asarini shogirdi Ogahiy davom ettirgan. Ogahiy bu asarni qanday qilib davom ettirganligini quyidagicha bayon etadi. Eltuzarxon xonlik qilgan davrda Munisni chaqirib, Xorazm tarixini yozishni buyuradi. Munis o'z asarini Sherg'oziyxon davrigacha yozib yetkazganda Eltuzarxon vafot etadi. Undan so'ng davlat tepasiga uning birodari Muhammad Rahimxon I keladi.

Muhammad Rahimxon I Munisga o'z asarini davom ettirishni buyuradi. Munis asarni davom ettirarkan, Muhammad Rahimxon I hukmronligining yettinchi yilida sodir bo'lgan voqealarni yozib tamomlaganda, xon 1819-yili Munisga Mirxondning mashhur «Ravzat us-safo» nomli tarixiy asarini o'zbek tiliga tarjima qilishni buyuradi. Munis bu asarning birinchi jildini o'zbek tiliga tarjima qilib, ikkinchisini davom ettirayotganida Muhammad Rahimxon I vafot etadi. Uning o'rniga o'g'li Ollohqulixon keladi. Bu ham Munisga tarjimani davom ettirishni buyuradi. Biroq Munis ikkinchi kitobni oxiriga yetkaza olmay, 1829-yili vafot etadi. Ollohqulixon taxtga o'tirgandan keyin, 1839–1840-yili Munisning shogirdi va uning tarbiyasini olgan Ogahiy chaqirib, 1813-yil voqealarini bayon etish bilan uzilib qolgan «Firdavs ul-iqbol» asarini davom ettirishni buyuradi. Ogahiy 1813-yildan boshlab Xorazmda sodir bo'lgan voqealarni yoza boshlaydi.

¹ M u n i s v a O g a h i y, «Firdavs ul-iqbol», mazkur fond, qo'lyozma, inv. № 5364/1; v: 56.

Tarixnavis olim Munisning «Firdavs ul-iqbol» nomli asari uzoq davrni qamrab olgan Markaziy Osiyo, ayniqsa, Xiva xonligi tarixini oʻrganishda qimmatli tarixiy asardir. Asarda Xorazmning qadimiy davri bilan bir qatorda, Xiva xonligining 1825-yilgacha boʻlgan siyosiy tarixi mufassal bayon etilgan, toj-taxt, boylik uchun olib borilgan kurashlar va shuningdek, Xiva xonlarining qoʻshni turkman va qoraqalpoq xalqlari bilan boʻlgan munosabatlari haqida ham koʻplab maʼlumotlar keltirilgan.

Asarda Xiva xonligining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotini oʻrganish boʻyicha ham anchagina maʼlumotlar bor. Xiva xonligining Buxoro, Qoʻqon xonliklari, Rossiya bilan olib borgan diplomatik va savdosotiq munosabatlari, xonlikdagi sugʻorish, soliq, qurilish ishlari oʻsha davrda yashagan olimlar, shoirlar hayoti, ijodi qalamga olingan.

Shunday qilib, Shermuhammad Munis Xorazmiy oʻz davrining isteʼdodli shoiri, atoqli tarixnavis olimi, davlat arbobi va mohir tarjimoni boʻlgan. Uning asarlari oʻzbek xalqi madaniyati tarixini oʻrganishda ajoyib manba boʻlib xizmat qiladi.

OGAHIY (1809—1874)

Muhammadrizo Erniyozbek oʻgʻli — Ogahiy XIX asr Xorazm adabiy muhitining yirik siymolaridan biri boʻlib, Navoiydan keyin eng «koʻp va xoʻb» sheʼr aytgan shoirlardandir.

Ogahiy 1809-yil 17-dekabrda Xiva atrofidagi Qiyot qishlogʻida dunyoga kelgan. Otasi Erniyozbek vafot etgach, yosh qolgan Ogahiy toʻgʻasi Munis oʻz tarbiyasiga oldi. Munis atrofiga toʻplangan ijodkorlar boʻlgʻusi shoir Ogahiy ijodiga katta taʼsir qildi. Ogahiy dastlabki bilimni Munis Xorazmiydan, keyinchalik Xiva madrasalarida tahsil oldi. 1829-yil Munis vafot qilgandan keyin Oллоhqulixon uning oʻrniga Ogahiy bosh miroblik vazifasiga tayinlaydi. Shoir xizmat yuzasidan Xorazm vohasining koʻp joylarida boʻlib, dehqon va hunarmandlarning ayanchli hayotini oʻz koʻzi bilan koʻrdi. Bu Ogahiy ijodiga taʼsir etmay qolmadi.

Ogahiydan boy ijodiy meros qoldi. U madrasada oʻqib yurgan paytlaridayoq «Bayozi mutafarriqai forsiy» nomli bayoz tuzdi. Bu bayozga Jomiy, Navoiy, Hofiz, Sheroziy, Bedil, Fuzuliy gʻazallarini kiritish bilan

bir qatorda ularga ergashib yozgan o'zining o'n besh g'azali va ikki muxammasini qo'shdi. Ogahiy ustoz Munis boshlab qo'ygan, ammo, tamomlay olmagan tarixiy «Firdavs ul-iqbol» asarini yozib tugatdi. Bundan tashqari Xiva xonligi tarixiga oid «Riyozi ud-davla», «Jome' ul-voqeoti Sultoniy», «Zubdat ut-tavorix», «Gulshani davlat», «Shohidi iqbol» nomli tarixiy asarlar yozdi. Ogahiy jahon madaniyatini nodir durdonalari hisoblangan Sa'diy Sheroziyning «Guliston», Nizomiyning «Haft paykar», Hiloliyning «Shoh va gado», Kaykovusning «Qobusnoma», Koshifiyning «Axloqi Muhsiniy», Jomiyning «Yusuf va Zulayho» kabi badiiy, tarixiy, axloqiy, falsafiy, didaktik asarlarini o'zbek tiliga tarjima qildi.

Ogahiy 1872-yilda parokanda bo'lgan badiiy merosini jamlab «Ta'viz ul-oshiqin» («Oshiqlar tumori») nomli devon tuzib qoldirdi. Madaniyatimizning durdonasi bo'lgan bu devon o'zbek mumtoz she'riyatining 22 janriga oid asarlarni o'z ichiga qamrab olgan.

Ogahiy ijodida XIX asr Xiva xonligidagi ijtimoiy hayot o'z ifodasini topgan. Bu davrga kelib, Turkiston Rossiya tomonidan bosib olingandi, xalq zulm ostida qolgandi. Ogahiy bundan qattiq qayg'urardi, xalq hur, ozod yashashini orzu qilardi.

Ogahiy dunyoga, insonga tunganmas muhabbat, hayotga cheksiz mehr bilan qaraydi, ijtimoiy jarayonlarga qattiq qiziqadi. Shoir insonni hayot go'zalliklarini, muhabbat shavq-zavqini to'lib-toshib tarannum etadi. Mutafakkir o'z asarlariga ijtimoiy fikrlarni mahorat bilan singdirib yuboradi. Misol uchun mashhur «Feruz» ashulasidagi quyidagi satrlarni eslaylik:

Ey shoh, karam aylar chog'i teng tut yomonu yaxshini,
Kim, mehr nuri teng tushar vayronu obod ustina.
Xoki taning barbod o'lur, oxir jahonda necha yil,
Sayr et Sulaymondek agar taxting qurib bod ustina.

Ogahiyning yuksak insonparvarlik ruhi bilan sug'orilgan g'oyalari xon va shoir Feruzning siyosiy-ma'rifiy tarbiyasiga ta'sir qiladi. U tarixchi olim sifatida Xiva xonlariga, yirik tarixiy shaxslarga bag'ishlab qasidalar yozgan. Shoirning «Qasidai nasihat» degan asari bunga yaqqol misol bo'ladi. Asar Feruzga bag'ishlangan. Ogahiy o'z nasihatlarida saltanatni boshqarishning yo'l-yo'riqlarini ko'rsatadi, mamlakat va xalqni adolat bilan idora etish yo'llarini belgilab beradi. Bu qasida masnaviy jaurida

yozilgan bo'lib, shoirning siyosiy-ma'rifiy qarashlarini yorqin ifoda qiladi. Shoir fikricha, har qanday davlat boshlig'i hokimiyatni mustahkamlash uchun barcha ijobiy fazilatlarga ega bo'lishi lozim. Podshohi himmatli, shijoatli, adolatli, g'ayratli, saxovatli, hayoli, sof niyatli, madaniyatli, hamiyatli, kambag'alparvar bo'lishi zarur. Hukmdor shu fazilatlarga ega bo'lsa, hokimiyati kamol topadi, mamlakati farovon bo'ladi, degan fikrni ilgari suradi.

Ogahiy davlatni boshqarish yo'llarini ham ko'rsatib o'tgan. Shoirning fikricha, shoh shariat ahkomlariga qattiq amal qilmog'i darkor. Ayshishratdan, fitna va g'iybatdan, g'aflatdan, yalqovlikdan, zulm-razolatdan, chaqimchilikdan, molparastlikdan uzoq bo'lishi kerak. Xiva xoni Feruz Ogahiyning davlatni boshqarish to'g'risidagi maslahatlariga quloq tutgan, uning hikmatli baytlarini marmar toshlarga yozdirib arxonalari qo'ydirgan, ko'p ezgu ishlarni amalga oshirgan.

Bu davrda Xorazm xalqi mahalliy boylar va rus bosqinchilari zulmi ostida qolgandi. Lekin shunga qaramay xonlikda madaniy-ma'rifiy ishlar rivoj topdi. Bunda Ogahiyning ma'rifiy hissasi katta bo'ldi. Ogahiyning Feruzga bergan siyosiy saboqlari bugun ham o'z qiymatini yo'qotgan emas.

Mutafakkir shoir jamiyatning insonparvarlik imkoniyatlarini oshirishning barcha yo'llaridan foydalanishga harakat qildi, hukmdorlarni adolatga, rahm-shafqatga da'vat etdi. Ogahiy Sayid Muhammadxon iltimosiga binonan 1857-yilda qasida yozdi.

Bas, endi raiyatga qil imdod,
Topay desang ikki jahonda murod.
Ilohe, bu qasr ichra qilg'on makon,
Bu manzilni fahm etmagil jovidon.
Vafosiz durur dahr iqboli bil,
Baqosiz durur mulk ila moli bil.
Ko'ngil qo'ymagil mulk bunyodig'a,
Et, albatta, mazlumlar dodig'al

Qasida ko'hna Arkda xonning arxonasidagi marmar ustunga o'yib yozildi. Shoir o'z qasidasida insonparvarlik g'oyalarini olg'a surdi, adolatparvar, ma'rifatparvar davlat rahbarlarini orzu qildi va xonni shunga da'vat etdi.

Ogahiy Xiva xonligining 1813-yildan 1873-yilgacha bo'lgan tarixini izchillik bilan boy manbalar asosida yozib qoldirgan. Ogahiyning tarixiy asarlariga akademik V.V.Bartold yuqori baho bergan: «Munis va Ogahiy tomonidan yaratilgan adabiy va tarixiy asarlar... voqealarni bayon etish va ularda keltirilgan daliliy manbalarning ko'pligi jihatidan bizgacha yetib kelgan Qo'qon va Buxoro xonliklari tarixi bo'yicha bo'lgan hamma asarlarni o'zidan ancha orqada qoldiradi».¹

Ogahiyning tarixiy asarlari daliliy manbalarning boyligi va ishonchli bo'lishi bilan ajralib turadi. Uning tarixiy asarlari qo'shni qardosh xalqlarning tarixini o'rganishda birinchi manba hisoblansa, tarjima asarlari Xorazm ijodkorlarini arab, fors-tojik adabiyotining noyob durdonalari bilan tanishtirdi, xalqning ma'naviy saviyasini bir pog'ona balandga ko'tardi, o'zbek adabiyoti xazinasini yangi asarlar bilan boyitdi, xalqlar o'rtasidagi do'stlik va madaniy aloqalarni mustahkamladi.

KOMIL XORAZMIY (1825–1899)

Komil Xorazmiy XIX asrda yashab ijod etgan ma'rifatparvar shoir, san'atkor, xattot, davlat arbobi, o'z davri ilg'or madaniyatining mashhur vakillaridan biridir. Komil — shoirning adabiy taxallusi bo'lib, uning asl nomi Pahlavon Niyoz Muhammaddir. Pahlavon Niyoz Muhammad 1825-yilda Xivada, mudarris Abdulla Oxun oilasida tug'ildi. U dastlabki saboqlarni mahalla masjidida qoshidagi maktabdan, so'ng o'z otasidan oldi. Abdulla Oxun o'g'liga arab, fors tillarini o'rgatdi va adabiyotga havas uyg'otdi. Komil mahalla maktabini tamomlagach, Xiva shahridagi madrasalardan birida tahsil ko'radi, mumtoz adabiyot vakillarining ijodini zo'r havas bilan o'rganadi. Navoiyni o'ziga ustoz bilib, unga taqlidan she'rlar yoza boshlaydi va tez orada mashhur shoir bo'lib yetishadi. U musiqa va xattotlik san'atini ham madrasada o'qib yurgan davrida o'rgangan edi.

Komildagi iste'dodni ko'rgan Xiva hukmdori Sayid Muhammad (1856–1865) uni saroyga tortadi va u xon saroyida xattot, Muhammad

¹ Бартольд В. В., История культурной жизни Туркестана. Л. 1927. стр. 113.

Rahim II — Feruz (1864—1910) davrida esa mirzaboshi va devonbegilik lavozimlarida xizmat qiladi.

Komil o'z asarlarida an'anaviy ishq-muhabbat, ma'rifatparvarlik, tinchtotuv yashash g'oyalarini targ'ib qiladi. Ammo shoir ijodida ma'rifatparvarlik g'oyalari yetakchi o'rinni egalladi. Bunga shoirning «Kamol», «Dar bayoni ta'rifi va tavsifi Toshkand», «Tillo soat» kabi asarlari yaqqol misol bo'ladi. Komil 1891-yil sentabr oyida Peterburgga borayotib Toshkentda to'xtab, «Turkiston viloyatining gazetisi» tahririyatining iltimosi bilan «Toshkand» deb nomlangan qasida yozadi. Uning bu qasidasi o'zbek adabiyotida yangi ijtimoiy taraqqiyotni aks ettirgan yirik she'riy asardir.

Peterburg, Moskva, Toshkent kabi shaharlarni tomosha qilish, xalq ahvoli bilan tanishish shoir qalbidagi vatanparvarlik hissini yanada kuchaytirdi. Vatan taqdiri va uning kelajagi shoirga tinchlik bermadi. Shuning uchun ham shoir o'z she'rlaridan birida:

Ne sud ochilsa gul, o'lsa bahor g'urbat aro,
Mengaki bo'lmasa yoru diyor g'urbat aro,
Ochilmadi chamaniston havomidin ko'nglum,
Ko'zimga gul erur andoqki, xor g'urbat aro.
Chiqay Vatan sadafidin dema guhar yanglig',
Garchi bo'lsa senga e'tibor, g'urbat aro, —

deb o'z elida, diyorida turib o'zini g'urbatda his qiladi.

Komil birinchi bo'lib o'zbek nota yozuvini ixtiro qildi. Feruzning farmoni bilan «Tanbur chiziqchilari» deb ataluvchi Xorazm notasini yaratdi va «Rost» maqomining bosh qismini notaga tushirdi. Komilning «Rost» maqomiga bog'langan «Murabbai Komil», «Peshravi Feruz» singari kuylari notaga yozilgani holda hozirgacha saqlanmoqda va xonanda, sozandalar tomonidan kuylanmoqda.

Shoiring bu ishini o'g'li Muhammadrasul Mirzo davom ettirib, Xorazm maqom kuylari uchun nota asosida musiqa yaratdi. Taniqli bastakor Matniyoz Yusupov esa besh jildlik Xorazm maqomlari kitobini nashrdan chiqardi va keng o'quvchilar ommasiga taqdim qildi.

Komilning madaniy-adabiy merosi xilma-xil va boydir. Ularning ko'pchiligini an'anaviy sevgi-muhabbat mavzusi tashkil qiladi. Bu mav-

zuda ko'p asarlar yozilgan bo'lsa ham, shoir unga o'zining yangi she'ru dostonlari bilan munosib ulush qo'shdi. Xususan shoirning:

Yig'latur oshuqlaring la'li labing xandasi,
Tubiyu shamshod erur sarv qadding bandasi,
Husnu jamol avjining mehri duraxshandasi,
Ko'rsa mehr orazing, bo'lg'usi sharmandasi,
So'yla mango ey sanam, kimni sevar yorisan?

kabi otashin satrlari kishini beixtiyor maftun etadi, uni o'ylashga, fikrlashga undaydi. Misol uchun: «Yig'latur oshuqlaring la'li labing xandasi». Ajab, nima uchun oshiqni ma'shuqaning labini xandasi yig'latadi? Chunki oshiq sevgilisining vasliga yetolmaydi. U hijron azobida o'rtanadi. Ma'shuqa esa uning bu ahvolini labda xanda bilan tomosha qilib turadi. Ma'shuqa jafu qilsa ham oshiq undan nari ketolmaydi. Negaki, ma'shuqa benihoya go'zal. Uning qomatiga tubi-yu shamshod banda, gulgun yuzidan quyosh sharmanda. Qarang, shoir bir necha misraga qancha ma'noni jo qilgan. Navoiy, Munis, Ogahiy kabi shoirlarning ijodi Komil uchun adabiy maktab bo'ldi.

U o'z salafлари ijodini chuqur o'rgandi. Ularning asarlarida kuylangan insonparvarlik, adolatparvarlik g'oyalaridan ijodiy foydalandi. Shuning uchun shoir ijodida xalqchillik g'oyasi alohida o'rin egalladi. Bu g'oya Komil asarlarining mag'z-mag'ziga singib ketgan.

Komil yashagan davrda Xiva xonligi Rus chorizmining vassali bo'lib, xalq turmushi nihoyatda ayanchli ahvolda edi. Zulm va zo'rliklarni o'z ko'zi bilan ko'rgan shoir mehnatkash xalq hayotiga achindi, uni yengillashtirish choralari ni izladi. Ammo topolmadi. Shuning uchun u xon va uning amaldorlarini insof va adolatga, mehr-shafqatga da'vat etdi:

...Gar oltin qasr esa johing, ulus holiga rahm etgil,
Sendek necha shahanshohni o'tkardi bu ayvon...

Komil o'zbek mumtoz adabiyotining eng yaxshi an'alarini davom ettirib, ijodiy rivojlantirdi. Shuning uchun uning ko'pgina asarlarida hukmron tabaqalarning johilligi, munofiqligi, shafqatsizligi fosh etilgan. Bunga shoirning «Tama», «Ro'za», «Mullo-imom» kabi she'rlari yorqin misol bo'ladi.

Komil fors tilini ham yaxshi bilardi. Xiva xonligidagi adolatsizlik, jabr-zulmni, turmush illatlarini fosh qilishda fors tilidan ham unumli foydalandi. Shoiringning «Alg'iyos», «Zi bedodi gardun», «Dod az dasti charxi dun» mat'lai bilan boshlanadigan g'azallari isyonkorlik ruhi bilan yo'g'rilgan. Komil odamlarni ezgulikka da'vat etadi. Yomonlik qilishdan, qabohatdan nari yurishga chaqiradi. «Kim kimga choh qazisa o'zi shu chohga yiqiladi» degan fikrni ilgari suradi:

Birovni yoqsa kishi yongay o'zi ham ul o'tda,
Ki sham' o'rtadi parvonalarni topdi gudoz.


Komil mohir xattot edi. U ko'pgina badiiy asarlarni va devonlarni chiroyli qilib ko'chirdi. Ko'plab xattotlar yetishtirib chiqardi. Ustod Muhammad Panoh, Xudoybergan Muhrikon, Sharif Tarro devon, Matyoqub Xarrot devonlar shular jumlasidandir. Komil Xorazmiy va uning shogirdlari tomonidan ko'chirilgan devonlar jahonning bir qancha mamlakatlari kutubxonalari fondlarida ko'z qorachig'idek saqlanmoqda.

Komil Xorazmiy xattot bo'lish bilan birga mohir tarjimon ham edi. U XVIII asrda yashab o'tgan Barxo'rdor bin Mahmud turkman Mumtozning «Mahbub ul-qulub» asarini tarjima qilgan. Asar nasriy yo'lda yozilgan bo'lib, kichik-kichik hikoya va latifalarni o'z ichiga olgan.

Faxriddin Ali Safiyning «Latoif at-tavoyib» («Turli toifalarning latifalari») asarini tarjimasi ham Komil Xorazmiy qalamiga mansubdir. Kitobdan Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy va boshqa mashhur kishilar haqidagi hikoya va latifalar o'rin olgan.

Komil Xorazmiy bu asarlarni tarjima qilish bilan birga ularga ayrim o'zgarishlar ham kiritgan, ba'zi hikoyalarni qayta ishlagan, kitobning uslubini o'z davridagi kitobxonlarning did va saviyasiga moslashtirgan.

Bir so'z bilan aytganda, Komil Xorazmiy o'zbek mumtoz adabiyotining eng yaxshi an'alarini davom ettirdi va ilg'or adabiyot rivojiga katta hissa qo'shdi. O'z xalqini ma'rifatli, diyorini ozod, obod, farovon ko'rishni orzu qildi. Shoiringning orzulari faqat bizning kunlarimizda ro'yobga chiqdi.



XIX asrning 2-yarmi — XX asr boshi

AHMAD DONISH
(1827–1897)

Ahmad Donish yoki Ahmad Kalla deb nom qozongan Ahmad ibn Mir Nosir ibn Yusuf al-Xanafi as-Siddiqiy al-Buxoriy Buxoro amirligida, XIX asrning oʻrtalarida yashab ijod etgan, ilgʻor fikrlari bilan nom qozongan shoir, mutafakkir, maʼrifatparvardir. U 1827-yilda Buxoro shahrida tugʻildi. Shu yerdagi maktab va madrasalarda bilim olib, oʻz davrining ilgʻor olimi va mutafakkiri darajasiga koʻtarildi.

Ahmad Donish madrasada olgan bilimlar bilan kifoyalanmay, riyoziyot, falakiyot, adabiyot, musiqa, meʼmorchilik, tarix va falsafa bilan shugʻullandi, ayniqsa, Sharq shoirlari va mutafakkirlarining asarlarini koʻp oʻqidi va oʻrgandi. Ibn Sino, Umar Xayyom, Navoiy, Fuzuliy, Bedil asarlari bilan yaqindan tanishib, ularning fikrlaridan oʻz risolalarida keng foydalanishga intildi. Falsafiy, ijtimoiy-siyosiy, badiiy masalalar bilan birga tabiiy fanlarni, ayniqsa, astronomiya ilmini oʻrganishga katta eʼtibor berdi. Oʻzining taʼkidlashicha, astronomiya ilmini Mirzo Abdulfattohxon munajjimdan oʻrganadi. Donish yuqori malakali xattot, meʼmor ham edi. Shuning uchun XIX asrning 50-yillarida Buxoro amiri Amir Nasrulloh saroyida xizmat qildi. 1870-yili saroy xizmatidan ketdi.

Ahmad Donish 1857, 1869 va 1874-yillarda uch marta Buxoro elchilari tarkibida Peterburgda boʻlib, Ovroʻpo madaniyati, ilm-fan sohasidagi yutuqlari bilan yaqindan tanishish imkoniyatiga ega boʻlishi mutafakkir dunyoqarashida katta burilish yasadi va oʻz taassurotlari taʼ-

sirida Buxoroda mavjud tartiblarni isloh qilish loyahasini olg'a surdi. Bu esa Amir Muzaffar (1860–1885) noroziligiga sababchi bo'ladi va amir Ahmad Donishni Huzorga qozi etib jo'natadi. Donish amir o'limidan so'ng Buxoroga qaytadi va 1897-yili vafot etadi.

Ahmad Donish falsafa, tarix, falakiyot, riyoziyot, adabiyot, xattotlik masalalariga bag'ishlangan asarlar yozgan.

O'zbekiston Respublikasi FA Beruniy nomli Sharqshunoslik institutining qo'lyozma fondida Ahmad Donishning 16 ta risolasi va yana bir qancha she'rlari kiritilgan tazkiralalar, G'azzoliy, Jomiy asarlaridan ko'chirgan qo'lyozma nusxalari saqlanadi, ularning ko'pchiligi asl nusxa bo'lib, muallifning o'zi tomonidan bitilgandir. Masalan, 1877-yilda yozilgan «Majmuai hikoyati Ahmadi Kalla» deb nomlanuvchi qo'lyozmada muallif turli tarixiy, adabiy, falsafiy masalalar haqida fikr yuritadi. U Ulug'bek davri, Abdurahmon Jomiy ta'limoti, shialar va sunnalarni murosaga keltirish masalalariga bag'ishlangan risola ham yozgan. Risolada islom tarixi, undagi turli yo'nalishlarning kelib chiqish sabablari, Rumiy, G'azzoliy, Jomiy, Bedil kabi donishmandlarning bu masalalarga munosabatlarini xususida bahs yuritilgan. Ahmad Donish ijtimoiy ilmlar sohasida Markaziy Osiyoning o'tmish tarixi, fani, adabiyoti, davlatchiligi, dini kabi masalalariga oid hamda o'ziga xos mazmunga ega bo'lgan she'riy asarlar yaratish bilan birga tabiiy ilmlar, xususan, astronomiya, kosmologiya muammolari ustida ham muttasil tadqiqotlar olib borgan va bu sohada bir qancha asarlar yozib qoldirgan. Ahmad Donish o'zining «Munozir al-Kavokib» («Yulduzlarni kuzatish») asarida falakiyot ilmiga oid muhim masalani hal qilgan.

Donish «Risolat dar ilmi kurra» («Globus haqida risola») deb nomlangan asar ham yozgan bo'lib, unda globusning vazifasi, uning ilm uchun ahamiyati, undan amaliy foydalanish haqida gap boradi. 12 bobdan iborat bo'lgan «Iztig'roji bul va arzi balat» («Joylarning uzunligi va enini o'lchash») asarida Ahmad Donish joylarning o'mini o'lchab chiqarish osmon meridianini soatlarda belgilash masalalari haqida mulohaza yuritadi.

Uning ijtimoiy-siyosiy qarashlari «Navodir ul-vaqoye», «Risolai muxtasare az tarixi saltanati xonadoni mang'itiya» kabi asarlarida o'z aksini topgandir. So'nggi asar qisqacha «Risola» nomi bilan ham yuritilib, Buxoro xonligidagi Mang'it sulolalarining hokimiyati tarixiga bag'ishlangan va Amir Doniyol (1758–1785) hokimligidan Amir Abdulahad (1885–

1910) hokimligi davrigacha bo'lgan tarixni o'z ichiga oladi. («История мангытской династии». I.A.Najifovning kirish so'zi, izohi va tarjimai. Dushanbe, 1967-yil). Ahmad Donishning eng muhim asari «Navodir ul-vaqoye»dir. Bu asarda juda ko'p ijtimoiy-axloqiy masalalar xususida fikr yuritilgan.

«Navodir ul-vaqoye» kitobi Ahmad Donishning asosiy asari hisoblanib, unda olim o'zining turli masalalarga munosabatini ifodalagandir. Yuqorida ko'rsatilgan har ikki asarda Ahmad Donish ijtimoiy taraqqiyotga g'ov bo'lib qolgan mavjud ijtimoiy-siyosiy tuzum, tartib va munosabatlarni tanqid ostiga oladi. O'rta asr falsafasida keng tarqalgan tavakkul nazariyasini tanqid etib, bunday deb yozadi: «Agar kishi tavakkulga ishonib harakat qilmasa, mehnat qilmasa va qiyinchilikda, kambag'allik bilan hayot kechirish yoki mo'l-ko'llikda yashash qismatda bor ekan, deb aytsa, unday kishi xato qiladi. Demak, u aqli emas».¹ Buxoro xonligini Ovro'po mamlakatlari, xususan, Rossiya bilan taqqoslab, Donish o'z vatanini iqtisodiy, madaniy jihatdan orqada qolganligini ko'rsatib beradi va bu qoloqlikdan chiqish uchun ijtimoiy-siyosiy tuzumda islohotlar qilish zarurligini uqtiradi.

Donishning fikriga ko'ra, «davlat bir guruh kishilar ehtiyojlarini qondirish uchun emas, xalq manfaatlarini uchun, mamlakatni obod qilish uchun xizmat qilmog'i zarur. Biz dunyoni gullab-yashnatish uchun, dengizlar kezib o'rganish uchun, yer osti boyliklarini topish uchun, uning hamma qitalari va aholisini bilish uchun tug'ilganmiz», — deb yozgan edi Donish. Buning uchun hukmdor bilimdon, ma'rifatli, odil va o'z fuqarolari manfaatlarini uchun xizmat qilmog'i shart. U qanday masalani hal qilmasin, eng avval o'zini fuqaro o'rnida, ularni esa o'z o'rnida tasavvur qilmog'i lozim. Bu adolatni ta'minlashga imkon yaratadi. «Mamlakatni idora qilishda, — deydi Donish, — hukmdor muhim davlat muammolarini o'z atrofidagi maslahatchilar bilan birgalikda hal qilishi kerak. Maslahatchilar ham donishmand va adolatli kishilar bo'lishi kerak va ularning fikri bilan hisoblashishi shart, chunki ko'pchilikning aqli, bir kishining aqlidan ortiqroqdir».

¹ Ahmad Donish asaridan keltirilgan barcha parchalar I.M.Mo'minovning «O'zbekistonda XIX asr oxirida XX asr boshlarida ijtimoiy-falsafiy tafakkurning rivojlanish tarixidan» (Tanlangan asarlar. I jild, Toshkent, 1969) kitobidan olindi.

Ahmad Donish o'z vatanini qoloqlikdan chiqarish yo'llarini tinmay izladi. «Kishi o'z vatanini himoya qilsagina, o'z xalqi bilan birga bo'lsagina, — deydi Donish, — u har doim barhayotdir». U Sharq mutafakkirlari ta'limotini o'rganish bilan bir qatorda G'arbda tarqalgan ijtimoiy-siyosiy ta'limotlar bilan ham qiziqadi. Garchi bu ta'limotlarni Donish qabul qilmagan bo'lsa-da, uning bularga nisbatan bo'lgan munosabati mutafakkirni keng ko'lamdagi tadqiqotchi va ijtimoiy-siyosiy orzulari kengroq ekanligini ko'rish imkonini beradi.

Ahmad Donishning ijtimoiy g'oyalari o'z davri uchun muhim ahamiyatga ega edi. Donish mavjud iqtisodiy-siyosiy tuzumning taraqqiyotiga g'ov bo'lib qolganligini ko'rsatadi va bu g'oyani olib tashlash yo'llarini qidiradi.

Ahmad Donish merosining bir qismigina o'rganilgan bo'lib, bu sohada rus olimlari va O'zbekiston, Tojikistonda olib borilgan tadqiqotlarni qayd etib o'tish lozim. Donish asarlarining asl nusxasi — tojik tilida, rus va o'zbek tillarida nashr etilgan. Bu qomusiy bilim egasining boy ijodiy merosini, tabiiy-ilmiy qarashlarini har tomonlama o'rganish o'z tadqiqotchilarini kutmoqda.

BERDAQ (1827–1900)

Berdaq qoraqalpoq xalqining mashhur demokrat shoiri, asl farzandidir. XIX asrda yashab ijod etgan. Shoirning asl ismi Berdimurod Qarg'aboy o'g'li bo'lib, Berdaq uning taxallusidir. Mutafakkir to'g'risida ma'lumotlar kam saqlanib qolgan. Uning tarjimai holi va ijodiga oid ma'lumotlarni, asosan, o'zining asarlarida uchratish mumkin. U Orol dengizining janubida joylashgan Mo'ynoq tumanining Oqqal'a degan joyida dunyoga kelgan. Berdaq o'n yoshligidayoq otasi Qarg'aboy Bo'ronboy o'g'li va onasidan ayrilgach, amakisi Qo'chqorboyning qo'lida tarbiya ko'ra boshlaydi.

Berdaq o'n yoshidan ovul maktabiga, maktabni bitirgandan so'ng o'z bilimini yanada chuqurlashtirish maqsadida o'sha davrda yirik ilm mas-kani hisoblangan Qoraqum eshon madrasasida tahsil oldi.

U yoshligidan she'r yozishni mashq qila boshladi. Xalq qo'shiqlari, turli afsonalar, ertaklar, maqol va matallar, dostonlar bilan tanishish,

mashhur shoirlarning she'rlaridan bahramand bo'lish mutafakkir badiiy ijodini kamolga yetib, shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, Berdaq asta-sekin mashhur shoir va xalqqa tanilgan baxshiga aylana bordi. Eng muhimi, she'rlariga o'zi kuy bastalab, kuylay boshladi.

Berdag ko'p shaharlarga sayohat qildi. Markaziy Osiyoning yirik shaharlarida bo'ldi. Urganch va Buxoroni ziyorat qilib, qadimiy yodgorliklar bilan tanishdi. Berdaq Alisher Navoiy, Fuzuliy va Maxtumquli ijodlarini chuqur o'rganib, she'rlarini mutolaa qildi. Zamondosh shoirlar bilan musohib bo'ldi. Berdaq she'rlarining aksariyati kambag'al, beva-bechoralarning ayanchli hayoti, ularning og'ir mehnati, boy-zodagonlarning ularga nisbatan qilgan shafqatsizligi, zo'rovonligi va adolatsizligiga bag'ishlangan. Uning she'rlarida insonparvarlik, tenglik, saxiylik, adolat, vatanparvarlik, mehr-shafqat, qahramonlik va mardlik, mustaqillik, milliy ozodlik va haqiqat uchun kurash, mehr-muhabbat kabi umuminsoniy va milliy qadriyatlar o'z aksini topgan.

Berdagning she'r va dostonlari xalq ommasining turmushini xolisona va haqqoniy tasvirlab berish bilan ajralib turadi. U o'z zamonasidagi adolatsizlikdan, miroblarning o'zboshimchaligidan, zolimligidan noliydi:

Chaqqon odim tashlab, mehnat qilmasang,
Kun ko'rmoqlik qiyin bo'ldi bu zamon.
Maqsadingga o'ylab-o'ylab yetmasang,
Qiyin bo'ldi kun ko'rmoqlik bu zamon.

Berdag insonni yuksaklikka ko'taradi, xalqni katta kuch ekanligini ta'kidlab, hukmron sinf vakillarini mehnatkash xalqni hurmat qilishga, ularga yordam berishga chaqiradi. Shoir o'zini xalqning ajralmas bir qismi, deb tasavvur qiladi.

So'zim o'lmas, doim tirik qolaman,
Xalqim borku, yovdan o'chim olaman...

Berdag o'zi yashayotgan tuzumni, uning tartiblarini tanqid ostiga oladi. Shoirning fikricha, mavjud siyosiy tuzum mehnatkash xalqni haq-huquqlarini va manfaatlarini himoya qila olmaydi. Bunday tuzumda faqat adolatsizlik, haqsizlik, tamagirlik, o'zboshimchalik va boshqa insonga xilof illatlar hukm suradi. Shoir zolimlardan zorlanib bunday deydi:

Zolimlar tinglamas faqirning zorin,
Ular o'ylar o'z foydasin, o'z qornin,
Hech qachon zolimlar qo'ldagi borin,
Er ko'rmaslar, bor bo'lsa-da, xalq uchun.

Berdaq o'zining ijtimoiy-siyosiy masalalarga bag'ishlangan asarlarida, Sharqning boshqa mutafakkirlari kabi jamiyatni odil va ma'rifatli podshoh boshqarishi lozim, degan fikrga keladi. U adolatsiz va zolim xon davlatni boshqarishga yaroqsiz, deb hisoblaydi.

Shoirning «Omongeldi», «Xalq uchun», «Aydosbiy», «Yaxshiroq», «Bo'lgan emas», «Ernazarbiy» asarlarida qoraqalpoq xalqining zulmkorlikka qarshi qahramonona kurashi, milliy-ozodlik harakati aks ettirilgan.

Berdaq inson o'z faoliyatida, xatti-harakatida, maqsadiga erishishida erkin ekanligini yozadi. Masalan, u «Ahmoq podsho» dostonida ayrim boylar va amaldorlarning jabr-zulmi oxirgi nuqtasiga borib taqalgandan so'ng sabr-toqati tugagan xalq o'z ixtiyori bilan ularga qarshi bosh ko'taradi, deydi.

ʻBerdaq ijodiy merosida axloq, xulq-odob, nafosat va go'zallik masalalari muhim o'rinni egallaydi. Uning she'rlarida milliy va umuminsoniy qadriyatlar, vatanparvarlik, xalqlar do'stligi, oddiy axloq qoidalari to'g'risida qimmatli fikrlar uchraydi. Shoirning aytishiga qaraganda, ba'zi mulla va eshonlar xalq oldida o'zlarini halol va pok, adolatparvar etib ko'rsatadilar. Amalda esa buning aksini ko'ramiz. Shoir ularning munofiqligini fosh etib tashlaydi.

Berdaq o'zining axloqiy qarashlarida Sharqning eng yaxshi an'alarini davom ettirdi. «Izladim», «Xalq uchun», «Yaxshiroq», «Menga kerak» kabi she'rlarida kishilarning halol mehnatini ulug'laydi. Uningcha, har bir odamning asosiy burchi xalqqa va uning farovonligi yo'lida xizmat qilishdir. Berdaqning axloqiy qarashlarining yana bir muhim tomoni – kishilarni hurmat qilish, ayniqsa, qarilar, zaif va nogironlar, kambag'al va beva-bechoralarni izzat-nafsiga tegmaslik, ularga iloji boricha yordam ko'rsatishdir. Berdaq xuddi Navoiy kabi odamlarni axloq-odobiga qarab, ularni ikkiga: yaxshi va yomonga bo'ladi. Yaxshi odam deganda, u butun insoniy fazilatlarini o'zida to'plagan dono, aqlli, bilimdon, o'zgalarga yordam beruvchi, fe'l-atvori go'zal kishilarni ko'z oldiga keltiradi. Yomon odam esa, Berdaqning nazarida, xalqning ofatidir, u xalqni ham, og'a-

inini ham qadriga yetmaydi. Umuman olganda, shoir axloqiy qarashlarining markazida insoniylik turadi.

Berdaq ko'p she'rlarida bolalarni tarbiyalash, kattalarni hurmat qilish, yosh avlodga vatanparvarlik, o'z xalqiga muhabbat, xalqlar o'rtasida do'stlik va birodarlik g'oyalari singdirishga intildi.

Berdaqning yuksak insonparvarlik ruhi bilan sug'orilgan adabiy, ijtimoiy-siyosiy va falsafiy g'oyalari hozirgi mustaqillik sharoitida ham o'z tarbiyaviy ahamiyatini saqlab kelmoqda.

ABAY (1845–1904)

Abay – Ibrohim Qo'nonboyev – XIX asrning 2-yarmida yashab, ijod etgan qozoq she'riyatining mash'ali, bastakor, faylasuf va qozoq yozma adabiyotining asoschisi, ma'rifatparvar shoiridir. U 1845-yilning 8-avgustida Semipalatinsk viloyatiga qarashli (hozirgi Abay tumani) Chingiztog' bo'vuridagi Qashqabuloq makonida dunyoga kelgan. Otasi Qo'nonboy O'skonboy o'g'li qozoq urug'lari ichida eng boy, badavlat kishilardan bo'lib, Abayni o'qitishga katta ahamiyat berdi. Abay madrasada to'rt yil ta'lim oldi. Arab, fors tillarini o'rgandi. Markaziy Osiyo allomalarini, xususan, Sa'diy Sheroziy, Hofiz Sheroziy, Xusrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy, Navoiy, Bobur, Nodira asarlarini mutolaa qildi. Ulardan ta'sirlanib «Fuzuliy, Shamsiy, Sayqaliy» nomli she'riy asarini yaratdi. Unda Sharq allomalarini o'ziga ustoz deb bilganligini tan oladi:

Fuzuliy, Shamsiy, Sayqaliy,
Navoiy, Sa'diy, Firdavsiy,
Xo'ja Hofiz – bu hammasi,
Madad ber, yo shuaro fariyod –

deydi.

Shuningdek, shoirning «Yuzi ravshan», «Alifbo», «Fuzuliy, Shamsiy, Sayqaliy» kabi va boshqa she'rlari Sharq allomalariga ergashib yozgan ijod namunalari edi. Shuning uchun akademik yozuvchi Muxtor Avezov «...unga tillari tushunarli bo'lganlikdan Navoiy, Fuzuliy asarlari ko'p ta'sir etgan. Ayniqsa, Abay Alisher Navoiyni o'ziga «eng yaqin ustoz» deb biladi va asarlaridan o'rnak oladi...»

Abay Ahmad Rizo madrasasida uzoq tahsil ko'rolmadi. Otasi uni madrasadan chiqarib olib, el boshqarish ishlariga jalb etadi. Lekin Abay qalamni tashlab qo'ymadi. El boshqarish bilan birga badiiy ijod bilan qattiq shug'ullandi, o'z bilimini tinmay oshirib bordi. Shoir uchun, ayniqsa, 1886—1889—1895-yillar sermahsul, qizg'in ijodiy davr bo'ldi. Bu davrda qozoq urug'larining o'zaro ichki nizolari avj olgandi. Abay o'z asarlarida ularni do'stlikka, inoqlikka, birodarlikka undadi, ilm-ma'rifat olishga da'vat etdi. Bunga shoirning «Mening elim — qozog'im», «Adashganning oldi yo'q», «Ilm topmay maqtanma», «Yoshlikda ilm deb o'yladim», «Boylar yurar molin ardoqlab», «Internatda o'qiydi» (1886) kabi asarlari yorqin misol bo'ladi.

Abay o'sha davrlarda Semipalatinskka surgun qilingan rus demokratlari I.I.Dolgopolov, Ye.P.Mixaelis hamda V.G.Belinskiy, N.G.Chernishevskiy, N.A.Dobrolyubov, M.E.Saltikov-Shchedrin, L.N.Tolstoy, A.S.Pushkin, M.Y.Lermontov, I.A.Krilov asarlarini o'qib puxta o'rgandi. Ba'zilarini qozoq tiliga tarjima qildi. Ularning asarlari orqali rus, jahon adabiyoti namoyandalari asarlari bilan yaqindan tanishdi, tarjimalar qildi, nasriy asarlar yozdi.

Abay ijodining muhim qirralaridan biri — yosh shoirlarni tarbiyalash bo'ldi. Yoshlarga homiylik qildi. Ularga mavzular berib, dostonlar yozdirdi. Bu o'rinda o'g'li Mag'aviyaga (1869—1904) «Medg'at Qosim», Oqilboyga (1863—1904) «Qissai Yusuf» kabi dostonlar yozishga da'vat etilganligining o'zi kifoyadir.

Abaydan 300 ga yaqin she'riy asar, «Iskandar», «Mas'ud», «Azim hikoyasi», «Vadim» kabi dostonlar yetib kelgan. Uning asarlaridan xalqni ilm-ma'rifatga, insoniylikka, halollikka, sevgi-sadoqatga, muhabbatga da'vat etish g'oyalari asosiy o'rin egallagan. Bu o'rinda shoirning «Ey muhabbat, ey do'stlik», «Yigitlar», «O'yin arzon, kulgi qimmat», «Ko'zimning qorasi», «Qiz so'zi», «Yigit so'zi», «Oshiq so'zi — tilsiz so'z» kabi asarlarini ko'rsatib o'tish kerak. Abayning Pushkinning «Yevgeniy Onegin» asari asosida bitgan «Tatyananing qirdagi qo'shig'i» degan turkum she'rlari qozoq adabiyotining eng yaxshi namunalaridan biri bo'lib qoldi.

Abay she'riyatida muhabbatsiz, do'stliksiz hayot bo'lmaydi, degan g'oya ilgari surilgan. Abay o'z davridagi boylarni, zodagonlarni mehmuruvvatli bo'lishga chorlaydi, ezgulik va adolatparvarlikni to'lib-toshib

kuylaydi. Abaygacha qozoq she'riyatida ikki xil o'lan o'lchovlari mavjud edi. U ham bo'lsa «Qora o'lan» bilan «Jur»dir. Abay esa rus va jahon she'riyatini chuqur o'rganib, o'lanlar vaznini o'n yettitaga yetkazdi. Bu borada shoirning «Sakkiz oyoq» she'ri bilan 16 tarmoqli «Sen meni netasan?» asarini eslash lozimdir.

Abayning bastakorlik faoliyatida «Sakkiz oyoq», «Aytdim salom, qalamqosh», «Men ko'rdim baland qayin qulashin», «Jelsiz tunda yoriq oy», «Necho, qaytdim sezdirmay» kabi asarlari qozoq xalqi musiqa tarixida alohida o'rin egallaydi.

Abay uch manbadan oziq olib, ma'naviy kamolotga yetdi. Bular — qozoq xalq og'zaki ijodiyoti, Sharq she'riyati va nihoyat rus, Ovro'po adabiyoti namunalari. Bu uch manba Abayni buyuk shoir etib yetishtirdi, olamga tanitdi. Asarlarini ellarga manzur qildi. Abayning nasriy asarlari, she'r-u dostonlari o'zbek, tatar, qirg'iz, qoraqalpoq, turk, mo'g'ul, chin, chex tillariga tarjima qilingan va mazkur xalqlarning ma'naviy mulkiga aylanib qolgan.

Shoir asarlari birinchi marta Sankt-Peterburgda «Qozoq shoiri Ibrohim Qo'nonboy o'g'lining she'rlari» degan nom bilan chop etilgan. Ma'rifatparvar adibning nasriy asarlari 1918-yilda Semipalatinskda, 1922-yilda «Tanlangan she'rlari» Toshkentda nashr qilingan.

Muxtasar qilib aytganda, Abay qozoq adabiyoti va qozoq tiliga asos soldi. Shoirning she'r-u dostonlari, nasriy asarlari, tarjimalari qozoq xalqining milliy-ma'naviy iftixori bo'lib qoldi. Abay ijodi turkiy tillarda so'zlashuvchi xalqlarning umumiy ma'naviy mulkidir. Abay xalqlarni do'stlik va birodarlikka, hamjihatlikka chaqirdi. Tinchlik va osoyishtalikni, mehr-muhabbatni ulug'ladi. Shoir orzulari bizning kunlarimizda ro'yobga chiqdi.

FERUZ (1844—1910)

Feruz — Muhammad Rahimxon II XIX asrning 2-yarmi — XX asr boshlaridagi o'zbek adabiyotida o'ziga munosib o'ringa ega bo'lgan allomalardan biridir. U shoir, musiqashunos, davlat arbobi va hukmdor edi. Muhammad Rahim 1844-yilda Xivada, Said Muhammad oilasida tavallud topdi. U boshlang'ich ma'lumotini xususiy muallimdan oladi,

biroz muddat madrasada tahsil ko'radi, davlat, huquq ilmini esa unga zamonasining yetuk huquqshunos olimlari o'rgatadilar.

Ogahiy Muhammad Rahimga ustodlik qildi, unga she'riyat sirlarini o'rgatdi, tarixdan, tarjima ilmidan saboq berdi. Al-Xorazmiy, Beruniy, Mahmud Zamaxshariy, Najmiddin Kubro, Pahlavon Mahmud kabi buyuk allomalar haqida dastlab Ogahiydan dars eshitdi. Keyinchalik esa ularning ijodiy meroslarini to'plashga kirishib, Pahlavon Mahmud ru-boiylaridan bir kitob tartib etdi.

Muhammad Rahim 1863-yilda otasi Sayid Muhammadxon vafot et-gandan keyin, uning o'rniga Xiva xonligi taxtiga o'tiradi. Bu voqeaga bag'ishlab shuaro va fuzalolar tarix va qasidalar bitdilar, masnaviyalar ya-ratdilar. Ogahiy tomonidan bitilgan tarix va yozilgan qasida alohida aha-miyat kasb etadi.

Ogahiyning Feruzga bag'ishlagan qasidasida, unga otaning o'z o'g'-liga, ustodning shogirdiga bergan nasihatlarini, tilak va istaklari, adolatpar-varlik va xalqparvarlik niyatlari ifodalangan. Ogahiyning ushbu qasidasi pand-nasihat uslubidagi yirik asar bo'lib, mamlakatni boshqarishda Feruz faoliyatida unga berilgan yo'l-yo'riq ham edi. Feruz bu vaqtda endigina o'n to'qqiz bahorni ko'rgan yigit bo'lib, o'n yilcha mustaqil ravishda xonlik qildi. Ammo Rossiya imperiyasining Xiva xonligini bosib olishi natijasida, qolgan davrda uning vassali sifatida davlatni boshqardi.

Muhammad Rahim yoshligidan adabiyotga havas qo'ydi. Alisher Navoiy, Munis, Ogahiy, Komil singari shoirlarning asarlarini qunt bilan o'rganib, ularga ergashib she'rlar yozdi, yozgan she'rlariga «Feruz» (g'o-lib, baxtli, saodatli) deb taxallus qo'ydi. Ayniqsa, o'ziga qadar o'tgan Sharq adabiyoti vakillarini ustod deb bildi.

Ogahiy bilan Feruz o'rtasida shogird va ustodlik munosabatlari mus-tahkam edi. Hatto Ogahiy o'z shogirdi Feruzga ota-o'g'ildek munosa-batda bo'ladi, bu albatta, Feruz faoliyatiga ta'sir etmay qolmadi. Feruz bilan bir davrda yashab ijod qilgan olim-u shoirlar uni fuqaroparvar, adolatli va rahmdil shohlardan biri sifatida talqin etadilar.

Feruz saroyiga shoir, tarixnavis, olim-u fuzalo, tarjimon-u xattot, ta-bib-u sozanda va shunga o'xshash zamonasining madaniyat arboblari to'pladi. Fan-madaniyat rivojiga katta ahamiyat berdi. U o'z atrofiga shoir-u sozandalarni to'plab, har haftada g'azalxonlik, she'rxonlik kechalari tashkil qilgan. Bu haqda Bayoniy bunday yozgan: «Xon hazratlari haf-

tada ikki kun: juma va dushanba oqshomlarida ulamo bila suhbat tuzib, kitobxonlik etdurur erdilar». Feruzning o'zi ham she'r yozgan, ashula aytgan va musiqa bastalagan. Buni uning O'zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, Moskva, Sankt-Peterburg shaharlari hamda Britaniya, Fransiya, Turkiya kabi mamlakatlarning kutubxonalarida saqlanayotgan «G'azaliyoti Feruz», «Bayozi Feruz», «Devoni Feruz» asarlari ham tasdiqlaydi.

Feruz she'riyati qo'lyozma devon va toshbosma bayozlarda bizgacha to'liq yetib kelgan deyish mumkin. Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida shoirning o'nga yaqin g'azal majmualari mavjud. Bundan tashqari uning she'rlari o'sha vaqtda Xorazmda tuzilgan turli xil bayoz, majmualardan ham o'rin olgan.

Feruz ijodiga nazar tashlar ekanmiz, unda shoir g'azaliyotining juda ko'p qismi ishq-muhabbat mavzusiga bag'ishlanganligining guvohi bo'lamiz.

Ishq elin shohiman, vale oshiqining qatorida,
Ushbu xazining ul pari ko'ziga ilmadi netay.

Shoir insonning insonga bo'lgan muhabbatini ulug'ladi va unga har bir insonning eng muhim fazilatlaridan biri deb qaradi. Inson va hayotni, sevgi va sadoqatni o'z ijodining asosi qilib olgan Feruz sevgini sadoqatsiz, mehri oqibatsiz tasavvur qila olmaydi. Bular shoir lirikasining yetakchi g'oyaviy asosini tashkil etadi. Uning ko'pchilik g'azallari o'z zamonasida sozandalar va go'yandalar tomonidan kuyga solib kuylanib kelindi. Ular bugungi kunda ham musiqashunoslarimizning diqqatini o'ziga tortmoqda.

Feruz ijod ahliga g'amxo'rlik qildi, ularga maosh tayinladi, kitoblarini bosib chiqarish uchun qo'lidan kelgan barcha ishlarni amalga oshirdi. Shoirlarning asarlaridan iborat har xil tazkiralalar, bayozlar tuzdirdi. «Haft shuaro», «Bayozi g'azaliyot», «Bayozi muxammasat», «Bayozi musaddasat» kabi to'plamlar shular jumlasidandir. Feruzning tashabbusi bilan iste'dodli shoir Ahmadjon Tabibiy «Majmuat ush-shuaroysi Feruzshohiy», «Muxammasat ush-shuaroysi Feruzshohiy» tazkiralari tuzdi. Bu majmualar Feruz hukmronligi davrida yaratilgan bo'lib, o'sha davr adabiy harakatini o'rganishda qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi.

Feruz xonlik qilgan davrda, Xiva davlatining biroz markazlashuvi natijasida ilm-fan, madaniyat va adabiyot rivojlandi. Feruz tashabbusi bilan Xiva shahrida toshbosma tashkil etilib, xon farmoni bilan Alisher Na-

vojning «Chor devon», «Xamsa» singari asarlari ilk bor chop etildi. Munis, Ogahiy, Komil, Bayoniy, Mirzo, Avaz O'tar, Devoniy, Niyoziy, Chokar singari shoirlarning asarlari ko'plab nusxada bosilib chiqdi. Xorazm shoirlarining asarlaridan tashkil topgan bayoz, tazkira va boshqa xalqlar adabiyotidan qilingan tarjima asarlar ham shu matbaada nashr qilindi. Feruz tarjima qilinishi kerak bo'lgan asarlarning ro'yxatini tuzdrib, turli tarjimonlarni bu ishga jalb etgan. Natijada o'sha davrda «Xorazm tarjima» maktabi vujudga keldi. Bu davr tarjimonlari tomonidan o'zbek tiliga o'girilgan qator tarixiy, badiiy, ilmiy-falsafiy asarlar madaniyatimizning nodir durdonalari bo'lib qoldi.

Feruz tarjimonlik, xattotlik, kitobot ishlari, tazkira, majmua va bayozlar yaratish bo'yicha ham birmuncha ishlarni amalga oshirdi. Tarix, tibbiyot, badiiy adabiyot va musiqaga doir ko'plab qo'lyozma manbalar qayta tiklandi hamda yangidan yangi asarlar vujudga keldi.

Bu ulkan merosni xalqqa yetkazish va uni kitobot qilishda Xorazm kalligraflarining xizmatlari nihoyatda kattadir. Ular o'zlariga xos uslubda sodda va aniq qilib, nasx, suls, rayhoniy singari arab xati shaklidan foydalanib yuzlab qo'lyozma asarlarga sayqal berdilar. Xorazmda bu davrda ko'chirilgan qo'lyozmalarning ko'pchilik qismi adabiyotga oid bo'lib, ular o'tmish va zamondosh shoirlarning devon, bayozlari hamda turli xil majmua, tazkiralardan iborat edi. Bularning barchasi Feruz farmoni asosida amalga oshirildi. Muhammad Rahim soniy — Feruz xonlik qilgan davrda shu tariqa me'morchilik, musiqa, xattotlik, naqqoshlik kabi bir qator san'at turlari rivojlandi. Bu davrda fotografiya va kino san'ati vujudga keldi. Turmushga garmon, grammofon, elektr singari yangiliklar kirib keldi.

Feruz musiqashunos sifatida shoir va bastakor Pahlavon Niyoz Mirzoboshi Komilni Xorazm shashmaqomini tanburga moslab nota yozishga undadi. Komil «Xorazm tanbur notasi» deb yuritiladigan «Tanbur chizig'i»ni yaratdi. Komildan keyin esa bu ishni uning o'g'li Mirzo Feruz talabi asosida Xorazm shashmaqomini yetti maqomda tanburga moslab nota yozdi. Feruzning o'zi ham bir qancha she'rlarga musiqa bastalagan. Shoir Komilning tashviqi bilan butun shashmaqom kuylarini mukammal o'rgangan, «Navo», «Segoh» va «Dugoh» maqomlariga bog'lab kuylar yaratgan edi. Bu kuylar Xorazm musiqachilari orasida mashhurdir.

Muhammad Rahim soniy davrida xonlikda juda ko'p qurilishlar amalga oshirildi, madrasa, masjid, bog'lar barpo etildi.

U 1871-yilda Ko'hna Ark qarshisida o'z nomiga madrasa qurdiradi. Bu madrasa XIX asr me'morchiligidagi eng nodir yodgorliklardan biri bo'lib, ikki qavatli qilib barpo etilgan. Unda mullavachchalarning o'qishi uchun yozgi va qishki masjid, darsxona va kutubxonalar hamda ularning yashashlari uchun 76 hujra mavjud edi. Feruzning bevosita rahbarligi va tashabbusi bilan yigirmadan ortiq madrasa, masjid, minora, xonaqolar qad rostladi.

Feruz yerlarni suv bilan ta'minlash, bog'-rog'lar barpo qilish ishiga ham alohida ahamiyat berdi. Uning buyrug'iga muvofiq Qo'ng'iro't tumani sarhadida katta ariq bunyod etildi. Xalq ushbu ariqning qurilishiga Muhammad Rahim soniy rahbarlik qilganligi uchun ariqni uning nomi bilan Xon arig'i deb atadi. Kalta minor, Amirobod, Saribiy kabi ariqlarning qazilishi va qayta tiklanishi ham Feruz nomi bilan bog'liqdir. Feruz Angarik, Tozabog', Bog'ishamol va boshqa kanal hamda bog'larning qurilishiga ham rahbarlik qildi.

Shu bilan birga 47-yil-u sakkiz oy-yu 20 kun Xorazmda hukmronlik qilganligining o'zi ham uning adolatparvar hukmdor, xalqparvar shoir, buyuk ma'rifatparvar shaxs bo'lganligidan dalolat beradi.

Davlat arbobi, iste'dodli shoir, zukko musiqashunos va sozanda, ilmfan homiysi bo'lgan Muhammad Rahim soniy — Feruz umrining oxirida chap tomoni butunlay shol bo'lib, falaj kasaliga uchraydi.

Bayoniy Muhammad Rahim soniy janozasida qatnashadi va o'z ko'zi bilan ko'rganlarini, Feruzning tobuti o'zi qurdirgan madrasaga qo'yilib, o'sha yerda janoza o'qilganligini, Isfandiyor boshliq barcha ulamo, fuzalo va arkon davlatning hozir bo'lganligini hikoya qiladi.

Umuman, Feruz xalqimiz tilida, dilida o'zining qilgan yaxshi va ezgu ishlari, yozgan she'rlari va bastalagan kuylari, qurdirgan imoratlari bilan abadiy qoldi.

MUQIMIY (1850—1903)

Muhammad Aminxo'ja — Muqimiy lirik shoir va zabardast hajvchi sifatida XIX asrning so'nggi choragi va XX asr boshlaridagi o'zbek milliy adabiyotining eng yirik namoyandalari qatorida dong taratdi. Markaziy Osiyo, shu jumladan, O'zbekiston chor Rossiyasining mustam-

lakasiga aylantirilgan sharoitda qalam tebratgan Muhammad Aminxo'ja ijodi chin ma'noda xalqchildir. U ezilgan mehnatkash omma, bechora kosib-u hunarmandlar va xonavayron qishloq dehqonlarining otashin kuychisi bo'lib maydonga chiqdi. Mustamlaka tuzumidagi adolatsizlik va zo'rvonlikni, joriy tartib-qoidalarni xalqona uslubda ayovsiz qoralagan shoir o'lkamiz istiqboliga ishonch bilan qaradi. Uning asarlarida insoniy ishq-muhabbat ulug'landi, iymon-e'tiqod, halollik, saxiylik, pokdomonlik, elparvarlik, do'stlik, ona tabiat go'zalliklaridan zavqlanish, visol onlarining lazzatlari va hijron azob-uqubatlari ishonarli lavhalarda juda ta'sirchan ifodalandi.

Muhammad Aminxo'ja Qo'qonning Begvachcha mahallasida 1850-yilda Mirzaxo'ja Mirfozil o'g'li oilasida tug'ilgan. Novvoylik bilan oila tebratuvchi Mirzaxo'ja farzandining xat-savod chiqarishiga jiddiy e'tibor bergan bo'lsa, she'riyatga ishtiyoq va qobiliyatining shakllanishida onasi Oyshabibining o'rmi benihoyat kattadir. Tug'ma iste'dod sohibasi bo'lgan bu ayol juda ko'plab ertak-qo'shiqlarni yod bilgan, ta'sirchan va ifodali so'zlab berish qobiliyati bilan tinglovchilarni maftun etgan. Onadagi bu fazilat, shubhasiz, go'dak Muhammad Aminxo'jaga ham ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Mahalla maktabi va «Hokim oyim» madrasasida ta'lim olgach, Muqimiy 1872–73-yillarda Buxoroga borib, «Mehtar oyim» madrasasida tahsilni davom ettiradi. 1876-yilda uni bitirib Qo'qonga qaytadi, oila quradi.

Xatmi madrasa qilgan Muqimiy avvaliga Qo'qon yer o'lchash mahkamasida mirzalik qilarkan, o'z vazifasiga ko'ra, Qo'qon va uning atrofidagi qishloqlarga tez-tez chiqib, dehqonlarning turmush sharoitlari, qishloqlarning ayanchli ahvoli bilan yaqindan tanishish imkoniga ega bo'ldi. Lekin mahkamada uzoq ishlay olmadi. Ammo bu muddatning o'zi ham shoir hayoti va dunyoqarashida sezilarli iz qoldirdi. Mavjud mustamlaka tuzumga, joriy tartib-qoidalarga keskin salbiy munosabat va tanqidiy bahoning shakllanishiga jiddiy turtki bo'ldi.

«Dar mardumi Oqjar batariqi muxammas» asaridan ma'lum bo'lishicha, Muqimiy 1870-yillarning oxirlarida Qo'qonning g'arbi-shimolidagi Sirdaryo yoqasida joylashgan Oqjar paromida pattachi bo'lib ishlagan. Bu yangi vazifa ham shoirga mehnatkash omma vakillari, qishloq dehqonlarining turmush sharoitlari bilan bevosita tanishish imkonini berdi.

Qattiqqo‘l, muttaham parom xo‘jayinlari bilan kelisha olmagan Muqimiy 80-yillar boshlarida Qo‘qonga qaytadi. Oilaviy hayotda ham farog‘at topmagan shoir, hovlini tashlab, o‘sha Begvachcha mahallasidagi Hazrat madrasasi hujrasiga ko‘chib chiqadi va umrining oxiriga qadar muhtojlikda, o‘z ta‘biri bilan aytganda, o‘sha «hujrai tang va torlikda bekaslik va g‘ariblik chirog‘ini yoqib» umr o‘tkazdi.

Shu vaqtdan boshlab Muqimiy butun vaqtini ijodiy ish, shaxsiy mu-tolaaga bag‘ishladi, husnixat va kotiblik bilan shug‘ullandi. Zokirjon Furqat guvohligiga ko‘ra, bu yillarda Qo‘qonda muttasil ravishda harakat qilgan adabiy yig‘in-anjuman ishlariga Muqimiy yirik ijodkorlar Muhiy, Zavqiy, Nisbatiylar qatorida faol qatnashadi, davr adabiy harakatiga yetakchilik qiladi. Doimiy moddiy yetishmovchilik, yashash sharoitining nihoyatda og‘irligi shoir sog‘lig‘iga putur yetkazadi, u og‘ir dardlarga chalinadi. Shoir merosida davrdan, mashaqqatli turmushdan, og‘ir taqdir-u zabun toledan shikoyat, munis-u hamdard yo‘qligidan nolish ohanglari keng o‘rin tuta boshlaydi.

Shoirning ilg‘or dunyoqarashi, farovon hayot va ozod jamiyat, insof va adolat, barkamol inson va insoniylik, iymon-e‘tiqod va erk haqidagi orzu-intilishlari bilan mustamlaka sharoiti, mavjud adolatsiz tuzum, zo‘r-ravonlik hukmron bo‘lgan zamona o‘rtasidagi jiddiy ziddiyat, bir so‘z bilan aytganda, yuksak ideal bilan razil borliq o‘rtasidagi nomutanosiblik Muqimiy ijodida voqelikka nisbatan keskin tanqidiy munosabatning uzil-kesil shakllanishiga olib keldi.

XIX asrning 90-yillariga kelib shoir davr adabiyotidagi kuchli tanqidiy-satirik yo‘nalishning yetakchisiga aylandi. Hayotni, borliqni haqqoniy tasvirlashni ijodda asosiy mezon deb qabul qilgan shoir, ayni zamonda, qalam ahlini xalqchil mavzularni topishga, omma dili va intilishiga mos — «xalq tolib» asarlar yaratishga da‘vat etadi. Bu mezon va da‘vat quyidagi misralarda o‘z ifodasini topgan:

...Gar qilich boshimga ham kelsa degayman rostin!

...She‘ringizga xalq tolib o‘lsalar so‘ngra o‘qung!

Muqimiy 1887—88-yillarda birinchi, 1892-yil boshlarida esa ikkinchi marotaba ota shahri Toshkentga safar qilib, bu yerdagi ijod ahli bilan ijodiy uchrashuv — suhbatlar qurdi, shahar ijtimoiy va madaniy hayotida yuz bergan o‘zgarishlar bilan tanishdi. Ikkinchi safari vaqtida «Turkiston

viloyatining gazetasi» muharriri N.P.Ostroumov bilan uchrashgan. Shu gazeta sahifalarida 1891-yil oktabr oyida shoirning bir necha she'rlari mashhur hofiz Makaylik tilidan yozib olinib e'lon qilingan edi (keyinchalik, 1903 va 1907-yillarda ham gazeta Muqimiyning bir qator ishqiy va hajviy ruhdagi asarlarini e'lon qilgan). Shoirning Farg'ona vodiysi shaharlariga, Qo'qon atrofidagi qishloqlarga ham bir necha bor sayohatlar uyushtirgani uning qator asarlarida o'z izini qoldirgan.

XIX asr oxiri va XX asr boshlariga kelib shoirning salomatligi yomonlasha bordi. Jiyaniga yo'llagan maktublarida, besh-olti oylab betob yotganligini bildirib, «necha muddatlar bo'ladurkim, nazm ayturg'a tabiat lohasi erdim», deb yozadi. Shunday bo'lsa-da, Muqimiy umrining oxiriga qadar qalamini qo'ymagan.

«Turkiston viloyatining gazetasi» sahifalarida 1903-yilning yanvar va aprelida bosilgan «Ho'qandlik bir boyning sha'niga Muqimiy shoirning aytqon she'ridur» (15-yanvar) va dahshatli Andijon zilzilasi munosabati bilan yozilgan she'r-tarixi (22-aprel) shoirning ijtimoiy mavzudagi so'nggi yirik asarlari jumlasiga kiradi.

Ey tabib, aylanma, dardim bedavolardin biri,
Rangi zardim, ko'ru ko'rma, kahrabolardin biri —

misralari bilan boshlanuvchi muxammasda esa shoir hayotining so'nggi damlaridagi ruhiy kayfiyati ta'sirchan ifodasini topgan. Keltirilgan misralarda shoirning sariq kasaliga giriftor bo'lganligiga ishora bor. Xuddi shu dardi 1903-yil 25-mayda uni bu olamdan olib ketadi.

Muqimiy qoldirgan adabiy merosning katta bir qismini jozibador g'azallar, jo'shqin va sho'x murabbalar, dilkash muxammaslar tashkil etadi. Shoir lirikasining ham g'oyaviy, ham badiiy kamolotga erishuvida xalq og'zaki ijodi bilan bir qatorda ko'p asrlik she'riyatimizning, xususan, Lutfiy, Navoiy, Bobur, Mashrab, Amiriy kabi shoirlarning ijodi samarali ta'sir qildi. Muqimiy o'z lirikasida chin sevgini, sadoqat va vafodorlikni, insonni ko'rkamlashtiruvchi, uni ma'naviy go'zal etuvchi fazilatlarini ulug'ladi, bevafoqlik, subutsizlik, inson sha'niga dog' tushiruvchi xislatlarni qoraladi.

Muqimiy g'azal, murabba' va muxammaslarining yetakchi obrazi — lirik qahramon, avvalo, burch, vafo va sadoqat haqidagi ilg'or tushunchalarga ega bo'lgan sofdil, ma'naviy barkamol va ruhan boy shaxs

sifatida gavdalanadi. U shoirga zamondosh, aniq tarixiy shaxs, mustamlaka zulmi va zo'rvonlik hukmronlik bo'lgan davr farzandi, mehnatkash xalq vakili, uning na mol-u dunyosi, na amal-u mansabi bor. U raqib-u ag'yorlar tazyiqini, falak jabrini, charx zo'rvonligini o'zida doimo his etib, ruhan azoblanadi.

Muqimiy lirikasidagi shikoyat, norozilik, hayotdan bezish va tarkidun-yochilik da'vati emas, balki mohiyat-e'tibori bilan hayotsevarlikdan, farovon turmush va baxtli zamona haqidagi orzu-umidlaridan kelib chiqqan. Xuddi shuning uchun ham shoir hayot lazzatlaridan, do'st-u ulfat suhbatlaridan, sevgi va visol onlaridan bahramandlikka chaqiradi, ona tabiat go'zalliklaridan, bahor nashidasidan zavqlanishga undaydi. Bu fazilat shoirning:

Ey yaxshilar, kelaylik, bir joyga yig'ilaylik!
O'ynaylik, kuylaylik, omon bo'laylik!

va

Navbahor ochildi gullar, sabza bo'ldi bog'lar,
Suhbat aylaylik kelinglar, jo'ralar, o'rtog'lar!

baytlari bilan boshlanadigan mashhur g'azallarida to'la namoyon bo'lgan.

Muqimiy adabiyotimiz tarixidagi eng ko'p murabba' yozgan shoirlardan biri bo'lib, bu qadimiy turning rivojiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Shoirning murabbalarining barchasi ishq-muhabbat mavzusida. Xalq qo'shiqlari ruhida va o'ynoq vaznlarda yaratilgan murabbalar nihoyatda samimiy, sho'x va jo'shqin yangrab, o'quvchilarni o'ziga rom etadi. «Ey chehrasi tabonim», «Bir so'rmading, ey dilrabo, na bo'ldi?», «Emdi sendek, jono, jonon qaydadur!», «Tokim, jono, jilva bunyod aylading» misralari bilan boshlanuvchi murabbalar o'sha yaratilgan yillaridayoq hofizlar ijrosida Muqimiyga katta shuhrat keltirgan.

Shoir bir necha o'nlab muxammaslar ham yaratgan, ular orasida o'z mazmuni va ruhiga ko'ra sof ijtimoiy va satirik yo'nalishdagilari uchrasa ham, ko'pchiligi ishq-muhabbat mavzusidadir. Shoir merosida Navoiy, Jomiy, Fuzuliy, Amiriy g'azallariga, shuningdek, Furqat, Zavqiy, Nodim kabi zamondoshlari hamda o'z g'azallariga taxmislari ham ancha-muncha.

Muqimiy lirik shoir sifatida qanchalik mashhur bo'lgan bo'lsa, kuchli satirik sifatida ham xalq orasida shunchalik katta shuhrat qozongan.

Shoir bu tur asarlari uchun mavzu va timsollarni o'sha hayotdan olib, o'ziga yaxshi tanish voqea-hodisalarni tanqidiy tahlil etdi, o'sha davr ruhidan oziqlandi. Mashhur «Tanobchilar» satirasining yaratilishida Navoiy merosidan bahramand bo'lgan. Nihoyatda o'tkir «Hapalak qishlog'i haqida» hajviy muxammasi esa Maxmurning g'azaliga taxmisdur. Lekin, Muqimiy hajviyoti uchun «xomashyoni», avvalo chorizm o'ratgan mustamlakachilik tartibi, hukmron adolatsizlik va zo'raonlik, inson haq-huquqining toptalishi, chor va mahalliy amaldorlarning o'zboshimchaligi va shafqatsizligi, aldamchilik va axloqiy tubanliklar berdi. Mehnatkash omma, hunarmandlarning og'ir iqtisodiy ahvoli, mustamlaka zulmi ostidagi shahar-qishloqlarning vayronaga aylanishi, nochor shaxs taqdiri Muqimiy hajviyotida yetakchi o'rinni egallaydi.

Shoir o'zbek adabiyoti tarixida ijtimoiy-siyosiy hajviyotning asoschilaridan biri bo'lib maydonga chiqdi. Uning qator hajviyalarini shu yo'nalishning yetuk namunalari sirasiga qo'yish mumkin. «Tanobchilar», «Voqelai ko'r Ashurboy hoji», «Moskovchi boy» kabi hajviyalarida mustamlaka tuzumi uchun xos bo'lgan hayotiy mavzular — jamiyatdagi ijtimoiy tengsizlik, tabaqalanish, hukmron adolatsizlik kabi juda jiddiy masalalar tahlil etildiki, bu Muqimiy hajviyotining siyosiy yo'nalishi va g'oyaviy kamolotidan guvohlik beradi. Bu jihatdan Ashurboy Hojining og'ir jinoyati haqidagi hajviyadan shoirning jiddiy siyosiy umumlashtiruvchi xulosasi diqqatga sazovor:

Haqorat qilingan kishilar qolib,
Topib boy so'zi munda zo'r e'tibor.
Qachon kambag'alning so'zi o'tar?
Agar bo'lsa aqchang — so'zing zulfiqor.

Bu keskin misralar hukmron adolatsiz tuzumga berilgan qat'iy ayb-noma kabi jaranglaydi.

Jabrlanuvchi oddiy dehqon tilidan yozilgan «Tanobchilar» hajviyasida esa mavjud tuzumdagi ijtimoiy adolatsizlik, chor ma'murlar va mahalliy amaldorlarning o'zboshimchaliklari va zo'raonliklari, mustamlaka sharoitida soliq solish va undirib olish kabi hayotiy lavhalarda tarixan haqqoniy tasvirlangan.

Shoir merosidagi «Veksel», «Dar mazammati zamona», «Urug'», «Lyaxtin», «Dodxohim», «Asrorqul», «To'y» kabi hajviyalar muallifning

zamonadagi jiddiy ijtimoiy mavzularni tanqidiy ruhda tahlil etish masalasi-ga katta e'tibor berganligini tasdiqlaydi.

XIX asr oxirlari va XX asr boshlari milliy adabiyotimizda hajviy yo'nalishning rivojlanishida ham Muqimiyning ijodiy faoliyati va ta'siri juda katta bo'ldi. Shoir qo'lida kulgi qo'pol qahqaha yoki shunchaki xushchaqchaqlik, bachkana mutoyiba emas, balki, hayotdagi qoloq, taraqqiyotga to'siq g'ovlarni, shaxslar ongi va tabiatidagi ojizlik va salbiy belgilarni, xunuk fe'l-atvor va o'rinsiz xatti-harakatlarni qoralash, tanbeh berish, ogohlantirish vazifasini o'tagan.

Muqimiyning to'rt qismdan iborat «Sayohatnoma» asari muallifning safar hisoboti yoki tor shaxsiy kechinmalari majmuasi bo'lib qolmagan, aksincha, u o'sha mustamlaka tuzumi va ijtimoiy hayotning qator muhim muammolarini tanqidiy nazar bilan tahlil etuvchi badiiy asardir.

Xalqchil shoir o'sha mustamlaka tuzum ustidan: «Dunyo qurulg'on dor ekan!» — deya keskin hukm chiqardi. Bu bilan birga muallifning vatanparvarlik tuyg'ulari, ona yurtiga sadoqat va iftixor hislari aniq sezilib turadi.

FURQAT (1859–1909)

XIX asr 2-yarmi va XX asr boshlaridagi o'zbek xalqchil adabiyoti-ning yirik namoyandasi, ma'rifatparvar, lirik shoir, otashin publitsist Zokirjon Furqat Qo'qon shahrida, Mullo Xolmuhammad oilasida dunyoga kelgan. Bo'lajak shoirning otasi zamonasining ilg'or fikrli vakillaridan biri sifatida turli bilimlardan yaxshigina xabardor bo'lgan. Mullo Xolmuhammad xususan badiiy adabiyot muxlisi bo'lib, o'zi ham she'riy iqtidor sohibi edi. Zokirjon mahallasidagi maktabda tahsil ko'radi, ayni zamonda otasi yordamida mustaqil mutolaa orqali o'zbek va fors adabiyotining buyuk namoyandalari merosini, ayniqsa, Alisher Navoiy ijodini chuqur o'rganadi, forsiy tilni mukammal o'zlashtiradi. Yosh Zokirjon Navoiy asarlarini shu darajada berilib mutolaa qiladiki, o'zining guvohligiga ko'ra, buyuk shoir hatto uning tushiga ham kiradi va suhbat asnosida she'riyatdan imtihon qilib, ijodiy ish uchun «oq fotiha» beradi. Shu yo'sin u Navoiy duosidan ruhlanib bolalik yillardayoq qo'lga qalam oladi va umrining oxirigacha ijod bilan shug'ullanadi. Zokirjon o'zi yozgan tarjimaiy holida qayd etganidek,

to‘qqiz yoshidayoq qog‘oz sahifasiga quyidagi misralarni bitib, muallimining olqishlariga sazovor bo‘lgan:

Mening maktab aro buldur murodim,
Xatimdek chiqsa imlo-yu savodim.

Xushnavis kotiblar va mudarrislardan xattotlik san‘ati va arab tilidan saboqlar olgan Zokirjon 1873-yilda madrasaga kiradi. 1875–76-yillarda Qo‘qon xonligida yuz bergan qonli, siyosiy voqealar munosabati bilan madrasa yopilgach, yana mustaqil mutolaa va ijodiy ish bilan shug‘ullanadi. Yangi Marg‘ilonda savdo ishlarini yo‘lga qo‘ygan tog‘asining qis-toviga ko‘ra, u yerga borib yordamlashadi, keyinchalik o‘zi ham «choy va digar ashyolar savdosig‘a do‘kon» ochadi, samovarchilik, mirzolik qi-ladi. Bunday ijtimoiy faoliyat oddiy xalq vakillari hayoti va orzu-inti-lishlari bilan bevosita tanishish, mustamlaka tuzumi illatlarini chuqurroq his etish imkoniyatini beradi.

Zokirjon Yangi Marg‘ilonda ijodkor sifatida to‘la shakllandi, o‘z g‘azallariga «Furqat» — «ayriliq» taxallusini qo‘yib, shuhrat qozona boshladi. Mustamlakachi chor ma‘muriyati joylashgan xuddi shu yerda u ilk bor ovro‘pocha hayot tarzi, zamonaviy fan-texnika yangiliklari bilan tanishadi.

Saksoninchi yillar boshlarida Qo‘qonga qaytib, oila quradi va asosan ijodiy ish bilan shug‘ullanadi. Muqimiy va Muhyi yetakchi bo‘lgan Zav-qiy, Nodim, Nisbat, Muhayyir kabi ijodkorlar bilan bevosita muloqotga kirishadi, ular muntazam ravishda uyushtiradigan adabiy majlislarning, she‘riyat kechalarining faol ishtirokchilaridan biriga aylanadi. Bu yirik qalam sohiblari ijodida keyinchalik kamol topgan g‘oyaviy va adabiy birlik, ular dunyoqarashidagi umumiylik xuddi shu adabiy anjumanlarda shakllana borgan.

Furqatning Qo‘qondagi ijodi tur va mavzu, mazmun va shakl rang-barangligi jihatidan ham, sermahsulligi jihatidan ham diqqatga sazovor. U mumtoz she‘riyatimiz an‘analari ruhida ko‘plab ishqiy g‘azallar, muxam-maslar, Navoiy asarlariga go‘zal nazira va taqlidlar yaratdi, chuqur xalq-chillik va zamonaviylik uning she‘rlarida tobora keng o‘rin egallay boshla-di. Uning «Bo‘ldi» radifli muxammasida mavjud mustamlaka tuzumining illatlari, tobora keng quloq otayotgan o‘sha davr munosabatlarining sal-biy oqibatlarini badiiy ifodasini topgan.

Qo‘qon xonligining uzil-kesil tugatilib, batamom mustamlakaga aylantirilishi voqeasi bilan bog‘liq «Demish xon bir kunikim, davr-u davronlar qayon qoldi?» misrasi bilan boshlanuvchi muxammasi ham Furqatning shu davr ijodining mahsulidir. Toj-u taxtdan, sha‘n-u shavkat va a‘yonlaridan mahrum bo‘lgan Xudoyorxon nomidan bitilgan bu asar ham shoir ijodida zamonaviy ijtimoiy mavzuning keng o‘rnini isbotlovchi dailillardandir.

O‘zining guvohlik berishicha, Furqat xuddi shu yillarda «Hammomi xayol» risolasini yaratib, «Chor darvesh» hikoyatini forschadan tarjima qiladi. «Nuh manzar» nomli she‘riy kitob yaratadi.

«Bulardin bo‘lak har xil g‘azaliyotim Farg‘ona muzofotig‘a (ya‘ni, yon-atrof qishloq-shaharlariga) va digar mamlakatlarga muntashir (mashhur) bo‘ldi», deb yozadi shoirning o‘zi tabiiy g‘urur bilan. Xuddi shu yillarda shoir ilk bor she‘rlarini to‘plab majmua holiga ham keltirgan. Afsuski, shoirning o‘zi qayd etgan risola, manzuma va tarjimalari kabi bu majmua ham shu kunga qadar topilgan emas.

Furqat taxminan 1886–87-yillarda Marg‘ilonga borib, asosan she‘riyat bilan band bo‘ldi, shaharning ziyolilari Xo‘jajon Rojij, Muhammad Umar Umidij — Havoij, Mulla Toshboltu Royiq kabi ijodkorlar bilan tanishib, adabiy suhbatlar qurdi. Shu yerda u ilk bor gazeta bilan tanishib, uning «Toshkent shahrida bosma bo‘lg‘on»ligini biladi.

Furqat 1889-yili avvalida o‘lkaning bosh shahri Toshkent safariga chiqib, Qo‘qon orqali Xo‘jandga keladi. Bu qadimiy madaniy shaharda Toshxo‘ja Asirij boshliq mahallij ijodkorlar, adabiyot muxlisari bilan uchrashuvlar, mushoiralar uyushtirgan Furqat, ayni zamonda shahar aholisining yashash sharoiti, kundalik hayoti, rasm-rusumlari bilan yaqindan tanishadi.

1889-yilning iyuni o‘rtalarida (hijriy 1306-yil shavvol oyi) Furqat Toshkentga kelib, Ko‘kaldosh madrasasi hujralaridan biriga joylashadi. Odatiga ko‘ra, bu yerda ham mahallij ziyolilar bilan tez muloqotga kirishadi, adabij hayotda ko‘rinarli mavqega ko‘tarila boradi.

Furqat g‘azal va muxammaslarida ijtimoiy ohanglar ham ko‘rinarli o‘rin tutadi. Mustamlaka tuzumining illatlarini qoralash, jorij adolatsizlik va zo‘ravonlikdan, huquqsizlik va nochor hayotdan, nodonlarning zamonda e‘tibor topib, donolarning, halol kishilarning xor-zor etilishidan norozilik badiij bo‘yoqlarda qat‘ij jaranglaydi:

Charxi kajraftorning bir shevasidan dog'men,
Ayshni nodon surub, kulfatni dono tortadur.
Sarig' oltun kasrati ko'ngulni aylaydur qaro,
Chunki safro bo'lsa g'olib, o'zga savdo tortadur.

Mashhur «Sayding qo'yaver, sayyod» musaddasida esa Furqat chor bosqinchilari mustamlakasiga aylangan o'lkadagi hukmron zo'ravonlikka qarshi inson sharafi va g'ururini ulug'laydi. Butun musaddas misralari zaminida insonparvar va erksevar shoirning zulm o'tkazuvchilarga qarshi qat'iy norozilik ovozi jaranglab turadi.

Furqat hayotining Toshkent davri uning dunyoqarashi takomilida katta ahamiyat kasb etdi. Chor mustamlakachilik ma'muriyatining markaziga aylantirilgan Toshkentda shoir kundan kunga kirib kelayotgan ovro'pocha hayot tarzi bilan bevosita tanishish imkoniyatiga ega bo'ldi. Yangi tarixiy sharoitda moddiy-madaniy hayot va ijtimoiy ongda yuz bergan sezilarli o'zgarishlarni mushohada etish, yaqin o'tgan davr bilan taqqoslash natijasida Furqat dunyoqarashida jiddiy sifat o'zgarishi yuz beradi. Eng muhimi shundaki, bu hol uning ijodida o'z badiiy ifodasini topdi — ma'rifatparvarlik, ovro'pocha ilm-madaniyat, fan-texnikaga xayrixohlik shoir asarlarining g'oyaviy mohiyatiga aylana bordi. Bu esa Furqatning ko'p asrlik adabiyotimizga yangi mavzular, yangi g'oyaviy ohanglar olib kiritishiga, chin ma'noda novator ijodkor sifatida qalam tebratishiga zamin bo'ldi. Endiliqda Furqat zamonaviy maorif va madaniyatning yangicha qarash, fikrlash va yangicha hayot kechirishning jonkuyar targ'ibotchisiga aylandi. Shu tariqa ijodiy, ilmiy va ijtimoiy faoliyatining eng qizg'in, jangovar va eng mazmundor bosqichi boshlandi. Shoir nihoyat faollashdi, ilg'or g'oyalarning targ'ibotida gazetadan unumli foydalanish mumkinligini yaxshi tushundi va tez orada «Turkiston viloyatining gazetasi» hay'atiga rasman ishg'a joylashdi.

1890-yilning may, iyul va sentabr oylarida «Ilm xosiyati», «Akt majlisi xususida», «Toshkent shahrida bo'lg'on nag'ma bazmi xususida», shuningdek, uch qismdan iborat «Vistavka xususida» kabi davr adabiyotidagi ma'rifatparvarlik yo'nalishining yetuk namunalari darajasida bo'lgan asarlari shu gazeta sahifalarida dunyo yuzini ko'rdi.

Bu turkum asarlarida Furqat yangilik va taraqqiyotning, ilm-fan va ovro'pocha maorif-madaniyatning otashin jarchisi sifatida namoyon bo'ladi,

o'z vatandoshlarini zamonaviy bilimlarni puxta egallashga va ilg'or xalqlar qatoridan o'rin olishga da'vat etadi. Shoir bitgan misralar nihoyatda jo'shqin va ta'sirchan, ulardagi xitob, hayqiriq har bir o'quvchi diliga ko'chib, uni befarq qoldirmaydi:

Jahon bastu kushodi — ilm birla!
Nadur dilni murodi — ilm birla!
Ko'ngullarni sururi — ilmdandur!
Ko'rar ko'zlarni nuri — ilmdandur!
Kerak har ilmdan bo'lmak xabardor!
Bo'lur har qaysi o'z vaqtida darkor!

Furqat xuddi shu yillarda yaratilgan «Shoir ahvoli va she'r mubolag'asi xususida» deb nomlangan asarida ijodkor va badiiy adabiyot muammolarini qalamga oladi.

Zokirjon Furqat haqli ravishda o'zbek publitsistikasining asoschilaridan biri hisoblanadi. Uning otashin publitsist sifatidagi faoliyati 1890-yildan boshlanadi. «Turkiston viloyatining gazetasi» xodimi sifatida u bir yildan ko'proq vaqt davomida Sattorxon kabi ilg'or ma'rifatparvarlar bilan hamkorlikda gazetani tayyorlashda bevosita qatnashib, gazeta sahifalarida o'z maqolalarini e'lon qiladi. Jumladan, gazetaning 1891-yilning yanvar—iyun sonlarida «Ho'qandlik shoir Zokirjon Furqatning ahvoli. O'zi yozg'oni» nomli kattagina nasriy asarini nashr eta boshladi. Shoir dunyoqarashi va ijtimoiy-ijodiy faoliyatini belgilashda favqulodda ahamiyatga ega bo'lgan bu asar, ayni zamonda, endigina shakllanayotgan o'zbek publitsistikasining yorqin namunasi sifatida ham katta qimmatga egadir.

Furqatning Toshkentdagi faoliyati uzoqqa cho'zilmadi. U 1891-yil mayida Samarqandga jo'naydi, shahar fozillaridan Mirzo Buxoriy hovlisida yashab, qadimiy obidalar bilan tanishadi, gazetaga xabarlar yo'llaydi. So'ngra Buxoroga o'tadi. Iyul oyi oxirlarida esa chet el sayohatiga chiqib, Marv—Ashxobod—Boku—Botumi orqali noyabr oyida Istanbulga boradi. Shu tariqa shoir hayoti, dunyoqarashi va ijodida chuqur iz qoldirgan vatanjudolik boshlanadi. Istanbuldan Toshkentga yo'llagan mashhur «Sabog'a xitob» she'riy maktubi Vatan ishtiyoqi, sog'inchi, ayriliq azob-lari va yolg'izlik ohanglari shoir ijodida endilikda oldingi o'ringa ko'tarilganini ko'rsatadi. Furqat Istanbuldan Bulg'oriya va Yunonistonga qisqa

muddatli sayohat uyushtirib, Bolqon yarimorolining qator shaharlarida bo'ladi. Shu kezlarda yaratilgan «Rumolik qiz hikoyati» («Yunon mulkida bir afsona»)da vatanni qo'msash, unga talpinish mavzusi romantik-sarguzasht bo'yoqlarida juda ta'sirchan ifodalangan.

Furqat 1892-yil martida Istanbuldan O'rta dengiz orqali Arabistonga o'tib, Makkada haj ziyoratini bajo aylab, Jidda, Madina shaharlarida bo'ldi. Xuddi shu ziyorat munosabati bilan uning «Hajnoma» asari maydonga keladi. Makka ziyoratini tugatgach, Furqat Mumbayga kelib, Hindistonning qator qishloq-shaharlariga sayohatlar uyushtiradi. Shoirning bu davrda yaratgan barcha asarlarida nasriy va nazmiy maktublarida ona yurt sog'inchi va vatanparvarlik g'oyalari yetakchilik qildi. Bu jihatdan, ayniqsa, «Adashganman» radifli lirik she'rlar turkumi alohida ajralib turadi. Hatto, shu yillarda bitilgan «Kashmirda», «Bulbul» deb yuritiluvchi «sof» lirik g'azallarida ham Vatanni qo'msash mavzusi ko'zga aniq-ravshan tashlanadi. Furqat 1893-yili martida Kashmir-Tibet orqali uyg'ur o'lkasiga keladi. Yorkentda turg'un bo'lib qoladi.

Furqat doimo Vatanga qaytish umidi bilan yashadiki, bu intilish uning qator badiiy asarlarida, xat-xabarlarida ham u yoki bu darajada o'z ifodasini topgan. «Vatanning ishtiyoqini tortaram g'urbat g'ami bilan», deb yozgan shoir umrining so'nggi kunlariga qadar o'z yurtiga qaytish ilinjida yashadi, shu bois uning fuqaroligidan chiqmadi.

Furqat Yorkentda dorivor o'simliklar bilan savdo qiluvchi kichik do'kon ochadi. Asosan esa ijodiy ish va xattotlik bilan shug'ullanadi. Shoirning o'z ma'lumotlariga ko'ra, chet el sayohatiga chiqqani hamonoq yozishga kirishgan «Sayohatnoma» asari ustida ko'p ishlagan. Ammo hajman kattagina deb taxmin etiluvchi bu asar hanuzgacha topilmagan. Furqat Yorkentda ko'plab lirik g'azal va muxammaslar qatorida ijtimoiy-siyosiy mavzularda ham masnaviyalar yaratdi. «Masarratnoma», «Qasida» asarlari, shuningdek, rus-yapon urushi munosabati bilan yozgan masnaviyasi xuddi shu turkum jumlasiga kiradi.

Shoir ona yurti bilan, Farg'ona va Toshkentdagi yor-u do'stlari bilan aloqani kanda qilmadi. Zavqiy, Toshbolto kabi ijodkor do'stlariga she'riy maktublar, «Turkiston viloyatining gazetisi»ga xat va maqola-xabarlar yuborib turdi. U xuddi shu yillarda milliy adabiyotimizda pamflet va felyeton kabi jangovar turlarning ilk namunalarini yaratib, gazeta sahifalarida e'lon etdi. Furqatning adabiyotimiz tarixida ikki tillik ijodkor

sifatida ham o'z o'rnini bor. Uning forsiy tilda bitilgan ishqiy va ijtimoiy mazmundagi ko'plab g'azallari o'zining yuksak badiiyligi bilan o'quvchilar dilidan mustahkam o'rin olgan.

Mazmunan hayotiy va badiiy barkamol lirikasi, ma'rifatparvarlik yo'nalishidagi yetuk asarlari bilan, jozibali nasri va jangovar publitsistikasi bilan XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi milliy adabiyotimiz rivojiga ulkan hissa qo'shgan Zokirjon Furqat 1909-yilda og'ir kasallikdan so'ng vafot etdi. Uning jasi Yorkentning Dongdor mahallasidagi qabristonga qo'yilgan.

ZAVQIY (1853–1921)

Zavqiy – XIX asr 2-yarmi va XX asrning 1-choragida yashab ijod etgan yirik ijodkorlardan biridir. Zavqiy taxallusi bilan shuhrat qozongan Ubaydullo Qo'qon shahrida Usta Solih maxsido'z oilasida tug'ildi. Yoshligidanoq Usta Solih uning tarbiyasiga jiddiy ahamiyat beradi, moddiy qiyinchiliklarga qaramay avval mahalliy maktabda, so'ng Madrasai Oliy va Madrasai Chalpakda o'qitadi.

Madrasa ta'limi va shaxsiy tinimsiz mutolaa Ubaydullo iste'dodining kamol topishida, fors va arab tillarini egallashida, Sharq adabiyotining buyuk namoyandalari ijodiy meroslarini chuqur o'rganishida mustahkam zamin bo'ladi. Madrasada o'qib yurgan davrida birinchi she'riy mashqlarini yozgan Zavqiy tez orada Qo'qon adabiy muhitining Muqimiy, Muhyi, Furqat kabi ilg'or shoirlari davrasiga kelib qo'shildi, ular bilan mustahkam ijodiy hamkorlik o'rnatdi.

Zavqiy umrining oxiriga qadar maxsido'zlik hunarini tashlamadi. Avvaliga madrasa hujralaridan birida, keyinchalik bozor rastasida ochgan kichik do'konida kosibchilik bilan ota-onasiga qarashdi, o'z oilasini tebratdi. Bu hunar ayni zamonda Zavqiyning mehnatkash xalq bilan doimo hamnafas yashab, oddiy kishilarning turmush sharoiti va orzu-intilishlaridan bevosita xabardor bo'lishida juda qo'l kelgan.

Zavqiy XIX asrning 70–80-yillaridayoq xalqchil shoir sifatida uzilkesil shakllanib, davr adabiy hayotida ko'rinarli o'rin egalladi, she'riyat muxlislari orasida shuhrat topdi. O'z ijodiy faoliyatini ishqiy g'azal, mu-

xammaslar yozishdan boshlagan Zavqiy tez orada ijtimoiy mavzularda, davrning dolzarb muammolariga diqqatini qaratdi, mehnatkash xalq hayotidan, shahar va qishloqning ezilgan tabaqasi turmushidan lavhalarini badiiy tahlil etishga kirishdi. Mustamlaka voqeligiga va ijtimoiy hayotdagi salbiy hodisalarga tanqidiy baho-yondoshuv, shaxslar faoliyati va tabiatidagi yaramaslik, pastkashlik, nopoklik, firibgarlik kabi belgilariga hajviy munosabat shoir asarlarining yetakchi g'oyaviy mazmuni darajasiga ko'tarildi. Davr milliy adabiyotimizda Muqimiy bosh bo'lgan hajviy yo'nalishning keng taraqqiy topishida ko'plab hajviy asarlar yozgan Zavqiyning xizmatlari juda katta bo'ldi.

Shoirning ijtimoiy mavzudagi va hajviy ruhdagi qator asarlarida cho'mustamlakasiga aylantirilgan o'lka hayotining eng dolzarb muammolari jumladan, mavjud jamiyatdagi insoniy haq-huquq va moddiy boyliklarga egalik jihatidan keskin tabaqalanish mavjudligi hamda uning oqibatlar haqida jiddiy mulohazalar, qat'iy xulosalar bayon etiladiki, bunday asarlar davr adabiyotimizda yangilik bo'ldi.

«Zamona kimniki» deb yuritiluvchi muxammasida Zavqiy ilg'or ijtimoiy-siyosiy qarashlarini badiiy yuksak misralarda nihoyatda ta'sirchar va keskin bayon etadi. Chor mustamlakasi ma'muriyati va mahalliy zo'raonlar hukmron bo'lgan mavjud tuzumda shoirning qat'iy fikricha:

...Davlatu izzu sharaflar mardi bodunyoniki!

...Bu zamona g'arch kavush kiygan silliq salloniki!

...Davru davron hama joyda hokimu mirzoniki!

Xuddi shu muxammasda shoir «Xoh kosib, xoh dehqon qayg'ar borsa bag'ri qon!», «Bekas-u bechora so'ziga kishi bermas javob. Shu sababdan beva-yu bechoralar bag'ri kabob!» deya jamiyatdagi ezilgan tabaqaning ayanchli hayotini haqqoniy tasvirlaydi.

Mustamlaka etilgan jamiyatdagi hukmron adolatsizlikni haqqoniy tasvirlash mavzusi Zavqiyning yana bir nechta she'rlarida ham («Kajdo: zamona», «Ajab zamona», «Abdurahmon shayton» va boshqalar) xudd shunday xalqchil ruhda tahlil etilgan.

Zavqiyning «Muncha ko'p» radifli hamda «Ajab zamonadur, ahhob bosh qotib qoldi» misrasi bilan boshlanuvchi muxammaslari XIX as boshlari she'riyatimizdagi eng o'tkir ijtimoiy asarlar jumlasiga kiradi.

Zamonasidagi adolatsizlik, huquqsizlik, mashaqqatli hayot xalqchil shoir qalbini larzaga soladi, xususan, mehnat ahlining cheksiz azob-uqubatga, kulfat-xorlikka mahkum etilganligidan qat'iy norozilik tig'day o'tkir misralardan o'quvchi ongiga ko'chadi, unda ham o'sha tuzumga nisbatan nafrat, o'sha nochor ommaga nisbatan achinish va xayrixohlik tuyg'ularini shakllantiradi.

Ta'kidlash lozimki, «Muncha ko'p!» radifli muxammasida savol ohangidan ko'ra qat'iy tasdiq, xitob ohangi ustivor:

Zolim falak bisotida ozor muncha ko'p!
Inson sharaflı nomida xor muncha ko'p!
Har ko'chalarda qashshoq ila zor muncha ko'p!
Tarxi jahon binosida badkor muncha ko'p!
Ho'qand aro baloga giriftor muncha ko'p!

Zavqiy ijodiy merosida qishloqlar holati, dehqon ahli hayoti mavzusi ham katta o'rin tutadi. Bu aslo bejiz emas. Gap shundaki, Zavqiy Farg'ona vodiysi bo'ylab yakka o'zi, ba'zan esa Muqimiy bilan hamrohlikda bir necha bor sayohatlar uyushtiradi. Bunday safarlar qishloqning ahvoli, dehqon ahli turmushi bilan, ularning og'ir mehnatlari va nochor kun kechirishlari bilan yaqindan tanishish imkoniyatini bergan. Bu taassurotlar esa Zavqiyning qator asarlarida o'zining badiiy ifodasini topgan.

Bu turkumda «qish-u yoz, kecha-yu kunduz mehnatda kuyib ishlayotgan», «g'amli kuyuk kulchasini ham umrida to'yib yemagan», «oriq, rangi sariq, qorni ochlikdan shishgan» dehqonlarning ayanchli turmushlari ularga to'la xayrixohlik, hamdardlik ruhida kuchli achinish bilan tasvirlangan. «Yangiqo'rg'on qishlog'i», «Suv janjali», «Shohimardon sayohati» she'rlari shu turkumga kiradi.

1898-yilda uyushtirilgan ana shunday sayohati chog'ida Zavqiy Andijon qo'zg'olonini bostirish bahonasida chor ma'muriyatining butun xalq boshiga balolar keltirib, ayovsiz jazo choralari ko'rganiga, qanchadan qancha kishilarni dorga osib, ta'qib-tazyiqni kuchaytirganiga, ko'plab qishloqlarni to'pga tutib yer bilan yakson qilganiga jonli guvoh bo'ldi. Xuddi shu taassurotning badiiy mevasi sifatida «Eshon» radifli she'r maydonga keldi.

Shoir bu xalq qo'zg'olonining asl mohiyatini, uning asosiy maqsadini to'g'ri tushuna olmadi. Samimiy kuyunch bilan «Qancha odam o'ldilar,

ko'p xalq bo'ldilar asir!» deb yozgan Zavqiyi birinchi galda mustamlaka ma'muriyati ko'rgan jazo tadbirlari oqibatida oddiy xalq ahvolining yanada og'ir bo'lganligi, qishloq-shaharlarning esa xonavayron etilgani («Xonavayron bo'ldi bir ming manzilu ma'vo!») larzaga soladi. Taassufki, Zavqiy bularning hammasiga xalq qo'zg'olonining rahbarini aybdor deb biladi.

Shu munosabat bilan Zavqiy tarjimai holi va ijodining hali to'la o'rganilmagan sahifalari ham oz emasligini aytib o'tish o'rinli. Katta ijod yo'lini bosib o'tgan shoirning adabiy merosi afsuski, hanuz to'la aniqlanib to'planmagan. Uning o'z asarlarini devon holiga keltirgani to'g'risida og'zaki ma'lumotlar uchraydi, ammo bu devon ilmga ma'lum emas. Jiddiy ijtimoiy-siyosiy voqealar silsilasi yuz bergan murakkab davrda yashab ijod etgan shoirning dunyoqarashida va unga to'la muvofiq holda ijodiy merosida esa ziddiyatli o'rinlar oz emas.

1900-yil avvalida Zavqiy haj safariga otlangan tog'asi Muhammad Siddiqqa hamroh bo'lib bir necha mamlakatlarni bosib, Makka va Madinani ziyorat qiladi. Uning taassuroti «Hujjoji Makka ahliga chunu charo demang» misrasi bilan boshlanuvchi she'rida o'z badiiy ifodasini topgan. Zavqiyning asrimiz boshlarida yaratgan ijtimoiy yo'nalishdagi asarlari jumlasidan «Voqeai qozi saylov» deb nomlangan hajman kattagina masnaviysi alohida diqqatga sazovor. Xalqchil shoir mustamlaka ma'muriyatining qattiq nazorati ostida o'tkaziladigan qalbaki «saylov»larning puch mohiyatini, undagi poraxo'rlik va hiyla-nayranglarni, shuningdek, (saylanuvchi) shaxslarning jirkanch basharalarini, iflos qilmishlarini o'quvchi ko'zi oldida ishonarli fosh etadi.

Qahatlik bo'ldi bu Farg'onamizda,
Topilmas parcha non vayronamizda —

bayti bilan boshlanuvchi masnaviyda esa Birinchi jahon urushi tufayli mustamlakalardagi og'ir hayot yanada ayanchli bir holga kelgani, ochlik va vabo kasalining mehnatkash omma boshiga yangi-yangi kulfatlar solgani haqqoniy bo'yoqlarda tasvirlangan. Bu asar xalq harakatlari kabi ijtimoiy-siyosiy mavzuning to'la xalqchil ruhda yoritish bobida Zavqiy katta yutuqlarga erishganini isbotlovchi hujjatdir. Shoir dunyoqarashidagi bunday g'oyalarning qat'iy shakllanishida asrimiz boshlarida milliy ozodlik g'oyalarini, ilm-ma'rifat targ'ibotini bayroq qilib ko'targan jadidchilik harakatining ta'siri beqiyosdir. Jadidchilik g'oyalarini to'la qabul qilgan shoir

o'z amaliy-ijtimoiy faoliyati bilan ham ilm-ma'rifatni, yangi usuldagi maktab-maorifni targ'ib qildi, fan-texnikani egallashga, zamona bilan hamqadam bo'lishga da'vat etdi. Bu jihatdan shoirning «Fursat g'animat, ahbob, millatga ko'z ochaylik» misrasi bilan boshlanuvchi muxammasi alohida diqqatga sazovor.

1916-yilda yozilgan deb taxmin etilgan «Ajab ermas» radifli muxammas, faqat Zavqiy ijodida emas, balki XX asr boshlaridagi butun o'zbek ijtimoiy-siyosiy she'riyatida katta hodisa bo'ldi. Bunda shoir mustamlaka asorati ostida ezilayotgan ona yurtning kulfatli kunlari unut bo'lishi haqida so'z ochadi, og'ir iqtisodiy hayot kechirayotgan xalqning baxtli taqdiri haqida, bo'lajak katta ijtimoiy o'zgarishlar xususida bashorat qiladi.

O'tib bir qarn aqronim jahon obod ko'rgaysiz!

Jahon ahlini zolim zulmidan ozod ko'rgaysiz!

Giriftori alam ermas — hammani shod ko'rgaysiz!

Ubaydullo Zavqiy adabiyotimiz tarixidan faqat ijtimoiy-siyosiy va hajviy she'rlar muallifi sifatidagina emas, balki, ayni zamonda, iste'dodli hajvchi va nozik did lirik ijodkor sifatida ham o'rin olgan. Uning turmush ikir-chikirlari, kundalik hayotda uchrovchi nosozliklar va kishilar tabiatidagi salbiy odatlar ustidan beg'araz kulgi, yengil masxara qo'zg'ovchi, iliqlik tabassum va shirin hazil bilan qorishliq «Ta'rifi kalish», «Otim», «Fonus», «Sigirim», «Pashshalar» kabi hajviyalari o'quvchilarda yaxshi kayfiyat, quvnoqlik uyg'otadi, ayni zamonda ziyraklikka undaydi.

Zavqiy yaratgan ishqiy g'azal va muxammaslarning ko'pchiligi esa o'sha davrdayoq hofizlar ijrosida xalq qo'shiqlari qatorida katta shuhrat tutgan. Xususan, «Yuzungni qo'rsatib avval o'zingga bandalar qilding», «Yor kelur zamona yo'q, kelmasa-kelmasin, netay?», «Kulbam aro, ey maxliqo, bir yo'l xirom aylab keling» misralari bilan boshlanuvchi asarlari hayot shavqi va go'zalliklaridan bahramandlikka undaydi, sevgi-sadoqatni ulug'laydi, insoniy his-tuyg'ularni, nozik kechinmalarni nihoyatda ta'sirchan tarzda ravshan ifodalaydi.

«Farg'ona adabiy muhitida kamol topgan Muqimiy, Furqat, Zavqiy... kabi ulug' ma'rifatchilarning millatimiz ma'naviy xazinasiga qo'shgan hissalar ham beqiyosdir» (Islom Karimov).

M u n d a r i j a

Nashriyotdan.....	3
IX asr va XX asr boshida madaniyat rivoji tarixidan – M.M.Xayrullayev	5

IX–XII asrlar

Muhammad Xorazmiy – A. Ahmedov	34
Ahmad Fargʻoniy – A. Ahmedov	43
Ahmad as-Sagʻoniy – B. Abdulhalimov	49
Imom al-Buxoriy – U. Uvatov	51
Abu Iso Muhammad at-Termiziy – U. Uvatov	55
Abu Nasr Forobiy – M.M.Xayrullayev	59
Abu Bakr Narshaxiy – A. Oʻrinboyev	69
Qaffol ash-Shoshiy – A. Irisov	72
Abu Mansur al-Moturidiy – Sh.Yu.Ziyotov	76
Abu Bakr al-Xorazmiy – I. Elmurodov	79
Abu Abdulloh al-Xorazmiy – O.M.Bahodirov	82
Abu Ali ibn Sino – M.M.Xayrullayev	87
Abu Rayhon Beruniy – A. Sharipov	95
Abu Abdulloh Rudakiy – M.B.Baratov	102
Nosir Xisrav – M. Boltayev	104
Yusuf Xos Hojib – M. Imomnazarov	111
Mahmud Koshgʻariy – M. Imomnazarov	117
Abu al-Muʻiyn an-Nasafiy – U. Uvatov	123
Mahmud az-Zamaxshariy – U. Uvatov	125
Ismoil Jurjoniyy – M. Qodirov	131
Mahmud Chagʻminiyy – M. Qodirov	136
Burhonuddin al-Margʻinoniy – O. Qoriyev	139
Ahmad Yassaviy – O. Usmonov	142
Adib Ahmad Yugnakiy – M. Imomnazarov	145
Najmiddin Kubro – M. Qodirov	150

XIV asrning 2-yarmi – XV asr

Amir Temur	156
Bahouddin Naqshband – O. Usmonov	164
Shohrux Mirzo – T. Fayziyev	166
Mirzo Ulugʻbek – A. Ahmedov	169
Taftazoniy – M. Qodirov	178
Jurjoniyy – M. Qodirov	181
Qozizoda Rumiy – A. Ahmedov	185
Gʻiyosiddin al-Koshiy – D. Yusupova	190

Ali Qushchi – A. Ahmedov	193
Ya'qub Charxiy – M. Hasanov, O. Bo'riyev	199
Xoja Muhammad Porso – O. Bo'riyev, M. Hasanov	201
Xoja Ahror – A. O'rinboyev	205
Sakkokiy – Q. Munirov	210
Lutfiy – S. Erkinov	213
Abdurahmon Jomiy – A. Hayitmetov	219
Alisher Navoiy – M. Imomnazarov	228
Davlatshoh Samarqandiy – D. Yusupova	234
Husayn Boyqaro – T. Fayziyev	238
Jaloliddin Davoniy – H. Aliqulov	241
Husayn Voiz Koshifiy – R. Mahmudov	244
Kamoliddin Behzod – O. Usmonov	248
Nizomiddin Shomiy – A. O'rinboyev	253
Sharafiddin Ali Yazdiy – A. O'rinboyev	257
Abdurazzoq Samarqandiy – A. O'rinboyev	262
Mirxond – D. Yusupova	265
Xondamir – D. Yusupova	267
Zahiriddin Muhammad Bobur – S. Azimjonova, D. Valiyeva	272

XVI–XIX asrning 1-yarmi

Maxdumi A'zam – B. Bobojonov	277
Muhammad Shayboniyxon – R. Mukminova	282
Podshoxoja – H. Aliqulov, S. G'oziyev	285
Mirzo Muhammad Haydar Dug'lot – A. O'rinboyev	288
Turdi Farog'iy – A. Hayitmetov	294
Boborahim Mashrab – A. Abdug'afurov	299
So'fiy Olloyor – I. Suvonqulov, M. Qodirov	306
Maxtumquli – S. Erkinov	309
Uvaysiy – M. Qodirova	313
Nodira – M. Qodirova	316
Maxmur – A. Abdug'afurov	322
Munis Xorazmiy – Q. Munirov	326
Ogahiy – M. Safarboyev	330
Komil Xorazmiy – F. Qobulov	333

XIX asrning 2-yarmi – XX asr boshi

Ahmad Donish – H. Vohidov, M. Xayrullayev	337
Berdaq – H. Aliqulov, U. Xudoyberganova	340
Abay – Q. Seydanov	343
Muhammad Rahimxon II – Feruz – N. Qobulov	345
Muqimiy – A. Abdug'afurov	349
I'urqat – A. Abdug'afurov	355
Zavqiy – A. Abdug'afurov	361


MA'NAVIYAT YULDUZLARI

«O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»
Davlat ilmiy nashriyoti

Toshkent, 129. Navoiy ko'chasi, 30-uy.

E-mail uzme@ensiklopediya.uz.

Nashriyot sayti: www.ensiklopediya.uz.



Muharrir
Badiiy muharrir
Dizayner-rassom
Operatorlar

F. Hasanov
A. Burxonov
A. Yoqubjonov
M. Abdullayeva,
D. Valiyeva,
D. Hasanova

2011.10.10 da bosishga ruxsat etildi. Qog'oz bichimi
60 x 90 $\frac{1}{16}$. Ofset qog'ozda bosildi. 23,0 shartli bosma taboq.
25,35 nashriyot-hisob tabog'i. Adadi 5000 nusxa.
Bahosi shartnoma asosida. 192–11-buyurtma.

«O'zbekiston milliy ensiklopediyasi»
Davlat ilmiy nashriyoti dizayn va kompyuter bo'limida sahifalandi.

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining
«O'qituvchi» nashriyot-matbaa ijodiy uyi korxonasida bosildi.
Toshkent, 700194, Yangishahar ko'chasi, 1-uy.



ISBN 978-9943-07-153-7



9 789943 071537